

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

DENOV TADBIRKODLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

NAZIROV BAXTIYOR SAFAROVICH

**YANGI VA ENG YANGI ZAMON DAVRI
XALQARO MUNOSABATLAR TARIXI**

(darslik)

“Bekshox print servis” nashriyoti
Termiz – 2024

UDK 32:327:327,7
X 68.3

B.S.Nazirov

Yangi va eng yangi zamon davri xalqaro munosabatlar tarixi). Darslik – “Bekshox print servis” nashriyoti. – Termiz: 2024. – 511 bet.

Oliy o‘quv yurtlari 70220301-Tarix (yo‘nalishlar va faoliyat turi bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi magistratura talabalari uchun mo‘ljallangan ushbu “Yangi va eng yangi zamon davri xalqaro munosabatlar tarixi” darsligi XVII asrdan to bugungi kunga qadar bo‘lgan davrda davlatlararo siyosiy va diplomatik aloqalar tarixini qamrab olgan. O‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining “Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimi uchun o‘quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konsepsiyasi”da ilgari surilgan talablarga mos ravishda tayyorlangan.

Mazkur darslik mustaqillik yillarida olib borilgan tadqiqotlarning umume’tirof etilgan natijalari bilan boyitilganligi, fan bo‘yicha innovatsiyalarni o‘quv jarayoniga joriy etilganligi bilan ilgari o‘quv adabiyotlaridan farq qiladi. Darslik oqrali kitobxon yangi va eng yangi zamon davrida xalqaro munosabatlarning o‘ziga xos tomonlarini hamda rivojlanib borish tendensiyalarini bilib olishingiz mumkin.

Taqrizchilar: *t.f.d. T.R.Pardayev – Termiz davlat universiteti professori*

t.f.n. M.Qurbonova – Buxoro davlat universiteti dotsenti.

Darslik O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan nashrga tavsiya etilgan. (2024-yil “04” martdagi “55”-sonli buyruq)



“Bekshox print servis” nashriyoti, 2024

KIRISH

Mamlakatimizda oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilashda zamonaviy bilimga ega yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini yanada takomillashtirish, oliy ta'lim sifatini tubdan oshirish muhim ahamiyatga ega. Shu bois yoshlarimizni istiqloq g'oyalari ruhida tarbiyalashga ko'maklashadigan boy tariximizni, ma'naviy qadriyatlarimizni aks ettiradigan zamonaviy o'quv qo'llanma va darsliklar katta o'rin tutadi. Bu borada Yangi va eng yangi zamon davri xalqaro munosabatlar tarixini o'rganishga xolis, haqqoniy yondashib, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda, bu fanni o'qitish uslubiyatini takomillashtirish o'z dolzarbligi bilan ajralib turadi.

Yurtimizda yuksak bilimli, ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Ilm-fan taraqqiyotini ta'minlash borasida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va mazkur sohada erishilgan yutuqlar hozirgi kunda xalqaro hamjamiyat tomonidan haqli tarzda e'tirof etilmoqda. Shubhasiz, yangi avlod o'quv adabiyotlari ham yuqorida ta'kidlangan mulohazalarga hamohang ravishda zamonaviy talablarga javob berishi darkor. Ta'lim tizimini sifat jihatidan takomillashuvi uchun, eng avvalo ilm-fan yangiliklarini o'quv jarayoniga tatbiq etish lozim.

Ushbu darslik 70220301-Tarix (yo'nalishlar va faoliyat turi bo'yicha) magistratura yo'nalishi bo'yicha magistrantlari uchun o'tiladigan o'quv fani yuzasidan yaratilgan. Mazkur fan tarixshunoslikda qabul qilingan xronologik davriy chegaraga asosan, xalqaro munosabatlarda muhim bir bosqich Vestfal-Vena tizimi qaror topishidan boshlab, ya'ni XVII asrning boshlaridan to bugungi kunga qadar bo'lgan davrda davlatlararo munosabatlar hamda xalqaro ahamiyatga molik bo'lgan boshqa voqea hodisalar tarixini yoritib beradi. Shunga ko'ra, mazkur fan insoniyat tarixiy taraqqiyoti qonuniyatlarini o'rganishda alohida o'rin tutadi.

Davlatlararo siyosiy va diplomatik aloqalar bu – insoniyatning tarixiy taraqqiyoti asosini tashkil etuvchi xususiyatlardan biridir. Diplomatiya tushunchasi magistrantlarda, o'zaro va davlatlararo nosabatlarni anglatadi.

Mamlakatimizning jahon hamjamiyatiga har tomonlama integrasiyasini chuqurlashtirish, xalqaro munosabatlarda davlatimiz ishtirokini taminlashni maqsad qilgan xolda yangi zamon davrida davlatlarning tashqi siyosati va diplomatik aloqalarini yanada chuqurroq o'rganishga xizmat qiladi.

Diplomatiyada dolzarb masalalarni horijiy mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotini tarixiy nuqtai nazardan o'rganmasdan turib hal etib bo'lmaydi. Jahon tarixini mukammal darajada bilmoq insoniyat sivilizasiyasining yutuqlaridan va tajribasidan to'la bahramand qiladi, umuminsoniy qadriyatlarni anglab yetishga ko'maklashadi va dunyo miqyosida mavjud bo'lgan muammolarning tarixiy ildizlarini izlab topishga imkoniyat yaratadi. Jahon tarixi bo'yicha chuqur bilimlarga ega bo'lish, yangi zamon davrida dunyo mamlakatlarining diplomatiyasi va tashqi siyosati borasidagi magistrantlarning dunyoqarashini kengaytirish yo'lidagi eng samarali vosita sifatida ahamiyatlidir. Qolaversa, mamlakatimiz hamkorlik qilayotgan davlatlarning rivojlanish darajasini, xalqlarning mentaliteti, urf-odatlarini, madaniyatini tushunib yetish uchun ham jahon tarixi fanining beqiyos ahamiyatini tan olish kerak. Dunyo xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy va etnik evolyusiyasining asosiy bosqichlari, hamda yo'nalishlari haqida magistrantlarga har tomonlama bilimlar berish, yutuqlaridan va tajribasidan to'la bahramand bo'lish, umuminsoniy qadriyatlarni anglab yetishga ko'maklashish va dunyo miqyosida mavjud bo'lgan muammolarning tarixiy ildizlarini izlab topish kabi dolzarb masalalarni o'rganadi.

Yangi va eng yangi zamon davri xalqaro munosabatlar tarixi fan dasturi (sillabusi) asosida 70220301-Tarix (yo'nalishlar va faoliyat turi bo'yicha) ta'lim yo'nalishi magistratura bosqichi talabalari e'tiboriga havola etilayotgan mazkur darslik XVII asrdan to bugungi kunga qadar bo'lgan davrda davlatlararo siyosiy va diplomatik aloqalar tarixini qamrab olgan. Darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining "Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi uchun o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konsepsiyasi"da ilgari surilgan talablarga mos ravishda tayyorlangan.

Mazkur darslik mustaqillik yillarida olib borilgan tadqiqotlarning umume'tirof etilgan natijalari bilan boyitilganligi, fan bo'yicha innovatsiyalarni o'quv jarayoniga joriy etilganligi bilan ilgari o'quv adabiyotlaridan farq qiladi. Darslik oqrali kitobxon yangi va eng yangi zamon davrida xalqaro munosabatlarning o'ziga xos tomonlarini hamda rivojlanib borish tendensiyalarini bilib olishi mumkin.

Hozirgi kunda jahon siyosatida ro'y berayotgan keng qamrovli va murakkab jarayonlarni to'liq anglab etish uchun xalqaro munosabatlar va diplomatiya tarixiga oid bilimlarga ega bo'lish zarur. Shu nuqtai nazardan, mazkur fan yangi va eng yangi zamon davrdagi xalqaro munosabatlar va diplomatiyaga oid tarixiy jarayonlarni tahlil etishga yordam beradi.

Zamonaviy xalqaro munosabatlar sharoitida esa nafaqat davlatlar, balki boshqa sub'ektlarning (xalqaro tashkilotlar, nohukumat tashkilotlari va harakatlar, siyosiy partiyalar, xalqlar va h.k.) o'rni va nufuzi tobora oshib borayotganligini kuzatish mumkin. Demak, zamonaviy xalqaro munosabatlar ilgari singari faqatgina davlatlararo munosabatlar xarakteriga ega emas. Shu bilan birga, zamonaviy xalqaro munosabatlarda moddiy omillar qatori ma'naviy omillarning roli ham tobora oshib bormoqda. O'z navbatida, xalqaro munosabatlar sohasidagi mutaxassislar jug'rofiy muhit, moddiy turmush tarzining shart-sharoitlari, jamiyat iqtisodiy strukturasi va takomillashuvi va sivilizatsiyalarning xarakteriga katta e'tibor qaratmoqdalar. Bir so'z bilan aytganda, ushbu omillar xalqaro munosabatlarning hal qiluvchi unsurlariga aylanib bormoqda.

Bugungi kunda xalqaro munosabatlar murakkab va ko'p qirrali bo'lib, ularning mohiyatini axborot-statistik jadvallar, turli chizmalar yoxud diagrammalar bilangina ochib berib bo'lmaydi. Aksincha, bu predmetning mohiyati «tarixiy kuch», ya'ni turli xalqlarning xatti-harakatlari, ularning jamoaviy turmush tarzi, his-tuyg'ulari va ehtiroslarida mujassamlashgan. Albatta, mazkur omillar xalqlarning temperamentlari, an'analari va fikrlash tizimlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning zamirida moddiy

manfaatdorlik mavjud. Boshqacha qilib aytganda, an'anaviy xalqaro munosabatlarning sub'ektlari sifatida asosan siyosiy elitalar gavdalangan bo'lsa, endilikda xalqaro munosabatlarning sub'ektlari tarkibi yangi-yangi ijtimoiy guruhlar hisobidan kengayib bormoqda. Zamonaviy xalqaro munosabatlarda inson omili hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Biroq ushbu tendensiya davlat arboblarning xalqaro munosabatlardagi yetakchilik mavqeiga ega ekanligini inkor etmaydi.

Har bir mavzuning boshida tayanch tushunchalar, oxirida esa savol va topshiriqlar berildi. Kitobning oxirida glossariy bayon etilgan.

Darslik yuzasidan bildirilgan fikr-mulohazalar mualliflar tomonidan minnatdorchilik bilan qabul qilinadi.

I BO‘LIM. YANGI DAVR XALQARO MUNOSABATLAR TARIXI

(XVII asr boshlaridan – 1918 yilgacha)

1-MAVZU. KIRISH. XVII ASRDA XALQARO MUNOSABATLAR

Reja:

- 1.1. Xalqaro munosabatlar va diplomatiya tushunchalari. Fanning maqsad va vazifalari;
- 1.2. Xalqaro munosabatlar tarixida Buyuk geografik kashfiyotlarning tutgan o‘rni va ahamiyati;
- 1.3. Niderlandlarning mustaqillik uchun kurashi va Gollandiya Respublikasining e‘lon qilinishi;
- 1.4. XVII asr boshlarida yirik davlatlar o‘rtasidagi ziddiyatlarning keskinlashuvi. “O‘ttiz yillik urush” va Vestfaliya sulhi.
- 1.5. XVII asrdagi Angliya burjua inqlobi va bozor istisodiyotiga asoslangan jamiyatning shakllanishi.
- 1.6. O‘ttiz yillik urushdan so‘ng xalqaro maydondagi siyosiy voqealar.

Tayanch tushunchalar: *Uyg‘onish, Reformatsiya, konkista, Diplomatiya, diplomatik marosimlar, Karl V (Ispaniya) davridagi qabul marosimlari. Boltazar Alma va uning asari. Alberiko Jentili va uning «Elchiliklar to‘g‘risida» asari. Gugo Grosiya, «Urush va tinchlik huquqlari to‘g‘risida» asari. Elchilik huquqlarining shakllanishi. Richard Zauch va Avraam Vikfor asarlari. 30 yillik urush, Shimoliy urush. Nishtadt sulhi. Kuchukqaynarji sulhi. Andrusov sulhi. Lyudovik XIV qo‘llagan diplomatiya. Pireniya sulhi. Mariya Tereziya. «Devolyusion urush». Axen sulhi. Duvr shartnomasi. Fransuz – Gollandiya munosabatlari. Vilgelm Oranskiy diplomatiyasi. Nimvegen shartnomasi. Augsburg ligasining tashkil topishi. 1688-yil Angliyadagi davlat to‘ntarishi. Risvik shartnomasi.*

1.1. Xalqaro munosabatlar va diplomatiya tushunchalari.

Fanning maqsad va vazifalari.

Davlatlararo siyosiy va diplomatik aloqalar bu – insoniyatning tarixiy taraqqiyoti asosini tashkil etuvchi xususiyatlardan biridir. Diplomatiya tushunchasi magistrantlarda, o`zaro va davlatlararo munosabatlarni anglatadi. Mamlakatimizning jahon hamjamiyatiga har tomonlama integrasiyasini chuqurlashtirish, xalqaro munosabatlarda davlatimiz ishtirokini taminlashni maqsad qilgan xolda yangi zamon davrida davlatlarning tashqi siyosati va diplomatik aloqalarini yanada chuqurroq o`rganishga xizmat qiladi.

Diplomatiyada dolzarb masalalarni horijiy mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotini tarixiy nuqtai nazardan o`rganmasdan turib hal etib bo`lmaydi. Jahon tarixini mukammal darajada bilmoq insoniyat sivilizasiyasining yutuqlaridan va tajribasidan to`la bahramand qiladi, umuminsoniy qadriyatlarni anglab yetishga ko`maklashadi va dunyo miqyosida mavjud bo`lgan muammolarning tarixiy ildizlarini izlab topishga imkoniyat yaratadi. Jahon tarixi bo`yicha chuqur bilimlarga ega bo`lish, yangi zamon davrida dunyo mamlakatlarining diplomatiyasi va tashqi siyosati borasidagi magistrantlarning dunyoqarashini kengaytirish yo`lidagi eng samarali vosita sifatida ahamiyatlidir. Qolaversa, mamlakatimiz hamkorlik qilayotgan davlatlarning rivojlanish darajasini, xalqlarning mentaliteti, urf-odatlarini, madaniyatini tushunib yetish uchun ham jahon tarixi fanining beqiyos ahamiyatini tan olish kerak. Dunyo xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy va etnik evolyusiyasining asosiy bosqichlari, hamda yo`nalishlari haqida magistrantlarga har tomonlama bilimlar berish, yutuqlaridan va tajribasidan to`la bahramand bo`lish, umuminsoniy qadriyatlarni anglab yetishga ko`maklashish va dunyo miqyosida mavjud bo`lgan muammolarning tarixiy ildizlarini izlab topish kabi dolzarb masalalarni o`rganadi.

Hozirgi kunda jahon siyosatida ro`y berayotgan keng qamrovli va murakkab jarayonlarni to`liq anglab etish uchun xalqaro munosabatlar va diplomatiya tarixiga oid bilimlarga ega bo`lish zarur. Shu nuqtai nazardan, mazkur fan yangi va

eng yangi zamon davrdagi xalqaro munosabatlar va diplomatiyaga oid tarixiy jarayonlarni tahlil etishga yordam beradi.

Ma'lumki, xalqaro munosabatlar tarixi predmeti har bir mamlakatning tashqi siyosatida muhim o'rin egallaydi. Chunki uni o'rganish orqali nafaqat murakkab tarixiy voqealar shohidi bo'lish mumkin, balki mamlakat tashqi siyosati va diplomatiyasi strategiyasini to'g'ri tanlab, uni izchillik bilan amalga oshirishni ta'minlash mumkin. Aytish joizki, mustabid sho'rolar tuzumi davrida O'zbekiston oliy o'quv yurtlarida xalqaro munosabatlar, diplomatiya tarixi, siyosatshunoslik kabi predmetlar o'rganilmas edi, hatto, tabiiy, aniq va ijtimoiy-gumanitar fanlarga oid darsliklar yoki o'quv qo'llanmalarni yozish va nashr etish markazning inom-ixtiyorida edi. Qolaversa, Moskva davlat xalqaro munosabatlar institutini bitirib yurtimizga qaytgan va xalqaro munosabatlar sohasida faoliyat ko'rsatgan o'zbekistonliklarning soni barmoq bilan sanarli darajada edi. Faqatgina mustaqillik tufayli O'zbekistonda bir qator akademiya va oliygohlar tashkil etildi hamda xalqaro munosabatlar, siyosatshunoslik, diplomatiya asoslari, diplomatiya tarixi, xalqaro munosabatlar tarixi kabi predmetlarning o'qitilishi O'zbekiston davlat ta'lim standartlari tizimiga kiritildi.

Xalqaro munosabatlar tarixi, uning predmeti, o'ziga xos xususiyatlari, boshqa predmetlar bilan bog'liqligi nimalarda namoyon bo'ladi? Mazkur predmet, avvalambor, siyosiy tarixning uzviy qismi bo'lib, turli mamlakatlar, sivilizatsiyalar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'rganadi. Shu bilan birga, xalqaro munosabatlar tarixi jahon tarixidagi iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va siyosiy omillardagi uzviy bog'liqlikni davlat hamda jamoat arboblari faoliyati bilan chambarchas bog'lab tadqiq etadi.

O'z navbatida, xalqaro munosabatlar tarixi predmeti xilma-xil g'oyalar, turli-tuman xalqlarning mentalitetlari, ularning urf-odatlari, migratsiyasi, jug'rofiy omillarning xalqaro munosabatlarga qanday ta'sir etishini sinchiklab o'rganadi. Jamoaviy mentalitet, jamoaviy psixologiya, demografik omillar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning turli vaziyatlardagi o'zaro ta'siri va aloqadorligi masalalariga xalqaro munosabatlar tarixi alohida urg'u qaratadi.

Agar biz har bir xalqning mentalitetiga e'tibor beradigan bo'lsak, quyidagi o'ziga xos xususiyatlarni ajratib ko'rsatishimiz mumkin. Anglo-sakslar, xususan, amerikaliklar uchun ishbilarmonlik, tashabbuskorlik, pragmatizm xislatlari xos bo'lsa, ruslar uchun esa jamoatchilik, his-tuyg'ularga erk berish, yangidan-yangi kashfiyotlarga qo'l urish, ba'zida boshlab qo'ygan ishini o'z nihoyasiga yetkazmaslik holatlari tez-tez uchrab turadigan odatiy bir hodisadir. Nemislar uchun esa o'ta tejamkorlik, temir intizom, har bir ishni o'z nihoyasiga yetkazish sari qat'iy iroda va chidamlilik xarakterlidir. Fransuzlar o'ta mulohazakor bo'lib, aql-idrok doirasida ish tutishga urinadilar, mantiqiy izchillik, tahlil qilish va g'oyalarni aniq tasniflash ularga xos xususiyatlardir. O'zbeklar bo'lsa vazminlik, bag'rikenglik, mehmondo'stlik, zahmatkashlik, qiziquvchanlik va bolajonlik kabi fazilatlar bilan ajralib turadilar.

O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimov «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarida yapon va koreys xalqlarining o'ziga xos xususiyatlariga alohida e'tibor qaratib, quyidagilarni ta'kidlaydi: «Yapon va koreys xalqi asrlar davomida shakllanib, qayta bunyodkor kuchga aylangan o'ziga xos milliy ma'naviyati hisobidan ham rivojlangani bugungi kunda hech kimga sir emas. Shuning uchun «Yapon mo'jizasi» yoki «Koreys mo'jizasi» haqida gap ketganda, taniqli ekspert va mutaxassislar ham birinchi galda «Yapon xarakteri», «Koreys tabiati» degan iboralarni tilga oladi. Tabiiyki, ular bu o'rinda, avvalo, mazkur xalqlarga mansub ma'naviy fazilatlarini nazarda tutadi. Ya'ni, bu xalqlarning ichki dunyosi va irodasi ma'naviyat negizida toblangan, kamolga yetgan»¹.

Agar Fransiyaning taniqli siyosatshunosi Raymon Aron o'zining 1962-yilda chop etgan «Millatlar o'rtasidagi urush va tinchlik» asarida siyosiy munosabatlar o'rtasidagi amaliyotlarni tasniflashga uringan bo'lsa, biz nemis faylasufi Maks Veber asarlarida xalqaro munosabatlarda falsafiy va ijtimoiy g'oyalarning qanday ahamiyat kasb etganligini anglab olamiz. XX asrning iste'dodli

I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T., 2008. – B. 27.

fransuz tarixchisi Fernan Brodel o'z tadqiqotlarida sivilizatsiyaning xalqaro munosabatlarda tutgan beqiyos o'rnini ko'rsatib berishga muvaffaq bo'ldi.

Xalqaro munosabatlar tarixida bir-biriga qarama-qarshi turgan koalitsiyalar, siyosiy yetakchilar, mutafakkirlar, madaniyat va san'at namoyandalari, adiblar, olimlarning salmoqli o'rne bor. Sohibqiron Amir Temur, Uyg'onish davri mutafakkirlari, Lyudovik XIV, Buyuk Fridrix II, Oliver Kromvel, Jorj Vashington, Napoleon, Pyotr I, Alisher Navoiy, Vilyam Shekspir, Servantes, Mosart, Bax, J. Bayron, A.Lamartin, V. Gyugo, Onore de Balzak, Gyote, Geyne, Shiller, A. Pushkin, A.Miskevich, T.Shevchenko, Otto fon Bismark kabi davlat arboblari, ma'naviyat yulduzlari, buyuk mutafakkirlar, yozuvchi-yu shoirlar hamda bastakorlarning nomlarini uzoq davom ettirish mumkin. Ularning merosi, xalqaro munosabatlar tarixida amalga oshirgan ishlari, tahlil namunalari kelgusi avlodlar uchun betakror yorqin timsollar sifatida asriy-azaliy, an'analarimizga aylanib qoldi.

Xalqaro munosabatlar tarixidagi muhim omillardan yana biri bu makon va zamon omili bo'lib, u har bir tarixiy davr o'ziga xos xususiyatlarga egaligini bildiradi. Masalan, XIX asr xalqaro munosabatlari uchun, eng avvalo, davlatlararo munosabatlar muhim ahamiyat kasb etgan bo'lsa, XX asr xalqaro munosabatlari uchun, ayniqsa, uning ikkinchi yarmi uchun globalizm, global muammolar, ya'ni fransuzlar tili bilan aytganda, mondializm yoki dunyoviy muammolar alohida ahamiyat kasb eta boshladi. II jahon urushidan keyin ko'pgina demokratik mamlakatlarda u yoki bu turdagi dolzarb masalalar bo'yicha jamoatchilik fikrini aniqlash uchun zondajlar o'tkazish an'anaga aylanib qoldi. Har bir davlat rahbari turli jabhalarda, ayniqsa, tashqi siyosat masalalarini yurgizishda jamoatchilik fikrini inobatga olishga urinardi.

Xalqaro munosabatlar tarixi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, 1815 - 1945 yillar davomida Yevropada yuz bergan urush va tinchlik shartnomalari bu hududni xalqaro munosabatlarning haqiqiy markaziga aylantirib yubordi. «Xalqlar o'rtasidagi munosabatlar, – deb yozgan edi Per Renuven, – buyuk harbiy krizislar ta'sirida misli ko'rilmagan darajada

rivojlandi, kishilik jamiyatining tadrijiy rivoji va sivilizatsiyalar shaklini keskin o'zgartirib yubordi»².

Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, xalqaro munosabatlar tarixi sivilizatsiyalar tarixining ajralmas qismidir. Shu bilan birga, har bir davlat rahbari o'z siyosiy rejimini legitimlashtirishga urinadi. XX asr totalitar tuzumlariga mansub bo'lgan Germaniyadagi natsizm, Italiyadagi fashizm va sobiq SSSRdagi kommunizmni ularning dohiylari moziy bilan bog'lab, o'sha o'tmishdagi voqelikning tadrijiy qismi ekanligiga jamoatchilikni ishontirmoqchi bo'ldilar. Masalan, Gitler III Reyxni ming yillikning mahsuli, deb baholagan bo'lsa, Mussolini uchun fashistik Italiya «Qadimgi Rim imperiyasining XX asrdagi ko'rinishi», Stalin esa Rossiya tarixini uning faqat chet el bosqinchilariga qarshi olib borilgan mardonavor kurashi tarzida talqin qilgan edi.

Xalqaro munosabatlar tarixida jamoatchilik fikrini, tarixiy o'tmishini talqin qilishda konstruktiv yondashuv ustun bo'lgan holatlar ham bir talay. Masalan, Iyuksemburglik metallurg Emil Meyrix 1926-yildayoq Yevropada po'lat ishlab chiqarish kartelini barpo etish tashabbusi bilan chiqqan bo'lsa, 1952-yilda Yevropada ko'mir qazish va po'lat ishlab chiqish birlashmasi vujudga keldi. Bugungi kunda Yevropa Ittifoqining asoschilari yoki otalari bo'lgan fransuz Jan Monne hamda nemis davlat va jamoat arbobi Konrad Adenauer Yevropadagi integratsiyaviy jarayonlarda Fransiya va Germaniyaning lokomotiv rolini o'ynashi to'g'risidagi tashabbusi bilan chiqdilar.

Bugungi kunda xalqaro munosabatlar tarixida ommaviy axborot vositalarining roli tobora oshib bormoqda, ular moddiy va ma'naviy omillar bilan chambarchas bog'liq bo'lsa-da, biroq o'zlarining nisbiy mustaqilliklariga ega. Fransuz mutaxassisi Jan Baptist Dyurozelning ta'kidlashicha, insoniyat tarixi dialektik yo'l bilan ham, doiraviy yoki davriy asosda yoki boshqacha aniq belgilangan yo'l bilan rivojlanmaydi, balki turli muqobil harakatlar va bunyodkorlik asosida taraqqiy etadi. Bu fikrlar J. Dyurozeldan yuz yil oldin

² P.Renovin. Histoire des relations internationales I du Moyen age a 1789. – P., 1994. – P. XXI.

yashagan rus mutafakkiri N.G.Chernishevskiyning «Tarix faqat Neva shohbekatidan iborat emas» degan fikri bilan hamohangdir. Xalqaro munosabatlar o'z tarixida turli bosqichlarni o'z boshidan kechirgan bo'lib, sivilizatsiyalar ana shu bosqichlarning mahsulidir.

Xalqaro munosabatlar rivojida iqtisodiy, texnik, mafkuraviy va kommunikativ omillarning roli tobora oshib borganligini kuzatish mumkin. Shu bilan birga, 1950–1990 yillar mobaynida ikki sistema o'rtasidagi kurash va qarama-qarshiliklar xalqaro munosabatlar tarixida chuqur iz qoldirdi, o'z navbatida, bu tizimlar o'rtasidagi qarama-qarshilik «uchinchi dunyo» deb atalmish rivojlanayotgan mamlakatlarga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qo'yimadi.

An'anaviy xalqaro munosabatlarning asosiy sub'ektlari hukumatlar bo'lib, ular siyosiy manfaatlarni o'zlarida aks ettirganlar. Siyosiy manfaatlar xavfsizligini ta'minlash, davlatning qudratini yoki salohiyatini xalqaro munosabatlarda namoyish etish va bu yumushlarning barchasini diplomatik usullar orqali amalga oshirishdan iborat bo'lgan. Demak, davlat arboblari va ularning hamkorlari xizmat pillapoyalari asosida va o'z lavozimlariga ko'ra davlat manfaatlarini xalqaro miqyosda amalga oshirganlar. Bu yumushlarning samaradorligi davlat arboblari, vazirlar va ularning qo'l ostida ishlovchi xodimlardan har birlarining shaxsiy qobiliyatlari, kasbiy salohiyati, ularning xarakterlari, muvaffaqiyat va kamchiliklari bilan uzviy bog'liq bo'lgan, ko'p hollarda an'anaviy xalqaro munosabatlarda zarur axborotga ega bo'lish, shuningdek, o'z sohasidagi amaliyot va bilimga ega bo'lish ham katta ahamiyat kasb etgan.

Zamonaviy xalqaro munosabatlar sharoitida esa nafaqat davlatlar, balki boshqa sub'ektlarning (xalqaro tashkilotlar, nohukumat tashkilotlari va harakatlar, siyosiy partiyalar, xalqlar va h.k.) o'rni va nufuzi tobora oshib borayotganligini kuzatish mumkin. Demak, zamonaviy xalqaro munosabatlar ilgari singari faqatgina davlatlararo munosabatlar xarakteriga ega emas. Shu bilan birga, zamonaviy xalqaro munosabatlarda moddiy omillar qatori ma'naviy omillarning roli ham tobora oshib bormoqda. O'z navbatida, xalqaro

munosabatlar sohasidagi mutaxassislar jug'rofiy muhit, moddiy turmush tarzining shart-sharoitlari, jamiyat iqtisodiy strukturasi takomillashuvi va sivilizatsiyalarning xarakteriga katta e'tibor qaratmoqdalar. Bir so'z bilan aytganda, ushbu omillar xalqaro munosabatlarning hal qiluvchi unsurlariga aylanib bormoqda.

Bugungi kunda xalqaro munosabatlar murakkab va ko'p qirrali bo'lib, ularning mohiyatini axborot-statistik jadvallar, turli chizmalar yoxud diagrammalar bilangina ochib berib bo'lmaydi. Aksincha, bu predmetning mohiyati «tarixiy kuch», ya'ni turli xalqlarning xatti-harakatlari, ularning jamoaviy turmush tarzi, his-tuyg'ulari va ehtiroslarida mujassamlashgan. Albatta, mazkur omillar xalqlarning temperamentlari, an'analari va fikrlash tizimlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning zamirida moddiy manfaatdorlik mavjud. Boshqacha qilib aytganda, an'anaviy xalqaro munosabatlarning sub'ektlari sifatida asosan siyosiy elitalar gavdalangan bo'lsa, endilikda xalqaro munosabatlarning sub'ektlari tarkibi yangi-yangi ijtimoiy guruhlar hisobidan kengayib bormoqda. Zamonaviy xalqaro munosabatlarda inson omili hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Biroq ushbu tendensiya davlat arboblarining xalqaro munosabatlardagi yetakchilik mavqeiga ega ekanligini inkor etmaydi.

XVI–XVII asrlarda yuz bergan misli ko'rilmagan texnikaviy taraqqiyot urush qurollarining ancha takomillashuviga olib keldi, XIX asrga kelib, dunyoning qudratli davlatlari o'zlaridagi juda ko'p resurslarni urush vositalariga aylantirib yubordilar. O'z navbatida, demografik omillar va aholi migratsiyasi masalalari ham qit'alar o'rtasidagi o'zaro mutanosiblikni butunlay o'zgartirib yubordi. Shu bilan birga, XIX asr oxiriga kelib, dunyoni Yevropa va Shimoliy Amerikadagi yetakchi davlatlari tomonidan taqsimlab olish jarayoni ham o'z nihoyasiga yetdi. Natijada, yetakchi mamlakatlarning ikki harbiy imperialistik blokka bo'linish jarayoni boshlandi. XX asr boshigacha davom etgan ushbu jarayon, o'z navbatida I jahon urushini keltirib chiqardi.

Shu tariqa, xalqaro munosabatlar tarixining fazoviy doirasi ancha keng. Bizning maqsadimiz davlatlararo, xalqaro munosabatlarni o'rganish doirasida ularning transformatsiyasini hamda bu o'zgarishlarning manbalari sifatida qaysi kuchlar namoyon bo'lganligini aniqlashdan iborat. Ma'lumki, har qanday taraqqiyotning bosh omili qarama-qarshilik va ziddiyatlarning o'zaro kurashidan iborat yoki rivojlanish – bu tadrijiy taraqqiyot mahsuli demakdir. Taraqqiyot yoki transformatsiyaning manbaini moddiy yoki ma'naviy omillar tashkil etadi. Xalqaro munosabatlar tarixi negizini iqtisodiy va ijtimoiy tarix, g'oyalar va institutlar tarixi tashkil etadi. Albatta, bunda jug'rofiy muhit, moliyaviy va iqtisodiy manfaatlar, qurolli kuchlarning texnikaviy salohiyati, jamiyatning ijtimoiy strukturasi, demografik jarayonlar, diniy qarashlar, xalqlarning kuch-quvvati, temperamenti va ma'naviy salohiyati ham xalqaro munosabatlar rivojiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Yangi va eng yangi zamon davri xalqaro munosabatlar tarixi fanining maqsadi XVII asrdan to bugungi kunga qadar bo'lgan davrda davlatlararo siyosiy va diplomatik aloqalar tarixini chuqur tahlil qilgan holda yangi va eng yangi zamon davrida xalqaro munosabatlarning o'ziga xos tomonlarini va ushbu davrda sodir bo'lgan jahon miqyosidagi va mintaqaviy miqyosdagi voqea-hodisalar tarixini bugungi kunda tutgan o'rni va ahamiyatini yoritib berishdir. Fanning vazifasi esa yangi va eng yangi zamon davrida xalqaro munosabatlarda ro'y bergan muhim voqealar va jarayonlarni yoritib berish, tarixiy rivojlanish davomida turli mamlakatlar va mintaqalarga xos bo'lgan xususiyatlarni ochib berish, dunyoning turli chekkalarida ro'y bergan voqealar va jarayonlarning ko'p hollarda o'zaro bog'liqligini magistr'larga tushuntirish, tarixiy rivojlanishning barcha mamlakatlar uchun umumiy qonuniyatlar mavjudligini namoyon qilish, shuningdek, tarixda alohida shaxslarning o'rnini ko'rsatib berish va boshqalardan iborat.

Bu fan talabalarda xalqaro munosabatlarning davomli tarixi to'g'risida izchil bilimlarni shakllantirishga yaqindan yordam beradi, deb umid qilamiz. U davlatlar, hukumatlar, xalqlar, ularning rahbarlari, xalqaro tashkilotlar,

partiyalar, hukumat va nohukumat tashkilotlari, yer yuzidagi sivilizatsiyalar o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy, ijtimoiy, madaniy munosabatlar tizimini o'rgatadi. Ma'lum ma'noda, bu fan gumanitar ilmlar – tarix, falsafa, iqtisod, diplomatiya tarixi va asoslari, siyosatshunoslik fanlarining sintezi yoki mantiqiy yagonaligini taqozo etadi. Bu fanni o'rganishda dunyoning yaxlitligi, yer yuzidagi barcha xalqlar va sivilizatsiyalarning o'zaro uzviy bog'liqligi va ta'siri masalalariga katta e'tibor berish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

1.2. Xalqaro munosabatlar tarixida Buyuk geografik kashfiyotlarning tutgan o'rni va ahamiyati.

Sharqiy Yevropada ham ancha vaqtgacha feodalizm sistemasi saqlanib qoldi, biroq o'rta tabaqa, ya'ni burjuziya G'arbiy Yevropada ilk bor shakllandi hamda feodallar, dvoryanlar va ularning homiysi bo'lgan qirollik tizimiga qarshi kurash boshladi. Ana shunday vaziyatda G'arbiy Yevropada Osiyo mamlakatlari, shu jumladan, Hindiston va Xitoyda mavjud bo'lgan oltin va boshqa qimmatbaho boyliklar to'g'risida afsonalar keng tarqaldi. Sharq mamlakatlarining boyliklari to'g'risida Marko Polo va boshqa sayyohlarning hikoyalari va afsonalari G'arbiy Yevropa aholisini junbushga keltiradi. Aynan shu paytda, ya'ni 1453-yilda turklar Konstantinopolni egalladilar, ular Yevropadan Osiyoga boruvchi eng qisqa masofadagi dengiz va quruqlik yo'llarini nazorat ostiga oldilar. Turklar savdo ishlarini unchalik xush ko'rmas va bu yo'llar orqali yevropaliklarni o'tkazishga yo'l bermas edilar. O'z navbatida, turklarning bu kirdikorlaridan savdogarlar va sayyohlar norozi edilar. Ular Osiyoga eltuvchi yangi dengiz yo'llarini qidira boshladilar.

Dengiz yo'llarini ochish maqsadida olib borilgan sa'y-harakatlar Yevropada Uyg'onish davriga to'g'ri keldi. Aholi o'rtasida cherkovning nufuzi pasayib, ilmu fanga bo'lgan qiziqish oshib bordi. Astronomiya va boshqa fanlardagi kashfiyotlarga tayanib, odamlar Yerning dumaloq shaklda ekanligiga ishonch hosil qildilar hamda Xitoy va Hindistonga G'arb orqali suzib borishni rejalashtira boshladilar. Ba'zi kishilar, hatto, Hindistonga Afrikani aylanib o'tish

orqali borishni orzu qila boshladilar. Ammo Suriya va Misrning turklar qo‘liga o‘tishi natijasida, O‘rta Yer dengizidan Qizil dengizga karvon yo‘llari orqali o‘tish yanada murakkablashdi.

Hindiston boyliklariga bo‘lgan qiziqish yevropalik korchalonlarga tinchlik bermas edi. Ispaniya va Portugaliya davlatlarining rahbarlari yangi dengiz yo‘llarini qidirib topishga bel bog‘ladilar. Aynan shu paytda ispanlar Grinadadan mavrlar yoki saratsinlarni haydab chiqardilar. Aragonlik Ferdinandning kastiliyalik Izabellaga uylanishi paytida yagona kuchli xristian Ispaniyasi vujudga keldi.

Portugaliyaliklar 1445-yilda Afrikaning Yashil Burun nomli Qirg‘og‘igacha suzib bordilar. 1486-yilda portugaliyalik Bartolomey Diash Afrikaning janubiy qismi bo‘lgan Ezgu Umid burunigacha suzib bordi. Boshqa bir portugaliyalik Vasko de Gama ana shu yo‘l orqali 1498-yilda Hindistonning Kalkutta shahri va Malabar qirg‘og‘igacha suzib bordi. Shu tariqa, portugaliyaliklar Hindistonga borishning yangi yo‘lini kashf etdilar. Ammo dunyoning boshqa bir chekkasida ham buyuk voqealar yuz berdi. Ispaniyadan G‘arbga tomon suzgan Xristofor Kolumb 1492-yilda Amerika qirg‘oqlarigacha borib yetdi. X.Kolumb Genuyadan chiqqan kambag‘al shaxs bo‘lib, uning fikricha, Yer shari dumaloq shaklda va, shu sababli, G‘arb orqali Yaponiya va Hindistonga suzib borish mumkin. Kolumb bir necha Yevropa qirollari va hukmdorlariga murojaat etdi. Ispaniya qiroli va qirolichasi Ferdinand va Izabella Kolumbning rejasiga ishonib, unga uchta kichik kema, oziq-ovqat va safar tadorigi uchun 88 kishidan iborat dengizchilarni ajratdi. Bu kemalar 69 kun suzgach, Kolumb boshchiligidagi dengizchilar quruqlikka duch keldilar. Kolumb o‘zini Hindistonga keldim, deb o‘yladi, biroq ushbu quruqlik Amerika qirg‘oqlari edi. Ana shu anglashilmovchilik tufayli hozirgacha Amerikaning mahalliy aholisi hindular deb ataladi.

Kolumb va Vasko de Gamaning dengiz yo‘llari kashfiyotlari Yevropada katta shov-shuvlarga sabab bo‘ldi. Portugaliya va Ispaniya yaqin yerlar ustidan hukmronlik o‘rnatish uchun o‘zaro raqobatlashishni boshlab

yubordilar. Rim papasi bu ishga aralashib, 1493 yilda bulla, ya'ni qonun ishlab chiqdi va unga ko'ra, Shimoliy va Janubiy Amerika – Ispaniyaga, Hindiston, Xitoy, Yaponiya va boshqa Osiyo hududlari – Portugaliyaga beriladigan bo'ldi.

Portugallar birin-ketin Osiyo qit'asida hukmronlik o'rnatishga kirishdilar, ammo buni amalga oshirish ancha mushkul edi. 1510-yilda ular Goaga, 1511-yilda Malayya yarim orolidagi Malakkaga kirib bordilar, keyinroq ular Yava orolida paydo bo'ldilar. 1576-yilda esa portugallar Xitoy qirg'oqlariga yetib bordilar. Portugal dengizchilari orasida, ayniqsa, Ferdinand Magellanni eslash maqsadga muvofiqdir. U portugaliyalik xo'jayinlari bilan chiqisha olmay, Ispaniya fuqaroligini qabul qildi. Magellan Afrika janubi orqali Hindistonga suzib keldi. Endi u G'arbga qarab suzib, Amerikaga borishni maqsad qilib qo'ydi, uning fikricha, Kolumb ochgan yer bu Osiyoga tegishli emas. 1519-yilda Magellan G'arbga tomon suzishni boshladi. Bu uning eng uzoq muddatli dengiz sayohati bo'lib, unda jami 5 ta kema va 270 kishi ishtirok etdi.

Magellan Atlantika okeani orqali Janubiy Amerikaga yetib keldi va janub tomon suzishda davom etib, Janubiy Amerikaning eng quyi sohillarigacha yetib bordi. Magellanning bir kemasi to'fonda nobud bo'ldi, yana bir kemasidagi odamlar uni tashlab ketishdi. Janubiy Amerika orqali u katta Okeanni suzib o'tdi, bu Okeanda suzuvchilar tinch suzganliklari sababli, Magellan uni Tinch okeani deb atadi. Shunday qilib, Magellan ilk bor Yer kurrasini 14 oy ichida aylanib chiqdi. Safar davomida sayohatchilar, hatto, Filippin orollariga ham yetib borishdi. Bu yerda Magellan qabilalar o'rtasidagi mojarolarga aralashganligi uchun o'ldirildi. Magellan kemalaridagi boshqa ko'plab ispanlar ham orolliklar tomonidan o'ldirildilar. Uzoq safar natijasida Ispaniyaga atigi bitta kema 18 kishi tarkibida qaytib kelishga muvaffaq bo'ldi. Bu hodisa 1522-yilda sodir bo'ldi.

Magellan o'z sayohati bilan band bo'lgan paytda Ispaniya parlamenti, ya'ni Kortes a'zolari Mexikoga bostirib kirdilar va asteklar imperiyasini 1519-yilda bosib oldilar. Ispanlar 1530-yilda Janubiy Amerikadagi inklar imperisini ham bosib oldilar. Yangi qit'a Kolumb tomonidan kashf etilgan bo'lsa-da, biroq Amerigo Vespucci nomiga qo'yildi. Bu italiyalik tarixiy shaxs Ispaniya

xizmatiga o'tgan bo'lib, kashf etilgan yerning yangi qit'a ekanligini va Osiyoga mansub emasligini isbotladi. Hozirgacha Yevropaga qarama-qarshi o'laroq, Amerikani "Yangi dunyo" deb ham atashadi.

Shunday qilib, Portugaliya va Ispaniya davlatlarining yangi dengiz yo'llarini ochishdagi muvaffaqiyatlari boshqa Yevropa mamlakatlari, ayniqsa, Fransiya, Angliya, Gollandiya va Shimoliy Germaniya aholisini hayratga soldi. Dunyo endilikda yevropaliklar uchun ancha tor va chegaralanganday bo'lib qolgan edi.

1.3. Niderlandlarning mustaqillik uchun kurashi va Gollandiya

Respublikasining e'lon qilinishi.

XVII asrda xalqaro munosabatlar tarixida har uchala tarixiy jarayon: niderlandlarning mustaqillik uchun uzoq yillar davomida olib borgan kurashi, Yevropadagi O'ttiz yillik urush (1618-1648) va Angliyadagi fuqarolar urushi (1642-1648) birin-ketin yuz bergan bo'lib, ularda muhim bir mushtaraklik mavjud edi. U ham bo'lsa, har uchala tarixiy jarayon diniy niqob ostida olib borildi. Ammo diniy ko'rinishdagi mazkur jarayonlar zamirida aslida turli kuchlar va davlatlarning manfaatlari yotar edi. Shu bilan birga, bu urushlar o'rta asrlar davrida hukmron bo'lib kelgan diniy xurofot, feodal tarqoqlik, ma'muriy buyruqbozlik, qolaversa, eski tuzumdan yangi jamiyatga o'tish uchun bo'lgan jiddiy o'rinishlardan iborat edi.

Niderlandiya Gollandiya va Belgiyani o'z ichiga olgan bo'lib, uning ma'nosi chuqur yoki past yer demakdir. Gollandiya so'zi (hollow-bo'sh, tashlandiq, bekor) "qarovsiz yer" degan ma'noni anglatadi. Darhaqiqat, bu mavzening katta qismi dengiz sathidan ancha past bo'lib, Shimoliy dengizdan katta damba va devorlar bilan to'silgan aholining doimo dengiz to'lqinlari va suv bosimiga qarshi kurashishiga to'g'ri keladi. Odamlari jasur, dengizchi bo'lganliklari sababli, ular ko'proq savdo-sotiq bilan shug'ullanib kelganlar. Ular junli matolar to'qib, har xil kiyim-kechaklar ishlab chiqarar edilar. Ular dengiz orqali Sharqdan nafis buyumlar keltirib tijoratchi sifatida ham shuhrat qozondilar. Natijada, Bryugge, Gent va Antverpen kabi boy shaharlar qad ko'tardi. Ayniqsa, Antverpen bandargohida 2,5

ming savdo kemalari bir vaqtning o'zida langar tashlar va bozorda bir kunda besh ming atrofida savdogarlar to'planar edilar. XVI asrda Sharq mamlakatlari bilan savdo-sotiq ishlari ancha rivojlangan bo'lib, savdogarlar tabaqasi ko'pchilikni tashkil etar edi.

Ushbu davrga kelib, Niderlandiya shimolida protestantizm g'oyalari tez tarqaldi. Mamlakat Ispan Gabsburglari davlati tarkibiga kirgan bo'lib, oldin Karl IV, keyin uning o'g'li Filipp II mahalliy xalqlarning ozodlik g'oyalariga qarshi edilar va protestantlarni ta'qib ostiga oldilar. Filipp mamlakatga hokim sifatida gersog Albani jo'natdi. U o'zining zolimligi va shafqatsizligi bilan nom chiqargan bo'lib, qisqa fursat ichida Niderlandiyada inkvizitsiyani ta'sis etdi. Minglab protestantlar olovda yondirildi, ammo mahalliy aholi ispan bosqinchilariga bo'ysunmay kurashni davom ettirdi. Xalq o'z rahbari Vilgelm Oranskiy atrofida jiplashib, gersog Alba va uning sheriklariga qarshi urush e'lon qildi.

Inkvizitsiya 1568-yil o'z qarorlaridan birida butun bir xalqni o'limga mahkum etdi, mahkum etilganlar deyarli barcha niderlandlarni o'z ichiga olgan bo'lib, 3 mln. kishini tashkil etar edi. Xalq harakatini mahalliy dvoryanlar ham qo'llab-quvvatlab turdilar. Urush diniy tus oldi, chunki Alba boshchiligidagi ispan bosqinchilari katoliklar mazhabiga mansub bo'lsa, niderlandlarning ko'pchiligi protestantizm tarafdori edilar. Niderlandlar ozchilik bo'lishlariga qaramasdan, juda qattiq qarshilik ko'rsatdilar. Ayniqsa, ispanlar tomonidan qamal qilingan Leyden aholisi uzoq vaqt davomida qarshilik ko'rsatdi, aholi dengizni to'sib turgan damba va devorlarni teshdi, suv toshqinidan ispanlar dahshatga tushdilar va Leydendan chiqib ketishga majbur bo'lishdi. Leyden himoyachilari sharafiga 1575-yilda mashhur Leyden universiteti ta'sis etildi.

Mamlakat himoyachilari, asosan, Shimolda istiqomat qiluvchi gollandlardan iborat edi, Janubiy niderlandiyaliklar esa katoliklar bo'lib, ular ispanlarni qo'llab-quvvatladilar. Ana shunday vaziyatda, Vilgelm Oranskiy Niderlandiya General shtatlariga, ya'ni mamlakat milliy majlisiga murojaat qilib shunday dedi: "Niderlandlarni niderlandlar halok etishmoqda. Gersog Alba kimga tayanib maqtanchoqlik qilmoqda? Albatta, ozchilik niderlandlar yordamida u bizning

ustimizdan hukmronlik qilmoqchi. U kemalarni, yarog‘-aslahalarni, pullarni, askarlarni qaerdan olyapti? Bo‘larning barchasini u Niderlandiya aholisidan olmoqda”

Ana shu omillardan ustalik bilan foydalangan ispanlar Niderlandiyaning kattagina qismini qo‘lga kiritishga muvaffaq bo‘ldilar, bu mavze bugungi kunda Belgiya deb ataladi. Ammo ispanlar Gollandiyani tobe qila olmadilar. Urush



Ispaniya qiroli Filipp II

so‘ngida gollandlar Ispaniya qiroli Filipp II dan voz kechib, qirollikni Vilgelm Oranskiyga taklif etdilar, ammo Vilgelm taxtga o‘tirishga rozi bo‘lmadi. Oxir- oxibat, Gollandiya mustaqillikka 1609-yilda erishdi. Gollandiyada respublika davlat tizimi qaror topdi. Gollandiya salohiyatli, dengizda hukmronlikni qo‘lga kiritgan davlatga aylandi. Bu yerda kapitalizm tez sur‘atlarda rivojlanib bordi. Mamlakatning iqtisodiy va harbiy kuch-qudrati oshib bordi va u Uzoq Sharqda o‘z mustamlakalariga ega

bo‘ldi. Gollandiyadan ajralgan Belgiya esa ispanlarga qaram bo‘lib qolaverdi.

Shunday qilib, katolitsizmga e‘tiqod qiluvchi ispanlarga qarshi protestantizm mazhabiga mansub gollandlar uzoq kurash olib borib, mustaqillikka erishdilar va Respublika tizimiga asos soldilar.

1.4. XVII asr boshlarida yirik davlatlar o‘rtasidagi ziddiyatlarning keskinlashuvi. “O‘ttiz yillik urush” va Vestfaliya sulhi.

XVII asrning xususiyati uning ilk yangi davrning qoq markazida bo‘lganligidadir. Ushbu asrdagi xalqaro siyosatning mazmuni va tamoyillarini hosil qilgan davlatlararo ziddiyatlar, bir tomondan, XIV asrning merosiga tayanardi, ikkinchi tomondan, ushbu siyosatning kelgusi asrdagi rivojlanishini ma‘lum darajada belgilab berardi. Ushbu davrda diplomatiyaning to‘tgan o‘rni yanada ahamiyatli bo‘lib bordi, diplomatik xizmatning oyoqqa turishi va takomillashishi ro‘y bermoqda edi. Fransuz tili diplomatik aloqalarning rasmiy

tiliga aylangan. XVII asrda paydo bo'lgan dastlabki gazeta va jurnallardan siyosiy va diniy kurashda, demak xalqaro munosabatlarda ham, keng foydalanilgan. Bundan tashqari, diniy omilning xalqaro munosabatlar holatiga ta'sir ko'rsatishi davom etgan. XVII asrning o'rtalarigacha davlatlararo ittifoqlarning shakllanishi va harbiy to'qnashuvlarning yuzaga kelishi asosan diniy tamoyillar negizida ro'y berardi. Ko'p hollarda xristian dinidagi turli konfessiyalar (yo'nalishlar va oqimlar)ning vakillari prinsipial raqiblar sifatida namoyon bo'lgan. Bu esa Yevropa mamlakatlarini o'zaro qarama-qarshiligiga olib kelgan.

Qudratli buyuk davlat - Usmoniylar imperiyasi xalqaro munosabatlarning yana bir omili edi. Ulkan harbiy va moddiy kuchga ega bo'lgan Istanbo'l Yevropada yuzaga kelayotgan xalqaro munosabatlar tizimida muhim rol o'ynagan. Yevropa davlatlari Usmoniylarga qarshi ittifoqlar tuzish yo'lidan borishgan, garchand imperiyaga yaqin joylashgan mamlakatlar tinchlikni saqlashga moyillik bildirsa ham.

Kuchlar muvozanatini saqlash g'oyasi xalqaro munosabatlar tizimida belgilovchi tamoyillardan biriga aylangan. Yirik davlatlar o'rtasidagi ziddiyatlar alohida ahamiyatga ega edi. Ushbu davlatlar o'zlarining atrofiga o'rta va kichik mamlakatlarni jalb etib, turli ittifoqlar tuzishardi. Shu tarzda ko'plab mamlakatlar diplomalik va harbiy nizolarga tortilardi. Asosiy maqsad, birorta davlatning boshqa davlat evaziga haddan tashqari ko'chayib ketishiga yo'l qo'ymaslik va mavjud vaziyatni saqlash edi.

Tashqi siyosatning asosiy ko'rinishlaridan biri bu - davlatlar tomonidan olib boriladigan urushlar edi. Xalqaro nizolarni keltirib chiqaradigan sabablar orasida chegara mojarolari, sulolaviy da'volar, savdo monopoliyasi uchun kurash va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Uzoqqa cho'ziladigan tavsifga ega bo'lgan harbiy operatsiyalarning ko'lami kengayib bordi. Bu esa asosan yollanma askarlardan iborat doimiy armiyalarning mavjud bo'lishini talab qilardi.

XVII asrdagi xalqaro hayotning eng yirik voqeasi bo'ldi. Bu urush umumyevropa miqyosdagi birinchi urush edi. Uning girdobiga ko'plab mamlakatlar tortilib ketdi.

“O‘ttiz yillik urush”ning boshlanishidan oldin Germaniyada ichki kurash avj oldi. XVII asr boshida kontreformatsiyaning hujumi ko‘chayib bordi. Protestantlar tomonidan erishgan mavqelarini birin-ketin yo‘qotib borishi nafaqat umumgerman, balki xalqaro ta’sirga ega edi. Germaniyada diniy-siyosiy vaziyatning keskinlashuvida Yevropa davlatlari orasidagi murakkab o‘zaro bog‘liqlar va ziddiyatlar katta rol o‘ynadi.

1608-1609 yillarda bu yerda nemis knyazlarining, konfessional (diniy) negizdagi ikki harbiy-siyosiy ittifoq yuzaga keldi: Yevangeliya uniyasi (Injilchilar ittifoqi) va Katolik ligasi. Ikkala ittifoq ham xorijiy davlatlarning ko‘magini oldi. Natijada, Germaniyadagi har qanday harbiy to‘qnashuv, davlatlar orasidagi keskinlashgan munosabatlar sharoitida, xalqaro nizoga aylanib ketishi mumkin edi. Aynan shunday holat “O‘ttiz yillik urush”ning boshida ro‘y berdi va Germaniya harbiy harakatlar maydoniga aylandi.

G‘arbiy Yevropaning siyosiy hayotidagi asosiy to‘qnashuvi - bu Ispaniya va Avstriya Gabsburglari ittifoqining Fransiya bilan qaytadan boshlanib ketgan kurashi edi. Ikkala kuch ham qit‘aning ushbu qismida uslivorlikka da’vogarlik qilardi. Chexiyadagi lokal nizodan boshlangan urush Shimoliy Germaniyaga yoyildi, keyinchalik esa, Markaziy Yevropaning ulkan hududlarini qamrab oldi. Yevropa mamlakatlarining muayyan manfaatlari urushning turli bosqichlarida ularning qatnashuvini belgilab berdi.

“O‘ttiz yillik urush” to‘rtta davrdan iborat:

🚩 **“Chexiya davri” (1618-1629- yy.);**

🚩 **“Daniya davri” (1625-1629- yy.);**

🚩 **“Shvedlar davri” (1630-1635- yy.);**

🚩 **“Fransuz-shvedlar davri” (1635-1648- yy.).**

Dastlabki uch davrda Gabsburglarning qo‘li baland keldi. Oxirgisida esa imperiya va uning ittifoqchilari mag‘lub etildilar.

Kurashayotgan tomonlarning tinkasi quridi, asosiy harbiy harakatlar olib borilgan Germaniyada aholi xonavayron etildi. Natijada, armiyalarning ta‘minotini amalga oshirish imkonsiz bo‘lib qoldi. Qolaversa, uro‘shayotgan mamlakatlarning

o'zida ijtimoiy vaziyat keskinlashib bordi. Urushni to'xtatish zaruriyati yuzaga keldi.

1638-yilning o'zidayoq Rim papasi va Daniya qiroli urushni to'xtatishga da'vat etishdi. Ikki yildan so'ng, Regensburgdagi German reyxstagi tinchlik muzokaralarini boshlash g'oyasini qo'llab-quvvatladi. Biroq, sulhni diplomatik tarzda tayyorlashga kechroq kirishildi. Faqatgina 1644-yilda Myunsterda tinchlik kongressi ochildi. Bu yerda imperator va Fransiya o'rtasida muzokaralar olib borildi. 1645-yilda Vestfaliyaning Osnabryuk shahrida esa shved-german munosabatlari muzokaralar orqali muhokama qilindi.

1648-yil 24-oktyabrda Myunster va Osnabryukda imzolangan tinchlik shartnomalari nafaqat ushbu o'ttiz yillikka, balki reformatsion kuchlari va ularning raqiblari o'rtasidagi qarama-qarshiligi davriga yakun yasadi. Vestfaliya sulhida Yevropada hududiy o'zgarishlar masalalari hal etilgan edi. Bundan tashqari, Germaniya imperiyasining siyosiy tuzilishi, uning hududlaridagi din masalasi, Gollandiya va Shveytsariyaning mustaqilligini xalqaro huquq tomonidan tasdiqlanishi ham sulhida o'z aksini topdi. Tinchlik Yevropa davlatlari tartibiga va Germaniyadagi vaziyatga sezilarli o'zgarishlarni kiritgan majburiy yon berishlar natijasida tuzildi.

Hududiy jihatdan hammadan ko'proq Shvetsiya foyda ko'rdi. Bundan tashqari, Shvetsiya katta pul to'lovini qo'lga kiritdi va o'zining xalqaro mavqeini oshirdi. Shvetsiya Boltiqda hukmronlik qilish maqsadiga erishdi va Yevropaning buyuk davlatiga aylandi. Fransiya ham o'ziga kerakli siyosiy natijaga erishdi - Germaniya imperiyasining siyosiy mavqei zaiflashdi va uning hududiy tarqoqligi saqlanib qolindi. Hududlarga ega bo'lish masalasida esa Fransiya imperiya hisobidan nisbatan oz yerlarni qo'lga kiritdi.

Vestfaliya sulhi (1648-yil, 24-oktyabr') Germaniyaning siyosiy tarqoqligini ikki yuz yilga mustahkamladi. Nemis knyazlari o'zaro ittifoqlar va xorijiy davlatlar bilan shartnomalar tuzish huquqini qo'lga kiritishdi. Bu esa ularning suverenligini ta'minladi. Vestfaliya sulhidan so'ng imperiyaning o'zi, rasman saylanadigan monarx va doimiy reyxstaglari mavjud davlatlar ittifoqi bo'lib qolib, amalda

“imperiya mansabdorlarining” quramasiga aylandi. Katolitsizm va lyuteranlik bilan bir qatorda kalvinizm ham imperiyada rasmiy din maqomini oldi. Vestfaliya sulhi natijasida Ispaniya urushlarining bir qismini yakunladi, xolos: Fransiya qarshi harbiy harakatlar davom ettirildi. Ular orasidagi tinchlik faqatgina 1659-yilda tuzildi. Gabsburglarning Yevropadagi ustuvorligiga Vestfaliya sulhi barham berdi. Yagona xristian imperiyasini barpo etish g‘oyasi hamda Ispaniyaning katolik zo‘ravonligi puchga chiqdi. Shunday bo‘lsa ham, Avstriya imperiyasining o‘zi urushda mag‘lubiyatga uchramadi, nemis knyazlari esa (ham katoliklari, ham protestantlari) o‘zlarining to‘la suverenligida mustahkamlanishdi. Vestfaliya sulhi, Yevropada kuchlarning yangi nisbatini o‘rnatib, ikki yirik tarixiy davrning chegarasiga aylandi.

Germaniyadagi diniy urushlar, ya’ni katoliklar va protestantlar o‘rtasidagi urush O‘ttiz yillik (1618-1648) urush nomini oldi. Germaniya hududidagi knyazlar va kurfyuristlar, ya’ni yirik knyazliklar o‘zaro va imperatorga qarshi urush harakatlarini olib bordilar.

XVII asr boshlaridagi Rossiyaning ichki va tashqi nizolari Shvesiya va Polsha davlatlarini Markaziy Yevropa voqealaridan chalg‘itdi. 1618 yilda Imperiya hukmdorlari Chexiya protestantlariga bergan imtiyozlarini bekor qildilar. Bu holat Chexiya va imperiya o‘rtasida urushni keltirib chiqardi. Katolik liga tarkibiga kirgan knyazliklar va Avstriya Gabsburglari ispaniyalik ittifoqchilari bilan birgalikda chex qo‘shinlarini tor-mor etdilar. Chexiyadan o‘n minglab protestantlar quvg‘in qilindi. Chexiyada aksilreformatsiya amalga oshirildi.

Protestantlarning yerlari va mol-mulklari mahalliy hamda nemis katoliklariga olib berildi. Chexiya yerlarining 30 foiz qismi qayta taqsimlandi. Katolik liga qo‘shinlari Germaniya shimoliga yurish qilib, nemis knyazliklaridagi protestantlarni ayovsiz jazoladilar, mol-mulklarini tortib oldilar. Ayni paytda, yuqorida aytib o‘tganimizdek, Ispaniya Gollandiyaga qarshi urush harakatlarini boshlab yubordi. 1625-yilda Gabsburglarga qarshi protestantlik mazhabiga mansub bo‘lgan Daniya va uning qiroli Kristian IV (1577-1648) urush ochdi. Katoliklar Daniyaga qarshi 100 minglik armiyaga qo‘mondon etib A.Vallenshteynni

tayinladilar. Urush dahshatli tus oldi, har ikki mazhabga mansub bo'lgan askarlar bir-birlarini ayovsiz qirdilar. 1629-yilda Daniya mag'lub bo'ldi va urushdan chiqdi. Imperiya hududida chiqarilgan farmonga binoan, restitutsiya qabul qilindi. "Restitutsiya" tushunchasi qaytarib berish ma'nosiga ega bo'lib, ilgari protestantlar tomonidan musodara qilingan katolik cherkovi yerlari yana ularga qaytarib berildi.

Gabsburglarning ko'chayishi Fransiyani tashvishga soldi va Fransiya Shvesiya hamda Polsha o'rtasida bitim tuzilishiga ko'maklashdi. Fransiya shved qiroli Gustav II Adolfga mablag' ajratib, uni Germaniyaga qarshi urushga tayyorladi.

O'ttiz yillik urushda 1630-1635 yillar shved urushi nomi bilan tarixga kirdi. Intizomli va yaxshi qurollangan shved armiyasi katolik liga va imperator armiyasiga qaqshatkich zarbalar berdi. Shved armiyasi, xdtto, katolitsizmning asosiy tayanchi bo'lgan Bavariya yerlariga ham bostirib kirdi. Ana shunday murakkab vaziyatda katolik mazhabiga mansub Polsha imperiyaga yordam qo'lini cho'zdi. Bir vaqtning o'zida 1632-1634 yillar davomida Polsha Rossiyaga ham qarshi urush olib bordi. Rossiya bu urushda yengildi, biroq Polsha shahzodasi Vladislav Rossiya - Polsha bitimiga muvofiq Rossiya taxtiga da'vogarlikdan voz kechdi.

1635-yilda shvedlar bu jangda holdan toydilar va mag'lubiyatga uchray boshladilar. Bir qancha protestant knyazliklari imperator bilan sulh tuzish yo'llarini qidira boshladilar. Aynan shu vaziyatda Fransiya Gabsburglarga qarshi urush e'lon qildi. Fransiyani bu urushda italyan katolik davlatlaridan Mantuya, Savoyya va Venetsiya qo'llab-quvvatladi. O'ttiz yillik urush so'ngida urushning diniy karakteri barham topdi. Fransiya katolik imperiyaga qarshi urush harakatlarini olib bordi. Fransiya va Shvetsiya Gabsburglarga qarshi kurashayotgan bir paytda Daniya imperiya tarafida turib urush olib bordi. Urushning so'nggi bosqichida misli ko'rilmagan qurbonliklar yuz berdi. Germaniyaning 60-75 foiz aholisi, ya'ni 15 mln. kishi qurbon bo'ldi, Chexiyaning 2,5 mln. aholisidan atigi 700 ming kishi tirik qoldi.

1648-yilda imzolangan tinchlik shartnomasi Vestfal shartnomasi nomini

oldi. Bu urush natijasida Fransiya va Shvesiya ko‘chaydi hamda ular Yevropaning eng salohiyatli davlatlariga aylandilar. Shvesiya deyarli barcha Boltiq dengizi hududlarini o‘z nazoratiga oldi. Elzas Fransiya qo‘shib olindi va imperiyaning o‘nlab shaharlarini Fransiya o‘z nazoratiga oldi. Vestfal sulh shartnomasiga binoan, Shveytsariya va Gollandiya respublikalari tashkil topdi va xalqaro miqyosda e‘tirof etildi.

Protestantizm mazhabiga mansub bo‘lgan Brandenburg va Saksoniya knyazliklari hududi kengaydi. Endilikda imperiya hududida katoliklar, lyuteranlar va kalvinistlar teng huquqlarga ega bo‘ldilar. Germaniyaning tarqoqligi ko‘chaydi. Muqaddas Rim imperiyasi va imperator nomigagina saqlab qolindi. Biroq, Ispaniya va Fransiya o‘rtasidagi urush yana 10-yil davom etdi va, oxir-oqibatda, Fransiya Lotaringiyani o‘ziga qo‘shib olishga muvaffaq bo‘ldi.

O‘ttiz yillik urushdan keyin diniy omillarning ta‘siri zaiflashdi. Endilikda xalqaro munosabatlarda iqtisodiy, diplomatik va geosiyosiy omillarning ahamiyati oshdi.

1.5. XVII asrdagi Angliya burjua inqlobi va bozor istisodiyotiga asoslangan jamiyatning shakllanishi.

Angliya Buyuk Britaniya orollarining o‘rta va janubiy qismida joylashgan bo‘lib, u shimolda Shotlandiya, g‘arbda - Uels bilan chegaradosh, sharqda - Shimoliy dengiz, shimoliy g‘arbda- Irlandiya dengizi va Atlantika okeani bilan o‘ralgan.

Angliyaning yana bir muhim xususiyati shundaki, bu yerda XIII asrdan boshlab parlament vujudga keldi. Mamlakat rivojlanishi bilan bir paytda parlament ham takomillashib bordi va siyosiy hayotda tobora muhim o‘rin egallay boshladi.

Parlament oldin bir palatali va XIV asrdan boshlab ikki palatadan iborat bo‘lib, quyi palata - vakillar palatasi va yuqori palata esa - lordlar palatasi nomi bilan yuritilar edi. Angliyaning Yevropadagi diniy nizo va urushlardan chetda turishi ham taraqqiyotning muhim omillaridan biri bo‘lib xizmat qildi. Qirol Genrix VIII davridayoq mamlakat Rim papasi tarkibidan chiqib, bu yerda anglikan cherkoviga asos solindi. Anglikan cherkovi katolitsizmdan ko‘ra

protestantizmga yaqinroq bo‘lib, endi rivojlanib kelayotgan o‘rta tabaqalarning dunyoqarashiga juda mos kelar edi.

XVII asrning 20-30 yillarida Angliyada savdo-sotiq, hunarmandchilik tez sur‘atlar bilan rivojlanib bordi. Bu esa, o‘z navbatida, naturaga asoslangan ayirboshlashni bekor qilish va yollanma mehnatni joriy qilishni taqozo etardi. O‘rta asrga xos siyosiy tizim qirolning cheklanmagan hokimiyatini hamda katta yer egalari - lendlordlarning manfaatini himoya qilar edi. Lendlordlar, qirollik, ritsarlik va ularning tarafdorlari eski tizimni saqlab qolishga intilar edilar. Ulardan farqli ularoq, hunarmandlar, jentri - yangi dvoryanlar, savdogarlar esa - eski tizimni yangilash tarafdorlari edilar.

Shu tariqa, XVII asrning 20-30 yillarida Angliya jamiyatidagi qarama-qarshi kuchlar o‘rtasidagi ziddiyat nihoyatda keskinlashdi. Parlament qirollik va uning tarafdorlariga qarshi o‘z harakatlarini boshlab yubordi. Qirol Karl I 1625-yilda taxtga o‘tirgach, vaziyat yanada murakkablashdi. Parlament 1628-yilda tayyorlagan huquqlar to‘g‘risidagi mashhur hujjatida qirolning mutlaq hokimiyati bekor qilindi. Unga binoan, qirolning fuqarolarga qonunsiz soliqlar solishga va ularni qamoqqa olishga haqqi yuq edi. Bundan norozi bo‘lgan Karl I parlamentni tarqatib yubordi va mamlakatni parlamentsiz idora qila boshladi. Ammo, bir necha-yil o‘tgach, qirol yangidan-yangi harajatlar uchun pulga muhtojlik sezdi, natijada u yangi parlamentni chaqirishga majbur bo‘ldi. Bu voqea 1640-yilda yuz berdi.

Ikki yil o‘tmay mamlakatda fuqarolar urushi boshlanib ketdi. Qirol, uni qo‘llovchi ko‘pchilik dvoryanlar, armiya parlamentga qarshi urush e‘lon qilishdi. Parlamentni yangi dvoryanlar, badavlat savdogarlar va London shahri aholisi qullab-quvvatladi. Urush bir necha-yil davom etdi. Fuqarolar urushi ko‘rinishidagi ushbu inqilob, mutlaq hokimiyatni va feodal tartiblarni tugatish maqsadida olib borildi. Qirol armiyasini tor-mor etishda parlament a‘zolaridan Oliver Kromvel (1599-1658) katta jonbozlik ko‘rsatdi. Kromvel harbiy qo‘mondon sifatida mohir tashkilotchi, “temir” intizom tarafdori va o‘zi olib borayotgan kurashning adolatli ekanligiga chuqur ishongan jasur rahnamolardan biri edi.

Kromvelning tashkilotchiligi, ayniqsa, uning “Yangi nusxa” nomi bilan mashhur bo‘lgan armiyani tuzishida yaqqol namoyon bo‘ldi. Kromvel qo‘mondon sifatida urushning eng og‘ir, xavfli joylarida paydo bo‘lar, jangchilarni ilhomlantirib, ularda kuch-quvvat, jasurlik damda g‘alabaga ishonch ruhini tug‘dirar edi. Kromvelning “Temir biqinlar” deb atalgan suvoriylari qirolning otliq qo‘shinlarini ketma-ket mag‘lubiyatga uchratdi.

Kromvel yangi dvoryanlar tabaqasidan chiqqan bo‘lib, serg‘ayrat, mustahkam irodali, qat‘iyatli, zo‘r notiq hamda ishning “ko‘zini biladigan” inson edi. U parlament armiyasining eng iste‘dodli sarkardasiga aylandi. U otliqlardan iborat qo‘shinga harbiy ishni puxta o‘rgatdi. Kromvelning chavandozlari qilich, nayzalar bilan qurollangan bo‘lib, temir sovut kiyib jangga kirar edilar.

Mazkur g‘alabalar tufayli Kromvel katta obro‘ qozondi. Uning parlament topshirig‘i bilan tuzilgan “Yangi nusxa” nomli armiyasi chinakam yangi, inqilobiy armiya bo‘lib, Kromvel tashabbusi yuzlab yosh, iste‘dodli zobitlarni o‘z ichidan yetishtirib chiqardi. Aynan shu yangi armiya urush taqdirini hal etdi. Neyzbi qishlogi yonida 1645-yil iyun oyida bo‘lgan jangda bu armiya qirol armiyasi ustidan to‘la g‘alaba qozondi. Qirol Karl I zo‘rg‘a qochib qutuldi, ko‘plab to‘p-zambaraklar, ot-ulov va bir necha ming asir qo‘lga olindi. Bu urush harakatlarining rejasini puxta chizgan va g‘alabani qo‘lga kiritishda jonbozlik ko‘rsatgan ham Oliver Kromvel edi.

Neyzbi qishlog‘i yonidagi bu g‘alaba natijasida qirolning maxfiy yozishmalari ham Kromvel armiyasi qo‘liga tushdi. Yozishmalardan Karl I ning Fransiyaning yaqinda taxtga o‘tirgan yosh qirol Lyudovik XIV ga murojaat qilib, undan yordam so‘raganligi ma‘lum bo‘ldi. Parlament Karl I ning bu xatti-harakatlarini haqli ravishda “xoinlik” deb baholadi.

Parlament ichida ham qirol bilan kelishib ish ko‘rishni istaydigan deputatlar bor edi. Kromvel va uning tarafdorlari qirolni ingliz xalqining ashaddiy dushmani deb bilar va unga qarshi qattiq jazo ko‘rishni talab qilmoqda edilar. Angliya zobitlaridan biri polkovnik Prayd o‘zining qurollangan kichiq guruhi bilan parlament binosiga kirib, qirol Karl I bilan kelishib ish ko‘rmoqchi bo‘lgan

deputatlarning barchasini haydab chiqardi. Bu hodisa parlamentni “Prayd tozalashi” nomi bilan Angliya tarixiga kirdi. Shundan so‘ng parlamentning jamoalar palatasiga mansub Prayd tomonidan “tozalangan” qismi ikkinchi palata - lordlar palatasining qarshiligiga qaramasdan, Karl I ni parlament tomonidan Oliy sudga topshirdi. Sud uni “O‘z xalqining zolimi, xoini, jallodi va dushmani” sifatida qatl qilishga hukm chiqardi.

1649-yil 30-yanvar kuni London shahrining Uaytxoll qasrida va parlament a‘zolari ishtirokida Karl I ning boshi tanasidan judo etildi. 1649-yil 19-mayda Angliya ilk bor respublika deb e‘lon qilindi. Kromvel armiyasi - respublikaning himoyachisi, Kromvelning o‘zi esa, amalda Angliyaning Oliy hukmdori - diktatoriga aylandi. Oliver Kromvel hukmronligi davrida Angliyada bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat jadal sur‘atlar bilan rivojlandi. Angliyaning dengiz floti Gollandiya, Fransiya va Ispaniya harbiy dengiz flotlarini chekinishga majbur etib, Yevropadagi eng kuchli dengiz saltanati mavqeyini qo‘lga kiritdi.

Angliyaning taraqqiy etishi va uning harbiy qudrati yangi yerlar va mustamlakalarning bosib olinishiga olib keldi. Irlandiyaning sharqiy qismini Angliya allaqachon bosib olgan edi, biroq u yerda Angliyaga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tarildi, milliy qarama-qarshiliklarga diniy adovat ham qo‘shildi, chunki irlandlar xristian dinining katolik mazxabiga mansub edilar. 1649-yilda Kromvel boshchiligidagi armiya Dublinga yetib bordi, irland qo‘shinlari bilan bir qatorda bu armiya ko‘plab tinch aholini qirib tashladi, minglab irlandlar boshqa mamlakatlarga ko‘chishga majbur bo‘ldilar. Irlandiyaga qaragan yerlarning katta qismi tortib olinib, boy ingliz dvoryanlariga va burjuaziyaga sotildi. Irland dehqonlari lendlordlarga qaram ijarachilarga aylandilar. 1652-yilda Kromvel armiyasi Shotlandiyaga bostirib kirdi. Marhum qirol Karl I qo‘shinlarini qo‘llab, ularga yordam berib kelgan mahalliy feodallar qo‘shini tor-mor qilindi. Shotlandiya Angliya tomonidan zabt etildi. Biroq, Angliya respublikasi uzoq yashamadi, qirol Karl I qatl etilganidan so‘ng, u, bor-yug‘i, o‘n bir yilgina saqlanib turdi. O.Kromvel 1658-yilda vafot etgach, ikki yildan so‘ng respublika tuzumi ham quladi. Angliya inqilobi davrida xorijda boshpana topgan Karl I ning o‘g‘li Karl II

nomi bilan qaytadan taxtga o'tkazildi. U qirollik qilgan davrda Angliyaning xalqaro mavqei biroz susaydi. Kromvel davridagi Angliya ega bo'lgan o'rinlar qo'ldan ketdi. Karl II parlament bilan kelishib, juda ehtiyotkorlik bilan ish yuritdi. U o'z umrini maishat, ko'ngilxushlik va bekorchi ishlar bilan o'tkazdi. U Fransiya qiroli Lyudovik XIV tayinlagan yashirin maosh hisobiga kun ko'rdi.

Qirol Karl II ning vorisi, uning ukasi Yakov II 1685-yil taxtga chiqishi bilan uning parlament bilan munosabatlari keskinlashdi. Yakov II katolik mazhabiga mansub bo'lib, Angliya aholisini Rim papasining ma'naviy ixtiyoriga topshirishni o'z oldiga maqsad qilib oldi. Ammo, inglizlarning ko'pchiligi din to'g'risida ham ma'lumotga ega bo'lishlariga qaramay, Rim papasi va uning diniy tartiblarini yomon ko'rishar edi. Shu sababli, qirol Yakov II ingliz xalqining protestantlikka yaqin bo'lgan o'ziga xos diniy urf-odatlariga qarshi biron bir ish qila olmas edi. Yakov II ning xatti-harakatlaridan g'azabga kelgan ko'pchilik parlament a'zolari qirolga la'natlar yog'dirdilar. Yakov II Fransiya qochib ketishga majbur bo'ldi. Parlament bu safar tinch yo'l bilan, hech qanday fuqarolar urushisiz qirol ustidan g'alabani qo'lga kiritdi. Ammo, Angliya respublika deb e'lon qilinmadi. Angliya taxti bo'sh bo'lib, parlament yangi qirolni taxtga o'tqazish uchun nomzod kidira boshladi. Ko'p utmay shunday nomzod topildi. Bu odam Oranskiylar sulolasiga mansub Gollandiya hukmdori Vilgelm III Oranskiy edi. Uning ingliz qirolligi xonadonidan chiqqan Mariyaga uylanganligi ham ingliz qirolligiga nomzod bo'lishining asosiy sabablaridan biri edi. 1688-yil oxirida Vilgelm va Mariya katta shov-shuv va tantanalar bilan shohona bezatilgan kemada Gollandiyadan chiqib, qirol va qirolicha sifatida ingliz taxtini egalladilar.

Ana shu tarixiy voqeadan keyin Angliyada siyosiy hokimiyat o'zil-kesil parlament qo'lga o'tdi. Parlament tobora ingliz xalqining timsoliga aylana bordi. Shu tariqa, XVII asr ingliz inqilobi o'z nihoyasiga yetdi. 1688— 1689 yillardagi tinch yo'l bilan o'tkazilgan bu inqilob xalqaro munosabatlar tarixida “shonli (sharafli) inqilob” nomini oldi.

Angliya inqilobining bu g'alabasi Yevropa qit'asida kapitalizmning qaror topishi va rivojlanishi uchun hal qiluvchi rol uynadi. Mutlaq feodal xokimiyat

ustidan qozonilgan ushbu g'alaba natijasida qishloq xo'jaligi gurkirab rivojlandi, sanoat ishlab chiqarishidagi "tuntarish" ga keng yul ochildi. XVIII-XIX asrlarda Angliya boshqa barcha mamlakatlardan ancha o'zib ketdi va birinchi rivojlangan sanoat mamlakatiga aylandi.

1.6. O'ttiz yillik urushdan so'ng xalqaro maydondagi siyosiy voqealar.

O'ttiz yillik urush tugagandan keyingi xalqaro munosabatlarda avvalo uchta eng muhim voqea ro'y berdi. Birinchidan, Angliyada burjua inqilobi g'alaba qilgandan so'ng xalqaro ijtimoiy-siyosiy tizimlari turlicha bo'lgan ikki xil gruppaga, ya'ni burjua davlatlari (Angliya va Gollandiya) hamda feodal (dvoryan) davlatlari bir-biriga ta'sir ko'rsatmoqda edi. Bu ziddiyat Yevropadagi xalqaro ahvolni murakkablashtirib yubordi. To'g'ri, feodal monarxiyalar koalitsiyasining Angliyaga qarshi intervensiyasi, ya'ni, ingliz inqilobi yillarida zo'r berib targ'ib qilingan va tayyorlangan oshkora intervensiya amalga oshmadi, chunki qit'adagi buyuk davlatlar o'rtasidagi bartaraf qilib bo'lmaydigan ziddiyatlar, shuningdek bu davdatlarning ichki ijtimoiy siyosiy qiyinchiliklari, ayniqsa Fransiyadagi Fronda bu intervensiyani amalga oshirishga imkon bermadi.

Buning ustiga, Angliya, ya'ni burjua Angliyasi o'zining birinchi urushini qandaydir dvoryan monarxiyalariga emas, balki boshqa bir burjua respublikasiga Gollandiyaga qarshi olib bormoqda edi. Buning boisi shu ediki, ikki yosh burjua davlati ham dengizlarda hukmronlik qilishga intilardi, ular birinchi galda Yevropa qit'asida gegemonlik qilishga emas, balki, jahon savdo yo'llarida bepoyon okean kengliklarida uzoq joylardagi xalqlar va mamlakatlarning bozorlarida gegemonlik qilishga qiziqardi. Lekin, bu ikki burjua davlati o'rtasidagi raqobat sal vaqt o'tmay yo'qoldi, chunki Gollandiya kuchsizlik qildi va xalqaro siyosatda Angliyaning ikkinchi darajali sherigi bo'lib qatnashishga majbur bo'ldi. 1688-yildan boshlab Angliya bilan Gollandiya o'rtasida ittifoq vujudga keldi, chunki Gollandiya qiroli Vilgelm III Angliya hukmdori bo'lib qolgan edi. Aksincha, burjua Angliya, Gollandiya davlatlari guruhi bilan qit'adagi feodal monarxiyalarning boshlig'i bo'lgan Fransiya o'rtasidagi ziddiyat to'xtovsiz ko'chayib bordi. Bu esa, xalqaro munosabatlar sohasida ikki ijtimoiy-iqtisodiy tizim raqobatining namoyon bo'lishi

edi. Bo‘larning birinchisi, burjua ijtimoiy-iqtisodiy tizim to‘xtovsiz mustahkamlab va ko‘chayib bormoqda edi, ikkinchisi, feodal tizim esa o‘z ustunligini barcha vositalar bilan muhofaza etuvchi taraflaridan tortib to‘ harbiy tajovuzkorlikkacha o‘z ichiga olgan vositalar bilan zo‘r berib himoya qilmoqda edi.

Sharqiy Yevropa qudratli davlat - feodal Rossiya monarxiyasi Yevropa davlatlari tizimiga faol kuch sifatida qo‘shilgan vaqtdan boshlab bu tizim tushunchasining o‘zi xiyla kengaydi. Rossiya XVII asrdayoq Yevropadagi O‘ttiz yillik urushning borishiga ta‘sir ko‘rsatganidan so‘ng uning roli juda ham ko‘zga ko‘rindi. XVII asrning 30-yillari o‘rtalaridan boshlab rus hukumatining asosiy diqqat e‘tibori janubda Qrim tatarlariga qarshi kuchli mudofaa liniyasini vujudga keltirishga qaratilgan edi, lekin, XVII asr 40-yillari oxirlariga kelib Rossiya yana Yevropadagi xalqaro munosabatlarning qudratli omili sifatida maydonga chiqdi.

Mustahkamlanib borayotgan rus davlatining tashqi siyosiy vazifasi asosan, shimoliy-g‘arbda va janubda siqib qo‘yayotgan va xuddi qamal holatidagiday tutib kelayotgan uchta davlatga, ya‘ni Shvetsiya, Polsha va Turkiyaga qarshi kurash olib borishdan iborat edi. Bu uch davlatning biri o‘tmishda boshqa ba‘zi xalqlarni, o‘lkalarni bosib olgan ko‘p millatli davlat edi. Shunday qilib, Rossiyaning hukmron sinfi o‘z hududini kengaytirish uchun Shvetsiyaga, Polsha va Turkiyaga qarshi olib borgan kurashi o‘rinli kurash edi, chunki bu kurash rusdan zo‘rlik bilan tortib olingan hududlarni qayta qo‘lga kiritish uchun olib borgan urush edi. Ammo, Shvetsiya va Turkiyaga qarshi kurash Rossiyaning Boltiq dengiziga va Qora dengizga chiqishi uchun, dengiz orqali bo‘ladigan jahon savdosida va umum Yevropa siyosiy hayotida ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘lish uchun olib borilgan kurashi edi.

XVII asrning ikkinchi yarmida Shvetsiya bilan Turkiya bosqinchilik va tajovuzkorlik siyosati olib borganliklari uchun Sharqiy Yevropadagi xalqaro ahvol juda ham jiddiylashib ketgan edi. Ilgari Boltiq dengizining qariyb butun sohilini bosib olgan Shvetsiya endi sohilning ichkarisidagi hududlarni, ya‘ni Boltiq dengizi orqali olib boriladigan savdo uchun qishloq xo‘jalik mollari yetkazib beruvchi Rossiya va Polsha bilan kuch sinashardi. Shvetsiyaning bosqinchilik siyosati uning

Boltiqbo'yida hukmronlik qilishi uchun olib borilayotgan kurashning davomi edi, mahsulotlarni sotish orqali g'oyat katta boylik orttirish uchun imkon beradigan kuch edi. Shved dvoryanlari va savdogarlari zo'r berib bu maqsadga erishish uchun intilar va o'z hukumatini ig'vogarlik va bosqinchilikka qaratilgan tashqi siyosat yurgizishga undardilar.

Ayni paytda Janubi-Sharqiy Yevropada Turkiyaning bosqinchiligi qayta boshlandi. Turkiya bilan Eron o'rtasidagi bir qancha urushlar natijasida Turkiyaning Yevropadagi agressiyasi XVII asr boshlaridayoq to'xtatilgan edi. Lekin, XVII asrning 60-yillarida Eron - Turkiya antagonizmi susayishi bilan Usmoniylar imperiyasi yana o'zining Yevropadagi yer-mulklarini kengaytirishga tushdi. So'l qirg'oq Ukrainani Moskva davlatiga qo'shgan Xmelnitskiy rahbarligida Rech Pospolita o'rtasida 1654-yilda urush boshlandi, rus qo'shinlari Polshaga zafar bilan kirib bordi. Lekin, o'sha vaqtda Rossiyaning "ittifoqchisi" Shvetsiya shoshib-pishib polyaklar yerlarini shimoldan bosib olishga kirishdi. Natijada, Rossiya Shvetsiyaga qarshi urush boshladi va shved qo'shinlarini Boltiq sohiliga siqib qo'ygandan keyingina yana Polshaga qarshi urushni davom ettira oldi.

1667-yildagi Indrusovoda tuzilgan yarash ahdiga binoan, So'l qirg'oq Ukraina rasman Rossiyaga qo'shib olindi. Lekin, o'sha vaqtda Turkiya janubdan o'ng qirg'oq Ukrainaga bostirib kirishga shoshilmoqda edi. Moskva tashqi siyosatiga endi Turkiya xavfini harbiy vositalar bilan ham, diplomatik vositalar bilan ham daf etishga to'g'ri keldi.

Shunday qilib, Sharqiy Yevropadagi xalqaro ziddiyatlar butun Yevropa davlatlari tizimiga Yevropadagi barcha xalqaro munosabatlar bobidagi butun ahvolga chuqur ta'sir ko'rsatmay qola olmas edi. Uchinchidan, 30 yillik urushdan so'ng harbiy feodal monarxiyalarining o'z orasida kuchlarning joylashuvi xiyla darajada o'zgardi. XVII asrning birinchi yarmida Avstriya va Ispaniya Gabsburglari G'arbiy Yevropaning xalqaro hayotida gegemonlik qilgan bo'lsa, XVII asrning ikkinchi yarmida bu gegemonlik, shubhasiz Lyudovik XIV (1643-1715) Burbon saroyiga o'tdi. Gabsburglar siyosati millat manfaatlariga qarshi

katoliklar “universalizm” tendensiyalari bilan bog‘langan edi. Ammo, “O‘ttiz yillik urush”da Gabsburglar batamom tor-mor etilgani yo‘q edi va xalqaro kuch bo‘lib qolaverdi. XVII asr 60-yillarida Lyudovik XIV monarxiasining ichki ahvoli shu qadar mustahkamlandiki, u kurashni yangidan boshlashi imkonini berdi. Lekin, kurashning mazmuni o‘zgardi.

XVII asr o‘rtalarigacha Gabsburglar bilan olib borilgan urush asosan, milliy mudofaa harakteridagi urush edi. Lyudovik XIV olib borgan urush keyinchalik bosqinchilik urushiga aylanib bordi. U Yevropa imperiyasini vujudga keltirish, dastavval G‘arbiy Germaniyani egallash orzusida edi. Pireniya sulhini tuzishdayoq Mazarini bu sulhnomada Fransiyani kelajakda Ispaniya taxtini da‘vo qilish uchun bahona qilgan edi. Ispaniya qirolining qizi va vorisi Mariya Tereza Lyudovik XIV ga tegdi. U Ispaniya taxtini egallashi mumkin edi. Ispaniya bunga yo‘l qo‘ymaslik uchun Pireniya sulhi matniga Mariya Terezaning o‘zi va zurriyodining Ispaniya taxtiga da‘vo qilish huquqlaridan voz kechish kerak degan modda kiritilishini talab qildi. Mazarini bunga rozi bo‘ldi. Lekin, Mariya Tereza buning evaziga 500 ming ekyu oltin pul to‘lashi kerak dedi. Mazarini bu pulni Ispaniya to‘lay olmasligini bilar edi. Ammo, bu pul to‘lanmasa, Mariya Terezaning voz kechishi bekor qilinardi yoki to‘lanmagan pul badaliga Fransiya Ispaniyaning muayyan hududini talab qilishi mumkin edi. Mazarinining diplomatik tuguni yarim asrdan so‘ng yechildi. Belgilangan pul haqiqatdan ham to‘lanmadi.

Ispaniya qiroli Filipp XIV 1665-yilda vafot etdi, Fransiya o‘z merosini janubiy Niderlandiyadan berilishini talab qildi, Ispaniya uni rad qildi. Natijada, 1667-yilda Fransiya Ispaniya urushi boshlandi. Bu urush “Devolyusiya urushi” yoki “Vorislik urushi” deyildi. Lyudovik XIV Brabatan va Flandriyani armiyasi yo‘qligi tufayli himoyasiz deb o‘yladi, Ispaniya ularga qo‘shin yetkazib berolmas edi. Fransuzlarning 1667-yildagi boji og‘ir bo‘lib, Gollandlarning savdo ishlariga putur yetkazgan edi. Bundan g‘azablangan Gollandlar tajovuzkor Fransiya bilan qo‘shni bo‘lishdan qo‘rqib, janubiy Niderlandiyaning ular tomonidan bosib olinishiga yo‘l qo‘ymaslikka ahd qildilar. Ular ashaddiy dushmanlari Ispaniya qirollari bilan ittifoq tuzishni afzal ko‘rib, ular talablariga rozi bo‘ldilar. 1665-1667

yillarda Angliya Gollandiyaga qarshi ikkinchi muvaffaqiyatsiz urush olib borayotgan edi, lekin Angliya parlamenti 1668-yilda Karl II ni o'z yo'lini o'zgartirishga va Fransiyaga qarshi Gollandiya bilan ittifoq tuzishga majburladi. Bungacha qirol Fransiyaga Angliya bilan ittifoq tuzishni taklif qildi, lekin Lyudovik XIV uni qabul qilmadi, chunki, unga ko'ra, Ispaniyaning hamma mustamlakalari Angliyaga o'tishi kerak edi. Shunday qilib, Gabsburglarga qarshi kurashda kechagina ittifoqchi bo'lgan Gollandiya, Shvetsiya, Angliya, Ispaniya bilan birlashib Fransiyaning dushmaniga aylandi. Fransiya urushga diplomatik jihatdan yaxshi tayyor emasdi. Shu sababli, Gollandiya va Ispaniya Germaniya ustiga qilgan yurishlar keskin bo'lsa-da, Lyudovik XIV bir yildan so'ng 1668-yildayoq urushni shoshilinch sur'atda to'xtatishga majbur bo'ldi. Axen sulhiga ko'ra, Fransiya Niderlandiyaning bir qismini, ya'ni, Liml shahrini o'zida saqlab qola oldi.

1672-yilda eng yaxshi lashkarboshilari Tyurek va Konde rahbarligidagi fransuz armiyasi janubiy Niderlandiyaga va Gollandiyaga hujum qildi. Olib bo'lmaydigan mustahkam deb hisoblangan va bir vaqtlar ispanlarga qarshi qurilgan golland qal'alari olindi. Fransuz qo'shinlari Gollandiyaning ichiga bostirib kirdi. Amsterdamda Vilgelm Oranskiy juda keskin harbiy choralar ko'rdi, to'g'onlar buzdirildi, katta bir hududni suv bosdi, fransuz qo'shinlari chekinishga majbur bo'ldi. Lekin Vilgelmning choralari muvaffaqiyatliroq edi. Uning choralari Fransiyaning bir qism qo'shinlarini Germaniyaga yuborishga majbur qildi, bu qo'shinlar Germaniyada hamma joyni harob qildi. Shunday qilib, xalqaro vaziyat Fransiya uchun yana noqulay tus ola boshladi.

Lyudovik XIV 1679-yilda Nimvegon sulhini tuzdi. Ispaniya unga janubiy Niderlandiyadagi yana bir qancha shaharlarni berdi. Bu shartnoma birinchi fransuz tilida yozilgan shartnoma bo'ldi. Lyudovik XIV ning ishtahasi osha bordi, u shimoliy Italiya, butun G'arbiy Germaniya, uning toj-taxtiga da'vo qila boshladi. Imperator Leopold I ning ahvoli mushkul edi, u ikki tomonlama savdo: Fransiya va Turkiya xavfi ostida edi. 1686-yilda asosan, Gollandiya shtatgalteri Vilgelm III Oranskiyning diplomatik faolligi tufayli Augsburg ligasi vujudga keldi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. “O‘ttiz yillik urush”ning kelib chiqish sabablari nimalardan iborat?
2. “O‘ttiz yillik urush” qanday davrlarga bo‘linadi?
3. Vestfaliya sulhi mazmuni haqida so‘zlab bering?
4. “Restitutsiya” tushunchasi xalqoro huquqda qanday ma’no kasb etadi?
5. XVII asrdagi Angliya burjua inqilobi kelib chiqishiga nima sabab bo‘ldi?
6. Xalqaro munosabatlar tarixida “shonli (sharafli) inqilob” nomini olgan inqilobni mohiyatini tushuntiring.
7. XVII asr boshlaridagi Rossiyaning ichki va tashqi nizolari qaysi davlatlarini Markaziy Yevropa voqealaridan chalg‘itdi?
8. Angliya tarixiga “Prayd tozalashi” degan nom bilan kirgan voqea to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
9. O‘ttiz yillik urushdan so‘ng xalqaro maydondagi siyosiy voqealar haqida so‘zlab bering.
10. Jahon tarixiga “Devolyusiya urushi” yoki “Vorislilik urushi” nomi bilan kirgan urush haqida so‘zlab bering.

2-MAVZU. XVIII ASRDA XALQARO MUNOSABATLAR

Reja:

2.1. Ispaniya merosi uchun urush (1701-1714). Utrext sulhi.

2.2. Shimoliy urush tamom bo'lishidan buyuk Fransiya burjua inqilobi boshlanguncha o'tgan davr ichidagi xalqaro munosabatlar.

Tayanch tushunchalar: *Utrext sulhi, Risvik sulhi, Fridrix II diplomatiyasi, Yetti yillik urush, Uliyam Pitt Katta diplomatiyasi, Augsburg Ligasi, Shimoliy urush, Kuchukqaynarji sulhi.*

2.1. Ispaniya merosi uchun urush (1701-1714). Utrext sulhi.

Fransiyaga qarshi mamlakatlar va papa Innokentiy XI homiyligida Fransiyaning keyingi vaqtlarda qiladigan har qanday hududiy da'volarga qarshi mudofaa ittifoqi tuzdilar. Lyudovik XIV Risvik sulhini tuzib, Ispaniya merosidan katta ulush olishni mo'ljallangan edi. Ispaniya qiroli Karl II ning erkak zurriyodi yo'q edi. Merosxo'rlar: Mariya Tereza bilan Lyudovik XIV ning o'g'li, Margarita Terezaning eri Leopold I va Bavariyaning go'dak shahzodasi Leopold II edi. Lyudovik XIV Augsburg ittifoqi bilan yarashishdan foydalanib, Ispaniya o'lkalarini uchta merosxo'r o'rtasida do'stona taqsimlash haqida Ispaniyani aralashtirmay Augsburg ittifoqi a'zolari bilan 1698-yildayoq yashirincha kelishib olgan edi. Biroq, 1696-yilda yuqoridagi til biriktirishga muvofiq, Ispaniya taxtiga chiqishi lozim bo'lgan Bavariya shahzodasi to'satdan vafot etdi. Imperator Leopold II o'zining Ispaniya merosiga doir huquqlarini o'z o'g'li gersog Karlga berishni e'lon qildi.

Shu orada Ispaniya qiroli Karl II saroyida ikki guruh kishilar: Avstriya va Fransiya tarafdorlari o'rtasida kurash borayotgan edi. Fransiya tarafdorlarining Karl II ga ta'siri katta edi. Ular Ispan hukmdorlarini pora berib, sotib olish yo'li bilan g'alaba qozondi. Karl II Ispan va Fransuz saltanatini birlashtirmaslik sharti bilan o'z qo'li ostida hamma o'lkalarni Fransiya dagi merosxo'riga Lyudovik XIV ning ikkinchi nabirasi Filipp Anjuyga berishni vasiyat qildi.

Sal o'tmay, Lyudovik XIV siyosati Yevropada yangi urush bo'lishini muqarrar qilib qo'ydi. Filipp Anjuy 1701-yilning boshlarida Ispaniyaga kelishi va Filipp V nomi bilan Ispaniya qiroli deb e'lon qilingani bilan cheklanmay, Lyudovik Ispan va Fransuz yerlarini birlashtirmasligi to'g'risidagi shartga mutlaqo rioya qilmoqchi emas edi. U endi "General yo'q" deb da'vo qilib, Filipp Anjuyning Fransuz taxtiga merosxo'rligini rasmiy hujjat bilan tasdiqladi. U Ispaniya o'lkalarini Filipp V nomi bilan idora qila boshladi. Inglizlar bilan gollandlammg Ispaniyada "savdo-sotiq imtiyozlari" berilishi haqidagi talablari Lyudovik XIV tomonidan rad qilindi. 1701-yilda Vilgelm II vafot etib, Lyudovik XIV Risvik sulhidan tan olgan majburiyatlarini buzib, Yakov II ning o'g'lini Angliya qiroli deb tan oldi. Angliya va Gollandiya, Angliyaning yangi qirolichasi Anna ham Fransiyaga urush ochishdan o'zga iloji yo'qligini tan oldi.

1701-yilda imperator Leopld I ning Lyudovik XIV ga qarshi urush boshlashga, bosib olingan yerlarini qaytarib olish va yangi istilolarning oldini olishga harakat qilish uchun hech nima xalaqit bermas edi. Fransuz qo'shinlarining Milan gersogligini bosib olishga to'sqinlik qilish maqsadida Leopold I rasmiy ravishda urush e'lon qilmasdan oldinroq 1701-yilda Italiyaga qo'shin yubordi.

1702-yil mayda Angliyaga va Gollandiyadan so'ng Leopold I ham Fransiyaga urush e'lon qildi. Ersgersog Karl 1702-yilda ingliz flotining himoyasida Portugaliyaga keldi va o'zini Ispaniya qiroli Karl III deb e'lon qildi va Madridda turgan qiroli Filipp V ga qarshi urush boshladi. Ispaniya merosi uchun olib borilgan urush ayni bir vaqtda to'rtta jang maydonida: Italiyada, Ispaniyada, G'arbiy Germaniyada va Niderlandiyada olib borilmoqda edi. Urushning birinchi davri (1702-1704) Fransiya uchun qulay bo'ldi. Mahoratli lashkarboshilar qo'mondonligidagi fransuz armiyalari Niderlandiya va Reyn viloyatida mudofaa janglarini olib bordilar. Lekin, 1705-yilda Fransiyaning nechog'lik holdan ketganligi ayon bo'ldi. U o'z dushmanlariga so'nggi zarbani berolmadi, chunki Fransiyaning mablag'lari tugagan edi.

Ispaniya merosi uchun olib borilgan urushning ikkinchi davri 1705-yildan boshlandi. Bu davrda Fransiya tobora ko'p harbiy omadsizliklarga va

mag'lubiyatlarga uchradi. 1706-yilda fransuz qo'shinlari Niderlandiyadan, 1707-yilda Milan gersogligidan yengildi, natijada Italiya ham Ispaniya qirolining hukmronligidan butunlay qutulib, imperator va inglizlar qo'l ostida o'tdi. G'arbiy Germaniyada hamma narsa qo'ldan ketgan edi. Dushmanlar shimol va janubdan Fransiya bostirib kirdi. Lyudovik XIV taslim bo'lish lozimligini sezsa, uni tan olgisi kelmadi. Lekin, 1710-yildan boshlab Angliyaning siyosatida keskin burilish yuz berdi, shu sababli o'sha vaqtda Ispaniya merosi uchun olib borilgan urush tarixida uchinchi davr boshlandi. Ba'zi ingliz tarixchilari bu burilishning sababi juda ochiqdan-ochiq boyib olgan gersog Malboroning ingliz burjuaziyasi orasida obro'yi qolmaganligidir deyilar. Yo'q, unday emas, buning bir qancha sabablari bor. Jumladan: Pyotr I ning Poltava yonida Karl XII ustidan qozongan g'alabasi (1709) va Shimoliy Sharqiy Yevropadagi kuchlar nisbatining o'zgarganligi asosiy sababdir. 1711-yilda imperator Iosif I vafot etdi, uning vorisi bo'lmagani uchun taxt Leopold I ning ikkinchi o'g'li Karlga topshirildi.

Angliya va Fransiya o'rtasida dastlabki sulh shartlari 1712-yil oktyabrda imzolandi. 1713-yilda Utrextidagi sulh kongressi Fransiya va Ispaniya o'rtasida, ikkinchidan Fransiya, Angliya, Gollandiya, Brandenburg, Savoyya va Portugaliya o'rtasida Utrext shartnomasining tuzilishiga olib keldi. Filipp V ning Ispaniya va okean ortidagi mustamlakalariga hukmronlik qilish huquqi tan olindi, imperator Karl VI esa buning evaziga ilgari Ispaniya Niderlandiyasini va Ispaniyaning Italiyadagi sobiq o'lkalarini olishi kerak edi. Shunday qilib, Avstriya Gabsburglari Yevropadagi o'z kuchlarini ancha ko'paytirdilar. Utrext sulhiga ko'ra, go'yo Angliya juda oz narsa olgandek tuyulsa-da, lekin bu sulh aslida Angliya mustamlakachi imperiyasining rivojlanishiga olib keldi. U Gibraltarni va O'rta dengizdagi Meorka orolini, Shimoliy Amerikada muhim ahamiyatli hududlarni Nyufaundlendini, Muqaddas Lavrentiy daryosining quyilish joyini, Akadiyani, Fransiya Kanadasini qo'lga kiritdi, Ispaniya va uning Amerikadagi mustamlakalari bilan savdo-sotiqda alohida huquqlarga ega bo'ldi. Gollandiya amalda hech narsa olmadi va shartnomadan so'ng uchinchi darajali davlat holatiga tushib qoldi.

1712-yildayoq Angliyaning Gaagadagi vakili Shvetsiyaning vayron

qilinishiga va shimoliy davlatlar o'rtasidagi muvozanatning buzilishiga Angliyaning yo'l qo'ymasligini rus elchisiga rasmiy ravishda bildirdi. Lekin, Pyotr I Shimoliy Yevropada o'z ta'sirini tez oshirib borib, u Shvetsiyaga tobora yangidan-yangi zarbalar berdi. Rus floti Gangu yonida shved floti ustidan g'alaba qozonganidan keyin (1714) Boltiqbo'yida hukmron kuch bo'lib qoldi. Pyotr I Angliya qiroli Georg I ning Boltiq dengizidagi munosabatlarini ko'rib, 1717-yilda o'zining fransuzlarga qarshi kayfiyatini o'zgartirib yubordi. "Yevropada umumiy tinchlikni saqlash uchun" Fransiya, Rossiya va Prussiya o'rtasida Amsterdanda shartnoma tuzildi.

Ammo, Pyotr I ning diplomatik va harbiy muvaffaqiyatlari Angliyaning Pyotr I ga qarshi harakat qilish istagini ko'chaytirdi. 1719-yilda Angliya qiroli o'z navbatida Hannover kurfyursti ham edi, shu sababli Rossiyaga qarshi Shvetsiya bilan ittifoq tuzdi. Ingliz floti Boltiq dengiziga kirdi. Daniya bilan Prussiya Rossiyaga xiyonat qildi, endi Angliya bilan bir oz inoqlashayotgan Fransiya ham zimmasidagi majburiyatlaridan bosh tortdi. Ingliz diplomatiyasining Shimoliy-Sharqiy Yevropadagi yangi vaziyatni va Rossiya Boltiqda birinchi darajali davlatga aylanganini tan olish zarurligiga qat'iy ishonch hosil qilmog'i uchun Rossiya yangi harbiy muvaffaqiyatlarga erishmog'i kerak edi. 1721-yilda Shimoliy urush Nishtdat sulhi bilan tugadi va Rossiya bosib olgan hududlariga ega bo'lib qoldi.

Ispaniya merosi uchun olib borilgan urush va shimoliy urush Yevropa davlatlarining kuchi nisbatida katta o'zgarishlarga olib keldi. Fransiya sharqiy Yevropada gegemonlik qilish huquqidan mahrum bo'ldi. Shvetsiya qisqa davr qudratli davlat bo'lib turib, keyin ikkinchi darajali davlat holiga aylandi. O'ttiz yillik urushda o'z maqsadlariga erisha olmagan Avstriya Gabsburglari yana ko'chaydi va o'zlarining Yevropadagi yerlarini kengaytirdi. Germaniyada kuchli Prussiya qirolligi vujudga keldi. Gollandiya, Polsha va Turkiya Yevropadagi xalqaro hayotda faol rol o'ynamaydigan bo'lib qoldi.

2.2. Shimoliy urush tamom bo'lishidan buyuk Fransiya burjua inqilobi boshlanguncha o'tgan davr ichidagi xalqaro munosabatlar.

XVIII asrda Rossiya qudratining oshishi Yevropadagi butun xalqaro vaziyatning o'zgarishiga olib keldi. Rossiya Boltiq dengizi bilan Tinch okean o'rtasidagilarni o'z ichiga olgan g'oyat katta imperiyaga aylandi. Yevropa tarixida bunday imperiya hali tuzilmagan edi.

Rossiya juda katta o'lkalarga ega bo'lishga qaramay, uning hududi tobora kengayib bormoqda edi. Rossiyaning G'arb bilan, shuningdek, Eron bilan kattagina savdo sotiq aloqalari bor edi. Hukmron pomeschchiqlar sinfi bilan rus savdogarlari savdo yo'llarini mustahkamlab borishga, chegaralarni strategiya jihatdan mustahkam joylardan o'tqazishga va Rossiyaning hududini tobora kengaytirib va xalqaro ta'sirini oshirib borishga intilardi. Shimolda Rossiya oldida Boltiqdagi pozitsiyalarni mustahkam himoya qilish vazifasi turar edi. Pyotr I ning g'alabalaridan keyin Shvetsiya Yevropaning shimolida juda kuchli davlat bo'lmasada, poytaxtga Shvetsiya tomonidan tahdid qilish xavfi mavjud edi.

Rossiyaning Polshadagi ta'sirini ko'chaytirish masalasi ruslarning G'arbdagi siyosatida muhim o'rin tutardi. Janubdagi vazifa - Azovni ishg'ol etish, Qora dengizda savdo qilish huquqini qo'lga kiritish, Turkiyaga qarshi yana kurash olib borishdan iborat edi.

Mustamlakalar uchun va Yevropa qit'asida ta'sir ko'rsatish uchun Angliya va Fransiya manfaatlari to'qnashadigan joy dengizorti mamlakatlari edi. Bu mamlakatlar Kanada va Ost-Indiya bo'lib, Kanadani fransuzlar XVII asrdayoq bosib olgan edi. Ost-Indiya hududida esa ingliz va fransuz istilochilari qattiq kurash olib borardi. Angliya bilan Fransiya o'rtasida Yevropadagi ayrim hududlar uchun ham keskin ziddiyatlar bor edi. Angliya hukumati Fransiyaning Avstriya Niderlandiyasini va uning eng muhim qal'asi Antverpeni egallab olishga yo'l qo'ymaslikka intilar edi. Antverpenning fransuzlar qo'lida bo'lishi Angliya uchun xavf tug'dirishi mumkin edi. Antverpen fransuzlar qo'lida bo'lsa, Britaniya flotining kuchlari Yevropada band bo'lib, Angliyaning mustamlakachilik agressiyasi muvaffaqiyatli avj olmasdi. Mudofaa maqsadida emas,

mustamlakalarni talash maqsadida Angliya burjuaziyasi va aristokratiyasi Niderlandiyani Fransiyaning ta'siri ostida bo'lishga yo'l qo'yishni istamasdi. Shu maqsadga erishish uchun Angliya burjuaziyasi Yevropada Fransiyaning quruqlikdagi kuchlarini band qilib tura oladigan ittifoqchi topishga kirishdi.

Angliya hukumati 1713-yilda Ispaniya merosi uchun bo'lgan urushdan so'ng Niderlandiyaning Avstriyaga berilishiga erishgach, XVIII asrning birinchi yarmida Avstriya gabsburglarini, ya'ni Fransiya raqiblarini qo'llab keldi. Angliya Gollandiyaga ta'sir ko'rsatish uchun Fransiya qarshi kurashdi. Gannover siyosatini murakkablashtirib yubordi. Fransiyaning Gannoverni bosib olish mumkinligi Fransiya qarshi kurashish uchun Angliyaning ittifoqchilar orttirish ehtiyojini yanada ko'chaytirdi. Angliya o'zining savdo va mustamlakalaridan kelgan foyda orqali Fransiya qarshi birovlarining kuchi bilan kurash olib bordi.

Angliyaning boshqa bir dushmani Ispaniya esa Gibraltar bo'g'ozini va Menorkaning inglizlar tomonidan bosib olinganligini tan olmay kelayotgandi. Ingliz burjuaziyasi Ispaniya mustamlakalarida savdo huquqiga erishmoqchi va Ispanlarning Shimoliy Amerikadagi yerlarini egallab olmoqchi edi. Angliyaga qarshi kurash Ispaniyani Fransiya bilan birlashtirdi. Burbonlar sulolasining Ispaniya taxtiga o'tirishi ham bunga yordam berdi.

XVIII asrning birinchi yarmida Ispaniya bilan Fransiya Avstriya Gabsburglarining ashaddiy dushmanlari edi. Gabsburglarga qarshi kurashda Shvetsiya va Turkiyadan Fransiya o'z ittifoqchilari sifatida foydalanishga intildi. Fransiyaning o'rinishi Rossiya dushmanlarining ittifoqchisi sifatida noqulay ahvolda qoldi. Gabsburglarga qarshi qaratilgan "Sharqiy g'ov" degan mash'um tizim uzoq vaqtgacha Fransiyaning Rossiya dushmanlarining ittifoqchisi deb hisoblab keldi. Ispaniya Italiyadagi o'lkalari uchun Gabsburglarga qarshi kurash olib bordi. Ispaniya Burbonlari Ispaniya merosi uchun olib borilgan urushdan keyin Avstriya Gabsburglarining qo'lida qolgan ulkan Sitsiliya qirolligining o'z qo'llariga o'tishini talab qildilar. Italiyadagi bu davlatning Ispaniya Burbonlari qo'lga o'tishi Ispaniyaning O'rta dengizdagi mavqeini mustahkamladi va Angliyaga qarshi kurashishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Ispaniya merosi uchun olib borilgan urushdan keyin 1733-yilda Polsha tufayli birinchi katta xalqaro janjal boshlandi. Shlyaxta Polshasi juda ham zaiflashib qolgan edi.

XVI asrdayoq Shlyaxta Polshani G'arbiy Yevropa uchun g'alla yetkazib beruvchi mamlakatga aylantirib, Niderlandiya ingliz va nemis mollarining bojsiz keltirilish uchun chegaralarni keng ochib bergan edi. Bu hol polyak sanoatini bo'g'di, burjuaziyaning rivojiga yo'l bermadi. Shaharlarning pul bilan yordam bermasligi qirol hokimiyatining mustahkamlashiga yo'l qo'ymadi. Qirol hokimiyatining moliyaviy imkoniyatini ham, armiyasi ham juda zaif edi. Polyak magnatlarining va shlyaxtaning tashqi siyosati ham mamlakatning inqirozga yuz tutishiga sabab bo'ldi.

XVI-XVIII asrlarda polyak magnatlari va shlyaxta sharqdan shiddatli agressiya olib bordi, u bir necha davlat qirollari bilan til biriktirib ish ko'rdi. Bunday halokatli siyosat polyak xalqining manfaatlariga zid kelib, Polshaning G'arbdagi o'z yerlarini qaytib olishga xalal berdi. XVIII asrda Polsha shu qadar zaiflashgan ediki, kuchli davlat, ya'ni Rossiyaga qarshi davlatlar Polshadan istalgan vaqtda foydalanishlari mumkin edi. Polshani o'z vassaliga aylantirishga va uning taxtiga o'z odami Stanislav Leshchinskiyni o'tqazishga o'ringan Karl XII ning qo'shinlari Polshani strategik nuqtalarini egallashga muvaffaq bo'lgan edi. Avstriyaning eng xavfli dushmani Prussiya edi. Prussiyaning bosqinchilik siyosati qirol Fridrix II zamonida juda ham avj olib ketdi. Prussiyaning tashqi siyosati qo'shni davlatlarga nisbatan hiyla ishlatishga va o'z ittifoqchilariga nisbatan hayosizlik bilan xiyonat qilishga asoslangandi. Fridrix II o'zining nihoyatda surbetligi bilan boshqalardan ajralib turardi. 1740-yilda Karl VI vafot etgach, uning o'rniga Mariya Tereza o'tirdi. Fridrix II hukmronligining birinchi yilidayoq urush e'lon qilmay turib, Avstriyaning eng boy va sanoat jihatdan taraqqiy etgan viloyati Sileziyani bosib oldi. Prussiya tomonidan bosib olingan yerlarga o'xshash Sileziya ham polyaklarning qadimiy yeri edi.

Bavariya bilan Fransiya Fridrix II ning ittifoqchilari bo'lib, bu ikkisi Avstriya qo'lidagi Niderlandiyani bosib olishga bel bog'lagandi. Avstriyaning

dushmanlari uni zaiflashtirish maqsadida Bavariya kyurfyurstining imperator qilib saylanishga va Chexiyaning Bavariyaga qo'shib olinishiga erishmoqchi edi. Kyurfyurst Saksonskiy va Polsha qiroli Avgust III Fridrix II ning ta'siriga berildi. U Rossiya va Avstriya bilan tuzilgan ittifoqqa xiyonat qildi va Moraviyani bosib olish maqsadida Prussiya tomonida turib urushga qatnashdi. Ispaniya ham Avstriyaning dushmanlari qatoriga qo'shildi.

1763-yilda Avgust III Saksonskiy vafotidan so'ng Polshaga yangi qirol saylanishi kerak edi. Yangi qirol saylash hamisha shunday bir holga olib kelardiki, qo'shni davlatlar Polsha taxtiga o'zlariga yoqadigan nomzodning o'tqazish uchun kurashdilar. Fransiya bilan Avstriya yangi qirolni o'z siyosatining quroliga aylantirish umidida yana Saksonskiy xonadonidan nomzodlar ko'rsatishdi.

Yekaterina boshqacha reja tutdi. Polsha taxtiga Yekaterina o'zining sobiq mahbubi Stanislav Ponyatovskiyning o'tirishni ta'minlashga intildi, u eski Polsha qirollarining Giestlar xonadoniga mansub edi. Yekaterina bu nomzodni taxtga o'tqazish yolg'iz o'ziga qiyin bo'lishini anglab, o'z rejasining muvaffaqiyatli amalga oshishini ta'minlash uchun Prussiya bilan inoqlasha boshladi.

1764-yilda Fridrix II bilan Yekaterina o'rtasida Polsha ishlariga umumiy aralashish zahirida ittifoq tuzildi. Rossiya Turkiyaga yordam berish majburiyatini o'z zimmasiga oldi. Fridrix II esa Rossiya-Fransiya munosabatlarining keskinlashuvidan o'zining Yevropadagi ahvolini yaxshilash uchun foydalandi.

Rossiyaning tazyiqi natijasida Stanislav Ponyatovskiy Polsha qiroli qilib saylandi. 1767-yili esa dissidentlarning huquqini katoliklar huquqi bilan tenglashtirish haqida qonun chiqarildi. Polshani tobora zaiflashtirish, uning Rossiyaga qaramligini ko'chaytirish maqsadida Yekaterina Polsha bilan shartnoma tuzdi. Shuni aytish lozimki, dastlab Yekaterina Polshada qirol hokimiyatining bir muncha ko'chayishiga erishmoqchi va shu tariqa mustahkamlangan Polshadan Turkiyaga qarshi o'zining ittifoqchisi va vassali sifatida foydalanmoqchi bo'ldi. Lekin, Fridrix II polyaklarning vatanparvarlik intilishlariga dushmanlik pozitsiyasida bo'lib, u Polsha bilan Rossiyaning inoqlashishidan qo'rqib, Polshada reforma o'tkazmasligini talab qildi. Fridrixga yon berib Yekaterina polyaklarga

reforma o'tqazishga ruxsat bermadi, bu hol polyaklarni ruslarga qarshi qattiq g'azablantirdi.

XVIII asrning 60-yillarida o'z zamonining eng katta diplomatlaridan biri bo'lgan Nikita Ivanovich Panin Yekaterinaning eng yaqin yordamchisi edi. U Yekaterina bilan birga rus siyosatining shimoliy tizimi degan tizimni ishlab chiqdi.

“Shimoliy Tizim” “Yettiyillik urush”ning oxirlarida ro'y bergan ziddiyatlarning ko'chayishidan kelib chiqqan muqarrar natija edi. Bu tizim “janubiy” davlatlarning - Fransiya, Avstriya va Turkiyaning Rossiyaga dushmanligi sababli vujudga kelgan bo'lib, uning mohiyati “shimoliy davlatlar” bilan, birinchi navbatda Prussiya va Daniya bilan inoqlashishdan iborat edi. Yekaterina bilan Panin janubda o'z mayliga ish ko'rib, “shimoliy davlatlar”ning qo'llashidan foydalanib, Rossiyaning Polsha va Yaqin Sharqdagi ta'sirini mustahkamlash niyatida edi. Yekaterina II Prussiya bilan ittifoq tuzishdan tashqari Daniya bilan ham ittifoq tuzdi (1765) va Angliya bilan savdo shartnomasini tuzdi (1766). Bo'larning hammasi Rossiyaning xalqaro ahvolini yaxshilash uchun qilindi.

Rus diplomatiyasining Polshadagi yutuqlari Fransiya bilan Avstriyani Rossiyaga qarshi ish ko'rishga sabab bo'ldi. Natijada 1768-yilda Turkiya Rossiyaga hujum qildi. Urush boshlanib ketdi, bu urushda Turkiya batamom mag'lubiyatga uchradi va fransuz diplomatiyasining hamma rejalari barbod bo'ldi. Turkiyaning mag'lubiyatga uchraganligi butun Yevropaga ma'lum bo'ldi.

Yekaterina II Rossiya dvoryanlari imperiyasining Qora dengizga chiqishini, rus pomeshchilari va savdogarlarning harbiy savdo-sotiq maqsadida Qora dengizda suzish erkinligiga, dengizdan boshqa dengiz va okean yo'llariga chiqishni ta'minlab bermoqchi edi. Qora dengiz bo'yidagi dashtlarni o'zlashtirib bo'lmasdi, chunki, Qrim tatarlarining bosqinlari va Turkiyaning doimiy xavf solib turishi bu serhosil yerlarni egallash imkonini bermasdi.

Lyudovik XV va Mariya-Terezaning Turkiyadan ko'tgan umidlari puchga chiqdi, rus qo'shinlari va floti Turkiyaga zarba berdi. Arxipelag yonida rus floti turk flotini mag'lubiyatga uchratdi (1770). Turkiyaning dengiz kuchlariga barham

berildi. Rossiya quruqlikda, Dunay knyazligi va Zakavkazeda ulkan g'alabalarga erishdi.

O'sha vaqtda graf P.A.Rumyansev Rus harbiy mahoratini o'stirishda juda katta rol o'ynadi, u rus otliq askarlarini qayta tuzish va piyoda askarlar harakatida kolonna-kolonna bo'lib yurishdan iborat jangovor tartibni va yoyilib saf tortishni birinchi bo'lib qo'lladi. Rumyansevning asosiy strategik maqsadi dushman armiyasini yo'q qilishdan iborat deb hisoblardi, bu maqsadga u ustalik bilan ya'ni tashabbusni qo'lga olish va dushman qo'shinlarini bo'lak-bo'lak qilib tor-mor etish orqali erishishga intilardi.

Polshani taqsimlashni boshlovchi Prussiya edi. Lekin, XIX asrda Vena kongressidan keyin Polshaning asosiy o'lkalari Rossiya imperiyasi asoratiga tushib qolgach, polyak va ayniqsa, prus publitsistlari, Polshani taqsimlash Peterburgda ishlab chiqilgan degan fikrlarni bildirgan edilar.

Polshani birinchi taqsimlashda (1772) Fridrix II Polshaning dengiz bo'yini bosib oldi. U olgan yerlar Avstriya va Rossiya olgan yerlardan kam, biroq ahamiyati jihatdan yuqori edi. Fridrix II sharqiy Prussiyani boshqa hududlari bilan butun qilib birlashtirish imkoniyatiga ega bo'ldi. Rossiyaga Belorussiyaning bir qismi - eng katta, lekin aholisi eng kam qismi berildi. Avstriyaga berilgan qismida esa aholisining soni kam, iqtisodiy rivojlanishi past edi. Polshaning birinchi parchalab yuborilishi Polsha davlatining Prussiya, Rossiya va Avstriya tomonidan batamom yo'q qilinishining boshlanishi edi. 1772-yilgi taqsimlashni yakunlashda shuni aytish lozimki, Rech Pospolitaning qolgan butun hududi Rossiya imperiyasi ta'siriga o'tdi.

1768 – 1772 yillardagi Rossiya - Turkiya urushi Turkiyani taqsimlashni umum Yevropa miqyosidagi masalaga aylantirdi. 1774-yili Kuchuk-qaynarjada Rossiya bilan Turkiya o'rtasida sulh tuzildi. Rossiya Qora dengiz bug'ozlarida savdo kemalarining yurish huquqiga ega bo'ldi, Azov va Kerchni oldi. Turkiya Qrimni mustaqilligini tan oldi, pravoslav cherkovini ta'qib qilmaslikni o'z zimmasiga oldi. Bu sulh Rossiyaning tashqi siyosat sohasida erishgan juda katta yutug'i edi.

1787-yili Rossiya - Fransiya savdo shartnomasi tuzildi, bu shartnomaga muvofiq Marselda rus tovarlari eng og'ir bojlardan xalos bo'ldi, fransuzlar ham imtiyozga ega bo'ldilar.

Fransiyada burjua inqilobi yetilib kelayotgan vaqtda, Yevropaning markazida Avstriya bilan Prussiyaning kurashi davom etmoqda edi. 1778-yil Kurfyurst Bavarskiy vafotidan keyin, Iosif II Gabsburg Bavariyani Avstriyaning meros mulklariga qo'shib olish maqsadida, bosib olishga o'rindi, ammo u Prussiyaning qarshiligiga uchradi. Meros uchun janjal boshlandi, vositachi Rossiya bu janjaldan foydalandi. Diplomatlarning Teshindagi kongressida (1779) u Avstriyaning Bavariyadan voz kechishga majbur qildi, Vestfaliya shartnomasiga ko'ra, Rossiya german davlatlari o'rtasidagi janjallarga aralashish huquqiga ega bo'ldi. Ruslarning ta'siri butun Germaniyaga yoyildi.

1784-yili Avstriya yana mag'lubiyatga uchradi, imperator Iosif II Gollandiyadan Shelda daryosining quyilish joyida, ya'ni Avstriya Niderlandiyasining asosiy savdo yo'lini Belgiya savdosi uchun ochib qo'yishni talab qildi. Shelda daryosining quyilish joylari XVII asrdan boshlab, Belgiya savdosi uchun yopib qo'yilgan edi. Bu Belgiyadagi viloyatlarning iqtisodiy rivojlanishiga to'sqinlik qildi. Fransiyaning yordami bilan gollandlar Iosif II dan 10 mln. florin pul to'lab qutuldilar, bundan 4,5 mln. florinini fransuz saroyi to'ladi.

Iosif II bu mag'lubiyatidan keyin o'zining qolgan o'lkalaridan uzoqda bo'lgan zaif Niderlandiya viloyatlaridagi hukmronligini mustahkamlashdan umidini o'zib, Avstriya Niderlandiyasini Bavariyaga almashtirmoqchi bo'ldi. Fridrix II bu maxfiy rejani bilib qoldi va 1786-yili Avstriyaga qarshi Shimoliy Germaniya bilan O'rta Germaniyaning "knyazlar ittifoqini" tuzdi. Iosif II chekinishga majbur bo'ldi. Ittifoq tarqaldi.

1772-yilda Iosif II bilan Yekaterina II Usmoniy imperiyasini taqsimlab olish fikriga keldilar. 1781-yilda ular Turkiyaga qarshi harbiy ittifoq tuzdilar. Iosif II Serbiyani bosib olish va Avstriyaning Adriatika dengiziga chiqishga erishish niyatida edi Avstriya bilan ittifoq tuzilishi Rossiyaning sharqda keskin hujumga o'tishi imkonini berdi. 1783-yildayoq Qrim qo'shib olindi va Gruziya ustidan rus

protektorati o‘rnatildi.

Usmon imperiyasida rus va avstriys savdogarlarining huquqlari fransuz savdogarlarining huquqlari bilan tenglashtirildi. Qora dengiz bo‘yining, shu jumladan, Turkiya hukmronligi zamonida Rossiyaning vayron qiluvchi bosqinlar qilib turgan qrim tatarlarning tayanchi bo‘lib kelgan Qrimning Rossiyaga qo‘shib olinishi, Rossiya janubida ishlab chiqaruvchi kuchlarining rivojlantirishga imkon yaratdi.

Qurolli betaraflik ittifoqining vujudga kelishi, Rossiyaning faol siyosat yurgizishi, Polshaga va yaqin sharqqa ta’sir o‘tqazish sohasida erishgan muvaffaqiyatlari Angliya - Rossiya munosabatlarining keskinlashuviga sabab bo‘ldi. Uilyam Pitt Rossiyaga qarshi Usmon imperiyasini qo‘llab-quvvatlay boshladi. 1788-yili tuzilgan Angliya - Prussiya - Gollandiya ittifoqi Yekaterinaning tashqi siyosatiga qarshilik ko‘rsatdi. Yekaterina “Uch davlat ittifoqi”ga qarshi to‘rt davlat koalitsiyasini ya’ni (Fransiya, Ispaniya, Rossiya, Avstriya) ittifoqini tuzmoqchi bo‘ldi. Ammo bunga erisha olmadi.

Angliya, Prussiya va Polshani gij-gijlayotgan Turkiya 1787-yili Rossiya tomonidan siqib qo‘yilgandi. Vengriyada va Belgiyada unga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tarilishi xavfi bor edi. O‘z raqibidan qasdini olish uchun qulay fursat poylab turgan Prussiya hujum qilib qolishi mumkin edi.

1788-yili Avstriya qo‘shinlari turklar tomonidan tor-mor keltirildi. Sarosimaga tushib, qochish vaqtida kechasi imperatorning o‘z soldatlari tomonidan o‘ldirilishiga sal qoldi. 1788-yil 3-iyunda ruslarning F.F.O‘shakov rahbarligidagi Qora dengiz floti Feodosiya yonida turk flotini yengdi. O‘shakov Ochakov qal’asini uzoq vaqt qamal qilib, 1788-yilning dekabrda ishg‘ol qildi. 1789-yilning 23-sentyabrda esa buyuk sarkarda A.V.Suvorov boshchiligida Rimpik daryosi yonida Turk armiyasini tor-mor qildilar.

Natijada, rus harbiy san’ati Yevropada birinchi o‘ringa ko‘tarildi. “Yetti yillik urush” vaqtida rus armiyasi Prus armiyasidan ustunligini isbot qildi. O‘z tarkibi jihatidan milliy armiya bo‘lgan rus armiyasi qariyb uchdan bir qismi yollanma askarlardan tuzilgan Prus qo‘shinlaridan farq qilardi hamda Avstriya va

Fransiya qo‘shinlaridan ancha ustun turardi. Suvorov manevr va shiddatli urushga ahamiyat berardi. Suvorovning ajoyib sarkardalik talanti 1787 – 1791 yillardagi Rossiya-Turkiya urushida ravnaq topdi va rus diplomatiyasining muvaffaqiyatlariga muhim omil bo‘ldi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Pyotr I davrida nima sababdan Polshaga Rossiya ta’siri ko‘chaydi?
2. Kanada qachon Fransiya mustamlakasiga aylantirildi va uning oqibati nimadan iborat?
3. Angliyadagi Ost-Indiya kompaniyasi faoliyati haqida ma’lumot bering?
4. Angliya Ispaniya merosi uchun keskin kurash olib borilganligining asosiy sabablari va oqibatlari nimadan iborat?
5. 1763-yil Versalda imzolangan Angliya, Fransiya va Ispaniya o‘rtasidagi sulh shartnomasining shartlarini ayting?
6. Rus - Turkiya urushining kelib chiqish sabablari nimadan iborat?
7. Fransuz monarxiyasi xalqaro obro‘yiga ta’sir etgan voqeani izoxlang?
8. Nima sababdan Avstriya qo‘shinlari mag‘lubiyatga uchradi?
9. Qachon Fransiya Avstriya bilan ittifoq tuzdi va uning oqibatlari nimadan iborat?
10. Angliya - Rossiya munosabatlarining keskinlashuviga sabab bo‘lgan omillar?

3-MAVZU. XIX ASR BOSHLARIDAN - XIX ASRNING 70-YILLARIGACHA BO‘LGAN DAVRDA XALQARO MUNOSABATLAR

Reja:

3.1. Napaleon Bonapart diplomatiyasi.

3.2. Xalqaro munosabatlarda Vena tizimining qaror topishi.

3.3. «Muqaddas ittifoq» ning tuzilishi va keyingi siyosiy vaziyatlar.

3.4. 1815 – 1850 yillardagi xalqaro munosabatlar

3.5. 1848-1849 yillardagi inqiloblar davrida Yevropa davlatlari diplomatiyasi.

Tayanch tushunchalar: *Fransiyada inqilobiy harakatlar. Direktoriya. Napaleon. Koalitsiya. Gegemoniya. Direktoriya. Austerlits jangi. Reyn ittifoqi. Shenburunn tinchlik shartnomasi. Borodino jangi. “Xalqlar jangi”. Burbonlar. Kontinental qamal. Vena kongressi. Metternix tizimi. Muqaddas ittifoq. Konvensiya. Usmoniylar imperiyasi. Bolqon. Yunoniston. Rossiya - Turkiya urushlari. Adrianopol sulhi. «Muqaddas ittifoq» ning tuzilishi va keyingi siyosiy vaziyatlar. Troppau (Tropave) va Laybax (Lyublyan)dagi kongresslar. 1822-yil Angliya tashqi siyosatidagi burilish. Grek muammosi. Rossiyaning Angliya va Fransiya hukumatlari bilan munosabatlari va Peterburga Vellington missiyasi. Turkiyaga qarshi uch davlat ittifoqining tashkil topishi. 1828-1829 yillardagi Rus-turk urushi va Adrianopol tinchlik bitimi. Fransiya davlati iyul to‘ntarishi va Polshadagi 1830-1831-yil qo‘zg‘olon. 1848-1849 yillardagi inqiloblar davrida Yevropa davlatlari diplomatiyasi.*

3.1. Napaleon Bonapart diplomatiyasi.

1789-yilda Fransiya Lyudovik XVI absolyut monarxiyasining qulashiga olib kelgan inqilob ro‘y berdi. Ushbu voqea inqilobiy Fransiya qarshi birlashgan butun Yevropani harakatga keltirdi. 1791-yil 27-avgustda Saksoniyaning Pilnits qasrida Avstriya va Prussiya o‘rtasida deklaratsiya imzolandi. 1792-yilning 7-fevralida Fransiya qarshi Yevropa davlatlarining birinchi koalitsiyasiga

(ittifoqiga) asos solindi.

Fransiyaning o'zida ushbu xabar vatanparvarlik harakatini keltirib chiqardi. Federatlarning qurollangan otryadlari tuzila boshlandi. Qonun chiqaruvchi majlis "Vatan xavf ostida!" deb e'lon qildi va hujumni kutib o'tirmasdan, Avstriyaga urush e'lon qildi. Harbiy harakatlar Fransiya uchun muvaffaqiyatsiz boshlandi. Avstriya bilan ittifoqda Prussiya ham harakatlar olib bordi. Uning armiyasi Fransiya bostirib kirdi va bir qator qal'alarni ishg'ol etdi. Biroq, Fransiya qurollanmoqda va safarbarlikni amalga oshirmoqda edi. Va 1792-yilning 20-sentyabridayoq fransuzlar Valmi qishlog'i yonida prusslarning hujumini qaytardi. Ushbu jangdan so'ng Fransiyaning inqilobiy armiyasi Belgiya, Reyn daryosining chap sohili, Nitssa va Savoyyani egalladi. Ushbu yerlarning bir qismi Fransiya qo'shib olindi. Ammo, qirolning qatl qilinishi Yevropa monarxlarini hayajonga soldi. Koalitsiyaga Angliya va Ispaniya qo'shildi. Rossiya emigrantlar armiyasiga moliyaviy yordam ko'rsatdi. Yakobinchilar diktaturasi o'rnatilishi bilan, fransuz qo'shinlari 1794-yilning boshiga kelib o'z davlatining yerlarini interventlardan tozalashga erishdi va urush dushman hududlariga ko'chirildi. Iyun oyida Fleryus qishiog'i (Belgiya) yonida fransuzlar Avstriya armiyasining asosiy kuchlarini tormor etdi. Koalitsiya (ittifoq) mag'lubiyatga uchradi.

Fransiyaning o'zida esa, 9-termidor aksilinqilobiy to'ntarilishi ro'y berdi, yakobinchilar diktaturasi quladi. Biroq, ushbu hokimiyat almashuvi ham uzoqqa cho'zilmadi. Direktoriyaning o'rniga Napoleon Bonapart keldi va o'zining yakka hokimiyatini o'rnatdi. Konsullik va Birinchi imperiya davrida Fransiya to'xtovsiz urushlar olib bordi. Bosib olingan mamlakatlarni fransuz mollari sotiladigan bozorlar va Fransiya sanoati uchun xomashyo manbasiga aylantirish siyosati olib borildi.

Shuni ta'kidlash lozimki, Napoleon olib borgan urushlarning asosiy maqsadi, Yevropada Fransiyaning ustunligini o'rnatish uchun kurash edi. Fransiya qarshi ittifoqlarga kirgan mamlakatlar: Angliya, Rossiya, Avstriya va Prussiya nafaqat fransuz gegemoniyasiga qarshi kurashdilar, balki o'zlarining maqsadlariga ham ega edilar. Lekin, XIX asr boshida xalqaro munosabatlarning

markazida Angliya va Fransiya o'rtasidagi raqobat turardi. 1800-yilda ichki ziddiyatlar tufayli Fransiya qarshi ikkinchi koalitsiya tarqab ketdi. 1801-yilda Rossiya va Avstriya bilan tinchlik shartnomalari imzolandi. Natijada, Fransiyaning hokimiyatini endilikda butun Italiya, Belgiya, Gollandiya va bir qator german knyazliklariga yoyildi.

1802-yilda Amen shahrida Angliya bilan xalqaro shartnoma imzolandi. Uning bandlariga ko'ra, Fransiya va Angliya Yevropadagi tartibni saqlash majburiyatini oldilar. Biroq, tinchlikning umri qisqa bo'ldi. Va 1803-yilda harbiy harakatlar qaytadan boshlanib ketdi. 1805-yilda Yevropa davlatlarining uchinchi koalitsiyasi (ittifoqi) shakllandi. Unga Angliya, Rossiya, Avstriya va Neapol qirolligi kirdi.

1805-yil 21-oktyabrda Trafalgar burni yonidagi jangda admiral Nelson



N.Bonapart (1769-1821)

qo'mondonligidagi ingliz floti birlashgan fransuz- ispan flotini mag'lub etganidan so'ng Napoleon barcha kuchlarini avstiryaliklarga qarshi qaratdi. 1805-yilning oktyabrda Avstriya armiyasi taslim bo'ldi va fransuz qo'shinlari Venaga kirib keldi.

Dekabr boshida Austerlits yonidagi jangda Rossiya va Avstriyaning birlashgan kuchlari mag'lubiyatga uchradi. Tez orada Avstriya va Fransiya o'rtasida tinchlik shartnomasi imzolandi. 1806-yilda Napoleon protektorati ostida 16 ta german davlatidan iborat "Reyn ittifoqi" tashkil

etildi. Shu tariqa, German millatining Muqaddas Rim imperiyasi quladi.

1806-yilda Fransiya qarshi to'rtinchi (Angliya, Prussiya, Rossiya va Shvetsiya) koalitsiya shakllandi. Lekin, o'sha yilning o'zida Yena va Auershtedt yonidagi janglarda Prussiya armiyasi tor-mor etildi. 1806-yil oktyabrda Bonapart Berlinga kirib keldi va bu yerda Yevropa davlatlari iqtisodiyotiga jiddiy zarba bergan, kontinental (qit'aviy) qamal to'g'risidagi dekretni imzoladi (1806-yil 21-noyabr). Dekretga ko'ra, butun Fransiya va unga qaram bo'lgan mamlakatlarda

Buyuk Britaniya bilan savdo qilish man etildi.


O'zining asosiy vazifasini Angliyani tor-mor etish va Fransiyaning gegemoniyasini o'rnatishni Napoleon Rossiya bilan vaqtinchalik murosaga kelish orqali hal etishga o'rindi. Tilzit shartnomasiga (1807-yil 7-iyul) binoan, Rossiya Yevropada Bonapart tomonidan amalga oshirilgan o'zgarishlarni tan oldi va kontinental (qit'aviy) qamalga qo'shildi. Shu yerning o'zida Fransiya-Prussiya tinchlik shartnomasi ham imzolandi, unga ko'ra, Prussiya davlati qisqartirilgan ko'rinishda saqlab qolindi. Prussiya ham kontinental (qit'aviy) qamalga qo'shildi.

1808-yilda boshlangan Ispaniyaning okko'patsiyasi natijasida Napoleon Fransiya qarshi beshinchi koalitsiya tuzildi (1809-yil) va uning tarkibiga faqat Angliya va Avstriya kirdi. 1809-yil iyulda Vagram yonidagi jangda fransuzlar armiyasi avstriyaliklarni mag'lub etdi. O'sha yilning oktyabrda Shenburunn tinchlik shartnomasi imzolandi, Unga binoan, Avstriya hududlari qisqartirildi. Bundan tashqari, u armiyasining sonini kamaytirishi, kontributsiya (urushda yengilgan davlat tomonidan g'olib davlatga to'lanadigan tovon) to'lashi va kontinental (qit'aviy) qamalga qo'shilishi majbur edi.

1812-yilning boshiga kelib Fransiya-Rossiya munosabatlarining keskinlashishi oqibatda urushga sabab bo'ldi. Urush 1812-yil 24-iyunda boshlandi. 26-avgustda bo'lib o'tgan "Borodino jangi"da fransuzlarning talofati 60 ming askarni tashkil etdi. Garchand rus armiyasi chekingan bo'lsa ham, lekin o'z jangovarligini saqlab qoldi. 1812-yil 14-sentyabrda fransuzlar Moskvaga kirib kelishdi, biroq atrofda partizan urushi, xalq urushi avj olayotgan edi. 1812-yil 12-oktyabrda Napoleon armiyasi Moskvani tark etishga majbur bo'ldi. Keyinchalik Bonapartning o'zi ham armiyasini tashlab, Parijga jo'nab ketdi. Fransuz armiyasining Rossiyadagi mag'lubiyati "yengilmas" Napoleon imperiyasining qulashini boshlab berdi.



Boradino jangi



Jang xaritasi

1812-yilning bahorda Fransiyaga qarshi oltinchi koalitsiya tashkil etildi. Uning tarkibiga Rossiya, Angliya, Shvetsiya, Prussiya, Ispaniya, Portugaliya, Avstriya kirdi. Hal qiluvchi jang 1813-yil 16-19 oktyabrda Leypsig shahri yonida ro'y berdi. "Xalqlar jangi" natijasida Napoleon mag'lub bo'ldi va Reyn daryosi ortiga chekindi.

1814-yil mart oyining boshida ittifoqchilar Napoleonnı to'la tor-mor qilmaguncha urush harakatlarini olib borish to'g'risidagi shartnomani imzoladilar. 31-martda ittifoqchilar Parijga kirib keldi. Napoleon o'z o'g'li foydasiga taxtdan voz kechdi. Biroq, senat va Yevropa davlatlari Fransiya taxtida Burbonlarni tiklashdi. Napoleon Elba oroliga badarg'a qilindi. 1814-yil 30-mayda Parijda tinchlik shartnomasi imzolandi. Unga binoan, Fransiya 1792-yil chegaralariga qaytarildi. Napoleonga xayrixoh bo'lgan kayfiyatlar yana jonlandi. 1815-yil 1-martda Napoleon Fransiyaning janubiga borib tushdi va 20-martda Parijga qaytib keldi. Imperiya tiklandi. Napoleonga qarshi oxirgi, yettinchi koalitsiya tashkil etildi. 1815-yil 18-iyunda Vaterloo yonidagi jangda Napoleon armiyasi batamom tor-mor etildi. Napoleonning o'zi Muqaddas Yelena oroliga surgun qilindi va bu yerda 1821-yilda vafot etdi.

3.2. Xalqaro munosabatlarda Vena tizimining qaror topishi.

Fransiya tor-mor qilinmasdan oldinoq, oltinchi ittifoqning asosiy

qatnashchilari diplomatik kongress chaqirishni va'dalashib qo'ydilar. 1814-yil sentyabrda Venada juda katta diplomatik kongress ochildi, ilgari hech qachon bunday katta diplomatik kongress chaqirilmagan edi. Kongressga birgina Turkiya imperiyasidan boshqa Yevropadagi barcha davlatlardan 216 vakil keldi. Kongressda Napoleoni yenggan eng kuchli davlatlar: Rossiya, Angliya va Avstriya asosiy rol o'ynadi. Rossiyaning vakillari imperator Aleksandr I, diplomat Karl Nesselrode va Rossiyaning kongressdagi birinchi muxtor vakili Andrey Razumovskiylar edi. Rossiya kongressning ishiga juda katta ta'sir ko'rsatib, Napoleoni tor-mor keltirishda rus xalqi o'ynagan hal qiluvchi roldan o'z manfaatlarini uchun foydalandi.

Yevropadagi yirik monarxiyalarning kongressga to'plangan vakillari Napoleonning burjua imperiyasi ustidan qozonilgan g'alabani tantana qildilar.

Kongress qatnashchilarining birinchi maqsadi, Yevropa xalqlarining respublikachi-demokratik va milliy-ozodlik harakatlarini bostirish va ilgari Napoleon bo'ysundirgan davlatlardagi avvalgi, feodal-absolyutistik tartiblarni tiklash edi. Bu davlatlarning hammasida kongress oldingi sulolalarni imkon boricha qaytadan taxtga o'tqazdi. G'oliblarning ikkinchi maqsadi, Napoleon ustidan qozonilgan g'alabani mustahkamlashdan, Fransiyaning bonapartizm rejimiga qaytishiga va qaytgan taqdirda Yevropani yangidan istilo qilishga o'rinishi ehtimollariga qarshi mustahkam to'siq yaratishdan iborat edi. Buning uchun kongressning rahbar qatnashchilari Fransiya bilan chegaradosh davlatlarni kengaytirish va ko'chaytirishga hamda bu davlatlarni Fransiya qarshi to'siqqa aylantirishga harakat qildilar.

G'oliblarning uchinchi maqsadi, o'zlarining hududiy davolarini qondirish, davlatlarning Yevropadagi va mustamlakalardagi yerlarini qaytadan taqsimlab olish edi. Shu bilan birga Vena kongressi yirik monarxiyalarning muddaosiga xizmat qilib, ayrim xalqlarning milliy-ozodlik yo'lidagi intilishlari va etnografik chegaralarini e'tiborga olmadi. Bu esa, buyuk davlatlar o'rtasidagi ziddiyatlarning keskinlashuviga olib keldi.

Kongressda uning qatnashchilari o'rtasida jiddiy ziddiyatlar ro'y berdi.

Rossiya imperiyasining G'arbiy Yevropadagi ta'sirini mustahkamlash uchun Aleksandr I Germaniyada ikkita kuchli davlat - Avstriya bilan Prussiyani saqlab qolishga intildi: ular o'zaro raqobat qilib, doimo bir-biriga qarshi bo'lishi kerak edi. Aleksandr I o'zini Fransiya tomonidan bo'ladigan xavfdan saqlashga intilish bilan birga Fransiyaning haddan tashqari xo'rlanishi va zaiflanishiga yo'l qo'ymadi: bunga yo'l qo'yish Fransiyaning german davlatlarining kuchini G'arbga chalg'itish qobiliyatidan mahrum qilgan bo'lar edi. Rossiya Yevropa sharqida tugatilgan Varshava gersogligining deyarli butun hududini bosib olmoqchi bo'ldi. Bu vazifaning hal qilinishini osonlashtirish uchun Aleksandr polyak dvoryanlarining bir qismi bilan til biriktirdi. Polshada mahalliy qonunlarni saqlab



Aleksandr I (1777-1825)

qolishni hamda Polshaga cheklangan, aristokratik konstitutsiya va o'z armiyasiga ega bo'lish huquqi berishni va'da qildi.

Avstriya bilan Prussiya Aleksandr I ning bu ishiga norozilik bildirdilar, bu ikki davlat o'zlari olmoqchi bo'lgan polyak viloyatlariga hech qanday muhtoriyat berishni istamadilar.

Aleksandr I polyak yerlaridan katta bir qismining Rossiyaga o'tishiga Prussiyaning roziligini olish maqsadida Prussiyaning butun Saksoniyani olish to'g'risidagi da'vosini qo'llab-quvvatlashga va'da berdi. Prussiya qiroli singari, Aleksandr I ham bosqinchilik niyatida edi. Saksoniya qirolining (ayni zamonda u Varshava gersogi ham edi) Napoleonga ittifoqchi va vassal bo'lganligi Polsha bilan Saksoniyaning taqsimlab olinishiga bahona bo'ldi.

Angliyaning torilar hukumati savdo-sanoat va mustamlakachilik monopoliyasining Angliya qo'lida bo'lishini ta'minlashga harakat qildi. Torilar hukumati Yevropa ligasidagi aristokratik reaksiyani qo'llab-quvvatlashni o'z maqsadiga erishishning eng yaxshi vositasi, deb bilar edi va shu sababli u Angliyaga raqib bo'la oladigan mamlakatlarda turg'unlik va qoloqlik holatini mumkin qadar uzoqqa cho'zishga harakat qildi. Britaniya tashqi ishlar vaziri Kaslri

Napoleon urushlari davrida fransuzlardan, ispanlardan va gollandlardan bosib olingan mustamlakalarning Angliya qo‘lida qolishiga erishmoqchi bo‘ldi. Ammo u dastlab burjua Angliyasining eng xavfli raqibi bo‘lgan Fransiya zaiflashtirishga va uning hududini 1792-yildagi chegara doirasi bilan cheklashga harakat qildi. Britaniya kabineti Burbonlar sulolasini qaytadan taxtga chiqarishni ayniqsa qattiq talab qildi. U shuningdek, Fransiya chegaralari yonida to‘siq davlatlar barpo etishga va Reyn daryosi bo‘yida Prussiyani ko‘chaytirishga katta ahamiyat berdi. Ingliz diplomatiyasi o‘zining Yevropadagi siyosatini Yevropa qit‘asidagi davlatlarni bir-biriga qarama-qarshi qilib qo‘yishga qaratdi. Bu davlatlar bir-biriga “tenglashib” olguncha Angliya ularga doimo hakamlik qilish imkoniyatiga ega bo‘ldi va mustamlakalarni bemalol bosib olaverdi. Kaslri Rossiyaning Yevropadagi ta’siri yanada ko‘chayib ketishidan qo‘rqib, Aleksandr I ning Polsha to‘g‘risidagi rejalariga turli yo‘llar bilan qarshilik ko‘rsatishga o‘rindi, shuning uchun ham Polshani yangidan taqsimlashda uning Rossiyaga o‘tishi mumkin bo‘lgan qismini kamaytirishga va Avstriya bilan Prussiyaning hissasini ko‘paytirishga harakat qildi.

Vena kongressida Avstriyaning vakili knyaz Metternix edi. Inqilobiy va milliy-ozodlik harakatlari chinakam “xalqlar turmasi” bo‘lgan ko‘p millatli Gabsburglar monarxiyasining hayotiga xavf solmoqda edi. Shu sababli, Metternix monarxlarni inqilob bilan qo‘rqitib va ularni jipslashtirib, reaksiya tamoyillarini zo‘r berib himoya qildi. Avstriya hukumati Prussiya bilan Rossiyaning ko‘chayib ketishiga mumkin qadar yo‘l qo‘ymaslikka harakat qildi. Metternixning Germaniya masalasida to‘tgan siyosati Germaniyaning tarqoqligini saqlab qolish bilan birga unda Avstriya ta’sirining ustun bo‘lishini ta’minlashdan iborat edi.

Prussiyaning Vena kongressida yuritgan siyosatning negizi pruss yunkerlari ahvolini mustahkamlashdan, Saksoniyani bosib olish va ayni zamonda Reyn daryosi bo‘yidagi boy yerlarni qo‘lga kiritishdan iborat edi.

Fransiya hukumati Prussiyani Fransiyaning o‘ta ketgan dushmani, deb bildi va Saksoniya qo‘shib berilgan taqdirda pruss monarxiyasining yanada ko‘chayib ketishidan xavfsiradi. Fransiya hukumatida Prussiyaga protestantlar yashaydigan

Saksoniya o'rniga katoliklar yashaydigan Reyn viloyati bilan Vestfaliyani berish mayli bor edi, Fransiya hukumati, Prussiya bu ikki o'lkani o'ziga qo'shib ololmaydi, deb o'ylagan edi. Shu sababli, Taleyran Vena kongressida Prussiyaning Saksoniyani bosib olishiga ochiqdan-ochiq qarshi chiqdi. Taleyran kongressda davlatlar o'rtasida ro'y bergan ziddiyatlardan ustalik bilan foydalandi. Bu ziddiyatlardan foydalanib, Taleyran, Fransiya urushda tor-mor qilingan bo'lishiga qaramay, kongressda beshinchi buyuk davlat vakili sifatida o'rin ola bildi.

Rossiyaga xalaqit berish uchun Kaslri bilan Metternix Taleyranni zo'r berib qo'llab-quvvatladilar, Napoleon ustidan qozonilgan g'alaba natijasida Rossiyaning g'oyat darajada ko'chayib ketishi uning kechagi ittifoqchilarini shu qadar qo'rqitib yuborgan ediki, rus hukumati bilan pruss hukumatining Polsha va Saksoniya masalalaridagi rejalariga qarshi turish maqsadida Angliya, Avstriya va Fransiya 1815-yil 3-yanvarda o'zaro maxfiy ittifoq tuzdilar. Fransuz tarixchilari, odatda, bu shartnomani Taleyranning qilgan ishi, deb ko'rsatsalar ham, lekin haqiqatda uning qilgan ishi emas edi. Bu bitimni zimdan tayyorlashda ingliz va Avstriya diplomatlari asosiy rol o'ynagan edilar. Yangi ittifoqchilar bir-birlariga harbiy yordam berishni va'da qildilar va bu akt imzolangandan keyin Rossiya bilan Prussiyaga tazyiq qilishni juda ko'chaytirdilar.

Prussiya Saksoniyaning hammasini emas, balki shimoliy qisminigina olishga rozi bo'ldi, Saksoniyaning janubiy qismi mustaqil qirollik bo'lib qoldi.

Podsho ham sobiq Varshava gersogligining hamma yerini o'z mulklariga qo'shib olishdan voz kechishga majbur bo'ldi, gersoglikka qarashli hududning katta bir qismi Rossiyaga o'tdi, Poznan bilan Gdansk (Dansig) Prussiya qo'lida qoldi. Bundan tashqari, Shvetsiya Pomeraniyasi Prussiyaga tegdi, Galitsiya esa Avstriyaga berildi. G'arbda ilgari mayda knyazliklarning yerlaridan tashkil topgan ikkita katta viloyat - Reyn viloyati bilan Vestfaliyani Prussiyaga qo'shishga qaror qilindi. Germaniyaning bu viloyatlari iqtisodiy jihatdan eng taraqqiy qilgan bo'lib, strategiya jihatidan muhim ahamiyatga ega edi. Bu viloyatlarning qo'shib berilishi Prussiyaga keyinchalik Germaniyaning katta qismini bo'ysundirish hamda Fransiyaning eng kuchli va eng xavfli dushmaniga aylanish imkoniyatini berdi.

Vena kongressida Polsha to'rtinchi marta qayta taqsimlandi. Polshaning yangidan taqsim qilinishi natijasida uch davlat: Rossiya, Avstriya va Prussiyaning hukmron tabaqalari polyak milliy harakatini birgalikda bostirishdan avvalgidek manfaatdor bo'lib qola berdilar. Faqat Krakov shu qadar janjalli punkt bo'lib qoldiki, uning kimga berilishi to'g'risida bir fikrga kelish mumkin bo'lmadi. Krakov shahri va unga bevosita tutashgan hududdan kichiq bir mustaqil respublika barpo etildi. Polshani navbatdagi taqsimlashda va polyak xalqini ezishda Rossiyaning Prussiya va Avstriya bilan hamkorlik qilishi Yevropada reaksiyani mustahkamlashga yordam berdi.

Napoleon Elba orolidan chiqib, Fransiya janubiga kelib tushgan va qo'shin to'plab Parijga qarab yo'l olgan paytda, Vena kongressi o'z ishini yakunlab qolgan edi. Fransiyada Bonapart sulolasining qayta tiklanishidan qo'rqib, kongress qatnashchilari hal bo'lmagan janjalli masalalarni yig'ishtirib qo'yib, darhol yangi (yettinchi) ittifoq tuzdilar.

Napoleonning Vaterloo yonidagi jangda so'nggi marta yengilishidan sal oldinroq, 1815-yil 9-iyunda Vena kongressining asosiy (oxirgi) hujjati imzolandi. Bu hujjatda Fransiyaning sharqiy chegaralarida fransuz tajovuzining yangi urinishlariga qarshi mustahkam to'siqlar barpo qilish ko'zda tutilgan edi.

Prussiyaning G'arbdagi yangi yerlari: Reyn viloyati bilan Vestfaliya Fransiya qarshi qaratilgan sharqiy to'siqning asosiy bo'g'ini va platsdarm edi.

Gollandiya va Belgiya yagona Niderlandiya qirolligi qilib birlashtirildi va shunday qilib, belgiyaliklar ezilgan xalq ahvoliga tushirib qo'yildi. Bundan tashqari, Niderlandiya qiroli Lyuksemburg gersogligini shaxsiy mulk qilib oldi.

Mustaqil davlat qilib qaytadan tiklangan Shveysariyani kongress betaraf davlat deb e'lon qildi va uning Napoleon tomonidan o'z davrida tortib olingan chegara viloyatlari (bu viloyatlarning strategiya jihatidan muhim ahamiyatga ega bo'lgan tog' yo'llari bor edi) yana o'ziga qaytarib berildi.

Italiyada Sardiniya qirolligi qaytadan tiklandi va ko'chaytirildi; unga Savoyya bilan Nitsa qaytarib berildi va sobiq Genuya respublikasining hududi olib berildi. Sardiniya qirolligi Fransiyaning janubiy chegarasida Fransiya qarshi

platsdarm rolini o'ynashi lozim edi.

Vena kongressining asosiy oxirgi hujjatida Yevropaning va mustamlakalarning Napoleon ustidan g'alaba qozongan g'oliblar o'rtasida qaytadan taqsimlanish yakunlari bayon qilindi.

Rossiya Polshaning katta bir qismini oldi va ilgari qo'shib olingan Finlyandiya bilan Bessarabiyani o'z qo'lida saqlab qoldi.

Angliya Malta oroli va Gollandiya bilan Fransiyadan bosib olgan mustamlaka yerlarni o'ziniki qilib oldi. Afrikaning janubida ilgari Gollandiyaga qaragan Kap mustamlakasi va Seylon oroli mustamlaka yerlarning eng muhimlari edi. Bu mustamlakalar, birinchi navbatda, Hindiston yo'lidagi va uning bo'sag'asidagi muhim strategik punktlar sifatida Angliya uchun juda katta ahamiyatga ega edi. Hindistonni batamom va o'zil-kesil istilo qilish Britaniya mustamlakachilik siyosatining asosiy maqsadi edi.



1817-yildagi Yevropaning siyosiy xaritasi

3.3. «Muqaddas ittifoq» ning tuzilishi va keyingi siyosiy vaziyatlar.

Napoleon armiyasi tor-mor qilinganidan va Fransiyada I imperiya qulatilganidan keyingi dastlabki yillar feodal-zodagonlar reaksiyasining hukmronlik davri bo'ldi. Feodal-aristokratlar reaksiyasi esa umumiyevropa tusini oldi. "Muqaddas ittifoq" ning siyosati o'sha vaqtda eng kuchli bo'lgan Napoleon imperiyasi ustidan qozonilgan g'alabalarning ko'pgina samaralaridan Yevropa xalqlarini mahrum etdi. Bu siyosatning chinakam asosi, avvalo, hukmron doiralarning dvoryan-sulola manfaatlaridan iborat edi. Avstriya kansleri knyaz Metternix buning asosiy ilhomlantiruvchilaridan biri bo'ldi.

Metternix tagidan zil ketgan ko'p millatli Gabsburglar monarxiyasini va Germaniya ustidan Avstriya zulmini saqlab turish maqsadida 1815-yildan boshlab milliy-ozodlik harakatlarini ta'qib qilishni ko'chaytirdi hamda Avstriya imperiyasidagi turli millatlarni idora etish osonroq bo'lishi uchun ularni doimiy ravishda bir-birlariga qarshi qilib turdi. "Metternix tizimi" ning mohiyati ana shundan iborat edi. Avstriya hukumati Bolqon xalqlarining milliy uyg'onishi Avstriya imperiyasidagi mazlum millatlarining ozodlik harakatiga bir turtki bo'lishidan qo'rqib, Bolqon xalqlarining Turkiya zulmidan ozod bo'lishiga har qanday yo'llar bilan qarshilik ko'rsatishga harakat qildi. Avstriya hukumati Germaniyada ustun bo'lib, uning tarqoqligini saqlab qolishga intildi hamda Germaniyadagi ozodlik va demokratik harakatning hamma ko'ripishini ta'qib qildi.

Milliy-birlashtiruvchilik harakatiga dushman bo'lgan Prussiya qiroli va yunkerlari Metternixning siyosatini amalga oshirishda faol ishtirok etdilar. Rossiyada arakcheyevchilik rejimi hukm surar va erkin fikrlashning har qanday ko'rinishlarini ta'qib qilardi. Bu krepostnoylikni hamda podsho mutlaq hokimiyatini mustahkamlashga qaratilgan siyosat edi. Angliyada reaksiya burjuazodagonlik harakterida bo'lsa ham lekin ko'p hollarda qit'adagi ahvoldan qolishmas edi.

Yevropaning hamma yerida ilg'or matbuotga senzura ta'qiblari ko'chaydi, universitetlar hamda maktablardan liberal professorlar va o'qituvchilar haydalar

edi. Reaksiya mafko'ralarimng burjua "ma'rifat falsafasi"ga va XVIII asrdagi fransuz burjua inqilobi g'oyalari bilan bog'liq bo'lgan hamma narsaga hujum qilishi bilan birga, reaksiyon-kosmopolitik qarashlar targ'ib qilinadi, absolyutizm, papalik, o' rta asrlar davri maqtalar edi.

Ispaniyada monastrlar va inkvizitsiya qaytadan tiklangan, Neapol qirolligida cherkov sudlari va senzura qaytadan yo'lga qo'yilgan edi. Rim papasi iyezuitlar ordenini tiklab, faqat Italiyadagi reaksiyaninggina emas, balki Yevropa reaksiyasining ham bosh arboblardan biri sifatida maydonga chiqdi. Hamma yerda feodal tartiblarni tiklash uchun zo'r berib harakat qilindi. Fransiyada Burbonlar hokimiyatini mustahkamlash maqsadida shafqatsiz aksilinqilobiy terror qo'llandi, favqulodda sudlar otishga va surgun qilishga hukm chiqarar edi. Shu tariqa reaksiya butun Yevropaga yoyildi.

1818-yilda Axenda To'rtlar ittifoqidagi davlatlarning kongressi bo'lib o'tdi. Bu vaqtga kelib Fransiya o'z ustiga yuklatilgan kontributsiyaning katta qismini to'lab bo'lgan edi, ittifoqchilar Fransiyadan o'z askarlarini muddatidan oldin olib chiqib ketishga va Napoleonni yenggan to'rtta ittifoqchi davlat kengashlariga Fransiyaning ham teng huquqli bo'lib ishtirok etishi uchun yo'l qo'yishga qaror qildilar. Shunday qilib, tetrarxiya, ya'ni to'rt ittifoqchining hukmronligi o'rniga Yevropada Fransiyaning ishtiroki bilan besh buyuk davlat tizimi vujudga keldi. Ana shu yon berishlar evaziga Fransiya saroyi 1815-yildagi shartnomalarni quvvatlash va ularga rioya qilish majburiyatini oldi. Bu keyingi sharoit fransuz burjuaziyasining Burbonlarga nisbatan yomon ko'z bilan qarashini ko'chaytirdi, xolos; fransuz burjuaziyasining anchagina qismi Napoleon I ning istilochilik siyosatiga qaytishni orzu qilardi. Biroq, Fransiyadagi rejimning o'zgarishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida Angliya, Rossiya, Avstriya va Prussiyadan iborat "To'rtlar ittifoqi" 1818-yildan qaytadan tiklandi.

1819-yilda Germaniyada yangidan-yangi tadbirlar ko'rildi. Metternix va Prussiya qiroli Fridrix-Vilgelm III nemis davlatlaridagi inqilobiy harakatlarga qarshi birgalikda kurashish to'g'risida Teplitsada bitim tuzdilar. Shu maqsadida 1819-yilda Karlsbad (Karlovi-Vari)da nemis hukumatlari vakillarining

konferensiyasi bo'lib, unda matbuotga, universitetlar va talabalarga qarshi shafqatsiz choralar ko'rishga qaror qilindi. Germaniya ittifoqi seymi tarkibidan saylanadigan besh a'zodan iborat komissiyaga hamma vositalarni ishga solib, hatto qurolli kuchlarni ishlatib bo'lsa ham, "qonuniy tartib"ni saqlash vazifasi yuklatilgan edi. Hamma universitetlar maxsus ko'ratorlar nazorati ostiga olindi, bu ko'ratorlar talabalarnigina emas, balki professorlarni ham qamrab olar edi. Talabalarning "burshenshaftlar" deb atalgan o'rtoqlik jamiyatlari (zemlyachestvolari) va to'garaklari taqiqlandi, ularning a'zolari kelajakda davlat xizmatida biron lavozimni egallash huquqidan mahrum etildi. Har bir hukumat Germaniya ittifoqidagi boshqa davlatlardan inqilobiy va hatto muholifatchi yozuvchilarni va ularning asarlarini nashr qilib chiqaruvchilarni ta'qib qilishni talab eta olar edi. Lekin, shunga qaramay, Metternix Karlsbadda ham janubiy Germaniya davlatlarining konstitutsiyalarini bekor qildirishga erisha olmadi.

Reaksiyaning zo'rlik yo'li bilan absolyutizm tartiblari umrini uzoqqa cho'zish uchun o'rinishlari oqibat-natijada muvaffaqiyatsizlikka mahkum etilgan edi. 1820-yillardayoq feodal-monarxiya tuzumiga qarshi yangi inqilobiy to'lqin ko'tarildi.

Kapitalizm taraqqiyoti hamda burjuaziya va xalq ommasining feodal reaksiyasiga qarshi kurashi ayrim mamlakatlarning ichki tarixidagina emas, balki 1815-1850 yillardagi xalqaro munosabatlarda ham kuzatish mumkin.

Burjuaziyaning iqtisodiy va siyosiy mavqei mustahkamlanish bilan birga, uning tashqi siyosatga ta'siri ham ko'chaydi. Angliya va Fransiyaning o'sib borgan burjuaziyasi tovarlar sotiladigan yangi tashqi bozorlarni va xom-ashyo manbalarini bosib olish uchun tobora faolroq mustamlakachilik siyosatini amalga oshirishni talab etdi. Savdo-sanoat va siyosiy jihatdan ustun bo'lish uchun kurashda buyuk davlatlar o'rtasidagi ziddiyatlar keskinlashib bordi. Yevropa qit'asida chor Rossiyasi va Avstriya boshliq eng yirik monarxiyalar hali ham ustun edi. Yevropa reaksiyasining asosiy tayanchi bo'lgan chorizmning ta'siri asta-sekin ko'chaya bordi. Biroq, kapitalizm rivoji, ijtimoiy taraqqiyot muqarrar suratda yangi inqiloblarga olib kelar edi, Yevropa va Amerikada yangi, burjua millatlarining

tarkib topish jarayoni esa yangi mustaqil milliy davlatlar barpo etish uchun kurashning ko‘chayishiga olib kelmoqda edi. Shuning uchun Yevropada xalqaro munosabatlarning asosiy jarayoni shundan iborat bo‘ldiki, 1820-yillardanoq reaksiyon “1815-yildagi Vena tizimi” burjua inqiloblari va milliy-ozodlik harakatlarining zarbalari ostida, eng yirik davlatlar o‘rtasidagi ziddiyatlarning keskinlashishi ta’siri natijasida asta-sekin yemirilib bordi.

Italiyadagi inqilobni bostirish maqsadida 1820-yil kuzda Troppau (Opava)da “Muqaddas ittifoq” qatnashchilarining kongressi ochilib, keyinchalik bu kongress Laybax (Lyublyana) shahriga ko‘chirildi. Milliy-ozodlik harakatining o‘shishi, Italiyadagi, Ispaniyadagi inqiloblar va boshqa mamlakatlardagi inqilobiy chiqishlar (jumladan, Rossiyada 1820-yilda Semenov polki qo‘zg‘olon ko‘targan edi) Yevropada hukumatlarini qo‘rqitib yubordi.

“Muqaddas ittifoq” aksilinqilobiy siyosatining ilhomchisi va rahbari Metternix Neapol qirolligidagi inqilobni bostirish uchun ayniqsa, qat’iy harakat qildi. Avstriya hukumati Italiyani chet el zulmidan ozod qilish harakatining ertami-kechmi Avstriyaning Lombardiya va Venetsiyadan haydalinishiga olib kelishidan qo‘rqar edi, shuning uchun u italyan xalqi milliy-ozodlik intilishlarining ashaddiy dushmani edi.

Troppaudagi kongress majlislari vaqtida Avstriya va Rossiya imperatorlari hamda Prussiya qiroli deklaratsiya e’lon qildilar. Bu deklaratsiyada dvoryanlar hokimiyatini va monarxiya hokimiyatini tiklash maqsadida har qanday mamlakatga ham aksilinqilobiy intervensiya qilishga podsholarning “huquqi bor” deb e’lon qilindi. Bu deklaratsiya burjua inqiloblariga qarshi hamda XVIII asr fransuz burjua inqilobi ilgari surgan “millat idora etishi” tamoyiliga qarshi qaratilgan edi.

Kongress Italiya jandarmi bo‘lish rolini Avstriyaga topshirdi va 1821-yilda Avstriya qo‘shinlari Neapol hududiga bostirib kirdi. General Pepe qo‘mondonligidagi Neapol armiyasi tor-mor qilindi. Regent shahzoda rahbarlik qilgan konstitutsiyaviy monarxiya hukumati xalq ommasining kurashga aralashuvidan qo‘rqdi va interventlarga ortiq qarshilik ko‘rsatmadi. 23-martda

Avstriya qo'shinlari jang qilmay, Neapolini ishg'ol qildilar. 1820-yilda e'lon qilingan konstitutsiya bekor qilindi. Mamlakatda reaksiya va terror rejimi hukm sura boshladi.

1821-yil aprelida Avstriya qo'shinlari P'yemontdagi inqilobni ham bostirdi. Inqilobiy harakat arboblari o'lim jazosiga hukm qilindi, lekin ular chet elga qochib yashirinishga muvaffaq bo'ldilar. Avstriyaning 12 ming askari P'yemontni egalladi. Ispaniyaga aksilinqilobiy intervensiya uyushtirish uchun 1822-yil kuzda Erona shahrida "Muqaddas ittifoq" podsholarining yangi kongressi to'plandi. Fransiya, Avstriya, Prussiya va Rossiya hukumatlarining Ispaniyada monarxiyani tiklash to'g'risida qaror qabul qildilar. Ispaniyada inqilobni bo'g'ib tashlash Fransiyaga topshirildi. Fransiyaning geografik o'rnini uning intervensiya qilishini osonlashtirardi, fransuz Burbonlari esa qo'shni mamlakatda reaksiyani qo'llab-quvvatlashdan ayniqsa manfaatdor edilar. Fransiyaning kongressdagi vakili Sxatobrian aksilinqilobiy intervensiyaning o'ta ketgan tarafdori edi. Ammo, Fransiya hukumati Ispaniyaga intervensiya qilish Fransiyada liberal va radikal burjuaziyaning noroziligiga sabab bo'lishidan qo'rqar edi. Shuning uchun u "Muqaddas ittifoq"ni qo'llab-quvvatlashidan o'zining maqsadlari yo'lida foydalanib, faqat o'z manfaatlarinigina ko'zlab va tamomila mustaqil ravishda harakat qilayotganday qilib ko'rsatmoqchi bo'ldi. Lyudovik XVIII hukumati Ispaniya jandarmi roliga chiqar ekan, faqat Pireney yarim orolidagina emas, balki Fransiyaning ichkarisida ham dvoryanlar reaksiyasini mustahkamlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi.

Italiya karbonariylari va fransuz inqilobi qatnashchilari Ispaniya konstitutsiyaviy hukumatiga yordam berish uchun ko'ngillilar otryadi tuzdilar. Lekin, 1823-yil bahorda 100 ming kishilik fransuz qo'shini Lyudovik XVIII ning jiyani gersog Angulemskiy qo'mondonligida Ispaniyaga bostirib kirdi. Fransuz armiyasi jiddiy qarshilikka uchramasdan, Kadis shahrigacha butun Ispaniyani bosib o'tdi. 1820-yilgi konstitutsiya bekor qilindi.

Italiya va Ispaniyadagi intervensiyalar Muqaddas ittifoq ziddiyatlarini ko'chaytirdi. Fransiyaning hukmron doiralari Avstriyaning Pyemontni va Neapol

qirrolligini bosib olishlari natijasida Italiya davlatlarida Avstriya ta'sirining ko'chayishidan norozi edilar. Shuning uchun Fransiya 1820-yilda Troppaudagi kongressda qabul qilingan uch davlat deklaratsiyasiga qo'shilmadi.

Verona kongressi vaqtida Angliya Muqaddas ittifoq siyosatidan qaytdi. Rasman Angliya ilgari ham ittifoq a'zosi emasligi, lekin inqilobiy harakatlarni bo'g'ib tashlash maqsadida uni amalda qo'llab kelar edi. Biroq, Pireney yarim orolidagi hukmron ta'sirga ega bo'lish uchun kurashda Angliya-Fransiya o'rtasidagi ziddiyatlar keskinlashganligidan Angliyada 1822-yilda "Muqaddas ittifoq" siyosati va Fransiyaning Ispaniyaga intervensiya qilishga tayyorlanayotganligidan norozilik ko'chaydi. Angliya burjuaziyasi ingliz tovarlarini sotish uchun muhim bozor bo'lgan Ispaniyada Fransiya mavqeining ko'chayishini istamas edi. Angliya hukumati fransuz qo'shinlarining Madridga kirishini istamaganligi uchun, Ispaniyada intervensiya uyushtirishga tayyorgarlik ko'rishdan o'zini chetga tortdi. Biroq, kuchli armiyaga ega bo'lmagan va Ispaniyada inqilobning chuqurlashib ketishidan qo'rqqan Britaniya kabineti shahzoda Angulemskiyning yurishiga to'sqinlik qilish uchun ham hech qanday chora ko'rmadi. Angliya hukumati Lotin Amerikasida Ispaniya hukmronligini tiklash maqsadida Yangi dunyoda intervensiyani kengaytirish loyihasiga qarshi e'tiroz bildirib chiqqanidagina, Angliyaning "Muqaddas ittifoq" tamoyillaridan qaytganligi batamom ravshan bo'ldi. Angliya flotining dengizda hukmronligi bunday rejalarni amalga oshirishga imkon bermasdi, shuning uchun 1820-yildanoq bu rejalarning hech qanday ahamiyati qolmadi.

3.4. 1815 – 1850 yillardagi xalqaro munosabatlar.

1822-yildagi Verona kongressida Avstriya, Rossiya va Prussiya yunon qo'zg'olonchilarini o'zlarining "qonuniy podshosi" - Turkiya sultoniga qarshi isyon ko'targan isyonchilar deb hisoblashlarini e'lon qildilar. Lekin, keyinchalik Yevropa davlatlarining bu masalaga munosabati o'zgardi. Britaniya hukumati greklar qo'zg'olonidan Gretsiyada o'z ta'sirini mustahkamlash va ingliz savdosini kengaytirish maqsadida foydalanish umidida edi, shuning uchun u yunonlarni urushuvchi tomon deb e'tirof etdi. Gretsiyada o'zining Bolqondagi ta'siri uchun


tayanch vujudga keltirmoqchi bo'lgan Fransiya ham yunonlar masalasidan manfaatdor ekanligini ko'rsatdi. Rossiya ham Turkiyani zaiflashtirish, o'z ta'sirini mustahkamlash va yangi bosqinchiliklar qilish maqsadida greklar qo'zg'olonidan foydalanishga qaror qildi.

Rossiyaning yunonlar masalasidagi pozitsiyasi shu bilan belgilandiki, rus pomeschchilari va Nikolay I boshliq rus hukumatining o'zi Dunay knyazliklarida va Konstantinopolda Rossiyaning hukmron ta'sirini o'rnatishni hamda yangi hududlar egallab olishni istar edilar. Turkiya hukumati Bosfor va Dardanelli bo'g'ozlari orqali dengizlardan o'tib savdo qilish erkinligi haqida Rossiya bilan tuzilgan shartnomalarni buzganidan keyin, Rossiya-Turkiya munosabatlari juda ham keskinlashib ketdi. Turkiyaning Qora dengiz bo'g'ozlarini bekitib qo'yganligidan va asosan yunon savdo kemalarida tashiladigan rus g'allasining chetga olib chiqilishini to'xtatib qo'yganligidan Rossiya hukumati va rus pomeschchilari norozi edilar. Podsho Nikolay I yunonlar harakati va Turkiyaga qarshi kurashni qo'llab-quvvatlash yo'liga o'tdi, bu hol Rossiyaning Bolqondagi ta'siri ko'chayishini istamagan Avstriya bilan Rossiya o'rtasidagi munosabatlarni nihoyatda keskinlashtirib yubordi.

1826-yilda Yevropa hukumatlarining yunonlar masalasiga aralashuvi ko'chaydi. Rossiya Yaqin Sharqda o'z mavqelarini mustahkamlash uchun yunonlar qo'zg'olonidan foydalanishga intilgan Angliya va Fransiya bilan 1826-yilda yunonlar masalasi yuzasidan bitimni imzoladi; bu hol Avstriya hukumatini g'oyatda g'azablantirdi. 1827-yilda bu uchala davlat yunonlar foydasiga birgalikda diplomatik yo'l bilan aralashish to'g'risida konventsiya tuzdi va Yunonistonga o'zini-o'zi idora qilish huquqi berishni sultondan talab qildi. Biroq, sulton hukumati Buyuk Britaniya va Fransiyaning Turkiya bilan urushmasligini bilar edi, shuning uchun bu talabini rad etdi.

1827-yilda yunon xalqi haloqat yoqasida qoldi. Navarin ko'rfaziga Misr podshosining floti yetib keldi. Misr va Turkiya qo'shinlari qirg'oqqa tushib, qo'zg'olonchilarni qirib tashlamoqchi va ilgari Moreyaning ayrim qismlarida Yevropaning hamda Egey arxipelagidagi orollarda qilganlaridek, butun Gretsiyaga

o‘t qo‘yib va aholini qilichdan o‘tkazib chiqmoqchi edilar. Bunga javoban Rossiya, Angliya va Fransiyaning birlashgan eskadrasi Navaringa yetib keldi va 1827-yil 20- oktyabrdagi mashhur Navarin jangida Turkiya floti batamom yakson qilindi. Yunon xalqi dahshatli qirg‘indan saqlab qolindi.



Moreva iovlashuv o‘rni

Yevropaning ilg‘or jamoatchilik fikri rus floti hal qiluvchi rol o‘ynagan Navarin g‘alabasini zo‘r shodlik bilan qarshi oldi. Angliya va Fransiya hukumatlari Navarin jangidan keyin Rossiyaning Bolqon va G‘arbiy Yevropadagi mavqei tez ko‘chayib ketishi mumkin, deb xavotirlana boshladilar. Shuning uchun ular sultonga yuz bergan voqeadan “afsuslanayotganliklari”ni izhor etdilar va ishni Turkiya bilan urush chiqishigacha olib bormoqchi emasliklariga ishora qildilar. Sulton hukumati Gretsiyaga o‘zini-o‘zi idora qilish huquqi berishdan bosh tortdi va Rossiyaga qarshi urushga tayyorlana boshladi. Ishni urush chiqishiga olib borgan

podsho va rus pomeschchilari, o‘z navbatida, Gretsiyada o‘zining ustunlik ta’sirini mustahkam- lash, Turkiyani kuchsizlantirish, Dunayning dengizga quyilish joylarini egallash, sulton hukumatini Dunay knyazliklari va Bosfor va Dardanelli bo‘g‘ozlari borasida ilgarigi bitimlarga rioya qilishga majbur etish va Zakavkaz’e hamda Shimoliy Kavkazda yangi yerlarni bosib olish maqsadida greklarga yordam bermoqchi edi.



Bosfor va Dardanelli bo‘g‘ozlari

1828-yilda Rossiya Turkiyaga urush e’lon qildi, bu urush rus qo‘shinlarining g‘alabasi hamda 1829-yildagi “Adrianopol sulhi” bilan tugadi. Dunay deltasidagi orollar, Shimoliy Kavkaz sohillari hamda Turkiyaga qaragan arman viloyatlarining bir qismi Rossiya qo‘liga o‘tdi. Turkiya Gretsiyani mustaqil deb tan olishga, Rossiyaning talabi bilan Serbiya uchun o‘zini-o‘zi idora qilish huquqini kafolatlashga va Dunay knyazliklarining muhtoriyatini kengaytirishga majbur bo‘ldi. Ammo Bolqon xalqlarining Turkiya zulmidan batamom ozod bo‘lishiga hali ancha bor edi. Rossiya o‘zining maqsadlari uchun jon kuydirdi va shu maqsadlarini amalga oshirishga yordam beradigan darajadagina Turkiyaga

qarshi Bolqon xalqlarini qo‘llab-quvvatladi. Faqat Yevropa inqilobigina Bolqon xalqlarining ijtimoiy va milliy jihatdan batamom ozod bo‘lishi uchun birdan-bir najot bo‘lishi mumkin edi.

Rossiya-Turkiya urushi vaqtida Angliya bilan Avstriya rasman betaraf turgan bo‘lsalar ham, lekin Rossiyaning xatti-harakatlaridan va uning Bolqonda mavqei ko‘chayishidan norozi edilar. Metternix Yevropa davlatlarini Rossiyaga qarshi birlashtirishga o‘rindi. Rossiya va Avstriya siyosatining ilgarigi birdamligidan asar ham qolmagan edi. Rossiya hukumati Prussiya saroyi bilan mustahkam hamkorlikni saqlashga har qanday yo‘llar bilan harakat qilgan bo‘lsa-da, lekin “Muqaddas ittifoq”ning buzila borganligi ochiq ko‘rinib turardi. Fransiyada Burbonlar sulolasi va legitimistlar “Muqaddas ittifoq”ni saqlab qolishdan manfaatdor edilar. Polinyak hukumati Yevropa reaksiyasini saqlash manfaatini ko‘zlab hamda Angliyaning xalqaro ta‘sirini kuchsizlantirish uchun chor Rossiyasi bilan yaqinlashishga intildi. 1823-yildan keyin Madridda Fransiya ta‘sirining ustunlik qilishidan Angliya burjuaziyasi norozi edi. Karl X o‘z hukmronligining oxirlarida mustamlakalar bosib olish bilan Fransiya burjuaziyasining urushqoq kayfiyatdagi doiralari orasida Burbonlar obro‘cini ko‘tarish uchun Jazoir istilosini boshlashga qaror qildi. 1830-yilda fransuz qo‘shinlarining Jazoirni bosib olishi O‘rta Yer dengizida Fransiya mavqeining ko‘chayishini istamagan Britaniya hukumatini tashvishga solib qo‘ydi. Buning ustiga, Polinyak Turkiyani bo‘lib olish hamda Fransiyaning Misrni bosib olishi to‘g‘risida podsho bilan kelishib olish orzusida edi, bu esa Britaniya siyosatining manfaatlariga sira ham to‘g‘ri kelmas edi.

Fransiyadagi voqealardan keyin Belgiyada Gollandiya hukmronligiga qarshi inqilob boshlanganida, podsho yanada ko‘proq vahimaga tushdi. Belgiyaliklar o‘z mamlakatining Gollandiyadan ajralib chiqqanligini e‘lon qildilar. Lui Filipp Belgiyaga qurolli yordam berdi: u Belgiya taxtiga o‘g‘li gersog Nemurskiyning saylanishiga erishmoqchi bo‘ldi. Bu hol Belgiyada Fransiya ta‘sirining ustun bo‘lishiga olib kelar edi, Angliya esa buning ro‘y berishidan doim xavfsirar edi. Shuning uchun Lui Filippning niyatlari faqat Nikolay I ning noroziligiga sabab

bo'libgina qolmay, balki Angliyani ham qattiq tashvishga solib qo'ydi. Prussiya rus qo'shinlarini Belgiyaga o'tkazadi deb ishongan edi. Biroq, 1830-yil 29-noyabrda boshlangan polyaklar qo'zg'oloni chorizmning kuchlarini Belgiyadagi voqealardan chetga tortdi.

Polyaklar qo'zg'oloni Rossiyaga, shuningdek, Prussiya va Avstriya reaksiyasiga qarshi kurashga katta munosabati ilg'or ahamiyatga ega edi. Ammo dehqonlarning krepostniklikka qarshi qaratilgan va yer olish to'g'risidagi talablari qo'zg'olonga rahbarlik qilgan shlyaxtaga yot edi va hali uncha o'smagan polyak burjuaziyasi bu talablarni qattiq qo'llab-quvvatladi.

Polyak dehqonlari keng ommasining qo'llab-quvvatlashidan o'zlarini mahrum etgan qo'zg'olon rahbarlari Yevropa hukumatlari va hammadan oldin Angliya va Fransiya hukumatlari yordam beradi, degan puch umidda edilar. Ular Angliya va Fransiyaning hukmron doiralari polyaklar taqdiri bilan chinakamiga qiziqadi, deb ishongan edilar. Biroq, bu mamlakatlarning hukmron doiralari va hukumatlari polyaklar masalasi bilan faqat bu masala Rossiyani qanchalik zaiflashtira olishiga qarab qiziqar edilar. Iyul inqilobidan keyin Fransiya bilan Rossiya o'rtasidagi munosabatlar keskinlashgan vaqtda, Fransiya vazirlari agar qo'zg'olonchilar g'alaba qozonguday bo'lsa, qaytadan tiklangan Polsha Fransiyaning ittifoqchisi bo'ladi va Fransiya qo'lida qurol bo'lib qoladi, degan umidda edilar. Lekin, ayni bir vaqtda, Fransiya burjuaziyasining Polshani talashib Rossiya bilan urushishga istagi ham, kuchi ham yo'q edi. Lui-Filipp hukumati o'z mamlakatida ishchilar harakatining ko'tarilishidan qo'rqar va polyaklar ishiga aralashish bilan o'z ahvolini mushkullashtirib qo'yishni istamas edi. Fransiya demokrati doiralargina polyaklarga samimiy xayrixoh edilar, ammo o'z mamlakatining siyosatiga ularning jiddiy ta'siri yo'q edi.

Polyaklar qo'zg'oloni tor-mor qilinishi bilan "Yevropaning asosiy jandarmi" bo'lgan chorizmning roli yanada ko'chaydi. Varshavaning olinganligi xabari Parijga ma'lum bo'lgach, radikal doiralar hayajonga tushdi. Fransiyaning deputatlar palatasida chor Rossiyasiga qarshi urushga da'vat qilgan nutqlar so'zlandi. Ammo, o'sha vaqtdagi vazirlar kabinetining boshlig'i Kazimir Pere

Nikolay I bilan munosabatlarni keskinlashtirmaslikni afzal ko'rdi. Tashqi ishlar vaziri general Sebastyan Varshavada tartib hukm surayotganligini surbetlik bilan aytdi. Angliya ham polyaklarga hech qanday yordam bermadi. Angliya hukumati og'izda o'zini reaksiyaning dushmani va ozodlik himoyachisi qilib ko'rsatar, amalda esa, Angliya inqilobiy harakatlarning bostirilishini bir necha marta qo'llab-quvvatlagan va ma'qullagan edi. Garchi, Palmerston boshqa mamlakatlardagi liberal islohotlarni quvvatlaganda ham, buni inqiloblarning oldini olish uchungina qilar edi. Radikallar va inqilobchilar tamomila asosli ravishda uni reaksiya va aksilingilobning himoyachisi deb bilardilar. Zamondoshlar Angliya hukumati, jumladan, uning tashqi ishlar vaziri lord Palmerston faoliyatining ana shu tomonini, chorizmning inqilobiy harakatlarini bostirishga qaratilgan siyosatiga Angliya hukumatining yordam berayotganligini ayniqsa g'azab bilan fosh qilar edilar.

Polyaklar qo'zg'oloni Nikolay I ni Belgiyaga intervensiya boshlash imkoniyatidan bira to'la mahrum etdi va bu bilan Belgiya mustaqilligining mustahkamlanishiga yordam berdi. Angliya hukumati Belgiyaning Fransiyaga qaram bo'lib qolmasligi sharti bilan Niderlandiya qirolligining bo'linib ketishiga aslo qarshi emas edi. Lui Filipp Fransiyaning Angliya bilan yaqinlashuvi manfaatini ko'zlab, Belgiya taxtiga o'tkazmoqchi bo'lgan o'z o'g'lining nomzodidan voz kechdi va Angliyaning ko'nglidagi odam, Angliya qirolli xonadonining qarindoshi gersog Leopold Saksen-Koburgskiyning nomzodini tan olishga rozi bo'ldi.

Rossiya hukumati Belgiya ustidan Niderlandiya qirolining hukmroiligini tiklash mumkin emasligiga ko'ngach, Fransiyaning Belgiyaga daxl qilmasligini kafolatlashga harakat qila boshladi; bu Angliyaning va boshqa davlatlarning manfaatlariga mos kelar edi. Rus diplomatiyasining faol ishtirokida 1831-yilda Londonda besh buyuk davlat elchilarining konferentsiyasi bo'lib, unda Belgiyaning "abadiy" betarafligi to'g'risida bayonnoma imzolandi.

Iyul inqilobidan keyin hokimiyat tepasiga chiqqan fransuz moliya burjuaziyasi xalqaro vaziyatning murakkabligidan o'zining "antantasi"ni chetga

tortishga harakat qildi. Tinchgina boyib yotish va mamlakat ichida inqilobiy harakatni bostirish - Fransiyaning 1830-yildan 1848-yilgacha idora qilgan moliya aristokratiyasi asosan ana shuning g'amini yer edi. Lekin, 1847-yildagi inqiroz natijasida budjeti taqchilligi 247 million frankni tashkil qildi.

Angliyaga yoqish uchun Fransiyaning Jazoiridagi bosqinchiliklarini to'xtatgan va Belgiya masalasida yon bergan Lui Filipp Ispaniya ishlarida ham Angliyaga yordam berdi. "Karloschilar" urushi borayotganda Avstriya bilan Fransiya, ispan "karloschilarni", ya'ni don Karlos tarafdorlarini qo'llagan edilar. Angliya hukumati "kristinachilar"ga, yani qirolicha Kristina tarafdorlariga yordam berib, bo'lar yenggandan keyin Ispaniyani xo'jalik va siyosiy jihatdan Angliyaga qaram qilib qo'yish umidida edi. Lui Filipp ham Angliyaga xushomad qilib, don Karlosga dushman bo'ldi va "kristinachilar"ga yordam berishga tayyor turdi. Bunda u Ispaniyada ustunlik ta'siriga ega bo'lishni Angliyaga berib qo'ydi. 1834-yilda Palmerston Angliyaning Ispaniya va Portugaliya bilan ittifoqini yashirincha tayyorladi. Ispaniya butun o'n-yil davomida Angliyaga qaram bo'lib qoldi va asoratli shartlar bilan undan qarz olib turdi. Fransiya esa ikki qo'li bo'sh qola berdi.

Ikkala mamlakatda ham "samimiy inoqlik" (yentente cordiale) deb nom olgan Angliya-Fransiya yaqinlashuvi Ispaniya masalasida va mustamlakalar bosib olish sohasida Angliya bilan Fransiya o'rtasidagi keskin ziddiyatlarni mutlaqo istisno qilmas edi. Fransiya burjuaziyasi Misr ustidan o'z nazoratini o'rnatmoqchi edi; Misrga ayni bir vaqtda Angliya kapitalistlari ham ochko'zlik bilan qarar edilar. Yaqin Sharq Angliya-Fransiya o'rtasidagi keskin raqobat maydoni edi. Fransiya burjuaziyasi anchadan beri Turkiya bilan katta savdo olib borar edi, u Misr va Suriyada ustunlik mavqeida bo'lib, Gretsiya bozorlarida mustahkam pozitsiyalarni egallagan edi.

Beqaror, ichki ziddiyatlar mavjud bo'lgan Angliya-Fransiya "antantasi" tarkib topib borgan bir vaqtda podsho Nikolay I, Prussiya qiroli va Avstriya imperatori uch monarx ittifoqiga birlashdilar. 1830-yilda konvensiyalari shu yilgi Lion voqealaridan keyin Rossiya, Avstriya va Prussiyaning hukumatlari polyaklar

qo'zg'olonidan va uning takrorlanishi mumkinligidan ayniqsa ko'proq qo'rqa boshladilar.

Feodal tuzumni saqlash va bu davlatlarning Polshadagi yer-mulklarini o'zaro kafolatlash uchun va ayniqsa polyaklarning ozodlik harakatini bostirish uchun 1833-yilda Gratsda Avstriya bilan Rossiya o'rtasida va Berlinda Rossiya bilan Prussiya o'rtasida ikkita bitim imzolandi. Bu konvensiyalar uch davlat o'rtasida 1815-yilda belgilangan chegaralarni kafolatlagan edi. Berlinda imzolangan alohida, uchinchi bitimda uchala podsho o'zaro bir-birlariga yordam berishga va agar manfaatdor hukumat iltimos qilsa, inqiloblarni bostirish uchun birgalikda aralashishga va'da berdilar. Bu uzog'i bilan 1833-yildagi bitim 1820-yilda Troppauda kafolatlagan edi. Yevropa davlatlari va Sharq masalasi kongressida qabul qilingan deklaratsiyadan farq qilar edi; u deklaratsiyada hech kimning roziligisiz inqiloblarni bostirish uchun boshqa mamlakatlarning ichki ishlariga aralashish e'lon qilingan edi. Yevropaning boshqa davlatlari 1833-yildagi bitimga qo'shilmadilar, shunday qilib, Muqaddas ittifoqni qaytadan batamom tiklab bo'lmadi.

Rossiya imperiyasi Rossiya-Turkiya urushidan keyin zaiflashgan Turkiyaga nisbatan status-kvoni (mavjud vaziyatni) saqlab qolish yo'lini to'tganligi 1833-yilda Avstriyaning Rossiya bilan yaqinlashuvini osonlashtirgan edi. Rossiya siyosatidagi bu burilish rus hukumatining Turkiyani zaiflashtirib, uni o'z ta'siriga bo'ysundirishni va uni kuchsiz va itoatli qo'shniga aylantirishni umid qila boshlaganligi faktidan kelib chiqqan edi. Turkiyada va Avstriya imperiyasida yashagan xalqlarning batamom ozod bo'lishi to'g'risidagi fikr chorizmni dahshatga solar edi, chunki Rossiyaning o'zi "xalqlar turmasi" edi.

1829-yilda rus hukumati yaqin vaqt ichida o'tkazadigan siyosatni, ya'ni Turkiyaning "hududiy birligi"ni saqlashdan iborat tamoyilga va Konstantiponolda rus ta'sirini mumkin qadar ustun qiladigan bir darajada Turkiya bilan yaqinlashishga asoslangan siyosatni belgiladi. Podsho va uning vazirlari Dardanell va Bosfor bo'g'ozlar to'g'risida Turkiya hukumati bilan foydali bitim tuzishga erishmoqchi edilar. 1830-yildagi inqilobdan keyin qo'zg'olonlar va milliy-ozodlik

harakatidan qo‘rqish bunday yo‘l tutishni yanada ko‘proq taqozo qildi; bu yo‘l 1830-yildagi inqilobidan keyin ochiq ko‘rinib qolgan va XIX asrning 30-yillarida rus hukumati tomonidan qo‘llab-quvvatlangan edi.

1830-yilgi inqilobidan keyin Yevropa siyosatida Sharq masalasi birinchi o‘ringa qo‘yildi; bunda Yevropa diplomatlari Turkiyaning taqdiri, Konstantinopolga ta’sir qilish, Qora dengiz bo‘g‘ozlari va Turkiya imperiyasining chekka o‘lkalarida yashagan xalqlarning ozodlik harakati to‘g‘risidagi masalani tushunar edilar. Sharq masalasida eng zo‘r raqobatchilar Angliya bilan Rossiya edi. Misrni talashib Angliya-Fransiya o‘rtasida chiqqan ziddiyatlar ham jiddiy ahamiyatga ega edi. Rossiya hukumati bo‘lardan o‘z manfaatlarini yo‘lida foydalanmoqchi bo‘ldi.

Turkiya imperiyasining xususiyati shunda ediki uning chekka o‘lkalari - Misr va Bolqon yarim oroli yerlari - iqtisodiy jihatdan turklarning Kichiq Osiyodagi viloyatlariga qaraganda ko‘proq taraqqiy qilgan edi. Bu hol Usmoniylar imperiyasidagi turk bo‘lmagan ko‘p sonli aholi ustidan Turkiya hukmronligini g‘oyatda reaksiyon harakterdagi hukmronlikka aylantirgan edi. Bu imperiyadagi chekka o‘lkalarning xo‘jalik va madaniy jihatdan ustunligi turk bo‘lmagan xalqlar yashagan bu viloyatlarda ayirmachilik harakatining, qisman esa milliy-ozodlik harakatining ham yoyilishiga yordam berdi.

Muhammad Ali (Mehmed Ali) poshsho idora qilgan Misrda kuchli ayirmachilik intilishlari avj olgan edi, Muhammad Ali o‘z armiyasi va flotini qaytadan tuzgan iste’dodli va jasur islohotchi bo‘lib shuhrat qozongan edi. U Suriyani idora qilishni o‘z qo‘liga olishga harakat qildi, sulton hokimiyatidan ozod bo‘lishga va mustaqil podsho bo‘lib olishga intildi. Uning talablari rad qilingan taqdirda, Muhammad Ali o‘z armiyasini Konstantinopolga yubormoqchi, Turkiya poytaxtini ishg‘ol qilmoqchi va sultonni o‘z talablarini qondirishga majbur etmoqchi edi.

Fransiya burjuaziyasi va hukumati Misrni o‘z ta’siriga bo‘ysundirish uchun ko‘pdan beri harakat qilar edi. Ular Misr podshosining niyatlariga xayrixohlik bildirdilar va uni pul hamda qurol-yaroq bilan taminlab, o‘zlarining

qo'g'irchog'iga aylantirmoqchi bo'ldilar. Fransiya Muhammad Ali ga ofitserlar va pul bilan yordam berdi. Bu Misrni o'z mustamlakasiga aylantirish umididan qaytmagan fransuz burjuaziyasining XVIII asr oxiridan boshlab olib borayotgan siyosatining davomi edi.

Muhammad Ali sultonga qarshi qo'zg'olon ko'tarib, 1833-yilda Turkiya armiyasini tor-mor keltirdi. Misr qo'shinlari Konstantinopolga qarab yurdi. Rossiya podshosi oldida Misr podshosining to'la g'alaba qilishi, Turkiya imperiyasining chekka o'lkalarida Fransiya ta'siri ostida kuchli davlat vujudga kelishi va hatto sultonning taxtdan ag'darilib, Konstantinopol taxtida Muhammad Alining podsholik qilishi mumkinligi xavfi tug'ildi. Sulton Mahmud II Muhammad Alining niyatlari va uning Fransiya bilan aloqalarini xush ko'rmagan Angliyaga yordam so'rab murojaat qildi. Ammo, qo'l ostida desant tushirish uchun quruqlikdagi qo'shinlari bo'lmagan va Rossiyani Fransiya bilan to'qnashtirishga umid qilgan Angliya kabineti sustkashlik qildi. Mahmud II noiloj ahvolda qolishi bilanoq rus hukumati undan yordam to'g'risida yozma iltimosnoma talab etdi va shundan keyin 14 ming rus askaridan iborat otryad Misr armiyasining yo'lini to'sish uchun Bosforga kirish yaqinida Kichiq Osiyo sohiliga kelib tushdi. Rus qo'shinlarining paydo bo'lishi Muhammad Alini sulton bilan sulh tuzishga majbur etdi, lekin shunday bo'lsa-da, sulton Muhammad Ali ga juda katta yon berib, Suriya, Kilikiya va Kritni idora qilishni unga topshirishga majbur bo'ldi.

Misr podshosi sultonning nomigagina vassali bo'lib qoldi va Fransiyaning yordamidan foydalanishni davom ettirdi, bu hol Misrning Fransiya yarim mustamlakasiga aylanishini istamagan Angliya burjuaziyasini qattiq tashvishga soldi.

Muhammad Alining sultonga qarshi bosh ko'tarib, 1833-yilda rus qo'shinlari Bosfordaligi vaqtida sulton hukumati Rossiya bilan shartnoma tuzdi, bu shartnoma Kichiq Osiyo sohilida, Bosforga kirish yaqinida, Unkiar-Iskelessi degan bir qishloqchada imzolandi. Shartnomaning shartlarida sultonning iltimosi bilan podshoning unga qurolli yordam berishi ko'zda tutilgan edi. Bu va'da evaziga sulton hukumati shartnomaga alohida, maxfiy modda qo'shdi. Bu moddaga ko'ra,

Turkiya hukumati Dardanelli bo'g'ozini boshqa davlatlarning harbiy kemalari uchun bekitib qo'yish, ularning hech qanday vajlar bilan ham bu bo'g'ozga kirishiga yo'l qo'ymaslik majburiyatini olgan edi. Shartnoma yetti yilga tuzildi. Bu shartnomaning imzolanishi XIX asrda Turkiyada Rossiya ta'sirining eng yuqori cho'qqisi bo'ldi.

Unkiar-Iskelessi shartnomasining ikki tomonlama ahamiyati bor edi. Birinchidan, shartnomaga muvofiq Dardanellining chet el kemalari uchun yopiq bo'lishi, ingliz va fransuz flotlarining o'sha vaqtlarda Rossiyaning eng zaif tomoni bo'lgan Qora dengizdagi rus sohiliga qarshi harakat qilish uchun bo'g'ozlardan bemalol o'tib kelish imkoniyatini yo'q qilar edi. Unkiar-Iskelessi shartnomasi Angliyaning o'z flotini Qora dengizga yuborib, har vajdan Rossiyaga tahdid solishiga xalaqit berar edi. Ikkinchidan, bu shartnoma sulton hukumatining birdan-bir "himoyachisi" bo'lib chiqqan Rossiya podshosining Turkiyada ustunlik mavqeini o'rnatar edi.

Rossiyaning Misr podshosiga qarshi chiqishi va Nikolay I Turkiyaning yashashini qo'llab-quvvatlashi tufayli Sharq masalasida Avstriya-Rossiyaning yangidan vaqtincha yaqinlashuvi mumkin bo'ldi. Metternix Rossiya podshosining bundan keyin Bolqondagi qo'shib olishlardan va milliy-ozodlik harakatlarini qo'llab-quvvatlashdan voz kechganligidan manfaatdor edi. 1833-yil 6- sentyabrda Myunxengretsda Avstriya va Rossiya hukumatlari konvensiya imzoladilar; bu konvensiyaga ko'ra, ikkala tomon ham Fransiya va Misr podshosining niyatlariga qarshi ish ko'rish hamda Turkiya imperiyasiga nisbatan statusni saqlash majburiyatini oldilar. Bu bitim "Muqaddas ittifoq" siyosati ruhida feodal-absolyutistik reaksiyani qo'llab-quvvatlash prinsipini Turkiyada amalda joriy qilishni bildirar edi.

Angliya burjuaziyasi Rossiyaning Bosforda, Fransiyaning esa Nil vodiysida mustahkamlanib olishiga qanday qilib bo'lsa ham yo'l qo'ymaslik uchun harakat qilardi. Angliya hukumati Konstantinopolda Rossiya ta'sirining ko'chayishidan va ingliz flotining Qora dengizda paydo bo'lib Rossiyaga tahdid solish imkoniyati yo'qligidan norozi edi. Palmerston shartnoma Nikolay I ning Turkiya ustidan

“protektorati”ni o‘rnatadi, deb chiqdi va uni bekor qilishni talab eta boshladi. U hamma choralarini qilib ko‘rdi: do‘q qilib ham, aldab ham, va’dalar berib ham ko‘rdi, lekin Turkiya sultoni Misr podshosidan shu qadar qo‘rqar va Rossiya podshosi qo‘shinlarining yordamiga shu qadar muhtoj ediki, 1840-yildagi o‘z kuchini yo‘qotishi kerak bo‘lgan shartnomani bekor qilishga jur‘at yetmasdi.

Unkiar-Iskelessi shartnomasi Rossiya diplomatiyasining Yaqin Sharqdagi katta muvaffaqiyati ekanligini tushungan Palmerston Rossiyaning bo‘g‘ozlardagi mavqeiga putur yetkazish va u yerda Turkiya ustidan davlatlarning “kollektiv homiyligi” niqobi ostida Angliyaning ustunligini o‘rnatish uchun butun kuchini sarf qildi. Angliya kabineti o‘zining bosqinchilik maqsadlarini niqoblash uchun Sharq masalasida go‘yo birdan-bir bosqinchi Rossiyadir, degan tuhmatlarni tarqatdi.

Palmerston va ingliz publitsislari, Angliyaning Yaqin Sharqdagi va Osiyodagi siyosati Hindistonni Rossiyaning hujumidan “himoya qilish” zaruratidagina kelib chiqadi, deb isbotlashga o‘rindilar. Hatto, Hindistondagi Panjobni bosib olishni ham ingliz publitsislari u yerga rus qo‘shinlarining “bostirib kirish” xavfi bo‘lganligidan deb “oqladilar”. Haqiqatda esa, Rossiya Sharqda birdan-bir bosqinchi ham, hatto eng kuchli bosqinchi ham emas edi. Angliya burjuaziyasi Sharqning bu mamlakatlarida o‘zining siyosatini yanada qattiqroq va ancha katta natijalarga erishgan holda olib borar, bu mamlakatlarni o‘zining mustamlakachilik hukmronligiga bo‘ysundirishga intilar edi.

Britaniyaning mustamlakalar bosib olishi 1830-1840 yillarda ayniqsa, keng avj oldi. 1839-1842 yillarda Angliya hukumati Afg‘onistonga qarshi urush boshladi; lekin bu urush u mamlakatga bostirib kirgan Britaniya qo‘shinlari otryadining batamom yo‘q qilib yuborilishi bilan tugadi. 1840-1842-yillarda Xitoyga qarshi birinchi afyun urushi olib borildi, bu urush Gonkongni bosib olish va Xitoyga noteng Nankin shartnomani qabul qildirish bilan tugallandi. 1840-yilda Hindiston istilo qilib bo‘lindi. 1839-yildan 1849-yilgacha o‘tgan o‘n-yil ichidagina Angliya aholisi 8,5 million kishi bo‘lgan mustamlakalarni bosib oldi. Britaniya burjuaziyasi O‘rta Osiyo xonliklarini, Yaqin Sharqda esa Turkiyani o‘z

hukmronligiga bo'ysundirish niyatida edi.

Rossiyaning Turkiyadagi va O'rta Osiyodagi ta'siriga qarshi bo'lgan Angliya hukumati rus siyosatiga aslo Turkiya imperiyasining "bir butunligi" va "daxlsizligi"ni himoya qilish uchungina qarshilik ko'rsatmasdi, Angliyaning o'zi Turkiyaga qaram bo'lgan Adanni (1839) va Permni (1842) bosib oldi. Turkiya imperiyasini "himoya qilish" deb nom chiqargan "himoya" ingliz burjuaziyasining Turkiyani asoratga solish, undan Rossiyaga qarshi platsdarm sifatida foydalanish va Fransiyaning Misrdagi mavqeiga putur yetqazish niyatlarini qoplar edi, xolos.

Britaniya burjuaziyasining ana shunday sharoitda harbiy-feodal Usmoniyalar imperiyasining bu imperiya qullikka solgan xalqlar ustidan zulmini saqlab qolishga intilishi reaksion harakterga ega edi: bu intilish ingliz mustamlakachilarining bosqinchilik rejalarini niqoblar va qo'l ostidagi mazlum xalqlarni qon-qaqshatayotgan hamda ularning iqtisodiy va madaniy taraqqiyotini to'xtatayotgan turk feodallarining zulmini abadiylashtirishga qaratilgan edi.

Sharq masalasida Angliya siyosati Rossiyaning siyosati bilangina emas, balki Fransiya burjuaziyasi bilan ham to'qnashar edi. 1838-yilda Buyuk Britaniya va Fransiya Turkiyadan chet el mollari kiritilishidan olinadigan bojni ularning qimmatidan 5 foiz hisobida olishgacha kamaytirish to'g'risida savdo shartnomasi tuzishga majbur etdilar. Ammo, Fransiyaning kuchsiz sanoati Yaqin Sharqda o'z tovarlarini sotishda ingliz sanoati bilan raqobatlasha olmas edi. Shuning uchun Misr podshosi Fransiya xushomad qilib, Angliya raqobati Fransiyaning savdo kompaniyalarig zarar yetkazmasin deb, 1838-yildagi savdo shartnomasi shartlarini o'z qo'l ostidagi viloyatlarda joriy qilishni istamadi. Bu hol Palmerstonni ancha tashvishga solib qo'ydi. Bundan tashqari, Palmerston, agar Misr podshosi o'z mavqeini saqlab qolguday bo'lsa, sulton undan qo'rqib, 1840-yilda Rossiya bilan ittifoq bo'lish to'g'risidagi Unkiar-Iskelessi shartnomasini yangidan tiklaydi, deb xavfsirar edi. Angliya hukumati sultonga itoatsiz, Misr podshosining tezroq ta'zirini berishni maslahat berdi. 1839-yilda Palmerston sultonni Muhammad Aliga hujum qilishga ko'ndirdi. Biroq, Misr qo'shinlari Turkiya armiyasini batamom tormor keltirdi. Turkiyaga darhol yordam berish masalasi yana kelib chiqqanda,

Britaniya kabineti sultonning yordam so‘rab birgina Rossiya podshosiga emas, balki barcha buyuk davlatlarga murojaat etishini talab qildi. Bunda Palmerston Rossiyaning Turkiyadagi mavqeini kuchsizlantirmoqchi, Fransiyani yakkalab qo‘ymoqchi va davlatlarning Muhammad Aliga qarshi birgalikda qiladigan intervensiyasida Angliyaning rahbarlik rolini o‘ylashini ta’minlamoqchi edi.

Palmerston Rossiya podshosiga, agar u Unkiar-Iskelessi shartnomasini yangidan tiklashni qattiq turib talab etadigan bo‘lsa, Fransiya bilan til biriktiramiz, deb do‘q qildi. Nikolay I bu shartnomaning muhlatini cho‘zish fikridan voz kechdi va Misr podshosiga qarshi to‘rt davlatning birgalikda intervensiya qilishiga rozi bo‘ldi. Turkiya imperiyasining parchalanisini Avstriya xohlamas edi, chunki bu hol slavyan xalqlarining Avstriya zulmidan ozod bo‘lishiga olib kelar edi. Shu sababli Avstriya Palmerston rejaini quvvatladi. Prussiya esa o‘z obro‘sini saqlab qolish va Fransiyani kamsitish uchun bu davlatlarga qo‘shildi. Palmerston Fransiyani yakkalab qo‘yib, 1840-yilda Angliya, Rossiya, Avstriya va Prussiya tomonidan London konvensiyasining imzolanishiga erishdi; bu konvendiya ko‘ra, Turkiya imperiyasi ularning birgalikda “homiyligi”ga olingan edi. Fransiya bu safar “Yevropa konserti” dan chetga chiqarib qo‘yilgan va unga qarshi 1814-1815-yillardagi “To‘rtlar ittifoqi” qayta tiklanganday edi.

Rossiyaning Unkiar-Iskelessi shartnomasini qayta tiklay olmaganligi Nikolay I siyosatining katta mag‘lubiyati edi. Turkiya ishlariga ta’sir etishda ustunlik Angliyaga o‘tdi.

Angliya bilan Avstriya Misrda intervensiyani amalga oshirishni o‘z zimmalariga oldilar, Angliya va Avstriya floti Muhammad Alining kemalarini bosib oldi. Muhammad Ali Suriyani bo‘shatib berishga majbur bo‘ldi. U idora qiladigan viloyatlar chegaralari qisqartirildi. Fransiya Muhammad Aliga qurolli yordam berishga jur‘at etmadi va Misr hamda Suriyada o‘zining ustunlik mavqei qo‘ldan ketishiga ko‘nib qo‘ya qoldi.

G‘arb davlatlarining harbiy kemalari uchun Bosfor va Dardanelli bo‘g‘ozlari orqali o‘tish yo‘li ochilgan, bu esa Qora dengizdagi rus qirg‘oqlarini jiddiy xavf ostida qoldirgan edi. Rus diplomatiyasi bu xavfni kamaytirish uchun

1841-yilda Londonda ikkinchi konvensiyaning imzolanishiga muvaffaq bo'ldi. Ko'rfazlar to'g'risidagi konvensiya deb ham ataladigan bu konvensiya tinchlik vaqtida hamma davlatlarning harbiy kemalari uchun bo'g'ozlarning yopiq bo'lishini ta'minlar edi, urush vaqtida esa kemalarning o'tishi sultonning qaysi pozitsiyada ekanligiga bog'liq edi. Angliya hukumati bo'g'ozlarning yopiq bo'lishi uchun rozilik berishi evaziga Fransiyaning 1841-yildagi konvensiyasida ishtirok etishiga va Turkiya ustidan buyuk davlatlarning birgalikda "homiylk"ga kiritilishini talab etdi. Fransiyaning Misrda hukmronlik qilish imkoniyati bartaraf qilingandan so'ng va Fransiya kamsitilganidan keyin, Palmerston Angliya-Fransiya "antantasi"dan Rossiyaga qarshi foydalanish uchun bu "antanta"ni yangidan jonlantirmoqchi edi. 1841-yildagi konvensiyasini besh buyuk davlatning hammasi imzoladi. G'arb davlatlari Qora dengiz bo'g'ozlarining xalqaro-huquq rejimiga aralashish imkoniga birinchi marta ega bo'ldilar. Shu tariqa, davlatlarning Turkiyaga "kollektiv homiyligi" niqobi ostida 1840-yildan boshlab Angliya va Fransiyaning hukmron ta'siri o'rnatildi. Angliya va Fransiya harbiy flotlari uchun Qora dengiz bo'g'ozlarining bekitilishi esa faqat qog'ozdagi hujjatda - 1841-yildagi konvensiyasidagina kafolatlagan edi. 1840-yildan boshlab, ya'ni Unkiar-Iskelessi shartnomasining muhlati tamom bo'lgan hamda Konstantinopolda Angliya va Fransiyaning hukmron ta'siri o'rnatilgan vaqtdan etiboran, chorizm yana Turkiyani taqsimlash loyihasiga qaytdi. Nikolay I Usmoniylar imperiyasini o'zining ichki illatlaridan yaqinda halok bo'ladigan "kasal odam" deb hisoblardi, shuning uchun uni taqsimlab olish to'g'risida Angliya va Avstriya bilan oldindan kelishib olmoqchi edi.

Shunday qilib podsho Bosfordan Qora dengizga chiqish joyini bosib olishni ko'zda to'tgan edi. 1844-yilda Nikolay I Angliyaga bordi va bu masalada torilar vazirlari bilan muzokaralar olib borishga harakat qilib ko'rdi, bunda ularga Misrni egallab olishni, Rossiyaga esa Bosforda tayanch punkti berishni maslahat berdi. Britaniya hukumati podshoning Turkiyani taqsimlashni va Misrni egallashni ko'pdan beri da'vo qilgan Fransiya bilan aloqani o'zishni Angliyaga taklif qilayotganligini tushundi va bu takliflarga hech qanday javob bermadi. Turkiyada

o‘zlarining ustunlik mavqeyini o‘rnatib olgan Angliya va Fransiya burjuaziyasi o‘sha vaqtda Turkiyani taqsimlashdan manfaatdor emas edi va umuman butun Usmoniylar imperiyasida o‘zlarining ko‘chaygan ta’sirlarini saqlab qolish va mustahkamlashni afzal ko‘rar edi.

Yevropada o‘sib borgan inqilobiy harakat Yaqin Sharqda Angliya-Rossiya ziddiyatlarining yangidan keskinlahuvini keyinga surdi. Buning ustiga XIX asr 40-yillarining ikkinchi yarmida Jazoirni talashib va Ispaniya ishlari yuzasidan kelishmovchiliklar tufayli Angliyaning Fransiya bilan munosabatlari yana keskin suratda yomonlashdi.

Angliya uchun bir tomonlama foydali bo‘lishli bilan yaqinlashish uzoqqa bormadi. Birinchidan, Fransiyada inqilobiy harakatning o‘sishi Lui-Filippni feodal-absolyutistik reaksiyaning asosiy tayanchlaridan biri bo‘lgan Avstriyadan yordam so‘rashga majbur qildi. Ikkinchidan, fransuz burjuaziyasining keng doiralari Jazoirda va Misrda mustamlakachilik siyosatini zo‘r berib olib borishni talab etdiki, bu hol Angliya bilan munosabatlarni muqarrar keskinlashtirar edi. Angliya va Fransiya sanoatlarining raqobati ham “samimiy inoqlik”ka putur yetkazar edi. Fransiyaning sanoat burjuaziyasi Iyul monarxiyasining tashqi siyosatini keskin tanqid qilar, haqli suratda uni Fransiyaning iqtisodiy taraqqiyoti ehtiyojlariga muvofiq emas, deb hisoblar edi. Fransuzlar egallagan Taiti orollarida mahalliy aholini fransuzlarga qarshi qo‘zg‘atgan Angliya elchisi Pritchardning o‘sha vaqtda ko‘p shov-shuvga sabab bo‘lgan ishiga 1844-yilda Fransiya hukumati bo‘sh qaraganida, oppozitsiya Gizo vazirligini mustamlakalarni mensimaslikda va Fransiyaning milliy manfaatlariga xiyonat qilishda aybladi. Vazirlik tarafdorlariga “pritchardchilar” degan laqab berildi.

Shundan keyin ko‘p o‘tmay, Angliya-Fransiya munosabatlari yanada yomonlasha boshladi. 1846-yilda Lui Filipp va uning vaziri Gizo Ispaniyada Fransiyaning ustunlik ta’sirini tiklash uchun o‘rinib ko‘rdilar. Ular bu maqsadga g‘irt o‘rta asr usullari - sulolali “Ispaniya nikohlari” vositasida erishmoqchi bo‘ldilar. 1846-yilda Fransiya hukumati Lui Filippning o‘g‘li gersog Monpaseni Ispaniya qirolichasi Izabellaning singlisi Luizaga uylantirishga muvaffaq bo‘ldi; bu

hol Angliyada qattiq dushmanlik bilan qarshi olindi. London gazetlari "Ispaniya merosi" uchun urushni eslatib do'q qildilar. Angliya-Fransiya "antantasi"ning umri tugadi. Fransiyaning 1847-yilda Jazoirda yangi yerlarni bosib olish, bu mamlakatning fransuz qo'shinlari tomonidan batamom istilo qilinib bo'lishi Angliya bilan Fransiya o'rtasidaq munosabatlarni yanada ko'proq keskinlashtirdi.

Fransiyaning diplomatik jihatdan yakkalangan bir ahvolga tushirib qo'ygan Gizo reaksiya vazirligi Avstriya bilan yanada yaqinlashish yo'lini tutdi, Avstriyada hali ham hokimiyat tepasida Metternix turar edi. Gizo kabineti Yevropada inqilobiy burjua-demokratik harakatlarni bostirishda Metternixga yordamlash boshladi. U Italiyada Avstriyaning italyan milliy-ozodlik harakatiga qarshi qaratilgan reaksiya siyosatini quvvatladi, 1846-yilda, ya'ni Krakovda polyaklar qo'zg'olonini Avstriya qo'shinlari bostirgandan keyin Avstriyaning bu erkin shaharni bosib olishini amalda qo'llab-quvvatladi. 1847-yilda Shveysariyada fuqarolar urushi boshlangan vaqtda, Gizo hukumati Avstriya bilan birgalashib, Vatikan tomonidan tuzilgan qoloq kantonlarning Zonderbund deb atalgan reaksiya ittifoqi foydasiga reaksiya intervensiyaning bevosita tashkilotchisi bo'lib chiqishga o'rindi.

Gizoning tashqi siyosati o'zining doimo muvaffaqiyatsizliklarga uchrashi bilan Fransiyaning obro'sini to'kar, tobora ko'chayib borgan reaksiyoligi bilan unga isbot keltirar, o'sib borayotgan fransuz burjuaziyasi keng doiralarning talablariga javob bermas va Yevropadagi barcha ilg'or demokratik kuchlarning qattiq nafratiga sabab bo'lar edi.

Polyaklar harakatiga qarshi kurashda uch monarxning hamjihatliklariga qaramay, Nikolay I ning Avstriya imperatori arafasida uch monarx Prussiya qiroli bilan 1834-yilda tuzgan ittifoqi 1840-yildan keyin Avstriya va Rossiyaning Prussiya bilan munosabatlari yomonlashganligi tufayli zaiflashdi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, 1840-yildan e'tiboran nemislarning milliy-birlashtiruvchilik harakati markazi janubiy Germaniya davlatlaridan Prussiyaga, jumladan, 1815-yildan buyon Prussiyaga qarashli Reyn viloyatiga ko'cha boshladi. Prussiya burjuaziyasi orasida Germaniyada gegemonlik qilish va Germaniyani

konstitutsiyaviy monarxiyaga aylantirish sharti bilan Prussiyaning Gogensollernlar monarxiyasi hukmronligi ostida birlashtirish harakati ko‘chayib bordi. Bu yangi faktlar podshoni va Metternixni tashvishga solib qo‘ydi, ularning tashvishga tushishlarining sababi shunda ediki, 1840-yilda Prussiya taxtiga o‘tirgan qirol Fridrix-Vilgelm IV konstitutsiyachilikka qanchalik nafratlanib qaramasin, liberallarni o‘tib borgan inqilobiy harakatiga qarshi kurashga tortish niyatida ba‘zan ularga tilyog‘lamalik qilar va yunkerlar Prussiyasini mustahkamlash hamda Germaniya davlatidagi boshqa nemis davlatlari ustidan Prussiyaning gegemonligini o‘rnatish uchun milliy g‘oyadan foydalanishga harakat qilar edi. Metternix va podsho Prussiya qirolidan hech qanday liberal yon berishlarga ko‘nmasliklari bir necha marta talab qildilar.

Rossiya bilan Prussiya o‘rtasidagi savdo munosabatlari ham keskin suratda yomonlashdi. Rus hukumati XIX asrning 40-yillarda Rossiyaning ilgari Polsha podsholigiga kirgan guberniyalarida prus tovarlari uchun belgilangan hamma bojxona imtiyozlarini bekor qilishga kirishdi. Prussiyaning Germaniyaga bosh bo‘lib olish uchun o‘rinishlariga birgalikda qarshilik ko‘rsatish va absolyutizm asoslarining tamomila mustahkam holda qolishini birgalikda himoya qilish uchun Nikolay I 1848-yil inqilobi arafasida Avstriya bilan tobora ko‘proq yaqinlasha bordi.



Krakov hududi xaritada



**Rus otryadiga qarshi Krakov
qo‘zg‘olonchilar.**

Podsho 1846-yilgi Krakov qo'zg'olonini bostirishda va keyin Avstriya yerlariga qo'shib olingan Krakov respublikasini tugatishda ham Avstriyani batamom qo'llab-quvvatladi.

3.5. 1848-1849 yillardagi inqiloblar davrida Yevropa davlatlari diplomatiyasi.

1848-1849 yillarda Yevropaning deyarli barcha mamlakatlarida inqilobiy voqealar yuz berdi. Bir vaqtning o'zida yuz bergan bu inqiloblar Yevropa mamlakatlari o'z taraqqiyoti jixatdan bir-birlariga juda xam Yaqin ekanligini yana bir bor isbotladi.

Ma'lumki, XVII-XVIII asrlardan boshlab, erkin bozor Yevropa qit'asida tobora yetakchilik qilayotgan edi, ammo jamiyatda xali feodalizm qoldiqlari mavjud edi. Shu sababli, 1848-1849 yillarda boshlanib ketgan bu inqiloblar eskilik qoldiqlarini tugatishga qaratilgan. Shu bilan bir qatorda, bu inqiloblar sanoatlashayotgan tuzumning jadal sur'atlar bilan rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratib berishi kerak edi.

1848-1849 yillarda Yevropa mamlakatlaridagi inqiloblarning o'xshash jixatlari bilan bir qatorda, har bir mamlakatda o'ziga xos xususiyatlar ham mavjud bo'lgan. Italiya va Germaniyada ijtimoiy muammolardan ko'ra milliy muammo, ya'ni har ikki mamlakat xalqini milliy davlatchilik asosida birlashtirish masalasi turar edi. Avstriya imperiyasida bo'lsa har bir xalq o'zining milliy mustaqilligiga erishish uchun Gabsburglar sulolasi hukmronligiga qarshi kurashga bel bog'lagan edi.

Fransiyada esa ahvol yanada boshqacharoq bo'lgan. Fransiya asrlar davomida markazlashgan milliy davlat bo'lib, ijtimoiy muammolar inqilobning eng dolzarb masalalaridan hisoblanar edi. 1848-yilning fevral oyi oxirida boshlanib ketgan inqilob Fransiyada o'z davrida eng demokratik Respublikaning o'rnatilishiga olib keldi. 1848-yilda qabul qilingan Konstitutsiya ancha ilg'or konstitutsiya bo'lib, unda asosiy hokimiyat tizimlari bo'lmish qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud-proko'ratura organlarining vazifa va vakolatlari aniq belgilangan

edi. Fransuz huquqshunoslari, olimlari, mutafakkirlari 1848-1851 yillarda hukm surgan Ikkinchi respublika davomida juda ko'p ijobiy ishlarni amalga oshirdilar. Qisqa muddatda saylash va saylanish, davlat organlarini xalq saylovlari asosida tashkil etish, partiyalarning jamiyatdagi faoliyatini ta'minlash, parlament tizimini yaxshilash, prezidentlik boshqaruvini joriy etish kabi bunyodkorlik ishlarini birinchilardan bo'lib fransuzlar yo'lga qo'ydilar. O'sha paytda katta yoshdagi aholi o'rtasidagi savodxonlik ancha yuqori bo'lib, u 50 foizni tashkil etardi. Fransiyada barcha fuqarolarning umumiy ovoz berish huquqini qo'lga kiritish g'oyasi xalq orasida keng tarqaldi. Inqilob natijasida 21 yoshga yetgan va undan oshgan barcha erkaklar saylovda qatnashish huquqini oldilar. Natijada, saylovchilar soni 250 mingdan 9 mln. ga ko'paydi. Konstitutsiyada vijdon erkinligi, e'tiqod erkinligi qat'iy belgilab qo'yildi. Tinch namoyishlar o'tqazish, ijtimoiy-siyosiy ittifoqlar tuzish fransuzlarning o'zviy huquqlariga aylandi. Bir qancha klublar tuzildi, yuzlab gazetalar nashr qilina boshlandi, senzura bekor qilindi. Ish kuni Parijda 10 soat, Fransiyaning qolgan yerlarida - 11 soat qilib belgilandi.

Angliya parlamenti 1832-yildayoq metropoliya va o'z mustamlakalarida qullarning oldi-sotdisini bekor qilgan bo'lsa, Fransiyada bu ish 1848-yilda amalga oshirildi. 1848-yilda qabul qilingan Konstitutsiya mamlakatda prezidentlik tizimini ilk bor joriy etdi. Aytish joizki, 1848-yilgi inqilobiy harakatlar tufayli Shveysariyada ham prezidentlik boshqaruviga o'tildi.

1848-yil dekabr oyida muqobilik asosida o'tkazilgan prezidentlik saylovlarida Napoleon Bonapartning jiyani - 40 yoshli Lui Napoleon Bonapart Fransiyaning birinchi prezidenti etib saylandi, uning raqiblari Kavenyak, Ledryu-Rollen, Lamartin va boshqa prezidentlikka nomzodlar ancha kam ovoz oldilar. 1849-yil may oyida bir-yil oldin saylangan Ta'sis majlisi o'z o'rnini Milliy Majlisga bo'shatib berdi.

Ta'sis majlisi, Milliy majlis faoliyati davomida Fransiyada "Tartib-intizom" partiyasi, "Yangi tog'" partiyasi va boshqa partiya hamda klublar, siyosiy-ijtimoiy tashkilotlar faoliyat ko'rsata boshladi. Ammo, Fransiyada aksariyat aholining hali siyosiy jihatdan yetuk emasligi, dehqonlarning ko'proq monarxistik tuzumga

moyilligi, respublikachilik an'alarining zaifligi, o'rta tabaqalarga mansub bo'lgan aholining tarqoqligi tufayli Ikkinchi respublika va undagi parlament tizimi uzoq davom etmadi. 1851-yil 1-dekabrda 2-dekabrga o'tar kechasi Lui Napoleon Bonapart tomonidan sodir etilgan davlat to'ntarishi tufayli Ikkinchi respublika quladi. Yevropadagi inqiloblarning taqdiri Fransiya inqilobi taqdiriga bog'liq edi, 1848-yil iyun oyi oxirida fransuz ishchilarining qo'zg'oloni bostirilgach, inqilob Yevropaning barcha mamlakatlarida chekina boshladi va mag'lubiyatga uchradi. 1848-yilda Shveysariyada mamlakat yagonaligiga qarshi bo'lgan isyon ikki hafta ichida bostirildi va Markaziy hokimiyat g'alabasidan so'ng Konstitutsiya qabul qilindi.

Shveysariya tarkibidagi kanton-davlatlarining mo'rt, konfederativ ittifoqi yagona, birlashgan federativ davlatga aylandi. Huquq va vakolatlari ancha cheklangan Seym o'z o'rnini ikki palatali Ittifoq majlisiga bo'shatib berdi. Ittifoq majlisi mamlakatning qonun chiqaruvchi Oliy organi vazifasini bajara boshladi. Mamlakat poytaxti qilib sanoatlashgan Bern shahri belgilandi. Shveysariya kantonlaridagi og'irlik, uzunlik, hajm va hokazo o'lchovlar birliklari umumiy qolipga keltirildi. Pul birligi, Markaziy pochta va telegraf, umumiy bojxona tashkil etildi. Yo'l va ko'prik uchun olinadigan bojlar bekor qilindi. Fransuzlarga o'xshab pul birligi frank joriy etildi. Bu chora va tadbirlarning barchasi Shveysariyaning iqtisodiy va siyosiy jihatdan jadal sur'atlar bilan rivojlanishiga keng yo'l ochib berdi.

1848-yilgi Konstitutsiyada barcha aholi uchun saylovlarda umumiy ovoz berish huquqi, arzu dod qilish huquqi, vijdon, matbuot erkinligi, majlislarga erkin qatnashish va ittifoqlar tuzish kabi huquqlar o'z aksini topgan edi. 1848 yilgi inqilob Germaniya yerlarini xam kamrab oldi. Isloxotlar o'tqazish uchun bo'lgan janglar Prussiyadan tashqari Saksoniya, Baden, Bavariya va boshqa nemis o'lkalarida ham yuz berdi.

Hunarmandlar, ishchilar, ziyolilar va talabalar Berlin shahrining turli mavzellarida yig'ilishlar o'tkazib, mehnat vazirligi tuzilishini, barcha ishga layoqatli kishilarning ish bilan ta'minlanishini, umumiy saylov huquqi berilishini

talab qildilar.

Prussiyada Millat Majlisiga saylovlar o'tkazildi, bu majlis Konstitutsiya, ya'ni yangi qonunlar loyihasini tuzish bilan shug'ullandi. Ishlab chiqilgan Konstitutsiyaga muvofiq bo'lajak davlat tuzumi konstitutsiyaviy monarxiya bo'lishi kerak edi. Ammo, ba'zi guruhlar islohotlarni parlament yo'li bilan amalga oshirishni istamas edi. Natijada, hukumat qo'shinlari bilan qo'zg'olonchilar o'rtasidagi to'qnashuv yuzaga keldi va u pirovardida inqilobiy harakatning mag'lubiyatiga olib keldi. Prussiyaning polyaklar yashaydigan yerlarida milliy-ozodlik harakati jonlandi. Xususan, 1848-yil bahorida Poznan viloyatida polyaklarning qo'zg'oloni boshlandi. Prussiya qo'shinlari qo'zg'olonni shafqatsizlik bilan bostirdilar. Qo'zg'olonchi dehqonlardan qattiq o'ch olindi, ularning ko'pchiligi joyida otib tashlandi yoki nayza sanchib o'ldirildi, polyak qishloqlariga o't qo'yildi.

Germaniyadagi 1848-1849 yillardagi inqilobning natijalaridan biri shu bo'ldiki, 1848-yil may oyida Frankfurt-Maynda mahalliy ibodatxona binosida jamoatchilik tashabbusi bilan umumgerman parlamenti ish boshladi. Deputatlar jamoatchilik asosida saylangan bo'lib, ular orasida professorlar, advokatlar, o'qituvchilar va turli kasb egalari hamda ziyolilar ko'pchilikni tashkil qilar edilar. Frankfurt parlamenti Germaniyani konstitutsiyaviy monarxiya asosida birlashtirishni maqsad qilib qo'ygan edi.

Parijda ishchilarning 1848-yil iyun qo'zg'oloni bostirilganidan keyin, Prussiyada qirol va dvoryanlar aksilinqilobiy davlat to'ntarishi o'tqazishga tayyorgarlik ko'ra boshladilar. 1848-yil dekabr oyida qirol Prussiya Millat Majlisini tarqatib yuborish to'g'risidagi farmonga imzo chekdi. Deputatlar xalqni qarshilik ko'rsatishga da'vat etmadilar va o'zlari ham itoatkorona tarqalib ketdilar. Har holda qirol ham konstitutsiya ishlab chiqish to'g'risida farmoyish berdi. Konstitutsiyaga binoan, dvoryanlarning ko'pgina huquqi saqlanib qoldi. Qirol Konstitutsiyada kuzda tutilgan qonun chiqarish muassasalarining har qanday qarorini bekor qilish huquqini saqlab qoldi.

1849-yilning may oyida Saksoniya qirolligining poytaxti Drezden shahrida

va Baden gersogligida umumgerman parlamenti Frankfurt-Maynda ishlab chiqilgan va nemis monarxlari tan olmagan “Imperiya konstitutsiyasi”ning demokratik moddalarini ximoya qilib, qo‘zg‘olon ko‘tarishdi. Bu konstitutsiyada ko‘zda tutilgan imperiya parlamentiga saylovlar o‘tqazishda umumiy saylov huquqi, shaxs erkinligi, ozodlik g‘oyalari jamoatchilik diqqatini jalb qildi. Drezdenda hunarmandlar, ishchilar, o‘rta tabaqaga mansub aholi, ziyolilar mazkur konstitutsiyani yoqlab, kurash maydoniga chiqdilar. Qo‘zg‘olonchilarga qarshi Prussiya qo‘shinlari yuborildi, oqibatda, qo‘zg‘olonchilar tor-mor etildi va butun Germaniyadagi inqilob ham mag‘lubiyatga uchradi.

Italiyadagi 1848-1849 yillardagi inqilob ham ko‘p jihatdan Germaniyadagi inqilobga o‘xshab ketadi. Siyosiy tarqoqlik, kichiq-kichiq davlatlarning mavjudligi, feodalizm qoldiqlari demokratiyaning rivojiga g‘ov bo‘lib turgan edi. Italiyadagi inqilobning yana bir o‘ziga xosligi shundan iborat ediki, Lombardiya va Venetsiya viloyatlari Avstriya imperiyasi tarkibida bo‘lib, Parma, Modena va Toskanada ham hokimiyat Gabsburglar sulolasidan chiqqan gersoglar qo‘lida edi. Bu gersogliklar ham amalda Avstriya zulmi ostida edilar. Rim viloyati papaning qo‘l ostida bo‘lib, u ham Italiyaning milliy jihatdan birlashuviga to‘sqinlik qilar edi.

Yevropaning boshqa mamlakatlari kabi Italiyada ham hosilsizlik va iqtisodiy tanqislik inqilobiy vaziyatni vujudga keltirdi. Inqilobiy chiqishlar 1848-yilning yanvar oyida Neapol qirolligida boshlanib, butun Italiya hududiga yoyilib ketdi. Mart oyida Avstriya imperiyasining Italiyadagi yerlarida milliy-ozodlik qo‘zg‘oloni boshlandi. Shunday qilib, Italiya yerlaridagi Avstriya hukmronligiga qarshi olib borilgan milliy-ozodlik harakati demokratik inqilob bilan qo‘shilib ketdi. Biroq, milliy kuchlarning tarqoqligi, italyan davlatlarining bir-birlari bilan kelishmaganliklari oqibatida Avstriya qo‘shinlari Peymont armiyasini tor-mor etdi. O‘z navbatida, Italiyadagi aksilinqilobiy kuchlar ham Avstriya qo‘shinlariga yordam ko‘rsatishdi.

1849-yil boshlarida Rimda qo‘zg‘olon ko‘tarilib, qo‘zg‘olonchilar Rim papasini haydab yuborishdi, ammo papa yordam so‘rab Fransiya prezidenti Lui

Napoleonga murojaat qildi. U esa Rim respublikasiga qarshi fransuz qo‘shinlarini yubordi. Madzini boshchiligidagi Rim respublikachilarini xalq qahramoni Juzeppe Garibaldi otryadi qo‘llab-quvvatladi va ular Rim Respublikasini mudofaa qildilar. Ammo kuchlar teng emas edi. Shu sababli, 1848-1849 yillardagi Italiya inqilobi o‘z nihoyasiga yetkazilmadi, Avstriya qo‘shinlari haydab chiqarilmadi va Italiya yagona davlat atrofida birlashmadi. Shunday bo‘lsa-da, yagona davlat tuzish uchun bo‘lgan kurash italiyaliklarni ozodlik va milliy mustaqillik harakatlari doirasidagi tajribasi bilan boyitdi.

Avstriya imperiyasida 34 mln. aholi bo‘lib, ularning yarmidan ko‘prog‘ini slavyanlar (chexlar, slovaklar, polyaklar, xorvatlar, slovenlar, serblar, ukrainlar va musulmon mazhabidagi boshqa slavyanlar) tashkil etar edilar. Yana 5 mln. venger va shuncha italyanlar hamda va alaxlar bor edi. Butun imperiyada ko‘pgina feodal tartiblar saqlanib qolgan edi. Imperiya tarkibidagi eng rivojlangan sanoatga ega bo‘lgan o‘lkalar Astriya va Chexiya bo‘lib, u yerda sanoat egalari, hunarmandlar, ishchilar va ziyolilar soni anchagina. Sanoat rivoji jikatidan Chexiya imperiyaning eng ilg‘or hududi bo‘lsa-da, chex o‘rta va kichiq burjuaziyasi avstriyalik yirik kapital egalari qaram edi. Chexiyada aristokratiya va yirik burjuaziya avstriyaliklardan iborat yoki ular nemislashib borayotgan chexlardan chiqqan edilar. O‘z navbatida, venger pomeschchilari millionlab serb va boshqa slavyan dehqonlarining ustidan hukmron bo‘lib, ayni vaqtda, ularning o‘zlari avstriyalik ma’murlarga qaram edilar. Avstriya imperiyasining o‘ziga xos xususiyatlari bu milliy, diniy, sinfiy zulmlarning bir-biri bilan qo‘shilib ketganligida edi.

Vena hukumatiga 30 yildan ko‘proq davr mobaynida Metternix boshchilik qildi. U imperiyada o‘rta asrlarga xos feodal tartiblarni saqlash, slavyanlar va vengerlar ustidan avstriyalik zodagonlar hukmronligini saqlab qolish tarafdori edi. Maktablarda, sudlarda, barcha muassasalarda nemis tili hukmron bo‘lib, yozish-chizish, hisob-kitob ishlari ham faqat nemis tilida olib borilar edi.

Aholining ko‘pchiligini dehqonlar tashkil qilar edilar. Ular shaxsan ozod bo‘lsalar-da, ammo yer egalari foydasiga bir qancha majburiy ishlarni bajarar edilar. Shu tariqa, imperiyada Gabsburglar sulolasi boshchiligidagi avstriyalik

dvoryanlarning vakillari hukmron edilar.

1848-1849 yillardagi inqilob Avstriya imperiyasida o'ziga xos xususiyatga ega edi. Bu inqilobning oldida turgan vazifa Gabsburglar sulolasi hukmronligiga chek qo'yish, feodal va milliy, diniy zulmni tugatish, mazlum xalqlarning milliy mustaqilligini ta'minlashdan iborat edi.

Avstriya Gabsburglarining milliy zulmiga qaramasdan, vengerlar, slavyan xalqlari va musulmonlar o'z milliy madaniyatlarini saqlab qolishga va, hatto, rivojlantirishga muvaffaq bo'ldilar. Bu xalqlar orasida o'z-o'zini boshqarish, milliy tillardagi adabiyot va mamlakatlarni rivojlantirish uchun harakat keng qo'loch yozdi.

Chexiyada milliy madaniyatni rivojlantirish bayrog'i ostida milliy-ozodlik harakati avj oldi. Yozuvchi va olimlar chex xalqi va adabiyotiga oid, uning tili va san'atini rivojlantirish to'g'risida muhim asarlar yaratdilar, milliy maktablar ochish uchun kurash olib bordilar.

Serblar va xorvatlar orasida ham milliy uyg'onish boshlandi. Tabiatning injiqligi tufayli ikki-yil surunkasiga hosil bo'lmaganligi va 1847-yilda boshlangan iqtisodiy inqiroz Avstriya imperiyasi xalqlariga har tomondan katta zarar keltirdi.

1848-yil yanvar oyidagi Italiyadagi voqealar, o'sha yili fevral oyi oxirlarida qirol Lui Filippning Fransiya taxtidan ag'darilganligi to'g'risidagi xabarlar Avstriya imperiyasida ham inqilobning boshlanishiga turtki bo'ldi. Inqilob 13-martda Venada boshlanib, ko'chalarda barrikadalar paydo bo'ldi. Qo'zg'olon ishtirokchilari hunarmandlar, ziyolilar, talabalar va ishchilardan iborat edi. Ular hukumatni almashtirishni talab qilib chiqdilar. Qo'shinlar bilan to'qnashuv boshlandi. G'azablangan olomon, hatto, qattiq qo'riqlanadigan imperator Frans I saroyiga bostirib kirishga muvaffaq bo'ldi. Voqealarning bunday rivojidan cho'chigan hukumat qo'zg'olonchilarga yon bosishga majbur bo'ldi.

Metternix iste'foga chiqarildi va u o'z jonini saqlab qolish uchun ayollar kiyimida qochib ketdi. Ba'zi vazirlar almashtirildi. Talabalarning o'z qurolli otryadi - "Akademik legion" tuzildi, o'rta tabaqa namoyandalari esa Milliy gvardiya tashkil etishga muvaffaq bo'ldilar.

Imperator Frans I saylovchilar uchun mulk senzini belgilovchi Konstitutsiya chiqarishga va'da berdi. Ishchilar saylov huquqini olmasliklari alohida ta'kidlandi. Ammo, milliy gvardiya va "Akademik legion"ni tarqatib yuborish to'g'risidagi hukumat qarori olomonning qurolli zarbasiga duch keldi. Imperator va hukumat a'zolari poytaxtdan Tirol shahriga qochishdi. Inqilobiy harakat dehqonlarni ham qamrab oldi, ular o'z majburiy xizmatlarini to'xtatib, obrok to'lamay qo'ydilar. O'rmondagi daraxtlarni o'zboshimchalik bilan kesa boshladilar. Venada boshlangan inqilobdan so'ng ikki kun o'tgach, ya'ni 1848-yilning 15-martida Vengriyada ham inqilob boshlandi. Inqilobni markaziy shahar Pesht ziyolilari, hunarmandlari, talabalari va ishchilari boshlab berdilar. Ular namoyish uyushtirib, Vengriya uchun mahalliy Seym oldida mas'uliyatli bo'lgan hukumat barpo qilinishi va barshchina bekor qilinishini talab qildilar.

Imperator Frans I Vengriya uchun alohida hukumat tuzishga majbur bo'ldi. Bu hukumatga vengerlarning dvoryan zodagonlari orasidan chiqqan liberallarning bir qismi rahbarlik qildi. Avstriya imperiyasida slavyan xalqlari ham milliy, ham sinfiy zulmga qarshi bosh ko'tardilar. Chexiyani ziyolilar, ishchilar va dehqonlarning g'alayonlari qamrab oldi. Hukumat Pragaga katta qo'shin yubordi. Talabalar, ziyolilar, ishchilar bu armiyaning olib chiqib ketilishini talab qildilar. 12-iyunda talabalar va ishchilarning tinch namoyishi hukumat qo'shinlari tomonidan o'qqa tutildi. Bunga javoban xalq ko'targan qo'zg'olon deyarli bir hafta davom etdi. Shaharda barrikadalar qurildi. qo'zg'olonchilar umumiy saylov huquqi va o'zini o'zi boshqarish huquqi berilishini talab qildilar. Qo'zg'olonchilarga qo'shni qishloqlardan chalg'i, o'roq ko'targan dehqonlar yordamga kelishdi. Qo'shinlar shahar chekkasidagi tepalikka chekinib, shaharni o'qqa tuta boshladilar. Piyoda askarlar shahar ko'chalariga kirib, 17-iyunda qo'zg'olonni bostirdilar.

Pragadagi qo'zg'olon bostirilgach, Parij ishchilarining iyun qo'zg'oloni o'qqa tutilganligi va ularning mag'lubiyati haqidagi xabar kelgandan keyin, aksilinqilobiy kuchlar Yevropa bo'ylab hujumga o'tdilar. Avstriya qo'shinlari Milanni ishg'ol qildi. So'ngra imperator Vengriyani "bir yoqli" qilishga va Vena inqilobini o'zil-kesil bostirishga qaror qildi.

Vengriyaga qarshi Avstriya qo‘shinlarini yuborish yo‘lidagi o‘rinish poytaxtdagi xalq ommasi tomonidan barbod qilindi. O‘n minglarcha ziyolilar, hunarmandlar, ishchilar va talabalar Venada qurolli qo‘zg‘olon ko‘tardilar. Qo‘zg‘olonchilar “harakatchan gvardiya” otryadlarini tuzdilar va 4 hafta davomida, ya’ni 6-oktabrdan 1-noyabrgacha shakarni o‘z qo‘llarida saqlab turdi. Venani ko‘p sonli hukumat qo‘shinlari qurshab olib, o‘qqa tutdi. Qo‘zg‘olon zo‘r qiyinchilik bilan bostirildi. Qo‘zg‘olonchilar shiddatli qarshilik ko‘rsatib, 5 ming kishini qurbon berdilar. Ko‘plari janglardan keyin otib tashlandi.

Vena qo‘zg‘oloni bostirilgach, Frans I hukumat qo‘shinlarini Vengriyaga yuborib, uning o‘zini o‘zi boshqarishi bekor qilinganligini e‘lon qildi. Bunga javoban, Vengriya parlamenti 1849-yilda mamlakatni mustaqil deb e‘lon qildi, Layosh Koshut rahbarligida inqilobiy hukumat tuzildi.

Vengriyaning kuchli armiyasi Avstriya qo‘shinlarini haydab chiqardi. Imperator Frans I Vengriyada mag‘lubiyatga uchragach, Rossiya podshosi Nikolay I ga yordam so‘rab murojaat qildi. Nikolay I ma‘muriyati “Yevropa jandarmi” rolini o‘z zimmasiga olib, feldmarshal Paskevich boshchiligidagi 200 ming kishilik armiyani venger hukumatiga qarshi urushga yubordi. Bir necha kakramonona janglardan so‘ng Vengriya armiyasi mag‘lubiyatga uchradi va chorizm qo‘shinlariga taslim bo‘ldi.

Avstriya imperiyasida 1848-1849 yillar inqilobidan so‘ng hukumat bir qancha islohotlar o‘tqazishga majbur bo‘ldi. Ikki palatali parlament tashkil etildi. Hukumat ma‘muriyati katta mulk senzini saqlab qolgan holda cheklangan konstitutsiyani imperiya hududida joriy etdi. Dehqonlar feodal majburiyatlarni pul evaziga sotib olishlari mumkinligini bildiruvchi qonun chiqarildi.

1848-1849 yillarda Yevropa mamlakatlaridagi xalq qo‘zg‘olonlarining xalqaro munosabatlarga ta’siri. 1848-yilni odatda Yevropada qo‘zg‘olonlar yili deb atashadi. Ko‘pgina mamlakatlarda qo‘zg‘olonlar bo‘lib, ulardan ba’zilari muvaffaqiyatli tugadi, ammo aksariyat mamlakatlarda qo‘zg‘olonlar mag‘lubiyatga uchradi. 1848-1849 yillarda Yevropa mamlakatlarida ko‘tarilgan ushbu qo‘zg‘olonlarning har biri qanday tugashidan qat’i nazar, ular katta tarixiy

ahamiyat kasb etdi.

Birinchidan, ushbu g'alayonlar ayni bir paytda deyarli barcha Yevropa mamlakatlarini qamrab olib, bozor iqtisodiyoti va sanoatlashayotgan yangi jamiyatning to'la g'alabasini ta'minlashga qaratilgan edi. Shuningdek, inqiloblar, qit'adagi mamlakatlar taraqqiyot darajasi jihatdan bir-birlariga tobora yaqinlashib borayotganini ham ko'rsatdi.

Ikkinchidan, Yevropadagi 1848-1849 yillardagi g'alayonlar umuman feodalizm tizimiga qarshi qaratilgan bo'lmay, balki uning qoldiqlarini bartaraf etishgagina qaratilgan edi. O'z xususiyatlariga ko'ra bu inqiloblar bir necha o'n yillar oldin boshlangan islohotlarni nihoyasiga yetkazish, yangi-yangi islohotlar o'tkazish yo'li bilan jamiyat taraqqiyoti istiqbolini ta'minlashni ko'rsatdi.

Uchinchidan, 1848-1849 yillardagi qo'zg'olonlarning tarixiy ahamiyati to'g'risida gap ketar ekan, eng avvalo, bu inqiloblar milliy-ozodlik inqiloblari ekanligini unutmaslik kerak. Polshadagi qo'zg'olon Prussiyaga qarshi qaratilgan bo'lsa, Chexiya, Shimoliy Italiya, ayniqsa, Vengriyadagi qo'zg'olon va milliy-ozodlik harakatlari Avstriya imperiyasining milliy, ijtimoiy-iqtisodiy va g'oyaviy zulmi hamda zo'ravonliklariga qarshi qaratilgan edi. Shu jihatdan 1848-1849 yillardagi inqilob ana shu milliy zulm g'oyalarini olib tashlashda dadil qadam bo'ldi.

To'rtinchidan, bu jarayonlarning ahamiyati yana shundan iboratki, ular demokratik erkinliklar: umumiy demokratik saylovlar o'tkazish yo'li bilan parlament va davlatning boshqaruv organlarini saylash, vijdon va e'tiqod erkinligi, xususiy mulk daxlsizligi, fuqarolik jamiyatiga asoslangan davlat barpo etish, milliy mustaqillik va boshqa bir qancha muammolarni kun tartibiga qo'ydi. Ularning ba'zilar ijobiy hal etildi.

Beshinchidan, 1848-1849 yillardagi Yevropada bo'lgan inqiloblar har bir davlatda o'ziga xos xususiyatga ega edi. Masalan, Fransiyadagi inqilob ijtimoiy muammolarni hal qilishga qaratilgan bo'lsa, Italiya va Germaniyada ijtimoiy masalalar bilan bir qatorda, eng avvalo, milliy muammolarni hal qilishni taqozo etar edi. Bu mamlakatlar siyosiy jihatdan tarqoq bo'lib, ular bir necha kichiq

davlatlar hamda o'zga davlatlarga qaram o'lkalardan iborat edilar. Inqilob oldida ko'ndalang turgan asosiy vazifa ana shu siyosiy jihatdan tarqoq bo'lgan mamlakatlarni yaxlit milliy mustaqil davlat atrofida birlashtirishdan iborat edi. O'z navbatida, Avstriya imperiyasiga tobe bo'lgan bir qancha xalqlar o'z oldilariga mustaqil davlat barpo etishni maqsad qilib qo'ygan edilar.

Va nihoyat, oltinchidan, 1848-1849 yillardagi g'alayonlar o'zil-kesil g'alaba qilgan bo'lmasa-da, biroq ular qit'ada kapitalizmning jadal rivojlanishi, islohotlar o'tkazilishi va yangi siyosiy tizimlarning vujudga kelishi uchun zarur imkoniyatlarni yaratdi. Prussiyada, Avstriya imperiyasi va Peymontda konstitutsiyalar joriy etildi. Dehqonlarning pomeschchiqlarga qaramligi ancha susaydi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Fransiyada Burbonlarning hokimiyat tepasiga kelish jarayoni haqida ma'lumot bering?
2. "Muqaddas ittifoq"ning maqsadlari haqida aytib bering?
3. Vena kongresi qatnashchilarining maqsadlari haqida so'zlab bering?
4. "Metternix tizimi"ning mohiyati nimadan iborat?
5. "Xalqlar jangi" haqida nimalarni bilasiz?
6. "Samimiy inoqlik" (yentente cordiale) deb nom olgan Angliya - Fransiya yaqinlashuvining maqsadi nimalardan iborat?
7. Gizo diplomatiyasi haqida so'zlab bering?
8. 1840-yildagi London konvensiyasining maqsadi haqida aytib bering?
9. Vena kongressiga muvofiq, Angliyaning maqsadlari nimadan iborat edi?
10. 1848-1849 yillardagi Yevropada bo'lgan inqiloblar har bir davlatda o'ziga xos xususiyatga ega edi. Fransiya, Italiya va Germaniyadagi inqiloblarning qanday o'ziga xos xususiyatlarga ega edi?

4-MAVZU. XIX ASRNING O‘RTALARIDAN – BIRINCHI JAHON URUSHIGACHA BO‘LGAN DAVRDA XALQARO MUNOSABATLAR.

REJA:

- 4.1. 1853-1856 yillardagi Qrim urushi va uning oqibatlari.**
- 4.2. XIX asr 60-70-yillaridagi xalqaro munosabatlar.**
- 4.3. 1861-1865 yillarda AQSH dagi fuqarolar urushi. Angliya, Fransiya hamda Rossiya o‘rtasidagi kuchlar mutanosibligi.**
- 4.4. Bismark diplomatiyasi va uning xalqaro munosabatlardagi roli.**
- 4.5. Rus-turk urushi (1877-1878) va Berlin kongressining diplomatik tayyorlanishi.**
- 4.6. XIX asrning 80 yillarida Yevropada kuchlar nisbati.**
- 4.7. XIX asr oxirlarida xalqaro munosabatlar.**
- 4.8. Birinchi jahon urushi arafasida xalqaro munosabatlar.**

Tayanch tushunchalar: *Qrim urushi. Rossiya-Turkiya urushlari. Bolqon inqirozi. Bolgariya. Berlin kongressi. San-Stefano shartnomasi. Uch imperator ittifoqi. Otto fon Bismark. Berlin konferensiyasi. “Hadiksirash bitimi”. AQShning ko‘chayishi. “Xey” doktrinasi. Rus-yapon urushi. “Bo‘mba solingan bo‘chka” Birinchi jahon urushi.*

4.1. 1853-1856 yillardagi Qrim urushi va uning oqibatlari.

1840-yillarning oxiridan boshlab, Usmoniylar imperiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan “Sharq muammosi” yangi bosqichga ko‘tarildi. Bu vaziyat Rossiyaning 1849-yilda Avstriya imperatori Frans I ning iltimosiga binoan, rus podshosi Nikolay I ning farmoniga muvofiq 200000 kishilik rus armiyasi Vengriyada yuz bergan milliy-ozodlik harakatining feldmarshal Paskevich qo‘mondonligida bostirilganidan so‘ng yaqqol namoyon bo‘ldi. Biroq xalqaro miqyosida Fransiya, Avstriya va Prussiyada 1848-1849 yillarda yuz bergan inqiloblar sababli ularning mavqei ancha susaydi. Bundan foydalangan Rossiya Usmoniylar imperiyasini parchalash va zaiflashtirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan edi. Ammo, 1840-

1841 yillardagi London konvensiyasiga muvofiq, Yevropa buyuk davlatlari Usmoniylar imperiyasi hududining butunligiga kafolat bergan edilar. Rus podshosi Nikolay I ana shu konvensiya darorlarini kurib chidish va o'zgartirishni talab dila boshladi, chunki Rossiyaning G'arbda nufuzi oshib borayotgan edi. Bu muammoni yechish uchun baxona xam topildi. Nikolay I baxona sifatida katoliklar bilan pravoslav cherkovlari o'rtasidagi mojaro, ya'ni: mudaddas joylar kimga tegishli bo'lishi kerak - katoliklargami yoki pravoslavlargami, degan masala xamisha manfaatdor doiralarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Salib yurishlari davridan boshlab "Mudaddas joylar" Rim papasi va Konstantinopolning pravoslavlar patriarxi nazoratida bo'lgan.

XVI asrdan boshlab "Muqaddas joylar" Quddusdagi katolik ruhoniylarining nazorati ostida bo'lgan, ammo XVIII asrdan boshlab bu joylarning nazorati pravoslav ruhoniylari ixtiyoriga o'tgan, chunki endilikda rossiyalik pravoslavlarning qo'li baland kelgan.

Ana shu masala yuzasidan Nikolay I Rossiyasi bilan Napoleon III Fransiyasi o'rtasida diplomatik mojarolar boshlanib ketdi. Turkiya sultonligi esa, Rossiya va Fransiya orasida og'ir ahvolga tushib qolgan, chunki bu "muqaddas joylar" Usmoniylar imperiyasi hududida joylashgan edi.

Nikolay I Turkiyani 1774-yilda tuzilgan Kuchukqaynarji bitimi moddalarini buzishda aybladi va 1853-yil yanvar oyida o'z missiyasini harbiy fregat yordamida Istambo'lgha jo'natdi. Missiya o'z ultimatumini turk sultonligiga bildirishi zarur edi. Inglizlarning siquviga ko'ra, Turkiya Rossiya podsholigi ultimatumiga rad javobini berdi.

1853-yil oktabr oyida Rossiya Turkiyaga qarshi urush e'lon qildi. Rus admirali Naximov boshchiligidagi rus eskadrasi turk flotini butunlay majaqlab tashladi. 1854-yil yanvar oyidagi Angliya, Fransiya va Turkiya o'rtasidagi kelishuvga ko'ra, bu uchala davlat birgalikda Rossiyaga qarshi urush harakatlarini olib bordilar. Natijada, rus chorizmi qaqshatkich zarbaga uchradi va o'zining yengilganligini tan oldi.

1856-yil 25-fevralda Parijda Qrim urushi qatnashchilarining kongressi

ochildi. Parij shartnomasi 1856-yil 30-mart kuni imzolandi. Mazkur shartnomaga ko'ra, Qora dengizda Rossiya o'z harbiy dengiz flotini saqlashi taqiqlangan edi. Ammo, Parij sulhi kongressining ahamiyati ancha keng ma'no kasb etdi. U, birinchidan, Yevropa "Vena sistema"sigga katta zarba bergan bo'lsa, ikkinchidan, Rossiyaning Yevropadagi hukmronligi mavqeiga chek qo'ydi. Rossiyaning Qrim urushida yengilganligi hamda Parij sulhi kongressi Yevropada yangi kuchlarning mutanosibligini yuzaga keltirdi. Qrim urushi Rossiyaning xalqaro nufuzini susaytirib yubordi. Qrim urushi natijasida Avstriya va Prussiya o'rtasidagi ittifoqqa ham chek qo'yildi. Endilikda, Napoleon III Fransiya hududlarini Sharqda Belgiya, Luksemburg, Janubda Nissa va Savoyya hisobiga kengaytirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan edi. Shu bilan bir qatorda, bu urush natijasida sobiq ittifoqchilar bo'lmish Angliya va Fransiya davlatlari o'rtasidagi ziddiyatlar yanada keskinlashdi, chunki, dunyoni taqsimlab olish masalasi hali nihoyasiga yetmagan edi. Har bir davlat o'z mustamlakalarini kengaytirish imkoniga ega edi.

Qrim urushidan so'ng Prussiya va Sardiniya qirolligining xalqaro munosabatlaridagi mavqei ancha oshdi.

4.2. XIX asr 60-70-yillaridagi xalqaro munosabatlar.

XIX asr o'rtalariga kelib xalqaro munosabatlar va turli zidiyatlarining jahon gegemon davlatlarining nigohi Bolqon yarimoroli, Usmoniylik imperiyasiga qaratildi. Demak, endi Usmonli turk imperiyasini zaiflashtirish uni mustamlakalariga ko'z olaytirish bu davr xalqaro munosabatlarining o'ziga xos xususiyatiga aylandi. Bu masalada birinchi navbatda, Rossiya imperiyasi va Avstriya-Vengriya manfaatlari birinchi navbatda to'qnash keldi. Rossiya imperiyasini tashqi siyosatda ancha agressor harakat qilishga undadi. To'g'ri, Yevropa mamlakatlari ham jim qarab turmadi. Jumladan, Buyuk Britaniya va Fransiya o'z navbatida Germaniya ham bunga turli qarshiliklar ko'rsatib keldi, chunki, bu hududlarda Rossiyaning hukmron bo'lishiga toqat qila olmas edi.

Buyuk davlatlar Turkiya ichki ishlariga aralashishni tobora ko'chaytirdilar. Rossiyaning Turkiyaga qaram o'lkalarda mustahkamlanib olishga o'rinishlari 1853-yilda "Sharq urushi"ni keltirib chiqardi. Bu urush Rossiya tarixiga "Qrim

urushi” nomi bilan kirgan. Rossiya podshosi Nikolay I sultondan Rossiyani Turkiya imperiyasiga qaram o‘lkalarda yashovchi barcha pravoslav xalqlarining homiysi ekanligini tan olishini talab etdi. Buyuk Britaniya va Fransiya sultonni bu talabni rad etishga undadilar. Oqibatda, Rossiya - Turkiya urushi boshlandi.

Urushda Buyuk Britaniya, Fransiya va Turkiya uchlik koalitsiyasi g‘alaba qozondi. Biroq, bu g‘alaba Turkiyaning Buyuk Britaniya va Fransiya qaramligini yanada ko‘chaytirdi. Urush natijasida imzolangan Parij Tinchlik shartnomasi Turkiya ustidan amalda G‘arb davlatlarining “homiyligi”ni ta’minladi. Chet elliklarga Turkiyada yer va boshqa ko‘chmas mulklar sotib olishga ruxsat etdi. Chet davlatlarga berilgan konsessiyalar kafolatlandi. Shu tariqa Turkiyaning yarim mustamlakaga aylanishiga yo‘l ochildi. G‘arbiy Yevropada sanoat inqilobi tugallanayotgan bir davrda Turkiyada hamon o‘rta asr feodal tartiblari hukmronligicha qolaverdi.

G‘arb davlatlarining Turkiyaga nisbatan to‘tgan siyosatlari bu tartiblarni yanada mustahkamladi. XIX asrning 60-yillariga kelib mustamlakachi davlatlar Turkiyada uning siyosatini belgilashga imkon beruvchi iqtisodiy va siyosiy mavqega ega bo‘ldilar. Ayni paytda Turkiya moliyaviy qaramlik botqog‘iga ham bota boshladi. XIX asr 70-yillarda uning chet davlatlardan qarzi 2,4 mlrd frankni tashkil etdi. Shu tariqa bir vaqtlar dunyoning 3 qit‘asida ulkan mustamlakalarga ega bo‘lib olgan Turkiya endilikda Yevropaning buyuk davlatlari yarim mustamlakasiga aylandi.

Voqealar bunday rivoji Rossiyani to‘xtatib qolmadi. Harqanday yo‘l bilan ham kurashdan qaytmasdan, o‘z manfaatlaridan voz kechmadi. Rossiya agressiv siyosatining asosiy yo‘nalishlari Bolqon, uzoq Sharq, Turkiya hamda Qora dengiz bilan O‘rta Yer dengizini bog‘lovchi Dardanell va Bosfor bo‘g‘ozlari hamda O‘rta Osiyoda o‘z hukmronligini o‘rnatish edi. Tez orada Bolqon inqirozi yuz berdi. 1875-yilning yozida Gersegovina va Bosniyada Turkiya mustamlakachiligiga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tarildi. Ular milliy mustaqillik talab qildilar. Bolgariyada ham shunday qo‘zg‘olon ko‘taritdi. Biroq, qo‘zg‘olon shafqatsizlik bilan bostirildi. Bolqon inqirozi buyuk davlatlarning manfaatini yana bir bor to‘qnashtirdi.

Germaniya va Italiyaning birlashishlari hamda bu jarayonning xalqaro munosabatlarga ta'siri. Prussiya va Sardiniya qirolliklari, darhaqiqat, Germaniya hamda Italiyani birlashtirishda asosiy markazlar rolini o'ynadilar. Germaniyaning Prussiya atrofida birlashishi, Italiyaning Sardiniya qirolligi atrofida birlashishi Avstriya imperiyasiga nihoyatda kuchli zarba edi. Har ikki milliy davlatning shakllanish jarayoni ma'lum ma'noda Avstriya imperiyasining hisobidan kechmoqda edi. Avstriya Prussiya bilan bo'lgan kurashda o'z mavqeini yo'qota boshladi. Vena sistemasining barbod bo'lib borishi ham, o'z navbatida, Germaniya hamda Italiya mamlakatlarining birlashish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Har ikkala mamlakatning birlashishi hukmron doiralar tomonidan ularning inqilobiy yo'l orqali emas, balki yuqoridagi islohotlar asosida birlashishlari xalqaro munosabatlarda bir necha buyuk davlatlarning o'zaro tortishuvlariga sabab bo'lgan. Bu xox davlatlararo diplomatiya bo'lsin, xox siyosiy tortishuvlar bo'lsin, shaksiz, o'z aksini topgan.

Ma'lumki, Sardiniya qirolligi ham Qrim urushida Angliya va Fransiya tarafida turib urushga qatnashgan edi. Shu sababli, Parij sulh kongressida Sardiniya qirolligining bosh vaziri Kamillo Benzo Kavur Parma va Modena gersogliklarini Sardiniya qirolligiga berishni talab qilib chiqdi. Ammo, Angliya va Fransiya davlatlari Parij sulh kongressida bu masalani kun tartibiga qo'yishga hali erta deb hisobladilar. Shundan so'ng, Kamillo Benzo Kavur o'z umid ko'zlarini Fransiyaga tika boshladi. Darhaqiqat, xalqaro ahvoldagi vaziyat Fransiya ko'magida Italiyani birlashtirishni taqozo etmoqda edi. Endi, Rossiya ilgarigiday bu jarayonlarga to'sqinlik qila olmas edi. Prussiya ham, o'z navbatida, Germaniyani birlashtirishda o'z variantini, ya'ni yuqoridan turib birlashtirishni ishlab chiqqan edi. Shunday qilib, 1850-yillarning oxiridan boshlab, Fransiya va Sardiniya qirolligi Avstriyaning Yevropadagi mavqeini susaytirishga bel bog'ladilar. 1858-yil iyul oyida Napoleon III bilan K.B.Kavurning yashirincha uchrashuvlari amalga oshirildi. Bu kelishuvga ko'ra Avstriya imperiyasi tarkibiga kiruvchi Lombardiya, Venesiya hamda Tirol Sardiniya qirolligiga, aholisi fransuzlardan iborat bo'lgan Savoyya va Nissa Fransiyaga topshirilishi kerak edi. 1859-yil 19-yanvarda

Fransiya va Sardiniya qirolligi o'rtalarida maxfiy bitim imzolandi. Bu ittifoq Avstriya imperiyasiga qarshi qaratilgan edi. 1859-yil aprelida Avstriyaga qarshi urush harakatlari boshlanib ketdi. Biroq, Fransiya imperatori Napoleon III Italiyaning tez orada birlashuvini istamas edi. Shu sababli, 1859-yil 8-iyulda Napoleon III Avstriya bilan urushni tezda to'xtatib, Avstriya imperatori Frans I bilan sulh bitimini tuzdi. Hatto, imperatorlar bir-birlari bilan maxfiy tarzda uchrashdilar ham. Bu sulh evaziga Avstriya Lombardiyani Fransiya topshirdi, Fransiya Lombardiyani Sardiniya qirolligiga "hadya" qildi va evaziga Sardiniya qirolligi Savoyya va Nissani Fransiya kechiqtirib berdi. Ammo, K.B.Kavur Napoleon III dan bunday xoinlikni kutmagan edi. Shu sababli, Sardiniya qirolligi bosh vaziri K.B.Kavur "O'zing uchun bo'l yetim, o'zing uchun o'l yetim" qabilida ish tutdi. Tajriba shuni ko'rsatdiki, Napoleon III ning II Imperiyasiz ham Italiya birlashishi mumkin. Butun Italiya hududida milliy-ozodlik harakatlari boshlanib ketdi.

1860-yil Fransiya va Sardiniya qirolligi hukumatlari o'rtasidagi kelishuvga ko'ra, Markaziy Italiya va Lombardiya Sardiniya qirolligiga qo'shildi va o'z navbatida, Savoyya va Nissada plebissit o'tkazilib, ular Fransiya qo'shildi.

Prussiya Avstriyani mag'lubiyatga uchratish uchun yangi tashkil etilgan Italiyaning qiroli Viktor Emmanuil II bilan 1866-yil aprel oyida harbiy ittifoq tuzdi. 1866-yil iyul oyida Prussiya Avstriyani mag'lubiyatga uchratgach, Bismark Venesiya viloyatini Italiya qirolligiga topshirdi. Endi kun tartibiga Italiyani o'zilik birlashtirish uchun Rim muammosi turar edi. Papa viloyati Rimda joylashgan bo'lib, uning Italiyaga qo'shilishiga Piy IX tish-tirnogi bilan qarshi edi. Papa Piy IX ning pushti-panohlari barcha katolik davlatlar: Avstriya, Ispaniya, Belgiya va, ayniqsa, Fransiya hisoblanar edilar. Fransiya 1849-yildan buyon Rimda harbiy garnizon saqlab, papani himoya qilib kelar edi. 1860-yildan 1870-yilga qadar 10-yil davomida xalqaro munosabatlar kun tartibida Rimning Italiyaga qo'shilish muammosi turar edi. Napoleon III ning Prussiya bilan bo'lgan jangida Fransiya yengilgach, Italiya Rimni o'ziga qo'shib olishga muvaffaq bo'ldi, chunki Fransiyada respublika tizimi o'rnatilgach, harbiy fransuz garnizoni Rimdan olib

chiqib ketildi va 1870-yil 20-sentabrda Italiyaning doimiy armiyasi Rimni egalladi. Shunday qilib, Rim Italiyaga qo'shilgach, Italiyaning birlashishi o'z nihoyasiga yetdi.

Italiyaning birlashish jarayoni Germaniyaning birlashuvi bilan deyarli bir vaqtda sodir bo'ldi. Agar Italiya Sardiniya qirolligi rahnamoligida birlashtirilgan bo'lsa, Germaniya mamlakati kuchli Prussiya atrofida birlashtirildi.

1860-yillar davomida xalqaro vaziyat Germaniyaning Prussiya atrofida birlashishi uchun keng imkoniyatlar yaratdi.

G'ayratli va shijoatli, XIX asrning eng buyuk davlat arboblardan biri Otto fon Bismark Germaniyani Prussiya atrofida birlashtirish g'oyasini yoqlab chiqdi. U 1862-yil Prussiyaning bosh kansleri lavozimini egalladi. Oradan bir-yil o'tar-o'tmas 1863-yilda Polsha yerlarida qo'zg'olon ko'tarildi. Angliya va Fransiya polyaklarni yoqlab chiqsalar-da, ammo Bismarkning tashabbusi bilan Prussiya va Rossiya o'rtasida maxfiy harbiy konvensiya ishlab chiqildi. U polyaklarga qarshi qaratilgan edi. Ikki davlat birgalikda polyaklarning qo'zg'olonlarini shafqatsizlarcha bostirdilar. Prussiya va Rossiyaning yaqinlashuvi hamda Prussiyaning Avstriyaga qarshi urushida Rossiyaning betarafligi Prussiya uchun zarur edi. Hatto, Prussiyaning Avstriyaga qarshi olib borayotgan urushlarida Fransiya ham Prussiyani qullab-quvvatladi.

1866-yil iyul oyida Prussiya va Avstriya o'rtasidagi urushda Avstriya qaqshatqich zarbaga uchradi. 1866-yil 24-avgustda Pragada bo'lib o'tgan Avstriya va Prussiya o'rtasidagi bitimdan so'ng Germaniyada butunlay boshqa vaziyat vujudga keldi. Vena kongressida tashkil etilgan va 1859-yil Olmous uchrashuvida tasdiqlangan Avstriya boshchiligidagi Germaniya ittifoqi tarqatib yuborildi. Uning o'rniga Prussiya atrofida birlashgan knyazliklar va erkin nemis shaharlaridan iborat bo'lgan Shimoliy Germaniya ittifoqi vujudga keldi. Bu Ittifoqqa kirmagan janubiy nemis davlatlaridan Bavariya, Vyurtemberg, Baden va boshqalar qolgan edilar.

1860 yillarning 2-yarmida ham Italiya, ham Germaniyaning birlashishlariga bo'lgan asosiy tusiqlik - bu Fransiyadagi II imperiya tizimi hisoblanar edi. Eng

muhimi, Fransiya va Prussiya o'rtasidagi qarama-qarshilik 1860-yillarning so'ngida nihoyatda keskinlashdi. Napoleon III ning Italiya va Germaniyaning birlashishiga qarshi olib borgan siyosati ham yaxshi natija bermadi. Fransiya tobora yakkalanib qola boshladi. Ayniqsa, bu yakkalik 1870-yil iyul oyida boshlanib ketgan Fransiya - Prussiya urushida yaqqol namoyon bo'ldi. Yevropaning biron-bir yetakchi davlati bu urushda Prussiyaga qarshi Fransiyani qo'llab-quvvatlamadi. Barcha Yevropa davlatlari bu urush davomida Betaraf davlatlar ittifoqiga birlashdilarki, ularning tashabbuskorlari Rossiya va Italiya davlatlaridan iborat edi.

4.3. 1861-1865 yillarda AQSH dagi fuqarolar urushi. Angliya, Fransiya hamda Rossiya o'rtasidagi kuchlar mutanosibligi.

1860-yillar davomida jahon hamjamiyatining diqqat-e'tibori g'arbiy yarim sharning shimoliga qaratilgan edi. Chunki u yerda, aniqrog'i, AQSHda fuqarolar urushi ketayotgan edi. Bu voqea ham AQSH - Angliya ortasidagi savdo-sanoat masalalaridagi qarama-qarshilikdan iborat edi.

1861-yilda AQSH o'z savdo-dengiz flotida yo'q tashish va uning miqdori bo'yicha Angliyani quvib yetayotgan edi. Hatto, AQSH o'z kemalarida yuklarni tashish miqdori bo'yicha Angliyadan keyin ikkinchi o'ringa chiqib oldi.

AQSHdagi fuqarolar urushi Ispaniya va Fransiya kabi davlatlarni harakatga keltirdi, chunki ular vaziyatdan foydalanib, Shimoliy Amerikada o'z mavqelarini tiklashga o'rinayotgan edilar.

Yevropa davlatlari Amerika qit'asi ishlariga faol aralashish uchun Meksikaga nisbatan intervensiya tashkil etdilar, chunki Meksikada 1854-1860 yillar davomida inqilobiy harakat yuz bergan edi. Meksika davlati Yevropa davlatlaridan qarzdor edi. Ana shu bahona asosida 1861-yil oktabr oyida Angliya, Fransiya va Ispaniya Londonda konvensiya qabul qilishdi. Bu shartnomaga muvofiq har uchala davlat Meksikaning Atlantika okeani qirg'og'idagi yerlarini ishg'ol etishlari kerak edi. Bu harakat Meksikadan qarzni o'ndirish kafolati bo'lishi kerak edi.

1861-yil dekabr oyida Meksika hududiga Ispaniya askarlari, so'ng 1862-yil yanvar oyida Angliya va Fransiya qo'shinlari keltirildi. Biroq ozgina vaqt o'tgach, bosqinchilar o'rtasida nifoq paydo bo'ldi. Napoleon III Lotin Amerikasida Lotin imperiyasini tashkil etish uchun Meksikani o'zining harbiy qarorgohiga aylantirishga qattiq harakat qildi.

Ispaniya va Angliya davlatlari esa Fransiyaning Lotin Amerikasida yetakchi davlatga aylanishini istamas edilar. Shu sababli, 1862-yil fevral oyida Angliya va Ispaniya davlatlari Meksika inqilobiy hukumatining boshlig'i Xuares bilan bitim imzolab, qarzlarni to'lashni kechiqtirishga rozi bo'ldilar va 1862-yil mart oyida o'z qo'shinlarini Meksikadan olib chiqib ketdilar. Ammo, Napoleon III Xuares hokimiyatiga qarshi urushni davom ettirishga qaror qildi. Fransiyaning Meksikaga qarshi bosqinchilik urushi to 1867-yilgacha davom etdi va u fransuz qo'shinlarining Meksikani sharmandalarcha tashlab chiqishi bilan yakun topdi.

1862-yilda Angliya va Fransiya AQShda fuqarolar urushi ketayotgan bir davrda uning ichki ishlariga aralashishni rejalashtirdilar.

Shimoliy shtatlar bilan janubiy shtatlar o'rtasida ketayotgan jangda Angliya o'z betarafligi to'g'risida bayonot bergan bo'lsa-da, amalda u janubiy shtatlarni qo'llab-quvvatlayotgan edi, hatto, janubiy shtatlar tomonida turib urushga kirishni mo'ljallayotgan edi. Angliya bosh vaziri Palmerston bu ishni Angliya, Rossiya va Fransiya davlatlari bilan birgalikda amalga oshirmoqchi edi. Darhaqiqat, Fransiya bu ishga tezda rozilik bildirdi. Biroq, Rossiya Qrim urushida (1853-1856) yengilgan bo'lib, Angliya va Fransiyadan o'ch olish maqsadida AQShdagi fuqarolar urushida Shimoliy shtatlarni qo'llab-quvvatladi. AQShdagi fuqarolar urushiga nisbatan Rossiya o'zining harbiylashgan betarafligini e'lon qildi. Hatto, 1853-1856 yillarda bo'lib o'tgan Qrim urushida ham AQSh Rossiyaga nisbatan do'stona munosabatda bo'lib, Rossiya ma'muriyatini Angliya va Fransiyaning Turkiya tomonida turib urushga tayyorgarlik ko'rayotganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni yetkazib turdi. Polyaklarning 1863-yildagi qo'zg'olonlariga nisbatan ham Angliya va Fransiya Rossiyaga nisbatan qarama-qarshi pozitsiyada turgan edilar.

1848-1849 yillardagi inqilobiy harakatlar va ularni bostirishga faol qatnashgan rus chorizmining xalqaro munosabatlardagi roli ancha oshdi. Biroq, rus chorizmi bu bilan kifoyalanmasdan, Angliya va Fransiya bilan to'qnashishga oshiqdi. Bunday bahona ham topila qoldi, ya'ni: Yaqin Sharqdagi "Muqaddas joylar"ning kaliti qaysi mazhabdagi davlatga tegishli bo'lishi kerak? Angliya bilan Fransiya yoki Chor Rossiyasigami?

Qrim urushi va bu urushda rus chorizmining mag'lubiyati tufayli xalqaro miqyosda uning obrusi tushib ketdi. Bu mag'lubiyatdan keyin rus chorizmi Qora dengizda o'z mavqeini yo'qotdi va, hatto, krepostnoy huquqini Rossiyada bekor qilishga majbur bo'ldi. Binobarin, ana shu sabablarga ko'ra ham, Rossiyaning jug'rofiy-siyosiy mavqeiga katta zarba berilgan edi.

1850-1860 yillar davomida xalqaro munosabatlardagi eng muhim voqea - bu Germaniya va Italiya davlatlarining milliy davlatlar sifatida birlashishidan iborat edi. Ular o'rtasidagi ma'lum tafovutlarga qaramasdan, bu xodisada umumiy bir mushtaraklik mavjud. Agar, Italiya Sardiniya qirolligi atrofida birlashgan bo'lsa, Germaniya Prussiya atrofida birlashdi. Italiyaning birlashuvida uch tarixiy shaxs bir-birlariga umuman o'xshamasalar-da, katta rol uynadilar. Bo'lar - Sardiniya qirolligi bosh vaziri Kamillo Benzo Kavur, buyuk mutafakkir Juzeppe Madzini va harbiy vatanparvar Juzeppe Garibaldi.

Germaniyaning birlashuvida esa Prussiyaning bosh kansleri, brandenburglik yunker, XIX asrning buyuk tarixiy shaxslaridan biri, yetuk iste'dodli siyosatchi, "temir kansler" Otto fon Bismark hal qiluvchi rol o'ynadi.

XIX asrning 60-yillarida xalqaro munosabatlarda AQShdagi fuqarolar urushi muhim ahamiyat kasb etdi. Bu urush ilg'or sanoatlashayotgan shimoliy shtatlarning qoloq-quldorlikka asoslangan janubiy shtatlari ustidan g'alabasini ta'minladi. 1861-1865 yillarda yuz bergan fuqarolar urushi natijasida Chor Rossiyasining AQSh paxtasiga bo'lgan extiyoji uning Turkiston hududlarini tezda bosib olishiga olib keldi, chunki Turkiston faqat paxtagina emas, balki boshqa ko'pgina boyliklarga xam ega bo'lgan kadimiy ulka edi.

Nikolay I vafotidan so'ng taxtga o'tirgan Aleksandr II (1855-1881 yy.)

Qrim urushi tugallanishi bilan o'zining islohotchilik faoliyatini boshlab yubordi va 1861-yilda Chor Rossiyasida krepostnoy huquqi bekor qilindi. AQShda 1861-yilda boshlanib ketgan fuqarolik urushi tufayli rus sanoati uchun Amerikadan kelayotgan paxtani to'xtatib qo'ydi, Rossiyaning paxta xomashyosiga bo'lgan ehtiyoji ortib bordi va, shu sababli, Chor Rossiyasi O'rta Osiyoni bosib olishga jon-jahdi bilan tayyorgarlik ko'ra boshladi. Germaniya va Italiya hududlarida ichki urushlar mavjud bo'lib, ular milliy davlatlarga birlashish jarayonlarini o'z boshlaridan kechirmoqda edilar. Fransiyaning II imperiyasi esa Lotin Amerikasi mamlakatlarini o'z ta'sir doirasiga olish uchun urushlar olib borayotgan edi.

Angliya 1858-1859 yillarda Hindiston aholisining milliy-ozodlik urushini bostirgan bo'lsa-da, ingliz-afgon mojarolari bilan band edi. Ana shunday xalqaro vaziyatda Rossiya imperiyasining keng bosqinchilik faoliyatini Turkistonda davom ettirish uchun qulay sharoit vujudga keldi. 1863-yildagi Polsha, Litva, Belorussiya va Ukrainadagi qo'zg'olonlar Rus chorizmi tomonidan ayovsiz bostirildi. 1864-yilda Checheniston rus qo'shinlari tomonidan zabt etildi. uzoq yillar chechen xalqining rus mustamlakachilariga qarshi kurashiga rahbarlik qilgan imom Shomil ham taslim bo'ldi. Shunday qilib, 1864-1865 yillarda Turkistonning yuragi bo'lgan Toshkent ruslar tomonidan zabt etildi va Turkistonning boshqa hududlari birin-ketin bosib olindi. "Bu haqida gapirganda, - deb aytgan edi I.Karimov, - XIX asrning ikkinchi yarmida Chor Rossiyasi tomonidan O'rta Osiyoning zabt etilishiga qaratilgan harakatlarning dastlabki zarbasiga aynan Toshkent duch kelgani va shahar ahli o'z yurtini himoya qilishga butun kuch-quvvatini safarbar qilgani tarix saxifalarida muhrlanib qolganini eslash joiz".

4.4. Bismark diplomatiyasi va uning xalqaro munosabatlardagi roli.

Bismark hokimiyat tepasiga kelganida nima ishlar qilishlarini aniq rejalashtirib olgan edi. Ana shu rejani amalga oshirish uchun juda qat'iyatlilik bilan ish ko'rdi va rejani og'ishmay ijro etishga kirishdi. Qisqa vaqt ichida ulkan muvaffaqiyatlarga erishdi. U Prussiya yordamida Germaniyani birlashtirish va Germaniyaning Yevropadagi hukmronligini ta'minlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan edi. O'sha paytda Yevropa qit'asida Napoleon III imperatorligidagi

Fransiya eng kudratli mamlakat hisoblanar edi. Avstriya ham Prussiyaning kuchli raqibi bo'lib, nemis davlatlari ichida yetakchi o'rinlardan birida turardi. Bismarkning diplomatik o'yining asosiy mohiyati har ikki raqibni ishga solgan holda, ularni charchatib asosiy o'yindan chiqarish edi. Germaniyada qaysi davlat yetakchi bo'lishi kerak: Prussiyami yoki Avstriya? Bismark ana shu muammoni hal qilishga kirishdi. Uning fikricha, muammo Prussiya foydasiga hal qilinishi kerak, Avstriya esa - Germaniyada yetakchilik qilish emas, balki ikkinchi darajali rolni o'ynashi joiz. Undan so'ng Bismark o'z oldiga Fransiyani Yevropada ikkinchi darajali davlatga aylantirish vazifasini qo'ydi.

Ana shu vazifalarni amalga oshirish maqsadida Bismark o'z harbiy mashinasini mustahkamladi. Bu paytda Bismarkning qistovi bilan Napoleon III armiyasi Avstriyaga hujum qildi va uni mag'lubiyatga uchratdi. O'z navbatida, Avstriyaning mag'lubiyatga uchrashi Juzeppe Garibaldi kuchlarini Janubiy Italiyaning ozod bo'lishi va birlashuviga olib keldi. Rus Polshasida polyaklar qo'zg'olon ko'targanlarida Bismark rus chorizmiga yordam berishini aytdi. Keyinchalik, Bismark Avstriya bilan ittifoq tuzib, Daniyani mag'lubiyatga uchratdi va undan Shlezvig hamda Golshteyn mavzellarini tortib oldi. Ko'p utmay Bismark Fransiya va Italiya kuchlariga tayanib, Avstriya bilan urushga tayyorgarlik ko'ra boshladi. 1866-yilning iyul oyi boshlarida qisqa vaqt ichida Bismark Avstriyani tor-mor qilib, Germaniya ittifoqining kansleriga aylandi.

1866-yilning iyulida bir necha soat ichida Bismark o'z yordamchilariga yangi konstitutsiya matnini yozdirdi. Bu Shimoliy Germaniya Konstitutsiyasi edi. Mazkur Konstitutsiya kichiq tuzatishlar bilan 50-yil davomida amal qildi va 1918-yilda Germaniya Respublika deb e'lon qilingach, 1919 yildagi Veymar konstitutsiyasi bilan almashtirildi.

Bismark o'z oldiga qo'ygan yana bir vazifa - Fransiyani yengish va uning Yevropadagi nufuzini pasaytirishdan iborat edi. Ushbu vazifani amalga oshirish maqsadida Bismark nemis davlatlari hamkorligiga tayanib urushga puxta tayyorgarlik ko'rdi. Bundan tashqari, u Yevropa davlatlarining Prussiyaga nisbatan moyilligi va betarafligini ta'minlashga muvaffaq bo'ldi. Hatto, yaqindagina

Prussiyadan yengilgan Avstriyaga nisbatan ham Bismark ilik munosabatlar urnatdi. Angliya ham Napoleon III ning gegemonlik siyosati va manmanligiga qarshi bo'lganligi bois, Prussiyaning Fransiyaga qarshi urushida uning tarafida bo'ldi. Boz ustiga, Prussiya urushga tula tayyor bo'lgach, Bismark ko'tgan voqea yuz berdi: Fransiya imperiyasi Prussiyaga qarshi urush e'lon qildi.

Natijada, jamoatchilik nazdida Fransiya imperiyasi bosqinchi davlat sifatida, "aybsiz" Prussiya esa - uning kurboni sifatida gavdalandi. Napoleon III ogiz ko'pirtirib, tezda Prussiyaning mag'lubiyatga uchratib, Berlinga golibona kirib borishini e'lon qildi. Biroq amalda buning butunlay teskarisi bo'lib chiqdi. Bismarkning yaxshi tayyorgarlik ko'rgan armiyasi Fransiyaning shimoli-sharqida jonbozlik ko'rsatib, fransuz armiyasini siqib chiqardi. Bir necha haftadan so'ng, 1870-yil 3-sentabrda Napoleon III o'z armiyasi bilan Sedanda mag'lubiyatga uchrab, asirga olindi.

Shunday qilib, Fransiyadagi Napoleon III boshchiligidagi II imperiya sharmandalarcha bardam topdi. 1870-yil 4-sentabrda Fransiya Respublika deb e'lon qilindi. Parijda "Milliy mudofaa" hukumati vujudga keldi. Ushbu hukumat Bismarkka tinchlik bitimi taklif qilgan bo'lsa-da, Bismark Fransiya oldiga fransuzlarni shunchalik tahqirlovchi shartlar qo'ygan ediki, "milliy mudofaa" hukumati mazkur shartlarga ko'ngandan ko'ra urushni davom ettirishni afzal ko'rdi. Parijning qamal qilinishi uzoq vaqt davom etdi. Parij atrofidagi mavzalar, jumladan, Versal nemislar qo'liga o'tgan edi. Oxir-oqibat, Fransiya Respublikasi o'z mag'lubiyatini tan oldi va Bismarkning shartlariga rozi bo'ldi. Fransiya Germaniyaga juda katta to'lov to'lashi va ikkita katta hudud - Elzas va Lotaringiyani Germaniyaga topshirishi kerak edi. Elzas va Lotaringiya Lyudovik XIV davridan beri, ya'ni 200-yil davomida Fransiya tarkibida bo'lib kelgan edi.

Aynan Versal saroyi nemislar qo'liga o'tgan paytda Germaniya imperiyasi vujudga keldi. Agar, Ikkinchi imperiya 1870-yil sentabr oyida barham topgan bo'lsa, 1871-yil yanvar oyida Versalning Lyudovik XIV nomli zalida Germaniyaning birlashganligi e'lon qilindi. Barcha nemis monarxlari va namoyandalari Prussiya qirolini o'zlarining imperatorlari yoki kayzerlari deb e'lon

qildilar. Prussiya qirolligining Gogensollernlar sulolasi - imperatorlik sulolasi deb, Germaniya esa - dunyoning buyuk davlatlaridan biri deb e'lon qilindi

Versalda nemislar shod-xurramlik bilan Germaniyaning birlashuvini nishonlayotgan bir paytda, Parijda fransuzlar orasida motam va tushkunlik kayfiyati hukm surmoqda edi. Fransuzlar juda katta qiyinchilikni boshdan kechirmoqda edilar: hukmdorlarning tez-tez almashib turishi, ochlik, 1870-1871 yillardagi qahraton qish, tinimsiz urushlar aholining tinka-madorini quritgan edi. Respublika e'lon qilingan bo'lsa-da, Fransiya monarxistlari dushman bilan til biriktirib, fransuz xalqini, uning vatanparvar kuchlarini qatagon qilmoqda edilar. Fransuz milliy gvardiyasi respublikachilardan iborat bo'lgani bois majburiy ravishda qurolsizlantirildi. Bunga qarshi demokratik va inqilobiy kuchlar qo'zg'olon ko'tarib, Parij kommunasini tashkil etdilar. Parij kommunasi munitsipal hukumatdan iborat bo'lib, atigi 72 kun davomida Parij shahrini boshqardi, xolos. 1871-yildan so'ng Fransiyada o'zil-kesil respublika tizimi joriy etildi va boshqaruvda prezidentlik instituti qayta tiklandi.

Bu davrda yana bir olamshumul xalqaro voqea yuz bergan bo'lib, bu Italiyaning birlashuvi edi. Fransiya-Prussiya urushidan so'ng Avstro-Vengriya Germaniya imperiyasi bilan tobora yaqinlashib bordi.

Germaniya birlashuvidan so'ng Yevropada kuchlar muvozanatining o'zgarishi. Germaniya birlashgandan so'ng uning tobora yuksalib borgan iqtisodiy qudrati, uning tez sur'atlar bilan rivojlanishi hamda yangi mustamlakalar uchun olib borgan ekspansiyasi Angliya-Germaniya munosabatlarini keskinlashtirib yubordi. Dunyo bozorlarida hukmronlik qilayotgan Buyuk Britaniya o'z mustamlakalariga Germaniyaning suqilib kirishi va uning o'ljalarini bo'lib olishini sira istamas edi.

Shunday qilib, 1870-1871 yillardagi Fransiya-Prussiya urushi va Germaniya imperiyasining vujudga kelishi Yevropada yangi kuchlar mutanosibligini vujudga keltirdi hamda xalqaro munosabatlarning yanada keskinlashuviga olib keldi.

Germaniya imperiyasining asoschisi, uning birinchi kansleri Otto fon Bismark bu paytda 55 yoshda bo'lib, mashhurlik cho'qqisiga ko'tarilgan edi.

Nemislar burjuaziyaning eng mashhur va sevimli davlat arbobiga aylangan Bismarkdan yangidan-yangi muvaffaqiyatlarni kutmoqda edilar. Bismark yaxshi bilardiki, kuchli Germaniya o'ziga qarshi Yevropada yangi koalitsiyani vujudga keltirishi mumkin va Fransiya, tabiiy ravishda, Germaniyaga qarshi qaratilgan koalitsiyaga birinchi bo'lib a'zo bo'ladi. Bismark, ayniqsa, Rossiya va Fransiyaning o'zaro yaqinlashmasligi uchun ko'z-quloq bo'lib turishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Shu sababli, Bismark vaziyatni to'g'ri baholab, Germaniya boshchiligida harbiy siyosiy koalitsiya tuzishni rejalashtirdi. Ko'plab tarixiy hujjatlar shundan dalolat beradiki, Bismark Germaniyasi, uning harbiy shtabi Fransiya Uchinchi respublikasiga qarshi preventiv urush rejasini ishlab chiqqan. Elzas va Lotaringiyani Fransiyadan tortib olgach, Bismark Germaniyasi nafaqat iqtisodiy, balki strategik maqsadni ham ko'zlagan. Lotaringiya vodiysi Parijga qarshi harbiy plasdarmga aylanishi kerak edi. Fransiya qarshi siyosat mahsuli bo'lgan uch imperatorlar ittifoqi ham Bismarkning tashabbusi bilan vujudga keldi. Parij kommunasi bostirilgach, Bismark Fransiya respublikasini izolyatsiya, ya'ni ixota qilish uchun Germaniya, Rossiya va Avstro-Vengriyadan iborat monarxistik davlatlar ittifoqini vujudga keltirdi.

Monarxiyaga asoslangan davlatlarning hamkorlik qilish g'oyasi ham aynan Bismark tashabbusi bilan paydo bo'ldi. Bu g'oya Parij kommunasi bostirilgach o'rtaga tashlandi. Mazkur g'oyaning asosini:

- *ishchilarga qarshi birgalikda kurash olib borish;*
- *har uchala davlatdagi monarxiyaga asoslangan mushtaraklik;*
- *nihoyat, har uchala davlatning bir-biriga o'zaro yaqin joylashgan jugrofiy hududlari tashkil etar edi.*

1872-yil sentabr oyida har uchala imperatorlar Berlinda uchrashdilar va "Muqaddas ittifoqni" yangidan tashkil etishga kelishib oldilar. 1873-yil may oyida Germaniya va Rossiya o'rtasida harbiy konvensiya imzolandi. 1873-yilda Vilgelm I Avstriya va Rossiya bitimiga qo'shildi. Aynan shu-yil uch imperator ittifoqini tuzishda katta ahamiyat kasb etdi. Uch imperator o'rtasidagi mazkur ittifoq tufayli Fransiya yakkalanib qoldi. O'z navbatida, Germaniyaning xalqaro miqyosdagi roli

oshib bordi. Uch imperator ittifoqi 1887-yilgacha davom etdi. Biroq, shundan so'ng, dastlab Avstriya va Rossiya o'rtasida, so'ngra Rossiya va Germaniya o'rtasidagi o'zaro ziddiyatlar nihoyatda ko'chayib ketdi. Shu sababli, uch imperator ittifoqi 1887 yilda o'z faoliyatini to'xtatdi.

Rossiya uch imperator ittifoqining a'zosi hisoblansa-da, biroq Fransiyani qullab-quvvatlashda davom etdi, chunki Rossiya Fransiyaning zaiflashuvidan manfaatdor emas edi. Rossiya kansleri A.M.Gorchakov qayta va qayta bir gapni takrorlar edi: "Yevropa uchun xam, Rossiya uchun xam, avvalambor, kuchli Fransiya zarur"

Asrlar davomida xalqaro munosabatlarda Rossiya va Fransiya yaxshi hamkorlikni yulga qo'yib keldilar. O'z navbatida, Rossiya va Fransiyaning umumiy chegaralari bo'lmaganligi sababli, ular o'rtasidagi do'stona aloqalar har ikki tarafning manfaatlariga mos kelar edi. Angliya esa, o'z jugrofiy- siyosiy mavqeiga ko'ra, 1815-yildan buyon "Yevropada kuchlar mutanosibligi" mavjud bo'lishini istar edi. Shu bilan birga, Angliya Yevropada Germaniyaga o'xshash davlatning gegemon bo'lishiga butunlay qarshi edi.

1875-yil Germaniyaning Fransiyaga urush xavfini tug'dirishi munosabati bilan lord Derbi boshchiligidagi ingliz hukumati Bismarkka "yaxshi mulozamat" bildirdi va harbiy safarbarlik e'lon qilishning oldi olindi. Bismark Fransiyaga qarshi yangidan urush olib borish g'oyasidan voz kechdi.

4.5. Rus-turk urushi (1877-1878) va Berlin kongressining diplomatik tayyorlanishi.

Monopalistik kapital hukmronlik qilayotgan mamlakatlar siyosati shu davlatlardagi badavlat guruhlar vakillarning manfaatlariga xizmat qilar edi. Bu davlatlarning tashqi siyosati boshqa davlatlarni ko'proq talash va ularning xalqlarini ezish orqali olayotgan foydalarini oshirish, o'z mulklari ta'si doiralarini kengaytirishga qaratilgan edi. Bundan tashqari, millatchilik, boshqa millatlarga nisbatan ishonchsizlik va dushmanlik avj oldirildi. Boshqa xalqlar ustidan hukmronlik qilishga intilish ularni talash va ekspluatatsiya qilish, shovinizm

millatchilik targ'ib qilindi.

Kapitalistlar xalq ommasini chalg'itar, hukmron doiralar olib borayogan bosqinchilik siyosatidan mazlum xalqlarning ozodlik uchun kurashiga qarshi foydalanar edi. Millionlab odamlarni qurbon qilgan va g'oyat katta vayronagarchiliklar keltirgan jahon urushlari "ochko'z" monopolistlarning insoniyat boshiga solgan dahshatli fojialardandir.

Germaniyaning qaytadan birlashuvi va Germaniya imperiyasining 1871-yilda paydo bo'lishi hamda Italiya qiroligining vujudga kelishi Yevropaning siyosiy haritasini butkul o'zgartirib yubordi. Germaniyada ilgari 36 ta, Italiyada 7 ta kichiq viloyat mavjud edi. Endilikda ularning o'rnida ikkita tirik davlat paydo bo'ldi.

Fransiya va Germaniya o'rtasidagi 1875-yilgi urush xavfi bilan bir vaqtning o'zida Yaqin Sharq tangligi vujudga keldi. 1875-yilda Turkiya hukmronligiga qarshi Bosniya va Gersegovina hududlari adolisi qo'zgon ko'tarishdi, keyin ozodlik darakati Serbiya, Bolgariya va Chernogoriyada avj oldi. Bolqon yarim orolidagi ushbu vaziyat Rossiya-Avstriya, Rossiya-Angliya o'rtasidagi munosabatlarni keskinlashtirib yubordi. Bu qarama-qarshiliklardan Bismark Rossiya va Turkiya o'rtasida urushni keltirib chiqarish yo'li bilan Fransiyani yakkalab qo'yishni istar edi.

1876-yilda Serbiya-Turkiya urushida Turkiyaning qo'li baland kela boshladi. Shunday sharoitda 5-oktyabrda Rossiya Turkiyadan Serbiya bilan yarash bitimi imzolashni va armiyasini demobilizatsiya qilishni talab etdi. Biroq, Turkiya bu talabning bajarilishini paysalga soldi. 31-oktyabr kuni Rossiya bu masalada Turkiyaga ultimatum topshirdi. Shu tariqa, Serbiya haloqatdan saqlab qolindi.

1876-yil 26-dekabrda Konstantinopolda Bolqon masalasida xalqaro konferensiya chaqirildi. 1877-yil 28-fevralda Serb-turk tinchlik shartnomasi imzolandi. Bosniya, Gersegovina va Bolgariyaga muhtoriyat berish talablari esa qog'ozda qoldi.

Turkiya Serbiya bilan tinchlik shartnomasi tuzgan bo'lsa-da, o'z armiyasini demobilizatsiya qilmadi. Bu Rossiya uchun ayni muddao bo'ldi. Rossiya 24-aprel

kuni Turkiyaga urush e'lon qildi. Serbiya va Chernogoriya ham urush harakatlarida qatnashdi. Rossiya armiyasi Turkiya armiyasiga katta talofat yetkazdi. 1877-yilning oxirida Plevna yonida Usmon poshsho 43 ming qo'shini bilan taslim bo'ldi. 1878-yil yanvarda Skobelev armiyasi Adrianopolni ishg'ol qildi. Rossiyaning muvaffaqiyatlari Angliyani tashvishga solib qo'ydi. 1878-yil 3-fevralda Angliya o'z harbiy kemalarini Marmar dengiziga kiritdi. Rossiya armiyasi Konstantinopol shahriga bostirib kirsam, Rossiya bilan diplomatik aloqasini o'zishini ma'lum qildi.

1877-1878 yillardagi Rossiya-Turkiya o'rtasidagi urush arafasida Chor Rossiyasi Avstro-Vengriyaning betarafligiga erishdi, chunki bir qancha hududlar har ikki davlat o'rtasida taqsimlangan edi. 1876-yilgi Reyxshtaxt shartnomasiga binoan, Rossiya 1856-yilda qo'ldan bergan Bessarabiyaning bir qismini qaytarib olishi kerak edi. Rossiya va Avstro-Vengriya Bolqon yarim orolida kuchli slavyan davlatini barpo etmaslikka qaror qilishdi. Chor Rossiyasi shu yo'l bilan Avstro-Vengriya va Angliyaning betarafligiga erishmoqchi bo'ldi. Rus armiyasining Turkiyaga qarshi muvaffaqiyatli urushi va rus qo'shinlarining Istambo'lga bostirib borishi Turkiyani 1878-yil 3-martda San-Stefano bitimini imzolashga majbur qildi. Bu bitimga ko'ra Bolgariya muxtoriyati tashkil etildi. Serbiya, Chernogoriya, Ruminiya mustaqillikni qo'lga kiritdilar va o'z hududlarini birmuncha kengaytirishga muvaffaq bo'ldilar. Janubiy Bessarabiya Rossiyaga qaytarildi. Rossiya endilikda Kars, Batum, Ardagan va Boyazidga ham egalik qiladigan bo'ldi. San-Stefan bitimi Bolqon yarim orolida Rossiya pozitsiyasini ancha ko'chaytirdi. Bunga javoban, Avstro-Vengriya hamda Angliya chor Rossiyasiga qarshi urush ochish niyatida ekanliklarini bildirdilar. Shartnoma Bolqon yarim oralining siyosiy haritasini tubdan o'zgartirib yubordi. Chunonchi, Bolgariya Turkiyaga nomigagina qaram, amalda esa mustaqil davlatga aylandi. Chernogoriya, Serbiya va Ruminiya to'la mustaqil davlatlar deb tan olindi. Turkiyaning Rossiyaga 1 mlrd. 410 mln. rubl tovon to'lashi belgilandi.

Kongress 1878-yil 13-iyunda ochildi. Unda Angliya, Fransiya, Germaniya, Rossiya, Avstriya-Vengriya, Italiya va Turkiya delegatsiyalari qatnashdi (Bolqon

davlatlari Berlinga taklif etilgan bo'lsalar-da, ularga kongress qatnashchisi maqomi berilmagan). 3-iyulda kongress o'z ishini yakunladi va "Berlin traktati" deb nomlangan hujjat imzolandi. Bu hujjat Rossiyaning San-Stefano shartnomasi natijasida qo'lga kiritgan katta muvaffaqiyatlarining ahamiyatini kamaytirib yubordi. Chunonchi, Angliya harbiy kemalari Qora dengizga kirish huquqiga ega bo'ldi, Kipr oroli Angliyaga, Bosniya va Gersegovina Avstriya-Vengriyaga in'om etildi. Ayni paytda, Turkiya to'lashi lozim bo'lgan tovonning katta qismi evaziga Rossiyaga Kavkazning Botumi, Kars va Ardagan hududlari berildi. Chernogoriya, Serbiya va Ruminiya mustaqilligi e'lon qilindi, ammo Chernogoriya hududi San-Stefan bitimiga ko'rsatilganidan ko'ra ancha qisqartirilgan edi. Bolgariya Bolqon tog' tizmalari asosida ikkiga bo'lindi, Shimoliy Bolgariya Turkiyaga qaram knyazlikka aylantirildi va Turkiyaga xiroj to'lash majburiyati unga yuklatildi. Janubiy Bolgariya Sharqiy Rumeliya nomi bilan muxtoriyat sifatida Turkiya tarkibiga qo'shildi.

Berlin kongressi Bolqon va Usmonli imperiyasini amalda taqdirini belgilash, kelajak uchun belgilangan reja bo'lib xizmat qildi. Bu tez orada o'z aks sadosini namoyish etdi. Jumladan, Bolqonda kelajakda "bo'mba solingan bochkaga" aylandi, rejalashtirilgan bahonaviy urushlar uchun sabab bo'ldi, Turkiya esa taqdirini o'zgalarga tuhfa etishda davom etishga majbur bo'lib qoldi.

Nemis diplomatiyasi bu kongressda tashabbusni o'z qo'lga olishga muvaffaq bo'ldi. Bismark bu kongressda men "halol dallollik" qildim, deyishiga qaramasdan, amalda u Avstro-Vengriya va Angliyaga yon bosdi. Berlin kongressida yakkalanib qolgan Rossiya San-Stefan bitimi shartlarini himoya qila olmadi. 1877-1878 yillardagi Rossiya-Turkiya urushi har ikki tarafdin bosqinchilik urushi bo'lishiga qaramay, Bolqon yarim oroli aholisi uchun ijobiy ahamiyat kasb etdi va bir necha mustaqil davlatlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Rossiya va Turkiya urushi hamda Berlin kongressi uch imperator ittifoqining zaiflashib kolganligini ko'rsatdi va Rossiya, Germaniya, Avstro-Vengriya davlatlari o'rtasidagi munosabatlarni sovuqlashtirdi.

Bismark yana vaziyatdan ustalik bilan foydalanmoqchi bo'ldi. U 1866-

yildan boshlab Avstriyaning Sharqdagi salohiyatini nemis davlati deb bilar va Yaqin Sharq masalalarida ikki nemis davlatini avangard deb hisoblar edi. G'arbiy Yevropa masalalarida esa Avstro-Vengriya Germaniyaning ittifoqchisi sifatida Germaniyaning manfaatlariga bo'ysunishi kerak edi. Germaniya va Avstro-Vengriya imperiyalari o'rtasida ittifoqchilik shartnomasini ishlab chiqish uchun Bismark Venaga tashrif buyurdi. U "Mulohazalar va xotiralar" nomli kitobida o'zining bu tashrifi to'g'risida to'liqlanib yozadi. Uning yozishicha, Venada avstriyaliklar uni juda yaxshi kutib olishgan. Hatto, imperator Frans Iosif Bismarkdan xabar olish uchun u yashagan mexmonxonaga tashrif buyurgan. Bismarkning o'z kitobida ta'kidlashicha, o'sha davrda avstriyaliklar va prussiyaliklar o'rtasidagi do'stlik xalqaro munosabatlarda shuxrat qozongan. Germaniya va Avstro-Vengriya muzokaralarida Avstro-Vengriya tashqi ishlar vaziri Andrashiga Bismark bu ittifoq ham Rossiya, ham Fransiya bilan bo'lgan urushlarda amal qilishi kerak, deb ta'kidladi. Andrashi bo'lsa, bu ittifoq faqat Rossiyaga qarshi qaratilgan, dedi. Germaniya va Avstro-Vengriya o'rtasidagi bu mahfiy bitim har ikkala tomondan 1879-yil 7-oktabrda imzolandi.

Yuqorida ko'rib o'tilgan asr boshida Yevropada hukmronlik uchun kurash ketgan bo'lsa asta-sekin uning miqyosi kengayib borib Afrika, Osiyo va dunyoning mustamlakalarga ega bo'lish jarayoni bilan yer yuzini qamrab oldi. Bu vaziyatni biz ko'rib chiqayotgan XIX asrning so'ngi choragida, ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi, keyingi davrda esa jahonda yakka hokimlik uchun ochiqdan ochiq da'volar qilishga intildi.

4.6. XIX asrning 80-yillarida Yevropada kuchlar nisbati.

Bu davlatlarning ko'chayishidan xavotirlangan Rossiya Fransiya-Prussiya urushida betaraflik pozitsiyasida bo'lsa-da, Bismarkning Fransiaga hujum uyushtirishiga to'sqinlik qildi. Bu hol Rossiya-Germaniya munosabatlarning keskinlashuviga olib keldi. Lekin, Germaniya qaysi qaysi davlat bilan munosabatlarni yomonlashtirmasin, dushmani Fransiya bilan ittifoqdosh bo'lishidan xavfsirar edi. Bismark buni e'tiborga olib, Fransiyaning Germaniyaga

qo'shni bo'lgan birorta mamlakat bilan yaqinlashuviga yo'l qo'ymaslik maqsadida "Uch imperator ittifoqi" (1873-yil) nomi bilan mashhur bitimni tuzishga erishdi. Germaniya, Avstriya-Vengriya va Rossiya birortalariga hujum bo'lish xavfi bo'lgan taqdirda birgalikda harakat qilish haqida kelishib oldilar. Bu bitim noaniqlik xususiyatiga ega bo'lib bitim ishtirokchilarining birortasi ham o'ziga aniq majburiyatlar olishini xohlamas edi. Aslini olganda, Bismark qanday bo'lmasin, Fransiyaga o'zini o'nglab olmasdan oldin yana tez fursat ichida zarba bermoqchi edi. Chunonchi, 1875-yilning bahorida Bismark nemis matbuotida Fransiyaga qarshi ig'vogarlikdan iborat tashviqotni boshlab yubordi. Bismark Peterburgga maxsus missiya yuborib, unga yangi Germaniya - Fransiya urushida Rossiya betaraf bo'lishi evaziga Turkiya "hisobiga" nimalarni olishi mumkinligini aniqlashni topshirdi. Biroq, rus hukumati Germaniyaning bu o'zboshimchaligiga yo'l qo'ymasligini bildirdi. Angliya ham huddi shunday qildi. Shu sababdan ham Germaniya yuqorida keltirganimiz Rossiyaning Turkiyaga XIX asrning 70-yillardagi bosqinlariga toki San-Stefano sulhiga qadar jim turib kelgan edi. Yuqorida izohlanganimiz Berlin kongressidan so'ng nemis hukumati 1879-yilda chegara boji joriy qilib, rus chorvachilik mahsulotlarini Germaniyaga kiritilishini cheklab qo'ydi. Bu narsa Rossiya eksportiga, qishloq xo'jaligiga katta iqtisodiy zarba bo'ldi.

Ikkinchidan, Rossiya Turkiya bilan bo'lgan urushda Bolqon mamlakatlarida o'z ta'sir doirasini kengaytirishni maqsad qilgan edi. Bolqon davlatlariga Avstriya-Vengriya ham da'vo qilar, u ham Bolqon yerlarida o'z hukmronligini kengaytirishni ko'zlar edi. Urush yakunida bir necha Bolqon davlatlari o'z mustaqilliklarini qo'lga kiritgan edilar (Berlin kongressi) ta'sirini o'rnatish uchun Rossiya bilan Avstriya-Vengriya o'rtasidagi bu kurashda Germaniya Avstriya-Vengriyani yoqlab chiqdi va Rossiyaning Bolqon yarim orolidagi mufaqiyyatlarini to'la tan olmadi.

Germaniya Rossiya bilan Fransiyaga qarshi kurashish maqsadida agressiv harbiy bloklar tuzishni boshladi va 1879-yilda Avstriya-Vengriya bilan harbiy ittifoq tuzdi. 1882-yilda Germaniya, Italiya va Avstriya-Vengriya bilan yangi

ittifoq bitimlarini imzoladi. Bu “Uchlar ittifoqi” nomi bilan tarixga kirgan siyosiy, harbiy blok shaklandi.

Bismark 1883-yilda Avstriya-Vengriya bilan hamkorlikda 3-yil muddatga Rossiya bilan bitim tuzishga erishdi. Bitimga muvofiq, Germaniya bilan Fransiya o‘rtasida nizo chiqsa Rossiya betaraf turadigan, Avstriya-Vengriya va Germaniyaning esa Rossiya bilan Buyuk Britaniya urushida betaraf turishiga kelishildi. 1884-yilda esa rus hukumati faqatgina Fransiya Germaniyaga hujum qilgandagina betaraf qolishini aytdi. Bitimning boshqa moddasiga binoan Avstriya-Vengriya va Germaniya Turkiya hukumatidan Bosfor va Dardanell bo‘g‘ozlarini “yopib“ qo‘yishni talab qildi va ingliz flotining Qora dengizga kirishini to‘xtatdi, bu bilan Rossiyaga yordam berdi. Bismark ma’lum darajada Rossiya xavfsizligini ta’minlab, O‘rta Osiyoda rus ekspansiyasini ko‘chaytirishni rag‘batlantirdi va Buyuk Britaniya- Rossiya munosabatlarini keskinlashtirdi. Germaniyaning asl maqsadi ham shu edi.

Bismarkning jiddiy o‘rinlari natijasida Fransiyani yakkalab qo‘yish maqsadida “Uchlar ittifoqi” tuzildi. 1882-yilda Bismark Tunisning Italiya tomonidan bosib olinishini qo‘llab-quvvatladi va shu yo‘l bilan Italiyani o‘zining siyosiy ittifoqchiligi tomon yetakladi. Italiya, bir tomondan, Germaniya bilan ittifoq tuzishni istasa-da, biroq ikkinchi tomondan, uning Avstro-Vengriya bilan o‘zaro ziddiyatlari mavjud edi. Chunki Triest va Trintino hududlari Avstro-Vengriyaga qarar edi. Ammo Bismark italiyaliklarga, Berlin bilan Yaqinlashish Vena orkali amalga oshiriladi, deb ta’kidladi. Germaniya, Italiya va Avstro-Vengriya o‘rtasidagi 1882-yilgi bitim 5 yilga muljallangan edi, biroq bu bitimning amal qilish muddati bir necha marta o‘zaytirilib, 1915-yilgacha davom etdi. Yangi tuzilgan koalitsiya bir tomondan, Fransiya, ikkinchi tomondan - Rossiyaga qarshi qaratilgan edi.

Shu bilan birga, Bismark Rossiya bilan do‘stona munosabatda bo‘lib, uning Fransiya bilan Yaqinlashishiga yo‘l qo‘ymaslikka harakat qildi. Shu sababli, u uch imperator ittifoqini xam esdan chiqarmas edi. Biroq, 1885-1886 yillar davomida Rossiya-Avstriya o‘rtasidagi munosabatlar nihoyatda keskinlashdi. O‘z navbatida

Rossiya tomonidan O'rta Osiyoda Marv shahrining bosib olinishi, Rossiya qo'shinlarining Turkmaniston hududlariga suqilib kirishi hamda ruslarning Angliya tasarrufida bo'lgan Afgoniston chegaralariga yaqinlashishi Rossiya-Angliya munosabatlarini xam yomonlashtirdi. Ana shunday vaziyatda Rossiya-Germaniya-Avstriya o'rtasidagi uch imperator ittifoqi barham topdi. Bismark Rossiya hukumatiga Germaniya bilan ikki tomonlama maxfiy bitim tuzishni taklif qildi. Xalqaro vaziyat Rossiyaning shunday bitim tuzishini taqozo etmokda edi. 1887- yilda Rossiya va Germaniya o'rtasida tuzilgan bitim o'z-o'zini sug'o'rtalash nomini oldi. Unga binoan, agar Fransiya Germaniyaga hujum qilib qolgudek bo'lsa, Rossiya Germaniyaga nisbatan betaraf bo'lishi kerak edi, o'z navbatida, Angliya Yaqin Sharqda Rossiyaga nisbatan dushmanlik siyosatini olib borsa, Germaniya bu hududda Rossiyani qullab-quvvatlashi lozim edi. Shu yo'l bilan Rossiya Qora dengiz hududidagi o'z chegaralarini inglizlar floti hujumidan himoya qilishni kuzda to'tgan edi.

Fransiya va Rossiya o'rtasidagi yaqinlashuv siyosiy va strategik ahamiyat kasb etmoqda edi. Elzas va Lotaringiyaning nemis yerlariga qo'shib olinishi hamda Germaniya imperiyasining vujudga kelishi xalqaro miqyosda Fransiya mavqeini pasaytirib yubordi. Fransiya tashqi siyosat masalalarida yakkalanib qoldi. Shu sababli, Fransiya Rossiya bilan o'zaro ittifoq tuzishga har tomonlama muxtoj edi, chunki, Germaniya Fransiyaga istagan paytda hujum qilishi mumkin edi. Fransiya shunday paytda Rossiyaga tayanishi va undan yordam olishi mumkin edi. Har ikkala davlat o'rtasida o'zaro umumiy chegaralar ham, jiddiy qarama-qarshiliklar ham yuq edi. Har ikkala davlat uchun umumiy xavf - bu Germaniya imperiyasi tomonidan bo'lgan umumiy tahdid edi.

Eng muhimi, har ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy omillar bo'lib, so'nggi paytlarda Germaniya va Rossiya o'rtasida g'alla masalalarida boj undirish g'avg'osi ko'ndalang turar edi. Bismark rus g'allasini nemis bozoriga olib kirishga to'sqinlik qilayotgan edi. Chor Rossiyasining proteksionizmga asoslangan siyosati, o'z navbatida, nemis burjuaziyasiga katta zarar keltirayotgan edi. Shunga javoban, Germaniya Rossiyaga qarz - kredit berishni to'xtatib qo'ydi, xolbuki, Rossiya

kredit olishga juda muhtoj edi. Shu sababli, 1887-yildan boshlab Rossiya Fransiyadan kredit ola boshladi, keyinchalik Fransiya Rossiyaning asosiy kreditoriga aylandi.

Fransiya va Rossiyaning o'zaro yaqinlashuvida 1887-yilgi harbiy xavf katta rol o'ynadi. Bu paytda Bismark Fransiyaga hujum qilishni rejalashtirgan edi. Angliya va Fransiya o'rtasidagi mustamlakachilik siyosati shunchalik keskinlashdiki, natijada Angliya ham Bismarkni Fransiyaga qarshi gij-gijlayotgan edi.

1891-yilda Rossiya va Fransiya o'rtasida maslahatlashuv pakti imzolandi. 1892-yilda esa, har ikki tomon maxfiy harbiy konvensiya qabul qilishdi. Bu konvensiyani 1893-yilda har ikki davlat ham ratifikatsiya qilishdi. Bu bitim Fransiyani ham, Rossiyani ham Germaniya tajovuzidan himoya qilishni ko'zda tutar edi.

Shunday qilib, XIX asrning so'ngida Yevropaning yetakchi davlatlari ikki qarama-qarshi lagerga bo'linganlarida, Angliya bu bloklardan holi ravishda, "chiroyli izolyatsiya" siyosatini davom ettirdi. Bu siyosatning asoschisi va amalda uni qo'llovchi Angliyaning bosh vaziri, konservatorlar partiyasining rahbari, lord Solsberi edi. U aslli, uzoqni ko'zlab ish yurituvchi mohir diplomat edi. Solsberi Bismarkning haqiqiy munosib raqibi edi. Lord Solsberi Bismark diplomatiyasi san'ati, uning zamiridagi rejalarini oldindan ko'ra biluvchi ziyrak va yosh davlat arbobi edi. Solsberi Bismarkning Angliyani Rossiya bilan urishtirib qo'yish maqsadidan ham xabardor edi.

Solsberi Rossiya va Fransiyani Angliyaning asosiy raqiblari deb hisoblasada, ammo bu davlatlar bilan harbiy to'qnashishga yo'l qo'ymaslik lozim, deb hisoblar edi. U Rossiya va Fransiyaga qarshi Uchlar ittifoqidan unumli foydalanishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Lord Solsberining "chiroyli izolyatsiya" siyosati Angliyaning istisodiy qudrati, uning "jahon ustaxonasi" hamda sanoat sohasidagi ustunligini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, bo'larning bari Angliyaning dengizlararo hukmronligini ta'minlashga xizmat qilar edi. Lord Solsberi Angliya biron-bir davlat bilan uzoq muddatli ittifoq tuzmasligi kerak, deb

o'qtirar edi. «Angliyaning doimiy ittifoqchilari ham, doimiy dushmanlari ham mavjud emas, balki uning doimiy va ustuvor manfaatlari mavjud», deb qayta-qayta takrorlar edi lord Solsberi.

Angliya Britaniya orollarida joylashgan bo'lib, ingliz diplomatiyasi Yevropa qit'asi mamlakatlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklardan mohirona foydalanar edi. Bu haqida lord Solsberi sirolicha Viktoriyaga 1888 yilda shunday deb yozgan edi: “Fransiya xamisha Angliya uchun eng xavfli raqib bo'lib kelgan va kelajakda ham shunday bo'lib qolaveradi. Ammo bu omil unchalik xavfli emas, chunki Fransiya bilan ularning qo'shnilari bo'lgan Germaniya va Italiya mavjud. Fransiya bilan bu ikki davlat o'rtasida raqobat bor ekan, Fransiyadan cho'chimasa ham bo'ladi”.

Shunday qilib, Angliya diplomatiyasi Fransiya-Germaniya va Rossiya-Avstriya-Germaniya o'rtasidagi ziddiyatdan ustalik bilan foydalanar va alohida masalalar bo'yicha bu davlatlar bilan ayrim bitimlar tuzar edi. Biroq, inglizlar o'z zimmlariga biror-bir harbiy majburiyatni olmagan holda, “erkin qo'llar” siyosati asosida ish ko'rar edilar.

4.7. XIX asr oxirlarida xalqaro munosabatlar.

XIX asr oxirida Germaniya bilan AQSh zamonaviy texnika bilan ta'minlanib Fransiya va Angliyadan o'zib ketgan edi. Bu holat jahon bozori uchun kurashni keskinlashtirib yubordi. Chunonchi, dunyoni taqsimlash jarayonini tezlashtirib yubordi, Buyuk Britaniya va Fransiya Afrika va Osiyda harbiy ekspansiyalarini boshladila, Rossiya esa O'rta Osiyoni mustamalakaga aylantirishi nihoyalab bordi.

1881-yilda Fransiya Tunisni bosib olib u yerda o'z protektoratini o'rnatdi. Oqibatda, Fransiya-Italiya munosabatlari keskinlashdi. Bu esa Uchlar ittifoqini tuzilishiga olib keldi.

Endi Afrikani “bo'lib olish“, ayniqsa keskin bo'ldi. Ingliz hukumati Kongo daryosining quyilish joyini Angliyaga iqtisodiy va moliyaviy jihatdan qaram bo'lgan Portugaliyaga berishni istardi. Fransiya va Germaniya esa bu joyni Belgiya qiroli Leopoldga bermogchi edi. O'sha vaqtda deyarli butun Kongo havzasini

Belgiya bosib olgan edi. 1884-1885-yildagi Berlin Konferensiyasida mustaqil Kongo davlatining chegaralari belgilandi. XIX asrning 70-yillarida inglizlar va fransuzlar Nigeriya va Niger daryosining irmoqlarini egallash uchun kurashni ko'chaytirdilar 1884-yilda Angliya bu hududlarni zabt etdi. Ular o'rtasidagi nizo 1889-yilgacha cho'zilib, nihoyat bir bitimga kelindi. XIX asr 80-90-yillarda Fransiya G'arbiy va Markaziy Afrikada juda katta mustamlaka imperiyasini vujudga keltirdi. Fransiya 1886-yilda Madagaskarni ham bosib oldi. 1874-yildan 1887-yilgacha o'tgan davr ichida Angliya Malayya yarimorolidagi davlatlar ustidan protektorati o'rnatdi. Angliya bu davlatlardan juda katta foyda olardi. 80-yillarning boshlarida Fransiya Hindistonning janubiy qismini bosib olishga kirishdi. 1883-yilda Annani egalladi, fransuz agressiyasi Vetnam xalqining qattiq qarshiligiga duch keldi. Xitoy ham fransuzlarga qarshi urushga kirdi, 1885-yil martda Long Song yonida fransuzlarga zarba berdi. Lekin, 1885-yilda fransuzlar Tonkinni bosib olishga erishdilar. Bu bilan fransuzlar Hindiston chegaralarigacha bo'lgan hududlarni o'z mustamlakalariga aylantirdilar.

Fransiyani Hindistonga "yaqinlashtirmaslik" uchun 1885-yilda inglizlar Birmani bosib oldilar. Fransuz Hindixitoyi bilan Britaniya Hindistoni o'rtasida "oralik" davlat sifatida Tailand qoldi. Keyinchalik u ham ingliz-fransuz "ta'sir doirasi"ga kirdi.

Germaniya XIX asrning 70-yillaridan mustamlakalar egallashga o'rinsa-da, Bismark bunga jur'at eta olmadi. 80-yillarning boshlarida Britaniya-Fransiya, Fransiya-Italiya o'rtasidagi, 70-yillarning ikkinchi yarmidan Britaniya-Rossiya munosabatlarining keskinlashuvi natijasida, Germaniya qa'tiyatlik bilan o'zining mustamlakachilik siyosatini boshladi. 1884-yilda dastlab Janubiy-G'arbiy Afrika yerlari, so'ngra Togo va Kamerun hududlari, 1885-yilda G'arbiy Afrika va Yangi Gvineyaning shimoli-sharqiy qismlarini bosib oldi.

1885-1887 yillarda Bolqonda vaziyat keskinlashdi. 1887-yil iyulda 1881-yildan amal qilib kelayotgan "betaraflik" haqidagi Avstriya-Vengriya va Germaniya-Rossiya bitimining muddati tugadi. Rossiya-Avstriya bilan bitim tuzishni istamadi, shuning uchun Rossiya-Germaniya bitimi tuzildi. Bu bitim

“Hadiksirash bitimi“ deb nom oldi. Chunki, rus hukumati Germaniya Fransiyaga hujum qilganda betaraf qololmaganidek, Germaniya ham Rossiya Avstriyaga hujum qilsa betaraf qolaolmas edi. Fransiya-Rossiya munosabatlari Germaniyaning “g‘ashiga“ tegar edi. Shu tufayli 1887-yilda nemis hukumati Rossiyaga qarz berishni to‘xtatdi. Rus qimmatbaho qog‘ozlari Reyxsbank tomonidan rad etildi. Rossiya hukumati Parij bankiga murojaat qilib, Berlin rad etgan va o‘ziga kerakli bo‘lgan pulni oldi. Germaniya Rossiya munosabatlari keskinlashgach, Germaniya Angliya bilan yaqinlashishga harakat qildi. Biroq, Angliya nemislarning ittifoqchilik haqidagi taklifini rad etdi. 1890-yilda Bismark iste’fo berishga majbur bo‘ldi. Uning o‘rniga hokimiyat tepasiga Kaprivi keldi. Kaprivi 1887-yildagi bitimning mustahkamligiga ishonmadi va uni bekor qildi.

Mustamlakalar egallashda, ayniqsa Tunis tufayli Italiya-Fransiya munosabatlari keskinlashdi. Tunisda fransuz kapitali hukmron edi. Yosh italiyan burjuaziyasi bu hukmronlikni o‘z qo‘liga olmoqchi edi shunday qilib, Fransiya bilan Italiya o‘rtasida “boj urushi“ boshlandi. Bu urush 1886-yildan 1898-yilgacha davom etdi.

Germaniyaning “Hadiksirash bitimi“dan voz kechishi Rossiya-Fransiya ittifoqiga turtki berdi, 1891-yildan Rossiya bilan Fransiya o‘rtida bitim tuzildi.

1892-yilda harbiy konvensiya ishlab chiqildi. Konvensiyada qarshi kuchlar hujum qilganda, Rossiya bilan Fransiya bir vaqtning o‘zida safarbarlik e’lon qilishi lozim edi. 1893-yilda konvensiya ratifikatsiya qilindi.

XIX asr oxirida Xitoy tufayli kapitalistik mamlakatlar o‘rtasida kurash ko‘chaydi. Bunga 70-yillardayoq Tayvan orolini bosib olgan yaponlar asos solgan edi. 1894-yilda Yaponiya urush e’lon qilmasdan Xitoy yerlariga hujum boshladi. Xitoy armiyasi tor-mor qilindi. 1895-yilda Yaponiya hukumati Xitoyga sulh shartlarini majburan qabul qildirdi. Simonesiki sulhi shartiga ko‘ra, Tayvan oroli, Tyanzisi va Pekinga kirib boradigan dengiz yo‘lida joylashgan Port-Artur hamda Lyaodun yarim orolini Yaponiyaga berdi. Xitoyga qaram bo‘lgan Koreya “mustaqil” bo‘ldi. Yaponiya Lyaodun va Koreyani bosib olgach, Rossiyaning uzoq sharqiga xavf sola boshladi. Fransiya Rossiyaning ittifoqchisi bo‘lgani sababli

yapon agressiyasiga qarshi yordam berishni va'da qildi.

Yaponiya-Xitoy munosabatlariga aralashish uzoq Sharqda ta'sir o'tqazish imkonini beradi, deb hisoblagan Germaniya ham bu janjalga qo'shilgan edi. Rossiya, Fransiya va Germaniya Yaponiyadan bosib olingan yerlardan voz kechishni talab qildilar, aks holda yapon suvlariga o'z harbiy dengiz kuchlarini yuborish bilan po'pisa qildilar. Uch davlatning tazyiqi ostida Yaponiya chekinishiga majbur bo'ldi. Ammo, Tayvanni o'zida saqlab qoldi. Lyaodun yarim oroli Xitoyga qaytarildi, buning evaziga Xitoy Yaponiyaga to'laydigan tovon miqdori ko'paytirildi. Xitoyda mablag' yo'q edi. Shuning uchun Rossiya bilan Fransiyadan qarz oldi. Bu ularga o'z kapitallarini Xitoyga kirish imkonini berdi. 1896-yilda Rossiya-Xitoy ittifoqi tuzildi, unga ko'ra, Yaponiya Xitoyga hujum qildudek bo'lsa, Rossiya Xitoyni himoya qilish majburiyatini oldi.

Rossiya hukumatining uzoq Sharqda Yaponiya ustidan qozongan diplomatik g'alabasi 1896-yilda Sharqiy Xitoy temir yo'lini qurish va ekspluatatsiya qilish imkoniyatini berdi. Bu Baykal bo'yidan Vladivostokgacha boruvchi yo'lni Xitoy hududidan o'tqazish, binobarin, qurilishini tezlashtirish imkonini berardi. 1897-yilda Germaniya Szyaochjouvan buxtasini bosib oldi va Xitoyni Szyaochjouvanni Germaniyaga "ijaraga berish haqida"gi shartnomani imzolashga majbur qildi. Rus hukumati bunga qarshilik qildi, lekin Port-Arturni olgach, ortiqcha monelik qilmadi. 1898-yilning boshlarida Lyaodun yarimorolini Rossiyaga ijaraga berish haqida rus-xitoy bitimi tuzildi.

Uzoq Sharqda o'zini "xo'jayin" hisoblagan Britaniya kapitali Xitoyda birinchi o'rinda edi. Chunki, XIX asrning 60-yillarida Gonkong-Shanxay banki inglizlarning eng yirik mustamlaka banklaridan biri edi. Xitoy dengiz bojxonasi ustidan inglizlar nazorati o'rnatilgan edi. Buyuk Britaniya 90-yillarga qadar Xitoyda zamonaviy harbiy dengiz bazasi bo'lgan yagona davlat edi.

Britaniya Rossiyani Osiyo uchun kurashda o'zining asosiy raqibi deb bilardi. 1896-yilda Angliya Yaponiyaga qarshi Germaniya, Rossiya va Fransiya talablariga qo'shilishdan bosh tortdi. Britaniya Yaponiya bilan munosabatlarini buzishni istamas, chunki Rossiyaga qarshi kurashda Yaponiyadan foydalanishni

nazarda tutardi.

Ingliz hukumati strategik ustunlikka erishish uchun Veyxey portini bosib oldi. Temiryo‘l qurilishi Rossiya bilan Fransiya ta‘siriga tushib qolmasligi uchun inglizlar Xitoy hukumatidan ko‘proq temiryo‘l konsessiyasi olishga intildilar. Janubda Hindi-Xitoy bilan qo‘shni yerda temiryo‘l konsessiyasini Fransiya qo‘lga oldi. Shandun temir yo‘l qurilishi va kon sanoati Germaniya ta‘sirida edi. Britaniya hissasiga Xitoyning eng boy Yanszi daryosi havzasi, Gonkongga yaqin materikda joylashgan Kanton bilan Guandun viloyati qoldi. Xitoy xorijiy davlatlar tomonidan shu tariqa bo‘lib olindi.

Bu davrda AQSh ham Xitoyda o‘z ta‘sir doirasiga ega bo‘lishni istardi. AQSh monopolistlari 90-yillarda Xitoyga bostirib kirishni o‘zlariga asosiy maqsad qilib oldilar. 1899-yil sentyabrda AQSh davlat kotibi Xeyning “ochiq eshiklar va teng imkoniyatlar” siyosati e‘lon qilindi va “Xey” doktrinasi deb nom oldi. O‘zining iqtisodiy kuch-qudratiga ishongan Amerika kapitali Xitoyda barcha raqiblarini yengishga umid bog‘ladi. Bu AQShning o‘ziga xos bo‘lgan diplomatiyasi va mustamlakachilik siyosatidan tanlangan yo‘li bo‘ldi.

Xitoy bo‘linib olinayotgan bir vaqtda dunyoning boshqa turli nuqtalarida o‘ziga xos kurashlar ketayotgan edi. Jumladan diplomatiya tarixida “Fashoda inqirozi” deb nomlanuvchi voqea ham huddi shu davrda yuz berdi. Bu inqiroz quyidagicha ro‘y berdi. 1896-yilda Italiya Habashistonni bosib olishga kirishdi. Biroq, Italiyaning ekspeditsion korpussi Adua yonidagi jangda butunlay tormor qilindi. Habashiston bu kurashda o‘z mustaqiligini saqlab qoldi.

1896-yilda Angliya Sudanni bosib olishga kirishdi. 1898-yilda mahaliy aholining qarshiligiga qaramay Hartumni egalladi. Ingliz ekspiditsion korpussi Nil daryosining yuqori qismida, Fashoda qishlog‘i yaqinida fransuz kapitanni Marshan qo‘mondonligidagi qo‘shinga duch keldi. Marshanning maqsadi inglizlarga Nil daryosining yuqori qismini egallashga yo‘l qo‘ymaslik edi. Mrashan bu yerda joylashib olib, Misrda fransuzlar ta‘sirini ko‘chaytirishga yordam berishi lozim edi. Ingliz qo‘shinlari qo‘mondoni Kitchener Marshanga Nil havzasidan “ketishini” taklif qildi, taklif rad etilsa, urush boshlanadi, deb Fransiyaga po‘pisa

qildi. Marshan hukumat ko'rsatmasi bilan "yon berdi". Tez orada Sudanni bosib olish tuggalandi.

AQSh yuqorida Xitoy masalasidagina faol tashqi siyosat olib borganliginigina keltirdik, bu davrda o'z diplomatiyasini o'ziga hududiy yaqin mamlakatlarga iqtisodiy ekspansiyalar uyushtirishida yaqqol namoyon bo'ldi. Bu AQSh diplomatiyasining o'zigagina hos bo'lgan, va tanlangan yo'li edi. Maslan, Panamerkanizm siyosatini yuritdi endigina Yevropadan mustaqil bo'lgan Lotin Amerikasi mamlakatlariga turli niqoblarda asosan iqtisodiy jihatdan yorib kirib borishga harakat qildi va "Amerika amerikaliklarniki" deya shior bilan o'z ekspansiyasini amalga oshirdi. AQSh Lotin Amerikasida hukmron bo'lib olish uchun kurashib, riyokorlik bilan "Xamma Amerika mamlakatlarining manfaatlari bitta", degan g'oyani targ'ib qilib keldi. 1889-yilda AQSh Davlat departamenti tashabbusi bilan Vashingtonda birinchi Panamerika konferensiyasi chaqirildi. Birinchi Panamerika konferensiyasining birdan bir aniq natijasi xalqaro "Amerika respublikalari s'yezdi" degan assotsiatsiyasi tuzishdan iborat bo'ldi. AQShning G'arbiy yarim shardagi mamlakatlar ustidan tanho hukmronlik qilishga qaratilgan Panamerikanizm siyosati shu tariqa vujudga keldi. 80-yillarda Venesuela bilan Britaniya Gvineyasi o'rtasidagi ziddiyat juda ko'chayib ketganda AQSh "Monro doktrinasiga" tayanib, bu janjalni bartaraf qilishda o'zi vositachilik qilmoqchi bo'lganligini Angliyaga ma'lum qildi. 1899-yilda Venesuela masalasi hal etildi. Ko'p o'tmay, Samoa orollari ham qo'lga kiritildi.

XIX asrning oxirida AQSh nihoyatda qudratli davlatga aylandi. Ispaniyaga qarashli Kuba oroli Amerika hukmron doiralarining havasini keltirardi. AQSh Ispaniyaga qarshi urushga tayyorlana boshladi. AQSh o'z fuqarolarining manfaatini himoya qilish bahonasi ostida 1898-yil 15- fevralda Kuba sohillariga o'z harbiy kemasini yubordi. Bu harbiy kema Gavana reydidagi turgan joyda noma'lum sababga ko'ra portlab ketdi. Natijada, 268 kishi halok bo'ldi, 100 ga yaqin kishi esa yarador bo'ldi. AQSh bu qo'poruvchilikda Ispaniyani aybladi va Kongress 1898-yil 22- aprelda Ispaniyaga qarshi urush harakatlarini boshlash haqida qaror qabul qildi. Bu dunyoni qayta bo'lib olish yo'lidagi birinchi urush

edi. 3 oy davom etgan urushda Ispaniya yengildi va sulh so‘rashga majbur bo‘ldi. 1898-yil 10- dekabrda Parij shahrida AQSh-Ispaniya tinchlik shartnomasi imzolandi. Unga ko‘ra, AQSh Puerto Riko va Guam orollariga, Ispaniyaga 20 mln. dollar to‘lab Filippinga ega bo‘lib oldi. Gavayi orollari batamom anneksiya qilib olindi. 1898-yilda Kuba nomiga mustaqillik oldi. Amalda esa AQShga qaram bo‘lib qolaverdi. Bundan ko‘rinib turibdiki, asr oxiriga kelib o‘zaro ixtiloflarni qurol yordamida yechishga turtki bo‘ldi.

4.8. Birinchi jahon urushi arafasida xalqaro munosabatlar.

Imperializm davridagi xalqaro munosabatlar kapitalistik davlatlarning tashqi siyosatida kapitalistik monopoliyalar va moliya oligarxiyasining manfaatlari hukmronlik qilishi bilan, dunyoni qaytadan bo‘lib olish uchun bu davlatlar o‘rtasida kurash borishi bilan harakterlanadi. Ayni bir vaqtda kapitalistlarning ittifoqchilari, ya’ni yirik monopolistik birlashmalar o‘rtasida dunyoni bo‘lib olish, mol sotish bozorlarini, xom-ashyo manbalarini taqsimlash uchun kurash olib borildi.

Imperializm davrida kapitalistik mamlakatlarning iqtisodiy va siyosiy jihatdan notekis rivojlanishining keskin ravishda ko‘chayishi imperialistik davlatlar o‘rtasidagi muvozanatning tez-tez izdan chiqib turishiga olib keladi. Ayrim imperialistik mamlakatlar iqtisodiy va siyosiy qudratining nisbati o‘zgarib turishi natijasida ularning amaldagi kuchi mustamlakalar, bozorlar uchun yetmas edi. Tezroq o‘sayotgan davlatlar o‘z monopolistlariga bozor va xom-ashyo manbalarini to‘la egallash, mustamlakalarni ekspluatatsiya qilish yo‘li bilan juda katta ustama foyda olishlarini ta’minlash uchun boshqa davlatlar hisobiga o‘z mustamlakalarini kengaytirishga intildilar. “Bo‘sh”, ya’ni hech qaysi kapitalistik davlat tomonidan egallanmagan hudud qolmagandan so‘ng, bu intilish mustamlakalar va ta’sir doiralarini qayta bo‘lish uchun o‘rinib ko‘rishga olib keldiki, bunda qurolli kuch ishlatishdan ham tap tortilmaydi. Shunday qilib, imperializm muqarrar suratda kapitalistik davlatlar o‘rtasida ziddiyatlarning keskinlashishiga va urushlarni keltirib chiqaradigan iqtisodiy zaminning

yaratilishga olib keladi. Bunda zo‘r berib qurollanish va urushlarning o‘zi kapitalistlar uchun ustama foyda olish manbai bo‘lib qoldi. Imperializmga qarshi kuchlar va avvalo butun dunyo ishchilar sinfi, shuningdek, ezilgan millatlarning ozodlik harakati yetarli darajada kuchli va uyushgan bo‘lmagan bir davrda, imperialistik urushlarning bo‘lishi muqarrar edi.

XIX asrning keyingi o‘n yilligi AQShning faol ravishda mustamlakachilik siyosati maydoniga chiqishi bilan karakterlanadi. Amerika ekspansiyasi ikki asosiy tomonga uzoq Sharqqa va Lotin Amerikasiga tomon rivojlanib bordi va AQSh 1893-yilda Gavay orollarini bosib oldi. AQShning G‘arbiy qirg‘og‘idan Xitoy qirg‘oqlarigacha bo‘lgan yo‘lning qoq yarmida joylashgan bu orollar AQShning Tinch okean markazidagi muhim tayanch punktiga aylandi.

1898-yilda AQSh Ispaniyaga qarshi urush boshlab, uning ustidan osongina g‘alaba qozondi. Ispaniya Filippin orollarini, Puerto-Riko va Kubani AQShga berishga majbur bo‘ldi. Ispaniya Amerika urushi bir kapitalistik davlat (AQSh)ning ikkinchi imperialistik davlat (Ispaniya)ga qarshi, Ispaniya davlatining mustamlakalarini egallash uchun olib borilgan urush bo‘ldi. Bu dunyoni qayta taqsim qilish uchun olib borilgan birinchi urush, birinchi imperialistik urush edi.

AQShning uzoq Sharqdagi ekspansiyachilik siyosatining markaziy ob‘ekti Xitoy bo‘lib qoldi. AQShning hukmron doiralari Xitoyga Amerika kapitalining kelajakdagi muhim bozor sifatida qarardilar. Ammo Xitoy boshqa yirik davlatlar ta’siriga allaqachon tushib qolgan edi. Shuning uchun AQSh 1899-yilda davlat sekretari Xey orqali Xitoyda “Ochiq eshik” doktorinasi deb atilgan doktorinani, ya’ni Xitoyga iqtisodiy sohada erkin kirib borish va barcha millatining kapitali faoliyati uchun teng sharoit tug‘dirishni e’lon qildi. O‘zining iqtisodiy kuch-qudratiga ishongan Amerika kapitali Xitoydagi barcha konkurentlarini yenga olishga umid bog‘ladi. AQSh hukumati Rossiyani o‘zining Xitoydagi asosiy raqibi deb hisoblab, shuning uchun AQSh hukumati, ingliz hukumati kabi Rossiyaga qarshi Yaponiyani qo‘llab-quvvatladi.

Ilgaridan mavjud bo‘lgan xalqaro ziddiyatlar imperializm davriga ham o‘tib keldi. Monopolistik kapitalning davlatlar tashqi siyosatiga ta’siri bo‘lgan sharoitda

bu ziddiyatlar yanada keskinlashib bordi. Masalan, Elzas va Lotaringiya masalasi bo'yicha Fransiya bilan Germaniya o'rtasidagi ziddiyatlarni Lotaringiya temir rudasi uchun german kapitaliga qarashli qudratli Reyn-Rur monopoliyalarining fransuz og'ir sanoat monopolistlariga qarshi olib borgan kurashi yanada keskinlashtirib yubordi. Bunda fransuz imperializmi Elzas va Lotaringiyaning 1871-yilda Germaniya bosib olgan qismini qaytarib olmoqchi bo'lsa, german imperializmi Fransiya qo'lida qolgan Brie va Longvi havzalarini bosib olmoqchi bo'ldi. German imperialistlarining Fransiya qarshi kurashi shu bilan birga Germaniyaning Yevropada gemonlik qilish uchun kurashi bo'ldi.

1873-yildagi iqtisodiy inqirozdan keyin Germaniyaning savdo sohasidagi konkurensiyasi Angliyaning ta'bini xira qila boshladi. Shu bilan birga, german imperiyasining yuksalishi qit'ada Germaniyaning gemonligi o'rnatilishidan qo'rqan Angliyani xavfga solib qo'ydi.

Keyingi o'n yillikda Angliya bilan Germaniya o'rtasidagi munosabatlarni yanada keskinlashtirgan faktorlarga mustamlakalar uchun kurash qo'shildi. 90-yillarning o'rtalarida juda katta mustamlakasi imperiyani tuzish Germaniya tashqi siyosatining asosiy vazifasi bo'lib qoldi. Shu davrdan boshlab, ingliz-german ziddiyatlari g'oyat keskinlashib ketdi va xalqaro siyosatdagi ahamiyati juda katta bo'ldi. Bu ziddiyatlarning keskinlashuviga shu narsa sabab bo'ldiki, ular Yevropadagi sanoati eng kuchli bo'lgan davlatlar edi, buning ustiga bu davrda gap "bo'sh" yerlarni bo'lib olish haqida emas, olgan hududni qayta taqsimlash ustida borardi. Yosh german imperializmi juda qat'iy turib dunyoni butunlay yangidan qayta bo'lish masalasini qo'ya boshladi. Angliya bilan Germaniya o'rtasidagi ziddiyatlarning o'sib borishi munosabati bilan, do'stona munosabatlar 90-yillarning o'rtalariga kelib tez keskinlashib ketdi. Germaniya imkoni bor joyda Angliyaning mustamlakachilik siyosatiga qarshi harakat qila boshladi. Raqobat qilish hududlaridan biri Janubiy Amerika bo'lib qoldi, u yerda Germaniya Angliyaga va uning Bur respublikalaridagi ta'siriga qarshi kurash boshladi. Jensonning Transvaalga qilgan (1895) muvaffaqiyatsiz hujumidan so'ng 1896-yil yanvarda Vilgelm II namoyishkorona prezident Kryugerga tabrik telegrammasi

yubordi. Transvaalni o'z mulki deb hisoblagan Angliyada Kayzerning bu telegrammasi ig'vogarlikdan iborat qadam deb kutib olindi. Yaqin va o'rta Sharq ham o'sha davrdagi ikki imperialistik yirtqichning raqobat doirasidan chetda qolmagan edi.

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida kapitalistik dunyo mustamlakachilik zulmiga qarshi qaratilgan kuchli xalq harakatiga duch keldi. 1900-yilda Xitoyda xalq qo'zg'oloni boshlandi. Qo'zg'olonchilar Pekinni bosib olib, "elchixonalar" kvartalini qamal qila boshladilar. Qo'zg'olonni bostirish uchun xalqaro jazo korpusi yuborilib, uning sostavida barcha yirik kapitalistik davlatlar bor edi. 1900-yil 15-avgustda xalqaro "jazolovchilar" Pekinni ishg'ol qildilar. Qo'zg'olon misli ko'rilmagan sxavfqatsizlik bilan bostirildi. Pekindagi saroylar va ibodatxonalar chet el ofitserlari tomonidan talandi. Xitoyning imperator hukumati imperialistik davlatlarning hukumatlari bilan muzokara boshlashga va yakunlovchi protokol deb atalgan shartnomaga qo'l qo'yishiga majbur bo'ldi. Xitoy hukumati Xitoyning milliy iftixorini oyoqosti qilgan turli xil shartlarni qabul qilishdan tashqari, imperialistik davlatlarga "qo'zg'olon natijasida chet elliklarning ko'rgan zarari evaziga" anchagina kontributsiya to'lashga, shuningdek, Xitoyga qurol olib kirishni man qilishga rozilik berdi. Qo'zg'olon paytida Rossiya o'z qo'shinlari bilan Man'chjuriyaning bir qismini bosib oldi. Angliya Xitoyni asoratga solishda chet el kapitalining faol ish ko'rayotgan asosiy markazi bo'lgan Shanxayni bosib oldi. Ingliz imperializmi Shanxayni egallab turishi va Yanszi daryosi vodiysida kuchli ta'sirga ega bo'lishga qoniqmay, chor Rossiyani Manchjuriyadan siqib chiqarmoqchi bo'ldi. Ingliz hukumati shu maqsadda Germaniyadan foydalanishga o'rinib ko'rdi, lekin bundan hech nima chiqmadi. Rossiyaga qarshi ittifoq to'g'risida Germaniya bilan olib borilgan muzokaralar mutaffaqiyatsiz tugadi. Biroq ingliz imperialistlari Rossiyaga qarshi chiqishga tayyor turgan ittifoqchi sifatida Yaponiyani tayyorladilar. Yaponiya Koreya bilan Manchjuriyani bo'ysundirib, ekspansiyasini yana davom ettirish uchun platsdarm tayyorlamoqchi edi.

1902-yilda tuzilgan ittifoqchilik shartnomasiga muvofiq, bu davlatlarning biron-tasi uchinchi davlat bilan urush holatiga tushib qolsa, ikki tomon ham qat'iy

betaraflikka rioya qilishga va'da berdilar. Agar ittifoqdagi bir tomonga ikkita davlat bilan urishishga to'g'ri kelib qolsa, ikkinchi tomon betaraf turishi emas, balki qurol bilan yordam berishni va'da qilgan edi. Shartnomadagi bu qarorlar, amalda, agar Rossiya bilan Yaponiya o'rtasida urush chiqib qolsa, Angliya boshqa davlatlarni masalan, Fransiyaning bu urushga aralashtirmaslik uchun Yaponiyani kafolatlaydi, degan gap edi. Ittifoq haqidagi shartnomadan tashqari, Yaponiya Angliyaning moliyaviy yordami bilan ta'minlandiki, busiz Yaponiya Rossiyaga qarshi Yaponiyani qo'llab, AQSh ham faol diplomatik va moliyaviy yordam berib turdi. Ingliz-yapon ittifoqi tuzilishi bilan ingliz imperialistlari Xitoyda ingliz manfaatlarini boshqalar orqali ta'minlab turish imkoniyatiga ega bo'lib qoldi. Bundan, tashqari, 1902-yilda ingliz imperializmining kuchini band qilib turgan ingliz-bur urushlari tamom bo'lgan edi. Shu vaqtga kelib, mustamlakachilik sohasidagi janjalli muammolarni hal qilish yuzasidan ingliz-fransuz muzokaralari boshlangan edi, mustamlakachilik sohasidagi bu jaljallar Fashoda inqirozi kunlarida (1898-yil kuz) ingliz-fransuz urushini chiqarishga olib kelgan edi. XX asrning dastlabki-yillaridagi strategik vaziyat ham Fransiya hukmron doiralarini Angliya bilan yaqinlashishga undadi. Fransiyaning ittifoqchisi bo'lgan Rossiyaning qurolli kuchlari va mablag'larining anchagina qismi 90-yillarning oxiridan boshlab uzoq Sharqqa jalb qilingan edi. Bu yerdagi rus ekspansiyasini Germaniya atayin rag'batlantirib Yaponiya bilan urush olib borishga undamoqda edi. Kuchlarning Uzoq Sharqda jalb qilinishi Rossiyani Yevropada zaiflashtirar, Fransiya esa Germaniya bilan urush boshlangan taqdirda yetarli kuchga ega bo'lmay qolardi.

To'g'ri, Fransiya Uchlar ittifoqini zaiflashtirib, o'z mavqeini bir muncha mustahkamlab olishga muvaffaq bo'lgan edi. Bu maqsadda u Italiya bilan yaqinlashish yo'li bilan erishdi. Italiya esa o'z navbatida Fransiya bilan olib borilgan savdo urushida juda katta zarar ko'rdi. Iqtisodiy jihatdan yaqinlashgandan so'ng Fransiya bilan Italiya o'rtasida yana ikkita bitim tuzildi. 1900-yildagi bitimga muvofiq, Fransiya Tripolitaniyada manfaatdor emasligini, Italiya esa Marokashda manfaatdor emasligini bayon qildilar. Biroq, Italiyaning betarafliigi

ta'minlangan bo'lsa xam, bu betaraflik Fransiya uchun kurash bo'lgan taqdirda Rossiya bilan harbiy ittifoqning vaqtincha bo'lsa ham o'rnini bosa olmas edi. Bu vaziyat ingliz-fransuz muzokaralari uchun qulay sharoit yaratdi.

Keyingi voqealar Fransiyaning german agressiyasidan qo'rqishi bejiz emasligini ko'rsatdi. 1904-yil oxirida german hukumati Rossiyaning uzoq Sharqda mag'lubiyatga uchraganligidan foydalanib, faqat Germaniyaning o'zi uchun qulay bo'lgan savdo shartnomasini tuzishga rus hukumatini majbur qildi. Vilgelm II bu bilan cheklanmay Nikolay II bilan Rossiya va Germaniya o'rtasida ittifoq tuzish haqida shaxsiy muzokaralar boshlab yubordi. Germaniya hukumati mavjud ahvolni hisobga olib, ingliz-fransuz Antantasiga qarshi chiqdi.

Kansler Byulov Fransiyaning qo'rqitishga va uni Angliya bilan hamkorlik qilishdan voz kechdirishga hamda Fransiyaning Marokashda mustahkamlanib olishga yo'l qo'ymaslikka o'rinib ko'rdi. Byulov Marokashning mustaqilligini himoya qilish niqobi ostida uni Germaniya ta'siridagi davlatga aylantirib qo'ymoqchi bo'ldi. Germaniya hukumati ig'vo va qo'rqitish yo'li bilan ish ko'rdi. 1905-yil 31-martda Vilgelm II namoyishkorona ravishda Marokashning Tanjer portiga bordi va u yerda nutq so'zladi. U o'z nutqida Marokashning "mustaqil" ekanligini ko'rsatish bilan, Germaniya bu mamlakatda boshqa davlatlar bilan bir qatorda teng "huquqqa" ega bo'lishni talab qilayotganligini ta'kidladi.

Buning ketidan Germaniya hukumati xalqaro konferensiya chaqirishni talab qildi. Ushbu konferensiyadan Marokash haqidagi ingliz-fransuz bitimini bekor qilish uchun foydalanishni nazarda tutardi. Agar Fransiya Germaniyaning talablarini qabul qilmasa, u bilan urushish xavfi ostida qolardi. Marokash masalasi bo'yicha xalqaro konferensiya 1906-yilning boshida Ispaniyaning Alxesiras shahrida bo'lib o'tadi. Marokashning ingliz va fransuz mustamlakachilari kelishib allaqachon belgilab qo'ygan taqdirini xalqaro konferensiyada ko'rishga, Fransiyaning rozi bo'lishi Germaniyaning yutug'i bo'ldi. Bu konferensiyaning natijalari uning mag'lubiyatga uchraganligini ko'rsatdi. Konferensiyada Germaniya yakka bo'lib qoldi. Angliya, Rossiya va hatto Germaniyaning rasman ittifoqchisi bo'lib qolgan Italiya ham konferensiyada Fransiyaning faol qo'llab-

quvvatladi. AQSh ham Fransiya qo'llab-quvvatladi.

Marokash kriizisining oqibatlaridan biri shu bo'ldiki, ingliz hukumati faqat mustamlakachilik ekspeditsiyalarida emas, balki katta Yevropa urushida ham ishtirok etish maqsadida Fransiya va Belgiyaga jo'natish mumkin bo'lgan quruqlik qurolli kuchlari tashkil qilishga qaror qilganligi bo'ldi. 1905-yilda Angliyada yangi tipdagi bronenosets kemasi qurila boshladiki, u kuchi va suzish tezligi bilan bundan oldingi kemalardan ancha ustun turardi.

Shu xildagi birinchi kemandagi nomi bilan yangi tipdagi kemalar dreadnought (inglizcha dreadnought - qo'rqmas degani) deb atala boshladi. Dreadnoughtlar paydo bo'lgandan so'ng bir linkorni qurishga ketadigan harajatlar ikki marta ko'paydi va zo'r berib qurollanishning og'irligi borgan sari ko'proq xalq zimmasiga to'sha bordi. 1908-yildan 1912-yilgacha Germaniyada har yili to'rttadan dreadnought qurish mo'ljallangan edi.

Ingliz hukumati Germaniya hukumatiga yangi harbiy kemalar qurishni cheklashni bir necha marta taklif qildi. Biroq, shu tarzda bitimga kelish faqat Angliya uchun foydali edi. Agar kemalar qurish cheklab qo'yiladigan bo'lsa, Angliya, o'zining dengizdagi mavjud ustunligini saqlab qolgan bo'lardi. Germaniya bu taklifni rad etdi. U shartnoma asosida ikki tomon floti kuchlari nisbatini tenglashtirishni taklif qildi. Bunda Germaniya o'sha vaqtdagi ikki tomon o'rtasida amalda mavjud bo'lgan nisbat bo'yicha emas, balki o'zi uchun foydali bo'lgan nisbatda kelishmoqchi bo'ldi. Ikki tomon kelisha olmadi va shundan so'ng ingliz hukumati Germaniyada qurilayotgan har bir dreadnought uchun ikkita dreadnought qurish bilan javob berishga qaror qildi. Qurollanishga ketayotgan sarflarning miqdori misli ko'rilmagan darajada oshib ketdi.

1910-yilda keskin xalqaro inqiroz yuz bermadi. Biroq, bu-yil bir qadar tinch o'tgan eng so'nggi-yil bo'ldi. 1911-yilning may oyida fransuz qo'shinlari g'alayonlarni bostirish va fransuz fuqarolarini himoya qilish bahonasi bilan Marokash poytaxti Fets shahrini bosib oldi. Fransuz imperializmi amalda Marokashni bosib olmoqda edi.

Germaniya hukumati bunga to'sqinlik qilishga qodir bo'lmay, hech

bo'Imasa moddiy jihatdan manfaatdor bo'lib qolishga qaror qildi. 1-iyulda Marokashning Atlantika qirg'og'idagi Agadir shahri yonidagi ko'rfazda "Pantera" nomli german harbiy kemasi yakor tashladi. Agadir geografik jihatdan juda qulay joylashganligi Gibraltar bo'roziga yaqin bo'lganligi uchun muhim startegik ahamiyatga ega edi. Agadir o'ziga xos bir garov bo'lib, Germaniya bu shaharni egallash bilan Fransiyani jiddiy yon berishlarga majbur qilish niyatida edi. Agar Germaniya hukumati Marokashning bir bo'lagini qo'lga kirita olmasa, buning evaziga Fransiyaning ekvatorial Afrikadagi yerlariga ega bo'lmoqchi edi. Dastlab u butun fransuz kongosini berishni talab qildi. Fransuz hukumati bu da'voni rad qildi. Natijada urush ko'lankasi paydo bo'ldi.

Fransiya-Germaniya janjaliga Angliya aralashdi. 1911-yil 12-iyulda hukumatning topshirig'i bilan jamoatchilik oldida so'zlagan nutqida Loyd Jorj Angliya Marokash masalasida Germaniyaga qarshi urushdan ham tap tortmasligini ochiq aytdi. Britaniya vazirining aytgan so'zlari Vilgelm II va uning hukumatini o'z da'volarini kamaytirishga majbur etdi. 1911-yil kuzda Germaniya Marokashdagi fransuz protektoratini tan oldi. Fransiya esa buning evaziga Kongodagi o'z yerining uncha katta bo'lmagan qismini Germaniyaga berdi.

Agadir inqirozi tugamasdanoq Italiya-Turkiya urushi boshlanib ketdi. Italiya Usmoniylar imperiyasining bir viloyati bo'lgan Tripolitaniyani bosib olishga ko'pdan harakat qilib kelardi. 1900-yilda Fransiya-Italiya shartnomasiga binoan, Italiya mustamlaka egallashga qaratilgan bu urushga Fransiyaning roziligini ta'minlab qo'ygan edi.

Italiya qo'shinlari Tripolitaniyada joylashgan zaif turk garnizonlari ustidan osonlik bilan g'alaba qozondilar. Lekin, Tripolitaniyani bosib olishini uzoq vaqtgacha tan olishga ko'nmagan edi. Biroq, Bolqonda boshlanib ketgan urush Turkiyani sulh shartnomasiga imzo chekishga va Tripolitaniyada italyan imperialistlarga berishga 1912-yilda majbur qildi.

1912-yilda Bolgariya bilan Serbiya Rossiyaning, shuningdek, Antantaga kirgan boshqa davlatlarning vositachiligi bilan o'zaro ittifoq bo'lish haqida shartnoma tuzdilar, holbuki, bu ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar shu davrgacha

ko'pincha dushmanlik ruhida bo'lib kelgan edi. Ko'p o'tmay, Serbiya bilan Bolgariyaga Gretsiya bilan Chernogoriya qo'shilib, Bolqon ittifoqini tashkil etdilar. Bo'larning hammasini Usmoniylar imperiyasiga qarshi kurashish uchun birlashtirgan edi, chunki hali ko'pgina slavyanlar va greklar bu imperiya zulmi ostida yashardilar.

Bolqon ittifoqi davlatlari Turkiyaga qarshi urushni 1912-yil oktyabrda boshladilar. Rossiya bo'larning urush boshlanganliklarini ma'qullamadi, chunki Rossiyaga Bolqon bloki Turkiyaga qarshi urush uchun emas, balki Germaniya va Avstriya-Vengriyaga qarshi kurashish uchun zarur edi. Lekin, Rossiya o'zini katta Yevropa urushiga tayyor emas, deb hisoblardi.

Turkiya tez fursatda tor-mor qilindi. Bolgar qo'shinlari Konstantinopol tomon yo'l oldilar, yunon qo'shinlari Salonikini ishg'ol qildilar, serblar esa Makedoniyaning katta qismini ya'ni Shimoliy Albaniyani va Novipadar hududini bosib oldilar.

1913-yilda Turkiya sulh tuzishni so'radi. Bo'lajak sulh, shartlari haqida muzokaralar boshlanib ketdi. Muzokaralar uzoq davom etdi, bir necha bor kelishmovchiliklar chiqib, murakkablashdi va natijada Bolqonda yangi urush yoki hatto Yevropa urushi boshlanib ketish xavfi tug'ildi. Serbiya dengizga chiqadigan yo'lga ega bo'lish uchun Shimoliy Albaniyani talab qildi. Biroq, u Avstriya-Vengriya Serbiyadan o'z da'vosidan voz kechishni talab qildi. Avstriya-Vengriya hukumati Serbiyaga qarshi urushish bilan tahdid soldi va hatto o'z armiyasini qisman safarbar qildi. Chor hukumati urushga tayyorgarligi bo'lmaganligi uchun, Bosniya inqirozi kunlaridagidyoq, Avstriya-Vengriya bilan bo'lgan janjalda Serbiyani quvvatlagan bo'lsa ham urush chiqarmaslikka harakat qildi.

Serbiya yana yon berdi. Serbiyaning dengizga chiqish yo'lini qo'lga kiritmoqchi bo'lib, kelgusi 1913-yil kuzda qilgan yana bir o'rinishi bir tomondan Avstriya-Vengriya va Germaniya, ikkinchi tomondan, Serbiya va uni qo'lab-quvvatlagan Rossiya o'rtasida yanada keskinroq, janjal chiqishiga olib keldi.

1914-yil yanvarda harbiy harakatlar yana boshlanib ketdi, lekin turk qo'shinlari yangidan-yangi mag'lubiyatga uchrayverdilar. Turkiya yana sulh,

tuzishni so‘radi.

O‘sha davrdagi notinch vaziyatda har bir xalqaro janjal jahon urushiga olib kelishi juda oson edi. 1911-1913-yillardagi siyosiy inqirozlar umumiy urushga olib kelmadi, lekin har gal ham tinchlik qil ustida turardi. 1914-yildagi inqiroz ana shu qilning o‘zilishiga olib keldi.

1914-yil 28-iyunda Serb millatchilik tashkilotining agentlari Sarayevoda Avstriya taxt vorisi Frans-Ferdinantni o‘ldirdilar. Avstriyadagi harbiy partiya ulug‘ serbchilik harakatining bu yangi ko‘rinishidan Serbiyani tor-mor qilish uchun bahona sifatida foydalanishni talab qilib chiqdilar. Biroq avval german hukumatining bu haqdagi fikrini bilishga qaror qilindi, chunki Serbiya bilan urush boshlash Rossiyaning aralashuviga olib kelishi oson ekanligini Avstriya-Vengriyada yaxshi tushunardilar.

25-iyulda Serbiya bosh vaziri Pashich Avstriya elchisiga javob qaytarib unda serb hukumati ultimatumining Serbiya uchun juda haqoratli bo‘lgan bitta shartidan tashqari hamma shartlarini qabul qilishga rozi ekanligi aytilgan edi. Serbiyaning yon berishiga qaramay, Avstriya-Vengriya elchisi diplomatik aloqalarni o‘zib, darhol shu shartni bajarishni talab qildi. German harbiylari tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgan Avstriya-Vengriya hukumati vositachilik takliflarining hammasini rad qildi. Avstriya-Vengriya o‘z qurolli kuchlarining ko‘pchilik qismini safarbar qilib, 28-iyulda Serbiyaga urush e‘lon qildi. 29-iyulda rus hukumati qisman safarbarlik o‘tqazishga, Avstriya-Vengriyaga qarshi harakat qilishi mo‘ljallangan qismlar to‘planadigan harbiy okruglarnigina, shuningdek, Qora dengiz va Boltiq dengizi flotlarini safarbar qilishga qaror qildi.

29-iyulgacha Berlinda Angliyaning betaraf qolishiga umidvor edilar. Biroq 29-iyulda Angliya tashqi ishlar vaziri Grey Germaniya elchisiga, agar qit‘adagi urushga Germaniya bilan Fransiya ham tortilsa, Angliya Fransiya tomonida turib urishadi, deb to‘g‘ridan-to‘g‘ri aytdi.

Agar shu kunga qadar Germaniya urush chiqarish uchun har tomonlama harakat qilib kelgan bo‘lsa, endi german kansleri, kechiqib bo‘lsa ham avstraliyaliklarni biron-bir yo‘l topib, kelishishga rozi qilish uchun o‘rinib ko‘rdi.

Ammo Betman-Golvegning qo‘rqa-pisa qilayotgan harakati ham german bosh shtabi tomonidan bo‘g‘ib qo‘yilgan edi.

Bu shtabning boshlig‘i kichiq Moltke harbiy harakatlarni tezroq boshlashni talab qilib chiqdi. U bunday muzokaralar hech qanday natija bermaydi va foydasizdir, bu muzokaralarning cho‘zilib ketishi Germaniyani urushning dastlabki haftalarida imtiyozlardan, ya’ni ruslar safarbarligi cho‘zilib ketganligi orqasida qo‘lga kiritiladigan imtiyozlardan mahrum qiladi, deb hisobladi.

29-iyulda german hukumati, Rossiya boshlagan harbiy tayyorgarlik to‘xtatilmasa, Germaniya safarbarlikka kirishadi, deb do‘q urdi. Lekin, rus hukumati 30-iyulda umumiy safarbarlik e‘lon qildi. O‘sha kuniyoq Avstriya-Vengriya hukumati ham, Rossiyada safarbarlik boshlanganligidan bexabar umumiy safarbarlik e‘lon qildi. 31-iyulda german hukumati harbiy tayyorgarlikni to‘xtatishni talab qilib Rossiyaga ultimatum topshirdi. Rus hukumati bunga rad javobi qaytardi va shundan so‘ng 1-avgustda Germaniya Rossiyaga urush e‘lon qildi. 3-avgustda german hukumati soxta bayonnomalarga asoslanib, Fransiyaga urush e‘lon qildi. Germaniya armiyasi Shliffen rejasiga muvofiq, Belgiyaning betarafligini buzib, Belgiya hududi orqali Fransiyaga yo‘l oldi.

4-avgustda Grey Berlinga ultimatum yuborib, Belgiyaning betarafligini hurmat qilishga qat’iy va’da berishni talab qildi. Belgiyaning betarafligi masalasi faqat bahona bo‘ldi, ingliz imperialistlari urushda qatnashayotganliklarini oqlash va jamoatchilik fikrini aldash uchun bu bahonadan foydalanishni lozim ko‘rdilar. Angliya o‘z ultimatumiga javob olmagach, 4-avgustdan 5-avgustga o‘tar kechasi Germaniyaga qarshi urushga qo‘shildi. Birinchi jahon urushi ana shu yo‘sinda boshlanib ketdi. Bu urush ikki imperialistik guruh: o‘rtasidagi raqobat natijasi bo‘ldi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Bismark diplomatiyasining o‘ziga xos xususiyatlarini tushuntirib bering.
2. Bismarkning fikricha, Germaniya birlashgach, Germaniya-Avstriya munosabatlari qanday bo‘lishi kerak edi?
3. XIX asrning 60 yillarida sodir bo‘lgan asosiy voqealar nimalardan iborat edi?

4. XIX asrning oxiridagi xalqaro siyosiy axvol xakida gapirib bering.
5. Nega XIX asr oxirida Fransiya-Rossiya ittifoqi vujudga keldi?
6. Lord Solsberi davrida Angliya tashqi siyosatining o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida ma'lumot bering.
7. "Birinchi Bolqon urushi" va "Ikkinchi Bolqon Urushi" lari xalqaro munosabatlarda qanday o'zgarishlarga olib keldi?
8. Birinchi jahon urushiga boshlanishiga bahona bo'lgan voqea haqida so'zlab bering.
9. XIX asrning so'nggi choragiga kelib ingliz-german qarama-qarshiligining yanada ko'chayishiga nimalar bo'ldi?
10. "Berlin traktati" deb nom olgan xalqaro hujjatning mohiyati haqida so'zlab bering.

5-MAVZU. BIRINCHI JAHON URUSHINING DIPLOMATIK TAYYORLANISHI VA URUSH YILLARIDAGI DIPLOMATIK KURASH

Reja:

- 5.1. Birinchi jahon urushining kelib chiqishi va borishi**
- 5.2. Yaponiya va Turkiyaning urushga tortilishi.**
- 5.3. 1915-1916 yillardagi harbiy harakatlar va urushuvchi tomonlarning o‘zaro diplomatiyasi.**
- 5.4. 1917-1918 yillardagi harbiy harakatlar. AQShning urushga qo‘shilishi.**
- 5.6. Birinchi jahon urushining tugashi va uning og‘ir oqibatlari.**

Tayanch tushunchalar. *Sareyeva voqeasi. Marna jangi. Dardanel operatsiyasi. Ingliz diplomatiyasi muvaffaqiyati. Italiyaning Uchlar ittifoqidan chiqishi. London kelishuvi. Buyuk chekinish. Birinchi jahon urushi davrida AQSH diplomatiyasi. To‘rtlar ittifoqining tuzilishi. Bolgariyaning urushga tortilishi. Verdin qirg‘ini. Nevill qirg‘ini. Rossiyada podshoh hokimiyatining ag‘darilishi. Rossiyaning urushdan chiqishi. Brest-Letovsk sulh shartnomasi. General Fosh ning harbiy rejasi. Bolgariyaning taslim bo‘lishi. Avstra-Vengriya va Turkiyaning urushdan chiqishi. Germaniyada inqilobning boshlanishi. Germaniyaning taslim bo‘lishi. Birinchi jahon urushi oqibatlari.*

5.1. Birinchi jahon urushining kelib chiqishi va borishi

Birinchi jahon urushi unda qatnashgan hamma davlatlar uchun ham imperialistik bosqinchilik va adolatsiz urush bo‘ldi. Faqat Serbiya va Belgiya uchun bu urush bir qadar milliy ozodlik urushi bo‘ldi. Biroq, bu narsa urushning umumiy harakterini o‘zgartira olmas edi, chunki urushning umumiy harakteri dunyoni yangidan qayta taqsimlash uchun, dunyoda hokim bo‘lish uchun kurashayotgan buyuk imperialistik davlatlarning qatnashishi bilan belgilanar edi.

German imperialistlari o‘z foydalarini ko‘zlab, dunyoning butunlay qayta taqsimlashga urush yo‘li bilan erishmoqchi bo‘ldilar. Germaniyaning bosqinchilik dasturi Pangerman ittifoqining 1914-yil 28-avgustda e‘lon qilgan talablarida o‘z

aksini topgan edi. Bu talablar quyidagilardan iborat edi:

Rossiyaning tabiiy qazilmalarga boy bo'lgan va nemis kolonistlarini ko'chirib kelishga yaraydigan katta-katta unumdor hududlarini bosib olish, sanoat mamlakati bo'lgan Belgiyani anneksiya qilish va uning Afrikadagi Kongo mustamlakasini qo'lga kiritish, fransuzlarning Longvi va Bris temir ruda havzalarini anneksiya qilish va Fransiya bilan tuzgan chegarani Belfor, Tul, Verden shaharlari va Somma daryosidan G'arbroqdagi liniyaga ko'chirish, shuningdek, Fransiya mustamlakalarini bosib olish, Angliyaning dengizdagi hukmronligiga chek qo'yish, jahon bozorlarida ingliz konkurepsiyasini zaiflashtirish, dengizlardagi tayanch punktlarga ega bo'lish va ingliz mustamlakalarini bosib olish, yengilgan davlatlardan milliardlab kontributsiya olish, barcha dushmanlarni zaiflashtirib, "Buyuk Germaniya" ning chetdan hech qanday to'sqinlik sezmay o'n yilliklar davomida taraqqiy etishini ta'minlashdan iborat edi.

Avstriya-Vengriya imperialistlarining bosqinchilik dasturi Serbiyani anneksiya qilish va Bolqonda Avstriya-Vengriya monarxiyasining hukmronligini o'rnatishdan, Rossiyadan Polsha podsholigi, Podoliya va Volinni tortib olishdan iborat edi. Avstriya-Vengriya imperialistlari milliy ziddiyatlar tufayli ajralib ketayotgan gabsburglar monarxiyasini mustahkamlashning birdan-bir vositasi, 30 million kishini tashkil qilgan slavyanlar, ruminlar va italyanlarni yanada ezish mumkinligining garovi deb qaradilar. Bu ishlarning amalga oshirilishidan Germaniya ham manfaatdor edi, chunki u Avstriya kapitali bilan chambarchas bog'langan german kapitalini Bolqonga, Egey dengizi rayonlariga Turkiyaga eksport qilish uchun keng imkoniyat ochib berar va Markaziy davlatlar bilan Eron ko'rfazigacha cho'zilgan hududda to'g'ridan-to'g'ri aloqa o'rnatish imkoniyatini yaratar edi.

Rossiya imperialistlari, rus pomeschchilari va burjuaziyasining urushdan maqsadi Germaniyaning qudratini sindirish, Galitsiyani, Nemanning quyi oqimini Rossiyaga qo'shib olish, Konstantinopol va bo'g'ozlarni bosib olishdan iborat edi.

Ingliz burjuaziyasi nihoyatda tez taraqqiy qilayotgan german raqibining

iqtisodiy va siyosiy qudratini zaiflashtirishga, Germaniyaning harbiy dengiz va savdo flotini yo‘q qilishga, neft konlariga boy bo‘lgan Mesopotamiya va Arabiston yarim orolini bosib olishga hamda Germaniyadan uning mustamlakalarini tortib olishga erishmoqchi bo‘ldi.

Fransiya imperialistlari ham Germaniyaning harbiy, iqtisodiy va siyosiy qudratini sindirish maqsadini ko‘zladagi. Ular Fransiyadan 1871-yilda tortib olingan Elzas va Lotaringiya hududlarini qaytarib berishini talab qilib qolmay, balki Germaniyadan Reyn daryosining chap qirg‘og‘idagi yerlarni olib berishni, Fransiyaga Saar viloyatini qo‘shib berishni, Suriya, Falastinni va boshqa arab hududlarini bosib olishni, Germaniya mustamlakalarini qo‘lga kiritishni talab qildi.

Urushning dastlabki oyida urushuvchi davlatlarning kuchlari quyidagicha edi: bir tomonda Angliya, Fransiya, Rossiya, Serbiya va majburan urushga tortilgan Belgiya turgan bo‘lsa, ikkinchi tomonda Germaniya bilan Avstriya-Vengriya turardi.

1914-yil avgust oyining o‘rtalarida Germaniyaga qarshi Yaponiya ham urush e‘lon qildi. Davlatlarning ikkala blokida moddiy va odam potentsiallari bir xil emas edi. Germaniyaning harbiy tayyorgarligi Antanta mamlakatlari harbiy tayyorgarligidan yuksakroq edi. Uning armiyasi artilleriya bilan yaxshiroq qurollangan va unda yaxshi ta‘lim olgan ofitser hamda unterofitser kadrlar ko‘proq edi.

Germaniya bilan Avstriya-Vengriya urushning dastlabki haftalaridan boshlab, dengizda Antanta tomonidan qamal qilindi. Bu ikki mamlakat faqat o‘zlarida mavjud bo‘lgan iqtisodiy resurslardangina foydalanishi mumkin edi; urush boshlarida ularning bu resurslariga nemislar bosib olgan Lyuksemburg, Belgiya va Shimoliy Fransiyaning o‘nta sanoat departamentidagi sanoat resurslari, 1915-yilning ikkinchi yarmidan boshlab esa rus Polshasi, Litvasi, shuningdek, Kurlyandiya va Serbiyaning qishloq xo‘jalik va sanoat resurslari qo‘shildi. Germaniya betaraf qo‘shni mamlakatlardan, shuningdek, Ruminiya, Bolgariya, Turkiyadan resurslar olib kelish imkoniyatiga ega edi, xolos.

Angliya bilan Fransiya esa, aksincha son-sanoqsiz mustamlakalar va

dominionlarining xom ashyo va oziq-ovqat boyliklaridan foydalanish imkoniyatiga ega edi.

1914-yil avgustda Yevropada uchta front tashkil etilgan edi. Shimoliy dengizdan Shveysariyagacha cho‘zilgan G‘arbiy frontning o‘zunligi 700 kilometr dan ortiq edi. 4-avgustda german armiyasi Belgiyaning betarafligini qo‘pol ravishda buzib, uning hududiga bostirib kirdi. O‘ng qanoatdagi uchta nemis armiyasi belgiyaliklarning jasorat bilan ko‘rsatayotgan qarshiligini yengib, deyarli butun Belgiyani egallab oldi va tez harakat qilib, fransuzlarning chap qanotini o‘rab ola boshladi. Fransuzlar o‘zlarining chap qanotlarini tezlik bilan qayta guruhlashga kirishdilar. Fransuz armiyasi chap qanoti boshida Fransiya olib kelingan 80 ming kishilik ingliz ekspeditsion korpusi harakat qilmoqda edi. 21-avgustda Germaniyaning asosiy kuchlari Fransiya kuchlari va ingliz ekspeditsion korpusi bilan Belgiya-Fransiya chegarasida to‘qnashdi. Kuch jihatdan germanlar ustun edi. Shelda va Mozel daryolari oralig‘ida 250 km.lik front bo‘ylab boshlangan va tarixda “chegara jangi” deb nom olgan jang 25-avgustgacha davom etdi va ittifoqchilar, ya’ni fransuzlar va inglizlarning chekinishi bilan tugallandi.

Germaniya bosh qo‘mondonligi “chegara jangi” dan so‘ng, fransuzlar tor-mor qilindi va G‘arbdagi urush Germaniya foydasiga hal bo‘ldi, deb hisobladi. Aslida esa, fransuz armiyasi mutlaqo tor-mor qilinmagan edi va u o‘z kuchlarini qayta guruhlab, qarshi hujumga tayyorlanmoqda edi. 27-avgustda german armiyasi yana hujum boshladi. O‘ng qanotdagi armiyalarga fransuz armiyasining chap qanotiga chuqur kirib borib, ularni o‘zil-kesil tor-mor qilish vazifasi topshirilgan edi. Biroq, bu vazifa bajarilmay qoldi. German qo‘shinlarining o‘ng qanoti dushmanning qarshiligini yengib, fransuzlar chap qanotini o‘rab olishga qodir bo‘lmay qoldi. Ko‘p talofat berilishi va ayniqsa ikkita korpusning Sharqiy frontga jo‘natilishi natijasida german qo‘shinlari ancha zaiflashib qoldi. Ular o‘ng qanotni Parij tomonidan hujum qilib kelayotgan fransuz kuchlarining zarbasi ostida qoldirib, frontni qisqartirishga va Parijdan sharqroqda hujum boshlashga majbur bo‘ldilar.

1914-yil 4-sentyabr kuni kechqurun nemis qo‘shinlari Parijning janubi-

sharqidagi Marna daryosiga chiqib, undan kechib o'ta boshladilar. 5-sentyabr kuni tong paytida fransuz va inglizlar qat'iy qarshi hujumga o'tdilar. 1-nemis armiyasining o'ng qanotiga to'satdan zarba berildi va 1-german armiyasi bilan 2-german armiyasi o'rtasida 50 kmlik bo'shliq paydo bo'lib, uni faqat otliq askarlar to'sib turgan edi. Bu bo'shliqqa ingliz ekspeditsion korpusi va fransuzlarning 5-armiyasining bir qismi yorib kirdi. German qo'shinlari qanotlardan o'rab olish xavfidan qutulish uchun 9-sentyabr ertalab Marna daryosining o'ng qirg'og'iga chekinishga majbur bo'ldilar. Shu kuni kechqurun german o'ng qanotidagi beshta armiyaning hammasi shimoliy-sharq tomon Yeva daryosiga chekindi.

Marna daryosidagi jangda Germaniyaning Fransiyani yashin tezlikda tor-mor keltirishni ko'zda to'tgan reja barbod bo'ldi. Marnadagi janglar yakuni Germaniyaning yashin tezligidagi urushdan voz kechishga olib kelgan edi, buning esa Germaniya uchun halokatli ekanligi ravshan bo'lib qolgan edi. Shliffen g'oyasiga asoslangan german operativ rejasi to'la muvaffaqiyatsizlikka uchragan edi. Mag'lubiyatga uchrashning asosiy sababi rejaning avantyuristik tarzda tuzilganligi edi, german imperializmi o'z kuchiga ortiqcha baho berib va dushmanlari kuchiga yetarli baho bermay, real imkoniyatlarga javob bera olmaydigan maqsadlarni ko'zda tutgan edi. German armiyasi mag'lubiyatga uchraganligining eng muhim sabablaridan biri shu bo'ldiki, urushning dastlabki haftalarida G'arbiy va Sharqiy frontlar bir-biriga bog'langan holda jang qila boshladi hamma ittifoqchilar Fransiyani qutqarish uchun va dushmanlarni yakka-yakka holda yashin tezligida tor-mor keltirishga qaratilgan german rejasini barbod qilish uchun Rossiya juda katta qurbonlar berdi.

Rus qo'shinlarining Sharqiy Prussiyadagi muvoffaqiyatsiz, lekin Antantani qutqarib qolgan hujumi bilan bir vaqtda Ruminiya bilan Polshada katta-katta janglar bo'ldi, unda rus qo'shinlariga qarshi Avstriya-Vengriyaning asosiy kuchlari turardi. 23-avgustdan boshlab Polshada rus va Avstriya-Vengriya armiyalarining katta muqobil janglari boshlandi. Bu janglar sentyabrning boshida Avstriya-Vengriya qo'shinlarining mag'lubiyati bilan tugadi. Ayni bir vaqtda Janubiy-G'arbiy frontdagi rus armiyalari dushmanning qarshiligini yengib, muvoffaqiyatli

ravishda olg'a siljidilar va 3-sentyabrda Lyuvovga kirib bordilar.

Sentyabr oyining oxirida german armiyalari Avstriya-Vengriya armiyalari bilan birgalikda Karpat tog' etaklaridan Bzura daryosining yuqori oqimigacha cho'zilgan keng front bo'ylab urush boshladi. Urushning manyor qilish davridagi eng yirik janglardan biri bo'lgan bu Varshava-Ivangorod operatsiyasi rus qo'shinlarining g'alabasi bilan tugallandi. Biroq, ular to'p o'qlari yetishmaganligi sababli erishilgan g'alabani davom ettira olmadilar.

5.2. Yaponiya va Turkiyaning urushga tortilishi.

Yevropada urush boshlanishi bilan Uzoq Sharqda yapon imperializmi uchun qo'lay sharoit vujudga keldi. Yaponiyaning Xitoyni bosib olishdagi raqiblari bo'lgan imperialistik davlatlar urush bilan band bo'lganliklari uchun yaponlarga bosqinchilik rejalarini amalga oshishga halaqit berolmadilar.

Yaponiya bu vaziyatdan foydalanib 15-avgustda Germaniyaga ultimatum topshirdi va unda Xitoydan "ijaraga olingan" Szyao-Chjau hududini go'yo keyinchalik, Xitoyga qaytarish uchun, Yaponiyaga berishni talab qildi. Germaniya bu talabni qondirishdan bosh tortdi va 23-avgustda Yaponiya Germaniyaga urush e'lon qildi.

Sentyabr oyining boshlarida Yaponiya bilan Angliya birlashib Sindao qal'asini qamal qilishga kirishdilar. Bundan oldinroq, Yaponiya Germaniyaga qarashli Marshal, Korolina va Marian orollarini egallab olgan edi. 7-noyabrda Sindao qal'asi taslim bo'ldi. Yaponiyaning 1914-1918-yillardagi urushda qatnashishi ana shular bilan cheklangan edi. Biroq, Yaponiyaning bu urushda "qatnashishi" unga xitoylarning juda boy Shandun viloyatini bosib olishga, Xitoyning o'sha vaqtdagi sotqin reaksion hukumati ustidan nazorat o'rnatishga, Tinch okeanining G'arbiy qismida urush vaqtida mutloq xo'jayin bo'lib olishga va bundan tashqari, Xitoy bilan savdo qilish hamda ittifoqchilarga qurol sotish orqasidan 100 millionlab foyda olishga imkon berdi.

1914-yil 2-avgustda Konstantinopolda Germaniya bilan Turkiya o'rtasida ittifoq to'g'risida maxfiy bitim tuzildi, bu bitimga binoan, Turkiya Markaziy

Yevropa davlatlari tomonida turib urushga qatnashish majburiyatini oldi. Germaniya rus Zakavkaziya va Shimoliy Kavkazni, Bolqondagi turklar qo‘lidan ketgan hududlarning bir qismini, Egey dengizidagi orollarni Turkiyaga qo‘shib berishga va unga pul kontributsiyasi olib berishni va’da qilishga majbur bo‘ldi.

Turkiya suvlariga “Geben” va “Breslau” kemalarining kelishi bilan Qora dengizdagi harbiy flotlar nisbatida Rossiyaning kuchi zaiflashdi. Bu esa turk hukumatining Anvar poshsho boshchiligidagi eng avantiyurist va urushqoq qismiga Germaniya ta’sirini mustamkamlash va uni o‘ziga bo‘ysundirish imkoniyatini berdi. Turkiya Antanta hukumatlari bilan muzokaralar olib borayotgan paytda, general Lifan fon Sanders Turkiyaning urush rejasini tuzib tamomladi. Bu reja bo‘yicha Misrni va Kavkazni bosib olishni, ruslar bilan inglizlarni Erondan haydab chiqarishni ko‘zda to‘tgan edi. Bu o‘z navbatida, Eronning german imperializmi tomonidan asoratga solinishi uchun sharoit yaratib berishi lozim edi. Turklar safarbarlikni tamomlagandan so‘ng, urush e‘lon qilmay turib harbiy harakatlarni boshlab yubordilar.

1914-yil 29-oktyabrda “Geben” va “Breslau” kemalari Xeodasiya hamda Sevastopolni to‘pga tutdilar, turk kemalari Odessa, Novorossiysk, Kerch yonida paydo bo‘lib, bir necha rus kemalarini g‘arq qildilar. Turkiya bilan Antanta davlatlari o‘rtasidagi urush ana shu tarzda boshlangan edi. Sekin-asta yangi frontlar: Kavkaz, Mesopotamiya, Falastin-Suriya frontlari vujudga keldi.

Turkiya o‘z dushmanlariga qarshi yarim millionga yaqin soldat qo‘yib, Yevropadagi asosiy frontlardan 500 mingdan 800 minggacha rus va ingliz askarlarini o‘ziga jalb qildi. Rossiya-Turkiya fronti Zakavkazyada katta ahamiyatga ega bo‘ldi, Saraqamish yonida 9-dekabrden 24-dekabrgacha davom etgan jangda 3-turk armiyasi son jihatdan ancha kam bo‘lgan rus qo‘shinlari tomonidan tor-mor qilindi. Turklarning Eron Ozorbayjonida erishgan dastlabki muvaffaqiyatlari ham rus qo‘shinlari tomondan Tabrizning olinishi bilan tugatildi.

5.3. 1915-1916 yillardagi harbiy harakatlar va urushuvchi tomonlarning o'zaro diplomatiyasi.

Ikkala koalitsiya o'rtasida diplomatiya kurashi boshlangan paytdan Bolgariyani urushga tortish masalasi muhim o'rin egallagan edi, ammo bu kurash har qaysi tomon uchun bir xil sharoitda o'tmadi. Bolgariyaning podsho Ferdinand va Rodoslavov boshchiligidagi hukmron to'dasi urushning boshidanoq Germaniya va Avstriya-Vengriya bilan Rossiyaga va Serbiyaga qarshi kurashmoq uchun til birlashtirgan edi. Bolgariya hukumati o'z hududidan qurol-aslaha ortilgan transportlarni Turkiyaga o'tkazib turdi va o'zining chet ellardagi diplomatik va harbiy razvetkasini Antanta mamlakatlardagi ahvol to'g'risida Germaniyaga axborot berib turuvchi manbaga aylantirdi. Urushning o'n besh oy davomida Germaniyaga va uning ittifoqchilariga yashirin ravishda yordam berib turgan Bolgariya rahbarlari muzokaralar olib borishdan qaytmadilar. 1915-yil 6-sentyabrda Avstriya - Bolgariya - Germaniya o'rtasida ittifoq to'g'risida shartnoma imzolandi va bu shartnoma Avstriya-Germaniya-Turkiya blokini "To'rt davlat ittifoqi"ga aylantirdi.

Sentyabr oxiriga kelib, Bolgariya Serbiya chegarasida 300 mingga yaqin qo'shin to'pladi, Serbiya-Avstriya chegarasida 350 ming Avstriya va Germaniya qo'shini to'plab qo'yildi. Serbiya mag'lubiyatga uchrach, german diviziyalari Serbiyadan Vengriyaga ko'chirildi. Avstriya-Vengriya qo'shinlari 1915-yilning qishida Chernogoriya va Albaniyaga hujum qilishni davom ettirib, bu mamlakatlarni okkupatsiya qildilar.

1915-yilning oxirida Gretsiyaning urushda qatnashishi aktual masala bo'lib qoldi. Venizelos boshchiligidagi liberal partiya Gretsiyaning Antanta tomonidan urushga kirishishiga tarafdori edi. Yunon burjuaziyasining Antanta tarafdorlari bo'lganlar Konstantinopolni da'vo qilishigacha borib yetdi. Bu hol Angliya va Fransiya diplomatiyasini Rossiyaning achchig'ini chiqarib qo'ymaslik uchun ehtiyotkorlik bilan ish ko'rishlariga majbur qildi. Venizelos hukumatini Gretsiyaning ma'lum tortiq evaziga Antanta tomonga o'tish to'g'risida Antanta bilan kelishay deb turgan paytida korol Konstantin 1915-yilning martida

Venizelosni iste'foga chiqarib, parlamentni tarqatib yubordi. Venizelos Salonikida Antanta ko'magi bilan o'z hukumatini tuzdi. 1917-yilning oxirida Gretsiya Venizelos qo'l ostiga birlashtirilib, Antanta tomonida urushga kirdi.

Ittifoqchi davlatlar bosh shtablari vakillarining Shaptiyda 1915-yil dekabrda bo'lib o'tgan konferensiyasi 1915-yilda asosiy frontlarda ittifoqchi armiyalarining muvofiqlashib olib bormagan harakatlarini nazarga olib ittifoqchilarning 1916-yilda harbiy operatsiyalar olib borishga oid umumiy rejasini tasdiqladi. 1916-yil 21-fevralda german qo'shinlari Verden mudofaachilari ustiga mislsiz darajasida ko'p cho'yan, po'lat, yondiruvchi snaryadlarni, zaharli moddalar yog'dirdi. Shunga qaramay Verden qutqarib qolindi.

1916-yilda Germaniya zo'r berib dengizda g'alaba qozonishga o'rinib ko'rdi. Germaniyaning suv usti floti ochiq dengizga chiqishga jur'at qila oldi. 1916-yil 31-mayda german qo'mondonligi Germaniyani bo'g'ib turgan dengiz qamalini yorib o'tishga va ochiq dengizda ingliz flotiga hal qiluvchi zarba berishga o'rinib ko'rdi. 1917-yil 15-mayda Avstriya-Vengriya Tirolida ital'yan armiyasiga qarshi katta hujum boshladi. Avstriya armiyasining Venetsiya tekisligiga yorib chiqish va Izonsodagi italyan armiyasining orqasida paydo bo'lib qolish xavfi bor edi. 4-iyunda rus Janubiy-G'arbiy frontining qo'shinlari Avstriya-Vengriya armiyalariga qarshi katta hujum boshladilar.

Ruslarning Janubiy-G'arbiy fronti o'tkazgan hujum operaniyasi butun jahon urushi davomidagi eng muhim voqealardan bo'ldi va urushning yakuniga juda katta ta'sir ko'rsatdi. Frontlardagi muvafaqiyatsizliklar german oliy qo'mondonligi tarkibiga ikkinchi marta o'zgarish yasashga olib keldi. 1916-yil avgustda general Falkengeyn iste'fo berdi, o'rniga general-feldmarshal Gindenburg tayinlandi, ayni vaqtda general-kvartermeyster vazifasiga general leteynant Lyudendorf tayinlandi. Bu generallar Germaniya barcha qurolli kuchlarini oliy qo'mondoni edilar. Shu ikki general uch yillik urush davomida holdan toygan mamlakatni haddan tashqari zarar ko'rishga majbur qildilar.

1914-yil 1-oktyabrda Rossiya Ruminnya bilan maxfiy bitim tuzdi, bu bitimga ko'ra Rossiya Ruminiya hududini daxlsizligini kafolatladi va "Ruminiya

istagan paytda Avstriya-Vengriya monarxiyasining ruminlar yashaydigan viloyatlarni qo‘shib olish huquqiga ega ekanligini e‘tirof qildi” Ruminiya buning evaziga Rossiyaga nisbatan xayrihohlik betarafiligini saqlashga va‘da berdi.

1916-yilda rumin armiyasining jangovorlik kuchi yetarli emasligini to‘g‘ri baholagan rus qo‘mondonligi ittifoqchilar uchun Ruminiyaning betaraf bo‘lib turishi muhimroq deb hisobladi. Shu yil 17-avgustda Ruminiya Antanta davlatlari bilan bitim tuzdi, unga ko‘ra Ruminiyaning Transilvaniya, butun Bukovinani va Banatni qo‘shib olish huquqini e‘tirof qildi. Ruminiya 1916-yil 27-avgustda Avstriya-Vengriyaga urush e‘lon qilindi. Ruminiya armiyasi Transilvaniyaga bostirib kirdi, biroq 6-sentyabrdayoq bolgarlar Dobrujada ruminlarni jiddiy mag‘lubiyaga uchratdilar. Sentyabr oyining oxirida Avstriya-Germaniya armiyasi Transilvaniyada shiddatli hujum boshlab, ruminlarni siqib chiqardi. 1916-yil 6-dekabrda nemis qo‘shinlarni Buharestni egalladilar, rumin armiyasining qolgan qismi Moldaviyaga chekindi.

Ruminiya hududining ko‘p qismi okko‘patsiya qilinganligi Avstriya bilan Germaniyaning oziq-ovqatga bo‘lgan ehtiyojini bir muncha qondirdi. Bundan tashqari Germaniya suv ostida va havoda urushni kengaytirish uchun rumin neftiga ega bo‘lib oldi. Urush barcha davlatlarning iqtisodiga juda katta ta‘sir ko‘rsatdi. Urush ba‘zi bir mamlakatlarning xo‘jaligini xonavayron qilib, ularni ko‘p-yil orqaga uloqtirib tashladi.

Faqatgina ikkita davlat urushdan hammadan ko‘p foyda ko‘rib qoldi. Bo‘lardan biri 1917-yilda urushga kirgan AQSh va Yaponiya edi. 1914-yilga qadar jahon bankirlari bo‘lgan va moliya zanjiri bilan butun dunyoni o‘rab olgan Angliya, Fransiya va Germaniya urush-yillarida chet ellardagi o‘z kapitallaridan ko‘pini yo‘qotdilar.

Urushdan avval Yevropa kapitalistlaridan qarzdor bo‘lib yurgan AQSh, Angliya, Fransiya, Italiya va boshqa Yevropa mamlakatlariga qarz beruvchi davlatga aylandi, kapitalistik dunyoning markazi bo‘lib qoldi. Ingliz floti urushning dastlabki xaftalaridan boshlab markaziy davlatlarni, keyinroq esa ularning ittifoqchilarini qamal qilib, bo‘larni jahonning xom-ashyo va oziq-ovqat

manbalaridan o‘zib qo‘ydi, Germaniya ham o‘z navbatida suv osti urushi vositasi orqali Antanta mamlakatlarini qamal qilishga o‘rindi va ularning juda ko‘p mustamlakalari bilan aloqasini qiyinlashtirib qo‘ydi.

1914-1918 yillardagi urush ba‘zi mustamlaka va yarim mustamlakalar iqtisodida muhim o‘zgarishlar yuz berishga olib keldi. Urushda qatnashayotgan davlatlarning sanoati faqat urush ehtiyojlarini qondirishgagina xizmat qildi. Hamma uro‘shayotgan davlatlarning hukumatlari mavjud yoqilg‘i, xom- ashyoni asosiy iste‘mol buyumlari va oziq-ovqat zaxiralarini taqsimlashni o‘z qo‘liga oldi. Armiyaning oziq-ovqat, qurol aslaxalar bilan uzluksiz ta‘minlab turilishiga erishish uchun barcha hukumatlar xo‘jalik hayotini tartibga solib turish va nazorat qilish sohasida qattiq tizim joriy qildilar. Urushning uchinchi yilidagi harbiy, iqtisodiy va siyosiy vaziyat bironta koalitsiyaga ham tez va xal qiluvchi g‘alabaga erishish imkonini bermadi. Odam resurslari va iqtisodiy resurslarning kamayib borayotganligi barcha urushuvchi davlatlarda, ayniqsa markaziy davlatlarda juda sezilib qoldi. 1916-yilning oxirida Antanta mamlakatlari armiyasida 25 millionga yaqin kishi, Markaziy davlatlar armiyasida esa 15 millionga yaqin kishi bor edi.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirish juda ham kamayib bormoqda edi. 1916-yil 12-dekabrda Germaniya hukumati o‘z nomidan va o‘z ittifoqchilari nomidan dushman guruhidagi davlatlarning hukumatlariga sulh haqida muzokaralar boshlashni taklif qildi. Shu yil oxirida betaraf mamlakatlar - AQSh, Shveytsariya, Norvegiya, Daniya, Shvetsiya hukumatlari ham urushayotgan davlatlarga sulh muzokaralari boshlashni taklif qilib chiqdilar.

Urush olib borishning inson sha‘niga zid metodlaridan biri german suv osti flotining dushman va betaraf mamlakatlarning savdo kemalariga qarshi harakati bo‘ldi. 1914-yildayoq Germaniya suv osti kemalari Antantaning savdo kemalarini ogohlantirmay turib, g‘arq qilib, kemalar ekipaji va yo‘lovchilarini cho‘ktira boshlagan edi. 1915-yil fevralda nemis suv osti kemasi inglizlarning “Luzitaniya” degan katta kemasini g‘arq qildi, natijada ming kishi halok bo‘ladi. 1916-yil 9-yanvarda Germaniya imperiyasining monarxiya kengashi bir qarorga keldi va Germaniya 1-fevraldan cheksiz suv osti urushini boshlab yubordi.

5.4. 1917-1918 yillardagi harbiy harakatlar.

AQShning urushga qo'shilishi.

AQSh hukumati urushga aralashish yo'lini qidirib, 1916-yil dekabr - 1917-yil yanvarda urushayotgan ikkala guruh hukumatlari bilan diplomatik muzokaralar olib borishga kirishdi. Germaniya hukumati o'zining sulh haqidagi shartlarini maxfiy ravishda Vilsonga topshirdi. Bu shartlarda bosqinchilik talablari qo'yilgandi. Ana shu bilan birga Germaniya 1-fevraldan betaraf davlatlar kemalariga qarshi ayovsiz urush boshlash haqida AQShni ogohlantirdi. Bu holat AQSh va Germaniya o'rtasidagi diplomatik munosabatlarni uzish uchun bahona bo'ldi.

1917-yil 6-aprelda AQSh Germaniyaga urush e'lon qildi. Cheksiz suv osti urushining dastlabki oylarida inglizlarning ko'rgan talofoti juda katta bo'ldi. 1917-yil aprelida nemis suv osti kemalari tomonidan umumiy hajmi 870 ming tonna bo'lgan kemalar g'arq qilindi. Lekin kemalarni himoya qilish uchun inglizlar tomonidan o'ylab topilgan metodlar ular ko'rayotgan talofotning oydan-oyga kamayishiga olib keldi. Ular savdo kemalarini harbiy kemalar bilan himoya qilib olib o'tishardi.

1917-yil oxiriga kelib ham suv osti urushi ittifoqchilarga ancha moddiy talofot keltirdi, lekin dushmanning suv osti kemalari ittifoqchilarning kemalari uchun ilgarigidek haloqatli xavf keltirmaydigan bo'lib qolgandi.

German generallari va admirallari "inglizlarni ocharchilikka mahkum etib nobud qilishga" qaratilgan yovuz niyatlarini amalga oshira olmadilar, ammo ocharchilikning qattiq panjalari nemis xalqining bo'ynidan bo'g'ib kelmoqda edi. German imperialistlari Sharqiy Yevropada juda katta hududlarni bosib olganlaridan keyin, ular endi urushda o'zil-kesil yutib chiqdik hamda Germaniya Rossiyaga va Ruminiyaga qanday "nemis sulhi"ni majburan qabul qildirgan bo'lsa, G'arbiy davlatlarga ham xuddi shunday "nemis sulhi"ni majburan qabul qildira olamiz, deb ishongan edilar. 1918-yil mart oyining o'rtalarida Germaniyaning G'arbiy frontda 181 ta piyoda askarlar diviziyasi va uchta alohida brigadasi bor edi. Hal qiluvchi janglar jarayonida G'arbiy frontdagi german diviziyalarining soni

boshqa frontlardan kelgan diviziyalar hisobiga 205 taga yetdi va ittifoqchilarning armiyalari esa 21-martda 171 ta piyoda askarlar diviziyasiga ega edi. Biroq, nemislarning 10 yoki 34 ta diviziyasining ortiqligi G'arbiy frontda endi hal qiluvchi rol o'ynay olmas edi.

German bloki mamlakatlarining ahvoli juda mushkul edi. Aholi och edi. Armiya barcha zarur narsalardan qiynalmoqda edi. Germaniya iqtisodiy jihatdan darmoni qurigan edi. Mehnat unumdorligi juda pasayib ketgan edi, yoqilg'i va muhim xom-ashyo turlari yetishmas, transport izdan chiqqan, odam rezervlari tugay deb qolgan edi. Urush tufayli juda charchagan xalqning ko'pchilik qismi, birinchi navbatda ishchilar ommasi nemis imperiaistlarining bosqinchilik maqsadlarini ko'zlab, urushning cho'zib yuborganligidan g'azablanmoqda edilar, mamlakatda juda keskin inqilobiy inqiroz tez yetilib kelmoqda edi.

Avstriya-Vengriya armiyasida soldatlar och, yalang'och va yalang oyoq bo'lib, ular jangga qodir emas edilar. Avstriya-Vengriyadagi ezilgan xalqlarning milliy ozodlik harakati tobora avj olmoqda edi. Turkiya bilan Bolgariya yanada og'ir ahvolda edi, ular haddan tashqari holdan toygan ediki, bolgar armiyasida esa urushga qarshi harakat ko'chayib ketgan edi.

"To'rtlar ittifoqi"ning a'zolarini hali ham nemis qurolining g'alaba qilishga bo'lgan umid uchquni ma'lum darajada saqlab turgani uchun bu ittifoq ham tarqalib ketmagan edi. German armiyasi hali jangovarlik qobiliyatiga ega bo'lsada, lekin, uning saflarida ham g'ulg'ula va bundan buyon kurashning befoydaligini anglash kayfiyati ko'chaymoqda edi.

Urushning to'rtinchi yilida Angliya, Fransiya va Italiyaning ham iqtisodiy va oziq-ovqat bilan ta'minlanishi sohasidagi ahvoli og'ir bo'lsa ham, lekin ular holdan toyadigan darajada emas edi. Bu mamlakatlarning ayniqsa, Italiyaning aholisi anchagina qiyinchiliklarni boshdan kechirayotgan bo'lsada, ammo ochlikning nimaligini bilmasdi. Suv osti urushi tufayli mustamlakalar bilan aloqalar qiyinlashib qolgan edi, biroq Angliya bilan Fransiya mustamlakalardan strategiya xom-ashyosi, oziq-ovqat, ish kuchi va soldatlar olishni davom ettirmoqda edi.

Harbiy texnika, artilleriya soni, tanklar va aviatsiya jihatidan Angliya, Fransiya va AQSh armiyalari endi german armiyasidan ancha ustun edi. AQSh juda katta iqtisodiy va odam resurslari bilan, qudratli sanoat apparati va moliya vositalari bilan Angliya va Fransiyaga yordam berib turdi.

Shunga qaramay, qo‘shinlarning soni haqidagi masala Fransiyada juda keskin va Angliyada g‘oyat jiddiy masala edi, chunki bu vaqtda Antanta Germaniyaning frontdagi askarlari soniga teng keladigan askarlarni yubora olmas edi. 1918-yil martda Fransiyada hammasi bo‘lib 329 ming amerikalik soldat bor edi. Ulardan bittagina diviziya frontda bo‘lib, qolganlari front orqasida ta‘lim olishni tamomlayotgan edi. Lekin Antanta armiyalari ko‘paya bordi, iyul oxirida Fransiyadagi amerikalik soldatlar soni 897 ming kishiga yetdi, shu sababli oldingi qatorlardagi amerikalik soldatlar soni doimo ko‘payib bordi. Germaniyada esa soldatlar soni kamayib bordi, madad kuchlari esa tugay deb kolgan edi.

German qo‘mondonligi G‘arbiy frontda Amerika katta armiyasining ishga solinishiga qadar ingliz-fransuz qo‘shinlarini tor-mor qilishga shoshilib, 1918-yilning mart-iyul oylari ichida to‘rt marta hujum uyushtirdi: 21-martdan - 4-aprelgacha Arras va La-Fer o‘rtasidagi front uchastkasida ingliz armiyasiga qarshi, 9-apreldan 1-maygacha Flandriyadagi Lis daryosi rayonida ingliz armiyasiga qarshi, 27-maydan 5-iyungacha Zia va Uaza daryolari qirg‘oqlari bo‘ylab Shmend-Dam hududiga 15-iyuldan - 17-iyulgacha Shampana va Marna daryosida fransuz armiyasiga qarshi hujum qildi. Ana shu hujumlarning har birida german armiyasi yuz minglab kishilardan mahrum bo‘lish hisobiga dushman frontini yorib o‘tib, taktik yutuqqa erisha oldi. Nemis qo‘shinlari uchinchi hujum natijasida ya‘ni, Marna daryosi rayoniga chiqdilar va Parijdan atigi 70 km masofada turib, uzoqqa otadigan to‘plardan Parijni to‘pga tutdilar. Lekin nemis qo‘shinlarining ana shu barcha taktik yutuklari vaqtincha yutuklar bo‘lib, Antanta qo‘shinlarini tor-mor qilishdan iborat strategik vazifani hal qila olmadi, urushning borishini german qo‘mondonligining so‘nggi odam rezervlari sekin-asta tugay bordi, Antanta armiyalarining moddiy texnika jihatidan to‘la ustunligi namoyon bo‘ldi hamda nemis soldatlarining jismoniy va ma‘vaviy kayfiyatiga batamom putur yetdi.

Ayni zamonda yuz bergan juda katta xavf Antanta ittifoqchilarining yagona qo‘mondoiligini tuzish masalasidagi kelishmovchiliklarni tezda bartaraf qilishga va general Foshni barcha ittifoqchi armiyalarning bosh qo‘mondoni qilib tayinlash to‘g‘risida kelishib olishga majbur qildi.

1918-yil iyulga kelib tinka madori qurigan va ruhi tushgan german armiyasi endi hujum qilishgagina emas, balki uzoq muddatli mudofaaga ham qobiliyatsiz bo‘lib qolgan edi.

1918-yil 18-iyulda Fransuz armiyasi nemis qo‘shinlariga qarshi zarba berdi va avgust oyi boshlariga kelib, 1918-yil may-iyun oylarida nemislar tomonidan bosib olingan hududlarning katta qismini qaytarib oldi. Shundan keyin, 1918-yil 8-avgustda ittifoqchilar Aleven yonida nemis qo‘shinlariga zarba berdilar. Sentyabr oyining o‘rtalarida San-Miyel yonida yangi zarba berildi, oyning oxirida esa Antanta armiyalari umumiy hujumga o‘tdi va 1918-yil 8-avgustdan - 8-sentyabrgacha o‘tgan bir oy ichidagina ittifoqchilarning armiyalari 150 mingdan ortiq nemis soldat va ofitserlarini asirga oldilar, 2000 dan ortiq to‘p va 13 mingta pulemyotni qo‘lga tushirdilar. Dushmanning g‘alabalari german qo‘shinlarining ichidan buzilishini va ularning inqiloblashuvini tezlashtirdi, nemis soldatlari qo‘mondonlikka itoat qilmay boshladilar.

5.5. Birinchi jahon urushining tugashi va uning og‘ir oqibatlari.

German armiyasining oliy qo‘mondonligi urushda o‘zil-kesil yutqazganligini hukumatdan va Reyxstagdagi siyosiy partiyalardan yashirishni davom ettirdi. Aksincha, oliy qo‘mondonlik g‘alaba qilayotganligi haqida jar solaverdi.

Faqat sentyabr oxiridagina Lyutendorf bilan Gindenburg, german armiyasi bundan buyon qarshilik ko‘rsata olmaydi, deb tan oldilar. Gindenburg va Lyutendorf urushni davom ettirish armiyaning asirga tushib qolishga yoki urushning Germaniya hududiga kuchirilishiga olib borishi mumkinligini ko‘rsatib, hukumatdan juda shoshilinch ravishda vaqtincha yarash akti tuzilishiga erishishni talab qildilar.

1918-yil 30-sentyabrda Germaniyada liberal shahzoda Maks Badenskiyning yangi “parlament” hukumati tuzildi. Bu hukumatga sotsial-demokratlar ham kirgan edi. German imperialistlari va sotsial-shovinistlarining fikricha, bu siyosiy nayrang ularning dushman bilan olib boradigan muzokaralarini yengillashtirish va Kayzer imperiyasini saqlab qolishi kerak edi.

Shahzoda Badenskiyning hukumat tarkibida sotsial shovinst Sheydeman bilan Bauer muhim rol o‘ynagan “parlament” hukumati Sharqda bosib olingan hududlarni qo‘lda saqlab qolish, mamlakat ichida ko‘chayib borayotgan inqilobni bostirish va Germaniyada monarxiyani saqlab qolishni o‘z oldiga vazifa qilib qo‘ygan edi. Maks Badinskiy va sotsial-demokrat liderlar Gogensolerinlar sulolasini saqlab qolish va vaqtincha yarashning maqbo‘l shartlariga erishish uchun boshqa iloj topolmay qolgan taqdirda, Vilgelm II va shahzodaning taxtdan voz kechishiga ham rozi edilar.

Yangi hukumat 4-oktyabrda prezident Vilsonga nota yuborib, “bundan keyin qon to‘kilishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun” vaqtincha yarash sulhi tuzishni iltimos qildi va Germaniya “Vilsonning 14 sharti” asosida sulh tuzishga rozi ekanligini bildirdi.

Berlin bilan Washington bir-biriga notalar yozdilar. Vilgelm II chetlashtirilmaguncha va Germaniyaning oliy qo‘mondonligi siyosiy hokimiyatga itoat ettirilmaguncha ittifoqchilar rasmiy muzokaralar olib borishga rozi emas, deb aniq sezdirib qo‘ydi. 26-oktyabrda Lyutendorf chetlashtirildi.

Vilgelm II poytaxtda turishni o‘zi uchun xavfli deb hisoblab, 30-oktyabrda Gindenburg qarorgohiga jo‘nab ketdi. G‘oliblar german armiyasi tor-mor keltirilganligiga, Germaniyada esa inqilob boshlanib ketishi mumkinligiga ishonch hosil qilish bilan, ular endi urush qilish haqida emas, balki Germaniyadagi inqilobni bostirish haqida o‘ylay boshladilar. Ittifoqchilar tayyorlab qo‘yilgan hujum janglarini boshlashdan voz kechdilar, bu janglar butun german armiyasini asirga olish bilan tugallanishi lozim edi. Ittifoqchilar german armiyasini saqlab qolishga qaror qildilar, chunki Kayzer armiyasini Germaniyadagi inqilobni bostirish uchun zarur bo‘lgan armiya deb hisobladilar, Ular german armiyasi qo‘li

bilan “bolshevizmni yo‘q qilish” Rossiyadagi sovet hokimiyatini bo‘g‘ib tashlash uchun ham shu armiyadan foydalanmoqchi edilar. Vaqtincha yarash haqida muzokaralar olib borilayotgan bir paytda Germaniyaning ittifoqchilari urushayotgan davlatlar safidan birin-ketin chiqib keta boshladilar.

Bolgariya 1918-yilning ikkinchi yarmida og‘ir iqtisodiy va siyosiy inqirozni boshidan kechirmoqda edi. Mamlakat xo‘jaligi butunlay izdan chiqqan edi. Xalq ommasi va armiya och bo‘lib, hamma zarur narsalarga muhtoj edi. Bolgar urushqoq harbiylari va burjuaziyasi bilan Bolgariyaning ittifoqchilari o‘rtasidagi ziddiyatlar Germaniya bilan Ruminiyaning Dobrujasi uchun, Avstriya-Vengriya bilan Serbiyani bo‘lib olish, Turkiya bilan sharqiy Frakiya uchun o‘zaro ziddiyatlar juda ham keskinlashib ketgan edi. Germaniya Bolgar armiyasini qurol yaroq, urush aslaha-anjomlari va ust-bosh bilan ta‘minlamay qo‘ydi. Och-yalang‘och soldatlar ko‘plab armiyadan qochar, ko‘pincha polklarda soldatlarning urushga qarshi harakatlari bo‘lib turardi.

15-sentyabr kuni Salonikining ittifoqchi armiyasi bolgar armiyasining Dobropol rayonidagi asosiy kuchlariga qarshi hujum boshladi. Front yorib o‘tilib, bolgar armiyasi qurshab olinib asir olindi. Bolgar qo‘shinlari o‘z yo‘lini to‘sadigan yunkerlar otryadlari va otliq gvardiyani uloqtirib tashlab, orqaga qocha boshladi. Soldatlar: “Sofiyaga boramiz” “Mag‘lubiyatning aybdorlariga o‘lim!” degan shiorlar bilan qocha boshladilar. Soldatlar Sofiyaga borayotib batalonlarga uyusha boshladilar. Germaniya Bolgariyadagi inqilobni bostirish va koburglar dinastiyasini saqlab qolish uchun Qrimdan Bolgariyaga qo‘shinlar yubordi.

Rodomirda respublika e‘lon qilindi. Sofiyaga qarab borayotgan soldatlar boshlagan qo‘zgolondan qo‘rqib qolgan Bolgariya hukumati German bloki bilan munosabatlarini uzdi. 29-sentyabrda ittifoqchilar qo‘mondonligi Bolgariyaga vaqtincha yarash shartlarini qabul qildirdi, bu shartlarga binoan, Bolgariya Serbiya, Gretsiya va Ruminiyadan ishg‘ol qilgan hamma hududlarini bo‘shatib chiqib ketish majburiyatini oldi. Ittifoqchilarning armiyalari bolgar aloqa yo‘llarining to‘la xo‘jayinlari bo‘lib oldilar va parchalanib borayotgan Avstriya-Vengriyaning bevosita oraqa tomoniga o‘tib oldilar.

Bolgariyadan keyin navbat Turkiyaga keldi. 1918-yil oktyabrda turk armiyasi Falastin va Suriyada tor-mor qilingan edi. 31-oktyabrda Turkiya Mudrosda taslim bo'lish haqida inglizlar qabul qildirgan bitimni izmoladi. Ittifoqchilar Turkiyaning barcha temir yo'llari, portlari, suv yo'llariga xo'jayinlik qilish huquqini oldilar va bo'lardan sovet Rossiyasida intervensiyani ko'chaytirish uchun foydalandilar. Avstriya-Vengriya monarxiyasi 1918-yil oktyabrga kelib mamlakat ichidagi keskin sinfiy va milliy kurashlar, frontlardagi uzluksiz zarbalar ostida larzaga kelib, parchalana boshladilar. To'la iqtisodiy vayronalik, ayrim o'lkalar o'rtasida xo'jalik aloqalarining o'zilib qolganligi, ochlik, ichidan buzilib borayotgan okko'patsiyachi armiyaning Ukrainadan qochishi, Italiya frontidagi mag'lubiyat, Avstriya-Vengriya ittifoqchilarning frontlardagi mag'lubiyati bo'larning hammasi milliy ozodlik harakatini yangi bosqichga ko'tardi. Avstriya-Vengriyadagi ezilgan millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi haqidagi shiorlarni amalga oshira borib, o'zlarining mustaqil siyosiy hayotini qurishga kirishdilar.

1918-yil 14-oktyabrda Pragada umumiy siyosiy stachka boshlandi. Bu stachka butun Chexiyaga yoyilib, Avstriyaning hukumronligiga qarshi milliy ozodlik inqilobiga aylandi. Oktyabr oyining o'rtalarida serblar, xorvatlar va slovyanlarning milliy kengashi Zagrebda, Janubiy Slovyan yerlarining hududlarida hokimiyatni o'z qo'lida oldi. Bukovina xalqi qo'zg'olon ko'tarib, Chernovsida o'zining hokimiyat organi - xalq vechesini tuzdi, xalq vechesi 3-noyabrda Ukrainaga qo'shilishga qaror qildi. Butun Slovakiyada kuchli xalq harakati boshlandi.

Butun Galitsiya inqilob o't ichida bo'lib, Avstriya zulmini o'z yelkasidan uloqtirib tashladi. Xalq ommasi Galitsiyaning Sovet Ukrainasi bilan qayta qurishni talab qildi. Lekin ukrainaliklar burjua separatchi millatchilari bunga halaqit berish uchun G'arbiy Ukraina xalq respublikasini tuzdilar.

28-oktyabrda Chexiyaning milliy kengashi Pragada Chexoslovakiyaning mustaqilligini e'lon qildi. 31-oktyabrga o'tar kechasi Budapeshtning qo'zg'olon ko'targan ishchilari barcha markaziy hukumat muassasalarini va Vengriya

poytaxtidagi strategik punktlarni qo‘liga olib, butun mamlakatda, ya’ni ish tashlash e’lon qildilar.

Vengriyada burjua demokratik inqilob g‘alaba qozondi. Joylarda hokimiyat milliy kengashlar qo‘liga o‘tgandan keyin Avstriyadagi barcha sobiq podsholik o‘lkalari Vena bilan aloqani uzdilar va o‘zlaricha hayot kechira boshladilar. 21-oktyabrdayoq Avstriya deputatlari o‘zlarini Avstriyaning muvaqqat milliy majlisi deb e’lon qildilar. Barcha milliy hukumatlar frontdan qo‘shinlarini chaqirib olishni talab qildilar. 29-oktyabrda Avstriya-Vengriya flotining deyarli barcha kemalarida matroslar qo‘zg‘oloni bo‘ldi. Avstriya-Vengriya imperializmining jangovar kuchi bilan harbiy dengiz floti tugadi, u Zagrebda janubiy slavyan milliy kengashi ixtiyoriga, dunay flotiliyasi esa Vengriyaga topshirildi.

Avstriya-Vengriya imperiyasi milliy ozodlik inqilobining zo‘r siquvi ostida alohida-alohida milliy davlatlarga bo‘linib ketdi. Imperator Karlning bunday bo‘linib ketishi reformalar yordamida to‘xtatib qolish yo‘lidagi o‘rinish hech qanday natija bermadi. Ana shu sharoitda, 24-oktyabrda Italiya amalda bo‘lak-bo‘lak bo‘lib ketgan Avstriya-Vengriya armiyasiga qarshi o‘zining oxirgi hujumini boshladi.

Vengr, cheh janubiy slovyan, ukrain va rumin soldatlari oldingi qatorlarga o‘tib jang qilishdan bosh tortdilar. Polklarda soldat deputlari sovetlari tuzildi. Avstriya-Vengriya armiyasi qo‘mondonligi taslim bo‘lganligi haqidagi hujjatga qo‘l qo‘ydi va qolgan qo‘tgan armiyasini Italiya ixtiyoriga toshirdi.

Vaqtincha yarashning shartlariga ko‘ra, ittifoqchilar mamlakatning to‘la huquqli xo‘jayinlari bo‘lib oldilar. Angliya-Fransiya-Italiya korpuslari endilikda Germaniyaga janubdan va janubiy sharqdan ham xaf sola boshladilar.

Germaniya oliy qo‘mondonligi o‘zining avantyuristik siyosatini davom ettiraverdi. 30-oktyabrda Germaniyaning Kildagi harbiy eskadrasi dengizga chiqib, ingliz flotiga hujum qilish haqida buyruq oldi. Ana shu be‘mani avantyruga javoban matroslar 3-oktyabrda Kil shahrida qo‘zg‘olon ko‘tardilar. 4-noyabrga kelib qo‘zg‘olon butun flotni qamrab olgan edi. Bu Germaniyada inqilobning boshlanishiga signal bo‘lgan edi. Bir necha kun mobaynida inqilob butun

mamlakatga yoyildi. Germaniya ishchilari Kayzer imperialistlariga qarshi kurashga otlandilar.

Front orqasidagi qo'shinlar qo'zg'olon ko'targan xalq ommasi tomoniga o'tdi. Kayzer va oliy qo'mondonlikning boshlangan inqilobning frontdan chaqirib olingan diviziyalar yordamida bostirish yo'lidagi o'rinishlari barbod bo'ldi. Vilgelm II Gollandiyaga qochib ketdi.

1918-yil 9-noyabrda Berlinda inqilob bo'lib, 10-noyabrda esa hokimiyat o'ng sotsialist-demokrat Ebert boshlik xalq vakillari soveti qo'liga o'tdi. Boshlangan inqilob eng qizib turgan 1918-yil 6-noyabrda Maks Badenskiy hukumati vaqtincha yarash ahdi tuzish uchun ittifoqchi qo'shinlar qo'mondonligiga shoshilinch ravishda delegatsiya yubordi.

1918-yil 11-noyabrda marshal Fosh Kompen o'rmonidagi Retoid stansiyasida turgan o'z vagonida german delegatsiyasiga vaqtincha yarash shartlarini qabul qildirdi. Bu shartlarga ko'ra, Germaniya bosib olgan Fransiya departamentlarini Belgiyani, Lyuksemburgni va Reyn daryosining qirg'og'idagi german viloyatlarini 15 kun ichida bo'shatib chiqib ketish majburiyatini olgan edi.

Germaniya Turkiyadan, Ruminiyadan va Avstriya-Ventriyadan shuningdek, Afrikadagi mustamlakalaridan o'zining barcha qo'shinlarini olib ketish majburiyatini oldi. Germaniya o'z qurol yarog'larining bir qismini 5 mingta parovoz, 150 mingta vagon, 3 mingta yo'q mashinasi va hokazolarni ittifoqchilarga berishi kerak edi.

Kompenda vaqtincha yarash ahdi imzolashi bilan birinchi jahon urushi tugadi. Bu urushda yarim milliard kirishidan ortiq aholisi bo'lgan 38 ta mamlakat qatnashdi, urushga 74 million kishi safarbar etilgan edi. Bu bosqinchalik urushi tufayli insoniyat katta talofat ko'rdi. 10 million kishi o'ldirildi, 20 million kishi mayib-majruh bo'ldi. Bu urush bevosita harbiy harajatlar shaklida 208 milliard dollar miqdoridagi juda katta moddiy boyliklarni yutib yubordi. Nemis inqilobiy tarixchilari o'zlarining tadqiqotlarida, generallari va siyosatdonlar esa ko'pdan-ko'p yodnomalarida Germaniya, go'yo 1918-yil noyabrda yuz bergan inqilob natijasida mag'lubiyatga uchradi, deb inqilob go'yo g'olib Germaniyaning

“orqasiga xanjar urush” bo‘ldi deb baholaganlar.

Germaniya va uning ittifoqchilari mag‘lubiyatining asosiy sabablari qo‘yidagilar:

1. Antanta tomonida turib urushgan davlatlar Germaniya, Avstriya-Vengriya, Turkiya va Bolgariyaga nisbatan juda katta iqtisodiy resurslar va odam rezervlariga ega edilar. Shuning uchun ham uzoqqa cho‘zilgan urush sharoitida “To‘rtlar ittifoqi” mamlakatlarining front va front orti oldinroq zaiflasha boshladi. Antanta mamlakatlariga nisbatan tobora ko‘proq holdan toydi. Antanta armiyasining umumiy nisbati “To‘rtlar ittifoqi” mamlakatlaridagiga nisbatan muqarrar sur‘atda yaxshi bo‘lishi kerak edi va shunday bo‘ldi ham. Masalan: Antantaning 48355 ming soldat va ofitseri bor edi, bu esa unga 525 ta diviziya tuzish imkoniyatini berardi. “To‘rtlar ittifoqi” armiyaga 25160 ming soldat va ofitserni chaqirib, 372 ta diviziya tuzdi. Antanta aviatsiyada ikki martadan ortiqroq ustunlikka ega edi. Shunday qilib, Antantaning iqtisodiy sohadagi kabi harbiy sohadagi ustunligi ham Germaniyaning va butun “To‘rtlar ittifoqi”ning uzoq davom etgan ikki frontda urush olib borishi uning mag‘lubiyatga uchrashini muqarrar qilib qo‘ygan edi.

2. German imperializmining siyosiy usqurtmasi - yunkerlarining urushdan oldinroq avj olgan siyosiy inqiroz tufayli yemirila boshlagan eng reaksion yarim absolyutistik monarxiyasi to‘rt yillik jahon urushi va kapitalizmning boshlangan umumiy inqirozini juda og‘ir sinovlariga bardosh bera olmas edi. German imperialistlari tomonidan nemis xalqiga yuklangan urushning g‘oyat og‘ir yuki shunga olib keldiki, urushning o‘zi vujudga keltirgan inqilobiy inqiroz, qudratli ishchilar harakati va katta inqilobiy an‘analarga ega bo‘lgan Germaniyaga hammadan ko‘ra keskinroq ta’sir qildi. German imperialistlari Sovet Rossiyasiga qarshi intevensiya boshlab va unga ochiqdan-ochiq talonchilik, anneksionistik sulh shartnomasini majburan qabul qildirib, nemis xalqi oldida o‘zlarining rejalarini uzil-kesil fosh qilib qo‘ydilar va bu bilan o‘zlarining haloqatini tezlashtirdilar.

3. German imperializmining harbiy nazariyasi, strategiyasi va taktikasi

noto'g'ri bo'lib chiqdi. Uning noto'g'riligi shundan iborat ediki, german imperializmi o'z kuchlariga haddan tashqari ortiqcha baho berib, dushman kuchlariga yetarli baho bermagan edi, bu harbiy nazariya va taktika urushni tezlashtirishga, o'z dushmanlarini yakka-yakka holda avvalo, G'arbda Fransiya, undan keyin sharqda Rossiyani tor-mor qilib, shu tariqa ikki frontda uzoq davom etgan urushdan qutulish imkoniyatiga mo'ljallagan avantyuristik taxminlarga asoslangan edi. German armiyasining oliy qo'mondonligi va Germaniyaning siyosiy rahbarlari Shliffenning noto'g'ri doktrinasi changaliga tushib qoldi, chunki bu noto'g'ri doktrina XX asrdagi urushlar sharoitiga mutlaqo to'g'ri kelmas, hamda Germaniya qurolli kuchlari va xalq xo'jaligi oldiga shunday maqsadlarni qo'yar ediki, bu maqsadlarga erishish uchun Germaniyada iqtisodiy imkoniyatlar ham, harbiy va siyosiy imkoniyatlar ham yo'q edi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Germaniyaning Birinchi jahon urushidagi "Shliffen rejasi" haqida so'zlab bering.
2. Birinchi jahon urushining kelib chiqish sabablari nimalardan iborat edi?
3. "Bo'lingan dunyoni qaytadan bo'lib olish" deganda nima nazarda tutiladi?
4. Nima sababdan Birinchi jahon urushi Yevropa zaminida boshlandi?
5. Birinchi jahon urushining oqibatlari haqida so'zlab bering.
6. Texnika taraqqiyoti qay darajada rivojlandi?
7. Birinchi jahon urushidan so'ng xalqaro vaziyat qanday ahvolda edi?
8. Germaniya va uning ittifoqchilari mag'lubiyatining asosiy sabablari nimalardan iborat.
9. Nima sababdan Turkiya hukmron doiralari "Uchlar ittifoqi" tomonidan urushga kirishni ma'qul ko'rishdi?
10. Brest-Litovs sulh shartnomasining mazmuni haqida so'zlab bering.

II BO‘LIM. ENG YANGI DAVR XALQARO MUNOSABATLAR TARIXI (1918 yildan - hozirgi kunga qadar)

6-MAVZU. VERSAL-VASHINGTON TIZIMI VA UNING SIYOSIY OQIBATLARI

REJA:

- 6.1. Birinchi jahon urushi yakunlari va Versal shartnomasi.
- 6.2. Vashinton konferensiyasi.
- 6.3. “To‘qqiz davlat shartnomasi”ning vujudga kelishi va Xitoy.

Tayanch so‘z va iboralar: *Parij tinchlik konferensiyasi. “Oshkora diplomatiya”. Versal shartnomasi. Millatlar ligasi. Vashinton konferensiyasi. Dayren konferensiyasi. To‘rtlar bitimi. Beshlar bitimi. To‘qqizlar bitimi. “Ochiq eshiklar” siyosati. V.Vilsonning «14-moddasi». Parij konferensiyasining ochilishi. Versal shartnomasi. Millatlar Ligasi. Sen-Jermen tinchlik shartnomasi. Neyi, Trianon va Sevr tinchlik shartnomalarning imzolanishi. AQSh va Versal tizimi. Vashington konferensiyasining ochilishi. «To‘rtlar shartnomasi», «beshlar shartnomasi» va «to‘qqiz mamlakat shartnomasi». Genuya konferensiyasi. Rapallo. Yaqin Sharqdagi xalqaro munosabatlar. Lozanna konferensiyasi. «Rur inqirozi» Daues rejasi.*

6.1. Birinchi jahon urushi yakunlari va Versal shartnomasi.

Birinchi jahon urushidan so‘ng dunyoda yuzaga kelgan kuchlar nisbati urushning oxirida shakllangan xalqaro munosabatlar tizimining ziddiyatlarini aks ettirardi. Buyuk davlatlar qatorida jiddiy siljishlar ro‘y berdi. Bir tomondan, jahon darajasidagi buyuk davlat - Germaniyaning tor-mor etilishi bo‘lsa, ikkinchi tomondan, dunyoda yetakchilik qilishga faol da‘vogar sifatida AQShning xalqaro maydonga chiqishi shunday siljishlarning eng sezilarlisi edi. Buyuk Britaniya, Fransiya va Yaponiya bilan bo‘lgan raqobatda g‘olib chiqish uchun AQSh umumjahon kreditori mavqeidan foydalanishga intildi.

Buyuk Britaniya urushdan so‘ng buyuk davlat maqomini saqlab qoldi,

garchand AQSh tomonidan ikkinchi o‘ringa surib chiqarilayotgan bo‘lsa ham. Germaniya endi uning dengizdagi va jahon bozorlaridagi raqibi emasdi. Yaqin Sharqda Angliya Usmoniylar imperiyasi “merosi”ning talaygina qismini nazorat qilardi.

Fransiyaning mavqei ham yetarlicha kuchli edi. Bosh vazir Klemanso deyarli ikki millionlik armiyaga tayanardi. Ushbu armiyani marshal Fosh demobilizatsiya qilishga shoshilmasdi. Fransiya xavfsizligini ta‘minlash zaruriyatini pesh qilib, Klemanso diplomatiyasi Germaniyani revansh olish imkoniyatidan mahrum qilishni va Yevropada Fransiyaning ustuvorligini o‘raatishni ko‘zlagandi. Italiya, Yaponiya va boshqa mamlakatlar ham o‘z manfaatlariga ega edi. Garchand dastlabqilari “buyuk davlatlar” qatoriga kirgan bo‘lsa ham, ularning ta’siri katta emasdi va faqatgina lokal masalalarni hal etishda sezilardi.

Urushdan keyingi xalqaro munosabatlarning tizimi asosan, Parij tinchlik konferensiyasi (1919-yil 18-yanvar – 1919-yil 28-iyun) va Washington konferensiyasi (1921-yil 12- noyabr – 1922-yil 6- fevral) qarorlariga suyanardi. Parij konferensiyasining ishida 27 ta mamlakat vakillari ishtrok etdi. Konferensiya “oshkora diplomatiya” misoli deb e‘lon qilinardi. Parijga mingdan ortiq delegatlar yetib keldi, faqatgina Germaniya va Sovet Rossiyasi vakillari yo‘q edi, xolos.

Konferensiyani tayyorlash va uning boshlanish davrida AQSh prezidenti V.Vilssonning “14 bandi” haqida ko‘p gapirilardi. “Yashirin diplomatiya” dan voz kechish va “adolatli tinchlik”ni o‘rnatish to‘g‘risidagi bayonatlarga qaramay, konferensiyaning asosiy qarorlari buyuk davlatlarning, birinchi galda Buyuk Britaniya, AQSh va Fransiyaning oshkor etilmagan murosaga kelishlari natijasi sifatida namoyon bo‘ldi.

Xalqaro tashkilot haqidagi masala muhokama birinchilar qatorida qilindi. Millatlar Ligasini barpo etish to‘g‘risidagi rezolyusiya qabul qilindi. Shunday tashkilotning zarurligi to‘g‘risidagi masala Birinchi jahon urushidan oldin ham qo‘yilgan edi. Urush davrida esa uning loyihalarini ishlab chiqish bilan turli guruhlar va hatto Angliya, AQSh va Fransiyada hukumat darajasidagi komissiyalar

shugʻullanardi. Millatlar Ligasini barpo etish loyihasini AQSh prezidenti Vudro Vilson ham oʻzi bilan birga Parijga olib keldi.

Parij konferensiyasi Millatlar Ligasining Nizomini tayyorlash maqsadida Vilson boshchiligida maxsus komissiyani tashkil etdi. Ushbu hujjat negizida inglizlar va amerikaliklarning qoʻshma loyihasi yotardi. 1919-yil 13-fevralga kelib Millatlar Ligasining Nizomi tayyor boʻldi va ertasi kuni Vilson tomonidan konferensiyaga taqdim etildi. Nizom 26 ta banddan iborat boʻlib, unda Liga aʼzolarining vazifalari va majburiyatlari, tashkilotning ishlash tamoyillari, tuzilishi belgilab berildi. Liganing bosh tashkilotlari umumiy yigʻin - Assambleya va Kengash edi. Qarorlar bir ovozdan qabul qilinardi.

Liga aʼzolari xalqaro munosabatlarni toʻla oshkoralikda tutib turish, xalqaro huquq mezonlariga amal qilish, tashkilotga kirgan barcha aʼzolarining hududiy yaxlitligini va mavjud siyosiy mustaqilligini hurmat qilish va saqlash majburiyatlarini oldi.

Mustamlakachilikni saqlab qolish koʻzda tutilgandi. Uni niqoblash maqsadida mandat tizimi barpo etildi.

Urushdan keyingi vaziyatni tartibga solishga oid koʻplab masalalar muhokama qilindi. Lekin, baribir asosiy masala - Germaniyaning taqdiri masalasi edi. Ushbu mamlakat vakillari Parijga faqatgina tinchlik shartnomasini imzolash uchun chaqirtirildi.

1919-yil 28-iyunda Versal saroyida Germaniya vakillari urushdan keyingi tinchlik tartiblarini oʻrnatishga doir asosiy hujjatni - Tinchlik shartnomasini imzolashdi. Keyinchalik Germaniyaning ittifoqchilari - Bolgariya, Turkiya va Avstro-Vengriya tarqalib ketganligi sababli Avstriya va Vengriya bilan alohida-alohida tinchlik shartnomalari imzolandi. Har bir shartnoma Millatlar Ligasining Nizomi bilan boshlanardi. Germaniya mustamlakalarini boʻlib olish (vasiylik nomi bilan maʼlum boʻlgan) “oʻzlarini oʻzi boshqarishga qodir emas” xalqlarga yordam berishga qaratilgan “sivilizatsiyaning muqaddas missiyasi” sifatida eʼlon qilinardi.

Umuman olganda, Versal shartnomasiga koʻra, Germaniya oʻz hududining katta qismini yoʻqotdi. Germaniya Polsha, Chexoslovakiya, Lyuksemburgning

mustaqilligini tan oldi, Avstriyaning mustaqilligini “qat’iy hurmat” qilish majburiyatini ham oldi. Reyn daryosining chap sohili bo‘ylab 50 km ichkarisidagi Germaniyaning hududi harbiy harakatlardan holi hududga aylantirildi. Germaniya mustamlakalari Fransiya, Yaponiya, Belgiya, Portugaliya, Buyuk Britaniya va uning dominionlari o‘rtasida bo‘lib (mandatlar shaklida) olindi.

Versal shartnomasida Germaniyaning quolsizlashtirilishi ham ko‘zda tutilgan edi. Bundan tashqari, Germaniya jahon urushining boshlanishi va u yetkazgan zarar uchun aybdor, deb e‘lon qilindi. Shu tariqa ittifoqchilar ko‘rgan “barcha talofat va zararlar” ni qoplash yo‘lida Germaniyada reparatsion to‘lovlarni olish uchun huquqiy asos yaratildi. Germaniyaning shartnomani to‘la bajarishini ta‘minlovchi kafolat sifatida ittifoqchi qo‘shinlari tomonidan 1919-yil 5-yildan - 15-yilgacha bo‘lgan muddat davomida Reyn daryosidan G‘arbda joylashgan hududlarni okkupatsiya qilinishi nazarda tutilgan edi.

Versal shartnomasi Germaniya va uning ittifoqchilarini urushning aybdorlari deb e‘lon qildi. Shartnomaga ko‘ra, Fransiya Elzas va Lotaringiyani o‘ziga qaytarib oldi.

Germaniyaning Saar viloyati 15-yil muddatga Millatlar Ittifoqi boshqaruviga berildi. Uning ko‘mir havzasi shaxtalari Fransiyaning mulki bo‘lib qoldi. Germaniya Polsha va Chexoslovakiyaning mustaqilligini tan oldi. Bir paytlar Prussiya bosib olgan hududlar, Sharqiy Pomore Polshaga berildi. Buning natijasida Polsha Boltiq dengiziga chiqish imkoniga ega bo‘ldi. Eypen, Malmedi va Morelle okruglari Belgiyaga o‘tdi. Klaypeda esa Litvaga o‘tkazildi. Shlezvigning shimoliy qismi Daniyaga, Sileziyaning bir qismi Chexoslovakiyaga berildi.

Gdansk shahri esa Millatlar Ittifoqi boshqaruvidagi «erkin shahar» deb tan olindi. Shu tariqa Germaniya 1914-yilning 1-avgustiga qadar bo‘lgan o‘z hududining 1/8 qismini yo‘qotdi. Germaniya Avstriyaga bo‘lgan da‘volaridan voz kechishga majbur etildi.

Avstriyaning mustaqilligi Antanta davlatlari tomonidan kafolatlanadigan bo‘ldi. Bundan tashqari, Germaniya dunyodagi barcha mustamlakalaridan mahrum

etildi va ular g'oliblar o'rtasida taqsimlandi. Chunonchi, Germaniyaning Afrikadagi mustamlakalari Togo va Kamerun Buyuk Britaniya va Fransiyaga o'tdi. Shuningdek, Buyuk Britaniyaga Tanganika (Germaniya Sharqiy Afrikasi); Belgiyaga Ruanda va Urundi; Janubiy Afrika Ittifoqiga - Janubi-g'arbiy Afrika (Namibiya); Yaponiyaga Tinch okeani-dagi Marshall, Marian va Karolina orollari, Xitoyning Szyao-chjou viloyati, Shandun yarim oroli berildi. Germaniyaga Antanta davlatlari foydasiga katta miqdorda reparatsiya to'lovi majburiyati yuklandi.

Reparatsiya muammosi 1921-yilning aprel-may oylarida London konferensiyasida hal etildi. Unga ko'ra, reparatsiya 132 mlrd oltin marka miqdorida belgilanadi. Uning 52 foizi Fransiyaga; 22 foizi Buyuk Britaniyaga; 10 foizi Italiyaga; 8 foizi Belgiyaga; Gresiya, Ruminiya va Yugoslaviyaga birgalikda 6,5 foizi; 0,75 foizi Yaponiyaga to'lanishi kerak edi.

Tinchlik shartnomalari. Fransiyada, Germaniyadan tashqari, urushda mag'lub bo'lgan boshqa davlatlar bilan ham alohida-alohida shartnomalar imzolandi. Chunonchi, Avstriya bilan bunday shartnoma 1919-yilning 10-sentyabr kuni Parij yaqinidagi Sen-Jermen saroyida imzolandi. Shartnoma sobiq Avstriya-Vengriya imperiyasi tugatilganligini e'lon qildi.

Avstriya hududi esa sezilarli darajada o'zgartirildi. Xususan, Janubiy Tirolning bir qismi Italiya ixtiyoriga o'tkazildi. Chexiya va Moraviya yangi tuzilgan Chexoslovakiya davlatiga qo'shildi. Bukovina esa Ruminiyaga nasib etdi.

1919-yilning 27-oktyabrida Parijga yaqin Neyi shahrida Bolgariya bilan shartnoma imzolandi. Shartnomaga ko'ra, Bolgariya hududining katta qismi Yugoslaviya, Gresiya va Ruminiyaga o'tdi. Ayni paytda unga 2,5 mlrd oltin frank kontributsiya to'lash majburiyati yuklandi. Bolgariya qurolli kuchlarining soni 20000 kishidan oshmasligi belgilandi.

1920-yilning 4-iyulida Versal saroyining Trianon zalida Vengriya bilan shartnoma imzolandi. Shartnomaga ko'ra, Vengriya o'z hududining ancha qismidan mahrum etildi. Chunonchi, Xorvatiya, Bachka va Banatning g'arbiy qismi Yugoslaviyaga o'tdi. Ruminiyaga Transilvaniya va Banatning sharqiy qismi

berildi.

Antanta davlatlari 1920-yilning 10-avgustida Fransiyaning Sevr shaharchasida Turkiya bilan shartnoma imzolashdi. Shartnomaga ko'ra, Turkiyaga 1914-yilning 1-avgustigacha qaram bo'lgan hududlar to'rtidan uch qismga kamaydi. Turkiya hududi Kichiq Osiyo va Istambo'l shahrini o'z ichiga olgan Yevropadagi ozgina joy bilan cheklab qo'yildi. Istambo'l shahri poytaxt sifatida qoldirildi. Biroq g'olib davlatlar, agar Turkiya Sevr shartnomasi talablarini bajarishdan bosh torta boshlasa, bu qarorni qayta ko'rib chiqish huquqiga ega edilar. Qora dengiz bo'g'ozlarining barcha davlatlar savdo va harbiy kemalari uchun ochiq ekanligi belgilab qo'yildi. Turkiyani bo'g'ozlardan o'z harbiy kuchlarini olib chiqib ketishga majbur etishdi.

Aslida bu shartlar bo'g'ozlar ustidan Buyuk Britaniya, Fransiya va Italiya nazorati o'rnatilishiga imkon berdi. Turkiya o'z flotini Antanta ixtiyoriga topshirishi zarur edi. Bu ham yetmaganidek, Sevr shartnomasi g'olib davlatlarga Turkiyaning moliyasi va butun iqtisodiyoti ustidan nazorat o'rnatish huquqini berdi. Sevr shartnomasi Turkiyaga Antanta davlatlarining yarim mustamlaka tartibini o'rnatdi. Birinchi jahon urushi tugagandan keyin Yevropada xalqaro kuchlarning yangi nisbatini belgilagan Versal tizimi shu tariqa shakllandi. Bu tizim Yevropa siyosiy haritasini qayta qurish va dunyoni qayta bo'lib olishni huquqiy jihatdan rasmiylashtirishning o'ziga xos shakli edi.

6.2. Vashington konferensiyasi.

Britaniya imperiyasidagi kelishmovchiliklar- dan Amerika hukumati foydalandi. 1921-yil 10-iyulda AQSh davlat kotibi Yuz bo'lajak konferensiyani e'lon qildi. Konferensiyaga AQSh, Angliya, Yaponiya, Fransiya, Italiya, Bel'giya, Gollandiya, Portugaliya va Xitoy davlatlari taklif etilishi rejalashtirilgan edi. Germaniya va Sovet davlati ham Vashington konferensiyasiga taklif etilmadi. Bunga javoban Sovet davlati hukumati rasmiy e'tiroz bildirdi. 1921-yil 19-iyuldagi Tashqi Ishlar Xalq Komissarligining notasida Sovet hukumati uni konferensiyadan chetlashishlariga qarshi ekanligini bayon qildi. Shuningdek,

Tashqi Ishlar Xalq Komissarligi konferensiyaga Yaponiya va RSFSR o'rtasida 1920-yilda paydo bo'lgan uzoq Sharq Respublikasi ham qatnashmasligiga qarshi edi. 1921-yil 11-avgustda barcha davlatlarga rasmiy taklifnomalar jo'natildi. Amerika matbuoti barcha savollar bilan bir qatorda Yaponiyani Sibirga intervensiyasi ko'rib chiqilishi aytib o'tildi.

Dayren konferensiyasi. Amerika Yaponiyaning Sharqiy Sibirdagi harakatini shubha bilan kuzatardi. 1920-yilning aprelda u yerda barcha chet el qurolli kuchlarini evakuatsiya qilish rejalashtirilgan edi. Biroq, Yaponiya boshqacha qaror qildi. Amerika desantlari Vladivostokdan chiqib ketishi bilan, 5 aprel kuni kechasi Yaponiya qo'qqisdan Primoriyadagi rus garnizonlariga hujum qilib, u yerlarni bosib oldi. 1921-yil iyulda UShR (Uzoq Sharq Respublikasi)ga Ebbot boshchiligidagi Amerika missiyasi yo'l oldi. Tez orada Chitada ham norasmiy Amerika diplomatik vakili paydo bo'ldi.

Yaponiya Sharqiy Sibirdagi xatti-harakatlari uchun Washington konferensiyasida ochiq ayblanishdan qo'rqib, raqiblaridan o'tib ketishga qaror qildi. Smitni Chitaga kelganligidan xavotirga tushib, Yaponiya kechasi UShR vakiliga ikkala davlatlar o'rtasida yaxshi aloqalar o'rnatishni taklif etdi. Shu bilan bu kelishuv sir bo'lib qolishi shartini qo'ydi.

1921-yil 26-avgustda Dayrenda muzokaralar boshlandi. E.N.Petrov boshchiligidagi UShR delegatsiyasi Yaponiyadan darhol yapon askarlarini evokuatsiya qilishni talab qildi. Uzoq muzokaralar boshlandi.

1921-yil oktabrda yapon delegatsiyasi UShR vakillariga ultimatum ko'rinishidagi talabni qo'ydi. U 17 ta punkt va yashirin 3 ta banddan iborat edi. Uni qabul qilish UShR Yapon davlatidan iqtisodiy va siyosiy qaramlikkka tushib qolish degani edi. 15 ta punktda Yaponiyaga Shimoliy Saxalinni 15 yilga ijaraga berish ham talab qilingan edi.

Yashirin punktlarda Yapon hukumati Uzoq Sharqdan o'zining qurolli kuchlarini o'zi xohlagan paytda olishi ko'rsatilgan edi. UShR delegatlari bunday talablarni qabul qilishdan bosh tortdi. Biroq, Yaponiya Washington konferensiyasida UShR bilan ularning o'zlarining aybi bilan aloqalarni yaxshilay

olmayotganligini bahona qilishini xohlamasdan, UShR muzokaralarni davom ettirdi. Washington konferensiyasi ochilganda Dayren konferensiyasi davom etayotgan edi.

1921-yil 12-noyabrda dengiz qurolli kuchlari masalasida Washington konferensiyasi ochildi. Washington yig'ilishlari ochiq va ommaviy deb e'lon qilindi. Delegatlarni har bir chiqishi shu zahoti gazetada chop etilardi. AQShni delegati sifatida Yuz ishtirok etdi. AQSh konferensiyada Yuz davlat sekretarligi tomonidan delegatsiya etib namoyish qilingan hamda konferensiya raisi etib tanlangan.

Ingliz delegatsiyasi Balfur tomonidan boshqarildi. Dominionlar va Hindiston mustaqil vakillikka ega bo'lgan, shuning uchun ham konferensiyada 14 davlat mavjud bo'lgan.

Fransiya delegatsiyasini primer-vazir Brian boshqargan. Anjumanning birinchi majlisidayoq mojaro yuz berdi. Brianning joyi stol markazidan bo'lmadi, markaziy joylar amerikaliklar va inglizlar tomonidan band etilgandi. Shuning uchun stolning chetrog'ida o'tirishiga to'g'ri keldi. Majlisning oxirida ingliz elchisini uzoqroqqa o'tqazib, o'rniga Brianni o'tqazishdi. Fransuz delegatlari hayratda qolishdi, ular ushbu mojaroda Fransiya obro'sini pasayishini haqqoniy ko'rishdi. Yuz birinchi orator bo'lib chiqdi. U anjumanda Amerika vakilligi nomidan yuqori qudratli harbiy kemalar qurilishini to'xtatish, tizimdan eski kemalarni ma'lum miqdorini chiqarib tashlash va ularning chiziqli kemalariga ma'lum bir tonnaj tashkil qilish taklifini kiritdi.

Yuz kelishuv imzolanganidan so'ng 10-yil davomida chiziqli kemalar qurmaslikni, qurilsa ham buzilganlar o'rnigagina qurilishini, Angliyaning yirik floti uchun 500 ming, Amerika uchun 500 ming, Yaponiya uchun 300 ming umumiy tonnaj belgilash taklifini kiritdi. Har bir yangi linkor (kema) 35 ming tonnajdan oshmasligi kerak. yengil kemalar tonnaji Angliya va Amerika uchun 450 mingdan, Yaponiya uchun 270 ming belgilandi. Va nihoyat suvosti kemalari uchun tonnaj Amerika va Angliya uchun 90 mingdan, Yaponiya uchun 40 ming deb aniqlandi. Amerikaliklarning taklifini asosiy maqsadi ravshan edi: Angliyaning

harbiy dengiz qudratidan o‘zib ketish maqsadida boshqa dengiz davlatlarini flotini tonnajini ko‘tarishga kirishdi.

Yuzning talabiga ko‘ra, Angliya 3 oy davomida kelishuvga binoan, chiziqli kema qurilishini to‘xtatishi, tizimda 19 tani chiqarib, 22 tasini olib qolishi kerak edi. Amerika qurilishni to‘xtatib, tizimdan 30 ta kemani chiqarib, 18 tasini qoldirishi kerak edi, Yaponiya esa 8 ta kema qurilishini rad etib, 7 ta yangi linkorni 10 ta eski kemani yo‘q qilishi va yirik kemalar sonini 10 taga yetqazishi kerak edi.

Yuzning bu chiqishi sensatsiya bo‘ldi. Guvohlarning birini aytishicha, Yuz Angliyaning “Qirol Georg V”ga o‘xshagan kemalar qurilishini to‘xtatishi kerak degan paytda ingliz admirali Bitti o‘zini yo‘qotib qo‘ydi.

15-noyabrda navbatdagi majlisda Balfur Angliya Yuzning talab va takliflariga roziligini bildirdi. Majlis yakunida Balfur Loyd Jorjning Yuzga maqtoovlarini eshittirdi. Ingliz vakilligi Amerika loyihasini qo‘llab-quvvatlashga qaror qilganini tushunish qiyin emas edi. Buyuk Britaniya jahon urushi vaqtida davlatdan ulkan harajat talab qilib, ulkan harbiy flot qurdi. Buyuk Britaniyani katta-katta qarzdorligini bajonidil flotdagi shaxs va kemalar tarkibini qisqartirdi. Bundan tashqari, Angliya flotini tarkibida mustahkam jangari kemalar bo‘lishiga intildi.

Balfurning ortida Yaponiya vakili baron Kato chiqdi. U ham, Yaponiya dengiz kuchini qisqartirishni, taklifga roziligini bildirdi. Fransiya vakili Brian ham roziligini bildirdi, lekin Fransiyani ko‘proq quruqlik armiyasi cheklanishi haqidagi masalalar qiziqtirishini qo‘shib qo‘ydi. Washington anjumanidagi davlatlar orasida birdamlik bordek tuyulardi. Yapon delegatsiyasi AQSh, Angliya va Yaponiya 5:5:3 ulushi o‘rniga 10:10:70 ni taklif qildi. Amerika tahdid qila boshladi, agar Yaponiya shunga qanoat qiladigan bo‘lsa, har bir yaponiyalik uchun 4 tadan kema qurishi mumkin edi. O‘shanda Yaponiya Amerika Tinch okeanida harbiy dengiz bazasini qurmasligi sharti bilan Amerika urushiga roziligini bildirdi. Yuz kelajakda Gavaya orollari bilan munosabatlarni mustahkamligi borasida hech qanday ishonch bildirmasligini aytib o‘tdi. uzoq davom etgan kelishuvlar boshlandi.

Majlis ishlarini ochiq oydinligi tantanali e‘lon qilinishini yopiq yig‘ilishda

3 ta davlat - AQSh, Angliya, Yaponiya qaror qildi. Hattoki, Fransiya bexabar edi. Fransiya faol ishtirokiga qaramay, 10 ta zirh tashuvchi qurish huquqi bilan qoldi, ularni har biriga 35 ming tonna edi. Italiya ham o'ziga xuddi shunday tonna talab qildi.

Yuz Fransiya uchun 175 ming tonna talab qildi. Bu bahslardan so'ng Fransiya anjumanni to'xtatishni so'radi. Bunday muhokamalardan so'ng Yuzning loyihasi quyidagicha tus oldi:

AQSh - 525 ming tonna

Angliya - 525 ming tonna

Yaponiya - 315 ming tonna

Fransiya - 175 ming tonna

Italiya - 175 ming tonna.

Savolning muhokamasi bu bilan tugamadi. U komissiyalarni yig'ilishida ham sirli yig'ilishlarda ham davom etdi. Angliya Yuzning taklifiga ko'nganligiga sabab Amerika Fransiya bilan kelishib olishlaridan qo'rqdi. Lekin, Yuzning taklifini qabul qilgandan so'ng Angliyaning ahamiyati kamaydi. Buyuk Britaniya AQSh bilan qurolli kuchlarini tengligini tan olishi kerak edi. Biroq, Fransiya armiyasi kuchli edi. Shuning uchun Angliya o'zining armiyasini faqatgina Fransiya qurolli kuchlarini qisqartirsagina, qurolsizlantirishini aytdi. Amerika Fransiyaning armiyasi qisqarishini xohlamas edi. Chunki, bunda Angliyaning Yevropada ahamiyati ko'chayar edi. Lekin, Amerika qurolli kuchlarini qisqartirishidan maqsad, AQSh Yaponiya armiyasini kuchsizlanishini xohlardi.

Brian shunday deydi: "Fransiya uchun bundanda ortiq sharmandalik bo'lmaydi. Agarda tinchlik uchun kurashadigan biron-bir davlat bo'lsa ham, u ham bo'lsa, Fransiya deydi". U armiyani qisqartirishdan bosh tortdi. U armiya ularga Polsha va G'arbiy Yevropani bol'sheviklardan himoya qilish uchun kerak dedi. Yapon armiyasini qisqarishini Kato ham xohlamadi. Bunday pozitsiyani Belgiya va Italiya ham egalladi.

1921-yil 13-dekabrda Vashington konferensiyasida birinchi bitim imzolandi. Bu 4 ta davlat kelishuvi edi. Kelishuv o'n yilga imzolandi. Kelishuv

Amerika diplomatiyasi yutug'ini bildirardi. Bitim imzolanganidan so'ng 1902-yildagi Yaponiya-Angliya bitimiga yakun yasadi.

1922-yil 6-fevralda qo'shimcha kelishuv imzolandi. Bitimda shunday deyilgan, Qarafuto, Fazmozu, Peskador orollariga Yaponiya mandat oldi. Shundan kelib chiqib, 4 ta davlat kelishuvi SSSR va Xitoyni huquqlarini himoya qiladi.

1922-yil 4-fevralda Angliya, AQSh, Fransiya, Yaponiya, Niderlandiya va 6-fevral Portugaliyaga tantanali xabar qildi. Bunda shunday deyilgan, bu davlatlarga 4 ta davlat tomonidan hurmat bilan qaralishi va yordam berilishi aytilgan.

Uzoq Sharq Respublikasining Vashingtondagi delegatsiyasi. Uzoq Sharq delegatsiyasining Vashington konferensiyasiga kelishi davlatlarni kutilmagan vaziyatga olib keldi. Delegatsiyaga norasmiy ravishda NKVD vakili Yazikov boshchilik qildi.

Delegatsiya kelishi bilanoq memorandum chop ettirdi. Memorandumda delegatsiya Amerika bilan diplomatik aloqalar o'rnatishni va yapon interventlarini qurolli kuchlarini evakuatsiya qilish maqsadida Vashington konferensiyasida ishtirok etishni xohlayotganini yozadi. AQSh UShR Yaponiyaga qarshi qo'llashga qarshi emasdi. Ammo, shu bilan birgalikda AQSh UShR boshqalar bilan tenglashtirgisi kelmasdi. 22-dekabr kuni Yuz UShR delegatsiyasini qabul qildi. Delegatsiya konferensiyada ishtirok etishni talab qildi. Yuz ularga "Sibir masalasi"da yordam berishga va'da berdi, biroq, konferensiyada ishtirok etishiga qarshilik qildi. Ayniqsa, delegatsiyani ishtirokiga yapon va fransuzlar qarshilik qildi. Yaponlar Vladivostokda oq gvardiyachilardan guruh tuzib, ularni konferensiyaga UShR delegatsiyasiga qarshi yubordi.

Yaponiyani bu manyovrga javoban UShR delegatsiyasi 1922-yil yanvarda bir qancha oshkor etuvchi muhim hujjatlarni chop etdi. Bu materiallar ichida Yaponiya va Fransiya o'rtasida UShRda Yaponiyaga butkul qaram davlat tuzish to'g'risidagi kelishuv bor edi. Yana unda Yaponiyaning 1921-yil 2-sentyabrdagi Fransiya bilan yashirin kelishuvini tasdiqlovchi notasi bor edi. Shuningdek, 1921-yil 12-martdagi Fransiya, Yaponiya va oq gvardiyachilar o'rtasidagi kelishuv ham

chop etildi. Bu kelishuvda Yaponiya va Fransiya hukumati Vrangelning armiyasini UShRga tashlashi va ularga UShR hukumatini chetlashtirishga yordam berishi aytilgandi. Yaponiya kompensatsiya sifatida uzoq Sharqda butkul hukmronlikni qo‘lga kiritishi kerak edi.

UShR delegatsiyasini bunday oshkora sensatsiyaga olib keldi. AQSH katta- katta gazetlari bu hujjatlarni qayta-qayta chop eta boshladi. Amerikada bu faktlarni tekshirishni talab qilishdi. Fransiya va Yaponiya bu dokumentlar soxta ekanini ta’kidlashardi. Biroq, senator Bor bu hujjatlar haqiqiy ekanini ta’kidladi.

1922-yil 23-yanvar kuni “Sibir muammosi” konferensiyaning uzoq Sharq komissiya yig‘ilishiga taqdim etildi. Birinchi bo‘lib Yapon delegati Sidehara chiqish qildi. Sidehara “Dayren kelishuvlari” Yaponiyani uzoq Sharqda hech qanday ustunlikka harakat qilishi kerak emasligini ta’kidladi. Shu qatori komissiya qo‘lida Yaponiyaning UShRga qaratilgan 17 ta talabi bor edi. Sidehara o‘z chiqishida Yaponiya Rossiyani chegara daxlsizligiga hurmat bilan qarashini aytib o‘tdi. U yana Yaponiya Rossiya hududidan o‘z askarlarini olib chiqishga va‘da berdi. Biroq, yapon delegati buni qancha vaqt davomida qilishini aytmadi.

Shu kuniyoq UShR delegati javob deklaratsiyasini chop ettirdi. Delegatsiya Yaponiya 1921-yilning o‘zidayoq shunday va‘da bergani va ularni birontasini ham bajarmaganini aytdi. 24-yanvarda uzoq Sharq komissiyasida Yuz chiqish qildi. AQSh 1921-yil 31-mayda o‘zining notasini e‘lon qildi. Yuz ta’kidladiki, AQSh hozir ham Yaponiyani qo‘llab-quvvatlaydi. Fransuz delegatining chiqishidan so‘ng komissiya protokolga Yaponiya va AQSh deklaratsiyasini kiritishni hamda uni konferensiya plenumida ovoza qilishga qaror qildi. “Sibir muammosi” shu bilan tugadi. Biroq, UShR delegatsiyasi o‘zining hujjatlari bilan imperialistik davlatlarni rejalarini oshkor etdi. Bu davlatlar o‘rtasida kelishmovchiliklarga olib keldi.

Besh davlat kelishuvi. Konferensiyaning keyingi ishlari faqatgina Angliya va Fransiya o‘rtasidagi kelishmovchiliklarni ko‘chaytirdi. uzoq muzokaralardan so‘ng beshta davlat - AQSh, Angliya, Yaponiya, Fransiya va Italiya dengiz qurolli kuchlarini qisqartirish to‘g‘risida kelishuv imzoladi. Kelishuvga qaraganda,

ko'rsatilgan davlatlar o'rtasida 5:5:3:1, 75:1, 75 o'lchamida flot belgilangan.

So'nggi hisob bo'yicha Angliya umumiy miqdorda 558950 t ga 20 ta kemaga ega bo'lishi kerak. AQSh 525850 ga 18 kema, Yaponiya 301320 ga 10 kema, Fransiya 221170 ga 10 kema, Italiya 182800 ga 10 kema.

Vashington konferensiyasi kreysler va yerosti flotiga hech qanday chegara qo'ymagan. Kelishuvda aytilishicha, har bir davlat urush paytida kelishuvni to'xtatib turishi mumkin. 1923-yil 17-avgustdagi AQSh tomonidan tasdiqlangan Vashington kelishuvi faqatgina dengiz kuchlarini taqsimlash to'g'risida edi. Kelishuv davlatlar o'rtasidagi kelishmovchiliklarga nuqta qo'ymadi. Aksincha u davlatlar o'rtasidagi keyingi kelishmovchiliklarga sabab bo'ldi.

6.3. "To'qqiz davlat shartnomasi"ning vujudga kelishi va Xitoy.

AQSh davlati Tinch okean va uzoq Sharqda o'z pozitsiyalarini mustahkamlashga, Angliya va Yaponiyaning harbiy-dengiz flotidagi vaqtincha ustunligini yo'qotish va zo'r berib qurollanish uchun vaqtdan yutish maqsadida dengiz qurollarini "cheklash"ga, Parij sulh konferensiyasining uzoq Sharqqa doir qarorlarini qayta ko'rib chiqishga, Parij konferensiyasidagi mag'lubiyat uchun qasos olishga kirishdi. 1921-yil martda hokimiyat tepasiga kelgan prezident Garding boshchiligidagi respublikachilar hukumati Parij konferensiya sizning uzoq Sharqqa doir qarorlarini qayta ko'rib chiqishni o'zining asosiy vazifalaridan biri qilib qo'ydi.

AQSh Angliyaning dengizdagi hukmronligini yo'qotishga, Angliya-Yaponiya ittifoqini tugatishga, Yaponiyaning Xitoyda ko'chaygan pozitsiyasiga putur yetqazishga hamda Xitoyda "ochiq eshiklar va teng imkoniyatlar" prinsipiga rioya qilish bahonasi bilan Xitoyning AQSh tomonidan asoratga solinishi uchun sharoit yaratishga zo'r berib intildi. AQSh o'zining iqtisodiy va moliyaviy quvvatiga tayanib, o'zidan boshqa kapitalistik davlatlarning uzoq Sharq rayonidagi ziddiyatlaridan foydalandi. AQSHning tashabbusi bilan yangi xalqaro konferensiya - Vashington konferensiyasi chaqirildi. Bu konferensiya 1921-yil 12-noyabrdan 1922-yil 6- fevralgacha davom etdi. Konferensiyada 9 ta davlat: AQSh, Angliya,

Fransiya, Italiya, Belgiya, Gollandiya, Portugaliya, Yaponiya va Xitoy qatnashdi. Bu konferensiyada ham AQSh asosiy rol o'ynadi.

Konferensiyaning asosiy hujjatlaridan biri - AQSh, Angliya, Fransiya va Yaponiyaning 1921-yil 13-dekabrda qabul qilgan "To'rt davlat shartnomasi"dir. Bu shartnomada mazkur davlatlarning Tinch okeandagi orollarining daxlsizligi ko'rsatildi. Ular bu orollarga boshqa bironta davlat xavf solgan taqdirda o'zaro maslahatlashish to'g'risida kelishib oldilar. Bu shartnomada 1902-yilda tuzilgan Angliya-Yaponiya ittifoqi tugatildi, u o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblandi. Natijada AQSh Angliyani Yaponiyadan ajratib, katta diplomatik yutuqqa erishdi.

Konferensiyaning asosiy yutuqlaridan yana biri - AQSh, Angliya, Yaponiya, Fransiya va Italiyaning 1922-yil 6-fevralda qabul qilgan "dengiz qurollarini cheklash to'g'risida shartnoma" degan "Besh davlat shartnomasi"dir. Bu shartnomaga muvofiq, AQSh Angliya flotining o'z floti bilan teng darajada bo'lishiga, Yaponiya flotining AQShnikidan ortiq bo'lmasligiga, Angliya bilan Yaponiyaning o'zlarining Tinch okeandagi orollarida harbiy-dengiz bazalari qurmaslik majburiyatini olishiga erishdi.

Konferensiyaning hujjatlaridan yana biri 1922-yil 6-fevralda qabul qilingan Xitoyga nisbatan siyosat to'g'risidagi "To'qqiz davlat shartnomasi"dir. Bu shartnomaga muvofiq, mazkur davlatlar Xitoyning suverenitetini, mustaqilligi va territorial daxlsizligini tanish "majburiyati"ni oldilar. Ular Xitoyda "teng imkoniyatlar" prinsipiga rioya qilib, Xitoyda alohida imtiyozlar va huquqlarga erishish uchun o'rinmaslik va ta'sir doiralari vujudga keltirmaslik "majburiyati" ni oldilar. Yaponiya Shandundan, Angliya Vey Xayveydan voz kechdi. Bu shartnoma Xitoyda AQSh hukmron doiralarining "ochiq eshiklar" va "teng imkoniyatlar" deb atalgan doktrinasini mustahkamladi. Amerika imperialistlarining Xitoyga suqilib kirishlari uchun qo'shimcha imkoniyatlar vujudga keldi.

Vashington konferensiyasida qabul qilingan shartnomalar "Vashington tizimi" deb ataldi. Vashington tizimi Versal tizimining davomi bo'ldi. Versal-Vashington tizimi mamlakatlar o'rtasida mustahkam tinchlik munosabatlari o'rnatmadi. Tinch okeanda kuchlar nisbatini tenglashtirish tartibi mutlaqo beqaror

edi.

Kapitalistik dunyoda Sovet Rossiyasiga nisbatan ikki xil tendensiya vujudga kelgan edi: birinchi tendensiya Sovet Rossiyasi bilan iqtisodiy aloqa o'rnatish tendensiyasi edi. Bu tendensiyadagi davlatlarning ko'pchiligi Sovet rejimining aynib ketishiga va keyin uni taqsimlab olishga umid bog'lar edi. Bu tendensiya vakillari (Angliyada Lloyd-Jorj, Fransiyada Errio, AQShda senatorlar Bora, Uiler va Gudrich)lar edi. Ikkinchi tendensiya qulay imkoniyat topib, Sovet Rossiyasiga qarshi yana qurolli intervensiya qilish tendensiyasi edi. Bu tendensiya vaqti-vaqti bilan oshkora ko'rinib turdi. AQSh prezidenti Garding, davlat sekretari Yuz, Angliyada Cherrill, Kerzon, Fransiyada Klemanso, Puankare, Germaniyada Lyudendorf va boshqalar bu tendensiyani zo'r berib qo'llab-quvvatladilar. Kapitalistik dunyoda birinchi tendensiya ikkinchi tendensiyaga nisbatan ustun chiqdi.

Demak, shuni qayd etish mumkinki, Vashington konferensiyasi Xitoy masalasiga katta ahamiyat berdi. Xitoy hududidagi sobiq nemis yerlarini Yaponiyaga berilganligi sabab, Versal kelishuvini imzolashdan bosh tortdi. Konferensiyada Xitoyga qarashli yerlarni qaytarish masalasi ko'rildi. Oxir-oqibat Yaponiya ba'zi yerlarni (Sindao va Shandun) Xitoyga qaytarishga majbur bo'ldi.

1922-yil 6-fevralda Vashington konferensiyasi ishtirokchilari Xitoy siyosati to'g'risida kelishuv imzolashdi. Besh davlat kelishuvida Xitoy daxlsizligini va "Ochiq eshiklar" siyosatini saqlash aytili. Rasmiy ravishda Yaponiyaning Xitoyga nisbatan "21 talabi" bekor qilinmadi. Yaponlar "hal qilingan masalalarga" qaytmaslikni talab qildi.

Buyuk davlatlar Xitoyni teng huquqliligini xohlashmasdi va uni mustamlaka davlat sifatida qolishini istashardi. Biroq, bu davlatlar Xitoydagi xalq ozodligi kurashini to'xtata olmadi. Vashington konferensiyasi uzoq Sharqdagi dunyo bo'linishiga nuqta qo'ydi. Bu ma'noda u Versalni to'ldirdi. Biroq, 1919-yilda Fransiya va Angliya AQSh diplomatiyasini ilgarilab o'tishga muvaffaq bo'ldi. Vashington konferensiyasida esa anchayin ustunlikka ega bo'ldi. Vashington konferensiyasi buyuk Tinch okeani davlatlari SSSR va Xitoyni

zarariga qaratildi.

Birinchi jahon urushi tugab kelayotgan va Rossiyada Oktabr sotsialistik revolutsiyasi g'alaba qozongan paytda ham Xitoy qoloq, yarim feodal va yarim mustamlaka mamlakat edi. Qishloqda pomeschchiq va quloqlar hukmronlik qilar, iqtisodiy hayot, jumladan, savdo-sotiq chet el monopoliyalari nazorati va qaramligida edi. Lekin shunga qaramay, Xitoyda milliy sanoat rivojlana boshlagan, kapitalistik ukhad shakllanayotgan edi. Milliy burjuaziya bilan chet el kapitali o'rtasida ziddiyatlar ko'chayib bordi, proletariat saflari o'sdi. To'qimachilik sanoatidan tashqari mamlakatda yengil sanoatning boshqa tarmoqlari va oziq-ovqat sanoati vujudga keldi, qazilma boyliklar qazib chiqarish ortdi. Milliy burjuaziyaning iqtisodiy va siyosiy pozitsiyalari mustahkamlanib, uning ilg'or vakillari orasida kapitalizm taraqqiyotiga g'ov bo'layotgan feodal munosabatlar va chet el kapitali hukmronligiga qarshi kayfiyatlar o'sib bordi.

Oktyabr inqilobining g'alabasi tufayli Sharq mamlakatlari, jumladan, Xitoyning xalqaro ahvoli tubdan o'zgardi. O'sha paytda imperialistik davlatlar Xitoy ishlariga aralashishni ko'chaytirib yuborgan edilar. Ayniqsa AQSh imperializmi o'zining "ochiq eshiklar" va "teng imkoniyatlar" siyosati bilan mamlakatning savdo-sotiq va moliya ishlariga hukmron bo'lib olishga intilar edi. AQSh va Yaponiya Xitoyning antisovet siyosat yuritishiga erishish uchun sovet-xitoy muzokaralari (1919-yil)ni buzish maqsadida Pekin hukumatining reaksion doiralaridan foydalandilar. Yaponiya va AQSh imperializmi va mahalliy reaksionerlarning ikki yoqlama zulmi hamda antisovet siyosati Xitoy xalq ommasi keng tabaqalarini g'azablantirar edi.

1919-yil mayda boshlangan keng milliy-ozodlik harakati, avvalo, AQSh yordamida harakat qilayotgan yapon imperializmiga qarshi qaratilgan edi. "4-5 may harakati" deb mashhur bo'lgan bu harakat Xitoy xalqi ozodlik kurashining yangi davrini boshlab berdi. 1919-yil 4-mayda 5 ming pekinlik student Versal konferensiyasi Germaniyaning Shandundagi konsessiya huquqlarini Yaponiyaga berganligiga qarshi norozilik bildirdi. Studentlar va 71 ta demokratik ruhdagi ziyolilarning "4-5-may harakati" "Xitoy-xitoyliklar uchun!" shiori ostida,

Yaponiyaning “21 talabi”ga bo‘ysunmaslik ruhida ko‘tarildi. Namoyishlar politsiya va qo‘shinlar tomonidan bostirildi. Hukumatning studentlardan bunday o‘ch olishi harakat ko‘lamini yanada kengayishiga, butun mamlakatga yoyilishiga, tashkiliy tus olishiga olib keldi.

1919-yil 25-iyulda Xitoy hukumatiga qarata qilgan murojaatida Sovet hukumati o‘zining Xitoy bilan do‘stona aloqalar o‘rnatishga tayyor ekanligini, u bilan tuzilgan ilgarigi noteng huquqli shartnomalardan voz kechishini, Xitoyning tengligi va suverenitetini hurmat qilishini tantanali suratda e‘lon qilgan edi. Bu murojaatni keng xitoy tabaqalari zo‘r xursandchilik bilan kutib oldilar.

Oktabr rezolyusiyasi va uning bevosita ta’siri ostida 1921-yilda Xitoy Kommunistik partiyasi tuzildi. Partiya keng xalq ommasi orasida ish olib borgan marksistik to‘garaklar negizida tashkil topgan edi. 1921-yil 1-iyulda Shanxayda Xitoy Kompartiyasining II s‘yezdi ochildi. S‘yezd partiya Ustavini qabul qildi. Rahbar organlarni sayladi, Xitoy Kommunistik partiyasining tashkil topishida V.I.Lenin asos solgan Kommunistik Internatsional ham katta ta’sir ko‘rsatdi.

Xitoy tarixining bu davri uchun 1921-1922 yillarda bo‘lib o‘tgan, talonchilik harakteridagi Vashington konferensiyasi ham alohida o‘rin tutadi. Konferensiyadagi “9 davlat shartnomasi”da Xitoyning mustaqilligi, territorial butunligi rasmiyat uchungina e’tirof etildi. AQShning “ochiq eshiklar” siyosati o‘z kuchini saqlab qoldi.

Xitoy Kompartiyasining II s‘yezdi (1922-yil, may) partiyaning Kominternga kirishi haqida qaror va partiyaning yaqin fursatdagi vazifalarini belgilagan programm-manifest qabul qildi. Xitoy dehqonlar ommasining uyg‘onishi kompartiya faoliyati bilan chambarchas bog‘langandir. Xitoy Kompartiyasi mamlakatdagi progressiv kuchlarni yagona frontga birlashtirish yo‘lini tutdi, Gomindanga kirishga qaror qildi. Bunda partiyaning g‘oyaviy, tashkiliy mustaqilligini saqlash va mustahkamlash zarur edi.

SSSR bilan Xitoy o‘rtasida normal diplomatik munosabatlarni o‘rnatishda Sovet-Xitoy muzokaralari katta rol o‘ynadi. AQSh, Yaponiya, Fransiya diplomatiyasi muzokaralarni buzishga bir necha bor o‘rindi. Biroq, Xitoy

jamoatchiligi sovet-xitoy bitimi tuzishni qat'iy talab qilardi. 1924-yil 31-mayda mamlakatning xalqaro aloqalari tarixida yangi davr ochgan sovet-xitoy bitimi imzolandi. Xitoy tarixida birinchi marta ulug' davlat bilan teng huquqlilik, o'zaro manfaatdorlik va suverenitetni hurmat qilish asosida bitim tuzilgan edi.

Genuya va Lozanna xalqaro konferensiyalari hamda ularning urushdan keyingi dunyo uchun ahamiyati. 1922-yil yanvar oyida Antanta oliy kengashi Markaziy va Sharqiy Yevropa iqtisodiyotini tiklash dasto'rini ishlab chiqish uchun Genuyada xalqaro iqtisodiy konferensiya chakirishga qaror qildi. Konferensiya ishiga Birinchi jahon urushi goliblaridan tashqari, Sovet Rossiyasi, Germaniya, Avstriya, Vengriya va Bolgariya ham taklif etildi.

Genuya konferensiyasi 1922-yil 10-apreldan to 19-maygacha davom etib, unda 34 davlat vakillari ishtirok etdi. Konferensiyada Angliya va Fransiya davlatlari asosiy rol uynadilar. Bu konferensiyada Antanta oliy kengashi Sovet Rossiyasidan 18 mlrd. rubl tulov undirib olmoqchi bo'ldi, biroq Sovet Rossiyasi delegatsiyasining boshlig'i Chicherin bu to'lovlarni inkor etdi. Ana shu xalqaro konferensiya davomida 1922-yil 16 aprelda Genuya yaqinidagi Rapallo shahrida RSFSR delegatsiyasi bilan Germaniya delegatsiyasi o'rtasida uchrashuv bo'ldi va har ikki davlatning pozitsiyasi ancha mustahkamlandi. Ammo, Genuya xalqaro iqtisodiy konferensiyasida Antanta davlatlari o'z maqsadlariga erisha olmadilar. Shu sababli, muzokaralar 1922-yil 15-iyundan 20-iyulgacha Gaaga konferensiyasida davom ettirildi, ammo bu konferensiya ham deyarli hech qanday natijasiz tugadi.

1918-1922 yillar davomida Turkiyada Milliy ozodlik harakati avj oldi. Bu Angliya hukmronligiga sarshi saratilgan edi. Turkiyaning Mustafa Kamol boshchiligidagi yangi hukumati Sevr sulx shartnomasini tan olmadi. Antanta a'zolari, xususan, Angliyaning Turkiyaga sarshi uyushtirilgan harbiy intervensiyasi 1922-yil avgust-sentabrda tor-mor etildi. 1922-yil 11-oktabrda Antanta bilan Turkiya o'rtasida yarash bitimi imzolandi. Angliyaning Yatsin Sharsdagi siyosati mag'lubiyatga uchradi. Antanta davlatlari Turkiya bilan yangi sulh shartnomasini ishlab chiqish uchun va Yatsin Shars inqirozini bartaraf etish massadida

Lozannada xalqaro konferensiya chaqirdilar. Konferensiya 1922-yil 20-noyabrdan 1923-yil 24-iyulgacha tanaffuslar bilan davom etdi. Konferensiyada Angliya, Fransiya, Italiya, Yaponiya, Gresiya, Ruminiya, Yugoslaviya va Turkiya vakillari ishtirok etdilar. AQSh vakili kuzatuvchi sifatida satnashdi.

Sovet hukumatining talablari natijasida Antanta davlatlari kurfazlar masalasini muhokama qilish uchun Sovet respublikalari (RSFSR, Ukraina, Gruziya) vakillarini konferensiyaga taklif qilishga majbur bo'ldilar. Konferensiyada Bosfor va Dardanell bug'ozlari rejimi to'g'risidagi masala muhokama qilindi. Angliya, Fransiya, Italiya o'z harbiy kemalarining hamma vaqt, ya'ni tinchlik davrida ham, urush jarayonlarida ham bug'ozlardan bemalol o'tib turishini ta'minlamoqchi bo'ldilar. Ammo, Sovet respublikalari va Turkiya bunga qarshi chiqdilar. Biroq Angliya, Fransiya va Italiya davlatlari o'z manfaatlariga mos keladigan konvensiya qabul qilishga muvaffaq bo'ldilar. Bu bitimga ko'ra, bug'ozlar demilitarizatsiya qilindi. Tinchlik davrida va urush paytida barcha mamlakatlarning savdo va harbiy kemalari bug'ozlardan bemalol o'ta oladigan bo'ldi. Sovet davlati Lozannada qabul qilingan konvensiyaga qushilmadi.

Konvensiya oxirida Lozanna sulh shartnomasi tuzildi. Unga ko'ra, kapitulyatsiya rejimi, Turkiya moliyasining buyuk davlatlar tomonidan nazorat qilinishi va uning qurolli kuchlarini cheklash bekor qilindi. Sharqiy Frakiya, ya'ni Adrianopol bilan birga Armanistonning turklar yashaydigan qismi, Kurdiston va bir qator o'lkalar Turkiyaga qaytarildi. Konferensiyada Turkiya xalqaro miqyosda o'z suverenitetini mustahkamlashga muvaffaq bo'ldi.

1919-yilda Angliyaning Afgonistondagi mavqeiga ham kuchli zarba berildi. Angliya Omonulloxon boshchiligidagi “Yosh afg‘onlar” hokimiyatini tan olishga majbur bo‘ldi. Afg‘oniston o‘z mustaqilligiga erishgan bo‘lsa-da, biroq Qo‘qonda tashkil etilgan Turkiston muxtoriyati bolsheviklar tomonidan bostirildi va 1918 yilda Fargona vodiysida boshlangan milliy ozodlik harakati 1920 yillar oxirigacha davom etdi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Vashington konferensiyasiga muvofiq “To‘rtlar shartnomasi”ni tuzgan davlatlar va ularning maqsadlari nimadan iborat edi?
2. Versal shartnomasiga muvofiq Millatlar Ligasini tuzish bo‘yicha Fransiya, Angliya va AQSh proektlarining bir-biridan farqi nimada?
3. Birinchi jahon urushi yakuniga ko‘ra, Germaniyaga nima uchun ko‘ngillilardan iborat 100 ming qo‘shin saqlash huquqi berildi?
4. Birinchi jahon urushi yakuniga ko‘ra, Avstriya-Vengriyaga qanday choralar ko‘rildi?
5. Vashington konferensiyasiga ko‘ra, Yaponiya qaysi hududlarni Xitoyga berishga majbur bo‘ladi?
6. “To‘qqiz davlat shartnomasi”ning maqsadi haqida so‘zlab bering.
7. Vashington konferensiyasida qabul qilingan xalqaro munosabatlar tizimida dengizda qurollanishni cheklovchi birinchi shartnoma haqida so‘zlab bering.
8. Qaysi shartnoma imlolanishi bilan Versal-Vashington tizimining shakllanishi oxiriga yetkazilgan?
9. Vashington konferensiyasida 9 ta davlat vakillari qatnashgan bo‘lsa-da, asosiy masalalarni hal qilishda qaysi davlatlar vakillari ko‘proq rol o‘ynadi?
10. Nega Versal shartnomasini AQSH senati tasdiqlamadi?

7-MAVZU. XX ASR 20-YILLARINING IKKINCHI YARMI VA 30-YILLARNING BOSHLARIDA XALQARO MUNOSABATLAR

Reja:

- 7.1. Xalqaro munosabatlarda Germaniya qarzlari masalasi.**
- 7.2. Sharqda davlatlararo ziddiyatlarning keskinlashuvi.**
- 7.3. Jahon iqtisodiy inqirozi va uning oqibatlari.**
- 7.4. Uzos Sharqda va Yevropada vujudga kelgan urushning “ikki uchogi”.**
- 7.5. SSSR xalqaro munosabatlarining murakkablashuvi.**
- 7.6. Ikkinchi jahon urushi arafasidagi xalqaro vaziyat.**

Tayanch tushunchalar: *Lokarno konferensiyasi va Lokarno ahdnomasi. «Brian-Kellog ahdnomasi» va uning taqdiri. Yung rejasi. Guverning reparasiyalar va davlatlararo qarzlarni to'xtatish to'g'risidagi bayonoti. Lozanna konferensiyasi (1932). Qurolsizlantirish bo'yicha Jeneva xalqaro konferensiyasi (1932). SSSR va Fransiya o'rtasidagi hujum qilmaslik to'g'risidagi ahdnomaning imzolanishi (1932). Shimoliy Sharqiy Xitoyning Yaponiya tomonidan bosib olinishi. Manjou-go. Litton komissiyasi va Yaponiyaning Millatlar Ligasidan chiqib ketishi. Sudet inqirozi. Myunxen bitimi. Ribbentrop-Molotov ahdnomasi. Ahdnomaning maxfiy bandlari. Xasan ko'li va Xalxin-Gol daryosi atrofidagi voqealar.*

7.1. Xalqaro munosabatlarda Germaniya qarzlari masalasi.

1924-yilga kelib, Sharxda xam, G'arbda ham ishilibiy harakatlar birmuncha pasaydi, ko'pgina jahon mamlakatlarida boshqaruv tizimi liberal metodlar asosida olib borildi. Xalqaro munosabatlardagi keskinlik birmuncha yumshadi, aynan 1924-1929 yillarni xalqaro munosabatlar tarixida barqarorlashuv yillari deb nomlashadi. 1924-yildayoq Fransiyada, 1927-yilda Germaniyadagi sanoat maxsulotlari ishlab chiqarish Birinchi jahon urushidan oldingi darajaga yetdi. Angliyada sanoat maxsulotlarining ishlab chiharilishi birmuncha sust darajada edi. Angliyadan farqli o'laroq AQShda rivojlanish tez sur'atlar bilan bormoqda edi.

Shu sababli, dunyo miqyosida AQSh yetakchi mavqega ega bo'ldi. Tashqi bozordagi raqobat, asosan, yetakchi davlatlar o'rtasida kechayotgan edi.

Janubiy Amerika, Xitoy, Kanada, Avstraliya bozorlarida AQSH bilan Angliya o'rtasida kuchli raqobat kechayotgan bo'lsa, Tinch okean hududida joylashgan mamlakatlarda AQSH bilan Yaponiya o'rtasida ziddiyat ko'chaydi.

Yevropa bozorlarida esa Germaniya Angliya, Fransiya, AQSH va boshqa davlatlar bilan muvaffaqiyatli raqobat olib bormoqda edi. 1924-yilning fevral-oktabr oylari mobaynida sobiq SSSR Angliya, Italiya, Norvegiya, Avstriya, Gresiya, Shvesiya, Xitoy, Daniya, Meksika, Vengriya, Fransiya tomonidan tan olindi. 1925-yilda esa sobiq SSSR bilan Yaponiya va Kanada o'rtasida aloqalar o'rnatildi.

O'sha davrdagi xalqaro munosabatlarda Germaniya masalasi murakkab muammolardan biri edi. 1921-yilda Germaniyaning Antanta mamlakatlariga bo'lgan qarzi 132 mlrd. oltin markada belgilangan bo'lsa-da, biroq bu qarzni qanday yo'l bilan o'ndirish masalasi belgilanmagan edi.

1923-yil yanvar oyida Parijda chaqirilgan konferensiyada Angliya yangi tashabbus bilan chiqdi, unga ko'ra reparatsiya to'lovlarini 4 yilga kechiqtirish va to'lov summalarini 50 mlrd. oltin marka qilib belgilash nazarda tutilgan edi. Bu reja angliyalik ekspert Bonar Lou tomonidan ishlab chiqilganligi bois, u "Bonar Lou rejasi" nomini oldi. Biroq Fransiya bu rejaga qarshi chiqdi va u konferensiyada qabul qilinmadi.

1923-yil 11-yanvar kuni reparatsiya komissiyasi a'zolarining roziligi bilan Fransiya va Belgiya qo'shinlari Germaniyaning Rur viloyatini ishg'ol qildilar. Shu voqea tufayli Germaniya-Fransiya munosabatlari nihoyatda keskinlashdi, SSSR ham Fransiya va Belgiyaning bu siyosatiga qarshi chiqdi.

O'z navbatida, xalqaro munosabatlarda Fransiya-Angliya, Fransiya - AQSH, Angliya-AQSH o'rtalaridagi munosabatlar yomonlashdi. Ammo Germaniyadagi inqilobiy kuchlar dunyoning yetakchi davlatlarini jipslashishga majbur etdi.

Antanta kengashi ochiqdan-ochiq Germaniyaning ichki ishlariga aralasha

boshladi. Ekspertlar qo‘mitasi AQSH vakili Charlz Daues boshchiligida yangi reparatsion reja ishlab chiqdi. Aynan ana shu rejaning ishlab chiqilishi davomida 1924-yilning iyul-avgust oylarida Fransiya va Belgiya qo‘shinlari Rur viloyatidan olib chiqildi.

Charlz Daues rejasiga binoan, Germaniyaga 1925-yildan 1929-yilgacha har yili reparatsiya tulovini 1 mlrd. oltin markadan 2,5 mlrd. markaga oshirib borish, 1929-yildan boshlab har yili 2,5 mlrd. markadan tulash majburiyati yuklatildi. Charlz Daues rejasiga muvofiq, AQSH va boshqa Antanta mamlakatlari Germaniya iqtisodiyoti nazoratini o‘z qo‘l lariga olishlari va nemis xalqi bo‘yniga og‘ir qarzni yuklash va uni undirish nazarda tutilgan edi.

1924-yilgi London konferensiyasidan so‘ng Yevropa siyosatidagi ustunlik Fransiyadan Angliyaga, so‘ng Ch.Daues rejasi tufayli AQSHga o‘tdi. Germaniya 1924-1929 yillar davomida chet mamlakatlardan, asosan, AQSH va Angliyadan 21 mlrd. marka kredit oldi. 1928-yilga kelib Germaniyaning iqtisodi birmuncha barqarorlashdi. Aynan 1928-yil kuzida Germaniya hukumati Reyn hududining okkupatsiya qilinishini va Charlz Daues rejasining qaytadan ko‘rib chiqilishini talab qildi. AQSHning tashabbusi bilan amerikalik bankir Ouen Yung boshchiligida AQSH, Angliya, Fransiya, Italiya, Yaponiya, Germaniya va Belgiya moliya ekspertlari qo‘mitasi “Ouen Yung rejasi”ni ishlab chiqdilar. Bu reja 1929-yilda Gaaga xalqaro konferensiyasi ishtirokchilari tomonidan ma’qullandi va 1930-yil yanvar oyida bo‘lib o‘tgan Gaaga konferensiyasi tomonidan tasdiqlandi.

Ushbu rejaga muvofiq, AQSH kapitali uchun Yevropada yangi muhit yaratilishi va kelgusida Germaniyaning SSSRga qarshi kurash olib borishi uchun uni qo‘llab-quvvatlash nazarda tutilgan edi. Ouen Yung rejasiga ko‘ra, Germaniyaning reparatsiya to‘lovi 59 yilga cho‘zilishi va 1988-yilgacha davom etishi kerak edi. Bu davrda Germaniya 113,9 mlrd. marka reparatsiya to‘lashi va yaqin 37 yil mobaynida reparatsiyaning yillik to‘lovi 2 mlrd. marka qilib belgilandi. Endilikda Germaniyaning temir yo‘llaridan keladigan foydalar reparatsiyaning birdan-bir maqsadi qilib belgilandi. Shunday qilib, Germaniya iqtisodiyoti ustidan o‘rnatilgan nazorat AQSH tashabbusi bilan butunlay bekor

qilindi. Shu munosabat bilan, Charlz Daues rejasi Ouen Yung rejasi bilan almashtirildi. Bu Germaniya xalqiga ancha yengillik keltirdi va reparatsiya to'lovlarini yig'ish ishi Germaniya hukumatiga topshirildi.

1925-yil 5-16 oktabr kunlari Shveysariyaning Lokarno shahrida Germaniya masalasi bo'yicha xalqaro konferensiya chaqirildi. Uning ishida Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Germaniya va Belgiya vakillari ishtirok etdilar. Konferensiya oxirida Chexoslovakiya va Polsha vakillari ham chaqirildilar. AQSH vakillari bu konferensiyada qatnashmagan bo'lsa-da, biroq, uning qarorlar qabul qilish jarayonida chetdan turib katta ta'sir ko'rsatdilar. Konferensiyada ahdnoma qabul qilinib, unda Germaniyaning Versal sulh shartnomalarini bajarishi va Reyndagi demilitarizatsiya zonasini bundan keyin ham buzmasligi ta'kidlab ko'rsatildi.

Ahdnoma shartlariga muvofiq Buyuk Britaniya bilan Italiya Fransiya va Belgiyani Germaniya hujumidan, Germaniyani esa - Fransiya va Belgiya armiyasi hujumidan xurixlaydigan bo'ldilar. Reyn axdnomasidan tashqari, arbitraj to'g'risida Fransiya-Germaniya, Germaniya-Belgiya, Germaniya-Polsha, Germaniya-Chexoslovakiya shartnomalari tuzildi.

Bir necha yillar Fransiya bosh vaziri va tashqi ishlar vaziri bo'lib ishlagan Aristid Brian Fransiya pozitsiyasini mustahkamlash va AQSH bilan o'z tashqi siyosatini muvofiqlashtirish maqsadida, AQSH davlat kotibi Aleksandr Kellogga murojaat qildi va o'zaro urush qilmaslik to'g'risida bitim tuzishni taklif etdi. Bu taklif 1927-yil aprel oyida ilgari surildi va har ikki tomondan imzolandi. 1928-yilning 27-avgustida "Brian-Kellog ahdnomasi"da milliy siyosatning quroli sifatida urushdan voz kechish, mojaroli masalalarni tinch yo'l bilan hal etish g'oyasi ilgari surilgan edi.

7.2. Sharqda davlatlararo ziddiyatlarning keskinlashuvi.

Bu davrda xalqaro ziddiyatlar ko'chayib bormoqda edi. Germaniyada "Mustamlakachilik imperiyasi amaliy hamkorligi", "Reyxstagning mustamlaka qo'mitasi" va boshqa revanshist, urushqoq tashkilotlar tuzilgan bo'lib, ular Versal sistemasi shartnomalari va qarorlarini qaytadan ko'rib chiqishni talab qilayotgan

edilar.

1927-yilda yana bir muhim voqea yuz berdi. Afgonistonda istiqomat qilayotgan sobiq Buxoro amiri Sayid Olimxon “Millatlar ligasi” qarorgohi joylashgan Shveysariyaning Jeneva shahriga o‘z vakili general Muhimboy orqali maxsus hujjat junatdi. Unda Buxoro amirligi hududini bolsheviklar tomonidan zo‘ravonlik bilan bosib olinganligi va endi Buxoro bir necha viloyatga bo‘linganligi hamda sobiq Buxoro amirligining aholisi, tabiiy boyliklari, ma‘muriy tuzilishi haqida batafsil ma‘lumot berilgan edi. Sayid Olimxon bu maktubida “Millatlar ligasi” dan Buxoro amirligi mustaqilligini tiklash uchun yordam suragan edi. Buxoro davlatini tiklashda “Millatlar ligasi” yordam berishga va‘da bergan bo‘lsa-da, bu ishni amalga oshirish juda mushkul edi.

1927-yil Yaponiyada “Tanaka memorandumini” ishlab chiqildi. Bosh vazir Tanaka Tinch okean hududida yangi va yangi mustamlakalarni qo‘l ga kiritish uchun “Qilich va qon siyosati”ni yurgizish g‘oyasini ilgari surdi.

1926-1927 yillar davomida Sharqda, ayniqsa, Osiyoda milliy-ozodlik harakati avj oldi. Indoneziya aholisi Gollandiyaga qarshi, Hindixitoy xalqlari Fransiyaga qarshi ozodlik harakatlarini olib bordilar. Hindistonda esa Angliyaga qarshi antiimperialistik harakat avj oldi. Marokashda Fransiya va Ispaniya mustamlakachiligiga qarshi kurash boshlandi. Suriya ham o‘z mustaqilligi uchun kurash olib borayotgan edi. 1924-yilda boshlangan inqilobiy harakat milliy-ozodlik harakatiga aylandi va bu harakat tobora yuksalib bordi. Xitoyda 1924-yilda boshlangan inqilobiy harakat milliy-ozodlik harakatiga aylandi va bu harakat ham yuksalib bordi. 1925-yil may oyida Angliya, AQSh politsiyalari Shanxay ishchilari va talabalarining tinch namoyishlarini o‘qqa tutdi. Bu yovuzlik Xitoy xalqini yoppasiga kurashga chorladi. Xitoy xalqi G‘arb davlatlarining Xitoydagi barcha imtiyozlari va tenglikka asoslanmagan barcha shartnomalarning bekor qilinishini, chet el qurolli kuchlarining Xitoydan olib chiqib ketilishini talab qildi.

1927-yil bahorida AQSh, Angliya, Yaponiya va Fransiya Xitoyga qarshi ochiq intervensiya e‘lon qildilar. Nankin va boshqa shaharlarning aholisi o‘qqa tutildi. Xorijliklarning 170 ta harbiy kemasi Xitoy sohillarida paydo bo‘ldi. Xitoy

xalqiga qarshi o'tkazilgan zug'um, do'q-pupisa barcha mazlum Sharq xalqlariga ham qaratilgan edi.

Ammo Xitoydagi milliy-ozodlik harakati ko'chaygan sari G'arb davlatlarining Xitoydagi mavqeyi susayib bordi. Shunday qilib, 1924-1929 yillar davomida G'arb davlatlarida vaziyat ancha barqarorlashdi, ammo bu holat ziddiyatlarni hal qilolmadi. Shu bilan birga, Sharq xalqlarining milliy-ozodlik kurashi G'arbning yetakchi davlatlaridan Sharqning mazlum aholisi talablari bilan hisoblashishga, shuningdek, ularni boshqaruvning "yumshoqroq", zamonaviy usullarini joriy qilishga majbur eta boshladi.

7.3. Jahon iqtisodiy inqirozi va uning oqibatlari.

1929-yilning oxiriga kelib, barqarorlashuv tugadi va jahon iqtisodiy inqirozi boshlandi. Bu inqiroz Birinchi jahon urushidan keyin yuzaga kelgan bo'lib, dunyo xo'jaligining barcha jabhalarini qamrab oldi va 1933-yilga qadar, ayrim mintaqalarda esa 1934-yilgacha davom etdi. Dunyoni larzaga keltirgan ushbu inqiroz oqibatlarini Birinchi jahon urushi oqibatlari bilan qiyoslash mumkin. Rivojlangan mamlakatlarda sanoat mahsulotlari 36 foizga, po'lat va cho'yan eritish 60-65 foizga qisqardi. 1933-yilga kelib, dunyo miqyosidagi ishsizlar soni 30 mln. dan oshib ketdi. Inqirozning agrar sektordagi oqibatlari natijasida oziq-ovqat maxsulotlari yetishtirish tanqislikka uchradi. Oziq-ovqat tanqisligi, sanoat maxsulotlari ishlab chiqarishdagi retsessiya butun dunyo xalqlari o'rtasida norozilik va inqilobiy chiqishlarga olib keldi. Angliya-AQSh, AQSH-Yaponiya, Fransiya-Italiya, Angliya-Fransiya davlatlari o'rtasidagi ziddiyatlar keskinlashib bordi. Shu bilan birga, metropoliyalar va mustamlakalar o'rtasidagi ziddiyatlar xam avj oldi. Sobiq SSSR va G'arb davlatlari o'rtasidagi qarama- qarshiliklar harbiy aviatsiya, harbiy dengiz kuchlari va quruqlikdagi harbiy kuchlar sonining oshib borishiga sabab bo'ldi.

1931-1932 yillarga kelib, AQSHning homiyligi va, eng avvalo, jahon iqtisodiy inqirozining og'ir kechishi natijasida, Germaniya hukumati reparatsiya to'lovlarini to'lashdan bosh tortdi. Ouen Yung rejasi o'z kuchini yo'qotdi. Biz

yuqorida aytib o'tganimizdek, 1929-yilga kelib Germaniya o'zini ancha tiklab olgan edi. 1929-1930 yillar mobaynida sobiq SSSRda yuz bergan ichki kurash avj oldi. Aynan 1929-yilda Stalin tomonidan Yangi iqtisodiy siyosat barbod etildi. Sobiq SSSRda quloqlashtirish va jamoalashtirish avjiga chiqdi hamda rejali iqtisodiyot, ya'ni "besh yilliklar rejasi" amalga joriy qilina boshladi. O'z navbatida, quloqlashtirish va jamoalashtirish dahriylik shiori ostida olib borildi: bir qancha cherkovlar, masjidlar, ibodatxonalar, tarixiy yodgorliklar buzib tashlandi. Bo'larning barchasi "madaniy inqilob" shiori ostida olib borildi. Shu bilan birga, sobiq SSSR hududidagi islom sivilizatsiyasiga mansub xalqlar, shu jumladan, o'zbeklarning imlosi arab yozuvidan lotin yozuviga o'tkazildi. 1929-yildan boshlab jadidlar ta'qib ostiga olindi, ularga nisbatan keng qamrovli va shafqatsiz qatagon siyosati boshlab yuborildi.

Afgonistonda esa 1919-yildan beri mamlakatni boshqarib kelayotgan, "yosh afg'onlar" harakatining amiri bo'lgan Omonulloxon ichki nizolar tufayli taxtdan ag'darildi. Natijada, Afg'onistonda u o'tkazayotgan ilg'or islohotlar to'xtab qoldi.

Sobiq SSSRda olib borilayotgan dahriylik siyosati Rim papasi Piy XI ni dindorlarga murojaat qilishga undadi. Rim papasi o'z murojaatida sobiq SSSR dagi olib borilayotgan dahriylik siyosatini qoraladi va barcha xristianlarni SSSRga qarshi "salib yurishi"ni tashkil etishga chaqirdi.

1930-yil may oyida Fransiya tashqi ishlar vaziri Aristid Brian jahon iqtisodiy inqirozidan xalos bo'lish uchun yevropaliklarni hamkorlik qilishga da'vat etdi. Uning fikriga ko'ra, Yevropa davlatlari federatsiya asosida birlashishlari lozim edi.

Fransiyaning "federatsiya ittifoqi" g'oyasini faqat Polsha va Chexoslovakiya rahbarlari yoqlab chiqdilar. Fransiyaning "federatsiya ittifoqi" yoki **panyevropeizm** siyosatiga Angliya kattik qarshilik ko'rsatdi. Boshqa Yevropa davlatlari xam Fransiya tashqi ishlar vaziri A.Brianning bu g'oyasini qo'llab-quvvatlamadilar.

Jahon iqtisodiy inqirozi yillarida dunyoni yana qayta taqsimlab olish siyosati keng avj oldi. uzoq Sharqda, Xitoyda bozorlarni va xomashyo manbalarini ko'prok egallash hamda shu yul orkali bu mamlakatlarda o'z mavqelarini mustaxkamlash

uchun kurashda Yaponiya, AQSh va Angliya o'rtasida rakobat ko'chaydi. Yaponiya o'zi uchun qo'l ay vaziyatdan foydalandi, chunki Xitoyda fuqarolar urushi davomida Gomindan raxbarlarining Xitoy inqilobchilariga qarshi kurashi avj olgan edi. Shu bilan birga, G'arb davlatlari va sobiq SSSR o'rtasidagi ziddiyatlardan foydalangan Yaponiya davlati "Tanaka memorandumini" asosida o'zining keng bosqinchilik rejalarini amalga oshirishga kirishdi. Yaponiya birinchi bo'lib Versal-Vashington sistemasini qayta kurib chiqishga o'rindi. Yaponiya o'z mustamlakasi bo'lgan Koreyaning shimoliy qismini harbiy plasdarmga aylantirdi.

7.4. Uzoq Sharqda va Yevropada vujudga kelgan urushning "ikki uchog'i".

1931-yil sentabr – 1932-yil fevralda Yaponiya Xitoyning shimoli-sharqida joylashgan Manchjuriya hududini bosib oldi va u yerda qug'irchoq hukumat shaklida bo'lgan Manchjou-Go davlatini tuzdi. Xitoyning shimoli-sharqiy qismi Yaponiyaning tajovuzkor plasdarmiga aylantirildi. Shu tariqa, 1931-1932 yillar davomida uzoq Sharqda urushning birinchi uchogi vujudga keldi.

Albatta, Yaponiyaning Xitoydagi ekspansiyasi G'arb davlatlari va, ayniqsa, AQSH manfaatlariga zid kelar edi. Biroq AQSH Yaponiyaning bu xatti-harakatlarining oldini olmadi, chunki u Yaponiyadan sobiq SSSRga qarshi foydalanish maqsadida edi.

To'g'ri, AQSH Yaponiya agressiyasini yuzaki qaraganda go'yo qoraladi va Yaponiya bilan Xitoy o'rtasida vositachilik qildi. Biroq u Yaponiya agressiyasini shimolga yo'naltirishga o'rinayotgan edi. AQSh Yaponiya va Xitoy qo'shinlari orasida "betaraf hudud" tuzib, u yerga AQSh, Angliya, Fransiya qo'shinlarini kirgizishga va shu yo'l bilan uzoq Sharqda o'z pozitsiyasini mustahkamlashga o'rinayotgan edi.

Xitoy Yaponiya agressiyasiga e'tiroz bildirib, Millatlar Ligasiga murojaat qildi. Millatlar ligasi Yaponiyaning Xitoydagi agressiyasini qoraladi, biroq unga qarshi biron-bir chora ko'rishga ojiz edi.

1931-1933 yillar davomida Yaponiya, fursatdan foydalanib, o'zining

Xitoydagi bosqinchilik rejalarini amalga oshirdi, Yaponiyaning Xitoydagi hududlari kengaytirildi. Bu agressiya AQSH, Angliya va Fransiyaning Xitoydagi ta'sir doiralarini ancha zaiflashtirdi. Natijada, ularning manfaatlariga qarshi jiddiy xavf tug'ildi.

AQSh va Angliya vakillari ingliz Litton boshchiligidagi Millatlar ligasi huzurida komissiya tuzishdi. 1933-yil fevral oyida Millatlar ligasi Litton komissiyasining ishi to'g'risida qaror qabul qildi. Bu qarorga ko'ra, Yaponiya butun Xitoy hududida "Ochiq eshiklar va teng imkoniyatlar" prinsipiga rioya qilishi kerak edi. Shu bilan birga, Yaponiyadan Manchjuriyani Xitoyga qaytarib, uni Xitoy tomonidan muxtoriyatga aylantirishni Millatlar ligasi talab qildi. O'z navbatida, Millatlar ligasi Xitoy hududidan yapon qo'shinlarining olib chiqib ketilishini taklif qildi. Biroq Yaponiya Millatlar ligasining bu qarorlarini qabul qilmadi va, nihoyat, 1933-yilning mart oyida Yaponiya Millatlar ligasidan chiqib ketdi. Shunday qilib, 1931-1932 yillar davomida AQSh, Angliya va Fransiyaning passivligi tufayli Xitoyda Yaponiya bosqinchiligi yuz berdi. Versal - Washington sistemasi tufayli yuzaga kelgan xalqaro tizim barbod bo'la boshladi. Uzoq Sharqda vujudga kelgan urush uchog'i tamomila shakllanib bo'ldi. Bir vaqtning o'zida Germaniyada revanshistik guruhlarining faoliyati avj oldi va, ayniqsa, Gitlarning natsional-sotsialistik partiyasi urush g'oyalarini keng targ'ib qilmoqda edi.

1932-yil kuzida Germaniyada navbatdagi prezidentlik saylovlari bo'lib o'tdi. Unda sobiq prezident Gindenburg qayta saylandi va saylovlarda qatnashgan A.Gitler ikkinchi o'rinni oldi. 1933-yil yanvar oyida prezident Gindenburg Gitlarni reyxskanslerlik lavozimiga tayinladi. Oradan bir-yil o'tgach, ya'ni 1934-yilda prezident Gindenburg vafot etdi. Gitler Germaniyaning eng oliy hukmdori deb e'lon qilindi. Shu tariqa, Gitler Germaniyada o'zining natsistik diktaturasini o'rnatishga muvaffaq bo'ldi. Bu diktatura reaksiyon, terroristik diktatura bo'lib, urushqoq, etnik shovinizmga asoslangan diktatura edi. Natsizm va fashizm XX asr mahsuli bo'lib, Yevropadagi reaksiyon kuchlarning istisodiy, siyosiy va ma'naviy tayanchi hisoblanar edi.

Fashizm va natsizm AQSh, Angliya, Fransiya kabi demokratik an'analar

birmuncha rivojlangan mamlakatlar tepasiga kelishga muvaffaq bo'lolmadi. Fashizm va natsizm yangi barpo bo'lgan mamlakatlar va demokratik an'analar uncha rivojlanmagan Italiya, Yaponiya va Germaniyaga o'xshash mamlakatlarda o'z hukmronligini o'rnatishga muvaffaq bo'ldi.

Gitler hali hech bir hukmdor amalga oshirolmagan maqsadni, ya'ni dunyoga yakka hukmron bo'lish vazifasini o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Gitlarning rejasiga ko'ra, avvalo, Fransiyani qiyin ahvolga solish, Angliya mustamlakalarini qo'lga kiritish, Lotin Amerikasi xalqlarini, so'ngra AQSHni o'ziga bo'ysundirish, Afrikani egallash, sobiq SSSRga qarshi urush ochib, uni tezda yengish nazarda tutilgan edi.

“Irqi nazariya”, Sharqqa yurish yoki “Drang nach Osten”, “Total urush” g'oyalari hamda Germaniya davlat apparatining asosiy ish uslublari josuslik va qo'poruvchilik ishlaridan iborat edi. 1933-yil iyul oyida Rimda to'rt davlat - Angliya, Fransiya, Germaniya va Italiya o'rtasida “yakdillik va hamkorlik” ahdomasi tuzildi. Unga ko'ra, Germaniyaga urushdan keyingi majburiyatlarini yengillashtirish uchun yordam ko'rsatish nazarda tutilgan edi. 1933-yil iyun oyida Londonda bo'lib o'tgan xalqaro iqtisodiy konferensiyada Germaniya delegatsiyasining boshligi Guttenberg mustamlakalar masalasini qayta ko'rib chiqish va sobiq SSSR hududi hisobidan Germaniya hududini kengaytirishni talab qildi. G'arb davlatlari va Sovet hukumati gitlerchilarning bu talablariga o'zlarining jiddiy e'tirozlarini bildirdilar. Bunga javoban, Gitler o'z vaqilini Londondan chaqirib oldi.

1933-1934 yillar davomida Jenevada quolsizlanish muammolari bo'yicha xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. Germaniya bu konferensiyada quolsizlanish sohasida boshqa mamlakatlar bilan teng huquqlilikni talab qildi, lekin Versal shartnomasi va Lokarno bitimlarining harbiy masalalarga oid moddalarini bekor qilishga erisholmadi. 1933-yil oktabr oyida natsistlar Germaniyasi Millatlar ligasini tark etdi.

1934-yil Germaniya bilan Polsha o'rtasida o'zaro hujum qilmaslik to'g'risidagi shartnoma imzolandi. Bu bitim shunchaki niqob bo'lib, gitlerchilar

Polshani bosib olish payida edilar. Polsha hukmron doiralari gitlerchilar bilan shartnoma tuzib, Polsha milliy manfaatlariga va Sharqiy Yevropa xalqlari milliy manfaatlariga xiyonat qildilar.

1931-yilda nemis natsistlari Avstriyani bosib olishga kirishdilar. Avstriya aholisining noroziligi, xalqaro vaziyatning bunga yo'l qo'ymasligi hamda Italiyaning e'tiroz bildirishi tufayli Avstriyaning Germaniya tomonidan bosib olinishi orqaga surildi. 1935-yil yanvar oyida Versal shartnomasiga binoan, Saar viloyati aholisi o'rtasida plebissit (referendum) o'tkazildi. Gitlerchilar plebissitda ko'proq ovoz olishga muvaffaq bo'ldilar va Saar viloyati Germaniyaga qo'shib olindi. Shu yildan boshlab gitlerchilar harbiy-havo, harbiy-dengiz va quruqlikdagi qurolli kuchlarni ko'paytirishga astoydil kirishdilar. Germaniyada umumiy harbiy majburiyat joriy qilindi va bosh shtab tiklandi.

1935-yil 18-iyunda Germaniya bilan Angliya o'rtasida dengiz bitimi tuzildi. Unga ko'ra, harbiy dengiz floti Angliya suv usti harbiy dengiz flotining 35 foizini va suv osti harbiy dengiz flotining 45 foiz hajmida qurish, keyinchalik Germaniya suv osti flotining Angliya suv osti flotiga to'la tenglashtirish huquqi nazarda tutildi. Bu bitim Versal sulh shartnomasiga qarama-qarshi Germaniyaning harbiy dengiz qurollanishiga to'la imkon yaratdi. Angliya-Germaniya harbiy dengiz shartnomasi Angliyaning Germaniya harbiy kuchlarini sobiq SSSRga qarshi yo'naltirishga umid bog'ladi va Fransiya flotiga qarshi qaratilgan kuch deb hisobladi. Angliya va Fransiya o'rtasidagi aloqalar yomonlashdi.

7.5. SSSR xalqaro munosabatlarining murakkablashuvi.

Uzoq Sharqda va Markaziy Yevropada urush uchoqlarining vujudga kelishi xalqaro vaziyatni butunlay o'zgartirdi va keskinlashtirdi. Germaniya va Yaponiya hukmron doiralari jahonga hukmron bo'lishga da'vo qila boshladilar. Angliya va Fransiyaning yetakchi doiralari o'zlarini mudofaa qilish pozitsiyasiga tushib qoldilar.

Shu tariqa, bir tomondan - Germaniya, ikkinchi tomondan - Angliya, Fransiya va AQSh o'rtasida dengiz va mustamlaka masalalari bo'yicha Yaponiya, AQSh va

Angliya o'rtasida uzoq Sharq va Tinch okeanda ziddiyatlar ko'chayib ketdi. SSSRning xalqaro vaziyati murakkablashdi.

1932-yil iyul oyida uzoq muzokaralardan so'ng SSSR bilan Polsha, 1932-yil noyabr oyida SSSR bilan Fransiya o'rtasida o'zaro hujum qilmaslik to'g'risida shartnomalar imzolandi.

SSSR bilan Latviya, Estoniya va Finlyandiya o'rtasida ham shunday shartnomalar tuzildi. 1932-yil fevralda, 1934-yil may oylarida Jenevada chaqirilgan xalqaro konferensiyada qurolsizlanish masalasi ko'rildi. SSSR delegatsiyasi M.M.Litvinov boshchiligida xalqaro miqyosda yalpi va batamom qurolsizlanish taklifini kiritdi. Ammo G'arb davlatlari bu taklifni rad etdilar.

Fransiya delegatsiyasi Millatlar ligasi huzurida xalqaro armiya tuzishni, Germaniyadan keladigan xavfning oldini olish uchun AQSh va Angliya tomonlari kafolat berishlarini so'radi. Shu bilan birga, Fransiya G'arb davlatlariga qurolli kuchlarni kamaytirishni taklif qildi.

Angliya delegatsiyasi Germaniya qo'shinlari sonini 100 mingdan 200 mingga ko'paytirishni, Fransiya armiyasi sonini 500 mingdan 200 mingga tushirishni, SSSR qo'shinlari sonini esa 500 mingdan oshirmaslik talabi bilan chiqdi.

Germaniya delegatsiyasi bo'lsa, boshqa davlatlarning qurolli kuchlarini nemis qurolli kuchlari darajasigacha qisqartirishni yoki nemis qurolli kuchlarini boshqa yirik davlatlar darajasigacha yetqazishni taklif qildi. Amalda esa, Germaniya o'sha paytda o'z qurolli kuchlarini yashirin suratda qayta tuzib chiqishga ulgurgan va xalqaro miqyosda qurollanishning teng huquqligini talab qilmoqda edi. Konferensiyada muzokaralar keskin tus oldi. 1932-yil 26-29 aprel kunlari AQSh, Angliya va Germaniya vakillari ishtirokida Jeneva yonidagi Bessen shaharchasida Germaniyaning qurollanishi bilan bogliq masalalar bo'yicha maxfiy kengash bo'lib o'tdi. Bu kengashda Germaniya qurollanish bobida "teng huquqli" likni, shuningdek, harbiy xizmat muddatini Germaniyada 12 yildan 2-3 yilga keltirishni talab qildi. Bunga AQSh va Angliya vakillari rozi bo'ldi. Germaniyada revanshizm avj olganligi tufayli Fransiyada norozilik ko'chaydi. Shu sababli, Fransiya delegatsiyasi Germaniya taklifiga rad javobini berdi. Lekin, Angliya va AQShning

bu masaladagi nazariyasi Germaniyadagi revanshistik kuchlarni qo'llashdan boshqa narsa emas edi.

1933-yil noyabrda SSSR bilan AQSh o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatish to'g'risida bitim imzolandi. Shu bitim tufayli AQSh sobiq SSSRni tan oldi.

1935-yil 2-maydan SSSR bilan Fransiya o'rtasida o'zaro yordam shartnomasi tuzildi. O'sha yili 16-mayda SSSR bilan Chexoslovakiya o'rtasida ham shunday shartnoma imzolandi.

Shunday qilib, jahon iqtisodiy inqirozi Yevropa va Amerika mamlakatlarini larzaga soldi. Bu tanglik va jahon iqtisodiy inqirozi natijasida Yaponiya va Germaniyada eng revanshistik, jangari, shovinistik kuchlar hokimiyat tepasiga keldi va ular urushga qizgan tayyorgarlik ishlarini boshlab yubordilar. Jahon iqtisodiy inqirozi oxirida Uzoq Sharq va Yevropada ikki urush uchog'ining vujudga kelishi xalqaro vaziyatni keskinlashtirib yubordi.

7.6. Ikkinchi jahon urushi arafasidagi xalqaro vaziyat.

1933-1937 yillar davomida uzoq davom etgan depressiya - sanoat turg'unligidan iborat bo'lib, 1937-yilning ikkinchi yarmiga kelib, mamlakatlarning sanoat mahsuloti 1929-yil darajasiga yetib ulgurmasdan, yana iqtisodiy inqiroz boshlanib ketdi. 1938-yilda AQSh sanoat mahsuloti 1937-yildagidan 23 foizga kamaydi va 1929-yilda ishlab chiqilgan sanoat mahsulotining 81 foizini, Fransiya sanoat mahsuloti bir yilda 7,2 foizga kamayib, 1929-yilgi sanoat mahsulotining 76 foizini tashkil etdi.

Angliya sanoat mahsulotining indeksi 1937-yilda 1929-yildagiga nisbatan 123,6 foiz bo'lsa, 1938-yilda 115,7 foizni tashkil etib, 1937-yildagiga nisbatan 7 foizga kamaydi.

Agressiv davlatlar - Germaniya, Yaponiya va Italiyada iqtisodiyot harbiylashtirilganligi va xalqlarni talash maqsadida ishlab chiqarish xajmining kamayib ketishiga yul qo'yilmagan bo'lsa-da, ammo inqiroz bu davlatlarga xam o'z ta'sirini o'tkazdi. Totalitar tizim va avtarkiya sistemasiga asoslangan ishlab

chiqarish faqatgina tajovuzkor davlatlar - Germaniya, Yaponiya, Italiya uchungina xos bo'lib kolmay, balki sobiq SSSR uchun ham harakterli edi.

Germaniya, Italiya, Yaponiya zo'r berib urushga tayyorgarlik ko'rmoqda edilar. Iqtisodiy rivojlanish notekis bo'lib, Germaniyada sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish Angliya va Fransiyaning sanoat mahsulotlaridan oshib ketdi. 1938-yilda Yaponiya sanoat mahsulotlari 1929-yildagiga nisbatan 135 foizni tashkil etdi, Germaniyada esa bu ko'rsatkich 121 foizni tashkil etdi.

Yaponiya, Italiya, ayniqsa, Germaniya hukmron doiralari yangidan-yangi bozorlarni egallash, xomashyo zaxiralarini qo'lga kiritish va mustamlakalarni qayta taqsimlab olishni talab qilmoqda edilar.

Darhaqiqat, 1930-yillarning ikkinchi yarmida dunyoda Germaniya AQSHdan keyin ikkinchi qudratli davlatga aylandi. Germaniya sanoatning ba'zi tarmoqlari (sintetika mahsulotlari, metall ishlash uskunalari, aluminiy ishlab chiqarish va sh.k.) bo'yicha dunyo mamlakatlari orasida birinchi o'rinni egalladi. Mashinalar eksportida ham Germaniya AQSHdan keyingi ikkinchi o'ringa chiqib oldi. Yevropaning Sharqida Germaniyaning iqtisodiy mavqei mustahkamlandi. Bu yillarda Angliya, Fransiya va AQSHning iqtisodiy o'sish sur'atlari ancha pasayib ketdi. Lotin Amerikasi mamlakatlarida ham Germaniyaning iqtisodiy mavqei ko'chaydi. Germaniyaning Lotin Amerikasi mamlakatlari bilan tashqi savdosi 1933-yilda 11,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, 1938-yilga kelib, bu ko'rsatkich 171 foizni tashkil etdi. Germaniya bu mamlakatlarning importida ikkinchi o'rinni, Braziliya, Urugvay kabi mamlakatlarda - birinchi o'rinni egalladi va, shu asnoda, Lotin Amerikasi mamlakatlarida AQSH va Angliya pozitsiyalarini zaiflashtirib bordi.

Bir tomondan, Germaniya, Italiya, Yaponiya va, ikkinchi tomondan, AQSH, Angliya, Fransiya davlatlari o'rtasidagi ziddiyatlar keskinlashib bordi. AQSH, Angliya, Fransiya o'z mavqelarini saqlab qolish uchun zo'r berib o'rinmoqda edilar. Ularga qarama-qarshi Germaniya va Yaponiyaning bosqinchilik siyosati davom eta bordi. Germaniya, Italiya va Yaponiya dunyoni SSSR, Xitoy, Sharqiy Yevropa mamlakatlari hisobiga qaytadan taqsimlashga urinmoqda edilar.

1935-yil oktabr oyida Italiya urush e'lon qilmasdan turib, Habashiston (Efiopiya)ga bostirib kirdi. Italiya o'zining bu hujumi bilan Angliya va Fransiya hukmron doiralari manfaatlariga zarar keltirdi, chunki Yevropadan Osiyoga boradigan dengiz yo'llari uchun bu harakat katta xavf tug'dirar edi. Ammo, Angliya va Fransiya hukmron doiralari Habashistonni Italiya bilan birga "qayta taqsimlab olish" payida edilar. "Millatlar ligasi" Italiyani bosqinchi davlat sifatida qoraladi. AQSH hukumati bo'lsa, 1936-yilda "betaraflik" niqobi ostida Italiya bosqinchilarini amalda qo'llab-quvvatladi. Italiya bu vaziyatdan foydalanib, 1936-yilning may oyida deyarli butun Habashiston hududini bosib oldi va o'z mustamlakasiga aylantirdi.

1936-yil mart oyida Germaniya Versal va Lokarno shartnomalarini buzib, Reyndagi demilitarizatsiya qilingan zonaga o'z qo'shinlarini kiritdi. Angliya, Fransiya, AQSH va boshqa davlatlar Germaniyaning bu siyosatiga nisbatan passiv ravishda norozilik bildirish bilangina cheklanib qoldilar.

1936-yil iyul oyida general Franko boshchiligidagi ispan fashistlari Germaniya va Italiya yordamida ispan inqilobchilari va respublikachilariga qarshi isyon ko'tardilar. Tez orada Germaniya va Italiya Ispaniya respublikachilariga qarshi chiqib, harbiy intervensiya uyushtirdilar.

1936-1939 yillar davomida Ispaniyaga Italiya tomonidan 150 ming, Germaniya tomonidan esa 50 ming askar va zobitlar yuborildi. Shu bilan birga, Italiya va Germaniya Ispaniya fashistlarini qurol-yarog, texnika va aviatsiya kuchlari bilan ta'minlab turdi. Germaniya natsistlari va Italiya fashistlari Angliya va Fransiyaning Afrika uamda Osiyoga boradigan dengiz yo'llarini egallab ola boshladilar. Shunday qilib, urushning yana bir uchquni vujudga keldi. Bunday murakkab xalqaro vaziyatda Angliya va Fransiya "aralashmaslik", AQSH esa "betaraflik" siyosatini olib bordilar. Urush alangasi yer yuzida tobora keng yoyilmoqda edi. Ammo Angliya, Fransiya hukmron doiralari natsistlar va fashistlarning zo'ravonliklariga qarshilik ko'rsatmay, aksincha, ular mavqelarining oshib borishiga moyillik ko'rsatdilar va yordam berdilar. Lloyd-Jorj Frankoga yuqori baho berdi: *"Biz general Frankoni burjua tartiblari, burjua mulki va*

dinining himoyachisi deb bilamiz”.

Fransiya sotsialistik partiyasining lideri, o'sha vaqtdagi Fransiyaning bosh vaziri Leon Blyum 1936-yil avgust oyida Angliyaning Bolduin boshchiligidagi konservativ hukumati bilan til biriktirib, davlatlarni Ispaniyadagi urushga “aralashmaslikka” chaqirdi. Bir qancha davlatlar, hatto, Germaniya va Italiya ham bu siyosatni og‘izda go‘yo qo‘llab-quvvatlagan bo‘lsalar-da, amalda frankochilar siyosatini yoqlashda davom etdilar.

1936-yil 9-sentabrda Londonda Angliya diplomati Lord Plimut boshchiligidagi 27 davlat vakillaridan iborat **“Aralashmaslik qo‘mitasi”** tuzildi. Bu qo‘mita har bir davlatga uni o‘z hududidan Ispaniyaga qurol-yarog‘ o‘tkazmaslik majburiyatini yukladi. Biroq, bu siyosat ko‘p o‘tmay barbod bo‘ldi. G‘arb davlatlarining “aralashmaslik” va “betaraflik” siyosatidan foydalangan Germaniya va Italiya Ispaniya fashistlariga ko‘plab qurol-yarog‘ va ozuqa zaxiralarini yetkazib berdi. AQSH bo‘lsa, Portugaliya orqali Ispaniyaga qurol-aslaha yetkazib berdi.

1936-1939 yillar davomida Ispaniyada yuz bergan fuqarolar urushida AQSH, Angliya, Fransiya va boshqa davlatlar Ispaniya respublikachilariga xiyonat qildilar va Frankoning bu urushda g‘alaba qozonishiga imkon yaratdilar. Ular Franko hukumatini 1937-yildayoq tan oldilar. Rasmiy ravishda Franko hukumati Angliya, AQSH, Fransiya va boshqa davlatlar tomonidan 1939-yil fevral-aprel oylarida tan olindi.

1936-yil oktabr oyiga kelib, Germaniya-Italiya harbiy siyosiy bloki vujudga keldi va u “Berlin-Rim uki” nomi bilan xalqaro munosabatlar tarixiga kirdi. Bu ittifoqqa binoan, Germaniya Italiyaning habashistonni bosib olganligini tan oldi hamda uning Dalmatsiya, Albaniya va Gresiyani bosib olish yulidagi sa‘y-harakatlarini qo‘llab-quvvatladi. Italiya, o‘z navbatida, Germaniyaning Avstriyani kushib olish maqsadini yoklab chiqdi. Italiya va Germaniya Ispaniya masalasida xam bir xil pozitsiyada ekanliklarini bayon qildilar.

1936-yil noyabrda Germaniya bilan Yaponiya o‘rtasida **“Kominternga qarshi ahdnoma”** tuzildi, 1937-yil noyabrda Italiya ham bu ahdnomaga qo‘shildi. Ana shu niqob ostida uch tajovuzkor davlat - Germaniya, Yaponiya va Italiya dunyoni

qaytadan bo‘lib olish rejasini ishlab chiqdilar.

Sobiq AQSH prezidenti Guver 1937-1938 yillar davomida Yevropa bo‘ylab safarga chiqdi. O‘z safari davomida u Angliya rahbari Galifaks hamda Gitler bilan uchrashdi. Shuningdek, u 1937-yil noyabr oyida Gitler bilan bo‘lgan suhbatda Angliyaning Germaniya bilan bitim tuzishga tayyor ekanligini bildirdi. Hatto, Guver 1937-yilda Angliya hukumati nomidan Germaniya, Italiya, Angliya va Fransiyadan iborat SSSRga qarshi blok tuzishni ham taklif etdi. Biroq, G‘arb hukmron doiralari orasida sog‘lom fikrlovchi, keyinchalik siyosat bobida shuhrat qozongan F.D.Ruzvelt, U.Churchill, Sharl de Goll singari atoqli davlat va jamoat arboblari ham bor edi.

1937-yil iyul oyida Yaponiya Xitoyga urush e‘lon qildi. Yaponiya qo‘shinlari Shimoliy, Markaziy va so‘ngra Janubiy Xitoyga bostirib kirdilar. Yapon bosqinchilari bu urushni “yashin tezligida” amalga oshirmoqchi edilar. Yaponiyaning bosqinchilik urushi Xitoyda gomindanchilarni kommunistlar bilan 1937-yil sentabr oyida ittifoq tuzishga undadi. Xitoyda fuqarolar urushi to‘xtatildi. Yaponiyaga qarshi urushda Xitoyda birlashgan Milliy front tashkil etildi. SSSR Xitoyga katta yordam berdi. G‘arbiy Yevropa davlatlaridan gitlerchilar Germaniyasi va fashistik Italiya bilan Myunxenda tuzgan bitimlaridan ruhlangan militaristik Yaponiya 1938-yil noyabr oyidayoq Sharqiy Osiyoda “yangi tartib” e‘lon qildi, bu **“yangi tartib”** Sharqiy Osiyoda faqat Yaponiyaning mustamlakaviy hukmronligini o‘rnatishdan iborat edi.

Angliya, AQSH va Fransiya Yaponiya siyosatidan norozi edilar. 1937-yil noyabr oyida Bryusselda xalqaro konferensiya chaqirildi. Bu konferensiya Yaponiya va Xitoy hukumatlariga qarata murojaatnoma qabul qilish bilan cheklanib qoldi. Yaponiya hukumati bu murojaatnomaga quloq solmay, o‘zining bosqinchilik siyosatini davom ettirdi.

1937-1938 yillar davomida sobiq SSSRda olib borilgan qatagon siyosati tariximizning qonli sahifalarini tashkil etadi. Millionlab ziyolilar, harbiylar, davlat va jamoat arboblari qatagon qurboniga aylandilar. Ular “xalq dushmanlari” tamg‘asi ostida otib tashlandilar yoxud Sibirdagi lagerlarga surgun qilindilar.

SSSRning tajribali marshal va generallarining otib tashlanganligi, olim, yozuvchi va tadbirkorlarning qatagon qilinishi natijasida SSSRning harbiy va mudofaa salohiyati zaiflashib ketdi. Bu holat Ikkinchi jahon urushi davrida uning urushga tayyor emasligini ko'rsatdi. Oqibatda, urush yillarida sobiq SSSR eng ko'p talafot ko'rgan davlat bo'ldi.

1939-yil 24-iyulda Tokioda Angliya bilan Yaponiya o'rtasida bitim imzolandi. Bu bitimni Yaponiya tashqi ishlar vaziri Arita bilan Angliyaning Yaponiyadagi elchisi Kreygi imzoladilar. Kreygi-Arita bitimi Yaponiyaning tashabbusi va uning bosqinchilik manfaatlariga to'g'ri kelganligi uchun xalq orasida "Uzoq Sharq Myunxeni" nomini oldi. Angliya va Yaponiya Xitoyda bir-birlarining manfaatlariga qarshi harakat qilmaslik to'g'risida kelishib oldilar. Har ikki davlat Xitoydagi milliy-ozodlik harakatlarini ham birgalikda bostirishlari kerak edi.

AQSH va Angliyaning Uzoq Sharqdagi asosiy maqsadi Xitoy xalqini talash, uni qaram qilishdan iborat edi. Shu bilan birga, ularning diplomatiyasi Yaponiya bilan SSSRni urishtirib qo'yish va, shu orqali, har ikkala davlatni zaiflashtirish yo'li bilan Uzoq Sharqda o'z mavqeini mustahkamlash maqsadida edi.

Yaponiya-SSSR munosabatlari keskinlashdi va 1939-yil may-avgust oylarida yaponlar Mug'ulistonga hujum qilishdi. SSSRning yordami tufayli Xalxingol mavzesidagi jangda yaponlar mag'lubiyatga uchradi. Bu jangda sovet zobiti, bo'lgusi sarkarda G.K.Jukov o'z harbiy mahoratini namoyish etdi.

"Myunxen fitnasi" va Chexoslovakiyaning qurbon qilinishi. Agressiyaga nisbatan loqaydlik va beparvolik siyosati. Yevropada Gitler o'zining bosqinchilik siyosatini davom ettirdi. 1938-yil 11-martda Avstriya Germaniya tomonidan bosib olindi. Angliya va Fransiyaning "aralashmaslik", AQSHning "betaraflik" siyosati ham Gitlerga Avstriyani imi-jimida bosib olishda juda qo'l keldi.

Avstriya bosib olingach, Chexoslovakiyaga qarashli bo'lgan Sudet viloyati ustida Germaniya-Chexoslovakiya tortishuvlari "Sudet inqirozi"ni keltirib chiqardi. Sudet viloyatida nemis millatiga mansub aholi istiqomat qilar, ular

millatchilik kayfiyatida bo‘lib, Germaniyaga **“birlashishni”** talab qildilar.

1938-yil 28-29 aprel kunlari Londonda Angliya va Fransiyaning bosh vazirlari damda tashqi ishlar vazirlari yigilib, kengashda Sudet viloyati muammosini “tinch yul bilan dal qilish”ga kelishib oldilar. 1938-yil may oyidagi **“Sudet inqirozi”** natijasida Germaniya va Chexoslovakiya o‘rtasida urush boshlanishiga bir badya koldi. Bu Qarama-qarshilikda AQSH, Angliya va Fransiya amalda Chexoslovakiyani emas, balki Germaniyani qo‘llab-quvvatladilar. Ular qanday qilib bo‘lmasin, Germaniyaning Sharqqa, ya’ni SSSRga tomon yurishini rag‘batlantirish niyatida edilar.

1938-yil yozida AQSh vakili Rensimen Yevropa davlatlariga tashrif buyurib, Chexoslovakiyadan Sudetni Germaniyaga topshirishni va SSSR-Chexoslovakiya o‘rtasida imzolangan o‘zaro yordam bitimini bekor qilishni talab qildi.

Fransiya hukmron doiralari 1938-yil fevral oyidayoq Chexoslovakiya bilan 1935-yilda tuzilgan shartnoma o‘z kuchini yuqotdi va Fransiya Angliyasiz Chexoslovakiyaga yordam berolmaydi, deb bayonot berdilar.

Gitlarning Sudet to‘g‘risidagi talabi jiddiy tus oldi. 1938-yil 13-sentabrda Sudetda fashistik isyon yuz berdi. Isyon Chexoslovakiya hukumati tomonidan bostirilgach, Gitler g‘azablanib, o‘z chegara qo‘shinlarini jangovar holatga keltirdi.

1938-yil 29-30 sentabr kunlari Myunxenda Gitler, Mussolini, Chamberlen va Dalade uchrashdilar. Myunxenda gitlerchilar talab qilgan Sudet va boshqa hududlarni Chexoslovakiyadan Germaniyaga topshirish to‘g‘risida kelishib olindi. Myunxen bitimi amalda Ikkinchi jahon urushini tezlashtirgan, o‘taketgan qabih va mudhish bitim edi. Angliya va Fransiya bosh vazirlari Chamberlen bilan Dalade maqtanib **“biz tinchlik keltirdik”** deb, London damda Parijga qaytishdi. Biroq keyinchalik tarixda ushbu bitim “Myunxen fitnasi” nomini oldi.

1938-yil 30-sentabr Chexoslovakiya hukumati a‘zolari va prezident Beneshning Myunxen konferensiyasi qarorlarini qabul qilishdan boshqa choralari qolmagan edi. Chexoslovakiya taslim bo‘ldi.

AQSH ham Chexoslovakiyani kurbon qilittt disobiga Germaniyaga yon bosdi. 1935-yil may oyida SSSR, Fransiya, Chexoslovakiya o‘rtasidagi bitimlar o‘z-

o'zidan barbod bo'ldi.

1938-yil oktabr oyida Germaniya Chexoslovakiyaning Sudet va boshqa chegara hududlarini bosib oldi. Chexiya va Moraviya Germaniyaning **“protektorati”** deb e'lon qilindi. Slovakiya nomigagina **“mustaqil”** deb e'lon qilindi.

1939-yil mart oyida Ispaniyada general Franko boshchiligida fashistik tartibot o'rnatildi. Ruminiya va Vengriya gitlerchilar blokiga a'zo bo'lib kirdi. 1939-yil aprel oyida Italiya Albaniyaga hujum qildi va uni bosib oldi. 1939-yildan boshlab, Gitler Daniyaning Germaniyaga topshirilishini va Polsha yulagi (koridori) orqali Sharqiy Prussiyaga qadar temir yo'l o'tqazishni hamda avtostrada qurishga ruxsat berilishini qat'iy talab qildi.

Shu munosabat bilan, Germaniya va Polsha o'rtasida vaziyat keskinlashdi. AQSH, Angliya va Fransiya davlatlarining **“betaraflik”** va **“aralashmaslik”** siyosati natijasida Germaniya Avstriya va Chexoslovakiyani bosib olgach, Yevropadagi siyosiy ahvol va strategik vaziyat Gitler Germaniyasi foydasiga o'zgarib ketdi.

1939-yil 12-21 avgustda Moskvada bo'lib o'tgan Angliya, Fransiya va SSSR o'rtasidagi harbiy muzokaralarda ham Angliya va Fransiya sobiq SSSRning takliflarini e'tiborsiz qoldirdi.

Sobiq SSSR xalqaro miqyosda yakkalanib qoladigan bo'ldi. 1939-yil 23-avgustda Moskvada SSSR va Germaniya o'rtasida o'zaro 10 yillik muddat davomida bir-birlariga qarshi urush qilmaslik to'g'risida pakt imzolandi. Bu pakt **“Molotov-Ribbentrop pakti”** nomini oldi. Bu bitimdagi maxfiy moddalarga binoan SSSR Latviya, Litva, Estoniya hamda Polsha tarkibidagi G'arbiy Ukraina va G'arbiy Belorussiyani o'z tasarrufiga olishi, Germaniya esa Polshaning barcha qolgan yerlarini bosib olishi nazarda tutilgan edi. **“Molotov-Ribbentrop pakti”**ning ana shu moddalari uzoq yillar davomida xalqdan maxfiy tarzda yashirib kelindi. Ushbu paktning yagona nusxasi 1989-yildagina topildi va uning to'la mazmuni dunyo jamoatchiligiga oshkor etildi.

Shunday qilib, 1938-yil sentabr oyining oxiridagi **“Myunxen kelishuvi”** va 1939-yil 23-avgustda Moskvada imzolangan **“Molotov-Ribbentrop pakti”**

gitlerchilarga Ikkinchi jahon urushini boshlash uchun qo‘lay zamin yaratdi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. “Manxetten proyeksi” deb nomlangan o‘ta maxfiy tashkilot faoliyati nima bilan bog‘liq?
2. Fashistlar Germaniyasi tomonidan tashkil etilgan “O‘lim lagerlari” haqida so‘zlab bering?
3. Gitler va Mussolinining Germaniya bilan Italiya o‘rtasida harbiy ittifoq tarixda qanday nomlanadi?
4. 1939-yil 23-avgustda hujum qilmaslik haqidagi 10 yillik shartnoma imzolangan shartnomaning maxfiy qo‘shimcha ahdomasi haqida nimalarni bilasiz?
5. Ikkinchi jahon urushini tezlashtirgan “Sharmandali Myunxen bitimi” haqida ma’lumot bering?
6. Brian-Kellog pakti moniyati nimadan iborat edi?
7. “Daues” va “Yung” rejalari nima maqsadga qaratilgan edi?
8. “Tanaka memorondumi”ning mohiyati haqida so‘zlab bering?
9. Buyuk Britaniya – Germaniya o‘rtasida imzolangan “Dengiz bitimi” ning mazmuni nimadan iborat edi?
10. Xalqaro munosabatlar tarixiga “Po‘lat shartnoma”si nomi bilan kirgan shartnoma qaysi davlatlar o‘rtasida tuzilgan edi va uning mohiyati nimadan iborat?

8-MAVZU. SSSR-GERMANIYA URUSHI VA «KATTA UCHLIK» ORASIDAGI ITTIFOQCHILIK MUNOSABATLARI

Reja:

- 8.1. Taqsimlangan dunyoni qaytadan taqsimlab olish siyosati va uning oqibatlari.*
- 8.2. Ikkinchi jahon urushi yillarida xalqaro munosabatlarning asosiy bosqichlari va xususiyatlari.*
- 8.3. Ikkinchi jahon urushiga SSSRning tortilishi.*
- 8.4. Tub burilishning amalga oshirilishi. Stalingrad va Kursk janglarining tarixiy ahamiyati.*
- 8.5. Tub burilishdan so'ng fashizmga qarshi koalitsiya davlatlarining hamkorligi.*
- 8.6. Shimoliy Afrikadagi harbiy harakatlar.*
- 8.7. Italiyaning kapitulyatsiyasi va fashistik blokning inqirozi.*
- 8.8. Birlashgan Millatlar Tashkilotining tashkil topishi. Nyurnberg mahkama jarayoni.*

Tayanch tushunchalar: *SSSR-Germaniya urushining boshlanishi. «Barbarossa» rejasi. Gitlarga qarshi koalitsiyasining vujudga kelishi. Tinch okeandagi harbiy harakatlarning boshlanishi. Pyorl-Harbor. Sovet-German frontidagi harbiy harakatlar va ikkinchi front muammosi. Italiyaning taslim bo'lishi. Tashqi ishlar vazirlarining Moskvadagi konferensiyasi. «Katta uchlik»ning Tehrondagi uchrashuvi va unda qabul qilingan qarorlar. Qrim konferensiyasi. BMTning tashkil topishi. Germaniyaning taslim bo'lishi. Potsdam konferensiyasi. Yaponiyaning taslim bo'lishi va ikkinchi jahon urushining tugashi. Neyurenberg va Tokiodagi xalqaro tribunallar.*

8.1. Taqsimlangan dunyoni qaytadan taqsimlab olish siyosati va uning oqibatlari.

Ikkinchi jahon urushi totalitar siyosiy tizimlar, natsizm va fashizmning maxsulidir. o'z mohiyatiga ko'ra, bu urush imperialistik va bosqinchilik urushi edi.

Uni tayyorlashda va boshlashda Gitler Germaniyasi boshchiligidagi natsistlar yetakchi rol o'ynadilar. Ammo urushning kelib chiqishida ikkala qarama-qarshi tomon ham birdek aybdordir. Ikkinchi jahon urushining boshlanishida sobiq SSSR raxbariyati xam javobgar ekanligini biz yuqorida ko'rsatib o'tgan edik.

Taqsimlangan dunyoni qaytadan taqsimlab olishni Gitler Germaniyasi, Mussolini Italiyasi va Tanaka Yaponiyasi talab qilayotgan edilar. Ular, hatto, urush harakatlarini boshlab yuborgan edilar. Birinchi jahon urushidan keyingi vaziyat g'olib davlatlar foydasiga hal qilingan edi, ana shu holatning o'zi yana qaytadan dunyoni taqsimlab olish muammosini keltirib chiqardi.

Fashistik blokka mansub davlatlar o'z xalqlarini kamsitilgan deb bilib, o'zlari uchun "*lebenstarum*", ya'ni "zarur hayotiy maydon" talab qilmoqda edilar. Gitlerchilarning asl maqsadi Yevropada o'z hukmronliklarini o'rnatib, slavyanlar ustidan hukmronlik qilish, Yaqin va O'rta Sharqni egallash, shuningdek, Shimoliy Afrikada yangi mustamlakalarga ega bo'lishdan iborat edi.

Italiya esa Al-Jazoir, Tunis, Misr, Sudanni egallash va bu joylardan Angliya va Fransiyani siqib chiqarishga intilmoqda edi.

Yaponiya bo'lsa, o'z navbatida, Uzoq Sharq, Sibir, Xitoy, Hindixitoy, Hindiston, Birma, Tailand, Indoneziya, Filippin orollarini egallash orqali AQSh va Angliyaga qarashli mustamlakalarni egallash payida edi. Fashistlar blokiga qarshi Angliya, Fransiya, AQSh davlatlari ittifoqi turar edi. Ular o'z mavqelarini saqlab qolish va o'z raqiblarini bu urushda mag'lubiyatga uchratish niyatida edilar. Ular bu maqsadga erishish uchun SSSRni ham urushga tortish payida edilar va uning yordamida ham fashistlar blokiga mansub davlatlarni, ham SSSRni zaiflashtirmoqchi edilar. Bizga ma'lumki, AQSH Germaniyani qayta qurollantirish va militarizatsiyalashda ma'lum rol uynadi. AQSH sobiq SSSRga qarshi Gitler Germaniyasidan foydalanmoqchi edi. O'z navbatida, Angliya va Fransiya ham sobiq SSSR bilan birgalikda yangi xavfsizlik tizimini barpo etishni istamadilar. 1939-yil iyulida Angliya Yaponiyaga nisbatan yon bosdi. Amalda, Angliya Yaponiya bosib olgan Xitoy hududini tan oldi.

Ikkinchi jahon urushi 1939-yil 1-sentabrda Germaniyaning Polshaga hujum

qilishi va 2-3 sentabr kunlari Angliya va Fransiyaning Germaniyaga urush e'lon qilishi natijasida boshlanib ketdi. Angliya, Fransiya va AQSH xalq ommasi fashistik blokka mansub bosqinchilarga qarshi qat'iy choralar ko'rishni talab qila boshladi. Gitlerchilarning hisobiga ko'ra, G'arbda natsistlarning g'alabasi Sharqdan ko'ra yengilroq kechadi. G'arbda Angliya va Fransiya mag'lub bo'lgach, bu yerdagi inson omili va energiya resurslaridan gitlerchilar SSSRga qarshi foydalanishni rejalashtirdilar. Darhaqiqat, Ikkinchi jahon urushi Yevropaning Sharqida emas, G'arbida boshlanib ketdi.

Germaniya bilan SSSR shartnomaga muvofiq, Polshaga bir vaqtda qo'shin kiritishlari kerak edi. SSSR bu majburiyatni bajarmadi. 1939-yil 1-sentyabrda Germaniyaning bir o'zi Polshaga bostirib kirdi va Ikkinchi jahon urushini boshlab berdi. 3-sentyabrda Angliya va Fransiya Germaniyaga qarshi urush e'lon qildi. SSSR 1939-yil 17-sentyabrda Polsha hududiga qo'shin kiritdi. Ko'p o'tmay Brestda nemis qo'mondoni T.Guderian va sovet generali S.M.Krivosheiy qo'mondonligida Polshaning bo'lib olinishi munosabati bilan qo'shma sovet-german paradi o'tkazildi.

Ikkinchi jahon urushi bahonasida SSSR o'z hududlarini kengaytirish va chegaralarini mustahkamlashga kirishdi. 1939-yil 30-noyabr - 1940-yil martda SSSR bilan Finlyandiya o'rtasida harbiy to'qnashuv bo'ldi. Bundan SSSR manfaatdor edi. O'zaro urush natijasida SSSR Finlyandiyaning bir qator hududlarini (Leningradga chegaradosh yerlar) tortib olib, shimoliy-G'arbiy chegaralarini mustahkamlab oldi. 1940-yil yozda SSSRning rasmiy talabi bilan Ruminiya Bessarabiya va Shimoliy Bukovinani sovetlarga berishga majbur bo'ldi. 1940-yil iyunda Estoniya, Latviya va Litva sovet qo'shinlari tomonidan bosib olinib, SSSRga kiritildi.

1940-yil aprel-mayda nemis-fashist qo'shinlari Daniya va Norvegiyani istilo qildi, 1940-yil 14-mayda Niderlandiya, 28-mayda Belgiya taslim bo'ldi. Shundan so'ng fashist qo'shinlari Lyuksemburg va Gollandiyani bosib olib, ular hududi orqali Fransiya (22-iyunda taslim bo'ldi) bostirib kirdi.

Sovet hukumati fashistlar Germaniyasini Yevropaning navbatdagi poytaxtini

bosib olishi munosabati bilan tabriklab bordi. Internatsionalning direktivalarida fashizmga qarshi targ'ibotni to'xtatish haqidagi talablar paydo bo'ldi. 1940-yil 27-sentyabrda Germaniya, Italiya va Yaponiya davlatlari Berlinda "uchlar ittifoqini tuzish" haqidagi shartnomaga imzo chekishdi. 1940-yil 28-oktyabrda fashistlar Italiyasi Gretsiyaga bostirib kirdi. 1940-yil 20-24 noyabrda Vengriya, Ruminiya va Slovakiya "uchlar ittifoqi"ga qo'shildi. 1941-yil martda esa Bolgariyaning monarxiya - fashistik hukumati ham bu ittifoq safiga qo'shilishga rozilik bildirdi.

1940-yil 18-dekabrda Gitler SSSRga qarshi urush haqidagi 21-sonli direktivasi "Barbarossa" rejasiga imzo chekdi. Fashistlar Germaniyasi SSSRga qarshi urush boshlashdan oldin 1941-yil 6-17-aprelda Yugoslaviyani bosib oldi. Shu yilning 13-aprelda SSSR Yaponiya bilan betaraflik haqida kelishib oldi. 1941-yil 20-may - 1-iyunda fashistlar Germaniyasi Krit orolini egalladi. 18-iyunda esa hujum qilmaslik va hamkorlik haqida Germaniya-Turkiya shartnomasi imzolandi.

8.2. Ikkinchi jahon urushi yillarida xalqaro munosabatlarning asosiy bosqichlari va xususiyatlari.

Xalqaro munosabatlar tarixida Ikkinchi jahon urushi ***besh bosqichga*** bo'lib o'rganiladi.

- ✚** Birinchi bosqich – 1939-yil 1-sentabrdan 1941-yil 22-iyungacha.
- ✚** Ikkinchi bosqich – 1941-yil 22-iyundan to 1942-yil 19-noyabrgacha bo'lgan bosqichni qamrab oladi.
- ✚** Uchinchi bosqich – 1942-yil 19-noyabrdan to 1943-yil oxirigacha chuzildi.
- ✚** To'rtinchi bosqich – 1944-yil boshidan to 1945-yil 9-maygacha, ya'ni Germaniyaning o'zil-kesil mag'lubiyatigacha bo'lgan bosqichni o'z ichiga oladi.
- ✚** Bechinchi bosqich esa – 1945-yil 9-maydan to militaristik Yaponiyaning to'la mag'lubiyatigacha, ya'ni 1945-yil 2-sentabrgacha bo'lgan vaqtni, Ikkinchi jahon urushi o'z nihoyasiga yetgan davrni, kamrab oladi.

1939-yil sentabrda urush boshlangach, na Angliya, na Fransiya Germaniyaga qarshi G'arbda qat'iy urush olib bormadilar, shu sababli, 1939-1940

yilgi urush harakatlari zamondoshlar tomonidan “g‘alati urush” nomini oldi.

Keyinchalik bu haqida Nyurenberg mahkamasi jarayonida ishtirok etgan nemis generali Yodl shunday degan edi: “Biz 1939-yil mag‘lubiyatga uchramaganligimizning sababi shunda ediki, o‘shanda 110 ta ingliz va fransuz diviziyalari atigi 23 nemis diviziyasiga qarshi qat‘iy urush olib bormadi”. Angliya va Fransiyaning Germaniya bosqinchilariga qarshi qat‘iy urush olib bormaganliklari sababli, 1940-yilda nemis qo‘shinlari Daniya, Norvegiya, Gollandiya va Luksemburni bosib oldilar. 1940-yil bahor faslida Bolqon yarim oroli ham Germaniya tomonidan ishg‘ol etildi.

Bir tomondan - Germaniya, ikkinchi tomondan - Angliya, Fransiya o‘rtalarida urush boshlanib ketgach, Italiya tanho g‘oliblar tomonida urishishga tayyor bo‘lib turardi. Uinston Cherchill Italiyani o‘z tomoniga ag‘darib olishga o‘rinayotgan edi. 1940-yil 24 may kuni Cherchill tashqi ishlar vaziri Galifaksga topshiriq berib, agar Italiya urush davomida betaraf tursa, urushdan so‘ng uning tinchlik konferensiyasida g‘oliblar qatorida bo‘lishiga va‘da berishini tayinlagan edi. Ammo B.Mussolini boshchiligidagi Rim hukmdorlari boshqacha fikrda edilar. Ular Germaniyaga qarshi urushda Fransiya taslim bo‘lgach, Angliyaning mag‘lubiyatga uchrashi muqarrardir, deb o‘ylagan edilar. Shu sababli, Galifaksning taklifi Mussolini va uning atrofida tomonidan rad etildi.

Uinston Cherchill rahbarligida ingliz harbiy dengiz floti va qurolli kuchlari, Fransiyaning mudofaa qilish bilan bir qatorda, o‘z qo‘shinlarini Fransiya hududidan olib chiqib ketish taraddudini ko‘ra boshladilar, chunki bu urushda nemislarning qo‘li baland kela boshlagan edi.

1940-yil 22-iyunda Fransiya hukumati natsistlarning shartlariga rozi bo‘ldi. Fransiya taslim bo‘lgach, Angliya Yevropa qit‘asida yakkalanib qoldi. Germaniya askarlari La-Mansh qirg‘oqlariga Yaqinlashdi. Agar havoda tuman bo‘lmasa, Fransiyaning La-Mansh qirg‘oqlaridan Britaniya qirg‘oqlari yaqqol ko‘zga tashlanadi. Nemis natsistlarining Britaniya orollariga hujum qilish xavfi tug‘ildi.

Ana shunday murakkab vaziyatda ingliz xalqi juda qattiq sinovlarga duch keldi, u o‘zi uchun barcha talafotlarga tayyor turib, Britaniya orollarini

natsistlardan saqlab qolishning barcha choralarini ko'rdi. Ingliz xalqining qat'iyatliliigi mustahkam irodali Uinston Cherchillni, Angliya Germaniya oldida taslim bo'lmaydi va to so'nggi daqiqalargacha kurashni davom ettiradi, degan bayonnomani izkor etishga undadi. Angliya hukumati urushda qat'iy chora-tadbirlarni ko'rdi va dushmanni uloktirib tashlash uchun barcha vazifalarni bajardi. Uinston Cherchill juda yaxshi notik edi, uning o'z xalqi oldida radio orqali chiqishlari inglizlarni Vatan himoyasiga otlantirdi.

Mamlakatdagi siyosiy rahbarlik Cherchillga yuklatilgan bo'lib, u nafaqat bosh vazir, balki, o'z navbatida, mudofaa vaziri ham edi. Harbiy vazir A.Iden, aviatsiya vaziri Sinkler, harbiy dengiz floti vaziri Aleksandr amalda Cherchillning yordamchilari edilar. Shunday qilib, Cherchillning qo'lida barcha vazirlar tizimining jilovi jamlangan edi.

Ana shunday vaziyatda urush Angliya uchun Vatanni himoya qilish urushiga, milliy urushga, adolatli urushga aylandi. O'z navbatida, bu urush Angliya iqtisodiyotini harbiy izga solishni va natsizmga qarshi kurashayotgan kuchlarni bir jabkaga yigishni takozo etmokda edi. Mamlakatning tabiiy resurslari, insoniy omil va barcha chora-tadbirlar Vatan himoyasiga qaratildi. Shu paytgacha tashqi ishlar vaziri vazifasini egallab kelgan "myunxenchi" Galifaks o'rnini A.Iden egalladi. "harbiy sharoitda, - deb yozgan edi A.Iden, - diplomatiya va strategiya bir-biri bilan o'zaro egizaklar rolini bajaradi".

Gresiyaga Italiya hujum qilganligi uchun, u Angliya bilan ittifoq tuzish tarafdori edi. Turkiya bo'lsa, Germaniyaga qarshi Angliyaning bardosh berishiga ishonmas, aksincha, Yugoslaviya ham Turkiya kabi, Angliya bilan emas, balki Germaniya bilan haqinlashishga intilmokda edi. Shu sababli, A.Idenning tashqi ishlar vaziri sifatidagi vazifasi ancha mushkul edi. A.Iden Cherchilldan farqli o'laroq, yuvosh, ikkinchi darajali rollarni bajarishga munosib davlat arbobi edi. A.Iden, Truxanovskiy aytganidek, unchalik bo'shang shaxs emas, balki Cherchillning yaqin sherigi, hatto, ayrim masalalarda qat'iyatli va o'z mustaqil fikriga ega shaxslardan biri bo'lgan. Sobiq SSSR bilan Germaniya o'rtasida bo'ladigan urush Angliya uchun havodek zarur edi, chunki Fransiya

magʻlubiyatidan soʻng Angliya Yevropada butunlay yakkalanib qolgandi.

1941-yil 10 iyunda A.Iden shoʻrolarning Angliyadagi favqoʻlodda va muxtor elchisi I.M.Mayskiyga shunday degan edi. ***“Agar Germaniya Rossiyaga hujum qiladigan boʻlsa, biz Gʻarbda Germaniya bosib olgan yerlarga aviatsiya vositasida hujumga oʻtamiz”***. Shu munosabat bilan, U. Cherchill ***“Sovet hukumati katta xavf-xatarni boshdan kechirayotganligini yaxshi bilamiz. Oʻz navbatida biz uning yordamiga muhtojmiz”***, - degan edi.

1941-yil 22-iyunda Germaniyaning SSSRga hujum qilishi munosabati bilan U.Churchill radio orqali katta nutq soʻzladi: ***“Agar Germaniya Rossiya ustidan gʻalabaga erishsa, Sharqdagi barcha harbiy kuchlarini yigʻishtirib, Britaniya orollariga tashlaydi. Uning Rossiyaga hujumi Angliyaga hujum qilishning boshlanishidir. Gitler to qish boshlanguncha Rossiyani bosib olmoqchi va koʻp oʻtmay Angliyani ham tiz chuktirmoqchi. Shu sababli, Rossiyaga kelgan xavf, oʻz navbatida, bizga va AQSHga ham kelgan xavfdir”***.

1941-yil 9-noyabrda AQSH prezidenti F.D.Ruzvelt oktabr inqilobining 24 yilligi munosabati bilan M.I.Kalininga tabrik telegrammasi yoʻlladi. Unda shunday soʻzlar bitilgan edi: ***“Bugun sizning inqilobingizni nishonlash davrida sizning jasur, mardonavor xalqingiz Vatan himoyasida jonbozlik koʻrsatmoqda. Siz bilan birga natsizmga qarshi kurashda turli irq'larga mansub boʻlgan xalqlar qatnashmoqdalar, ular turli diniy aqidalarga mansub boʻlsalar-da, maqsadlari mushtarak. Biz sizning tarafingizdamiz, natsizmga qarshi kurashda sizni qoʻllab- quvvatlaymiz”***. Darhaqiqat, 1941-yil noyabr oyidan boshlab, AQSH va SSSR oʻrtasida bitim tuzish va natsizmga qarshi birgalikda kurashishni siyosiy vaziyatning oʻzi taqozo qilmokda edi.

Ammo AQSHda natsizm va fashizmga qarshi kurashda butunlay nosogʻlom, destruktiv kuchlar ham mavjud edi. Masalan, Gitler Germaniyasining sobiq SSSRga hujum qilishidan soʻng ikki kun oʻtgach, 1941-yil 24-iyunda senator Garri Trumen - boʻlgʻusi AQSH prezidenti - shunday degan edi: ***“Agar urushda Germaniyaning qoʻli baland kelsa, u holda biz Rossiyaga yordam qilamiz, agar urushda Rossiya yenga boshlasa, biz Germaniyaga koʻmak beramiz. Shunday***

qilib, ular o‘zaro bir-birlarini qanchalik nobud qilishsa, biz uchun shunchalik yaxshi”.

Bunday nosog‘lom destruktiv kuchlar natsizm va fashizmga qarshi kurashayotgan barcha G‘arb davlatlarida ham mavjud edi. Biroq urush avjiga chiqqan sari natsizm va fashizmga qarshi urushayotgan xalqlar o‘z hokimiyatlari tepasiga sog‘lom fikrli, qat’iyatli rahbarlarni saylashga muvaffaq bo‘ldilar.

1941-yil 7-dekabrda Yaponiya AQSHga qarashli Gavay orollaridagi harbiy dengiz bazalariga bostirib kirdi va shu munosabat bilan AQSH ham urushga tortildi. 1941-1942 yillar davomida natsistlar va fashistlar bosib olgan hududlar, ya’ni Yugoslaviya va Gresiyada xalq ozodlik armiyalari tuzildi. Fashizm va natsizm bosqinchilariga qarshi “Qarshilik ko‘rsatish harakatlari” Fransiya, Polsha, Albaniya va, keyinchalik, Italiyada avj oldi.

1941-yil oxiriga kelib, SSSR, Angliya va AQSh davlatlari hamkorligidagi natsizm va fashizmga qarshi kurashda Uchlar ittifoqi vujudga keldi. Shu davrdan boshlab, ushbu davlat rahbarlari o‘rtasida uchrashuvlar, konferensiyalar va yozma muloqotlar bo‘lib turdi. F.Ruzvelt, I.Stalin va U.Churchill o‘rtalaridagi konferensiyalar va yozishmalar Ikkinchi jahon urushidagi sobiq SSSR, AQSh va Angliya pozitsiyalarini yaqqol namoyish etdi.

Natsizm va fashizmga qarshi kurash olib borayotgan xalqlar turli tarixiy sharoitda bu vazifani amalga oshirayotgan edilar. Fashistlar bosib olgan mamlakatlarda, ya’ni Polsha, Fransiya, Gresiya, Yugoslaviya, Shimoliy Yevropa hamda Yaponiya bosib olgan Osiyo mamlakatlaridagi kurash o‘ziga xos xususiyatlarga ega edi.

Fashistlar hukmronlik qilayotgan Germaniya, Italiya, Yaponiya kabi mamlakatlarda xalqlarning ozodlik uchun olib borayotgan kurashi nihoyatda murakkab edi. Fashistlarga qarshi koalitsiya tuzilgan SSSR, Angliya va AQSh kabi davlatlarda bu ish ochiq-oydin amalga oshirilayotgan edi.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, 1940-yil 22-iyunda Fransiya Germaniyaga taslim bo‘ldi va 70-yil davom etgan Fransiyaning Uchinchi Respublikasi quladi. Parij nemislar tomonidan zabt etildi. Fransiya poytaxti Vishi degan shaharchaga

ko'chirildi, hukumat boshligi marshal Peten bo'lib, u nemislar bilan hamkorlik qilgani sababli, mazkur hukumat "kollaboratsionistlar", ya'ni "hamkorlik qiluvchilar" nomini oldi. Bu ibora amalda "sotqinlar" yoki "xoinlar" ma'nosini anglatar edi.

50 yoshni qarshilagan general de Goll o'z diviziyasi orqali natsistlarga qarshi qahramonlarcha kurashgan bo'lsa-da, biroq bu Fransiyani mag'lubiyatdan qutqara olmas edi. U.U.Churchill bilan do'stlashib, uning yordamida Fransiyadan Angliyaga uchib ketdi va London radiosi orqali fransuz xalqini natsistlar bosqiniga qarshi kurashni davom ettirishga chorladi. Uning 1940-yil 18-iyunda radio orqali so'zlagan nutqi tarixiy ahamiyat kasb etdi: ***"Fransiya, - deb aytgan edi Sh.de Goll, - mag'lubiyatga uchradi, ammo u hali yengilgan emas. Urush jahon urushi harakteriga ega bo'lib, bu urushning taqdiri Fransiya bilan bo'lgan jangda emas, balki Angliya, AQSh va SSSR bilan bo'lgan urushda hal bo'ladi... Qanday bo'lmasin, fransuz xalqining qarshilik ko'rsatish alangasi dushmanga qarshi uchmasligi kerak va uning uchmasligiga men aminman"***.

Ma'lumki, 30 yillar davomida AQSh ma'muriyati Yevropa va Uzoq Sharqda kechayotgan jarayonlarga nisbatan betaraflik pozitsiyasini egallab keldi. Biroq, 1932-yilda prezidentlikka saylangan F.Ruzvelt natsizm va fashizmning boshdanoq insoniyat taqdiriga solayotgan xavfini birinchilardan bo'lib tushunib yetdi. Ammo AQSh xalqining bu xavfni tushunishiga ancha vaqt kerak bo'ldi. F.D.Ruzvelt AQSh ning Germaniyadagi elchisi Dohga 1942-yil shunday deb yozgan edi: ***"Gitlarning hokimiyat tepasiga kelishidan boshlab va Reyn viloyatining remilitarizatsiya qilinishi men uchun mutlaqo aniq bo'lgan narsa, tinchlikning xavf ostida qolganligi ayon bo'lib qolgan edi. Mamlakat ana shunday mas'uliyatni o'z gardaniga olishga tayyor emas edi. AQSh xalqi asta-sekin ana shu xavfni tushunib yetdi"***.

1941-yilda AQSh Yaponiyaga urush e'lon qildi. 11-dekabrda esa Yaponiyaning ittifoqchilari Italiya va Germaniya AQSh ga urush e'lon qildi. Tinch okeanda ham urush boshlandi. AQSh urushga tayyor emas edi. Uning sanoati harbiy izga tushirilmagan edi. Yaponlar AQSh flotining zaifligidan foydalanib,

tezda muvaffaqiyat qozondilar.

Yaponlarning maqsadi urushning dastlabki bosqichida Janubi-Sharqiy Osiyoni Angliyadan to'sib qo'yish edi. Yaponlar shiddatli hujumlar qilib, 2 oy mobaynida Singapurga kirdilar. 1942-yil 15-fevralda Singapur deyarli jangsiz taslim bo'ldi. Kuchli istehkom va qurol-aslahaga ega bo'lgan qudratli ingliz garnizoni urushsiz oq bayroq ko'tardi. 100 ming kishilik ingliz eskadrilyasi asir olindi. Yaponlar 744 ta tup, 2500 ta pulemyot va 200 ta tankni qo'lga kiritdilar. Singapurning tor-mor qilinishi Tinch okeanidagi mudofaa tizimining barpo bo'lishiga olib keldi. 1942-yil may oyiga kelib, Yaponiya Malayziya, Indoneziya, Yangi Gvineya, Birma, Filippin, Gonkong, Guam, Sulaymon orollari, ya'ni 400 million aholi yashaydigan hududni bosib oldi. Endilikda, Hindiston va Avstraliyaga ham xavf tug'ildi. AQSh halokat yoqasiga kelib qoldi. Biroq, 1942-yil yozida Yevropa Sharqida Ikkinchi jahon urushining asosiy voqealari sodir bo'lmoqda edi.

Sobiq, SSSR va Germaniya o'rtasida Stalingrad uchun olib borilgan janglar olti oy, ya'ni 1942-yil 17-iyuldan 1943-yil 3-fevralga qadar davom etib, u Ikkinchi jahon urushida keskin burilish yasadi. Natsistlar Germaniyasining Stalingrad jangidagi umumiy talafoti 1,5 mln. ga yaqin kishini tashkil etdi. 91 ming nafar askar, 26 ming nafar ofitser, 24 nafar general, 6-armiya qo'mondoni feldmarshal Paulyus boshchiligida qo'lga olindi. Bu Gitler Germaniyasining halokatga yuz tutganidan dalolat berardi. Germaniyada 3 kunlik motam e'lon qilindi. Stalingrad jangidan so'ng yana bir qator og'ir zarbalar berildi va ulardan so'ng Gitler Germaniyasi qayta o'nnglanmadi.

1941-yil 23-oktabr – 4-noyabr kunlari Italiya-Germaniya qo'shinlarining Al-Alamayn (Misr) dagi mag'lubiyati tufayli, strategik tashabbus Angliya armiyasiga o'tdi. 1942-yil yanvarda Vashingtonda AQSh, Angliya, SSSR, Xitoy va yana 22 davlat vakillari Vashington deklaratsiyasini imzoladilar. Imzo chekkan davlatlar fashizmga qarshi kurashga o'zlarining barcha iqtisodiy va harbiy manbalarini sarflashga hamda Gitler Germaniyasi va uning ittifoqchilari bilan separat bitim yoki sulh shartnomasi tuzmaslik majburiyatini oldilar.

1943-yil 28-noyabrdan 1-dekabrgacha uch davlat rahbarlarining Tehron konferensiyasi bo‘lib o‘tdi. Unda Stalingrad jangi va Al-Alamayn yaqinidagi jangdan so‘ng, faqat harbiy masalalar emas, balki dunyoning urushdan keyingi taqdiri borasidagi masalalar ko‘ndalang qilib qo‘yildi. **“Mamlakatlarimiz faqat urush davomida emas, undan keyingi tinch davrda ham hamkorlik qilishlariga ishonch bildiramiz”**, deb aytilgan edi uch davlat bayonnomasida. F. Ruzvelt, U. Cherrchill va I.Stalin **“Biz Germaniya qurolli kuchlarini tor-mor qilish rejasini kelishib oldik”**, - deb qayd etdilar. Shu bilan birga, konferensiya 1944-yil may oyidan kechiqmay, Fransiyada ikkinchi frontni ochish haqida qaror qabul qildi. Konferensiya qarorlari Gitlarga qarshi koalitsiyaning jipslashishi va mustahkamlanishiga ko‘maklashdi.

SSSR, AQSh va Angliya davlatlari o‘rtasidagi hamkorliklarni rivojlantirish maqsadida 1945-yil fevralda bo‘lib o‘tgan uch buyuk davlat rahbarlarining Qrim (Yalta) konferensiyasi muhim bosqich bo‘ldi. Uch davlat rahbarlari natsizmni, uning qurolli kuchlari, bosh shtabi, barcha idoralari yo‘q qilish, fashistlar Germaniyasi rahbarlarini jazoga tortish hamda natsizmning nemis xalqining madaniy va iqtisodiy hayotiga har qanday ta’sirini bartaraf etishga kelishib oldilar.

1945-yil 9-mayda Berlin Yaqinidagi Karlxorstda AQSh, SSSR, Angliya va Fransiya qo‘shinlari qo‘mondonligi vakillari natsistlar Germaniyasining so‘zsiz taslim bo‘lishi to‘g‘risidagi hujjatni imzoladilar.

1945-yil 14-avgustda Yaponiya taslim bo‘lgach, o‘sha yili 2-sentabrda “Missuri” linkornida Yaponiya vakillari taslim bo‘lish to‘g‘risidagi hujjatni imzoladilar. Ikkinchi jahon urushi Germaniya natsizmi, Italiya fashizmi va Yaponiya militarizmining to‘liq tor-mor qilinishi bilan tugadi.

8.3. Ikkinchi jahon urushiga SSSRning tortilishi.

1941-yil 22-iyun kuni erta tongda soat 4:00 da fashistlar Germaniyasi o‘zining ulkan harbiy kuchi hamda ittifoqchilarining qurollangan kuchlari yordamida SSSRga qarshi urush boshlab, uning hududlariga bostirib kirdi. Shu kuni Angliya hukumati SSSRni Germaniyaga qarshi urushda qo‘llab-quvvatlashini

ma'lum qildi. 24-iyunda F.Ruzvelt AQSh hukumati SSSRga yordam berishga tayyor ekanligini bildirdi. SSSR Germaniyaga qarshi urushning Birinchi davri (1941-yil, iyun - 1942-yil, noyabr)da, asosan, mudofaa harakteridagi janglar olib bordi.

Fashistlar Germaniyasi SSSRni bosib olish uchun 191,5 diviziya; dushmanning kuchi 5,5 mln kishini tashkil etib, taxminan 4,3 ming tank, 47,2 ming minomet va qurollar, taxminan 5 mingdan oshiq harbiy samolyot, 192 ta kemani urushga yo'naltirilgan edi.

Sovet-german fronti o'sha zahoti ikkinchi jahon urushining asosiy va hal qiluvchi fronti bo'lib qoldi. Bu yerda nafaqat Sovet Ittifoqining, balki butun dunyoning taqdirini hal qiluvchi hayot-momot jangi boshlandi. Sovet Ittifoqining urushga kirishi dunyodagi harbiy siyosiy vaziyatni tubdan o'zgartirdi. Hujum qilish oldidan fashist Germaniyasi Yevropaning katta qismini, shu jumladan, Fransiya kabi yirik davlatni ham egallab olgan edi. Yevropa qit'asida Ryunkerkdagi fojidan so'ng harbiy harakatlar deyarli to'xtadi, agar Qarshilik harakati hisobga olinmasa. Urushayotgan tomonlardan faqat Angliya to'liq yengilishdan qutilib qoldi, lekin u Britaniya orollariga Germaniyaga hujum qilishidan qo'rqib yashardi. U Germaniyaga qarshi harbiy harakatlarni faqat dengiz va havoda olib borardi. Shuningdek, janglar Shimoliy Afrikada ham borardi. Bu yerda Angliya armiyasiga qarshi bor-yo'q bir qancha Italyan va german diviziyalari qarshi turardi. AQSh, Angliya iqtisodiy va harbiy yerdan ko'rsatardi, lekin rasmiy jihatdan fashistlarga urush e'lon qilmagan edi. O'zga yerlarni bosib olish va aholisini ommaviy qirish siyosatini olib borayotgan fashist Germaniyasiga qarshi ma'lum xalqlarning ijtimoiy va milliy ozodlikka bo'lgan qonuniy huquqini himoya qilayotgan Sovet Ittifoqi turardi. Sovet ittifoqining urushdagi adolatli, ozodlikka qaratilgan maqsadlarini Germaniyaning SSSR ga hujum qilgan kommunistik partiya va sovet hukumati tomonidan e'lon qilindi. Davlat mudofaa komiteti rahbari I.V.Stalinning 1941-yil 3-iyul Sovet xalqiga qilgan murojaatida aytildiki, Ikkinchi jahon urushida maqsad faqat SSSRning ozodligini himoya qilish emas, shuningdek fashist agressiyasiga uchragan boshqa xalqlarga ham yordam

berishdir. Vatanimiz ozodligi uchun bizning kurashishimiz murojaatda aytilishicha Yevropa va Amerika xalqlarining mustaqillik va demokratik ozodliklar uchun bo'lgan kurashi bilan qo'shib ketadi. Bu xalqlarning ozodlik. Gitlarning armiyasi tomonidan zabt etilganligi qarshi yaxlit front bo'ladi.

Urushning birinchi kunlardan boshlab fashistlarning butun Yevropa bo'ylab SSSR hududi sari yo'naldi. Bunga nisbatan Sovet Ittifoqini qo'llab quvvatlovchi xalqaro harakatlar to'liqini ko'tarildi. Bu urush dunyoning 61 ta davlatini o'z domiga tortdi. Ularda dunyo aholisining 80 % yashar edi. Armiya saflariga jami 110 mln. kishi safarbar etildi.

1942-yilning 19-noyabridan 1943-yillar oralig'idagi davr Ikkinchi jahon urushida tub burilish davri bo'lib sanaladi. Bu davrda sovet qo'shinlarining butun front bo'ylab ommaviy tarzda hujumga o'tishi bilan karakterlanadi, va yana dushmani bosib olgan yerlardan haydab chiqarish, Shimoliy Afrikada ingliz-amerika qo'shinlari harakatlarining faollashuvi, fashistik ittifoqning tanazzulga uchrashi, partizanlik va milliy ozodlik harakatlarining o'sishi, Gitlarga qarshi davlatlarda harbiy ishlab chiqarishning keskin tarzda o'sishi bilan ham ta'riflash mumkin.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, sovet-german frontidagi juda og'ir kechgan janglarda fashist Germaniyasi asta-sekin ustunligini yo'qota boshladi. Urushning birinchi-yilidayoq, SSSR ga bostirib kirgan Gitler armiyasi harbiy kuchlarining 40 foizini, ya'ni 2 mln. ga yaqin askarlarini yo'qotib bo'lgan edi. 1942-yildagi yozida bo'lib o'tgan janglarda esa 800 mingdan ziyod soldat va ofitserlari va harbiy texnikasidan ajraldi. Stalingrad ostonasidagi to'rt oylik bo'lib o'tgan janglar davomida mingdan ortiq nemis tanklari hamda 1400 dan ortiqroq samolyotlari yo'q qilinib yuborildi. Sovet partizanlarining soni kundan-kun orta boshlagani sayin, ularning dushmanga bergan talafotlari ham o'shancha ko'pyaverdi. Sovet partizanlarining soni 1942-yilning oxiriga kelib 125 ming kishidan ortib ketdi. Partizanlarga qarshi nemis qo'mondonligi sovet-german fronti quruqlikdagi kuchlaridan 10 foizga yaqinini qarshi urushga yo'llaydi. Partizanlar Belgiya, Niderlandiya, Daniyani ham qo'shgan holdagi maydonni qamrab olib nazorat

qiladi.

SSSR ning vaqtinchalik nemislar tomonidan bosib olingan yerlarida aholi soni ancha ko'p sonda bo'lishiga qaramasdan va Sovet Ittifoqi yirik harbiy kuchlarini uzoq Sharqda ushlab turishga majbur bo'lsada, Sovet qo'mondonligi zarur zaxira harbiy kuchlarini tayyorlashga ulgurgan edi. Sovet sanoati va qishloq xo'jaligi juda katta qiyinchiliklar evaziga bo'lsa ham frontni oziq-ovqat, qurol-aslaha va harbiy texnika bilan muntazam ta'minlashga erishadi.

Evakuatsiya ishlari tamomalangandan so'ng, 1942-yilning bahoridan boshlab, SSSR dagi ishlab chiqarish asta-sekin orta boshlaydi. Ayniqsa harbiy sanoat, umumiy sovet sanoatining yalpi ishlab chiqarishining 70-80 foizini tashkil qildi. 1942-yil martda SSSR sharqiy viloyatlarida ishlab chiqarilgan harbiy texnika hajmi - Ulug' Vatan urushi boshlanishidan avval butun Sovet Ittifoqi miqiyosida ishlab chiqarilgan texnika bilan teng bo'lib qoldi.

Sovet harbiy sanoati Germaniya va uning Yevropadagi ittifoqchilari hamda bosib olgan davlatlari bilan qo'shib sanaganda ham yuqori darajaga ko'tarilib ketdi. Sovet Armiyasi fashistik bloki harbiy kuchlaridan harbiylar soni va harbiy texnika bo'yicha, shu jumladan, tanklar soni bo'yicha - 1,4 baravar, samolyotlar soni bo'yicha - 1,6 baravar, artilleriya soni bo'yicha esa - 1,5 baravarga ko'tarilib ketdi.

T-34 sovet tanklari, S.V.Ilyushin ixtiro qilgan Il-2 hujumchi samolyotlari, A.S.Yakovlev va S.A.Lavochkinlar ixtiro qilgan qiruvchi samloyotlar, o'sha davrda mashhur - "Katyo'sha" deb nom olgan faol zenit moslamalari dunyodagi eng zo'r harbiy qurollar edi. 1942-yilning oxiriga borib Germaniya va AQShda atom bombasi ustida ish olib borilayotganligi to'g'risida xabar topgan Sovet hukumati yadro quroli sohasida izlanishlar olib borishni boshlash to'g'risida qaror qabul qiladi. "Uran muammosi" guruhiga atoqli sovet olimi I.V.Kurchatov rahbarlik qiladi.

8.4. Tub burilishning amalga oshirilishi. Stalingrad va Kursk janrlarining tarixiy ahamiyati.

1942-1943 yillarning eng muhim voqealaridan biri bu - Stalingard jangi edi.

1942-yilning noyabr oyi boshlarida frontning Stalingrad yoʻnalishida quyidagicha holat mavjud edi.

Janubi-Gʻarbiy front Don daryosining chap qirgʻoqlarini mudofaa qilardi. Mamondan Kletskgacha. Frontning asosiy kuchlari Serafimovichning janubi-Gʻarbiy va Gʻarbiy rayonlari platsdarmlarida toʻplangan edi.

Donning oʻng qirgʻogʻida Kletsk, Novo-Grigorevsk, Sirotinsk platsdarmlari bilan bilan birgalikda - Don fronti Kletskdan Yertzovkacha.

62, 64-armiya kuchlari bilan birgalikda Stalingrad fronti qoʻshinlari Stalingrad shahrini, qolgan kuchlar bilan esa Volganing gʻarbi va uning quyi oqimi - Stalingraddan to Astraxangacha boʻlgan qismini himoya etardi.

Stalingard va Kavkazning qahramonlarcha mudofaasida Qizil Armiyaning muvaffaqiyat qozonishida yuqoridagi kabi omillar juda muhim rol oʻynagan edi. Sovet qoʻmondonligining rejasi boʻyicha dastavval Stalingrad ostonasida “Uran” operatsiyasi, undan keyin Don daryosi oʻrta oqimi rayonidagi hujum - “Saturn” operatsiyasi, va nihoyat Markaziy frontda “Mars” operatsiyasi boshlanishi kerak edi.

1942-yil 19-noyabrda Stalingard ostonalarida sovet qoʻshinlarining nemislarga qarshi hujumga oʻtadi. Ushbu jang ikkinchi jahon urushida tub burilishning debochasi boʻlib qoladi. Janubi-Gʻarbiy, Stalingrad, Don frontlari kuchlari hamda koʻp miqdordagi tanklar, artilleriya va aviatsiya yordami bilan nemis-fashistlarning 330 ming kishilik harbiy kuchlar guruhi oʻrab olinadi va tor-mor qilinadi. 1943-yil 2-fevralda oʻrab olingan gruppirovkaning tirik qolgan harbiylari taslim boʻladilar. Feldmarshal Paulyus boshchiligidagi 24 ta general va ularning jamoasi asirga toʻshadilar. Germaniyada esa uch kunlik motam eʻlon qilinadi.

Stalingard ostonasida janglar qizgʻin boʻlib oʻtayotgan bir vaqtda sovet qoʻshinlari Oʻrta Don rayonida dushmanlarga qarshi hujumlarni boshlashga oʻtadi. Ular Stalingradga hujum uyushtirishga tayyorlanayotgan nemis-fashist bosqinchilarining guruhiga qaqshatqich zarba beradilar. Yutuqlardan ruhlangan sovet armiyasi, Markaziy frontda va janubi-Gʻarbiy hamda Gʻarbiy yoʻnalishlarda ham janglarni kengaytirib yuboradi. Ular Kavkaz, Donbassning bir qancha qismini,

Rossiyaning markaziy rayonlarini ozod qilib, Leningrad blokadasini yorib o'tadilar. Natijada, Sovet Armiyasi tomonidan 1942-1943-yillar qishki janglar mavsumida dushmanning 100 dan ortiq diviziyalarini yakson qildilar. Fashistik blok 1700 mingga yaqin soldat va ofitserlaridan, 24 ming qurol-aslaha, 3500 dan ko'proq tank, 4300 samolyotlaridan judo bo'ldilar. Germaniyaning Stalingrad ostonasidagi texnika bo'yicha yo'qotishi bo'lib o'tgan butun sovet-german fronti janglari davridagi yo'qotishlar bilan teng keldi.

Germaniyaning ittifoqchilari: Italiya, Vengriya, Ruminiya davlatlari ham juda katta talafotlar ko'rishdi. Stalingrad ostonasidagi va Donda bo'lib o'tgan sovet-german janglarida 8-italyan armiyasi, 2-vengr armiyasi, 4 va 5-rumin armiyalari yakson qilib tashlanadi.

Stalingard ostonasidagi jang va undan keyin bo'lgan janglardagi Qizil Armiyaning g'alabalari xalqaro siyosiy ahvolga juda katta ta'sir o'tkazadi. Bu g'alabalar fashist Germaniyasining vaqtinchalik bo'lgan harbiy ustunligini yo'qqa chiqarib, uning bundan buyog'iga hech qanday g'alaba to'g'rsida so'z ham bo'lishi mumkin emasligini ko'rsatib qo'yadiki, Italiya va boshqa fashistik bloklarning davlat rahbarlari Germaniyaning bu urushda muqarrar mag'lub bo'lishini tushunib yetadilar. Germaniya bilan aloqalarini o'zishga va urushdan chiqib ketishga tarafdorlar paydo bo'la boshlaydi.

Stalingard ostonasidagi nemis qo'shinlarining tor-mor bo'lishining harbiy ahamiyatlari nimalardan iborat edi?

Birinchidan, bu sovet harbiy san'atining katta yutug'i va urushda tub burilishning boshlanishi edi.

Ikkinchidan, ushbu g'alaba Yaponiya va Turkiya davlatlarining SSSR bilan aloqalari "neytral" bo'lishiga majbur qiladi.

Uchinchidan, Stalingard jangidagi g'alaba fashistik blokning inqrozga uchrashini tezlashtiradi, nemis armiyasining ruhiy holatini keskin tushirib yubordi.

To'rtinchidan, nemis-fashist bosqinchilariga qarshi kuchlar harakatining yanada tezlashishiga juda qulay sharoit yaratiladi. Sovet Ittifoqida tuzilgan Yevropa davlatlari harbiy tuzilmalarining soni urush oxiriga kelib 550 mingdan

oshiy ketdi.

Stalingard jangidan keyin Sovet Ittifoqining dunyoda mavqei ham keskin ko'tarilib ketadi. Bosqinchilar ustidan g'alaba nishonlanayotganda Buyuk Britaniya qiroli Georg VI Stalingard fuqarolariga faxriy qilich yuboradi, AQSH prezidenti Ruzvelt esa faxriy yorliq jo'natadi. Unda sovet jangchilarining mardligi va jasorati alohida ta'kidlanadi. *"Ularning shavkatli g'alabasi, deydi Ruzvelt - agressiya kuchlariga qarshi urushning tubdan o'zgarishiga va bu kuchlar oqimining harakatiga juda qaqshatqich zarba bo'ldi"*.

Kursk jangi va uning ahamiyati. Germaniya ommaviy safabarlik e'lon qilib, erkaklarning 16 yoshdan - 65 yoshgacha, ayollarni esa 17 yoshdan - 45 yoshgachasi urush va harbiy ishlab chiqarishga chaqirildi. Ommaviy ravishda kichiq ustaxonalar, mehmonxonalar, restoranlar yopilib, undagi ishlayotgan ishchi va xizmatchilar bevosita harbiy zavodlarga jo'natib yuboriladi. Nemislar ishchi kuchi yetishmovchiligini chet ellardan ishchilarni Germaniyaga olib kelishib to'ldirardilar. Bo'lardan tashqari yana nemis-fashistlari bosib olingan davlatlar aholisidan tashkil topgan asirlar va konsentratsion lagerlar mahbuslarini juda og'ir mehnat sharoitlarida ishlatishar edi.

1943-yilning yozlarga borib Germaniya harbiy kuchlarini biroz ko'paytirishga va harbiy texnikasi sonini ham oshirishga erishadi. Tank, samolyot va boshqa qurollar ishlab chiqarish 1942-yildagiga nisbatan 70 foizga ortdi. "Tigr" va "Pantera" nomli harbiy tanklar va yangi samolyotlar ishlab chiqarila boshlandi. Harbiy texnika sonini ko'paytirib "Sitadel" rejasi asosida urushda ustunlikni qo'lga olishni ko'zlagan edilar. Sovetlarning yirik harbiy gruppirovkasi joylashgan Kursk rayonida yangidan hujum qilishini oldini olgan holda, nemis-fashist qo'mondonligi shartli ravishda "Sitadel" deb nomlangan operatsiyasini amalga oshirishga kirishadi. Ushbu operatsiyaga asosan Kursk yo'nalishidagi Oryol va Belgorod rayonlaridan turib, Kursk yoyidagi (Kurskaya duga) joylashgan sovet qo'shinlariga qarama-qarshi chiqib yo'q qilishga qasd qiladilar. Gitler soldatlarga qilgan murojaatida shunday deydi: Kursk ostonasidagi *"Ushbu ulug' hujumkor jang - olib borilayotgan butun urush davomida hal qiluvchi (tub burilish) ta'sir*

ko'rsatadi".

“Ommaviy safarbarlik” va Yevropada ikkinchi frontning hali ochilmaganligi Germaniga yirik kuchlarini to‘plash uchun yaxshi imkoniyat yaratib bergan edi. Kursk yonidagi janglar uchun 50 ta diviziya, shundan 16 tasi tank diviziyasi mo‘ljallangan edi. Ushbu yo‘nalishda jang qilish uchun sovet - german frontida ishlatilgan barcha tanklarning 70 foizi, samolyotlarning 65 foizi mo‘ljallangan edi. Shunday harakatlariga qaramasdan gitlerchilar Sovet Armiyasidan umumiy ustunlikka erisha olmaydi. Sovet harbiy kuchlari dushman harbiy kuchlaridan - shaxsiy tarkib bo‘yicha - 1,2 baravar, qurol-aslaha, tank va samolyotlar soni bo‘yicha ikki baravarga ortiq edi. Juda g‘aroyib manzara vujudga keldi, mudofaalanuvchi tomon hujum qilayotgan dushman tomonidan har jabhada ustunlikka ega edi.

Kursk yonidagi Sovet qo‘mondonligi dushman rejalarini bilib qoladi, va uning hujumini o‘zining avvaldan tayyorlangan mudofaa kuchlari bilan kutib olib, hamda yangi kuchlarni ishga solib qarshi hujumga o‘tish va dushmanni batamom yakson qilishdan rejalashtiradi. Mudofaa bu rayonda 250-300 kilometrga ichkarigacha cho‘zilgan bo‘lib, juda ham mustahkam mudofaa tizimi tashkil qilinadi. Yaqinroqda joylashgan front ortidagi sovet qo‘shinlari zaxiradagi Stepnoy fronti kuchlarini kengaytirishni avj oldirib yuboradi. Sovet razvedkasi dushmanning hujum boshlash muddati va yo‘nalishlarini oldindan belgilab bo‘lgan edi. Bir vaqtning o‘zida 100 mingga yaqin partizanlar sovet qo‘mondonligining buyrug‘iga binoan, “Rels urushi”ni boshlab yuborib, bosqinchilar fronti ortida o‘zunligi 1000 km.dan ko‘proq temir yo‘llar, ko‘priklarni portlatib yuborib dushmanga misli ko‘rilmagan talafot yetkazadilar. 1943-yilning 5-iyulidagi nemis-fashistlarining bosqinchilik hujumi barbod bo‘ladi. Proxorovka qishlog‘i ostonasidagi tank jangi ikkinchi jahon urushidagi janglarning eng yirik shafqatsizi deb e’tirof qilinadi. Bu jangda ikkala tomondan 1200 tank va o‘zi yurar qurollar (to‘p, zambarak, artilleriya qurollari, zenit to‘plari) jangga tushirilgan. Shuning uchun ham bu jang tarixda “tanklar jangi” deb nomlanadi.

Ayniqsa, havo janglarida uchuvchilarning qahramonliklari juda ham tahsinga

sazovor edi. Ushbu janglarda sovet jangchilari bilan bir qatorda “Normandiya” deb nomlangan fransuz aviatsiyasi ham fidokorona jang qilgan.

Sovet Armiyasi dushmanning hujumini qaytarib, qarshi hujumga o‘tadi. 5-avgusda Oryol va Belgorod ozod qilinadi. Ushbu kunni nishonlash uchun Moskvada birinchi marta bayram salyuti uyushtiriladi. Keyinchalik, Sovet Armiyasi har-bir katta g‘alabasidan so‘ng xuddi shunday salyut uyushtirish an‘ana tusiga kirgan edi.

Kursk yonidagi jang 23-avgustda Harkovni ozod qilish bilan yakunlanadi. Jang 50 kun davom etgan bo‘lib, u o‘zining o‘lchamlari bo‘yicha Moskva va Stalingrad janglaridan ham o‘tib ketgan edi. Moskva ostonasidagi janglarda ikkala tomondan - 1,5 mln, Stalingrad jangida - 2 mln. kishi ishtirok etgan bo‘lsa, Kursk yoyidagi janglarda - 4 mln. kishi qatnashgan. Bu jang Germaniyani juda ham bezovta qilib qo‘ygan edi. Shundan so‘ng va hatto urush tugagunga qadar ham Germaniya qo‘shinlari faqat mudofaalanishga majbur bo‘ldilar. Bu janglardan keyin sovet qo‘shinlarining yangidan-yangi zafarli yurishlari boshlandi. Qizil Armiya Donbass va Levoberejnaya Ukrainani ozod qildi. Bu bilan Qizil Armiya nemis-fashistlarning Dnepr chegaralaridagi mudofaa tashkil qilish rejalarini barbod qildi. Qizil Armiyaning urush davomida orttirgan harbiy salohiyatining takomillashgani sabab, ular Dneprni kechib o‘tib, 1943-yil 6-noyabrda Ukrainaning poytaxti - Kiyev shahrini nemis-fashist bosqinchilaridan ozod qiladilar va o‘ng qirg‘oqni ozod qilish uchun yana ilg‘or qadam tashlaydilar.

Sovet-german markazi chizig‘ida sovet qo‘shinlari Bryansk, Gomel, Smolensk, Belorussiyaning sharqiy qismini bosqinchilardan ozod qiladilar.

Muntazam armiyaga partizanlar juda katta yordam ko‘rsatdilar. 1943-yilda ular 5 dan ortiq qo‘poruvchilik ishlarini uyushtiradilar. 1942-yilga nisbatan bu-yili ular 4 martadan ko‘p fashistlarga har xil ko‘rinishda talafot yetkazadilar.

Sovet qo‘shinlarining hujumlari natijasida 188 ta dushman diviziyasi tor-mor qilinadi. Germaniya quruqlikdagi armiyasi 1,4 mln.dan ziyod askari va yirik sondagi harbiy texnikasini yo‘qotadi.

Sovet qo‘shinlari zarbalari ostida, chekinayotgan gitlerchilar shaharlar va

qishloqlarni yondirar, tinch aholini qiynoqqa solar, va ularni Germaniyaga haydab ketardilar. Fashistlarning eng og‘ir yovuzliklariga birgina Minsk viloyati Xatin qishlog‘idagi yovuzliklarini misol qilishimiz mumkin. Bosqinchilar 1943-yili Xatin qishlog‘idagi barcha uylarni yoqib yuboradilar va butun aholisin o‘ldirib yuboradlar.

Ikkinchi jahon urushida tub burilish davrini tahlil qilib ko‘rganimizda, sovet - german urushidagi sovet qo‘shinlarining xizmatlarini yuqori baholaganimiz holda, biz g‘alabaning ta‘minlanishida Gitlerchilarga qarshi koalitsiya qatnashchilarining ham xizmatlari katta bo‘lganligini yoddan chiqarmasligimiz darkor.

8.5. Tub burilishdan so‘ng fashizmga qarshi koalitsiya davlatlarining hamkorligi.

Amerika Qo‘shma Shtatlari urushga kirishi bilanoq, tezlik bilan o‘zining ulkan iqtisodiy salohiyatini, imkoniyatlarini gullab-yashnatishga kirishadi. AQSh hududida garchi harbiy harakatlar olib borilmasa-da, Amerika Qo‘shma Shtati shaharlari havodan bombardimon qilinmas va hech qanday aholi soni jihatidan talafot ko‘rmagan edi. AQSh juda katta xom-ashyo va oziq-ovqat, energetik resurslar, ishlab chiqarish kuchlari zaxiralari, eng malakali ishchi va muhandis kadrlarga ega davlat edi. AQSh hukumati harbiy ishlab chiqarishga juda katta mablag‘lar ajratadi.

Shunday qilib, AQSh urushga ishtirok etgani holda, urushning birinchi oylaridayoq, harbiy buyurtmalarni 6 barabarga orttiradi va bunga 100 mlrd. dollar sarflaydi. Davlatning eng asosiy e‘tiborini kemalar, samolyotlar va tanklar qurishga qaratadi. Yaponiyaning avianosetslarini sindirish maqsadida AQSh birvarakayiga 28 ta turli turdagi yangi avianosetslarni qurishga kirishadi. Xudda shu paytda Yaponiya faqat 6 tagina qurdirayotgan edi, xolos. Harbiy kemalar bilan bir qatorda ommaviy ravishda transport kemalari, ayniqsa arzon narxdagi “Liberti” kemalari ham ishlab chiqarila boshlandi.

AQShning jahondagi eng yirik avtomobil ishlab chiqarish sanoati zudlik bilan tank va samolyotlar ishlab chiqaradigan qilib qaytadan jihozlanadi. Alohida

e'tiborni bombardimonchi aviatsiyaga qaratgan bo'lib, dunyodagi eng yirik 4 ta motorli bombardimonchi ("Летающая крепость") samolyot qurilib, harbiy ishlarga jalb qilingan edi. 1942-yilning o'zi davomida AQSh sanoati 32 ming dona tank, 49 ming dona jangovor samolyotlar ishlab chiqarib, dunyoda birinchi o'ringa chiqib oladi. Samolyot va kemalar eng yangi radiolaqatorlar va boshqa asboblardan jihozlangan edi.

1942-yilning yozida Cherrill va Ruzvelt o'zaro uchrashganlarida Amerikada atom bombasini ishlab chiqarishga tayyorgarlik ishlarini boshlab yuborishga qaror qiladilar. "Manxetten proekti" deb nomlangan o'ta maxfiy tashkilotga general Grovs boshliq etib, ilmiy rahbar qilib esa atoqli fizik R.Oppengeymer tayinlanadi. "Manxetten proekti" da 150 mingdan ziyod olimlar, muhandislar, texnik xodim va ishchilar faoliyat ko'rsatadilar. Bu ishlar AQSh hukumati 2 mlrd.dollar sarf qildi. AQShning bu proektga qilgan harajati Germaniyaning "uran proekti"ga sarflaganidan 200 baravar ortiqroq edi.

1942-yilda italiyalik fizik Ye.Fermi AQSHga muhojir bo'lib keldi. Italian fizik olimi birinchilardan bo'lib zanjir reaksiyasini yadro reaktorida ishlatib ko'rdi. Shuning bilan atom bombasini yaratish uchun yo'l ochildi.

Uni tayyorlash uchun amerikaliklar ulkan zavodlar qurishdi. Bu zavodlar Ok-Ridj va Xenford degan maxfiylashtirilgan shaharlarda joylashgan edi. Maxfiylik shu darajada ediki, hatto AQShning vitse-prezidenti va davlat kotibi ham uzoq vaqt mobaynida yadro bombasi ustida olib borilayotgan ishlar to'g'risida xabar topmagan edilar.

Buyuk Britaniyaning ham harbiy iqtisodiyoti ham 1942-1943 yillar davomida ulkan zafarlarga erishadi. Lekin barcha ko'rsatkichlar bo'yicha AQSh dan keyingi o'rinda turadi. Bir qator koloniyalarida Birma va Malayini boy berishlari natijasida yuzaga kelgan keskin tarzdagi oziq-ovqat va hom ashyoning yetishmovchiligiga qaramasdan, ingliz sanoati harbiy kuchlarni oziq-ovqat, tank, samolyotlar yetkazib berish bo'yicha Germaniyadan o'zib ketgan edi.

1942-yilning kuzigacha SSSR, AQSh va Buyuk Britaniya birgalikda qurol va minomyotlar ishlab chiqarish bo'yicha - 5 marotaba ko'p, samolyot ishlab

chiqarish bo'yicha - 3 marta, tank ishlab chiqarish bo'yicha - 10 marotaba ko'p Germaniya, Italiya va Yaponiyalarning birgalikdagi ishlab chiqarganlaridan ko'p ishlab chiqarilgan. SSSR, AQSh va Buyuk Britaniya harbiy kuchlarining soni esa fashistik blokning kuchlaridan 1,5 baravarga ortiq ko'paydi.

8.6. Shimoliy Afrikadagi harbiy harakatlar.

Angliya va AQSh davlati o'zining eng birinchi navbatdagi vazifalaridan biri - bu Shimoliy Afrikani bosib olishdan iborat edi. Ingliz-amerika qo'mondonligi birvarakayiga ikkita operatsiyani - Shimoliy Afrikaning sharqiy va G'arbiy qismini bosib olish tayyorgarligini boshlab yuboradi. Sharqda Misrdagi Rommelning italyan-nemis gruppировkasiga qarshi, G'arbga esa - Aljir va Marokashdagidagi fransuz yerlariga ingliz-amerika qo'shinlarini tushirish rejalashtirilgan edi. ("Fakel" operatsiyasi).

Agressor davlatlar ustidan bunday ustunlik albatta, ikkinchi jahon urushi sahnalarida o'z kuchini ko'rsatmay qo'ymas edi. Ayniqsa, bu narsa 1942-yil 23-oktyabrda Stalingrad ostidagi janglarning qizg'in pallasida general B.Montgomeri qo'mondonligidagi 8-ingliz armiyasi El-Alameyn rayonida nemis-fashistlarning Rommel korpusidan juda katta ustunlikka ega bo'lgani holda, g'alaba qozonganida edi. Yuqoridagi aytib o'tgan ustunlik yaqqol buni isbotlaydi. Italiyan-nemis qo'shinlari Misrdan Liviya tomonga chekinadi. Ayni shu paytda Shimoliy Afrikaning boshqa tomonidagi Marokash va Jazoir portlariga (Vishi davlatining mustamlaka yerlari) general D.Eyzenxauer qo'mondonligidagi ingliz-amerika ittifoqchi flotini tushirdi.

Afrikadagi fransuz kolonial armiyasi va ma'muriyati rahbarlari ingliz-ameirka agentlari bilan maxfiy aloqada bo'lishgani uchun urushdagi vaziyat qaysi tomonida ekanligi sezib, qisqa davom etgan qarshiliklardan so'ng ittifoqchilar tomonga o'tadilar. Shimoliy Afrika va G'arbiy Afrikadagi fransuz ma'muriyatini boshqarayotgan general Jiro ittifoqchilar bilan osongina til topishdi. Vishi davlati mustamlaka ma'muriyatini ingliz-amerika qo'mondonligi ostida Jazoir va Marokashni boshqarar edi. Shunday qilib, urush davrida birinchi marta fashistik

blok a'zolaridan biri hokimiyatni saqlash ilinjida ittifoqchilar tomoniga o'tdi.

Jazoir va Marokash ittifoqchilarning qo'shinlari tushirilishi haqida bilgan Gitler, ingliz-amerika desantchilariga kelgusidagi yurishlariga xalaqit qilish uchun, zudlik bilan nemis qo'shinlarini Tunisga tashlashni buyuradi. Shuning bilan bir vaqtda u Fransiyaning janubiy qismini bosib olish, Vishi davlatini saqlab qolish, ammo "vaqtinchalik yarash armiyasi"ni qurolsizlantirish va fransuz flotini bosib olish to'g'risida buyruq beradi. 1942-yil 11-noyabrda nemis va italyan qo'shinlari hech qanday qarshiliksiz janubiy zonaga kirib boradilar va "vaqtinchalik yarash armiyasi"ni qurolsizlantirdi. Biroq, Tulon portidagi fransuz flotini bosib ololmaydi. Nemis qo'shinlari Tulonga kirib kelgan paytda, fransuz dengizchilari o'z kemalarini cho'ktirib yuboradilar.

Shu voqealardan keyin Shimoliy Afrikadagi harbiy harakatlar ikki yo'nalishda davom etadi: sharqdan, general Montgomeri qo'mondonligidagi 8-armiya Liviya orqali Tunisni bosib oldi, G'arbdan esa general Jiro qo'mondonlik qilgan mustamlaka armiyasi bilan qo'shilib ketgan general Eyzenxauer qo'shinlari harakat qilardi. 1942-yilning dekabrda dushmani Tunisga siqib chiqarib, ular noqulay ob-havo tufayli janglarni to'xtatadilar. Bu esa Germaniya uchun sovet-german frontiga qo'shimcha ravishda 27 ta diviziya, shundan 5 tasi tank diviziyasini tashlashga imkon yaratib beradi. 1943-yil mart oyining ikkinchi yarmidagina Tunisda ittifoqchilarning hujumlari yangilanadi. 1943-yil 13-mayda Tunisning eng shimoli-sharqiy chekkasi bo'lgan Bon yarim oroliga siqib olib kelingan italyan-nemis qo'shinlari taslim bo'ladilar.

Ittifoqchilar qo'liga 240 ming harbiylar asirga to'shadi. Italyan-nemis qo'shinlarining Tunisdagi umumiy talafoti 300 ming ofitser soldatdan ortib ketadi.

Ingliz va amerika tarixshunosligida, Shimoliy Afrikadagi ittifoqchilarning bu harakatlari ikkinchi frontning ochilishi bilan bir xil degan tasdiqlar uchrab turadi. Biroq, bu fikrni tasdiqlab bo'lmaydi. Lekin, Sovet hukumati, ikkinchi front deb e'lon qilish uchun harbiy operatsiyalarda fashist Germaniyasining hech bo'lmaganda 30-40 ta diviziyasini jalb qilingan holdagina sanash mumkin deb hisoblashini aytadi. Afrikadagi 1942-1943 yillardagi harbiy harakatlarda 17 italyan

va nemis diviziyalari qatnashgan bo'lsa, xuddi shu paytda sovet-german frontida Germaniya va uning ittifoqchilarining 262 ta diviziyasi qatnashgan. Cherchillning o'zi I.V.Stalinga Shimoliy Afrikadagi ahvol to'g'risida xabar berayotganida, "Bu operatsiyalarning o'lchami Siz boshqarayotgan ulkan operatsiyalar bilan taqqoslaganda unchalik katta emas" deb aytadi. Afrikadagi harbiy harakatlar sovet-german urushi markazidagi voqealar teng kela olmaydi va uning bilan fashizm ustidan g'alabada hal qiluvchi natijalarga kelib bo'lmaydi.

Shimoliy Afrikaning egallash ittifoqchilarning yirik muvaffaqiyati xolos, hali bu bilan ikkinchi front ochildi degani emas.

8.7. Italiyaning kapitulyatsiyasi va fashistik blokning inqirozi.

Afrikaga muvaffaqiyatli desantlar tushirilgandan keyin, 1943-yil yanvarda Marokashning Kasablanka shahrida, kelgusidagi harakatlar rejasini kelishib olish uchun Ruzvelt va Cherchill uchrashadilar. Ruzveltning taklifi bilan Germaniyadan so'zsiz taslim bo'lish to'g'risida talab qilish to'g'risida taklifga erishiladi. Ammo bu uchrashuvda Yevropada ikkinchi frontning ochilish to'g'risidagi masala hal qilinmadi.

Cherchill tomonidan taklif qilingan "Bolqon varianti" bo'yicha Germaniyani zudlik bilan tor-mor qilishni oqlamaydi, chunki harbiy harakatlar undan yiroqda bo'layotgan edi. Uning asosiy maqsadi Italiya va Bolqonni ingliz imperialistlar nazorati ostida qoldirib, Sovet Armiyasining ularni ozod qilishiga xalaqit qilishdan iborat bo'lgan. Kasablankada bo'lib o'tgan konferensiyada qatnashgan fransuz generali de Gollning so'zlariga qaraganda, ***"Cherchill Italiya yarim oroli bo'ylab harakatlanish bilan birgalikda Gretsiya va Yugoslaviyaga tushishni, Turkiyaning urushga qo'shilishni, undan keyin esa, Avstriya, Chexiya va Vengriyaga kirib borishni kirib borishni mo'ljallagan edi. Tushunishimizcha, o'sha strategik reja London siyosatiga mos kelgani holda, Angliyaning O'rta yer dengizida ustunlik qilishni va bundan ham muhimrog'i nemislar o'rnida ruslarning bo'lib qolishidan xavfsirardi"***.

Ruzvelt "Bolqon varianti" tarafdori bo'lmasada, Cherchill masalani o'ziga

mos ravishda hal qilishga erishdi: Shimoliy Afrikani egallab bo'lganidan so'ng, Italiya hududidagi Sitsiliyaga harbiylarni tushirishga erishdi. Fransiyaga qo'shin tushirish yana kechiqtirildi. Sitsiliyani egallab olish bilan tabiyki, Italiyadagi navbatdagi opersiyalarni rivojlanishiga turtki bo'lishini, va albatta, Bolqondagi masalalar ham o'z yechimini topadi deb tahmin qilindi. 1943-yilning may oyidagina Ruzvelt va Cherrillning Vashingtonda bo'lib o'tgan uchrashuvlarida ikkinchi front to'g'risida qaror qabul qilindi. Cherrill esa yana "Bolqon varianti" g'oyasini ilgari surdi, ammo AQSh hukumati Germaniyani bo'lib tashlab, G'arbiy Yevropada mustahkam o'rnashishini muhimroq deb hisoblaydi. Shuning uchun u desantlarni Fransiyaga tushirishni va shuning bilan ingliz-amerika qo'shinlarini eng qisqa yo'l bilan Yevropa markaziga olib kelish mumkin degan fikrda turib olgandi. Oxir oqibat Vashingtonda bo'lib o'tgan konferensiyada 1944-yilning 1-mayiga qadar Fransiyada ikkinchi front ochish to'g'risida qaror qabul qilindi. Konferensiya yana Italiyani urushdan olib chiqib ketish maqsadida Sitsiliyaga harbiylarni tushirish to'g'risida, Germaniyani osmondan bombardimon qilish rejasi va Tinch okeanidagi opersiyalari to'g'risidagi rejalarni ham ma'qulladi.

Mana shundan keyingina Ruzvelt ikkinchi front ochish ikki yilga orqaga surilgani haqida Stalinga axborot berdi. Bizning fikrimizcha, bunday qaror Sovet hukumatining qat'iy e'tiroziga sabab bo'ldi. Angliya va AQSh Kasablanka va Vashingtonda ko'zlagan rejalarini amalga oshirishni davom ettirdilar.

Birinchi navbatda, AQSh va Angliya dengiz kommunikatsiyalariga xalaqit berayotgan nemis suv osti kemalariga qarshi urush ochdilar. Ular juda ham zamonaviy va yangi radiolaqatorlar bilan jihozlangan maxsus kemalarga qarshi kemalar va samolyotlar, maxsus eskort avianosetslar quradilar, suv osti kemalarini faol qidirish va ta'qib qilish ishlarini olib boradilar. 1943-yil davomida Germaniya 245 ta suv osti kemasidan judo bo'ladi, bu esa o'tgan-yillardagini qo'shib sanagandan ham ko'pdir. 1943-yilning may oyida nemis qo'mondonligi Shimoliy Atlantikadagi suv osti kemalarining guruh bo'lib harakatlanishlaridan voz kechdi va okeandan olib chiqib ketadi.

O'zining yer, suv va havo yo'llarini yo'lga solib olgan ingliz-amerika

qo'mondonligi Italiyaga bostirib kirishini boshlaydi. 1943-yilning 10-iyulida, Kursk janglarining qizg'in pallasida, qachonki, gitlerchi Germaniyaning barcha asosiy kuchlari sovet-german frontiga tashlangan vaqtda, Sitsiliyaga o'z harbiy kuchlarini tashlaydi. Yarim orolda joylashgan italyan garnizoni hech qanday qarshilik qilmaydi. Ikki haftadan so'ng ittifoqchilar Sitsiliyani egallab oladilar.

Italiya hukmron doiralarida jiddiy siyosiy inqroz vujudga keldi. Germaniyaning muqarrar mag'lub bo'lishiga ishongan holda, avvalroq xuddi Afrikadagi fransuz ma'muriyati kabi, ittifoqchilar tomoniga o'tishga qaror qildilar. Fashist partiyasining ba'zi rahbarlari va armiyaning yuqoridagi boshliqlari qirolning qo'llab-quvvatlashi orqali ingliz-amerika ittifoqchilar bilan aloqaga kirish maqsadida Mussolinidan qutulmoqchi bo'ladilar. 1943-yil 25-iyulda Katta fashist ittifoqi Mussoliniga ishonchsizlik ifodalaydi. Mussolini qirol qabuliga kelganida qirol soqchilari uni hibsga oladi. Qirol Mussolnining premer-vazirlikdan bo'shatilganini va uni sobiq bosh shtab boshlig'i marshal Badolyo bilan almashtirilganini e'lon qiladi. Badolyo hukumati Germaniya tomonida urushni davom ettirishni rasman ma'lum qilgan bo'lsada, maxfiy ravishda Angliya va AQSh vakillari bilan muzokaralarga olib borayotgan edi.

1943-yil 8-sentyabrda London radiosi Badolyo hukumati bilan tinchilik shartnomasi tuzilganiligi to'g'risida xabar berdi. Ingliz-amerika qo'shinlari Badolyo bilan shartnomaga asosan Italiyaga tushirildi. Bunga javoban, Italiyadagi nemis qo'shnilari esa italyan armiyasini qurolsizlantirib, Shimoliy Italiya va Markaziy Italiyani yo'llarini berikitib, ingliz-amerika qo'shinlari yo'llarini to'sib qo'ydi. Shunday qilib, Italiyani ikkita biri-biriga teng kelmaydigan qismga ajratilgan Neapolning shimolrorog'ida italyan fronti binoga keldi. Shimoliy va Markaziy Italiyada nemis-fashist bosqinchilardan tuzilgan italyan fashist hukumati ish olib borardi. Unga nemis parashyutistlari ozod qilgan Mussolini boshchilik qilardi. Mamlakatning uchdan birini egallagan, uning janubiy qismida esa, ingliz-amerika harbiylari tomonidan harakatlanayotgan va Germaniyaga urush e'lon qilgan Badolyo hukumati ish olib borardi.

Italiyaga ittifoqchilarning tushirilishi ikkinchi frontda o'zgarish kirita olmadi.

1943-yil sentyabrda Italiyada 17 ta nemis diviziyasi, vaholanki, xuddi shu paytda sovet-german frontida Germaniya va uning ittifochilarining 221 ta diviziyasi janglar olib borayotgan edi. Bunga ham qaramasdan, fashist rejimining halokatga uchrashi va Italiyaning ittifoqchilar tomoniga o'tishi - juda katta siyosiy ahamiyatga ega edi. Italiya armiyasi urushdan yuz o'girdi. Janubiy Italiyada fashizm rejimi ag'darildi, Shimoliy va Markaziy Italiyada esa u faqatgina nemis qo'ndohlari ostidagina ushlab turildi.

Harbiy janglar davomidagi burilishlar fashistik blokda chuqur o'zgarishlar keltirib chiqardi. Finlyandiya, Vengriya, Ruminiya hukumatlari Germaniyaning g'alabasidan umidlari uzdilar va sovet qo'shinlari yaqinlashishini qo'rquv bilan kutdilar. Ushbu davlatlarning hukmron doiralari Italiyaga o'xshab, Angliya va AQSh tomoniga o'tishga harakat qildilar. Stalingrad jangi tugaganidan keyin Finlyandiya urush tub burilishga kelgani va albatta undan zudlik bilan chiqish kerak degan xulosaga keladi. AQSh hukumati yordamida u 1943-yil yanvarda Sovet Ittifoqi bilan yarashishga harakat qildi, biroq Germaniyaning tazyiqi ostida muzokaralar to'xtatib qo'yildi. Ruminiya va Vengriya ham Angliya va AQSh bilan maxfiy muzokaralarga kirishadi. Ular ingliz-amerika ittifoqchilar bilan tinchlik shartnomasi tuzish va ularning harbiy qismlarini davlatlariga kiritishga ham rozi edilar, faqat davlatlariga Sovet Armiyasini kiritishni istamas edilar. Muzokaralardan xabar topgan Gitler, ularni to'xtatib qo'ydi. Germaniya vaqtinchalik muddatga Finlyandiya, Ruminiya va Vengriyani o'z nazorati ostida qoldira oldi xolos. Biroq ular orasida qarama-qarshiliklar tobora ko'chaya bordi.

Fashist blokining yetakchi davlatlari - Germaniya va Yaponiya Italiya taslim bo'lib kapitulyasiyaga qo'l qo'yganlaridan keyin uchlik paktiga o'zaro sodiqligini e'lon qilishdi. Biroq, ularning har biri o'zlarining alohida maqsadlarini belgilab olgan edilar. Yaponiya yangi hujumga imkoniyat mavjud emasligini bilgani holda, 1942-yil kuzdan mudofaaga o'tdi. Yapon olimlari yashirincha yadro quroli ustida ishlar boshlab yuborishdi, biroq, yapon fanining qoloqligi va kerakli xom-ashyo (uran) ning mavjud emasligi sabab, ular kerakli natijaga erisha olmaydilar. Yaponiya bosib olgan yerlarini ushlab qolish maqsadida, siyosiy taktika yurigizdi.

Yaponiya Birma va Filippinga “mustaqillik” berilishini e’lon qildi. Shuning bilan Yaponiya, bu davlatlarning Angliya va AQShga urush e’lon qilishlariga erishdi. Biroq Indoneziyaga “mustaqillik” emas, balki “ko’ngilli armiya” to’g’risida e’lon qildi, bu indoneziyaliklarning armiyada komanda lavozimlarini olishi mumkin degani edi, xolos.

Gitler Germaniyasi ittifoqchilarning yangi hujumi muqarrarligini nazarda to’lgani holda, ommaviy safarbarlik, partiya va politsiyani qo’lda ushlab turish, ommaviy terrorni ko’chaytirish ishlarini yangidan - yangi yo’llarini axtarishga tushgan edi. Kursk ostonasidagi mag’lubiyatdan keyin armiyaga avval harbiy xizmatga yaroqsiz bo’lganlarni ham olish boshlandi. Bosib olingan davlatlar va Germaniyaning ittifoqchi davlatlari odamlarini ekspluatatsiya qilish ko’chaytirildi. 1943-yilga kelib, Germaniyaga chet ellardan majburan haydab kelingan ishchilar va asirlar soni 7 mln. kishiga yetdi.

Germaniya davlat apparatni boshqarishda partiya-politsiya apparatining roli yanada ko’chaydi. Kursk jangidan keyin gestaponing boshlig’i Gimmler, ichki ishlar vaziri etib tayinlandi. U barcha politsiya-jazo organlarini o’z qo’li ostiga oldi. Fashist partiyasining viloyatlardagi rahbarlari **“reyxni himoya qiluvchi komissarlar”** lavozimlarini egallagan va mahalliy ma’muriyatni boshqarar edilar. Armiyaga “milliy-sotsial rahbariyat ofitserlari” jo’natildi. Oliy qo’mondonlikda “milliy-sotsial shtab” ta’sis qilinib, uning vazifasi - armiyada fashistik nazoratni ko’chaytirishdan iborat edi. Milliy partiya a’zolaridan tashkil topgan SS qo’shinlarining soni deyarli ikki baravarga ko’paydi.

Fashistik terror yanada ko’chaya boshladi. Germaniyaning oltita asosiy konsentratsion lagerlarida 1940-yildan - 1943-yilgacha mahbuslar soni 5 baravarga, o’lim jazolari esa 18 baravarga ortdi. Bosib olgan davlatlar xalqlari, ayniqsa, slavyan va yahudiylarni ommaviy ravishda qiynash va o’ldirish ko’chaytirilgan darajada olib borilardi. Polshada gitlerchilar tomonidan qurilgan “Yo’q qilib tashlash” lagerlariga butun Yevropadan mahkum qilingan odamlar bilan to’la vagon poyezdlari oqib kelardi. Ularni otishardi yoki gaz kameralarida bo’g’ib o’ldirilardilar. Ularning jasadlarini krematoriylarda qo’ydirishar, kiyimlari

va qimmatbaho buyumlarini esa Germaniyaga jo'natishardi. Maxsus komandalar esa tilla tishlarini sug'urib olib, ularni qaytadan quyib, nemis banklariga jo'natishardi. O'ldirilgan ayollar sochlaridan matraslar, odam yog'idan esa sovun tayyorlashardi. Eng yirik lagerlardan biri - Krakov shahri yoqinida joylashgan Osvensim lageri edi. 1940-yilning may oyidan dekabr oyigacha u yerda 3 mln. kishidan ziyod odam o'ldirib yuborilgan. Osvensim bino bo'lgan kundan - ya'ni 1940-yilning may oyidan 1945-yilning yanvarigacha SSSR, Polsha, Fransiya, Belgiya, Gollandiya, Chexoslovakiya, Yugoslaviya, Ruminiya, Vengriya va boshqa davlatlarning 4 mln.dan ortiqroq fuqarolari o'ldirilib yuborilgan. O'lim lagerlaridan yana biri Maydanek bo'lib, Lyublinda joylashgan edi. Bu lagerda 1940-yildan - 1944-yilgacha 1,5 mln odam o'ldirib yuborilgan. Nemislar 1942-yili Polshaning Treblinka stansiyasida yana bitta o'lim lagerini quridirishadi. Bu lagerda ikki-yil davomida 800 mingdan ortiq odam o'ldirib yuboriladi. Butun urush davomida nemis konsentratsion lagerlari va o'lim lagerlarida 18 mln. kishi mavjud bo'lib, shundan 11 mln.i qiynoqqa solingan va o'ldirib yuborilgan.

1943-yil davomida AQSh va Buyuk Britaniya o'zining iqtisodiyotini harbiylashtirib bo'lgan edi. Ularning harbiy iqtisodi yuqori darajalarga ko'tirilib ketadi. 1943-yilning o'zidagina AQSh 38 mingdan ziyod tank, 86 mingga yaqin samaliyot ishlab chiqarib, dunyoda birinchi o'ringa chiqib oldi. 1943-yilda AQSh ning umumiy daromadi 1940-yilga nisbatan ikki baravaga ko'paydi. Sanoat va qishloq xo'jaligida misli ko'rilmagan natijalarga erishildi. Ishsizlik tugatilgani holda, ishchi kuchi yetishmay qolgan edi. Davlat mablag'lari asosan, atom bombasi ishlab chiqarishga kerak bo'ladigan alyumin, sun'iy kauchuk, uran ishlab chiqarishga sarflanar edi. AQSh hukumati ish haqi va narxlarni tartibga solish, davlat buyurtmalarin bajarishni kuzatib borish, xom-ashyo va ishchi kuchini taqsimlashni boshqaruvchi butun ma'muriy tizim tuzgan edi. Ularning ustidan umumiy nazoratni 1942-yilning oktyabrida tuzilgan Iqtisodiy Barqarorlik Xizmati (keyinroq - Harbiy safarbarlik xizmati) olib borardi. Bu tashkilotlarning tuzilishi AQSHda harbiy davlat - monopolistik kapitalizm tizimining qaror topish jarayonini tugallashiga yordam berdi.

AQSh hukumati tomonidan 1943-yilning yozida mehnat nizolari to'g'risidagi Smit-Konnelli qonuni qabul qilinadi. Ushbu qonunga ko'ra, AQSh prezidentiga harbiy korxonalarda ish tashlashlarni ta'qiqlash huquqi berildi. AQSh iqtisodining o'sishidan asosan yirik monopoliyalar foyda ko'rardilar. Ularning (soliqlarni chiqarib tashlaganda) sof daromadlari 125 mlrd. dollarni tashkil qildi. Ammo aholining boshqa qatlamlari: mayda tadbirkorlar, savdogarlar, fermerlarning ham turmush darajalari yaxshilandi. Fermerlarning daromadlari urush-yillari to'rt baravarga o'sdi. Yollanma ishchilarning ahvoli juda qiyin edi. 1942-yilning iyul oyida hukumat po'lat quyuvchilar va kasaba-uyushmalari o'rtasidagi nizoni ko'rib chiqayotib, narxlar va ish-haqini urush oxirigacha 15 foizga oshirishi mumkinligini nazarda tutardi. Aslida, urush oxiriga borib, narxlar 25 foizga o'sdi, kasaba-uyushmalari hisoblashicha esa – 45 foizga o'sdi. Soatbay ish haqi narxlar oshirishdan orqada qolib ketdi.

SSSR bilan hamkorlikda fashizmga qarshi urushda AQSh ning qatnashishi, aholi turmush darajasining o'sishi - jamoatchilik ongini o'zgartirib yubordi. Mamlakatda fashizmga qarshi qarashlar, vatanparvarlik g'oyalari vujudga keldi. Davlatning milliy birlikka chaqirig'i ommaning keng qatlamlarida zo'r ko'tarinkilik bilan ma'qullandi. Shuning bilan bir vaqtda, ana'anaviy - shaxsiy va konservativ qarashlar ham jonlana bordi. Avvallari obro'ga ega bo'lmagan tadbirkor va bankirlar, "vatan uchun" harbiy sanoatni tashkilotchilari sifatida yana obro' va e'tiborga ega bo'ldilar.

AQShda SSSR tarafdorlari o'sib borardi va ikkinchi front ochishga talablar ko'paya bordi. Tezroq ikkinchi frontni tuzish kampaniyasini - Kommunistlar partiyasi, profsoyuzlar, 15 mln. kishini jamlagan slavyan millatiga mansub amerikaliklarning - Slavyan kongressi hamda aholining ziyolilar qatlamlari - olib borardi. Shunga qaramay, qachon ikkinchi front ochishni davlat o'zi yaxshiroq biladi deydi aholidan katta qismi - AQSh hukumati siyosatini yoqlaydi.

Buyuk Britaniyada sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi. Harbiy sanoat keng ko'lamda rivojlanib, AQShdan keyingi o'rinni egallaydi. 1943-yili Buyuk Britaniya sanoati 7,5 mingta tank, 26 mingga yaqin samolyotlar va harbiy kemalar

ishlab chiqaradi. 1942-yilning fevralida harbiy ishlab chiqarish vazirligi vujudga keladi.

Profsoyuzlar a'zolari soni - 8,3 mln.ga yetadi, ammo ish tashlashlar soni ham shunga yarasha o'sa boradi. 1942-yil hukumat "Deyli uorker" nashrini ta'qiqlab qo'ydi. AQShda ham xuddi Buyuk Britaniyada bo'lgani kabi harbiy holat vatnparvarlik va fashizmga qarshi ruhdagi holatlarin yuzaga chiqaradi. 1943-yilda hukumat qarilik pensiyasi, nogironlik nafaqasi, ko'p bolali onalarga nafaqa va shunga o'xshaganalarni ko'rib chiqdi.

Ikkinchi jahon urushidagi tub burilish Gitlerga qarshi koalitsiyaning kengyishiga olib keldi. 1942-1943-yillarga kelib avval betaraflik siyosati yurgizgan bir qator davlatlar: Meksika, Braziliya, Eron, Iroq, Boliviya, Kolumbiya fashistik blok davlatlariga qarshi urush e'lon qilishga qaror qiladilar va Birlashgan Millatlar Tashkiloti Deklaratsiyasiga imzo qo'yadilar. 1943-yilning oxiriga kelib 32 ta davlat BMT Deklaratsiyasiga imzo qo'yadi. Butun progressiv jamoatchilik fashizmga qarshi o'zlarining noroziliklarini bildiradilar.

Stalingrad ostidagi janglar, ayniqsa Kursk jangidan keyin AQSh va Angliya hukmron doiralari Sovet Ittifoqining bir o'zi ham Germaniyani yengib, butun Yevropani ham fashizmdan ozod qilishi mumkin degan xulosaga keldilar. Ikkinchi frontni yana orqaga surish foydasiz ekanligi yaqqol ko'rinib qoldi. Aksincha, endilikda G'arbiy Yevropaga ularining qo'shinlarini tushirish maqsadga muvofiq deb sanab, Qizil Armiya Yevropani ozod qilishiga yo'l qo'ymaslik kerakligini angalab yetdilar.

Cherchill va Ruzvelt o'zlarining navbatdagi 1943-yilning avgust oyida Kvebekda bo'lib o'tgan uchrashuvlari paytida, Amerika delegatsiyasi "Germaniyani Sovet Ittifoqi tomonidan mag'lub qilinishi o'ta xavfli", shuning uchun tezroq Fransiyada ikkinchi frontni ochish kerak deb ma'lum qildi. Bundan tashqari Amerika hukumati SSSRni Yaponiyaga qarshi urushga jalb qilishni istar edi va Sovet Ittifoqiga bergan va'dalarini bajarishni talab qilardi. Ruzveltning talabiga ko'ra, Vashington konferensiyasi 1944-yil 1-maydan kechiqtirmasdan Fransiyaga desant tushirishni ma'qulladi. Ikkinchi front ochish haqidagi

maqsadlarining birligi sabab, AQSh, Angliyani Sovet Ittifoqiga o‘zaro yaqinlashtirdi. Ammo urushdan keyin, eng avvalo, fashizmdan ozod qilingan davlatlarda qanday tuzum barpo qilish muammolarining avj olib borishi vaziyatni keskinlashtirardi. 1943-yilda Sovet Armiyasining chegaralariga yaqinlashib qolgani sabab Polshadagi ahvol yuzasidan muammolar chiqdi. Xuddi shunday ingliz-amerika qo‘shinlarining Fransiyaga tushirilishi kerak bo‘lgan bir paytda, Fransiyadagi ahvol yuzasidan ham muammolar chiqdi.

Polshaning xorijdagi hukumati 1941-yilda Sovet Ittifoqi bilan Germaniyaga qarshi urushda bir-birlariga o‘zaro yordam berish to‘g‘risida shartnoma imzolashgan bo‘lsalarda, Polsha SSSR ga nisbatan dushmanlarcha munosabatda siyosat olib bordi. Muhojir hukumat G‘arbiy Ukraina va G‘arbiy Belorussiyaning qo‘shilishi natijasida paydo bo‘lgan SSSRning yangi chegaralarini tan olmaydi; SSSRda tuzilgan general Andersning polyak armiyasini sovet-german frontida foydalanishni rad etadi va uni Sovet Ittifoqi chegaralaridan olib chiqib ketishni talab qiladi; ommaviy nashrlarda sovetlarga qarshi tashviqot boshlab yubordi, Sovet hukumati Anders armiyasini chegaradan chiqib ketishiga ruxsat berdi, biroq, 1943-yil aprelda Londonda joylashgan muhojir polyak hukumati bilan diplomatik aloqalarni o‘zdi. Sovet Ittifoqidagi polyak kommunistlarining tashabbusi bilan, “polyak vatanparvarlari ittifoqi” tashkil qilindi. Tashkilot Sovet Ittifoqining ruxsati bilan fashistlarga qarshi urushish uchun polyak fuqarolaridan harbiy qismlar tuzishni boshlab yubordilar. Bu harakatlar muhojir polyak hukumatini qo‘llab-quvvatlayotgan AQSh va Angliya hukumatiga ma’qul bo‘lmaydi.

SSSR, AQSh va Angliya kelishmovchilaridan yana biri bu - Fransiyadagi ahvol edi. 1943-yilning iyun oyida general de Goll boshchilik qilayotgan “Kurashayotgan Fransiya” harakati general Jiro tarafdorlari bilan birlashdilar. Jazoirda De Goll va Jiro raisligida o‘zini markaziy fransuz hukumati deb e’lon qilgan - milliy ozodlik yagona Fransiya komiteti (FKNO) tuziladi va tashkilotni tan olishlari uchun Angliya, SSSR va AQShga murojaat qiladi. Sovet Ittifoqi FKNO ni tezlik bilan tan olish zarur deb sanaydi, biroq Angliya va AQSh o‘zining mustaqilligi va qat’iyligi bilan milliy qadriyatlarni himoya qilgan general de

Gollga ishonch bildirmaydilar. 1943-yil avgustga kelibgina Sovet Ittifoqining qat'iy talabi bilan Angliya va AQSh bir vaqtning o'zida FKNO ni tan oladilar. Faqat, Sovet Ittifoqigina FKNO ni Fransuz respublikasining davlat manfaatlari ifodalovchi rahbari va fashizmga qarshi kurashayotgan barcha fransuz vatanparvarlarining rahnamosi sifatida tan oladi.

8.8. Birlashgan Millatlar Tashkilotining tashkil topishi.

Nyurnberg mahkama jarayoni.

Qrim konferensiyasi ishlab chiqilgan BMT nizomi loyixasini ma'qo'lladi va 1945-yil 25-aprelda San-Fransiskoda BMTning ta'sis konferensiyasini chaqirish to'g'risida qaror qabul qildi.

1945-yil 25-aprelda San-Fransiskoda BMT ta'sis konferensiyasi ish boshladi. Unga Birlashgan Millatlar deklaratsiyasini imzolagan va Germaniyaga 1945-yil 1-martigacha urush e'lon qilgan 42 davlat vakillari taklif etildi. 1945-yil 26-iyunda konferensiya BMT nizomini qabul qildi. U BMTning eng muhim vazifasi tinchlik va xavfsizlikni saklashdan iborat ekanligini e'lon qildi. BMTning nizomi bugungi kunda xalqaro huquqning eng muhim hujjatlaridan biri hisoblanadi.

Shunday qilib, BMT endilikda xalqaro munosabatlarning eng muhim ustuvor omili va xalqaro huquqning bosh sub'ekti hisoblanadi.

1945-yil 17-iyundan 2-avgustgacha Berlin Yaqinidagi Potsdamda, sobiq Gogensollernlar saroyida uch buyuk davlat boshliklari G.Trumen (AQSH), I. Stalin (SSSR), U.Churchill (Buyuk Britaniya), keyinroq uning o'rnini egallagan K.Etli ishtirokida konferensiya o'tkazildi. Konferensiya "german militarizmi va natsizmi tiklanishining yoki qayta tashkil etilishining abadiy oldini olish uchun" barcha natsistik tashkilotlarni denatsifikatsiya qilish va harbiy muassasalarni tugatish haqida qaror qabul qildi. Barcha natsist jinoyatchilari qamoqqa olinishi va jazolanishi zarur edi. Kenigsberg shahri va uning Yaqinidagi hudud SSSRga berildi. Endilikda Polshaning Oder va Nisa daryolari bo'ylab o'tadigan g'arbiy chegaralari belgilandi.

Nyurnbergda 1945-yil 20-noyabrdan 1946-yil 1-oktabrgacha Xalqaro tribunal

natsist harbiy jinoyatchilarning birinchi guruhini sud qildi. Javobgarlikka tortilganlar orasida G.Gering, V.Keytel, E.Kaltenbrunner, I.Ribbentrop, A.Yodl, A.Shpeer va boshqalar bor edi. 12 kishi o'lim jazosiga hukm etilib, qatl qilindi.

Natsional-sotsialistik partiya, SS, Gestapo, SD - jinoyatchi tashkilotlar deb e'tirof etildi. Nyurnberg jarayoni german natsizmning g'ayriinsoniy mohiyatini, uning ko'plab xalqlar va davlatlarni yo'qotishga qaratilgan rejalarini fosh etdi. Nyurnberg sudining qaroriga ko'ra, agressiya insoniyatga qarshi eng ogir jinoyat deb e'tirof etildi. Bu haqiqiy xalqlar sudi, tarixning ayovsiz, ammo adolatli sudi bo'ldi.

Shunday qilib, Yevropa, Osiyo, Afrika, Amerikaning 61 davlatini o'z domiga tortgan Ikkinchi jahon urushi olti-yil davom etdi. Urush Shimolda Yangi Yer va Alyaska sohillariga, Sharqda Kuril va Gavayi orollariga, Janubda Misr, Hindiston va Avstraliya chegaralariga qadar yetib bordi. Harbiy harakatlar 40 ta davlat qududini qamrab oldi. Urush 50 mln. dan ortiq kishining yostig'ini quritdi.

Mavzuni mustahkamlash yuzasida savol va topshiriqlar:

1. XX asr boshlaridagi xalqaro munosabatlar qaysi voqealiklar bilan o'ziga xos hisoblanadi?
2. Millatlar ligasi nima maqsadda tuzildi?
3. Parij sulh konferensiyasi va uning qarorlari to'g'risida ma'lumot bering.
4. Versal-Vashington sistemasi deganda nima nazarda tutiladi?
5. 1918-1923 yillarda Buxoro amirligi va xalqaro munosabatlar.
6. Barqarorlashuv yillarida nimalar sodir bo'ldi?
7. Jahon iqtisodiy inqirozining asosiy sabablari nimalardan iborat edi?
8. Nega aynan Italiya va Germaniyada totalitar tuzum urnatildi?
9. Urush uchoklari kaysi mamlakatlarda vujudga keldi?
10. Ikkinchi jahon urushi arafasidagi xalqaro vaziyatga ta'rif bering.
11. "Myunxen fitnasi" deganda nima nazarda tutiladi?
12. Ikkinchi jahon urushi davrida xalqaro munosabatlarning bosqichlari va xususiyatlarini izohlab bering.

13. Natsistik va fashistik g'oyalar asosini nimalar tashkil etardi?
14. Dunyoni bo'lib olish kay tarzda davom etdi?
15. Birlashgan Millatlar Tashkilotining tashkil topishi haqida nimalarni bilasiz?
16. Nyurnberg jarayoni haqida so'zlab bering.

9-MAVZU. «SOVUQ URUSH» SIYOSATINING VUJUDGA KELISHI VA YEVIROPADA XALQARO MUNOSABATLARNING KESKINLASHUVI

REJA:

- 9.1. Sovuq urushning kelib chiqish sabablari.**
- 9.2. 1946-1960 yillarda xalqaro munosabatlar.**
- 9.3. Karib havzasida xalqaro insiroz. Ilk yadroviy urush xavfining bartaraf etilishi.**
- 9.4. Ikki qutbli tizim o'rtasida ziddiyatlarning kuchayishi.**
- 9.5. "Sovuq urush"ning keskinlashishi va XX asr 50-70-yillarning birinchi yarmida ikki qutbli dunyoviy tartibning shakllanishi.**
- 9.6. Osiyo va Afrikada mustamlakachilik tizimining barbod bo'lishi.**

Tayanch tushunchalar: *U.Cherrillning Fultondagi nutqi. «Temir parda»ning tushirilishi. «Sovuq urush»ning yadroviy qurollanish poygasi darajasiga ko'tarilishi. «Trumen doktrinasi». «Marshal rejasi». Berlin inqirozi. Shimoliy Atlantika shartnomasi (NATO). Koreya urushi. Xindi-Xitoy bo'yicha Jeneva shartnomasi. SEATO. Bag'dod pakti. Varshava shartnomasi tashkiloti. Karib tangligi. Xalqaro keskinlikning yumshashi (detant). Vyetnamdagi urushning to'xtatilishi. Yevropada hayfsizlik va hamkorlik bo'yicha kengashning chaqirilishi (1973-1975 yy.)*

9.1. Sovuq urushning kelib chiqish sabablari.

Ikkinchi jahon urushi natijasida fashistik blokka mansub davlatlar mag'lub etildi. Gitlerchilar Germaniyasi va imperialistik Yaponiyani mag'lubiyatga uchratishda sobiq SSSR xalqlari katta jonbozlik ko'rsatdilar, ammo bu urush millionlab insonlarning yostig'ini quritdi, son-sanoqsiz shahar va qishloqlar harobaga aylantirildi.

Urushdan so'ng Markaziy Yevropa, Janubi-Sharqiy Yevropada, shuningdek, Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyoda bir qator mamlakatlar mustaqillikka erishdilar.

Inqilobiy va umumdemokratik harakatlar natijasida mustamlaka va yarim mustamlaka mamlakatlarda xalqlarning milliy-ozodlik, milliy mustaqillik kurashlari ko‘chayib ketdi. Sharq xalqlari o‘z taqdirini o‘zlari mustaqil hal qiladigan, xalqaro munosabatlar yangi qudratli omilga aylanadigan davr boshlandi. Ikkinchi jahon urushi natijasida Germaniya, Italiya, Yaponiya tor-mor etildi. Angliya va Fransiya ancha zaiflashdi. AQSh kapitalistik dunyoning yetakchi kuchiga aylandi. AQSh o‘zining iqtisodiy, moliyaviy, siyosiy, harbiy kuch-qudratiga tayanib, xalqaro miqyosda o‘z hukmini yurita boshladi. G‘arb davlatlari o‘rtasidagi ziddiyat yanada ko‘chaydi: bu ziddiyat g‘olib davlatlar va yengilgan davlatlar o‘rtasida kechayotgan bo‘lib, o‘z navbatida, AQSH va Angliya, AQSH va Fransiya, Angliya va Fransiya o‘rtasida ham qarama-qarshiliklar mavjud edi. Qarama-qarshiliklar metropoliya va mustamlaka mamlakatlar o‘rtasida ko‘chaydi.

Ikkinchi jahon urushi tugagandan so‘ng, eng muhim voqealardan biri, bu xalqaro munosabatlarda Birlashgan Millatlar Tashkilotining vujudga kelishi va uning xalqaro miqyosdagi nufuzi bo‘ldi. Uning nizomi ishlab chiqildi, ixtisoslashgan tashkilotlari faoliyat yurita boshladi. BMT ning dunyoda xavfsizlikni saqlash va barqarorlikni ta‘minlashdagi roliga katta e‘tibor qaratildi. BMT xavfsizlik kengashi 5 ta doimiy a‘zolar AQSh, sobiq SSSR, Angliya, Fransiya, Xitoy hamda 10 ta saylanadigan a‘zo davlatlardan iborat edi. BMTning qarorgohi Nyu- York shahrida joylashgan bo‘lib, mustaqil davlatlarning soni oshib borishi va ularning BMTga qabul qilinishlari jarayonida bu xalqaro tashkilotning dunyodagi nufuzi ham oshib bordi.

1945-yil may oyida xalqlar urushda erishgan g‘alabani qayta nishonlayotgan kunlarda Amerika ittifoqchilari o‘zlarining 57-konferensiyasini o‘tkazib, sovuqqonlik bilan, yangi urush Amerika kapitalizmi uchun kerak, degan fikrga keldilar.

O‘z navbatida, Ikkinchi jahon urushi kechgan 1944-1945 yillarda Yevropa, Lotin Amerikasi va Osiyo xalqlari orasida kommunistlarning obro‘yi va nufuzi oshib bordi. Hatto, Italiya, Fransiya, Chili, Eron va boshqa bir qator mamlakatlarda kommunistlar hukumatlar tarkibiga kirib, “proletar inqilobi” o‘tqazishni

rejalashtirdilar.

1946-yil mart oyida Angliyaning sobiq bosh vaziri Uinston Cherrill, AQSH prezidenti Garri Trumen ishtirokida Fulton shahrida (AQSH) nutq soʻzladi. Oʻz nutqida Cherrill AQSH va Angliyaning dunyoga hukmron boʻlish dasturini ilgari surdi. Bu dastur gʻoyasi AQSH hukmron doiralari manzur boʻldi. Ular jahonga hukmron boʻlishga, sobiq SSSR va xalq demokratik mamlakatlarda kapitalizmni qayta tiklash hamda dunyodagi kuchlar nisbatini oʻz foydalariga hal qilishga zoʻr berib urindilar. Natijada, “zoʻravonlik siyosati”, “sovuq munosabatlar urushi” vujudga keldi. “Sovuq munosabatlar urushi” aslida “kommunizmga qarshi urush”dan iborat edi. Shunday qilib, “Sovuq urush”ning kelib chiqishida har ikkala tomon - sobiq SSSR va kommunistlar bilan bir qatorda, AQSH, Angliya hamda kapitalistik gʻarb dunyosi masʼuldirlar.

AQSH zoʻr berib qurollanib, dunyoning turli hududlarida harbiy bazalar yaratdi va harbiy bloklarni tuzdi. Atom qurolini pesh qilib, AQSH “atom diplomatiyasi”ni ishga soldi. Ammo sobiq SSSR ham AQSH bilan bir qatorda qurollanish poygasini boshlab yubordi.

9.2. 1946-1960 yillarda xalqaro munosabatlar.

1946-yil iyul-oktabr oylarida Parijda boʻlib oʻtgan tinchlik konferensiyasida sobiq SSSR Italiya, Vengriya, Ruminiya, Bolgariya va Finlyandiya bilan sulh shartnomalari tuzish uchun kurash olib bordi. Bu davlatlar ilgari fashistik blokka mansub edilar. 1946-yil dekabr oyida BMT rahnamoligida Tashqi ishlar vazirlari kengashining Nyu-York sessiyasi sulh shartnomalarini ishlab chiqishni nihoyasiga yetkazdi. Bu sulh shartnomalari 1947-yil 10-fevralda imzolandi va oʻsha yilning 15-sentabridan boshlab kuchga kirdi. Hudud masalalari, reparatsiya (toʻlov) muammosi, qurolli kuchlar va fuqarolarning demokratik huquqlari singari masalalar ushbu mamlakatlarning milliy manfaatlariga muvofiq ravishda hal etildi. Fashistik tipdagi partiya va tashkilotlar faoliyati taqiqlab qoʻyildi.

Dunay daryosi boʻylab kema qatnovi tartibi toʻgʻrisidagi masala boʻyicha chaqirilgan Belgrad konferensiyasida (1948-yil avgust) 1921-yilgi Konvensiya bekor qilinib, uning oʻrniga yangi Konvensiya qabul qilindi. Yangi Konvensiyaga

muvofig, Dunay zonasida bo'lmagan mamlakatlar harbiy kemalarining Dunay daryosida yurishi taqiqlandi, ammo barcha mamlakatlar savdo kemalarining bemalol yurish prinsipi qabul qilindi. Shu tariqa, Dunay mamlakatlarining pozitsiyasi birmuncha ko'chaydi.

1948-yil sobiq SSSR va Finlyandiya o'rtasida do'stlik, kamkorlik va o'zaro yordam to'g'risidagi shartnomasining tuzilishi tinchlik va xavfsizlik uchun qo'shilgan yangi hissa bo'ldi. Bu shartnomada Finlyandiya tashqi siyosatining xususiyatlari (buyuk davlatlar o'rtasidagi to'qnashuvlardan chetda turishga intilish) hisobga olindi. Shartnoma teng huquqlilik, o'zaro manfaatdorlik va ichki ishlarga aralashmaslik prinsiplariga asoslangan edi. Sovet-Finlyandiya shartnomasi Shimoliy Yevropada tinchlikni saqlash uchun xizmat qildi.

1949-yil aprel oyida AQSh va Angliya tashabbusi bilan g'arb davlatlari Shimoliy Atlantika bitimiga asos soldilar. Bu bitimga 12 davlat: AQSH, Angliya, Fransiya, Italiya, Belgiya, Gollandiya, Luksemburg, Kanada, Norvegiya, Daniya, Islandiya va Portugaliya a'zo bo'lishdi. Shimoliy Atlantika bitimi inglizcha bosh harflari asosida NATO deb yuritilib kelmoqda. Unga 1952-yilda Gresiya va Turkiya, 1955-yilda esa GFR a'zo bo'lib kirishdi. Bu bitimga ko'ra, a'zo davlatlar, agar ularning birortasiga tashqaridan hujum uyushtirilsa yoki ichki xavf tug'ilsa, yordam qo'llarini cho'zishlari shart edi. NATO direktivasiga ko'ra, sobiq SSSR uning strategik dushmani deb e'lon qilingan edi. Shunga ko'ra, NATOning harbiy bazalari kommunistik xavf hamda kommunistik partiyalar ta'sir doiralari kuchli bo'lgan mamlakatlarda joylashtirildi. NATO ning bosh qarorgohi Parij shahrida joylashdi.

G'arb davlatlarining aralashuvi va sobiq SSSRning faol qatnashuvi natijasida 1949-yil sentabr oyida GFR va 1949-yil oktabr oyida GDR tuzildi. Shunday qilib, "sovuq urush" va ikki lagerning qarama-qarshiligi tufayli Germaniya ikki davlatga parchalanib ketdi.

1949-yil 1-oktabrda Xitoy Xalq Respublikasi tuzildi. Tez orada Xitoy 26 davlat bilan diplomatik aloqalar o'rnatishga muvaffaq bo'ldi. 1950-yil 14-fevralda sobiq SSSR va Xitoy o'rtasida do'stlik, ittifoqchilik hamda o'zaro yordam

to'g'risida shartnoma va bir necha iqtisodiy bitimlar imzolandi. 1951-yil sentabr oyida AQSh tomonidan San-Fransiskoda chaqirilgan konferensiyada Sovet delegatsiyasi Yaponiya bilan sulh shartnomasini tuzishga o'rinib ko'rdi, biroq ikki tomon bir bitimga kelishga muvaffaq bo'lishmadi. Aksincha, AQSh Yaponiya bilan separat sulh shartnomasini tuzishga muvaffaq bo'ldi. AQSh dunyoda hukmron bo'lishga intildi. 1947-yilda "Trumen doktrinasi" e'lon qilindi. Bu doktrinaga ko'ra, AQSh boshchiligidagi G'arb davlatlarining kommunistik aqidaparastlikka qarshi kurash olib borishlari rejalashtirilgan edi. Bu doktrina xalqaro miqyosda "qamchin va kulchanon diplomatiyasi" nomini oldi.

1948-yil iyun oyida AQSh davlat kotibi Marshal Yevropa iqtisodini ko'tarishga AQSh ularga qarz - kredit berishini ma'lum qildi. Bu reja "Marshal rejasi" nomini oldi. Mazkur reja G'arbiy Yevropa davlatlari tomonidan qabul qilindi va bu holat ularning iqtisodini barqaror rivojlantirishga juda qo'l keldi. Biroq u Janubi-Sharqiy Yevropa sobiq xalq demokratik davlatlari tomonidan boykot qilindi, chunki "sovuq urush" natijasida har ikkala lager tomonidan olib borilayotgan mafko'raviy kurash avj olib borayotgan edi.

Aytish joizki, NATO G'arbiy Yevropani "atlantlashtirish" yoki "amerikalashtirish" gagina emas, balki uni integratsiyalashtirishga ham qaratilgan edi. Ma'lum ma'noda NATO ning siyosati G'arbiy Yevropadagi milliy chegaralarni tiklash, milliy suverenitetni "atlantizm" bilan almashtirishga qaratilgan edi.

Sobiq SSSR bunga javoban Sharqiy Yevropada G'arbiy siyosiy blok tuzish rejasini ishlab chiqdi. 1949-yilda Sharqiy Yevropa va SSSR davlatlari o'rtasida "O'zaro iqtisodiy yordam kengashiga" asos solindi. O'zaro iqtisodiy yordam kengashining birinchi a'zolari Albaniya, Bolgariya, Chexoslovakiya, Vengriya, Ruminiya va SSSRdan iborat edi. 1950-yilda bu Kengashga GDR ham a'zo bo'ldi. Keyinchalik bu kengash sobiq sotsialistik mamlakatlar hisobiga kengayib bordi. 1950-yillar o'rtasida GFRning NATO tarkibiga kirishi munosabati bilan Sharqiy Yevropa mamlakatlarida noroziliklar ko'chaydi, ayniqsa, bu holat Gitler Germaniyasi bosib olgan hududlarda avj oldi. Shu sababli, 1955-yil 15-mayda

Albaniya, Bolgariya, Chexoslovakiya, GDR, Vengriya, Polsha, Ruminiya va SSSR namoyandalari Varshavada Birlashgan Varshava bitimiga asos soldilar. Bu harbiy-siyosiy bitim bo‘lib, Sharqiy Yevropadagi sobiq sotsialistik lager a‘zolarini o‘z ichiga olgan edi. Endilikda “sovuq urush” avjiga chiqqan bo‘lib, dunyo davlatlari harbiy bloklarga ajraldilar. Ammo bu qarama-qarshiliklarga qaramay, G‘arbiy Yevropa iqtisodiy jihatdan birlasha boshladi. Ikkinchi jahon urushidan keyin G‘arbiy Yevropa iqtisodiy integratsiyasining asosini Fransiya va G‘arbiy Germaniyaning Yaqinlashuvi va hamkorligi tashkil etdi.

G‘arbiy Yevropani modernizatsiyalash va integratsiyalashtirish g‘oyasi 1945-yildayoq tajribali iqtisodchi va jamoat arbobi fransuz Jan Monne tomonidan ishlab chiqilgan edi. 1950-yil Fransiya tashqi ishlar vaziri Rober Shuman Italiya, GFR va Beniluks (Belgiya, Gollandiya va Luksemburg) davlatlari rahbarlariga birgalikda ko‘mir ishlab chiqarish hamda po‘lat eritish loyihasini taklif etdi. 1951-yilda Fransiya, GFR, Italiya, Belgiya, Gollandiya, Luksemburg ishtirokidagi “Yevropa ko‘mir qazish va po‘lat eritish birlashma”si vujudga keldi. Bunday iqtisodiy hamkorlik sanoat rivoji va ishchilarning ish bilan ta‘minlanishiga olib keldi. Yevropa hamkorligi va sherikchiligining jonko‘yarlari Fransiya tashqi ishlar vaziri Robert Shuman (1886-1963), GFR kansleri Konrad Adenauer (1876-1967), Italiya bosh vaziri Alchide De Gasperi (1881-1954) va Belgiya bosh vaziri Pol-Anri Spaak (1899-1972) edilar. Shunday qilib, Yevropadagi 6 davlatning iqtisodiy hamkorligi natijasida sanoat jadal sur‘atlar bilan rivojlandi. 1955-yilga kelib, ya‘ni to‘rt-yil ichida bu davlatlardagi ko‘mir qazib olish 23 foizga, po‘lat va temir ishlab chiqarish hajmi esa 150 foizga oshdi. 1957-yilda 6 ta hamkor davlat birgalikda yangi tashkilot tuzishga kelishib oldilar. 6 davlat vakillarining 1957-yilda Rim shahrida imzolagan hujjatlariga binoan, “Yevropa iqtisodiy hamkorligi” yoki “Umumiy bozor” vujudga keldi. Bu voqeadan birmuncha oldinroq, aynan shu olti davlat 1957-yil mart oyida “Atom energiyasi bo‘yicha Yevropa birlashma”sini tashkil etgan edilar.

1959-1960 yillar davomida esa Angliya tashabbusi bilan 7 davlat - Angliya, Shvesiya, Norvegiya, Daniya, Avstriya, Shveysariya va Portugaliya “Umumiy

bozor”ga raqib sifatida “Yevropa erkin savdo assotsiatsiyasi”ga asos soldilar. Biroq bu assotsiatsiya “Yevropa iqtisodiy hamkorligi” singari samara bermadi va keyinchalik Angliya “Umumiy bozor”ga a’zo bo’lish uchun eshik qoqa boshladi.

Shu bilan birga, 1950-yillarda dunyoning turli hududlarida “sovuq urush” tufayli bir qancha harbiy ittifoqlar vujudga keldi. 1954-yil sentabr oyida AQSh, Angliya, Fransiya, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Filippin orollari, Tailand va Pokistondan iborat “Janubi-Sharqiy Osiyo mudofaasi to’g’risida shartnoma” (SEATO)ga asos solindi. O’sha yili oktabr oyida esa Parij bitimlariga muvofiq, “Garbiy Yevropa ittifoqi” tuzildi.

1955-yil sentabr oyida Angliya yetakchiligida Yaqin va O’rta Sharq hududida SENTO harbiy ittifoqi vujudga keldi, bu bitim Bag’dodda imzolanganligi uchun “Bag’dod pakti” nomini oldi. 1958-yil 14-iyuldagi Iroq qo’zg’olonidan so’ng Iroq bu tashkilot tarkibidan chiqib ketdi. 1956-yil sentabr oyida AQSH, Avstraliya va Yangi Zelandiya o’rtasida “Kichiq Tinch okean pakti” harbiy bloke – ANZYUS vujudga keldi.

1950-yillarning ikkinchi yarmida Lotin Amerikasi, qolaversa, Kubada AQSh istibdodiga qarshi ommaviy chiqishlar avj oldi. 1959-yil 1-yanvarida AQSh qo’llab kelayotgan diktator Batista rejimi Kubada qo’ladi va Fidel Kastro Rus boshchiligidagi inqilobiy kuchlar hokimiyat tepasiga keldi. Natijada, Kuba-AQSh munosabatlari keskinlashib ketdi.

AQSH harbiy yo’l bilan yangi Kuba hukumatini ag’darishga tayyorgarlik ko’ra boshladi, biroq sobiq SSSR Kuba inqilobiy hukumatini qo’llab-quvvatladi va unga iqtisodiy hamda harbiy ko’mak berdi. Qisqa vaqt ichida Kuba o’z armiyasini modernizatsiya qilishga muvaffaq bo’ldi. 1959-1960 yillar boshida Kuba tufayli AQSH-SSSR o’rtasidagi harbiy, siyosiy qarama-qarshiliklar nihoyatda keskinlashdi va yadroviy urushning kelib chiqishiga bir bahya qoldi.

9.3. Karib havzasida xalqaro insiroz. Ilk yadroviy urush xavfining bartaraf etilishi.

Kubaning AQSH ta’sir doirasidan chiqishi va Fidel Kastro hukumati boshchiligidagi inqilobiy o’zgarishlar AQSH ma’muriyatiga berilgan navbatdagi

qaqshatqich zarba bo'ldi. AQSH ma'muriyati Kubaga qarshi jazo choralarini qo'lladi. 1961-yil yanvar oyida AQSH Kuba bilan diplomatik aloqalarini o'zdi, Kubaga nisbatan iqtisodiy boykot e'lon qilindi. Ammo AQSHning bu jazolash uchun qo'llagan chora-tadbirlari hech qanday natija bermadi, chunki sobiq SSSR Kubaga iqtisodiy yordam ko'rsata boshladi.

Shundan so'ng, AQSH ma'muriyati F.Kastro hukumatini ag'darishga qaror qildi. AQSHning Markaziy boshqaruv razvedkasi rejasiga ko'ra, AQSHdagi 1500 kubalik muhojir Kuba oroliga jo'natilishi va ular kubaliklarning isyon ko'tarishlari uchun zamin hozirlashlari kerak edi. Biroq kubaliklar F.Kastro atrofida jipslashib, Kuba ozodligini himoya qildilar. AQSH ning bu jazo chorasi ham mag'lubiyatga uchradi, AQSH tomonidan yuborilgan kubalik muhojirlarning ko'pchiligi o'ldirildi va bir qismi asir olindi. Natijada, Fidel Kastroning obro'si butun Lotin Amerikasi mamlakatlarida oshib ketdi. AQSH intervensiyasi natijasida Kuba hukumati SSSRdan harbiy yordam so'radi.

SSSR rahbariyati Kubaga harbiy yordam ko'rsatish maqsadida barcha chora-tadbirlarni ishga soldi, hatto, Kubaga o'rtacha olislikda uchiriladigan 42 ta raketa ham berdi. Bu raketalarda kallakchalar mavjud bo'lib, Kuba hududidan turib, AQSHning istalgan hududiga zarba berish imkoniyati mavjud edi. AQSH prezidenti Jon Kennedi Sovet davlatining rahbari Nikita Xrushchevdan Kubadagi raketalarni olib chiqib ketishini so'radi. Sovet rahbariyati AQSH talabiga rad javobini berdi. O'z navbatida, AQSH Kuba qirg'oqlariga nisbatan blokada e'lon qildi. Bu hodisa 1962-yil 26-oktabrda sodir bo'lgan bo'lib, yadroviy urush boshlanib ketishiga bir bahya qoldi. Har ikki tomon - AQSH va SSSR rahbariyati o'ta ehtiyotkorlik bilan olib borilgan muzokaralar natijasida tegishli murosaga erishdilar.

1962-yil AQSH ma'muriyati Turkiya hududidagi raketalarni olib chiqib ketdi, o'z navbatida, sobiq SSSR ham raketalarini Kuba hududidan olib chiqdi. Shu bilan birga, AQSH hukumati bundan keyin Kubaga hujum qilmaslik mas'uliyatini o'z bo'yniga oldi. Har ikki taraf bu urushda hech kim g'olib bo'lmasligi va yangi jahon urushi insoniyat sivilizatsiyasini yuq qilib yuborishi mumkinligini yaxshi

anglab yetdilar.

1962-yilgi Karib inqirozining yechimi sovuq urushni bir oz yumshatdi. 1963-yil iyun oyida Moskva va Vashington o'rtasida doimiy muloqot uchun aloqa o'rnatildi. Xalqaro munosabatlarda dunyo miqyosida vujudga kelgan yangi omillar har ikki tomon uchun nisbatan o'zaro daxl qilmaslik pozitsiyalarini keltirib chiqardi.

9.4. Ikki qutbli tizim o'rtasida ziddiyatlarning ko'chayishi.

Sobiq SSSR va Xitoy o'rtasidagi munosabatlar sotsialistik lagerdagi ajralishga va ayirmachilikka olib keldi. O'z navbatida, AQSH va Fransiya o'rtasidagi munosabatlar yomonlashdi. Prezident Sharl de Goll 1966-yilda Fransiyani NATO ning harbiy tashkilotidan olib chiqib ketdi va NATO qarorgohi (shtab-kvartirasi) Belgiya poytaxti Bryusselga ko'chirtirildi. Shu bilan birga, 1967-yil boshlanib ketgan Arab-Isroil urushida SSSR va Fransiya bir-biriga yaqin bo'lgan pozitsiyani egalladilar.

AQSH ittifoqchisi bo'lgan Angliyaning mavqei susayib bordi, Fransiya 1960-yillar davomida Angliyaning Yevropa iqtisodiy hamkorligiga qo'shilishiga qarshilik ko'rsatdi. Angliyaning pul birligi bo'lgan funt sterling inqirozga uchradi va amalda Angliya buyuk davlatlar qatoridan tushib ketdi. Angliya o'z harbiy harajatlarini bir qadar qisqartirishga majbur bo'ldi va, natijada, aksariyat hollarda Angliya dunyo ishlaridagi tashabbuslaridan voz kechib, o'z ichki ishlarini tartibga keltirish bilan ovora bo'lib qoldi.

AQSH ning ham oltin zaxiralari ancha kamayib ketdi, chunki sovuq urushda juda katta mablag'larni sarflashga to'g'ri kelmoqda edi. Har ikki tomon AQSH va SSSR sovuq urush metodlarini modernizatsiya qilishni izlay boshladilar.

R.Niksonning prezidentlikka saylanishi munosabati bilan AQSH o'z tashqi siyosatida SSSR bilan muzokaralar olib borish yo'liga o'tdi. 1969-yildan to 1979-yilgacha bo'lgan o'n yillik xalqaro munosabatlarda fransuzcha "detente", ya'ni "yumshatish" yoki ikki tomon o'rtasida iliqliq nomini oldi. Xalqaro munosabatlardagi taranglik bir oz bo'lsa-da, yumshadi. Har ikki taraf faqatgina muzokaralar olib borish bilan chegaralanmay, madaniyat, iqtisod va texnika

sohalaridagi aloqalarni yo'lga qo'ydilar, imkon darajasida qarama-qarshi turish pozitsiyalaridan voz kehdilar. 1973-yilda L.Brejnevning Vashingtonga tashrifi amalga oshirildi, tashrif davomida bir qancha hujjatlar imzolaniib, ular qishloq xo'jaligi, savdo sohalarida hamkorlik qilish va yadro qurollarini qisqartirish masalalarini o'z ichiga olgan edi.

1969-yilda GFR dagi saylovlar natijasida hokimiyat tepasiga kelgan GSDP rahbari Villi Brandt ham sobiq SSSR va sotsialistik mamlakatlar rahbarlari bilan muzokaralar olib bordi va GFR hamda sobiq sotsialistik davlatlar o'rtasida muhim hujjatlar imzolandi. Detant, ya'ni yumshatishning eng samarali natijasi - bu 1975-yil iyul oyi oxiridagi Xelsinki uchrashuvi bo'ldi, uchrashuv eng dolzarb muammo - Yevropadagi xavfsizlik masalalariga bagishlangan edi. Bu Yevropaning 33 davlati rahbarlari hamda AQSH va Kanada davlatlarining boshliklari bilan birgalikda 35 davlat rahbarlarining oliy darajadagi uchrashuvi bo'ldi.

Bu jarayon Yevropada xavfsizlik va hamkorlik qilish majlisi nomini oldi. Majlis so'ngida muhim hujjat imzolaniib, unda har ikki tomon o'rtasidagi qarama-qarshi turishdan saklanish, iqtisodiy va texnikaviy soxada hamkorlik qilish, xalqlar o'rtasida aloqalarni rivojlantirish va inson huquqlarini xurmat qilish masalalari o'z aksini topdi. Bunday majlislar o'tqazish an'anaviy tus oldi va 1995 yildan boshlab, bu harakat Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti nomini olgan. Detente, ya'ni yumshatish jarayoni har ikki tomon o'rtasidagi ziddiyatlarga qaramay, xalqlar o'rtasidagi aloqalarni kengaytirish va urush xavfini bartaraf etishga xizmat qiladi.

9.5. "Sovuq urush"ning keskinlashishi va XX asr 50-70-yillarning birinchi yarmida ikki qutbli dunyoviy tartibning shakllanishi.

Ikkinchi jahon urushi jahon sahnasida mavjud sharoitni o'zgartirib yubordi. AQSh va SSSR boshchiligidagi ikki harbiy-siyosiy bloklar - NATO va Varshava Shartnomasining qarama-qarshiligi xalqaro munosabatlarning ikki qutbli shaklini vujudga keltirdi. Ikki bloklar orasidagi nizo dunyo miqyosidagi mafko'raviy, siyosiy va harbiy qarama-qarshiliklarning jamiyat namunasining qarshisidagi aksi

edi. SSSR va AQSh o'rtasidagi nizo "sovuq urush" - ikki qudratli davlatlarning mafko'raviy kurashi va geosiyosiy qarama-qarshiliklari natijasida yuzaga keldi. Bir tomondan AQSh va Buyuk Britaniya, ikkinchi tomondan SSSR antigitler ittifoqchilari orasidagi nizo - ikkinchi jahon urushi oxirlarida urushdan keyingi boshqaruv to'g'risidagi savollar, kun tartibida qo'yilgan paytda antigitler koalitsiyasi ittifoqchilari - bir tomondan AQSh va Buyuk Britaniya, ikkinchi tomondan SSSR orasidagi nizo o'sib bordi. Buyuk Britaniya, ikkinchi tomondan SSSR orasidagi nizo o'sib bordi.

Buyuk Britaniyaning oldingi bosh vaziri U.Churchil ilgarigi ittifoqchilar orasidagi to'liq o'zlashni va "Sovuq urush" ning boshlanishini birinchilardan ochiqcha e'lon qildi. U 1946-yil 5-martdagi Fulton (AQSh)dagi nutqida kapitalistik mamlakatlarga kommunizmni eksport qilish rejalari va SSSRga qarshi kurashish uchun anglo-amerika ittifoqini tuzishga chaqirdi. Sovet Ittifoqi o'z navbatida natsizm bilan kurashishda va xalqaro sahnada dunyoviy sotsialistik tizimni yaratishdagi mavqegini mustahkamlashdagi yutuqlarini ko'rib chiqardi.

G'olib davlatlarning qattiq qarama-qarshiligi natijasida 1947 - 1949-yillarda okko'patsion Germaniyasida ikki davlat - Germaniya Demokratik Respublikasi (GDR) va Germaniya Federativ Respublikasi (GFR)ni paydo bo'lishiga olib keldi. Dunyoning bo'linishi aniq chizgilarni oldi.

Keyingi yillarda AQSh boshchiligidagi G'arb mamlakatlari Sovet Ittifoqi munosabatida "kuchlar mavqeidan" siyosat o'zaniga doir bir necha tadbirlar o'tqazishdi. Ular ichida eng muhimi dunyo bo'ylab "kommunizmga qarshi salib yurishi" ga boshchilik qilgan Trumen doktrinasi (1947-yil) Yevropa mamlakatlariga iqtisodiy yordam dasturi - Marshall rejasining tadbiriq etilishi (1948 - 1952-yy), atlantika harbiy siyosiy bloki - NATO (1949-y)ning tuzilishi va shunga o'xshash Osiyodagi bloklar (SEATO, SENTO, ANZYUS) shular jumlasidan. Dunyoviy antikommunizmning qurilishi bevosita urushdan so'ng iqtisodiy va harbiy-siyosiy munosabatlarda eng qudratli sanalib AQSHga asoslangan edi. Amerikalik boshliqlar ikkinchi jahon urushi tugashining 1- kunlaridan AQShning dunyo hamjamiyatidagi ildam o'mini mustahkamlashga harakat qilishdi. 1949-yil

oxiriga SSSR o'zining 1-atom bombasini sinagunga qadar, AQSh yagona atom quroliga ega mamlakat sanalardi. Washington xalqaro tashkilotlar orasida, ya'ni Amerika Davlatlari Tashkilotlari (ADT), Dunyo banki va Xalqaro valyuta fondi, Narx va savdo bo'yicha bosh shartnomasi, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti va boshqalar asosiy o'rin egalladi. Ayniqsa, 40-yillarning oxiri 50-yillarda Koreya yarim orolida, Yaqin Sharq, Kongo, Kiprdagi nizolar vaqtida AQSh BMTning Bosh Assambleyasidan bir necha marotaba o'zining imperik maqsadlarida foydalandi. Bunga bahona bo'lib, "ittifoqning to'g'ridan-to'g'ri aralashuviga halaqit berish" deklaratsiyasiga intilish xizmat qilardi. O'sha yillarda mashhur gazeta magnati G.Lyus "Urush tugashi AQShga shu darajada ta'sir ko'rsatadiki, natijada Amerika asri keladi" g'oyasi bilan chiqdi. "Amerika asri" XX asrning ikkinchi yarmida dunyo sahnasida Amerika siyosatining shiori bo'ldi.

Biroq, AQSh o'zining harbiy va siyosiy qudrati bilan urushdan so'nggi dunyoda yagona yo'lboshchi bo'la olmadi. Xalqaro darajada AQSh, o'z ta'siri ostidagi hududlarga aralashadigan begonalar bilan qattiq kurashadigan boshqa mavjud yirik davlat SSSR bilan hisoblashishga majbur edi.

Sovet Ittifoqi urushdan qudratli harbiy-siyosiy davlat bo'lib chiqdi va AQSh kabi eng qudratli davlat bo'lishga harakat qilardi. Gitler Germaniyasini yengishda muhim rol uynagan Sovet Ittifoqi dunyoda o'zining ta'siri va obro'sining oshishiga erishdi. Urushdan keyingi tartibga solish natijasida Sharqiy Yevropa (Bolgariya, Chexoslovakiya, Vengriya, Polsha, Albaniya va Yugoslaviya) va Osiyodagi (Xitoy, Vyetnam, KXDR va boshqalar) mamlakatlarning bir guruhi SSSR ta'siriga tushib qoldi. Dunyoviy sotsialistik tizim shakllanishiga zamin yaratildi va bunga 60-yillarda Kuba ham qo'shildi. SSSR va boshqa sotsialistik mamlakatlar tobe xalqlar va davlatlarda milliy-ozodlik harakatlarni qo'llab-quvvatlashdi. Natijada uchinchi dunyoda sotsialistik yo'l tanlagan davlatlar guruhi vujudga keldi va roli oshib bordi.

Urushdan so'ng vayron bo'lgan iqtisodiyotni tiklagan Sovet Ittifoqining rahbariyati diqqatni harbiy qudratni mustahkamlashga qaratdi. AQShning yadro monopoliyasini yengish uchun SSSR shaxsiy yadro qurolini yaratish dasto'rini

ishlab chiqdi. 1949-yil Sovet Ittifoqida atom bombasining sinovi bo‘lib o‘tdi. Shu yili Yevropa sotsialistik mamlakatlari o‘zaro iqtisodiy yordam kengashini tashkil etishdi va keyinchalik bunga Mongoliya, Kuba va Vyetnam qo‘shildi. Bu tashkilot sotsialistik mamlakatlarning bir-biriga iqtisodiy yordam, iqtisodiy hamkorlik rejalarini boshqarish va xalqaro mehnat taqsimotini vujudga keltirishda katta rol o‘ynadi. Sotsialistik lagerni biriktirish va NATOning harbiy hujumidan himoyalash uchun 1955-yil mayda Varshavada SSSR va Sharqiy Yevropa sotsialistik davlatlari Polsha va Chexoslovakiya, Ruminiya, Bolgariya, Vengriya, Albaniya (1968-yil shartnomani 1 tomonlama denansatsiya qildi) bilan do‘stlik, hamkorlik va o‘zaro yordam haqidagi shartnoma asosida mavjud Varshava harbiy pakti dunyo miqyosidagi kuchlar muvozanatini saqlashda muhim rol o‘ynadi.

Shunday qilib, XX asr 50-yillar boshlaridagi mafko‘raviy siyosiy va harbiy-siyosiy munosabatlar dunyoviy kenglik ikki qarama-qarshi qismga ajratilgan edi. Shu bilan birga ikki tizimning har biri o‘zini xalqlarning umid va qiziqishlarini ifodalovchi va himoyalovchi hisoblar, ayniqsa, o‘zining g‘alabasini to‘liq va qarama-qarshi tomonning halokati muqarraligini asoslar edi. O‘z holatining g‘oyaviy asosini ishlab chiqib AQSh o‘zini ozod dunyo himoyachisi deb SSSR o‘z navbatida dunyo demokratiya va sotsializm tayanchi deb e‘lon qildi.

“Sovuq urush” qudratli davlatlar orasidagi ishonchsizlik qurollanish poygasining tezlashishi, harbiy bloklar yaratilishi xalqaro munosabatlarda harbiy kuchlarning ishlatilishi, janjalli savollarni kelishuv asosida hal qilishdan bosh tortish va boshqalar bilan ta‘riflanadi. SSSR va AQSh o‘rtasidagi munosabatlar qulayligi har bir davlat tashqi siyosiy yo‘nalishining asosi edi. Bu vaziyat ikki yirik davlat orasida bo‘lingan dunyoni doimiy diqqatini qaratardi. Dunyoviy jamiyatda ikki qutbli ierarxik tuzilish vujudga kelib, buning boshida ikki qudratli davlat, ulardan so‘ng buyuk davlatlar BMTning Xavfsizlik Ittifoqi a‘zolari, keyin xalqaro maqsadlarni yechishda qo‘shiladigan davlatlar turardi.

Ushbu geosiyosiy qiziqishlar o‘yinida yer kurrasining barcha joyidagi nizolar bir-biriga qarshi tomonlarning global kurashlarining asosiy qismi sifatida ko‘riladi. Har ikki tomonlarning ko‘zida ushbu nizolarni masalalarning yechimini Sharq yoki

G'arbning yutug'i yoki mag'lubiyati sanalardi. Shu bilan birga u yo bu tomondan koinotning biror joyini yoki biror davlatning olishi boshqa tomonning mag'lubiyati hisoblanadi. Ikki qudratli davlatlar va ularning bloklarining bosh harakatlanuvchi asoslardan biri o'zining xavfsizligini ta'minlash edi. Ayniqsa, ikki tomonning diqqat markazida harbiy qudrat oshirish turardi. Xalqaro munosabatlarning rivojlanishi qurollanish poygasining tezlanishi bilan bog'liq bo'lib, odamzot taqdiriga katta xavf tug'dirgani uchun dunyoning ilg'or mamlakatlarning kuchlaridan jiddiylikni talab etardi.

Biroq, dushman bloklarning boshchiligida urushlardan keyingi dunyo adashgan ikki qutblilikka sig'mas edi. Bundan tashqari keyingi o'n yilliklarda, ayniqsa, 60-yillardan boshlab uni ko'pgina omillar buzardi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi jarayonlar kolonial imperiyalarning yemirilishi va ko'pgina yangi mustaqil har xil g'oyaviy va siyosiy yo'nalishlarga ega davlatlarning tashkil topishi muhim ahamiyat kasb etadi. Asosan dunyo uch xil turli dunyolarga: 1-kapitalistik, 2-sotsialistik, 3-rivojlanuvchi, iqtisodiy taraqqiyot bosqichi bir-biridan farq qiluvchi dunyolarga bo'lingan edi.

Ikkinchi jahon urushi Afrika va Osiyo davlatlarining ichki taraqqiyotida chuqur va bir necha o'zgarishlarga olib keldi. Birinchi jahon urushidek bu davlatlar xalqlari ixtiyorsiz jang qiluvchi davlatlar tomonidan urushganlar. Masalan, Hind diviziyalari Birmada, Shimoliy va Sharqiy Afrikada, Yaqin Sharqdagi ittifoqchi kuchlarning yirik platsdarmlariga xizmat qilib, jang qilgan. Urush davomida kolonial va tobe davlatlar og'ir yo'qotishlar berishdi. Masalan, Yaponiya bilan 8-yil mobaynida urushda Xitoyda halok bo'lgan va yaradorlar 18 mln.ni tashkil etdi. 1943-yil bir hind provinsiyasi Bengaliyadagi ocharchilikda 4,5 mln. kishi halok bo'ldi. Yapon okko'patsiyasi davrida ocharchilik va og'ir mehnatdan 4 mln.ga yaqin indoneziyalik halok bo'ldi.

Shu bilan birga ikkinchi jahon urushi tegishli davlatlar xalqlarining bundan keyingi milliy kapitalizmining rivoji va milliy o'zlikni anglashni o'sishiga imkon berdi. Birinchi jahon urushiga nisbatan u katta masshtablarda koloniyalarga va metrologiyalarga qarama-qarshiligini tezlashishiga, ayniqsa milliy ozodlik

harakatlarning ko'tarilishini rag'batlantirdi. Urush og'irliklari ko'pchilik odamlarning kayfiyatini tubdan o'zgarishiga imkon berdi. Jamiyat o'z-o'zini anglashiga koloniya va mute davlat aholisini harbiy harakatlarga qatnashish tajribasi katta ta'sir ko'rsatdi. Urush qatnashchilari harbiy, texnik va tashkiliy amaliyotga ega bo'lib, bu ularning urushdan keyingi milliy-ozodlik urushida o'z foydasini berdi.

Urush natijasida Yaponiya qattiq mag'lubiyatga uchrab, o'zining koloniyalaridan ajralib qoldi va vaqtincha buyuk davlat statusini yo'qotib Amerika okko'patsiyasidan qutilgan Koreya o'z mustaqilligiga erishdi, biroq 1950-1953-yilgi harbiy nizo natijasida u ikki qarama-qarshi davlatga - Shimolga Koreya Xalq Demokratik Respublikasi, Janubga - Koreya Respublikasiga bo'lindi. Indoneziya va Hindixitoy xalqlari fransuz va golland kolonizator bilan uzoq va dahshatli janglarda o'z mustaqilliklarini qo'lga kiritish uchun kurashishdi.

Xitoy ikki jahon urushlari oralig'ida yarim mustamlakadan 1945-yilda Buyuk davlat statusi va BMT Xavfsizlik xizmatining doimiy a'ziligiga bo'lgan yo'lni bosib o'tdi. Biroq, XX asr 40-yillarning ikkinchi yarmida bu davlatda fuqarolar urushi boshlanib, 1949-yilda Xitoy Xalq Respublikasi tashkil topishi bilan tugadi. Boshqa Buyuk Osiyo-davlati Hindiston ikkinchi jahon urushi oxirida Angliya mustamlakasi edi, ammo mustaqillik uchun kurashuvchi xalqlarning harakati natijasida 1947-yilda ikki mustaqil davlatlar Hindiston va Pokiston vujudga keldi.

Ikki qutbli dunyo tartibi asosida 50-yillarning oxirida Sovet-Xitoy munosabatlarining yomonlashuvi natijasida kamchiliklar bilinardi. Boshida XRX to'laligicha SSSR va boshqa sotsialistik ittifoqlar andoza olardi. Biroq, 50-yillarning oxirida vujudga kelgan siyosiy va g'oyaviy kelishmovchiliklar SSSR va Xitoy rahbariyatini ochiq qarama-qarshilikka olib keldi. Bu o'zilish xalqaro munosabatlarda yangi element olib keldi. Xitoy rahbariyati Xitoy Kommunistik partiyasi MK raisi Mao Szedun boshchiligida, Sovet Ittifoqi bilan munosabatlarni o'zib Moskvadan mustaqil ish olib bordi. Bosqichma-bosqich u AQSh va SSSR orasidagi kuchlar tengligini o'zining tashqi va himoya siyosatida asosiy faktor sifatida ko'rdi. Hindi-Xitoy bosqichi AQShning Vet'namga qarshi 1964-yilda

boshlangan agressiv urushi edi. 50-yillarda Fransiyaga qarshi antikolonial urushi natijasida Vyetnam qurolli otryadlari Denbenfu yonida kolonizatorlarga qaqshatqich zarba berishdi, ammo mamlakat 2 ga bo'ldi. Shimolda Vyetnam Demokratik Respublikasi vujudga kelgan bo'lsa, janubda AQSh ko'magi bilan Janubiy Vyetnam Respublikasi tashkil topdi.

Biroq, keyinchalik Saygon rejimining kuchsizligi vatanparvar kuchlardan yengilganidan so'ng bilindi. Rejimni saqlab qolish uchun AQSh rahbariyati Vyetnam xalqiga qarshi harbiy harakatlarni amalga oshirdi. Urush AQShga ko'pgina zarar yetkazdi. mamlakatda Amerika qo'shinlarining soni 1965-yilda 185 mingdan 1969-yil 543,4 ming odamga yetdi. Urush davrida AQSh 141 mlrd.dollar harajat qildi. 56,5 ming kishi halok bo'lgan va 303,6 ming yarador soldat va ofitserlar yo'qotishdi. Biroq, ular sharmandali mag'lubiyatga uchradi.

9.6. Osiyo va Afrikada mustamlakachilik tizimining barbod bo'lishi.

Ikkinchi jauon urushi tugashi bilan eng dolzarb muammolardan biri - bu mustamlakachilikni tugatish va xalqlarning erkin yashashi uamda o'z takdirlarini o'zlari hal qilishlari bo'ldi. Eng ko'p mustamlakalarga ega bo'lgan davlatlar Angliya, Fransiya, Niderlandiya, Belgiya, Italiya va Portugaliya hisoblanar edi. Ulardan birortasi ham Osiyo va Afrika hududidagi xalqlarga erkinlik berish va o'z ixtiyorlari bilan u yerlardan chiqib ketishni istamas edilar.

BMT rahnamoligida sobiq SSSR hamda AQSh mustamlakachilikka qarshi kurash olib borish pozitsiyasini yoqlab chiqdilar. Natijada, mustamlakachilik tizimi inqirozga yuz tutdi. 1947-yilda Angliya hind xalqining ozodligini tan olishga majbur bo'ldi. Bu hududda ikkita mustaqil davlat - hindiston va Pokiston vujudga keldi. 1948-yilda Angliya o'zining yana bir mustamlakasi - Birmaning mustaqilligini tan oldi. 1949-yilda Niderlandiya Indoneziya suverenitetini tan oldi. Ayrim mustamlakalarda xalqlar o'z ozodliklarini qo'lga kiritishlari uchun uzoq kurash olib borishlariga to'g'ri keldi. Vetnam xalqi o'z ozodligi uchun fransuz mustamlakachilariga qarshi uzoq vaqt davomida – 1945-yildan to 1954-yilgacha kurash olib bordilar. 1954-yili fransuzlar Vetnamning Den Ben Fu Yaqinida

mag'lubiyatga uchradilar va Vetnamni tashlab chiqib ketishga majbur bo'ldilar. Al-Jazoir xalqi esa fransuz bosqinchilariga qarshi 1954-yildan to 1962-yilgacha qarshi kurash olib bordi va Fransiya V Respublikasi prezidenti Sharl de Goll davrida Fransiya Al-Jazoirning mustaqilligini tan oldi.

1949-yil 1-oktabrda Xitoy Xalq Respublikasining tashkil topishi G'arb mustamlakachiligiga berilgan qaqshatqich zarba bo'ldi. Yangi Xitoyning tashkil topishi Osiyo xalqari milliy-ozodlik harakatida hal qiluvchi bosqich bo'ldi. 1955-yilda Xitoy, Hindiston, Pokiston, Seylon (1972-yildan boshlab Shri-Lanka) davlatlarining tashabbusi bilan Indoneziyaning Bandung shahrida xalqaro konferensiya bo'lib utdi. Bu konferensiyada Osiyo va Afrika qit'alaridan 29 ta mustaqil davlatlarning vakillari ishtirok etdilar. Bu konferensiyada Bandung deklaratsiyasi nomli hujjat qabul qilindi va bu hujjatga ko'ra, mustamlakachilik, irqchilik, millatchilik kabi g'ayriinsoniy siyosat va mafkuralar taqiqlanadigan bo'ldi. Bandung konferensiyasi milliy-ozodlik harakatining rivoji va mustamlakachilikning barham topishida katta rol o'ynadi.

Xitoy, Hindiston va boshqa davlatlarning tashabbusi bilan 1960-yil 14-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi Mustamlakachilikka chek qo'yish va xalqlarga erkinlik berish deklaratsiyasini qabul qildi. Bir necha o'nlab Afrika mamlakatlarining istiqbolga erishishi munosabati bilan 1960-yil "Afrika yili" deb e'lon qilindi.

Endilikda Osiyo va Afrika xalqlari mustamlakachilikka qarshi kurashda oyoqqa turishdi va bu qit'alardagi yosh davlatlar xalqaro huquqning tulaqonli sub'ektlariga aylandilar. irqchilik va aparteid BMT Nizomiga muvofiq qat'iyan man qilinadigan bo'ldi. Jahon ahli yangi mustaqil davlatlar tarafida bo'lib, zo'ravon davlatlar o'z tashqi siyosatlarida yangicha mustamlakalarni qo'lga kiritishda qaqshatkich zarbaga uchradilar. Fransuz mustamlakachilari Vetnamda mag'lubiyatga uchragach, 1961-yilda AQSh Vetnamda o'z hukmronligini o'rnatishga o'rinib ko'rdi. AQSh Kongressi 1964-yilda prezident L.Jonson (1908-1973)ga Vetnamga qarshi kuch ishlatish vakolatini berdi. AQSH Vetnam xalqining milliy-ozodlik harakatini bostirish uchun aviatsiya yordamida Vetnamga bombalar

yog'dirdi, amerikaliklarning yarim armiyasi bu mamlakatning shahar va qishloqlarini harobaga aylantirdi. Ammo, Vetnam xalqi taslim bo'lmadi, unga sobiq SSSR va Xitoy davlatlari yordam qo'llarini cho'zdilar. 1975-yil 30-aprelda AQSH qo'llab-quvvatlab turgan janubiy Vetnamdagi Saygon rejimi qo'ladi. Shimoliy va Janubiy Vetnam birlashdi, 1976-yil 24-iyunda Vetnam sotsialistik respublikasi e'lon qilindi. Shunday qilib, AQSH Janubi-Sharqiy Osiyoda qaqshatqich zarbaga uchradi.

Yevropa davlatlari Osiyo va Afrikadan chiqib ketgan bo'lsalar-da, biroq bu qit'alarda hali o'z mavqelarini yetarlicha saqlab qolishga muvaffaq bo'ldilar. Ayniqsa, Yevropa davlatlari o'z texnikaviy ustunliklariga tayanib, tashqi savdo sohasida sobiq mustamlakalarda yetakchi o'ringa ega edi. Osiyo, Afrika mamlakatlari Yevropa davlatlari uchun xomashyo ishlab chiqarish bazalari bo'lib qolaverdi. Tayyor mahsulotlar Yevropa davlatlarida ishlab chiqarilib, xomashyo Osiyo va Afrika mamlakatlaridan keltiriladi va bunda tayyor mahsulotlarning narxi xomashyodan ko'ra o'nlab marta ziyod miqdorni tashkil etar edi. Bu Yevropa davlatlariga katta daromad keltirar edi.

Yevropa davlatlari o'zlarining iqtisodiy va texnikaviy ustunliklaridan foydalanib, g'arb turmush tarzini hamda uning urf-odatlarini sharq xalqlariga singdirishga urinmoqdalar. "Ayniqsa, bugungi kunda, - deb yozadi O'zbekistonning birinchi prezidenti I.A. Karimov, - xalqaro maydonda turli siyosiy kuchlar o'zining milliy va strategik rejalariga erishish uchun "erkinlik va demokratiyani olga siljitish" niqobi ostida amalga oshirayotgan, uzoqni kuzlagan siyosatning asl mohiyati va maqsadlarini o'z vaqtida sezish, anglash katta ahamiyat kasb etadi... Tabiiyki, "ommaviy madaniyat" degan niqob ostida axloqiy buzuqlik va zuravonlik, individualizm, egotsentrizm g'oyalarini tarqatish, kerak bo'lsa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an'ana va qadriyatlarini, turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan tahdidlari odamni tashvishga solmay qo'ymaydi".

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Sovuq urushning kelib chiqish sabablari nimalardan iborat?
2. Nima sababdan AQSh va Angliya tashabbusi bilan g'arb davlatlari Shimoliy Atlantika bitimi (NATO) ga asos soldilar?
3. 1947-yilda e'lon qilingan "Trumen doktrinasi" ning mazmun mohiyati nimalardan iborat?
4. "Marshal rejasi" nomini olgan rejani mazmunini tushuntirib bering.
5. 1950-yillarda dunyoning turli hududlarida "sovuq urush" tufayli qanday harbiy ittifoqlar vujudga kelgan edi?
6. 1960-yillar boshida Karib havzasida yuzaga kelgan xalqaro inqiroz haqida nimalarni bilasiz?
7. Ilk yadroviy urush xavfi qay tarzda bartaraf etildi?
8. Qaysi yillar xalqaro munosabatlarda fransuzcha "detente", ya'ni "yumshatish" yoki ikki qutb davlatlari o'rtasida iliqliq nomini oldi?
9. Osiyo va Afrikada mustamlakachilik tizimining barbod bo'lishi qay tarzda kechdi?
10. AQSH-Vetnam urushi tomonlar uchun qanday oqibatlarga olib keldi?

10-MAVZU. SSSR-AQSH MUNOSABATLARI (70-80 YILLAR)

REJA:

- 10.1. SSSR-AQSh munosabatlarning kechishi.*
- 10.2. Dunyo siyosatida markazga intilish tendensiyalari.*
- 10.3. Ko'p qutbli dunyo chizgilari.*
- 10.4. Sotsializm yemirilishining sabablari va oqibatlari.*

Tayanch tushunchalar: *G'arbiy Berlin masalasi bo'yicha SSSR, Fransiya, AQSh va Buyuk Britaniya o'rtalarida shartnomaning imzolanishi. AQSh prezidenti R.Niksonning SSSRga tashrifi va «SSSR va AQSh o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning negizi» hujjatning imzolanishi (1972). SSSR va AQSh o'rtasida yadroviy urushning oldini olish to'g'risidagi shartnomasining imzolanishi (1973). Venada SSSR va AQSh o'rtasida strategik qurollarni cheklantirish to'g'risidagi shartnomaning imzolanishi (1979). Jenevada Yevropadagi yadroviy qurollarning cheklantirish bo'yicha Sovet-Amerika muzokaralarning boshlanishi. SSSR rahbari M.S.Gorbachev va AQSh prezidenti R.Reygan o'rtasida Jenevadagi (1985), Reykyavikdagi (1986), Vashingtondagi (1987) va Moskvadagi (1988) uchrashuvlar.*

10.1. SSSR-AQSh munosabatlarning kechishi.

1972-yilning may oyida AQSH prezidenti R.Nikson Xitoyga maxsus tashrif buyurdi, har ikki davlat o'rtasida diplomatik alokalar urnatildi, yangi Xitoy tashkil topgach, oradan salkam 23-yil o'tgach, AQSH uni tan olishga majbur bo'ldi. Ammo, AQSH ning yana bir maqsadi sobiq SSSRga ham Xitoy, ham Yevropa tomonidan bosim o'tkazish edi. AQSH Yaqin va O'rta Sharqdan SSSRning ta'sirini kamaytirish uchun Isroil va Eron davlatlarini o'z hamkorlariga aylantirishga urindi. 1970-yilda AQSH Isroilga 700 mln. dollarlik kredit ajratdi. O'z navbatida, Eron Sobiq Sovet respublikalari bilan chegaradosh bo'lib, AQSH Eronni o'zining yaqin hamkori deb hisoblar edi. Eron shohi Muhammad Rizoshoh

Pahlaviy qurol-yarog'larni AQSHdan sotib olar va uning AQSH banklarida 12 mlrd. dollarlik mablag'i mavjud bo'lib, bu AQSHga katta foyda keltirayotgan edi, chunki qurol-aslahalar naqd pulga sotib olinar edi. SSSR bunga javoban, Kubada suv osti qayiqlari bazasini yaratdi, ular AQSH qirg'oqlarigacha bo'lgan masofada navbatchilik qilar edilar. Bu jarayon SSSR raketalari sonining AQSH raketalariga tenglashishiga olib keldi. Shu bilan bir qatorda, Kubada SSSRning harbiy o'quv brigadasi tashkil etildi.

Sovet qo'shinlari Vetnamga ham AQSHga qarshi kurashda katta miqdorda harbiy yordam ko'rsatdi. Sovet zobitlari Vetnam armiyasini modernizatsiya qilishda va doimiy jangovar armiyaga aylantirishda faollik ko'rsatdilar. Vetnam armiyasi AQSHga zarba berib, uning Janubi-Sharqiy Osiyodagi mavqeiga putur yetkazdi. AQSH Yaqin Sharqdan ham SSSRni chiqarib yuborishga muvaffaq bo'lmadi. Misr Arab respublikasi prezidenti Anvar Sadat AQSH homiyligida Isroilning arab davlatlari tomonidan tan olinishi evaziga Sinay yarim orolini qaytarib olishga muvaffaq bo'lgan bo'lsa-da, 1981-yil u uz askarlari suikasdining kurboni bo'ldi.

AQSH Xitoyda xam muvaffaqiyatga erishmadi, chunki SSSR-Xitoy o'rtasidagi ziddiyatlarga karamasdan, ikki mamlakat o'rtasidagi barqarorlikka Xitoy raxbariyati katta ahamiyat berdi. AQSH prezidentlari R.Nikson, J.Ford, J.Bush, R.Reyganlarning Xitoyga tashrif buyurishlari hamda Amerika senatorlari va ishbilarmonlarining Xitoyda bo'lishlari deyarli samara bermadi. AQSH va Xitoy o'rtasidagi bu kelishmovchilik Tayvan muammosi bo'lib kolaverdi.

Ammo, AQSHga nisbatan kutilmagan zarba Eronda sodir bo'ldi. 1979-yil boshlarida Eron xalki shox rejimini kulatdi va Eron Islom Respublikasi tashkil etildi. 1979-yil kuzida Texron universiteti talabalari AQSH elchixonasi binosini bosib olib, 63 nafar amerikalik diplomatni garovga oldilar. AQSH desanti yordamida diplomatlarni qutqarish operatsiyasi barbod bo'ldi, faqatgina 1981-yil yanvar oyida AQSHning katta pul to'lovi natijasidagina diplomatlar ozod etildi. AQSH va Eron respublikasi davlatlari o'rtasidagi munosabatlar to bugungi kungacha keskinligicha qolmoqda. Eronning o'sha davrdagi diniy peshvosi

Oyatullo Xumayniy AQSHni “iblis” deb e’lon qilgan bo’lsa, AQSH Eronni “xalqaro terrorchilik”da ayblab kelmokda.

AQSH SSSRga qarshi Afg’onistonda o’z xatti-harakatlarini boshlab yubordi. AQSH afg’on mujohidlarini qurol-yarog’ va pul bilan ta’minlay boshladi, bunda Afgonistonda sho’rolarga qarshi tashviqot ishlari avj oldirildi. Sovet qo’shinlari bosqiniga qarshi Pokiston ham katta rol o’ynadi. Mujohidlar AQSHdan qurol-yarog’, oziq-ovqat, dori-darmon olib turishdi. SSSRning Afgonistondagi bosqini uning xalqaro miqyosda obro’sini to’kdi. Har ikki tomon - AQSH va SSSRning qurollanish poygasi avj oldi va ular o’rtasidagi paritet, ya’ni yadro qurollanishidagi tenglik 1980-yil o’rtalarigacha amalga oshirildi. Har ikki taraf rahbarlari yadro urushi inson zotini umuman yo’q qilib yuborishi mumkinligini teran anglab yetdilar. 1987-yil dekabr oyida M.Gorbachevning AQSHga qilgan safari chog’ida ikki tomonlama muhim bir hujjat qabul qilindi. Bu bitimga ko’ra, o’rtacha va yaqin olislikda uchadigan raketalarni yo’q qilishga kelishib olindi. Unga ko’ra, 1572 ta sovet va 599 ta AQSH raketalari yo’q qilinishi rejalashtirildi. Shu bilan birga, 50 foizi hujumkor strategik qurollarni qisqartirishga kelishib olindi. Har ikki taraf qirg’inbarot urush qurollarini demontaj kilishni boshlab yubordilar.

1986-yilda sovet rahbariyati Afgoniston to’g’risida muhim bir qaror qabul qildi. Unga ko’ra, 1989-yilgacha sovet qo’shinlari Afg’onistonni tark etishlari nazarda tutilgan edi. Shunday qilib, sovuq urush tugadi. 1990-yilda NATO rahbarlari o’zlarining Londondagi yig’ilishlarida sovuq urush tugaganligini e’lon qildilar. AQSH prezidenti J.Bush uam uzining 1991-yil yanvar oyida Kongressga yullagan yuriknomasida, sovuq urush tugadi, deb e’lon qildi. Sovuk urushning tugashi xalqaro munosabatlar tarixida yangi bir sauifaning ochilishiga olib keldi.

Vyetnamda urushni tugashi. 1972-yil yanvarda AQSh prezidenti R.Nikson boshchiligidagi hukumat Vyetnamda urushni tugatish va tenglikni tiklash shartnomasini imzoladi. Bu Vyetnam xalqining bosqinchilar ustidan to’liq g’alabasini anglatdi. Ushbu shartnoma davlatni birlashishiga yo’l ochdi. 1975-yil aprelda Vyetnam qurolli kuchlari va Janubiy Vyetnam vatanparvarlari Janubiy Vyetnam poytaxti - Saygonni qo’lga kiritishdi. Bu voqea Vyetnam xalqining

mustaqillik va davlatni birlashtirish uchun harakatining tugaganligini bildirardi.

Urushdan keyingi vaqtda eng muhim masalalardan biri Yaqin Sharqdagi savol bo'lib qoldi. Masala markazida urushdan so'ng boshlangan Yaqin Sharqda mustaqil Falastin davlatini tuzish qiyinchiliklari turardi. Bu masalani Britaniya imperiyasiga tegishli hududlarda 2 mustaqil davlat - Yevropa va Falastin davlatini tuzish bilan yechilmoqchi edi. Isroil boshchiligida yevrey davlati 1949-yilda tashkil topib, bu huquq falastinliklarga berilmagan edi. Yaqin Sharqdagi urushdan keyingi tarixi Falastin xalqining milliy davlat mustaqilligi uchun kurashi bilan o'tdi. Bu masalaning yechilmasligi bir necha arab-isroil urushlariga olib keldi.

Eng muhimi 1967-yildagi urush natijasida Isroil katta hududlarni Falastinda (Jordan daryosi G'arbiy qirg'og'i va G'oz sektor) va qo'shni davlatlar - Suriya va Misrni falastinliklar tomonidan kurashgani uchun bosib oldi. Faqatgina 90-yillarda Falastin xalqining Falastin ozodlik tashkiloti boshchiligida kurashganda Isroil hukumati falastinliklarga antonomiya berishga rozi bo'ldi. Ammo Yaqin Sharqdagi muammo chigalligicha qoldi.

Uchinchi dunyo davlatlarining siyosiy faolligi xalqaro munosabatlar tizimida qudratli asos bo'lib xizmat qildi. 1967-yildagi Isroil va arab davlatlari orasidagi urush Yaqin Sharqda BMTning rolini susaytirdi. Izma-iz kelgan Dominikan Respublikasi Yaqin Sharqdagi, Chexoslovakiyadagi inqirozlar, Vyetnam va Shimoldagi urushlar, Nigeriyadagi fuqarolik urushi davlatlarning bir-biri bilan kelishmasligini ko'rsatardi. Bu sharoitda qo'shilish harakatiga qo'shilmaslik katta ahamiyat kasb etgan. Xalqaro birlashgan davlatlarning tashqi siyosatdagi asosiy prinsipi qudratli davlatlarning harbiy-siyosiy ittifoqlariga qo'shilmaslik edi. 25 davlatlarning oliy darajadagi 1-konferensiyasi 1961-yil sentyabr oyining boshida Belgradda Yugoslaviya, Hindiston, Misr, Indoneziya va Gana tashabbusi bilan chaqirilgan edi. Ikki o'n yillik davomida tartib va geografik harakatlar kengayib bordi. Natijada 1983-yilda ularning a'zolari 101 taga yetdi. Dunyo davlatlarining 2/3 qismini birlashtirdi. Qo'shilmaslik harakati dunyo siyosatida tinchlikni mustahkamlash va davlatlar orasida qo'shnihilik munosabatlarini saqlashda asosiy omil bo'lib xizmat qildi.

Ikki qutbli sxemaga Yaponiyaning qudratli iqtisodiy davlatga aylanayotganligi, Xitoyning yadro davlatiga, shuning bilan birga OPEK - neft ishlab chiqaruvchi davlatlarning tashkiloti, ya'ni o'z oldilariga industrial rivojlangan davlatlar diktaturasidan qutilishni o'z oldiga qo'ygan davlatlarning rivojlanishi bir necha o'zgartirishlar kiritdi. Shu bilan birga dunyo valyuta tizimi vayron bo'la boshladi, natijada 1971-yilda bretton-vud jahon moliya tizimi va oltin standarti bekor qilindi. Xalqaro hisob valyutasi hisobida dollarning tushib ketishi AQShning dunyo moliya bozorlaridagi o'rnini yo'qotdi.

Shunday qilib, ikki qutbli qarama-qarshilikning yumshashiga asosiy sabab AQSh va SSSRning tugamas harbiy, iqtisodiy, siyosiy va g'oyaviy qarama-qarshiligi zaiflanishi bo'ldi. Harbiy qudratning oshib borishi natijasida iqtisodiy o'sish kamaydi. Shu bilan birga AQSh va SSSR ittifoqdoshlari iqtisodiy va harbiy qudratining oshishi muhim rol uynadi. Natijada, 70-yillarda yadro - strategik nufuz uchun davlatlar qarama-qarshiliklardan voz kechib harbiy xavfsizlik yuzasidan hamkorlikka kelishildi. Ko'pgina masalalar ikki qutbli dunyo tartibi ramkalarida ochilsada, dunyo jamiyati manfaatini ko'zlab hamda yechilardi.

10.2. Dunyo siyosatida markazga intilish tendensiyalari.

XX asrning ikkinchi yarmida iqtisodiy va siyosiy integratsiyaning o'sishi tendensiyasi bilan harakterlidir. U ko'pgina xalqaro davlatlararo va davlat tashkiloti bo'lmagan tashkilotlarning vujudga kelishi bilan shakllangan. Ikkinchi jahon urushidan oldin ularning soni bir necha o'nta bo'lsa, hozirgi kunda birinchi turdagi tashkilotlar soni bir necha yuztani, ikkinchi tipdagi 2,5 mingga yaqin. Ikkinchi jahon urushidan keyin BMT, NATO, Dunyo banki kabilar vujudga keldi.

Hozirgi kunda asosiy rolni davlatlarning bir guruhi, dunyoviy va regional tashkilotlar, Yevropa Ittifoqi, Amerika davlatlar tashkiloti (ADT), Neft eksporti davlatlar tashkiloti (OPEK), Afrika birdamlik tashkiloti (ABT), "Islom konferensiyasi" tashkiloti va boshqalar o'ynaydi. AQSh, Kanada, Meksika tarkibiga kiruvchi Shimoliy Amerika zonasida erkin savdoni (NAFTA) shakllantirish jarayoni boshlandi. 1989-yilda Osiyo-tinch okeani iqtisodiy ittifoqi

(APEK) tashkil etildi. Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlar Assotsiatsiyasi (ASEAN), Osiyo rivojlantirish banki va boshqa ittifoq va tashkilotlar faol harakat qilmoqdalar.

Bunday tashkilotlar soni ortib bormoqda. Turli davlatlarning siyosiy partiyalarining hamkorligi katta maktablarda kengayib bormoqda. G'oyaviy bir xil partiya rahbarlari xalqaro darajada o'z o'rnini egallashga harakat qilmoqdalar. Bunga guvoh, masalan, 1961-yilda tashkil topgan Dunyoviy xristian demokratik ittifoqi bo'lib, uning tarkibiga bir necha davlatlarning markaziy partiyalari kirgan edi. 1983-yil Xalqaro demokratik ittifoq tashkil qilinib, G'arbiy Yevropa konservatiya partiyalarni, AQShning respublikachilar partiyasini, Yaponiyaning liberal-demokratik partiyasi va Avstraliya konservatorlarini birlashtirgan edi.

Hozirgi dunyo siyosatida asosiy faktorlardan biri bo'lib har yili "katta yettilik" kengashi - yetti rivojlangan industrial davlatlar - AQSh, GFR, Fransiya, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Italiya va Kanada asosiy iqtisodiy va tashqi siyosiy savollar bo'yicha kengash hisoblanadi. yettilik kengashlarida asosiy diqqat iqtisodiy rivojlangan, tashqi siyosiy munosabatlarning tekislanish, inflyatsiya va ishsizlik va hokazo masalalarni yechishga qaratiladi. Harbiy-siyosiy va tashqi siyosiy savollar ham muhim o'rin tutadi.

Eng ilg'or integratsion jarayonlar Yevropada bo'ldi. 1948-yil martda Fransiya, Buyuk Britaniya, Belgiya, Niderlandiya va Lyuksemburg ("G'arbiy Ittifoq") o'rtasida harbiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarda hamkorlik qilish shartnomasi - Bryussel pakti imzolandi. O'sha yili may oyida Gaagada Yevropani birlashtirish harakati kongressi bo'lib o'tdi. 1949-yilda Yevropa Ittifoqi tashkil topib Yevropa kontinentida parlament demokratiya va qonunning inson huquqlarini himoya qilishda boshchilik qilishi, Yevropa davlatlari o'rtasida kelishuv munosabatlarning shakllantirishga xizmat qildi. Natijada Buyuk Britaniya uzoq vaqt Yevropa integratsiyasi jarayondan chiqdi, ammo GFR faol ishtirok etdi. G'arbiy Yevropa integratsiyasining siyosiy yo'nalishi iqtisodiy aloqalarga almashtirildi. 1951-yil aprelda fransuz tashqi ishlar vaziri Shuman tashabbusi bilan Yevropa ko'mir va temir tashkiloti (YEOUS) tashkil topib,

Fransiya, GFR, Italiya va Benilyuks davlatlarni birlashtirdi. YEOUS ushbu sanoatning umumiy bozorini vujudga keltirdi. 1957-yilda “oltilik” Rim shartnomasida YEKTT asosida Yevropa iqtisodiy jamiyatini tashkil etishga kelishdi. Yevropa iqtisodiy jamiyati ichida - Kengash, Komissiya, Assambleya va Sud tashkil etildi.

Yevropa iqtisodiy jamiyatida qatnashuvchi davlatlarning siyosiy mustaqilligi saqlanar, keyinchalik bojxona to‘lovlari kamaytirildi, yagona agrar siyosat o‘tkazildi. Bu masalalar to‘laligicha 1968-yilda qilindi. 60-yillar oxiridan G‘arbiy Yevropa integratsion jarayonining 2-etapi boshlandi. Fransuz prezidenti J.Pompidu tashabbusi bilan 1969-yilda Gaaga kelishuvida “oltilik” rahbarlari “integratsiyani chuqurlashuvi va kengaytirishni tugatish” dasturini ishlab chiqdi. Ushbu kelishuvga binoan Yevropa iqtisodiy jamiyati 1972-yilda kengaytirildi. Ushbu jamiyat tarkibiga Ispaniya, Portugaliya, Gretsiya, Irlandiya, Daniya, Buyuk Britaniya kirdi. Ularga 1995-yil 1-yanvardan Avstriya, Shvetsiya va Finlandiya qo‘shildi.

Siyosiy integratsiya ichida 70-yillarning oxirida muhim o‘zgarishlar bo‘ldi. Yevropa Iqtisodiy jamiyatida Kengashning roli sezilarli darajada oshdi. 1978-yildan boshlab Yevroparlamentga to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylovlar o‘tkazildi. Ushbu tadbirlar 80-yillarning birinchi yarmida Yevropa ittifoqini tashkil etish uchun yangi etap vazifasini o‘tadi. Ushbu ishning qiyinchiliklari katta ishni ko‘rib o‘tilishiga olib keldi. 1992-yilda Maastrix shartnomasidan so‘ng Yevropa Ittifoqi reallikka aylandi.

Maastrix bitimining asosiy maqsadi - yagona iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy, informatsion va madaniy kenglikni vujudga keltirish edi. 1993-yil 1-yanvardan 350 mln. yevropaliklar, Yevropa Ittifoqida yashovchilar erkin harakatlanish huquqini oldi. Yagona kapitalar, mahsulotlar va maishiy xizmat bozori vujudga keldi. Kelajakda valyuta tizimini to‘liq birlashtirish, yagona fuqarolik institutini yaratish, Yevropa davlatlarining keyingi harbiy-siyosiy yaqinlikni va xavfsizlikni mustahkamlash rejalashtirilgan edi. Maastrix keyingi yillardagi Yevropa jamiyatlarining rivojlanish yo‘nalishlarini belgilab berdi.

Xalqaro hamkorlikni mustahkamlash va kengaytirishda BMT muhim rol o'ynab ikkinchi jahon urushidan so'ng xalqaro tizimda muhim element hisoblanardi. Urush davrida Millatlar Ligasi o'rnini bosuvchi xalqaro tashkilot tuzish savoli vujudga keldi. Bu savol 1945-yil aprelda San-Fransiskoda bo'lib o'tgan konferensiyada o'z yechimini topdi. Unda BMT va uning nizomini tuzish masalasi ko'rildi.

Urushdan keyingi davrda yangi maxsus qo'shinlar tuzilib xalqaro hayotning turli jabhalarida keng foydalanildi. 1948-yilda BMTning maxsus tashkiloti - madaniyat va fan masalalari bilan YUNESKO tashkil etildi. 1972-yil BMTning yana bir maxsus tashkiloti - tabiatni muhofaza qilish ishlari bilan shug'ullanuvchi YUNEP - tuzildi.

Energetika va xom ashyo masalalari bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilotlar muhim rol uynashdi. Ular ichida muhim o'rinni atom energiyasi bo'yicha BMTning Xalqaro agentligi (MAGATE) - yadro qurolini tarqalishini oldini olish va atom energiyasini tinchlik maqsadida ishlatish agentligi egallaydi.

BMTning say'i harakati bilan xalqaro siyosatda hozirgi kunda inson huquqlari muhim masala qilib ko'tarildi. Bu harakat va tashkilotlar harakat qilishgan. Bu kurash 1948-yilda BMTning Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan "Inson huquqlari umumiy deklaratsiyasi"ga mantiqiy qo'shilish edi. BMT asosiy diqqatini rivojlantiruvchi davlatlarning iqtisodiy masalalarini yechishga qaratdi. 1974-yilda BMTning Bosh Assambleyasi yangi xalqaro iqtisodiy tartibni o'rnatish Deklaratsiyasi va Dasturini qabul qildi.

BMT davlatlararo nizolarni yechishda muhim ro'l uynadi. 1948-yildan 1991-yilga qadar BMT tinchlikni saqlash uchun 23 operatsiyani o'tkazdi. BMT Bosh sekretoari qo'lida tanklar, yo'q mashinalar, sputnik aloqa va shunga o'xshash vositalar mavjud ediki, boshqa davlat boshliqlari havas qilishardi. Bugungi kunda BMT kuchlari yer sharining hoxlagan qismida 50 ming palatka tutishi yoki 1 mln. qochoqni ovqatlantirish qudratiga ega. Uning oziq-ovqat dasturi butun davlatlar aholisini hayotini qo'llash imkoniyatiga ega.

Biroq BMTning qoloq davlatlarga yordam berishi boshqa masalalarga

nisbatan kamdir. Bu qiyinchiliklar asosan BMTning moliyaviy qiyinchiliklaridan kelib chiqadi. 90-yillarda BMTning tenglikni saqlash rolining oshishi Fors ko'rfazi va Namibiya'dagi nizolarni yechishga yordam berdi. 1990-yilda BMTning Xavfsizlik Ittifoqi o'zining ko'p millatli kuchini Iroqqa qarshi quvaytni bosib olgani uchun ishlatdi. Namibiya nizosi barcha kurashuvchi tomonlarni kelishuv jarayoniga qatnashishiga jalb etib yechildi. BMT o'ziga qo'yilgan ishni, ya'ni barcha hududlarda tinchlikni saqlash, ovoz berishni nazorat qilish va Namibiya va Angoladan chet qo'shinlarni chiqarish kabi ishlarni a'lo darajada amalga oshirdi.

Ammo, shu bilan birga BMT Liberiya, Somali, Ruanda va boshqalar nizoli zonalarda o'z kuchsizligini ko'rsatdi. BMT boshqaruvini boshqa qudratli davlatlar o'z qo'liga olgandi faqatgina, aniq harakat qilishi mumkin. Ammo, ular orasida kelishmovchiliklar bo'lmasa, barcha tadbirlar mag'lubiyat bilan tugaydi. Ko'pgina harbiy aktlar BMT tomonidan sanksiya qabul qilinib, u boshchiligida emas, balki AQSh boshchiligida: Koreyada (1950-1953), Iroqda (1990-1991), Somalida (1992-1993), Yugoslaviyada (1999) amalga oshirildi.

XX asr 80-yillarning ikkinchi yarmi - 90-yillar boshida sotsialistik muhitni va SSSRning yemirilishi "sovuq urush" va ikki qutbli dunyo tartibining tugashiga olib keldi. G'arb va AQSh SSSR bilan tarixiy musobaqada to'liq g'olib chiqqanini inkor qilib bo'lmaydi. G'arb g'alaba qozonmadi, chunki Sovet Ittifoqi o'zini-o'zi o'ldirgan edi.

"Moid" fransuz gazetasi muxbirining so'ziga qaraganda, Berlin devorining qulashi - bu kapitalizmning "kommunizm ustidan sirtqi g'alabasi" Chunki, hech kim bilmasdi yana qancha kuch va resurslar kerak edi. Sovet Ittifoqining rahbarlari reformatsiya yo'lida turib unga o'lim hukmiga qo'l qo'yishar edi. "Sovuq urush" o'zining oxirgi nuqtalariga dunyodagi geosiyosiy vaziyat o'zgarganda keldi.

"Sovuq urush"i tugashida AQSH va SSSR muhim rol o'ynaydi. Ikki tomon ham "sovuq urush" tugashiga o'z hissasini qo'shdi. Urushning tugashi 60-yillar boshlarida mo'ljallangan hamkorliklarning kulminatsion nuqtasiga aylandi. Bu vaqtda xalqaro sahnada XX asr 70-80-yillar davomida yig'ilib qolgan kuchlarning joylashuvi va davlatlarning ta'siri vujudga keldi.

Atlantika va Tinch okeanlari AQSh va boshqa G'arbiy yarim shar mamlakatlarini harbiy bosqindan himoya qiluvchi gigant oraliq sifatida o'z ahamiyati yo'qotdi. Front chizig'i yo'qoldi. Masalan, 1- va 2-jahon urushlarida qatnashmagan amerikaliklar Uzoq Yevropa va Osiyodagi urushlarda qatnashishdi.

Raketa-yadro quroli davlatlarning geografik joylashuvidan aholi sonidan va iqlimidan qat'iy nazar bir-biri bilan kuchlarini tenglashtirib qo'yadi. Hozirgi dunyoda havo kengligi va kosmos harbiy-siyosiy nuqtai nazaridan quruqlik va dengizdan ko'ra katta ahamiyatga ega. kontinental xalqlar yoki iqtisodiy, texnik va informatsion nazoratning trans milliy turlari vujudga keldi. Hozirgi texnologiyalarning kirish kuchi shu darajadagi uni hech bir to'siq, devor va chegaralar to'xtata olmaydi.

Hamma xalqlarning iqtisodiy, milliy va boshqa qiziqishlari bitta umuminsoniy qiziqishiga birlashtirildi. davlatlar va xalqlar iqtisodiy, umumsiyosiy va madaniy sohada ko'p tomonlama hamkorliksiz yashay va rivojlana olmadilar. Odatiy kasalliklar hisoblangan vabo, tif, chuma kabi kasalliklarni milliy-davlat chegaralari bilan to'xtatish mumkin, "XX asr vabosi" - SPIDni to'xtatib bo'lmaydi. Sekin o'ldiruvchi radiatsiya milliy davlat chegaralarini tan olmaydi.

Davlatlar orasidagi hamkorlik ular bir-birini qanday qabul qilishi bilan ko'pincha harakterlanadi. Xalqaro munosabatlarning tezlashishi yoki sustlashishi, urushni to'xtatish va qurollanish poygasini oldini olishga doir shartnomalarning bir-biroviga ishonchsizligi natijasida vujudga keldi.

Odamzodning butun tarixi davomida u yo bu davlatning strategiyasi, davlat xavfsizligi, uning obro'si davlat qo'liga mavjud qurollar soni va sifati bilan belgilangan. Yadro quroli bu harbiy-strategik qulayliklarni yo'qqa chiqardi. Urushlar-qurolli kuchlar yordamida siyosiy maqsadlarga erishish uchun siyosiy javob natijasidir. Oldin urushga siyosat vositasi sifatida qaralar edi. XIX asr mashhur harbiy teoritigi Klauzens "urush - bu siyosatning boshqa vositalarda davom etishi" deb hisoblardi. Raketa-yadro quroli siyosat bilan urush oralig'idagi bog'liqlikni to'laligicha uzdi, chunki ongli siyosat jahon arenasi butun odamzodni o'ldiruvchi yadro qurolini ishlatishga yo'l qo'ymaydi.

Yadro quroli “sovuq urush” davrida ikki qudratli davlatlarning ushlab turuvchi asbob sifatida xizmat qildi. Ikkinchi jahon urushidan so‘ng atom quroli monopoliyasiga ega AQSh SSSRning tashqi siyosatda siyosiy strategiyasini o‘zgartirishga ta’sir ko‘rsata olmadi. Bundan tashqari 1945-1949-yillarda SSSR va Xitoyning ta’sirini kengayishi kuzatildi. AQSh o‘z atom quroli bilan bunga xalaqit bera olmadi. Yadro quroli Koreya va Vyetnam urushlarning borishi va natijasiga ta’sir ko‘rsata olmadi.

XX asr 50-yillari oxiri - 60-yillari boshida Fransiyaning atom quroli mavjud bo‘lsada Aljir hududidan chiqishga majbur bo‘ldi. Xuddi shu narsa Vyetnamda AQSh bilan bo‘ldi. 1982-yilda Argentina Buyuk Britaniyaga qarshi go‘yo bu davlat yadro quroliga ega bo‘lmagan davlatdek urush boshladi. Afg‘on urushida Sovet Ittifoqi o‘zini yadro qurolini bilmaganday tutdi. Yadro quroliga ega bo‘lish Varshava pakti va Sovet Ittifoqining yemirilishiga qarshi kafil ham bo‘la olmadi.

Bo‘larning barchasi ikki qudratli davlatlar va harbiy-siyosiy bloklarning munosabatida o‘ziga xos yadro qatag‘oni tasdiqlanishi bilan tushuntiriladi. 1961-yilda BMTning Bosh Assambleyasi tinch aholi o‘rtasida ko‘p qurbonlar keltiruvchi va xalqaro huquq va umum qabul qilingan inson huquqlarida zid keluvchi yadro qurolini ishlatishni man etuvchi rezolyutsiyani qabul qildi. G‘arbiy va Sharqiy bloklar rahbarlari yadro urushidan voz kechishni tushunib borishdi. O‘zining jangari arizalari bilan mashhur AQSh prezidenti R.Reygan har yilgi “Davlatning sharoiti haqida” kongressga jo‘natgan nomasida 1984-yil 25-yanvarda “Urushni yengib bo‘lmaydi va u hech qachon yechilmasligi kerak” deb e‘lon qildi.

Sovet Ittifoqi esa, yadro asri boshidan har qanday o‘zining alohida deklaratsiyalarida uning to‘liq man etilishini ilgari surardi. “Biz sizlarni ko‘mamiz” deb kapitalistlarga do‘q uruvchi N.Xrushchev yadro qurolini qo‘llashga qat‘iyan qarshi edi. U yadro urushi boshlansa “tiriklar o‘liklarga havas qiladi” deb ta’kidlardi.

Bu yadro quroli siyosiy masalalarni yechishga umuman ahamiyat kasb etmaydi degani emas. Uning siyosiy ahamiyati davlatning qudrati sifatida saqlanardi. Siyosiy maqsadlarga erishish uchun kuchidan foydalanish yoki

qoʻrqitish uchun foydalanardi, ammo yadro quroli strategik qudrat ishlatiladigan joylarda maʼlum maqsadga erishish uchun ishlatilgan. Bu eng avvalo raqib davlatning hayotiy qiziqishlarini boshqaradi. Yadro quroli u yoki bu maqsadlarda ishlatilmasada, urushning keyingi 5 ta oʻn yilliklarga tobe davlatlarda urushlar boʻlayotgan bir vaqtda xalqaro munosabatlar markazida tinchlik hukmronlik surardi. 1962-yil kuzda AQSh va SSSR oʻrtasida vayron boʻlgan raketa inqirozi hozirgi dunyo tarixining burilish nuqtasi deb hisoblasa boʻladi. U qarshi tomonlarning yadro qurolini ishlatganda vujudga keladigan dunyoviy vayronagarchilikni anglashga yordam berdi.

Bu voqealarning rivojlanishiga 1963-yil avgustda SSSR, AQSh va Buyuk Britaniya oʻrtasidagi yadro qurolini uch sferada atmosferada kosmik kenglik va suv ostida qoʻllashni man etish haqidagi shartnomaning imzolanishi sabab boʻldi. 1968-yilda yadro qurolini tarqatmaslik shartnomasi imzolandi. Birinchilardan shartnomaga qoʻl qoʻygan 62 davlatga keyinchalik oʻnlab davlatlar qoʻshildi.

Yadro qurolidan hali zonalarini tashkil etish gʻoyalari vujudga keldi. Yadrodan xoli zonalarini tashkil etishning asosiy maqsadi 1968-yilda yadro qurolini tarqatmaslik shartnomasining hayotga tadbiiq etish edi. Bu zonalar toʻliq va soʻzsiz bu hududlarda yadro qurolini taqiqlashni nazorat qiladi. Yadroviy davlatlar boshqa hududlarga yadro qurolini tarqatmaslik, ularga bunday qurolga ega boʻlishga yordam bermaslik va bu davlatlarqa qarshi uni qoʻllamaslikni oʻz zimmasiga oldi.

Bu shartnomaning xulosasiga qadar, 1959-yilda Antarktika hududi yadro qurolini tarqatish hududidan chiqarildi va u yadrosiz zona boʻlib qoldi. Lotin Amerikasida yadro qurolini taʻqiqlash shartnomasiga (Tlatelolko Shartnomasi) va 1 va 11 protokollarga binoan 1967-yilda Lotin Amerikasi yadrosiz zona deb eʼlon qilindi.

XX asr 60-yillarning oxirida strategik qurollanishni cheklash haqidagi sovet- amerika, undan soʻng ikki davlat oʻrtasida munosabatlarni normallashtirish haqida sovet-Gʻarbiy Germaniya muzokaralari boshlandi. Yevropa va butun dunyoda xalqaro xavfsizlikni taʻminlash uchun SSSR va GFR yaqinlashishi

muhim ahamiyat kasb etdi. 1970-yilda ikki davlat o'rtasida davlatlararo bitimning tuzilishi o'z amaliy natijasiga ko'ra G'arbiy Germaniya Yevropada urushdan keyingi chegaralarni o'zgartirishga bosh tortdi. Bu o'zgarishlar natijasida 1971-yil Berlin bo'yicha SSSR, AQSh, Buyuk Britaniya va Fransiya o'rtasida to'rt tomonlama shartnoma va shu bilan birga GFR va GDR o'rtasida shartnoma tuzildi. 1972-yilda Sovet Ittifoqi va AQSh o'rtasidagi raketaga qarshi himoya haqidagi shartnoma eng muhim ahamiyat kasb etadi. Undan so'ng ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi strategik bosqin qurollarini cheklash haqidagi shartnomalar imzolandi.

Xalqaro munosabatlar tizimidagi muhim o'zgarishlar 1985-yilda SSSR rahbariyatining almashuvi bilan amalga oshirildi. Bu transformatsiya eng muhim nuqtasi "sovuq urushi"ning oxirgi nuqtasini bildiruvchi 1989-yilda Mal'tada J.Bush va M.S.Gorbachyov bilan uchrashuvi bo'ldi. Keyingi voqealar koleydoskopik tezlikda rivojlandi. 1991-yilning oxirida ikki qarama-qarshi lagerlarni bo'lib turuvchi "temir parda" Berlin devorining qulashi, Varshava pakti, sotsialistik ittifoq yemirildi. Sovet Ittifoqi tarqaldi, "baxmal inqiloblar" natijasida Sharqiy Yevropa davlatlari kommunistik rejimni tugatishdi. Germaniya birlashdi. Yugoslaviya bo'lindi va boshqalar.

10.3. Ko'p qutbli dunyo chizgilari.

"Sovuq urush"ning tugashi kun tartibida geosiyosiy kuchlarning yangi konfiguratsiyasi, ikki qutbli dunyo tartibli tizimini almashtirishni olib chiqdi. Xalqaro-siyosiy sahnada ikki qudratli davlatlarning birini yo'qolishi, boshqa qudratli davlat - AQSh boshchiligida bir qutbli dunyo tartibini shakllanishi xulosasini beradi. Biroq, shuni ham esdan chiqarmaslik kerakki, o'zgarishlar natijasida faqatgina Rossiyani emas, balki AQShning ham geosiyosiy sharoiti o'zgaradi. "Sovuq urush" davridagi o'lchamlar yangi sharoitlarga to'g'ri kelmaydi. Har qanday davlatga, shu bilan birga Rossiya va AQShga yangi sharoitdagi dunyo geopolitik kengligida o'z roli va o'rnini izlashga to'g'ri keldi.

G'arb boshqaruv doirasining bir qismi AQSh yangi sharoitida yagona

qudratli davlat bo'la olmasligini to'raligicha anglashdi. Boshqa qismdagilar bunga qo'shilishlari qiyin bo'ldi. Bu qism vakillari dunyo jamiyatida AQShning yagona sardorlik rolini saqlab qolishga harakat qilishdi. Buni tadbqiq etishdagi muhim asboblardan biri sifatida Amerika boshliqlari NATOni tanlashdi.

NATO harbiy-siyosiy ittifoq ikki qutbli dunyoning bir qutbi sifatida tashkil topdi. "Sovuq urush"ning tugashi va Sovet Ittifoqining yemirilishi bilan NATO tuzilishining eng muhim sabablari yo'qoldi. Biroq G'arb davlatlari boshliqlari, boshqalardan ko'ra AQSh harbiy-siyosiy blokning mustahkamlash va keyinchalik kengaytirish, xalqaro xavfsizlikni ta'minlashdagi rolini oshirish rejasini amalga oshirishdi.

AQShning dunyoda sardorlik uchun kurashi, NATOning kengayishi hisobida uning to'g'ri harbiy-siyosiy ta'sirining kengayishi amerikalik boshliqlarning xalqaro tashkilotlarga nisbatan qattiq sharoiti dunyo siyosati tizimining tekis shakllanishi, bu "sovuq urush"ning davomi deb da'vo qiluvchi davlat boshliqlariga katta xavf tug'dirdi. Biroq zamonaviy siyosatda "Amerika faktori" eng muhim sharoit sifatida katta ahamiyat kasb etadi. Yer sharining hamma burchaklaridagi odamlar avlodlariga Amerika siyosiy qaramlik va moddiy qiyinchiliklardan qutilish yo'lini ko'rsatuvchi nur sifatida xizmat qildi. Katta Shimoliy Amerika kontinentining tez egallanishi, qishloq xo'jaligi va yengil sanoatning tez rivojlanishi, tarixda ko'rilmagan moddiy boyliklarning oshib borishi ko'pgina xalqlarning boshqa davlat va xalqlarning taqdiridan ko'ra uning taqdiri yaxshiligiga ishontirdi.

Har qanday boshqa g'oyaday, Amerika g'oyasi o'zining rivojlanish va rivojlangan devorlariga egadir. U uchun rivojlangan davr "sovuq urush" davri bo'ldi. Shuning uchun Vashingtonga tarix darslariga o'qish va tegishli xulosalar chiqarishi qiyin, chunki AQShga bir qutbli dunyoda yagona qudratli davlat statusini berishni yoqlab chiqqanlar bo'ldi. "XX asr Amerika asri edi. XXI asr ham Amerika asri bo'ldi", deb yozgan mashhur politolog S.Xantington bu vaziyatning g'oyaviy bazasini keltirdi.

Albatta, amerikaliklarning birinchi ko'rinishga bunga yetarli moddiy,

mafko‘raviy, psixologik va geosiyosiy harakterga ega sabablari mavjud edi. Tarixda SSSR nomi bilan sobiq bosh raqibi vayron bo‘ldi. Amerika esa o‘z qudratining oxirgi nuqtasiga yetdi. U dunyodagi eng qudratli iqtisodiy va harbiy-siyosiy davlat sanalib, kelajakda ham shunday bo‘lib qoladi. Lekin hozirgi kungi sharoitdan kelib shuni aytish kerakki, bir davlat u qanchalik qudratli bo‘lmasin hozirgi qiyin turli masalalar bilan to‘la dunyoni boshqara olmaydi. Oxirgi o‘n yilliklarda AQShning bir o‘zi dunyoni boshqara olmasligiga guvohlik beruvchi ko‘pgina aniq ma’lumotlar mavjud. Undan tashqari eng qudratli davlat nomi hozirgi kunda yo‘qolib ketmoqda.

Vujudga kelgan aniqliklarga ko‘ra ikki qutbli dunyo tartibi bo‘lmasdan bir necha davlat boshliqlari va teoretiklari tomonidan geosiyosiy kuchlarning uchburchakli joylashuvi - uch markazi AQSh, G‘arbiy Yevropa va Yaponiyaga tayanuvchi tartib ilgari surilmoqda. Industrial dunyoning bu markazlari orasidagi iqtisodiy yoki boshqa nizolarni yangilik deb bo‘lmaydi. Ammo, “sovuq urush”ning tugashi bilan ular yangi o‘lcham va yangi sifatlarni qabul qilmoqdalar. Bu shakllanayotgan ko‘p qutbli dunyo tartibining tabiatidan kelib chiqmoqda. Ierarxik tizimidagi davlatlarning “sovuq urush” davri uchun an’anaviy davrdan yangi tuzimiga o‘tish rejalashtirilgan.

AQSh va uning ittifoqchilari o‘rtasida sifatli o‘zgarishlar bo‘lib o‘tdi. Oxirgi Amerikaga nisbatan “kichiq ukalik” kompleksidan, ya’ni urushdan keyingi davrda sovet bosqinidan yonini oluvchi kopleksdan birin-ketin ozod bo‘lindi. G‘arb va Sharq o‘rtasidagi g‘oyaviy va tizimlararo nizo tugagan paytda, u yoki bu davlatga harbiy yoki harbiy-siyosiy ta’siri ko‘p tomonlama o‘z ahamiyatini yo‘qotdi.

Davlatning kuchi, potensiali va qudratini ko‘rsatuvchi asosiy ko‘rsatkichlar iqtisodiy, ilmiy va texnikaviy, undan so‘ng harbiy imkoniyatlaridan kelib chiqdi. Bu sohalarida AQSh tez rivojlanuvchi industrial davlatlar - Yevropa iqtisodiy Ittifoq a’zolari va Yaponiyadan orqada edi. Amerika g‘oyasiga qarshi ikkinchi tug‘ilishni boshdan kechirayotgan Yevropa g‘oyasi va Xitoy modeli, yangi industrial davlatlar (Janubiy-Sharqiy Osiyoning “kichiq ajdaholari”) o‘z modellari bilan chiqishdi.

Dunyo siyosatida Yevropani rolini oshirish uchun bu hududda integratsion jarayonning omadlari, umumiy iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy imkoniyatlarga oshib borishi asos bo'ldi. 70-yillarda G'arb tafakkur doiralarida Yevropaning yiqilish tezisi mashhur bo'lsa, 1990-yilda 344,6 mln aholisi bor Yevropa jamiyati AQShga nisbatan (5,47 trln.dollar) 5,53 trln.dollar ko'p mahsulot ishlab chiqardi. 80-yillarda hamma Yevropaning qayta tug' ilishi-geosiyosiy va ruhiy kuch sifatida ishonarli gapira boshlashdi, "katta" va "kichiq uka" munosabatlardan teng hamkorlar munosabatiga o'tishiga asos yaratdi.

Yevropa davlatlarning bundan "yevropezatsiya" siyosati, o'zini-o'zi boshqarishni qo'lga kiritishi 80-yillarning boshlarida Yevropa davlatlari amerikaliklarning SSSR bilan munosabatda qattiq yo'nalishiga qarshilik ko'rsatayotgan bir paytda boshlandi. "Sovuq urushi" tugashi bilan bu tendensiya ko'chaydi. Yevropaliklar Vashington qo'l ostidan chiqishni ochiq aytishdi. Ular xalqaro sahnada va NATOda o'z rolini kengaytirishi, ayniqsa, nizolarni yechishda javobgarlik va katta yukni o'z zimmasiga olishga tayyorgarligini aytishdi. Bu kontekstdagi o'sib boruvchi rolni G'arbiy Yevropa davlatlarning harbiy-siyosiy alyansi hisoblanadigan G'arbiy Yevropa Ittifoqiga (ZES) berildi. G'arbiy Yevropa Ittifoqi antonom boshqaruv tizimini yaratish rejalari ishlab chiqilmoqda. Voqealarning bunday rivojlanishiga ko'ra NATO yagona emas, balki Yevropa xavfsizlikni ta'minlovchi ikki tanyachdan biri bo'lib qolishi mumkin.

SSSRning yemirilishi va Yevropa kontinentida siyosiy haritaning o'zgarishi Yevropa Ittifoqini past sotsialistik mamlakatlarning tortish markaziga aylandi. Markaziy va Sharqiy Yevropa davlatlari to'g'risini aytganda Yevropa bilan birlashishdi. "Sharqiy Yevropa" va "Markaziy Yevropa" so'zlari yana o'zining ilgarigi siyosiy-geografik va geosiyosiy ma'nosini oldi. Totalitar tizimning yemirilishini boshidan kechirgan xalqlar uchun "yagona Yevropa" "tog'dagi shahar"ga aylandi.

Yevropa markazidan tashqari hozirgi dunyo taqdiriga Osiyo-Tinch okeani hududi katta ta'sir ko'rsatdi. XIX asr oxirida AQShning o'sha paytdagi davlat (sektori) kotibi J.Xey "O'rta Yer dengizi - o'tish okeani, Atlantika okeani - hozirgi

okean, Tinch okeani - kelajak okeani” tezisini ifodaladi.

Rivojlanuvchi Osiyo (aniqrog‘i, Sharqiy Osiyo) Rossiyaning Uzoq Sharqi va Koreyadan shimoli-sharqqa Avstraliyagacha janubga va Pokistonga sharqda yirik uchburchak shaklida o‘z yerini ichiga oladi. Ushbu uchburchak ichida taxminan koinot aholisining yarmi yashaydi va ko‘pgina davlatlar - Yaponiya, Xitoy, Yangi Zelandiya, Tayvan, Janubiy Koreya, Gongkong, Singapur va boshqalar. XX asr davomida iqtisodiy tez rivojlanuvchi davlatlar kiradi. 1960-yilda AQShdan tashqari ushbu hududdagi davlatlarning umumiy yalpi milliy mahsuloti dunyo yalpi milliy mahsulotining 7,8 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 1982-yilga kelib u 2 baravar ko‘paydi. 16,4 foizni tashkil etdi. 2000-yilga kelib bu raqam dunyo yalpi milliy mahsulotining 20 foizni tashkil qilib, AQSh yoki Yevropa hissasiga teng. Shunday qilib, Osiyo-Tinch okeani hududi dunyo iqtisodiy qudratining asosiy markazlaridan biriga aylandi.

Osiyo-Tinch okeani hududida integratsiya jarayoni tez yoyilmoqda. ARES - Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi bo‘yicha hukumatlararo konferensiyasi (1989-yilda Osiyo va Shimoliy Amerika davlatlari tomonidan tuzilgan forum). ReSS - Tinch okeani iqtisodiy hamkorlik kengashi, RVES -Tinch okeani havzasida iqtisodiy kengashi, ATES Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy kengashi va boshqa obro‘li tashkilotlar tashkil etildi. 1967-yilda tashkil etilgan subregional siyosiy-iqtisodiy tashkilot - Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlar Assotsiatsiyasi (ASEAN) e‘tibori va ta’siri olib bormoqda, uning tarkibida birinchilardan Indoneziya, Malayziya, Singapur, Tailand, Filippin va Bruney kirgan edi. Janubi-Sharqiy Osiyoda tinchlikni o‘rnatish, a’zo davlatlarning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va turdagi hamkorliklarni rivojlanishi bu tashkilotning asosiy maqsadi edi. U davlatlarning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishiga, ularning bu hududda siyosiy ta’sirini o‘sishiga muhim rol o‘ynadi.

Ushbu hududda siyosiy iqlimning yaxshilanishi kuzatilmoqda. Ayniqsa, Rossiya-Xitoy va Xitoy-Hind, Xitoy-Vyetnam munosabatlarining yaxshilanishi, Koreya davlatlari o‘rtasida faollikni oshirdi. ASEAN davlatlari bilan Vyetnam o‘rtasidagi yaqinlashish tendensiyasi ko‘rilmoqda. “Sovuq urush”ning tugashi va

Sovet Ittifoqining yemirilishi Osiyo-Tinch okeani hududida Yaponiya va Xitoyning ta'siri va e'tibori omiliga (to'g'ri keldi) va shu bilan birga bu bir qator yangi industrial davlatlarning rivojlanishiga to'g'ri keldi. "Sovuq urush" tugashiga Yaponiya iqtisodiy qudratli davlatga aylanib, har qanday Yevropa davlatidan o'tib AQSh bilan iqtisodiy sohada raqobatlashishi mumkin edi. Uning tashqi kapitallari 1 trln. dollardan oshdi, bu esa AQShning ko'rsatkichidan ko'p edi.

Yaponiya izidan dunyo sahnasiga dunyo bozorida o'z o'rnini topish va uchun bir qancha ko'zga ko'rinarli g'alabalarga erishgan yangi industrial davlatlar chiqdi. Xitoydagi iqtisodiy o'zgarishlar o'z natijalarini berdi va u iqtisodiy va siyosiy qudratini oshirgan davlatga aylandi. Xitoy sharqiy va janubiy-sharqiy Osiyo xalqlari va davlatlarini o'ziga torta oluvchi aholi resurslariga boy, tabiiy va iqtisodiy imkoniyatlari keng, texnik hamda harbiy strategik kuchga ega bo'lgan markaziy davlatga aylandi. Bu sifatda Xitoy butun Osiyo-Tinch okeani hududi shakli va tuzilishini shakllanishiga muhim rol o'ynaydi.

Xitoy, Gongkong, Makao, Tayvan, Singapurni o'z ichiga oluvchi "Katta Xitoy" nomini olgan jarayonning jadal rivojlanishi bormoqda. Ularning hamkorlikdagi eksport potentsiali Yaponiyaniqidan oshadi. 2002-yilda Jahon bankining bergan ma'lumotiga ko'ra, Xitoyning Gongkong va Tayvan bilan birga tashqi milliy mahsuloti 9,8 trln.dollarni tashkil etishi mumkin. Xitoy harbiy sohada ham bu yutuqlarga erishdi. Xitoy yaqin kelajakda qudratli iqtisodiy va harbiy kuchga, shu bilan tugamas odam resursiga ega bo'lgan yadroviy davlatga aylanishi mumkin. Bu Xitoy xalqaro ta'sirda yagona yirik qutb bo'lib qolishidan dalolat beradi. Xitoyliklar esa XXI asr "Xitoy sivilizatsiyasi asri" bo'lishiga intilganligini aytishmoqda. Ushbu barcha ma'lumotlar shu haqda guvohlik beradiki, Yevropa va Shimoliy Amerikaning iqtisodiy-siyosiy markazlari yonida yangi markazlar vujudga keldi. 80-yillarning boshida ikki qutbli dunyo modeli o'rniga o'z ichiga SSSR, AQSh, G'arbiy Yevropa, Yaponiya va Xitoyni oluvchi beshburchakli modeli keldi. Bu Yaponiya va Germaniyaning Xavfsizlik Ittifoqiga doimiy a'zo bo'lish talabida o'z ifodasini topdi. Shuni esda tutish kerakki, Xitoy va Hindiston o'zlarining demografik gigantlik statusini o'zida saqladi, bu esa

ularning dunyo masalalarini yechishda rolini oshirmasligi mumkin emas. Strategik resurslar doirasida Yaqin Sharq va Janubiy afrika o'z mavqelarini saqlamoqdalar.

Shu bilan birga hech qachon hisobdan mustahkam bo'lmagan yirik hudud bo'lgan va global masshtabdagi o'zgarishlar epitetrida qolgan Rossiyani chiqarib tashlash mumkin emas. Rossiya boshidan kechirgan qiyinchiliklar oldida uni "kuni bitdi" deyish mumkin emas. Mavjud yirik resurslar zonasi va ularning qo'lga kiritish rejalari Markaziy Osiyoni geosiyosiy nuqtainazardan muhim bir hududga aylanishiga zamin yaratmoqda. Bu va boshqa markazlar bilan hamkorlik va raqobat qila oluvchi geoiqtisodiy va geosiyosiy kuchga ega bo'lgan mustaqil markazga aylanishi mumkin.

Shunday qilib ko'p qutbli dunyo tartibining chiqishi torayib borardi, ammo dunyo holatini o'zi boshqara oluvchi u yo bu davlatlarning qudratli davlat sifatida chiqishi yoki saqlash imkoniyati berilmadi. Dunyo bir vaqtning o'zida ko'proq bir xil va ko'proq har xil bo'lib, ba'zi imkoniyatlar ko'payib, boshqalari qisqarmoqda, yagona jamoaviy va milliy saylash imkoniyati kengaymoqda.

Ko'pgina yuqorida sanab o'tilgan davlatlar - har biri alohida yoki boshqa markazlar bilan hamkorlikda - dunyo siyosatida boshqa a'zolarga nisbatan u yo bu qudratli davlatning diqqatini to'sishi yoki qabul qilmasligi mumkin edi. Jiddiy ilmiy-texnik va moliyaviy qudratga ega mayda davlatlarning ta'siri va obro'si oshib borishi kuzatilmoqda. Davlat va mintaqalarning ko'payishi natijasida yirik davlatlarning geosiyosiy o'yinidagi an'anaviy konsertida oddiy rol bajarilmay qoldi. Ular shaxsiy siyosatini o'tkazish va ustalik bilan boshqarishni mustaqil o'rganib olmoqdalar. Dunyoni uning dunyoga bo'linishi yoki "Uchinchi dunyo" o'z ma'nosini yo'qotdi. Yangi industrial davlatlarga keladigan bo'lsak, ularning safi-yil sayn kengayib, eski industrial davlatlar klublarning haqiqiy a'zolariga aylanmoqda.

Janubning bir qator davlatlari yangi turdagi qurollarni so'rayveradigan o'zining jangari boshliqlari bilan diktatlik hukmronlik qilishi mumkin. Bir qator uchinchi dunyo davlatlarining yadro qurolini qo'lga kiritish aniq ko'rinish olmoqda. Bu dunyo jamiyatining shakllanish ko'rinishlariga o'zgartirish kiritdi.

ikki qutbli dunyo tartibida ikki bloklar yoki qutblar o'rtasidagi chegara aniq, mustahkam o'tib bo'lmas edi. Bu qarama-qarshilik aniq va sodda edi; bu dushman, bu biz, bu esa 2 dunyo orasidagi chegara. shuning uchun har qaysi tomon qaerdan va qanday hujum bo'lishini bilardi. Hozir esa hammasi o'zgardi. Urushdan keyingi o'n yilliklarda xalqaro tizimda mustahkamlik kuchi o'zgardi, aniqlik noaniqlikka o'rnini bo'shatdi, hukmronlik va ta'sir o'zgarib egasiz bo'lib qolmoqda.

Vaziyatdan o'tish "yoki-yoki" prinsipi asosida ikki imkoniyatdan birini tanlash o'rin qoldirdi, bunda ko'pgina davlatlarning tanlash diapozoni ko'paygani sababli, ularning ko'pgina variantlarni tanlash imkoniyati bo'ldi. Ularning har biri aniq milliy-davlat manfaatidan kelib chiqib, u yo bu blok bilan maslahatlashmasdan tashqi siyosiy qaror qabul qilishi mumkin. Vaziyatning yangiligi shundan iboratki, birga ildam a'zolarining tashqi siyosati koinot masshtabida ko'p sektorli joylashuvni qo'lga kiritmoqda. Bir vaqtning o'zida davlatlar turli koalitsiyalarda qatnashishi mumkin bo'lmoqda. masalan, Sharqiy Osiyo hududida buyuk davlatlar juftligi o'z-o'zini boshqaradigan mazmuni kasb etdi. AQSh-Yaponiya, AQSh-Xitoy, AQSh-Rossiya, Yaponiya-Xitoy, Yaponiya-Rossiya, Rossiya-Xitoy.

Hozirgi vaziyatning ahamiyatli tomoni shundaki, dunyoviy siyosatning faol a'zolari dunyoviy voqealarga ta'sir eta oluvchi yangi davlatlar, mintaqaviy guruhlar, xalqaro tashkilotlar va transmilliy korporatsiyalar bilan to'ldirildi. Bo'larning hammasi chegaralarning o'tkazuvchanligini ko'paytirilishi bilan birgalikda kerakli tartib va tinchlikni saqlash, bir-biri bilan qarshi harakatlanuvchi davlatlar, davlat bloklari, mintaqalar o'rtasida muvozanatni saqlashda qiyinchilik tug'diradi. Ikki bloklar ramkasida bir qutbli dunyo tartibida vertikal bir-biriga bog'liq davlatlar o'rniga gorizontal bir-biriga bog'liq davlatlar keladi. Mintaqaviy birlashmalar yakka bloklar bo'lmayapti.

Bunday xalqaro sahnada bir qancha uzoq vaqt vaziyatni aniqlaydigan sharoitda geosiyosiy kuchlarning joylashuv imkoniyatlari haqida gapirish qiyin. Bunday sharoitni kutish ham mumkin, davlatlar, mintaqalar, siyosiy-iqtisodiy yoki boshqa davlatlar bloklarining o'zaro munosabati doimiy o'zgarishlarga mo'l-yil

bo'lad. Buning natijasida ikki qutbli o'zini tutishdan tartibsiz va nazoratga berilmaydigan o'zaro o'zini tutishi qayta tug'ilib, kuchlarning ishlatilishi davlatlar va xalqlarning o'zaro munosabatlar tizimida doimiy belgi bo'lib qoladi.

Urush va qonli nizolardan ozod dunyo odamzod tafakkuridagi eng yaxshi yuksak maqsad edi. Biroq, tarixiy tajribaning ko'rsatishicha odamlar oliy baht deb hisoblashmagan. Bir xillari boshqa davlat va xalqlarning o'z hukmronligiga olishga intilishar, boshqalari harbiy shuhratini istashar, uchinchilari esa tizzada turib yashagandan ko'ra tik turib o'limni afzal ko'rishardi. Bu g'oyalar XX asrdagi Ikkinchi jahon urushidagi katta yo'qotishlarga qaramasdan bizning kunlarimizda ham yashamoqda.

Hozirgi dunyodagi davlatlarning o'zaro munosabatlarini hammaga qarshi urush deb tasavvur qilib bo'lmaydi. Zo'ravonlik yoki zo'ravonlikni qo'llash dag'dag'asi davlatlar va xalqlar ustidan uchib yuribdi deb tasavvur qilib bo'lmaydi. Lekin urush va nizolar mavjudligini tan olish shart. Hozirgi dunyoviy jamiyat o'zining tizimlarni vujudga keltiruvchi harakteri, stixalari, tuzilish tarkibi va funksiyalarini namoyish qilmoqda. Natijada o'z ta'sirini har bir davlat butun jahon jamiyati ishlariga kiritilmoqda.

Iqtisodiyotdagi yangi o'zgarishlar va shunga bog'liq siljishlar natijasida geosiyosiy masalalarning butun kompleksining tasavvurida bu milliy xavfsizlikni ta'minlashi bilan bog'liq. Oldin jahon sahnasida davlatlar hukmronlik uchun armiya va mafko'ra bilan kurashsalar, hozirda valyuta kursi va bozorning natijasiga o'tishdi. Boshqacha aytganda, "sobiq urush" vaqtida harbiy haqiqat global strategiyani aniqlar va iqtisodiy tasavvur qilsa, hozir iqtisodiy haqiqat dunyoni shakllantirmoqda. Bu o'zgarishning maqsadi o'z maydonini kengaytirmoqchi bo'lgan davlatlarning "kuchlar o'yini"dan iqtisodni rivojlantirish maqsadi qo'yilgan "yaxshilik o'yinlari"ga o'tishdir.

XX asrning 70-90-yillari dunyo shari-butun mintaqalar va davlatlar, xalqlari iqtisodiy, ekologik, siyosiy va madaniy hamkorlikning keyingi kengayishi va chuqurlashuvi davri bo'ldi. Bu esa o'z navbatida mavjud masalalarni bir milliy davlat alohida yecha olmasligini anglashishiga olib keldi. Ularning yechimi

xalqaro hamkorlik va barcha davlatlar kuchlarining birlashishini talab qiladi.

10.4. Sotsializm yemirilishining sabablari va oqibatlari.

Hozirgi kunda barcha xalqlar va davlatlar yer yuzida bo'layotgan voqealar, taraqqiyot jarayonlari bilan uzviy bog'langan sharoitda yashamoqdalar. Chunki, dunyoning u yoki bu mintaqasida bo'layotgan keskinlik albatta, qo'shni mintaqalarda ham o'z ta'sirini ko'rsatishi tabiiydir. O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 2000-yil sentabrda BMT Bosh Assambleyasida so'zlagan nutqini eslash joizdir. *“Kimki qandaydir tor xavfsizlik qobig'iga o'ralib, bu Yevropa, Amerika yoki boshqa biron mintaqaga taalluqli deya “o'zga” davlatlar muammolaridan go'yo chetda turishga intilayotgan bo'lsa, mavjud voqelikdan tamomila yiroqdir, bugun dunyo mamlakatlari bir-biri bilan uzviy bog'liq va ajralmasdir”*. Shu sababli sodir bo'lgan bunday o'zgarishlarni chuqurroq o'rganib, ularga o'z munosabatimizni bildirishimiz muhimdir. XX asrning oxirida yuz bergan buyuk voqea sifatida tarixga kirgan sotsializm tizimining yemirilishi shubhasiz tarixchilarning diqqat markazida turishi tabiiydir. Markaziy va Janubi-Sharqiy Yevropadagi sotsialistik davlatlarda shuningdek, SSSRda yuz bergan o'zgarishlar jarayonining kelib chiqish sabablari va oqibatlarini chuqur o'rganish hamda tegishli xulosalar chiqarish, amalga oshirilayotgan islohotchilik harakatlarini qiyosiy ravishda tahlil qilish nihoyatda ahamiyatlidir.

Aftidan, 1989-yil 1848-yilga o'xshab tarixda ramziy-yil bo'lib qoldi. Markaziy va Janubi-Sharqiy Yevropa ko'z o'ngimizda o'zgarib ketdi, ommaning kuchli harakatlari natijasida avtoritar tuzumlar quladi, kommunistik partiyalarning yakka hukmronligiga chek qo'yildi. Ba'zan fojiali va oldindan aytib bo'lmaydigan voqealar sodir bo'ldi.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, sobiq sovet kishilarining aksariyati uchun voqealarning bunday burilish olishi kutilmagan hol bo'ldi va deyarli esankiratuvchi ta'sir ko'rsatdi. Buni shunday tushuntirsa bo'ladi: Markaziy va Janubi-Sharqiy Yevropa davlatlarida va SSSRda keyingi yillarda yuz bergan real ichki jarayonlar, aytish mumkin, Vengriya va Polshani istisno qilganda, ular

o'rtasidagi o'zaro munosabatlar va hamkorlikning murakkab muammolari sovet ommaviy axborot vositalarida aynan mushohada qilinmadi hamda yoritilmadi. Ular o'tmishning ayanchli an'alariga mahliyo bo'lib, odatda bu mamlakatlardagi ishlarning haqiqiy ahvolini ancha bo'yab tasvirladilar, bunda yaqinda hokimiyatdan chetlashtirilgan doiralarning rasmiy nuqtai nazarini ifodaladilar. Shu bilan bir vaqtda u yerda sotsial keskinlik ko'chaya bordi, oxiri 1989-yilning oxirida bo'ronga aylandi va totalitar hamda avtoritar boshqaruv rejimlariga chek qo'yildi.

Markaziy va Janubi-Sharqiy Yevropadagi, shuningdek, SSSRdagi muhim o'zgarishlar jarayoni kontinentdagi muqitni tubdan o'zgartirib yubordi. Sovuq munosabatlar urushiga chek qo'yilib, G'arb bilan Sharq o'rtasida ishonch ruhi vujudga keldi, German davlatlarining birlashish jarayonini tezlashtirdi, mustaqil davlatlarning tashkil topishiga zamin tayyorladi.

Avvalo shuni aytib o'tish kerakki, sobiq sotsialistik mamlakatlardagi o'zgarishlar jarayoni jamiyatdagi inqirozlar oqibatida, xalqlarning uzoq yillar davomida yetilib kelgan pinhoni noroziliklari natijasida yuzaga keldi. Demak, XX asr 40-yillar oxirida "sotsialistik" inqiloblar g'alaba qilgan va forma jihatidan sotsialistik tuzum o'rnatilgan davlatlarda ommaning antiavtoritar va antitotalitar chiqishlari bu tizimning taqidirini hal qildi. Bunday o'zgarishlar Ruminiyadan tashqari boshqa sotsialistik davlatlarda qon to'kishlarsiz amalga oshirildi.

Demak, sotsialistik davlatlardagi o'zgarishlar jarayoni birdaniga yuzaga kelgan yo'q, buning boshlanishini oldingi 10 yilliklardan izlamoq kerak. Bu haqda mutaxassislarning bir necha marta bahslari va munozarali tortishuvlari bo'lib o'tganligini eslash joizdir. Unda sotsialistik davlatlarda yuz berayotgan va yetilib kelayotgan inqirozli jarayonlar muhokama qilingandi, undan qutulish yo'llari qidirilgandi. Biroq olimlarning fikrlari ma'muriy-buyruqbozlik apparati rahbarlari tomonidan inobatga olinmadi. Natijada, 1989-yilning oxiridagi voqealarning shiddatli kechishi GDR, Ruminiya, Bolgariya, Chexoslovakiya, Polsha va Vengriyada mavjud bo'lgan sotsialistik tuzumni ostin-ustun qilib tashladi. Bu voqealar ushbu davlatlarda siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy inqirozlarning yuqori cho'qqisiga chiqqanligining oqibati bo'ldi. Yana shuni ta'kidlash lozimki, ushbu

jarayonlar yuz berishining asosiy sababi, Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda asosan, 1947-1948-yillarda sotsializm qurish sovetcha modelining ushbu davlatlarga aynan ko'chirilishi oqibatida bo'ldi. Jamiyatni boshqarishning Stalincha ma'muriy-buyruqbozlik usulining mahalliy va milliy xususiyatlarni hisobga olmay Markaziy va Janubi-Sharqiy Yevropadagi sotsialistik davlatlar hayotiga aynan ko'chirilishi noto'g'ri ekanligini hayotning o'zi ko'rsatdi. To'g'ri o'sha paytda sotsializm qurishning sovetcha modelidan boshqa yo'l yo'q edi, bu yo'l yagona, to'g'ri yo'l deb qabul qildirilgandi. Biroq, ushbu sovetcha yo'lni qabul qildirishda xalqlarning ko'p mingyillik milliy an'analari, urf-odatlar va qadriyatlar, mahalliy sharoitlari va milliy xususiyatlari, diniy e'tiqodi va chegaralari hisobga olinmadi.

Yevropada sotsializm yo'lga o'tgan davlatlarda mavjud sovet modelini ko'p partiyaviylik asosida milliy va mahalliy xususiyatlarga qarab o'zgartirishga urinishlar darhol bug'ib tashlandi. Sovet modelidan bo'yin tovlash, yoki siyosiy va iqtisodiy reformalar qilishga bo'lgan har qanday urinishlar darrov davlatlar o'rtasidagi kelishmovchiliklarning kelib chiqishiga sabab bo'lardi. Masalan, 1948-yildagi Yugoslaviya bilan kelishmovchilik shunday kelib chiqqan edi. O'sha vaqtda deyarlik barcha kompartiyalar VKP (b) yo'lini ma'qullab Yugoslaviya kompartiyasi faoliyatini dastlab, burjuacha millatchilikka burilishda, so'ngra fashizm tomon burilishda va keyinchalik to'g'ridan-to'g'ri Yugoslaviya xalqining milliy manfaatlariga xoinlik qilishda aybladilar.

Bu ayblashlar 1948-yil iyunda bo'lgan Kominformbyuro rezolyutsiyasida, xususan "Yugoslaviya kompartiyasidagi ahvolga doir" degan hujjatda va 1949-yil noyabrda qabul qilingan "Yugoslaviya kompartiyasi qotillar va josuslar hokimiyati tepasida" degan hujjatda o'z aksini topdi.

Jamiyatga begona bo'lgan modelning tiqishtirilishi, xalqlarning va mamlakatlarning tarixiy, milliy xususiyatlarini hisobga olmasak, uni o'tmish qadriyatlar va an'analaridan, Yevropa va dunyo mamlakatlari bilan yuritib kelgan ko'p asrlik aloqalaridan ajratib qo'yish siyosatidan noroziliklar Yugoslaviyadan tashqari boshqa mamlakatlarda ham sotsializm qurishning dastlabki-yillaridanoq

boshlangan edi. Ma'qul bo'lgan sovetcha modeldan voz kechish yoki uni isloh qilish uchun bo'lgan urinishlarni biz 1953-yilda Berlinda, 1956-yilda Polsha va Vengriyada, 1968-yilda Chexoslovakiyada, 1980-1981-yillarda Polshada yuz bergan voqealar bilan izohlaymiz. Afsuski, bunday harakatlar turli xil yo'llar bilan, jumladan: kuch ishlatish yo'li bilan, SSSRning "harbiy yordami" bilan mamlakat rahbarlarini almashtirish yo'li bilan va "revizionizmga" qarshi juda qattiq kurash olib borish yo'li bilan bostirilardi.

Markazga bo'ysunishni susaytirmaslik, imperializmga qarshi kurashda sotsializm blokining birligini saqlab qolish, yagona mafko'raviy frontning birligi uchun kurash olib borish siyosati xalqlarning va davlatlarning tarixiy va milliy qiziqishlaridan ustun qo'yildi. Masalan: Varshava Shartnomasi Mudofaa Tashkiloti a'zolaridan 5 davlatning (SSSR, GDR, Vengriya, Polsha, Bolgariya) kollektiv "internatsional" aktga birlashgan holda 1968-yil bahorda Chexoslovakiya davlati hududiga o'z qo'shinlarini kiritishlari mavjud tizimda boshlangan inqirozning oldini olib qolish uchun va kuch ishlatish yo'li bilan jahon sotsializm tizimining o'zini ham saqlab qolishga bo'lgan urinish edi.

Kommunistik harakatning zarbdor kuchlari va rahbarlari bunday holatning kelib chiqish sabablarini bilar edilar. Shuning uchun ham G'arbiy Yevropa davlatlari kompartiyalarining faol a'zolari orasida munozarali diskussiyalar ham bo'ldi, Yevropaning o'z xususiyatlarini hisobga olib, ish yuritish tarafdorlari bo'lgan "yevrokommunizm" oqimi ham vujudga keldi. Biroq, 1969-yildagi Kommunistik va ishchi partiyalari vakillarining Xalqaro kengashidan keyin bunday holatlar aniq ko'rina boshlagan bo'lsa ham, masalani kollektiv bo'lib muhokama qilishdan, inqirozli holatlarni bartaraf qilish yo'llarini izlashdan ko'pincha chetlab o'tildi. Kommunistik va ishchi partiyalari vakillarining kengashlari va uchrashuvlarida asosan "kommunistik birlik uchun", "tinchlik va qurolsizlanish uchun» kurash masalalari muhokama qilindi. "Sotsialistik hamkorlik" ideologlari asosan, o'zlarining sa'yi-harakatlarini kommunistik qurilishning "umumiy qonuniyatlari"ni ishlab chiqishga qaratdilar. Xususan, 1957-yilda bo'lgan kengashda ushbu mazmundagi bir qancha hujjatlar qabul qilindi.

Voqelikka va sotsializm qurish ishiga yangicha yondoshish harakatlari inkor qilib kelindi. yetilib kelayotgan “kasallik” sabablari o‘rganilish o‘rniga u yashirib kelindi. Shu yo‘l bilan sotsialistik hamjamiyatdagi portlash jarayonlari bir muncha orqaga surilgan edi. Bunday siyosat yuritish asosan, XX asr 60-yillari oxiri - 70-yillari boshlariga kelganida o‘zining nomaqbo‘l siyosat ekanligini ko‘rsata boshladi. Ayniqsa, qurollanish poygasini yuqori darajada olib borish orqali NATO bloki bilan Varshava Shartnomasi harbiy Tashkiloti o‘rtasidagi kuchlar muvozanatini saqlab turishga urinish o‘ta xavfli siyosat ekanligidan butun jahon tashvishga to‘sha boshladi. Bu o‘z navbatida sotsializmga ixlosi bor mamlakatlarning ham undan yuz o‘girib ketishlariga sabab bo‘ldi. To‘g‘ri, bunday holatlar tashqi siyosat yuritish borasida sotsialistik mamlakatlarni ma’lum darajada ijobiy siljishlar qilishga majbur qildi.

XX asr 70-yillari boshida Germaniya masalasini tinch yo‘l bilan hal qilishga urinish, 1970-yil 12-avgustda SSSR bilan GFR o‘rtasida davlat shartnomasining imzolanishi, 1975-yilda Xel’sinkida Umumevropa Kengashining chaqirilishi, Yevropa kontinentida xalqaro keskinlikni yumshatishga erishish va boshqalar sotsialistik “hamdo‘stlik” mamlakatlari bilan kapitalistik mamlakatlar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarni bir muncha yumshatganday bo‘ldi. Biroq, sotsialistik «hamdo‘stlik» mamlakatlari iqtisodiy hayotidagi ilgarigi boshqarish usuli va markazdan qochuvchi kuchga qarshi kurash yo‘li saqlanib qolaverdi-ki, bu o‘z navbatida sotsialistik “hamdo‘stlik” mamlakatlari xalq xo‘jaligining jahon mamlakatlari xalq xo‘jaligida bo‘layotgan buyuk o‘zgarishlardan orqada qolib, ilmiy-texnika inqilobi talablariga javob berolmay qolishiga olib keldi. Masalan: GDRni olaylik, u yerga xalq xo‘jaligini yuritishning sovetcha modeli aynan ko‘chirilgandan keyin, urushdan oldin va urush-yillarida GFR xalq xo‘jaligi bilan bir xil darajada turgan GDR xalq xo‘jaligi sotsializm qurilishi-yillarida butunlay orqada qolib ketdi. 1989-yilga kelganda GDRdagi mehnat unumdorligi GFRdagidan 40 foiz past bo‘ldi.

So‘z bilan qurilayotgan sotsializm va kommunizm bilan amaldagi sotsializm o‘rtasidagi jarlik tobora chuqurlashib bordi. Shuni aytib o‘tish kerakki, SSSR da

ham va sotsialistik hamdo'stlik mamlakatlarining birontasida ham o'tgan-yillar mobaynida xalq ommasining turmush farovonligini ta'minlagan va ta'minlay oladigan, rivojlangan kapitalistik mamlakatlar xalq xo'jaligiga yaqin bo'lgan mustahkam xalq xo'jaligi tizimi yaratilmadi. Sotsialistik xalq xo'jaligidagi inqirozli holat-yildan-yilga chuqurlashib bordi, ishlab chiqarish va milliy daromad ko'rsatkichlari pasayib bordi. Inflyatsiya ko'chayib, davlatlarning tashqi qarzi oshib bordi.

Qaror topgan sotsialistik jamiyat demokratiyaning eng oliy formasi sifatida atalsada, ammo qog'ozdagi deklaratsiya demokratiyasi haqiqiy hayotiy demokratik jamiyatdan juda yiroqda turar edi. Inson huquqlari masalasining eng oddiy elementlariga ham z'tibor berilmadi. SSSRdagi kabi hamdo'stlik va Yevropadagi sotsialistik mamlakatlarda ham sotsialistik jamiyat nuqsonlarini, kompartiyalar siyosatidagi xatolarni tanqid qilish, kamchiliklarni ochib tashlash uchun urinish sotsializmga dushmanlik sifatida baholandi va tegishli jazo choralari qurildi.

Sotsialistik jamiyatning xato va kamchiliklardan xoli bo'lgan jamiyat sifatida baholanishi va siyosat yuritilishi, xalq ommasi keng tabaqalarining fikri bilan hisoblashmaslik, amalda ularni jamiyatni boshqarish ishlaridan chetlashtirib, faqat topshiriqlar va buyruqlarni bajaruvchi passiv ijrochilarga aylantirib qo'yish, fikrlash, novatorlik va kashfiyotlar qilish huquqidan mahrum qilib qo'yish va hokazolar ma'muriy-buyruqbozlik usulida ish yuritayotgan kompartiyalar rahbarlariga nisbatan norozilikni ko'chaytirib bordi.

SSSR hamda Markaziy va Janubi-Sharqiy Yevropadagi sotsialistik davlatlarning ichki ahvolini keskinlashtirgan, demokratiya mavjud bo'lmagan vaziyatda siyosiy-mafko'raviy nostabillik uchun shart-sharoit yaratgan boshqa muhim omillar ham bor edi. Avtoritar rejimlar jamiyatni demokratik asosda qurish bilan muvofiq kelmas edi. Xalq manfaatlari, uning xohish-istaklari hukmron doiralar uchun hech narsa emas edi.

Fikrlar xilma-xilligi isyonkorlik deb hisoblanar va ta'qib qilinardi. Zero, har qanday boshqacha fikrlashning oldini olish uchun repressiya mashinasi doimo tayyor turardi. "Dissidentlar" deb atalmish kishilar, ko'pincha shunday nom

olgan taniqli yozuvchilar, masalan Chexoslovakiyaning o'zgarishlar jarayonidan keyingi Prezidenti V.Gavel kabilar, shuningdek, madaniyat arboblari, olimlar qamoq va sudlarga duchor qilinardi yoki mamlakatdan surgun qilinardi. GDR aholisining 1989-yilning ikkinchi yarmida mamlakatdan GFR tomon ommaviy ravishda o'tib ketishga urinishlari, birinchi navbatda iqtisodiy sabablar bilan emas, balki siyosiy erkinliklar yo'qligi bilan bog'liq ekanligini o'tkazilgan sotsiologik so'rovlar ko'rsatdi. Mintaqa mamlakatlarida qonunchilikni buzishlar, poraxo'rlik, xazina o'g'irligi keng yoyildi. E.Xonekker va GBSPning boshqa rahbarlari yashagan uylarning aql bovar qilmaydigan darajada jihozlanishini GDR televideniya orqali xalqqa ko'rsatganda, bu narsa portlagan bomba singari taassurot qoldirdi. Yoki boshqa bir misol, T.Jivkovning davlat hisobidan shahar tashqarisida 40 dan ortiq qarorgoh, dala hovli va ovchilik uylari qurishi, ov qilish uchun maxsus qo'riqxonalarining tashkil qilinishi, yoki bo'lmasa, N.Chaushesku cho'miladigan vannaning jumragi oltindan, Chaushesku cho'miladigan vannaning jumragi kumushdan qilinishi, xullas bo'larning hammasi sotsialistik mamlakatlar rahbarlarining barchasiga tekkan kasal bo'lib, umumdavlat manfaatlariga zid va yot bo'lgan hatti-harakatlar edi. Bo'lar "real sotsializm" ga putur yetkazgan va uning inqirozga yuz tutishiga o'z hissasini qo'shgan omillardan bo'lib hisoblanardi.

Yevropadagi sobiq sotsialistik davlatlarning barchasi hokimiyat qo'lidan tortib olinib, hukmronlik mavqeyini yo'qotgan kompartiyalarning takdiri ayanchli kechgan paytda bitta savol tug'ildi: ushbu partiyalarning dohiylari, ideologlari va nazariyotchilari partiya va hukumat faoliyatidagi halokatga olib boruvchi xatolarni nahotki ko'rmagan bo'lsa? Albatta, ularni ko'rmadi yoki sezmedi deb ayta olmaymiz, ular nimalarnidir hayotga qo'llab ko'rgandek bo'lishdi. Xalq xo'jaligini boshqarishda dunyo tajribasidan foydalanayotgan ham bo'lishdi, yangi-yangi partiya dasturlari, uzoq muddatli istiqbolli rejalarni ham qabul qilishdi, ushbu dasturlarda sotsializm juda katta yutuqlarga erishayotgan jamiyat qilib ta'riflandi. Mavjud sotsializmni qanday sotsializm deb atash kerakligi to'g'risida ko'pgina munozara va diskusiyalar bo'ldi. Uni rivojlangan sotsializmni, rivojlanayotgan

sotsializmi, o'tish davrida turgan sotsializmi yoki umuman va uzil kesil g'alaba qilgan sotsializmi deb atash kerakligi to'g'risidagi tortishuvlar bo'ldi. Sotsializm afzalliklarini ilmiy-texnika inqilobi yutuqlari bilan bog'lab olib borish kerakligi to'g'risida bilag'onliklar qilishdi. Biroq bo'larning hammasi kosmetika laboratoriyasi chegarasida qolib ketdi, amaliyotda qo'llanmadi.

Savol tug'iladi, Yevropadagi sotsialistik mamlakatlarda hukmronlik mavqeini yo'qotib, tarqatib yuborilgan va rahbarlari jinoiy javobgarlikka tortilgan kompartiyalarda islohotlar qilish mumkinmidi, shu partiyalar o'z siyosatlarida ijobiy, xalqchil bo'lgan qayta qurish va yangilanishlarni amalga oshirib, o'z hukmronliklarini saqlab qolishlari mumkinmidi? Shuni aytib o'tish kerakki, har bir narsani o'z vaqtida qilmasa, yoki vaqtdan kechiqtiribroq qilsa og'ir oqibatlariga olib kelishi turgan gap. Masalan: 1985-yilda SSSRda boshlangan qayta qurishni KPSS rahbariyati boshladi. Lekin bu qayta qurish juda kech boshlanganligi uchun, shu qayta qurishni boshlab bergan shaxs ham, uning partiyasi ham hokimiyatda qololmadi.

Agar Chexoslovakiyani oladigan bo'lsak, mamlakatda reformani 1968-yil bahorda boshlash kerak edi, chunki ChKP faoliyatini ommaning katta qismi qo'llab-quvvatlagan edi. ChKP shunday yo'l to'tganda omma orasida o'z obro'sini saqlab qolgan bo'lardi. Partiya rahbarlarining almashtirilishi bilan bu reformaning yo'li to'sib qo'yildi va ChKPning omma orasida obro'sining tushib ketishiga olib keldi.

“Praga bahori” mobaynida olg'a surilgan, ko'p yillar davomida qattiq tanqid qilinib, “turg'unlik” ideologlari tomonidan sotsial-reformizm ramzi deb e'lon qilingan “demokratik sotsializm” davlatini bunyod etish g'oyasi hozirda butunlay boshqacha qabul qilinayotganligini tushunib olish qiyin emas. Yangi ijtimoiy tuzum o'z qiyofasini mehnatkashlar ommasi sari burmasa, bunday tuzumning umri qisqaligini hayotning o'zi ko'rsatdi.

Bizning nazarimizda, 1989-yil 4-dekabrda SSSR va uning ittifoqchilari tomonidan qoralangan, Varshava Shartnomasi Harbiy Tashkiloti qo'shinlarining 1968-yil Chexoslovakiyaga kiritilishi bilan Yevropadagi sotsialistik mamlakatlarda

ma'uriy-buyruqbozlik tizimining metindek mustahkamligini qaror toptirishga da'vat etilgan edi. Sotsializmning "oliy maqsadlari» bilan oqlanuvchi bu narsa teskari natija keltirdi - uning nufuziga jiddiy va halokatli zarba berdiki, yigirmayildan so'ng sodir bo'lgan "Praga kuzi", go'yo "Praga bahori"dan estafetani qabul qilib olayotganday bo'ldi. Uning rahbarlaridan biri A. Dubchek yana siyosiy sahnada paydo bo'lib, milliy majlisning raisi bo'ldi.

GDRning ba'zi bir sobik, rahbarlarining fikricha, respublikada o'zgarishlar jarayonini 1983-1984-yillarda boshlash bilan mamlakatdagi normal holatni saqlab qolish mumkin edi. Bunday bo'lmagailigining sababi, Sharqiy Yevropadagi sotsialistik davlatlarning rahbarlari mavjud vaziyatga to'g'ri baho bera olmadilar, tarixiy jarayonlar pallasi yetilib kelganligini va zo'rvonlik siyosati bilan eski boshqarish tizimini saqlab qolish mumkin emasligini anglab yetmadilar. Tarix o'z ishini qildi, rahbarlarning ba'zi birlarining taqdiri fojiali kechdi, ba'zi birlariniki qamoq va ta'qib ostida bo'ldi. Natijada sotsialistik jamiyat qurish uchun qilingan 40-yillik urinishlar ostin-ustun bo'lib ketdi. Shunisi harakterliki, qabul qilingan barcha deklaratsiya va konstitutsiyalarga, hujjatlar va dasturlarga qaramay Yevropadagi sotsialistik davlatlarda to'laqonli insonparvar jamiyat qurilmagan edi. Ushbu mamlakatlarda 60-yillarning oxirlarida sotsializm asoslarini qurish to'g'risida gap borsa-da, biroq keyingi-yillarda sotsializm qurish yo'lidagi harakatlar qiyinchiliklar bilan siljidi, amalda turg'unlik hukm surdi.

Hozirda Yevropa mamlakatlarida yuz bergan voqealar SSSRdagi qayta qurishning bevosita oqibatidir, deyuvchi keng tarqalgan fikrni tez-tez eshitish mumkin. Jilovlar yechildi, oqibatda shunday bo'ldi deyuvchilar qattiq adashadi. Albatta, SSSRdagi qayta qurish, "Brejnev doktrinasidan" voz kechish Yevropa regionidagi inqilobiy jarayonlarga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Aniqrog'i ularni tezlashtirdi. Biroq biz ko'rsatayotgan ibratomuz o'zgarishlarning chuqur ichki harakterga ega ekanligini hamda stalincha va yangi stalincha tipdagi ijtimoiy tizimning inqirozi bilan chambarchas bog'liqligini unutmaslik kerak.

Sotsializmning buyruqbozlik - byurokratik modeli Yevropadagi sotsialistik mamlakatlarda ijtimoiy manfaatlarida bir necha marotaba to'qnash kelganligini

yuqorida aytib o‘tdik. 1956-yilda Vengriya voqeasining bostirilishini vengerlar hozirgi paytda kattagina miqyosdagi islohotlarni amalga oshirishga halaqit bergan “milliy fojia” deb hisoblamodalar.

SSSR da boshlangan qayta qurishni demokratik qayta qurishlarni amalga oshirishga to‘siq bo‘lib kelgan g‘ovning olib tashlanishi deb baholashimiz mumkin.

Xo‘sh, g‘ov olib tashlanibdi, unda nima uchun Yevropadagi sotsialistik davlatlarda o‘zgarishlar jarayoni 1985-yildan boshlanmadi? Buni shunday izohlash mumkin: SSSRda boshlangan qayta qurishning dastlabki-yillaridagi qiyinchiliklar bilan, shuningdek, 1956, 1968, 1980-1981-yillardagi tarixiy jarayonlarning achchiq, saboqlari Yevropadagi sotsialistik davlatlarni birmuncha o‘ylantirib qo‘ydi. Ular agar o‘zgarishlar jarayonini boshlasak boshimizga yana og‘ir kulfatlar tushmasmikan degan xadiksirash va qurquv bilan kutib turdilar. Buning ustiga 1981-yilda boshlangan Polshadagi tarixiy jarayonning inqirozli holatda cho‘zilib ketishi, eski hokimiyatni saqlab qolish uchun hamma vositalar ishga solinib 1981-yil dekabrda harbiy holatning e‘lon qilinishi ham qo‘shni sotsialistik davlatlarni birmuncha o‘ylantirib qo‘ygan edi.

1986-yil noyabrda Moskvada sotsialistik davlatlar rahbarlarining uchrashuvida SSSR rahbari bundan buyon SSSR Yevropadagi sotsialistik davlatlarga nisbatan o‘z hukmini o‘tkazishdan voz kechganligini, ularning ichki ishlariga bundan buyon aralashmasligini ma‘lum qildi. Shunda ham ular bu aldov emasmikan degan o‘yda kutib turishdi. Nihoyat, 1989-yil 15-fevralda Sovet qo‘shinlarning Afg‘onistondan olib chiqilishi va shu mamlakatga qo‘shin kiritishning xato bo‘lganligini sovet hukumati tomonidan tan olinishi, 1956-yilda Vengriyaga, 1968-yilda Chexoslovakiyaga qo‘shinlar kiritilishining ham bu davlatlarning ichki ishlariga zo‘rluk bilan aralashish deb baholanishi va mazkur ishlar uchun bu davlatlardan kechirim so‘ralishi sotsialistik hamdo‘stlik mamlakatlaridagi hadiksirashlarga chek qo‘ydi.

Shundan keyin o‘zgarishlar jarayoni shiddatli kechdi. SSSRning aralashmaslik pozitsiyasida turishi bir-biriga qarshi turuvchi kuchlarning birini

afsuslantirsa, ikkinchisini kurashga otlantiradi. Natijada, Chexoslovakiya, Bolgariya, GDR, Polsha, Vengriya va Ruminiya davlatlarida xalq ommasining shiddatli chiqishlari byurokratik boshqarish tizimining to'g'onini qo'porib tashladi. Ruminiyada ahvol yanada fojiali kechdi, Yugoslaviyada kurashlar shu darajada keskinlashib ketdiki, uning parchalanib ketishi yetmaganday qirg'inbarot fuqarolar urushi uzoq-yillarga cho'zildi.

SSSRda va Sharqiy Yevropadagi sotsialistik davlatlarda bo'lgan o'zgarishlar jarayoni Sharq va G'arb tarixchilari orasida ham, davlat arboblari orasida ham "Sotsializm va kommunizmning tarixiy taqdiri halokatli tugadi" degan xulosani tug'dirdi. Masalan: AQShning sobiq davlat arboblardan biri Z.Bjezinskiy o'zining "Buyuk ag'darilish, XX asrda kommunizmning tug'ilishi va o'lishi" degan kitobida: - "Kommunizm bugun mafko'raviy jihatdan ham, sifat jihatdan ham umumiy inqiroz holatidadir" - deb yozgan edi. Professor Z.Bjezinskiy SSSRga alohida e'tibor berib: "XX asrning 20-yillarida dunyo davlatlari SSSRdagi kommunistik qurilish tajribasini biron-bir natija beradi deb ko'tgandilar. Bu taxmin ayniqsa Ikkinchi jahon urushidan keyin 60-yillargacha ishonch qozonib kelajak taqdiri kommunizm bilan bog'liq bo'ladi deyishga asos bo'lgan edi. Biroq keying yillarda SSSR kishilarni va davlatlarni o'ziga jalb qilmaydigan, xalq xo'jaligi turg'unlikka yuz to'tgan davlatga aylanib qoldiki, bu kommunistik jamiyatning kelajagi yo'qligini ko'rsatadi", - degan edi.

Sharqiy Yevropadagi sotsialistik davlatlarda yuz bergan o'zgarishlar jarayoni tarixga zo'ravonlik hukmini o'tkazishga urinishning yaroqsizligini, kuch ishlatish va gegemonlik yo'li bilan siyosat yuritishning og'ir oqibatlar bilan tutashligini ko'rsatdi. Ko'pgina partiyalar va siyosiy kuchlar shunday yo'l tutishlari oqibatida tarix maydonidan mag'lub bo'lib chiqib ketdilar.

Biroq, shuni aytish lozimki, jamiyatning mazmunini va partiyalarning yaxshi yoki yomonligini ularning qanday nom bilan atalishi belgilamaydi, aksincha, amalga oshirilgan ishlarning ko'lami va xalqparvarligi belgilaydi. Shu nuqtai nazardan oladigan bo'lsak, jamiyatning sotsializm deb siyosiy yetakchi kuchlarning kompartiyalar deb nomlanishini qoralash unchalik to'g'ri emas. Faqat

shunisi achinarliki, o'zlarini xalq manfaati uchun xizmat qiluvchi, uning dardi va g'ami bilan yonuvchi kishilar qilib ko'rsatgan rahbar kommunistlarga aybdordirlar. Kommunistik partiya ham sotsializm jamiyati ham shuning uchun kishilar nazarida yomon ko'rinib qoldiki, yuqoridagi chinovnik-byurokratlar barcha qilg' iliklarini sotsializm va kommunistik partiya nomidan qildilar.

Yevropadagi sobiq sotsialistik davlatlarda bo'lgan o'zgarishlar jarayonidan keyin ko'plab partiyalar siyosiy maydonga keldi. Bo'lib o'tgan demokratik parlament saylovlarida ular ishtirok etsalarda, bu partiyalarning qaysilari qancha vaqt yashab turishi mumkiiligi to'g'risida biron narsa deyish qiyin bo'ldi. Parlament saylovlaridan keyin hokimiyatga o'ng sentristlar bloki chiqib oldi, ba'zi bir mamlakatlarda hal qiluvchi rolni sinfiy partiyalar emas, balki yangidan tuzilgan Polshadagi "Birdamlik" formasidagi xalq harakatlari o'ynadilar. Xususan, Slovakiyada "Zo'ravonlikka qarshi jamoatchilik harakati", Bolgariyada "Demokratik kuchlar ittifoqi" va hokazo. Bir qancha hukmron partiyalar Polsha BIPni hisobga olmaganda, jumladan VSIP, GBSP, RKP, YUKP va ChKP qayta qurishning dastlabki davridayoq o'z faoliyatlarini to'xtatdilar.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, 1989-yildan boshlangan o'zgarishlar jarayoni forma jihatidan Yevropa qit'asida "orqaga qaytish" protsessini boshlab berdi. Varshava Shartnomasi mudofaa tashkiloti o'z faoliyatini to'xtatdi. O'zaro Iqtisodiy Yordam Kengashi tugab ketdi, GDR GFR bilan qo'shilib, yagona Germaniya davlati tashkil topdi. Chexoslovakiya Chexiya va Slovakiya davlatlariga, Yugoslaviya bir qancha mustaqil davlatlarga bo'linib ketdi. SSSR qurolli kuchlari Markaziy va Janubi-Sharqiy Yevropa davlatlaridan olib chiqib ketildi. Rossiyaning so'nggi qo'shinlari ham Germaniya davlati hududidan 1994-yilning oxirida olib chiqib ketildi.

Markaziy va Janubi-Sharqiy Yevropadagi sobiq sotsialistik davlatlarda ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda nishonlanib kelingan bayram kunlari ham o'zgartirildi. Masalan; Bolgariyada 9-sentyabr (1944-yil, frontining tuzilishi) kuni o'rniga 3-mart - (1878-yil, San Stefano bitimi imzolanishi) kuni; Ruminiyada 23-avgust (1944-yil, Antonesku diktaturasining ag'darilgan) kuni o'rniga 1-dekabr

- (1918-yil, Ruminiyaga Transilvaniyaning qo‘shilgan) kuni; Chexoslovakiyada 9-may (1945-yil, Chexoslovakiyaning ozod qilingan) kuni o‘rniga 28-oktabr (1918-yil, Chexoslovakiyaning mustaqilligi e‘lon qilingan) kuni; Polshada 22-iyul (1944-yil, Polsha millatini ozod qilish komiteti e‘lon qilingan) kuni o‘rniga 11-noyabr (1918-yil, Polshaning mustaqilligi e‘lon qilingan) kuni; Vengriyada 4-aprel (1945-yil, fashizmdan ozod qilingan) kun o‘rniga 23-oktabr (1956-yil, Budapesht qo‘zg‘oloni boshlangan) kuni milliy bayram kunlari sifatida nishonlanadigan bo‘ldi.

Bu mamlakatlarda ikkinchi jahon urushi yillari tarixi va undan keyingi o‘tgan-yillar tarixi qayta yozildi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. “Amerika asri” tushunchasi haqida nimalami bilasiz?
2. “Maastrix bitimi”ning asosiy maqsadi nimalardan iborat?
3. “Sovuq urush”: boshlanishi, sabablari va oqibatlarini ayting?
4. “Kommunizm bugun mafko‘raviy jihatdan ham, sifat jihatdan ham umumiy inqiroz holatidadir” jumlasini kim tomonidan aytilgan?
5. AQSh va Vyetnam o‘rtasidagi urush sabablari va oqibatlari haqida ma’lumot bering?
6. “Praga bahori” ni mohiyatini tushuntirib bering.
7. Iroq va AQSh o‘rtasidagi urush sabablari va oqibatlarini ayting?
8. “Afg‘on urushi” va uning oqibatlari haqida ma’lumotlar bering?
9. Germaniyaning birlashuvi va SSSR ning parchalanishi sabablarini ayting?

11-MAVZU. YAQIN SHARQDAGI SIYOSIY INQIROZ: KELIB CHIQUISHI, ASOSIY BOSQICHLARI VA HOZIRGI AHVOL

Reja:

- 11.1. *Falastin muammosi;*
- 11.2. *Isroil davlatining tashkil topishi va 1948-1949 yillardagi Falastin urushi;*
- 11.3. *Misr inqilobi. Yaqin Sharq mintaqasida siyosiy vaziyatning keskinlashuv;*
- 11.4. *Suvaysh inqirozi. Misrga qarshi Angliya, Fransiya va Isroilning agressiyasi va uning siyosiy oqibati;*
- 11.5. *Falastin Ozodlik Tashkiloti (FOT)ning tashkil topishi;*
- 11.6. *«Olti kunlik urush» kelib chiqishi va undan keyingi Yaqin Sharqdagi siyosiy vaziyat;*
- 11.7. *Yaqin Sharq mintaqasi atrofida siyosiy vaziyat (XX asrning 60-yillari oxiri – 70-yillari boshi);*
- 11.8. *Anvar Saodat: ichki va tashqi siyosatdagi o'zgarishlar (1970-1976);*
- 11.9. *Livan va Yaqin Sharqdagi siyosiy inqiroz;*
- 11.10. *KEMP – Devid shartnomasi. Arablararo munosabatlar .*

Tayanch tushunchalar: *Angliyaning Falastin masalasi bo'yicha qo'llagan siyosati. Lord Pil komissiyasi. «Makdonald memorandumumi». «Trumen rejasi». BMT Bosh Assambleyasining II sessiyasi va Falastin masalasi (1947). 1947-yil 29 noyabrdagi BMT Bosh Assambleyasining №181 qarori. Isroil davlatining tashkil topishi va 1948-1949 yillar Falastin urushi. Misr inqilobi. Bag'dod pakti. 1956- yildagi Misrga qarshi «uchlar agressiyasi». «Eyzenxauer doktrinasi». Birlashgan Arab Respublikasining tashkil topishi. 1967 yildagi Isroilning agressiyasi arafasida Falastin muammosi. «Olti kunlik urush» va uning siyosiy oqibatlari. A.Saadatning tashqi siyosati. 1973 yildagi to'rtinchi arab-isroil urushi. Falastin Ozodlik Tashkilotining dunyo hamjamiyati tomonidan tan olinishi (1974) va F.O.T.ga BMTdagi nazoratchi maqomining berilishi. KEMP-Devid bitimi. Arab davlatlarining «mo'tadillar» va «murosasizlar»ga parchalanishi. «Sahrodagi bo'ron» operatsiyasi. F.O.T.*

va Isroil o'rtasidagi «tamoyillar deklarasiyasi»ning imzolanishi (1993). Falastin muxtoriyatining tashkil topishi (1994). Yo.Arafat. M.Abbos.

11.1. Falastin muammosi

Falastin muammosi xalqaro hayotning keskin masalalaridan biri bo'lib qoldi. Uning keskinligi mandat tizimi davradagi turli kuchlarning o'zaro kurashi bilan bog'liq bo'lganligidir albatta. 1920-yildan boshlab Falastin zamini Buyuk Britaniyaning mandatli hududi. Umuman olganda Angliya mustamlakachi ma'muriyatining jahon urushlari orasidagi siyosati, arab xalqi va sionistlar o'rtasidagi munosabatlarni o'ta keskinlashtirdi. Muammoning murakkab tomoni yana shunda ediki, yahudiylarning immigrasiyasi (ko'chib kelishi) yildan-yilga o'sib boraverdi. XX asrning 20-yillarning oxirida arablar ommasining Britaniya ma'muriyati va yahudiylar kolonizasiyasiga qarshi chiqishlari qurolli qo'zg'olon darajasiga ko'tarildi. 1929, 1930-1933-yillardagi Falastin arablarining qurolli qo'zg'olonlari o'ta shiddatli bo'lgan. Harbiy kuch yordamida va berilgan va'dalar orqali (qonun chiqaruvchi majlisni joriy etish, demokratik erkinliklarni kengaytirish, yahudiylar immigrasiyasini cheklash) Britaniya hokimiyati falastinliklarning qurolli qo'zg'olonlarini bostirishga muvaffaq bo'ldilar.

1936-1939 yillarda ham mustamlakachi ma'muriyatga qarshi navbatdagi qurolli qo'zg'olon Falastin jamiyatida ko'chayib borayotgan keskinlikni yana bir karra namoyon etdi. Falastin arablari, Falastin zaminida milliy davlat barpo etish yo'lida ommaviy kurashga otladi. London sarosimaga tushib qoldi. Vaziyatni o'rganish maqsadida Falastinda lord Pil boshchiligida qirol komissiyasi 1939-yilning oxirida ish yuritgan edi. Komissiya mandat tizimining zaifligini ta'kidlashga majbur bo'lgan. Mandat tizimi bekor qilinadigan bo'lsa, uning o'rnida xalqaro maqomga ega bo'lgan bir qancha hududlar tashkil topishi maqsadga muvofiq bo'lardi, deb xulosa chiqargan Pil komissiyasi.

Pil komissiyasi bergan bu taklif Falastin arablarini qayta qurolli chiqishlarga undadi. Sionistlarni ham Pil komissiyasi ilgari surgan taklif aslo qondirmagan, chunki ular Falastin o'lkasida yahudiy davlati barpo etish maqsadida

edilar. 1939-yilning fevral oyida Angliya hukumati «doira stoli» konferensiyasini chaqirdi.

Konferensiyada Falastin arablarining turli siyosiy partiyalarning yetakchilari Misr, Iroq, Saudiya Arabistoni, Yaman, Transiordaniya va Yahudiy agentligining vakillari ishtirok etdilar. Falastin hududida uzog‘i bilan 10 yil mobaynida yagona arab-yahudiy davlati barpo etish rejasini taqdim etdi. Ushbu rejada yahudiylarning immigrasiyasini qisqartirish ularga yerni sotib olishda cheklovchi choralarni joriy etish nazarda tutilgan. Lekin bu taklifni ham tomonlar, ya’ni arablar va yahudiylar rad etishlari muqarrar edi, chunki ularning pozisiyalari keskin qarama-qarshilikni aks etardi. «Doira stoli» konferensiyasi natijasiz tugaganidan keyin Angliya hukumati «Oq kitob» yoki «Makdonald memorandum» deb atalmish hujjatda yana bir rejasini keltiradi. Unga muvofiq yahudiy agentligiga 5 yil davomida yahudiylarning cheklangan soni Falastinga ko‘chib keltirish huquqi berildi. Ushbu muddat o‘tganidan so‘ng yahudiylarning keyingi immigrasiyasi qayta muhokama qilinishi kerak bo‘lgan. Ammo inglizlarning bu rejasi ham arablar va yahudiylar tomonidan qat’iyan rad etildi. Shu bilan birga sionistlar katta moliya-iqtisodiy, harbiy-siyosiy va tashkiliy imkoniyatlarga ega bo‘lgan holda Falastin hududida yahudiylar davlati barpo etish yo‘liga kirishadi.

1942-yil may oyida «Biltmor» mehmonxonasida (Nyu-York) sionistlarning navbatdan tashqari konferensiyasi dastur qabul qildi. Unda «Falastinning eshiklari yahudiy immigrantlari uchun ochiq immigrasiyaning amalga oshirilishi nazorati yahudiy agentligiga yuklatiladi. Agentlik o‘lkadagi yerlarni o‘zlashtirish huquqiga ega bo‘ladi. Falastin yahudiylar hamdo‘stligiga va yangi demokratik jahonning qismiga aylanishi kerak» degan fikrlar qayd qilingan. 1945-yil mayida yahudiy agentligi o‘zining talablarini, Britaniya ma’muriyatiga, quyidagicha bildirgan: «1) Falastinda yagona va bo‘linmas yahudiy davlatini barpo etish to‘g‘risidagi qarorga kelishni; 2) immigrasiyani amalga oshirish nazorati yahudiy agentligi qo‘liga topshirishni; 3) dastlabki bir million nafar immigrantlarni joylashtirish uchun xalqaro kredit (qarz) ajratishni».

Falastin arablari o'zining milliy davdatini qurish jarayonida ichki nizov a qiyinchiliklarga ham duch keldi. 30-yillarda Transiordaniya amiri Abdulloh «Buyuk Suriya» birlashgan arab davlatini barpo etish tashabbusi bilan chiqqan edi. «Buyuk Suriya» davlati Suriya, Livan, Transiordaniya va Falastinning ma'lum qismidan iborat bo'lib, uning taxtida Transiordaniya amiri bo'lmog'i lozim edi.

Shu o'rinda savollar tug'ilishi mumkin. Kimga kerak sun'iy davlatning tashkil topishi? Kimning manfaatini ko'zlagan amir Abdullohning tashabbusi? O'zo'zidan ko'rinib turibdi-ki, Iordaniyadagi Xoshimiylar xonadoni «Buyuk Suriya» birlashgan monarxiyasida hukmron sulolaga aylanishi, butun arab dunyosida ularga yetakchilikni ta'minlagan bo'lar edi. «Buyuk Suriya» davlatining vujudga kelishi, sionistlarning Falastinda yahudiy davlatini barpo etish rejalariga zarba bo'ladi degan fikrning ham muallifi amir Abdulloh bo'lgan. Ammo ushbu rejaning bitta kamchiligi shu bo'lgan-ki, unda Falastin arablarining xohish va irodasi, ya'ni mustaqil davlatning sohibi bo'lish istaklari inkor etilardi.

1943-yilda arab mamlakatlarida Arab Davlatlari Ligasi barpo etish to'g'risida gap borganda Iroq bosh vaziri Nuri Said arablar birligini erishish rejasini taqdim etgan edi. Tarixda bu reja «Saodatli yarim oy» nomi bilan ma'lum bo'ldi.

Nuri Said rejasi Xoshimiylar sulolasining manfaatini ko'zlab, Abdullohning «Buyuk Suriya»sini qo'llagan va qolaversa yanada rivojlantirgan. Iroq bosh vazirining taklifiga muvofiq barpo etiladigan Arab davlatlari ittifoqi tarkibida «Buyuk Suriya» (Suriya, Livan, Transiordaniya va Falastinning bir qismi) va Iroq arab ittifoqi tarkibiga boshqa arab davlatlari kirishi mumkin bo'lgan. Bunday ittifoqda Iroq Xoshimiylari yetakchi rolni o'ynab arab dunyosida ustunlikni o'z qo'llariga olishi muqarrar edi. Ammo yuqorida ko'rsatilgan rejalar amalga oshmadi. Misr, Saudiya Arabistoni, Livan, Suriya va Iroqda qirol Abdulloh va Nuri Said tuzgan rejalariga qarshilik ko'rsatgan kuchlar o'z ustunligini namoyon etdi.

«Buyuk Suriya» va «Saodatli yarim oy» rejalarida Falastin arablarining taqdiriga befarq qaralgan, ularning mustaqil, erkin davlat tuzim yo'lidagi talabi va

kurashi inkor etilgan. 30-yillarning ikkinchi yarmida Falastin zaminida kurashning ko'chayishi, bu yerdagi siyosiy partiyalarining faollashuvi 1936-yilda Oliy arab qo'mitasi deb atalmish tashkilotning paydo bo'lishiga sabab bo'lib qoldi. Falastinning 6 (olti) siyosiy partiyasi Oliy arab qo'mitasining tarkibiga kirdi. Bu davrda qo'mitaning asosiy shiori sionistlar kolonizasiyasiga qarshilik ko'rsatish va Falastinning mustaqilligini qo'lga kiritish kabi chaqiriqlardan iborat bo'lgan. Oliy arab qo'mitasi mandat tizimini yo'q qilinishini talab qilishi bilan 1937 - yilda qonundan tashqari deb e'lon qilindi, uning rahbarlari qamoqqa olindi. Faqat 1942-yilda Oliy arab qo'mitasi qayta tiklandi. Aytish joizdir-ki, Oliy arab qo'mitasi boshida Falastinning ko'zga ko'ringan yuqori martabali oilalar vakillari turar edi. Bu arboblar (Xusayni, Nashashibi, Hadi, Dajni va boshqalar) Usmonli imperiyasi davrida ham Falastin viloyatida alohida maqyeiga ega bo'lib, oddiy falastinlik arablar orasida ma'lum ta'sir ko'rsatib turar edi. Ammo urush va urushdan keyingi dastlabki-yillarda Oliy arab qo'mitasining rahbariyati o'zining faoliyatida ko'proq ingliz ma'muriyati bilan kelishib ish yuritishni afzal ko'rgan. Hatto Oliy arab qo'mita rahbariyati Britaniyaning Falastindagi vakolatini ma'lum vaqt ichida saqlanishiga qarshilik ko'rsatmasligini bildirgan.

Ikkinchi jahon urushining oxirlarida AQSh hukumati ham Yaqin Sharq va ayniqsa Falastinga o'z qiziqishini namoyon etadigan bo'ldi. 1945-yil avgustida prezident G.Trumen Falastin hududiga 100 ming yahudiylarni ko'chib kelishiga ruxsat berishni Angliya hukumatidan so'ragan edi. Ingliz hukumati Trumenning taklifini qabul qilmadi, chunki aks holda Britaniya ma'muriyati va Falastin arablari o'rtasida munosabatlar keskinlashib vaziyat yanada og'irlashardi. Lekin K.Ettli hukumati, Falastin muammosi chigallashib borayotganini sezib ingliz-amerika komissiyasining tuzilishiga ruxsat beradi. Komissiyaning vazifasi Falastindagi vaziyatni o'rganib real xulosa va tavsiya berishdan iborat edi. Komissiya tavsiyalari 1946-yil may oyida nashr etildi va ularga binoan mandatli tizim uzaytirilishi, yahudiy immigrantlarning Falastinga kirishi cheklantirilishi, yahudiylarga yer sotishga ta'qiqlovchi qoidani bekor qilinishi lozim edi.

AngliyaAmerika komissiyasining Falastin muammosi bo'yicha tavsiyalari arablarni ham sionistlarni qondirmadi. Unda London yana bir urinishni amalga oshirmoqchi bo'lib «Bevin rejasi»ni ilgari surdi. «Bevin rejasi»ga muvofiq arab va yahudiy aholisiga muxtoriyat berilishi, Britaniya komissariga esa milliy ozchilikni himoya qilish huquqi topshirilishi nazarga olingan edi. Ammo Angliyaning bu tashabbusinimanfaatli tomonlar qo'llab-quvvatlamadi. Angliya diplomatiyasi nochorligidan foydalanib, Falastin masalasiga AQSh hukumati yana bir karra aralashib ko'rdi.

1946-yil oktyabr oyida prezident Trumen Falastinga 100 ming yahudiylarni ko'chirib keltirish masalasini London hukmron doiralari oldiga qo'ydi. Bu safar Vashington immigrantlarga bo'lajak moliyaviy yordamni o'z bo'yniga oladigan bo'ldi. Amerikaliklarning Yaqin Sharqda ta'siri ko'chayishi Britaniya hukumatining rejasiga aslo kirmagan edi. Shuning uchun ham inglizlar prezident Trumenning taklifidan voz kechdi. Shu tariqa Angliya Falastin muammosini ko'rib chiqish uchun BMT Bosh Assambleyasi navbatdagi II sessiyasiga havola qilishga majbur bo'ldi. Arab mamlakatlari bu masala bo'yicha aniq va ravshan pozisiyada bo'lib, ular Falastin zaminida faqat mustaqil arab davlati barpo etilishining tarafdori edilar.

1947-yil 24-martida Arab Davlatlari Kengashining qabul qilgan qarorida aynan shu fikr o'z ifodasini topgan. 1947-yil 15-may kunida BMT sessiyasining yig'ilishida Falastin masalasini o'rganish uchun 11 davlat vakillaridan maxsus komissiya tuzildi. 1947-yil 6-sentyabrida BMT Bosh Assambleyasining navbatdagi II sessiyasida maxsus komissiyaning ma'ruzasi eshitildi. Ma'ruza Falastin hududida ingliz mandati bekor qilinsin va bu o'lkada mustaqillik asoslari qaror topsin degan fikr hukmron bo'lgan. Biroq Falastinning kelajakdagi davlat tuzilmasi to'g'risida gap borganda komissiya a'zolari orasida yagona fikr bo'lmagan. Komissiya BMTning sessiyasiga ikki nafar rejasini taqdim etdi. Birinchi reja bo'yicha Falastin alohida arab va yahudiy davlatlariga bo'linishi, Quddus (Iyerusalim) shahri esa BMT nazoratidagi xalqaro maqomga sohib bo'lgan ma'muriy birlikka aylanishi nazarda tutilgan. Mazkur rejada Falastindagi ikki

davlat va Quddus shahri iqtisodiy ittifoqqa bog‘lanishi ham shart deb ko‘rsatilgan. Ikkinchi rejada Falastin yagona federativ davlat bo‘lib, uning poytaxti Quddus shahri deb qayd qilingan. Arab davlatlari va Oliy arab qo‘mitasi ikkala rejani ham rad etdi, chunki ular Falastinda faqat yagona arab davlatining barpo etilishiga ovoz berishga tayyor edilar. Biroq oradan 1,5 oy o‘tgach, ya‘ni 1947-yil 25-noyabrda Falastin bo‘yicha tuzilgan maxsus qo‘mita Falastin hududida ikki davlat barpo etilishi to‘g‘risidagi rejasini BMTning sessiyasiga havola etdi. 1947-yil 29-noyabrda sessiya ko‘pchilik ovoz bilan ushbu rejani tasdiqladi. Shunday qilib, BMT Bosh Assambleyasining II sessiyasida Falastin muammosi bo‘yicha maxsus 181 qaror qabul qildi. BMTning 181 qaroriga (rezolyusiyasiga) muvofiq sobiq mandatli Falastin hududida ikki davlat tashkil topishi ko‘zda tutilgan.

1. Yahudiy davlati – maydoni 14,1 ming kv.km., aholisi 100800 kishidan iborat.
2. Arab davlati – maydoni 11,1 kv.km., aholisi 758520 kishidan iborat.

Bo‘linish natijasida yahudiy davlatining maydoni sobiq Falastin hududining 56%, arab davlatining maydoni 43% to‘g‘ri kelgan. Undan tashqari 181 qaror asosida Quddus shahri (aholisi 205320 kishi, maydoni 1%ni tashkil etgan) xalqaro maqomga ega bo‘lganligi ham diqqatga sazovordir.

1948-yilning 1-avgustigacha ingliz mandatining tugashi va qo‘shinning chiqarilishi mo‘ljallandi. 1948-yil 1-oktyabrdan kechiqmasdan ikki davlatning mustaqilligi e‘lon qilinishi shart deb topildi.

Sionizm. Quddusdagi Sion tepaligi nomidan olingan. Bibliya rivoyatlariga ko‘ra, bu yerda Dovud podshoning (mil.avv. XI asr oxiri X asr boshi) qarorgohi va xudo Yaxvening uyi bo‘lgan. Sionizm siyosiy mafko‘raviy harakati XIX asrning oxirida vujudga kelgan. 1897-yilda Bazelda (Shveysariya) Umumjahon sionistik tashkiloti tuzildi, u jahondagi barcha yahudiylarni Falastinga yig‘ish va u yerda yahudiy davlatini tashkil etishni maqsad qilib qo‘ygan Sionizmning siyosiy mafko‘raviy oqim sifatida paydo bo‘lishida avstriyalik jurnalist Teodor Gersel (T.Gersl) tomonidan 1896-yilda yozilgan «Yahudiy millati tarixi» deb nomlangan kitobi alohida ahamiyat kasb etgan. Bu kitobda sionizmning fundamental tamoyillari bayon qilingan. T.Gerselning fikricha dunyo bo‘ylab tarqalgan

yahudiylar xudo tomonidan tanlangan xalqdir. Yahudiylar boshqalar bilan munosabatda tenglikka erishish uchun o'zga millatlarga o'xshab bir millat sifatida o'rtaga chiqishlari kerak. Bu tenglikka erishish uchun esa qudratli davlatlar himoyasi ostida yahudiy davlatini tashkil qilmoq shart.

Mandat. (lotincha *mandatum* – topshiriq, vakolat berish. Biror shaxsning vakolatini tasdiqlovchi hujjat. Masalan, deputatlik mandati ham mandat deb ataladi) Xalqaro huquqida Millatlar Ligasi nomidan Usmonli Turkiya mulklarining bir qismini yoki Germaniyaning sobiq mustamlakalarini idora etish uchun muayyan bir davlatga berilgan vakolat. (Vakolatli yoki mandatli hudud). Millatlar Ligasining mandat tizimi – Birinchi jahon urushidan so'ng Germaniya mustamlakalari va Usmonli Turk imperiyasi yerlarining Antanta davlatlari o'rtasida bo'lib olinishini rasmiylashtirgan sistema.

Germaniya mustamlakalarini taqsimlash AQSh, Fransiya va Buyuk Britaniya vakillari o'rtasida 1919-yil 6-mayda bo'lib o'tgan kengashda kelishilib, o'sha yil 7-mayda Antanta Oliy kengashi tomonidan tasdiqlandi. Turkiya koloniyalari esa 1920-yil San-Remoda chaqirilgan konferensiyada Antanta Oliy Kengashi tomonidan taqsimlandi. Mandat tizimi Millatlar Ligasi ustavining 22-moddasi bilan yuridik jihatdan rasmiylashtirildi. Mandat tizimi Ikkinchi jahon urushi davrida barbod bo'ldi va u BMTning xalqaro vasiylik tizimi (opeka) bilan almashtirildi.

11.2. Isroil davlatining tashkil topishi va 1948-1949 yillardagi

Falastin urushi

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 181-sonli qarori bilan Falastin hududida ikki davlat yahudiy (maydoni 14,1 ming kv.km., aholisi 1 mln. 8 ming kishi) va arab (maydoni 11,1 ming kv.km. aholisi 758,5 ming kishi) vujudga kelishi kerak edi. Undan tashqari muqaddas shaharlar bo'lmish Quddus va Viflim – xalqaro zona sifatida BMT nazorati ostiga o'tkazilishi ko'zda tutilgan. Bu shaharlarga 205 ming kishidan ziyod aholi yashagan va ular Falastinning 2% teng maydonini egallagan. Shu o'rinda yahudiy davlatiga ajratilgan hudud

Falastinning 56% egallanishi arab davlatiga ajratilgan maydon esa 42% ni tashkil qilganini aytib o'tish mumkin. Ma'lumki, arab davlatlari (ADL), Oliy arab qo'mitasi BMT ning 181-rezolyusiyasini tan olmadi. Ayni vaqtda sionistlar mazkur rezolyusiyani ma'qulladi va yahudiy davlatining poydevorini barpo etishga kirishdi. Lekin, BMTning Falastin bo'yicha qabul qilgan tarixiy rezolyusiyasi afsuski, bu zaminda tinchlik va barqarorlikni ta'minlagani yo'q. Aksincha, Falastin arablari va yahudiylar orasida qonli to'qnashuvlar boshlanib ketdi. Yaxshi o'rgatilgan va qurollangan yahudiy harbiy dastalari katta miqyosdagi harbiy harakatlari natijasida Falastin arablari qo'shni mamlakatlarga qochib ketishga majbur bo'ldi. Yaqinlashib kelayotgan urushga Britaniya hukumati aralashishni istamadi va o'z qo'shinini Falastin hududidan chiqara boshladi. Sionistlar jangovor drujinalari arab davlatiga ajratilgan yerlarni bosib olishga jadallik bilan kirishadi. Yaffa, Pida, Akra, Ramla, Beer-Sheva, Beysan kabi shaharlardagi aholi yahudiy harbiylari tomonidan haydab chiqarildi. BMTning 181-rezolyusiyasi qabul qilingandan so'ng Arab Davlatlari Ligasi siyosiy qo'mitasi Falastinning bo'linishiga yo'l qo'ymaslik uchun bir qancha choralarni amalga oshirdi. Shulardan biri ADL rahnamoligida Falastin ozodlik armiyasining tashkil topgani bo'ldi. Bu armiya Arab Davlatlari Ligasi tarkibida bo'lgan mamlakatlarning ko'ngillilaridan tuzilgan.

1948-yil yanvarida Falastin Ozodlik Armiyasi (FAO) Falastinga yuborildi (3 mingga yaqin ko'ngilliklar). O'z navbatida yahudiy harbiylari Falastin arablariga «saboq» berish maqsadida yana bir qotillikni amalga oshirdi. 1948-yil aprelida sionistlarning qo'shinlari arablarning Deyr-Yasin qishlog'iga yorib kirib himoyasiz qolgan 250 kishini qirib tashlagan. Sionistlar bo'lajak Isroil dalatining «hayotiy hududini» kengaytirish yo'lida hatto jinoyatga ham qo'l urdi. Lekin sionistlarning rahbariyati Deyr-Yasin voqyealariga ijobiy baho berib, uni qo'llab quvvatladi. M.Begin («Irgun» tashkilotining rahbari. Shu tashkilotning jangovorlari Deyr-Yasin qishlog'idagi xunrezlikda ishtirok etgan.) shu o'rinda «Deyr-Yasin bo'lmaganda Isroil davlati barpo etilmas edi» degan fikr bildirgan. Arablarga hujum qilish jarayonida yahudiy qurolli kuchlari 13 nafar harbiy

operasiyasining 8-arab davlatiga ajratilgan yerlarda amalga oshirgan. 1948-yil 14-may kunda Buyuk Britaniya hukumati o'zining Falastindagi mandatini barham topganligini rasman bildirdi. Ertasi kuni, 1948-yil 15 mayida yahudiy muvaqqat hukumati Isroil davlati tashkil topgani to'g'risida rasmiy bayonot e'lon qildi. Tel-Aviv Isroilning poytaxti bo'ldi. 1948-yil 17-mayda SSSR va AQSh Isroilni tan oldi.

1948-yil 15 mayida Isroil davlati tashkil topgani e'lon qilinishi bilan Misr samolyotlari Tell-Avivni bombardimon qilishdi, beshta arab davlatlarining qo'shinlari (Misr, Suriya, Livan, Iordaniya, Saudiya Arabistoni) Falastin hududiga bostirib kirdi. Shu tariqa birinchi arab-isroil urushi boshlanib ketdi. Tarixda bu urush Falastin urushi deb atalgan.

Urush uch bosqichda bo'lib o'tgan. **Birinchi bosqich:** 1948-yil 15-may – 1948-yil 11-iyun. Urushning birinchi bosqichida harbiy ustunlik dastlab arablarning tomonida bo'ldi. May oyining oxirida Arab legioni (alohida tuzilgan harbiy dasta) Falastinning markaziy qismini, Quddusning eski qismini, Iyerixon va Ramalaxni egalladi. Iroq qo'shinlari Nablus, Jenin, Tul Karam, misrliklar esa Beer-Shevuni ishg'ol qilganlar. BMT Havfsizlik Kengashining talabiga binoan harbiy harakatlar to'xtatildi. Arab davlatlari qo'shinlari Falastinga bostirib kirishidan maqsad BMTning 181-rezolyusiyasini amalga oshirishga yo'l qo'ymaslik edi. Ushbu maqsad Falastin zaminida yagona mustaqil arab davlati barpo etish dasturidan kelib chiqqan. Biroq Transiordaniya qiroli Abdulloh, arab ligasini nazoratga olgan markaziy Falastinni, Iordaniyaga qo'shib olish ruxsati uchun bir qator arab davlatlariga tashrif buyurdi. Lekin Iordaniya monarxi rad javobini oldi. O'sha vaqtni o'zida BMTning Falastindagi vakili F.Bernadott vujudga kelgan inqirozni bartaraf etish rejasini taqdim etdi. F.Bernadott taklifiga binoan, Transiordaniya va mandatli Falastin iqtisodiy ittifoqqa birlashishi, unda Isroil va arab davlatining manfaati markaziy kengash tomonidan himoya qilinishi nazarda tutilgan.

F.Bernadott rejasiga muvofiq Negev sahrosi arab davlati tarkibiga kirishi, Galleya (Iso payg'ambar targ'ibot qilgan viloyat) Isroilning qismiga aylanishi

kerak bo'lgan. Va nihoyatda shvesiyalik diplomatning fikricha Quddus arab davlati tarkibiga kiritilishi lozim bo'lgan. F.Bernadott rejasi tomonlarni va ayniqsa Isroilni qoniqtirmadi. Urush qayta boshlandi.

Ikkinchi bosqich: 1948-yil 8-18 iyul. Bir necha kunlar ichida Isroil qo'shinlari Galileyadagi 300 kv. mil maydondan tashqari Falastinning butun shimolini ishg'ol etdi. 18-iyulda harbiy harakatlarda ikkinchi tanaffus kuchga kirdi. F.Bernadott yangi takliflarni ilgari surdi: arab qochoqlarini vataniga qaytarish; Quddusdagi yahudiylar jamoatiga muxtoriyat berish. Isroil bu takliflarni ham rad etdi, uning armiyasi ayni vaqtda arab davlatiga ajratilgan zaminlar ustidan nazorat o'tnatgan edi. 1948-yil 17-sentyabrida yahudiylarning «Shtern» tashkiloti terroristi tomonidan F.Bernadott o'ldirildi.

Uchinchi bosqich: 1948-yil 15-oktyabr – 1949-yil 7-yanvar. Isroil qo'shinlari Negev sahrosi va Falluj shahrida joylashgan misrlik qo'shinlarga qaqshatgich zarba berib, ularni G'azo sektoriga chekintirdi. Keyinroq isroilliklar Negev sahrosida hujumni rivojlantirib Misr hududidagi yorib kirdi. Misr armiyasi og'ir mag'lubiyatga duchor bo'ldi. 1948-yil oktyabr oyning oxirida Isroil armiyasi Livan hududiga bostirib kirdi. Endilikda arab legioni qo'lida qolgan hududlar atrofida ham havf-xatar tug'ildi. Ana shu yerlarni yo'qotishdan havfsiragan Iordaniya monarxi ham harbiy harakatlarni to'xtatishga shoshildi. 1949-yil 7 yanvarida Falastin urushi barham topdi. 1949-yil yanvar oyining oxirida Buyuk Britaniya Isroil davlatini rasman tan oldi.

Isroil va mag'lub bo'lgan arab davlatlari o'rtasida vaqtinchalik sulh bitimlari quyidagi sanalarda imzolandi:

- ✚ *1949-yil 24-fevralida Isroil-Misr;*
- ✚ *1949-yil 23-martida Isroil – Livan;*
- ✚ *1949-yil 3-aprelida Isroil – Iordaniya;*
- ✚ *1949-yil 20- iyulida Isroil – Suriya o'rtalarida vaqtinchalik sulh bitimi imzolandi.*

Qolgan arab davlatlari bitim imzolashda ishtirok etgan emas. Bu bitimlar vaqtinchalik harakterga ega bo'lgani uchun ham hududiy bahslarga aslo chek qo'ygani yo'q.

Falastin urushida mag'lubiyatga uchragan arab davlatlari o'zlari uchun bir qator xulosa va saboqlar chiqarishga majbur bo'ldilar. Birinchi navbatda, urush arab davlatlari (ADL) o'rtasida harbiy-siyosiy hamjihatlik yetishmaganini yaqqol isbotlab bergan edi. Shuning uchun bo'lsa kerak 1949-yil 30-oktyabrida ADL siyosiy qo'mitasi arab davlatlari kollektiv havfsizlik shartnomasini ishlab chiqarish to'g'risida qaror qabul qildi. 1950-yil 13-aprelida arab davlatlari kollektiv havfsizligi Paktning loyihasi ADL kengashi tomonidan tasdiqlandi. 1950-yil 17-iyunida Pakt kuchga kirdi. Ushbu shartnomada Misr, Suriya, Livan, Saudiya Arabistoni va Yaman rahbarlarining imzolari chekilgan. Arab davlatlarining aksariyati Isroil bilan bo'ladigan munosabatlarda tan olmaslik tomoyilini ilgari surmoqchi bo'ldilar. Arablar va yahudiylar o'rtasida tinchlik bitimi imzolash ta'qiqlandi. 1950-yil 1-aprelida ADL kengashining yig'ilishida qabul qilgan rezolyusiyasida har bir arab davlatiga Isroil bilan muzokaralar olib borish sulh tuzish, siyosiy, iqtisodiy va harbiy bitimda bo'lish qat'iyan man etilgan. Qaysi-ki, davlat bu rezolyusiyani inkor etadigan bo'lsa, u darhol liga nizomining 18-moddasiga muvofiq ADL tarkibidan chiqarilishi shart bo'lgan. 1950-yil 13-aprelida, ya'ni ikki hafta o'tgach, ADL kengashining navbatdagi rezolyusiyasi qabul qilindi. Unda Isroil bilan qandaydir munosabatlar o'rnatmoqchi bo'lgan arab davlatiga nisbatan qo'shimcha qat'iy choralar ko'rish nazarda tutilgan. O'sha choralar ichida bunday arab davlati bilan siyosiy va konsullik munosabatlarni to'xtatish, savdo-iqtisodiy va moliyaviy aloqalarni uzib tashlashi ham diqqatga sazovordir.

O'z navbatida arab dunyosining qurshovida qolgan Isroil o'z qo'shinlariga nisbatan o'ziga xos tashqi siyosatni ilgari surdi. Isroil qanday bo'lmasin arablar qo'llagan tan olmaslik siyosatni bartaraf etmog'i lozim edi. Sionist rahbarlari orasida bunga faqatgina yahudiylarning harbiy ustunligi orqali erishish mumkin degan fikrlar hukm surardi. Shuning uchun ham Isroil jadallik bilan a'lo darajada

o'rgatilgan va qurollangan zamonaviy armiyani bunyod eta boshladi. Aytish joiz-ki, Isroil 50-yillarning birinchi yarmida arablarning tan olmaslik siyosatiga va ularning hamjihatligiga zarba berish maqsadida qator harbiy to'qnashuvlarning sababchi bo'lgan. Ammo Isroilning ichki ahvoli 40-yillarning oxiri va 50-yillarning boshlarida ancha murakkab bo'lgan. Bunga sabab, birinchi navbatda, 1948-1949-yillardagi Falastin urushi bo'lsa, keyinchalik yahudiylarning ommaviy ravishda ko'chib kelgani bo'ldi. 1948-yil Isroilga 100 ming kishi ko'chib kelgan bo'lsa, 1949-yil 240 ming, 1950-yil 170 ming, 1951-yil 175 ming kishi ko'chib keldi. Shunday qilib 1948-1951 yillar orasida, ya'ni uch yarim yil davomida repatriantlar soni 685 ming kishini tashkil etdi. Ko'chib kelgan yahudiylarning yarmi Yevropa davlatlaridan, qolgan yarmi esa sharq jamoalarining vakillari bo'lgan.

O'sha yillarda dastlab Chexoslovakiya, Bolgariya, Yugoslaviya, keyinroq Polsha, Ruminiya va Vengriyadan yahudiylarning ko'chib kelishi ommaviy tus oldi. Minglab yahudiylarning Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikadan, ya'ni Turkiya, Eron, Marokash, Tunis, Jazoir va Liviyadan ko'chib kelgani ham diqqatga sazovordir. Albatta shuncha repatriantlarni joylashtirish, endi tashkil topayotgan buning ustiga dushmanlik kayfiyatida bo'lgan arab qurshovida bo'lgan davlatda o'ta mushkul edi. Biroq yosh davlat dastlabki qiyinchiliklarni yengib dastlabki zafarlarni qo'lga kiritdi.

1950-yil 16-fevralida X.Veysman Isroilning birinchi prezidenti sifatida saylangan bo'lsa, D.Ben-Gurion esa 1949-yil 10-martida bosh vazir lavozimiga tasdiqlandi. Isroil davlatining oliy organi parlamenti – Knesset o'zining birinchi yig'ilishini 1949-yil 16-fevralida Quddus shahrida amalga oshirdi.

11.3. Misr inqilobi. Yaqin Sharq mintaqasida siyosiy vaziyatning keskinlashuv

Misr xalqining 1919, 1921-yillardagi qo'zg'olonlari natijasida Angliya hukmron doiralari Misrda o'rnatilgan protektorat tartiboti bekor qilinishi haqidagi farmoyishni 1922-yil 28-fevralida e'lon qildi. Ma'lumki, protektorat (lotinchaprotektor-himoya qiluvchi) ostiga tushib qolgan mamlakat, o'zining ichki

hayotiga bog'liq masalalarda mustaqil ish yuritsa-da, ammo tashqi siyosatda mudofaa masalalari bo'yicha u metropoliyaga qaram bo'lib qolaveradi. 1923-yilda Misr konstitusiyasi qabul qilindi. Mamlakatda konstitusion monarxiya tuzimi o'rnatildi. Davlat boshlig'i qirol Fuod I (1922-1936-yillar), Foruk (1936-1952-yillar), Fuod II (1952-1953-yillar) qonun chiqaruvchi organ ikki palatali (senat va deputatlar palatasi) parlament bo'lgan. Qirolning vakolati juda katta bo'lgan. Senatorlarning 40% qirol tomonidan tayinlangan, 60% saylangan.

Protektorat tartiboti bekor qilingandan so'ng Angliya hali uzoq – yillar davomida Misr ustidan o'z nazoratini saqlab turaverdi. Angliya Misr hududidagi imperiya yo'llarini nazorat qilish (inglizlar qurgan strategic yo'llar), Misrni chet ellik agressiyasidan va aralashuvidan himoya qilish, xorijiy davlatlar manfaati va milliy ozchilik huquqlarini muhofaza qilish kabi imtiyozlarga sohib bo'ldi. Ushbu amallarni ijro etish uchun Misrdagi Angliya oliy komissari lavozimi joriy qilindi.

1936-yil 26 avgustida Angliya va Misr o'rtasida shartnoma imzolandi. Shartnomaga muvofiq Angliyaning Misrdagi oliy komissariga elchi maqomi berildi. Nomiga bo'lsa-da, Misrda ingliz okkupatsiyasiga barham berildi. Ammo shartnomada Angliya qo'shinlari Suvaysh kanali zonasida, Qohira va Iskandariya shaharlarida saqlanishi nazarda tutilgan. Shuningdek, Angliya harbiy samolyotlari Misr osmonida bemalol uchib yurishi, mahalliy aerodromlardan foydalanishi va Misr armiyasi ingliz harbiy missiyasi nazoratida bo'lmog'i ushbu shartnomada ko'rsatilgan.

1949-yil 26-avgustida – 1936-yildagi Ingliz-Misr shartnomasining 15 - yilligi munosabati bilan Qohira ishchilari ommaviy namoyish va mitinglarda ishtirok etib, ingliz qo'shinlarini mamlakat hududidan chiqib ketishini talab qildilar. Milliy istiqlol uchun bo'lgan xalq kurashining avj olishi Misr hukumatini radikal harakatlarni amalga oshirishga undadi. 1951-yil 15-oktyabrida Misr hukumati 1936-yildagi Angliya-Misr shartnomasi bekor qilinganligini rasman e'lon qildi. Ammo inglizlar Misrni batamom tark etishga shoshilgani yo'q. Ingliz siyosiy doiralari 1951-1952 yillardagi misrliklarning barcha chiqishlarini kerak bo'lganda kuch ishlatib bartaraf etgan. Shuni aytish joizki, qirol Foruk har vaqt

ham xalq tomonida bo'lmagan. Bunga dalil sifatida 1952-yil yanvar oyidan iyulgacha o'tgan vaqt ichida Mirda Vazirlar Mahkamasi tarkibi 6 marotaba almashganini keltirish mumkin. Ana shunday damlarda mamlakat siyosiy sahnasiga vatanparvar kuchlarning chiqishi zarur bo'ldi. 1952-yil 23 iyulida «Zubbot al-axror» («Ozod ofiserlar») jamoasi (1939-yilda tuzilgan) armiyaga tayanib davlat to'ntarishini amalga oshirdi. Qirol Foruk yetti oylik o'g'li (Fuod II nomini olgan) foydasiga taxtdan voz kechdi. Real hokimiyat inqilob qo'mondonligi kengashi qo'liga o'tdi. Uning nazorati ostida general Najib boshchiligida yangi hukumat tuzildi. Yangi hukumat bilan hamkorlik qilishdan bosh tortgan barcha siyosiy partiyalar 1953 - yilda tarqatib yuborildi. 1955-yilda «Musulmon birodarlari» deb atalmish diniysiyosiy tashkilot ham ta'qiqlandi.

Misr inqilobining ulkan yutuqlaridan biri bu agrar islohot bo'ldi. 1952-yil sentyabr oyida agrar islohoti bo'ldi. Qonun qabul qilindi. Qonunga binoan qirol xonadoniga taalluqli bo'lgan barcha yerlar (qirol Foruk oilasining ixtiyorida 200000 feddan yeri bo'lgan), pomeschchiqlarning ortiqcha yerlari musodara qilinib, kam yer yoki yersiz dehqonlarga berish shart edi.

Yer islohoti inqilobning ijtimoiy bazasini ancha mustahkamladi, chunki 2,5 milliondan ziyod misrlik fallohlar, 5-10 feddan yerning egasiga aylandi. Inqilobgacha bitta falloh oilasi o'rta hisobda 0,39 feddan yerning sohibi bo'lgan xolos.

1953-yilning iyun oyida Misrda respublika e'lon qilindi. Hokimiyat tarkibida ham o'zgarishlar bo'ldi. General Najib o'rniga inqilob kengashi qo'mondonligi raisi etib «Zubbot-al-axror» tashkiloti va Misr inqilobining rahbari Jamol Adbo'l Nosir tayinlandi. Ayni vaqtda J.A.Nosir bosh vazir lavozimini ham egalladi. Yangi bosh vazir, qat'iyat bilan ingliz-misr munosabatlarga o'zgartirish kiritdi. 1953-yil aprelida ikki davlat o'rtasida ingliz qo'shinlarining Misr hududidan chiqarish masalasi bo'yicha boshlangan muzokaralar 1954-yilning oktyabrigacha davom etdi.

1954-yilning 19-oktyabrida Angliya-Misr shartnomasi imzolandi. Unga muvofiq 20 oy ichida Suvaysh zonasidan ingliz qo'shinlari batamom chiqib ketishi

kerak edi. «Bugun biz mutlaq mustaqillikka erishdik» degan edi, 18-iyun kuni J.A.Nosir Qohirada bo‘lib o‘tgan ommaviy mitingda. Mustaqil davlat endilikda jahon hamjamiyatining teng huquqli a‘zosi bo‘lishi uchun o‘ziga munosib, odilona tashqi siyosat yurgizishi lozim edi. J.A.Nosir o‘zining «Inqilob falsafasi» asarida mamlakat tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlarini aniq ravshan belgilab berdi.

Misr tashqi siyosati, uchta asosiy tamoyilni amalga oshirmog‘i shart, deb uqtirgan edi J.A.Nosir. Ular:

1. Misr arab dunyosining ajralmas qismi. Shunday ekan mamlakat avvalo arab davlatlari bilan do‘stona, birodarlik munosabatlarni o‘rnatmog‘i lozim. Arab millatining birligini saqlash inqilobiy hukumatning asosiy vazifasidir deb ta’kidlagan J.A.Nosir. Ushbu tamoyilning tarkibiy qismini Falastin muammosi tashkil etganligi ham alohida qayd qilingan.

2. Misr-Afrika qit‘asidagi davlat. Shuning uchun ham mamlakat Afrika davlatlari bilan har tomonlama savdo-iqtisodiy, madaniy va siyosiy aloqalarni rivojlantirish, bu yerdagi milliy-ozodlik harakatini qo‘llab-quvvatlash o‘zining burchi deb bilishi kerak.

3. Misr-musulmon davlati. Shuning uchun ham musulmon davlatlari bilan har tomonlama aloqalarni rivojlantirishda islom faktori hamisha nazarda tutilmog‘i lozim, deb aytib o‘tgan prezident J.A.Nosir. G‘arbning eng qudratli davlatlari bilan bo‘ladigan munosabatlarga ham prezident Nosir jiddiy o‘zgarishlar kiritdi. Yaqin Sharqdagi Misrning alohida strategik o‘rnini hisobga olgan AQSh va Angliya hukmron doiralari bu davlatni rejalashtirayotgan harbiy bloklarga jalb etmoqchi bo‘lganlar.

1953-yil mayida AQSh davlat kotibi Dj.F.Dalles, Yaqin va o‘rta Sharq mintaqasida harbiy blokni barpo etish tashabbuskori, Misrni ana shu blokka a‘zo bo‘lishini taklif qilgan. J.A.Nosir rad javobini berib «inglizlar bizning zaminimizda 70-yil hukmronlik qilgani hali xotiramizdan ko‘tarilgan emas». 1954-yilda J.A.Nosir amerikalik jurnalistga bergan intervyusida shunday degan: «Men, AQSh va Angliya ishtirok etayotgan bloklarga qat’iyan qarshiman». Prezident Nosirning

blokklar masalasiga bildirgan pozitsiyasi, AQSh va Buyuk Britaniyani mintaqadagi yangi hamfikrlarni qidirishga majburlagan.

G'arbning ittifoqchisi sifatida sahnada Iroq monarxiyasi paydo bo'lishi tasodif emas edi. 1953-yil sentyabrda Iroqda hokimiyati tepasiga kelgan Fodul al-Jamoli guruhi AQSh ma'muriyati bilan iqtisodiy-siyosiy aloqalarni kengaytirish haqida muzokaralar olib borishi bunga dalil bo'lishi mumkin. Iroq hukumati G'arbning harbiy blokklar masalasi bo'yicha tuzgan rejalariga ham o'zining ijobiy munosabatini bildirdi. Iroqning tashqi siyosatidagi bu qadamlari arab dunyosidagi barcha davlatlarni g'azablantirdi, chunki Iroq avvalo ADLning a'zosi edi. Lekin Iroqdagi Nuri Said hukumati tanlagan yo'ldan qaytishni istamadi. Oqibatda Yaqin va O'rta Sharq mintaqasida harbiy siyosiy pakt – Bag'dod pakti vujudga keldi. Ushbu paktning Sovet Ittifoqi va socialistik lageriga qarshi yo'naltirilganligi ham hech kimga sir bo'lmagan.

1955-yil 24-fevralida Bag'dod shahrida Turkiya va Iroq o'rtasida «o'zaro hamkorlik» to'g'risida harbiy pakt imzolandi. U besh yilga mo'ljallangan bo'lib, Bag'dod paktining poydevoriga asos soldi. 1955-yilning 4-aprelida turk-iroq harbiy shartnomasiga Angliya qo'shildi, 23-sentyabrda – Pokiston, 3-noyabrda Eron. Bag'dod pakti tamomila 1955-yil 21-22 noyabrda shakllandi, chunki bu vaqtga kelganda uning asosiy organlari, jumladan, harbiy qo'mita iqtisodiy kengash va boshqalar tuzilgan edi.

AQSh rasman Bag'dod paktiga kirmagan bo'lsalar ham, ammo uning barpo etilishiga katta hissa qo'shgan. Shu bilan birga AQSh 1959-yilda Eron, Pokiston va Turkiya bilan ikki tomonlama «hamkorlik to'g'risidagi bitim»ni imzoladi. Arab davlatlarining imperialistik blokklariga qarshi kurashi, Bandung konferensiyasida faol ishtirokchilari bo'lishga asos bo'ldi. Ma'lumki, 1955 -yil 18-24 aprelida Bandung (Indoneziya)da o'tkazilgan konferensiya afro-osiyo davlatlarining birinchi xalqaro konferensiyasi edi. Unda Osiyo va Afrikaning 29 ta davlati qatnashgan, ulardan 9 tasi arab davlatlari (Misr, Suriya, Iroq, Iordaniya, Livan, Saudiya Arabistoni, Yaman, Liviya va Sudan) bo'lgan. Hindiston, Birma, Indoneziya, Pokiston va Seylon Bandung konferensiyasining tashabbuskorlari

hisoblanadi. Bu mamlakatlar turli ijtimoiy-iqtisodiy tuzumga ega bo'lsa ham bir umumiy masala – imperializm zulmidan ozod bo'lish, tinchlik va milliy mustaqillikka erishish muammosi ularni birlashtirar edi. Konferensiya har bir xalq va millatning o'zini-o'zi idora qilish huquqi tamoyillariga amal qilgan holda, irqiy kamsitish va irqiy tengsizlik siyosatini qoraladi. Bandung konferensiyasi qatnashchilari tinch-totuv yashashligining besh prinsipiga amal qilib, qurolsizlanishga, atom va termoyadro qurollarini tayyorlash va ularni sinovdan o'tkazishni ta'qiqlashga, xalqaro munosabatlarda turli kelishmovchiliklarni tinch yo'l bilan haml qilishga chaqirdi.

Bandung konferensiyasida qabul qilingan o'nta tamoyil (prinsiplar):

- ✚ Inson huquqlari, BMT nizomining maqsadi va prinsiplarini hurmat qilish;
- ✚ Barcha davlatlar suvereniteti va hududiy yaxlitligini hurmat qilish;
- ✚ Barcha katta va kichiq millat va irqning tengligini tan olish;
- ✚ Boshqa davlatlarning ichki ishiga aralashmaslik va intervensiya qilmaslik;
- ✚ Har bir davlatning o'zini individual yoki kollektiv tarzda mudofaa qilish huquqini hurmat qilish;
- ✚ Kollektiv mudofaa to'g'risidagi bitimdan ma'lum bir buyuk davlatning xususiy manfaatini ko'zlab foydalanmaslik;
- ✚ Har qanday davlat boshqa bir davlatga bosim o'tkazmaslik;
- ✚ Har qanday davlatning hududiy yaxlitligi va siyosiy mustaqilligini tan olish va unga tahdid solmaslik, hujum qilmaslik;
- ✚ Barcha xalqaro bahslarni tinchlik vositalari orqali hal etish;
- ✚ O'zaro manfaat va hamkorlikni amalga oshirish;
- ✚ Adolat va xalqaro majburiyatlarni tan olish va hurmat qilish.

Tarixiy adabiyotlarda tinch-totuv yashashligining besh tamoyili – *pancha shila* deb ataladi.

- 1) *hududiy yaxlitlikni va suverenitetni o'zaro hurmat qilish;*
- 2) *bir-birining ichki ishiga aralashmaslik;*
- 3) *hujum qilmaslik;*
- 4) *tenglik va o'zaro foyda ko'rish;*

5) tinch-totuv yashash.

Dastlab ushbu tamoyillar 1954-yildagi Hindiston va Xitoy o'rtasida imzolangan shartnomasining preambo'lasida (muqaddimasi, kirish qismi) aks etilgan.

11.4. Suvaysh inqirozi. Misrga qarshi Angliya, Fransiya va Isroilning agressiyasi va uning siyosiy oqibati

Falastin urushining pirovardida imzolangan vaqtinchalik tinchlik bitimlari Isroil va arab davlatlari orasidagi munosabatlarni yaxshi qo'shnichilik darajasiga aslo ko'targani yo'q. Aksincha tomonlar o'rtasida chegaralar atrofida yuzaga kelgan o'nlab qonli to'qnashuvlar odatiy holga aylangan edi. Arab davlatlari tan olmaslik siyosatini ilgari surgan holda, shu bilan birga arab qochoqlarini vataniga qaytarish, Isroilni 1947-yilda belgilangan chegaralarga qaytarib yuborishni talab qilgan. Isroil davlatining borligi arablar tomonidan «agressiya» deb tushunilgan. ADL Isroilga iqtisodiy boykot e'lon qildi va Suvaysh kanali Isroil kemalari uchun yopildi.

1951-1956-yillar mobaynida tomonlar o'rtasida 3 mingdan ziyod harbiy to'qnashuvlar bo'lganligi vaziyat naqadar keskinlashganidan darak beradi. 1951-yil bahoridan Isroil-Suriya chegarasida ham vaziyat o'ta keskinlashdi. Xula vohasida isroilliklar batqoqlikni quritish ishlarni boshlab yuborishi bilan suriyaliklar ushbu hududni o'qqa tutdi (Xula vohasi arablarga ajratilgan hudud hisoblangan). Isroilning Iordan daryosining suvini negev sahrosiga chiqarish uchun boshlagan ishlari ham keskin tortishuvlarga olib keldi (sentyabr, 1953-yil). Shuni ta'kidlash lozimki, chegaraviy to'qnashuvlarda ikki tomonning aybi bo'lgan. Arab terrorchilari va jangarilari Isroil hududida nafaqat harbiylarga, tinch aholiga qarshi qator qo'poruvchilik aksiyalarni uyushtirar, o'z navbatida isroillik qo'shinlarining Iordaniyadagi Kibiya qishlog'iga hujumi natijasida 50 kishi o'ldirildi. Ushbu hodisa BMT havfsizlik kengashi tomonidan keskin qoralandi (1954). Ayniqsa 1955-yilda Misr-Isroil munosabatlarda dushmanlik kayfiyati o'zining yuqori cho'qqisiga chiqdi. 1955-yilning boshida Isroil bo'linmalari Misr hududiga

bostirib kirib, Al-Audja qishlog'i joylashgan harbiylardan holi zonani egalladi. 1955-yilning fevralida Isroil qo'shinlari, G'azo sektorida joylashgan Misrning harbiy lageriga qilgan hujumi butun Yaqin Sharqdagi ahvolni o'ta keskinlashtirdi. 1955-yil sentyabr oyida J.A.Nosir AQShdan qurol-aslaha sotib olmoqchi bo'lganda u rad javobini oladi. Shundan keyin Misr socialistik davlatlariga murojaat qilib, ulardan katta miqdorda qurol-yarog' sotib olishga erishadi. Isroil ham o'ziga kerak bo'lgan harbiy texnikani Fransiyadan sotib oladi. Yaqin Sharq mintaqasida urushning hidi kela boshladi. Sosialisti davlatlari va ayniqsa SSSRning har tomonlama yordami prezident J.A.Nosirni dadil qadamlarga undaydi. Buni biz Misr rahbariyati tomonidan Suvaysh kompaniyasini nasionalizasiyalashtirish to'g'risidagi ahdnoma qabul qilishidan ko'rishimiz mumkin. Bu haqda prezident J.A.Nosir, Iskandariya (Aleksandriya)da 1956-yil 26-iyulida bo'lib o'tgan ko'p mingli mitingda hukumat bayonoti bilan chiqish qilgan edi. Misr prezidentining bayonoti G'arb hukumatlarini sarosimaga tushiradi. Chunki, ular (ayniqsa Angliya, Fransiya va AQSh) Suvaysh kanalidan mahrum bo'lishni aslo istamagan. Shuning uchun ham g'arb davlatlari Suvaysh kanalini «baynalminallashtirish» tarafdorlari bo'lib chiqdi. «Baynalminallashtirish» rejasining muallifi AQSh davlat kotibi Jon Foster Dalles fikricha Suvaysh kanali amerikaliklar rahnomoligida bo'lgan xalqaro boshqaruv tashkiloti orqali idora etilishi kerak edi. Misr bunday rejani qat'iyon rad etdi. Buning ustiga J.A.Nosir Suvaysh kanali suvlariga chet ellik kemalar Misr hukumatining ruxsatisiz kirib keladigan bo'lsa, unda Misr jazo choralarini qo'llashga majbur bo'ladi, deb ogohlantirib qo'ydi. G'arbning siyosiy va diplomatik bosimi natija bermaganidan so'ng, harbiy agressiya yo'li tanlandi. «Agarda Nosir tegishli saboq olmasa, G'arbning O'rta Sharqdagi manfaatlariga tiklab bo'lmaydigan ziyon yetkaziladi» deb ta'kidlagan edi 1956-yil 7-avgustida «Nyu-York gerald tribyun» gazetasi. Angliya, Fransiya va Isroil harbiylari agressiyaning birgalikdagi rejasini ishlab chiqdilar. Reja bo'yicha harbiy harakatlarni Isroil qo'shinlari boshlashi, keyinroq Angliya va Fransiya aviasiyasi va harbiy-dengiz kuchlari Misrning harbiy obyektlariga zarba berishi ko'zda tutilgan. Ingliz va fransuzlarning urushidan

maqsadi Suvaysh kanali ustidan nazoratni qatarish bo'lsa, Isroil uchun bu urush Sinay yarim oroli va G'azo sektori ustidan nazorat o'rnatishni ta'minlashi kerak edi. Zarafarli urush arablarning «tan olmaslik» siyosatiga jiddiy o'zgartirish keltiradi deb o'ylagan edi ayrim isroillik sionistlari.

Isroil qo'shinlari 1956-yil 29 oktyabrda Suvaysh va Ismoiliya, 31 oktyabrda dengizoldi yo'nalishida Misr kuchlariga qarshi hujum uyushtirdi. 1956-yil 31-oktyabrda Angliya va Fransiya harbiy dengiz kemalari Misr qirg'oqlarini qamalga oldi. Ittifoqchilar aviasiyasini Misrning harbiy obyektlariga zarbalar berib, 5-noyabrda Suvaysh kanali zonasiga desantchilar tushirdi. Shu tariqa «uchlik agressiyasi»ga munosib tarzda javob berdi.

1956-yil 2-noyabrda president J.A.Nosir juma namoz kuni Qohiradagi Al-Azhar maschitida to'plangan musulmonlarga murojaat qilib, ularni havf-xatar ostida qolgan Vatanni himoya qilishga chaqirdi. Prezidentning chaqirig'idan so'ng yuzlab ko'ngillilar front sari yo'l oldi. Lekin frontlardagi harbiy vaziyat agressorlarning ustunligini namoyon etardi. Yaxshi o'rgatilgan va zamonaviy qurollarga ega bo'lgan dushman qo'shinlari misrliklarni og'ir yo'qotishlarga duchor etdi. 1956-yilning 2-noyabrda BMT Bosh Assambleyasining favqulotdagi sessiyasi, frontlardagi harbiy harakatlarni to'xtatilishini talab qildi. Biroq koalisiya kuchlari BMTning chaqirig'ini inkor etdi. 1956-yil 5-noyabrda kelganda Isroil armiyasi Sharm-ash Shayx, Rafax va G'azoni zabt etgan edi.

Deyarli butun Sinay yarim oroli Isroil armiyasi qo'lga o'tgan edi. 8 kun davom etgan (29-oktyabr – 5-noyabr) Sinay harbiy kompaniyasi Isroilning g'alabasi bilan tugadi. Misr poytaxtiga yo'l ochildi.

Misrliklar uchun bo'lgan shunday og'ir damlarda dunyodagi kuchlarning chiqishlari, BMT rezolyusiyasi SSSR hukumatining 5-noyabrdagi murojaati «uchlik agressiyasi»ni barbod bo'lishiga zamin yaratdi. 1956-yil 22-dekabrda ingliz va fransuz qo'shinlari, 7 martda Isroil armiyasi Misr hududini tark etishga ajbur bo'ldilar. «Uchlik agressiyasi»ning barbod bo'lishi Yaqin Sharqda muhim siyosiy oqibatlarni yuzaga keltirdi. Gap shundaki Fransiya va ayniqsa Angliyaning Yaqin Sharqdagi pozisyalari zaiflashdi.

Yaqin Sharq mintaqasidagi vakuumni qaysi davlat to'ldirishi mumkin edi? AQSh va Sovet Ittifoqi ushbu mintaqada nazoratni o'z qo'llariga olish uchun davogar bo'lib chiqdilar. SSSR 1956-yil Misr paxtasining yirik importchisiga aylandi. 1957-yil yanvar oyida Sovet-Misr savdo shartnomasi imzolandi. 1958 - yil boshida SSSR va Misr o'rtasida iqtisodiy-texnikaviy hamkorlik to'g'risidagi shartnomaning imzolanishi ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarni yuqori cho'qqiga chiqarib qo'ydi.

Yuqorida zikr etgandek, AQSh ham Yaqin va O'rta Sharqning geostrategik o'rnini hisobga olib, bu mintaqada hukmronlik pozitsiyaga ega bo'lish uchun barcha imkoniyatlardan foydalanishga kirishdi. 1957-yilning 5 yanvarida AQSh prezidenti mamlakat kongressiga maxsus murojaatnoma yo'llaydi. Unda Amerika Qo'shma Shtatlarining Yaqin Sharqdagi iqtisodiy va harbiy-strategik manfaati rasman o'z aksini topganini yaqqol ko'rish mumkin. Keyinchalik bu dastur «Eyzenxauer doktrinasini» nomi bilan ma'lum bo'ldi. Dastur Sovet Ittifoqini Yaqin Sharqda hukmronlikka intilishda ayblangan. Yaqin Sharq mintaqasini «jahon kommunizmi»ning havf-xataridan qutqarib qolmoqchi bo'lgan prezident D.Eyzenxauer o'ziga kongressdan qo'shimcha vakolat talab qilgan. Kongress bergan qo'shimcha vakolat, AQSh prezidentiga u lozim topgan vaqtda Yaqin Sharq mamlakatlariga harbiy va iqtisodiy yordam ko'rsatish, u istagan paytda mamlakat qurolli kuchlaridan foydalanish imkonini yaratishga mo'ljallangan edi. Eyzenxauer doktrinasini e'lon qilinganidan so'ng, Vashington ushbu doktorinaning mazmun va mohiyatini targ'ib qilish uchun Yaqin Sharqqa o'zining emissarlarini yuboradi.

1957-yil mart oyida Yaqin va O'rta Sharqqa kongressning vakillar palatasi xorijiy ishlar bo'yicha komissiya sobiq raisi D.Richard keladi. D.Richard mintaqadagi 15 nafar davlatlarga tashrif buyurdi. «Eyzenxauer doktorinasi»ni tan olgan davlatga, D.Richard AQSh hukumati nomidan, 150 mln. dollar miqdorida moliyaviy yordam va'da berib ketardi. Ammo arab davlatlarining aksariyati «Eyzenxauer doktorinasi» rad etdi. Shu bilan birga bir qator davlatlar, jumladan,

Iroq, Eron, Pokiston, Turkiya, Isroil, Livan va Liviya «Eyzexauer doktorinasi»ni rasman tan olganini bildirdi.

1957-yil yozida Turkiya va Suriya o'rtasida chegaraviy tortishuvlar boshlanishi bilan AQSh «Eyzexauer doktorinasi»ni amalda namoyon etmoqchi bo'ldi. Turkiya va Suriya o'rtasida chegaraviy baxs hali boshlangani yo'q edi-ki, AQSh Suriyani «kommunizmga yon bosganligida», «g'arb demokratiyasini inkor etganligida» ayblab, uning hukumatiga bosim o'tkazishga harakat qildi. O'z navbatida Turkiya «Eyzexauer doktorinasi»dan to'la foydalanmoqchi bo'lib, AQShning yordamida chegaraviy muammoni hal etishga otlandi. Turkiya qo'shinlari Suriya chegaralari atrofida to'plana boshladi. Suriya atrofida yuzaga kelgan harbiy-siyosiy tanglik urushga aylanishi mumkin edi. Yaqin Sharq mintaqasiga o'z qiziqishini namoyon etgan Sovet Ittifoqi, Suriya tomonida bo'lib, agressorlarga zarba berishga tayyor bo'lganini ochiqdanochiq bayon etdi. 1957-yil oktyabrida Suriya chegaralarida vaziyat o'ta keskinlashgan vaqtda Misr harbiy qismlari Suriyaga yetib keldi. Arab davlatlarining aksariyati Suriyaga har tomonlama yordam berishga tayyorlandi. BMT Bosh Assambleyasiyaning XII sessiyasida Turkiya va AQShning harakatlari qoralandi. Suriyaga qarshi uyushtirilgan kompaniya barbod bo'ldi. Ammo mustaqil arab davlatiga qarshi uyushtirilgan bosim arab dunyosida imperializmga qarshi kurash ruhini ko'tardi. Bunga Misr va Suriya birlashuvi asosida tashkil topgan Birlashgan Arab respublikasi misol bo'lishi mumkin. 1958-yil fevral oyida BAR barpo etilgani e'lon qilindi. Yangi davlatning poytaxti Qohira shahri bo'ldi, J.A.Nosir prezident lavozimiga saylandi.

1958-yil martida BAR vaqtinchalik konstitusiyasi qabul qilindi. Lekin ta'kidlash joizdirki, ikki davlatning birlashuviga obyektiv sharoitlar yo'q edi.

Birinchidan, birlashgan davlatlar hududi turli qit'alarda joylashgan.

Ikkinchidan, Misrda hukm surgan siyosiy tartibot Suriyaga majburiy ravishda yoyildi.

Uchinchidan, Misrda qo'llanilgan ijtimoiy-iqtisodiy tartibot ham avtomatik tarzda Suriyada ishlatildi. Ma'muriy va sun'iy tarzda vujudga keltirilgan

birlashmaning umri odatda juda ko'pga cho'zilmaydi. Darhaqiqat shunday ham bo'ldi. O'rnatilgan tartibotdan norozi bo'lgan suriyaliklar bo'lib o'tgan ommaviy namoyishlarda Birlashgan Arab respublikasi nomini olgan davlatning tarqatilishini talab qildilar. Norozilik kayfiyati hatto Suriya armiyasi safida ham tarqalgan edi. 1961-yil sentyabrida Suriya Birlashgan Arab Respublikasi tarkibidan chiqdi. Ushbu voqyealardan keyin Birlashgan Arab Respublikasi o'z nomini, bayrog'ini va gimnini 1972-yilgacha saqlab turdi. 1972-yildan mamlakat Misr Arab respublikasi deb ataladigan bo'ldi. 1958-yil fevral oyida Yaqin Sharqda yana bir davlat birlashmasi tashkil topdi. Iordaniya va Iroq monarxlarini inglizlar vositachiligida 1958-yil 14 fevralida Xoshimiylar arab federasiyasi deb atalmish birlashmasini vujudga keltirdilar. Federasiya barpo etilishiga bag'ishlangan bayonnomada Xoshimiylar federasiyasi nomidan xorijda yagona diplomatik vakolatxona faoliyat yuritishi, yagona «arab armiyasi» barpo etilishi nazarda tutilgan. Inglizlarning talabiga binoan federasiya boshlig'i etib Iroq qiroli Faysal II, bosh vazir lavozimiga Iroqning bosh vaziri Nuri Said va «arab armiyasining» bosh shtabiga boshliq etib Iroq generali Orif tayinlandilar. Biroq Xoshimiylar federasiyasi, BAR kabi ko'p umr ko'rmadi. 1958-yil 14 iyulida Iroqda davlat to'ntarishi yuz berdi. Ertasi kuni Iroqning yangi rahbariyati mamlakat Xoshimiylar federasiyasi tarkibidan chiqib ketgani to'g'risida bayonotini e'lon qildi.

11.5. Falastin Ozodlik Tashkiloti (FOT)ning tashkil topishi

1948-1949-yillardagi urushdan so'ng Falastin arablarining aksariyati vatanini tark etishga majbur bo'ldi. Isroilning arab davlatiga ajratilgan yerlarni bosib olishi bunga sabab bo'ldi. Falastin arablari, qochoqlar sifatida, qo'shni davlatlar hududida istiqomat qilishga majburlandi. 1967-yilning o'rtasiga kelganda qochoqlar soni 1 mln 247 ming kishini tashkil etdi. Isroil okkupasiya qilgan joylarda ham Falastin arablari oddiy huquq va erkinliklardan mahrum bo'ldi. Falastin arablari okkupasion tartibiga to'la rioya qilgan holda, joydan – joyga qo'zg'alishi cheklanar, ular polisiya mahkamasida muntazam ravishda tekshirishdan o'tishardi. Agarda arab aholii Isroil davlatiga havf-xatar keltiradigan

bo'lsa, unda ularning mulki musodara qilinib, o'zlari esa turar joylaridan haydalgan. Ana shunday qiyinchiliklarga bardosh bergan xalq o'zining mustaqil va ozod vatanini barpo etishga har qanday kurashga tayyor edi. Dastlabki Falastin qarshilik harakatining tashkilotlari 1947-1948-yillarda paydo bo'lgan. «Muqaddas kurash», «Qaytib borish qahramonlari» shular jumlasidan bo'lgan. 50--yillarning o'rtalarida Falastin partizan guruhlarining dastlabki dastalari paydo bo'lgan. 1952-yilda Isroil bosib olgan hududlarda yozuvchilar ligasi o'z faoliyatini boshlab yubordi. Ushbu tashkilot vatanparvar ziyolilardan iborat bo'lib, u Isroildagi arab ozchiligining manfaatini himoya qilgan. Yozuvchilar uyushmasi asosida 1957-yilda Xalq demokratik fronti barpo etildi. Al-Ard gazetasi tashkilotning manbuot organi edi. Gazeta sahifalarida vatanparvarlar Isroilda istiqomat qiluvchi arablarning inson huquqlari va demokratik erkinliklari paymol etilishiga qarshi maqolalar chop etganlar. 1958-yilda Isroil ma'muriyati xalq demokratik frontining faoliyatini ta'qiqlab qo'ydi.

1956-yilda G'azo sektorida «Falastin milliy ozodlik harakati» vujudga keldi. Tashkilot a'zolari BMT yoki arab davlatlari yordamida Falastin muammosini hal qilib bo'lmaydi degan fikrga borgan. Shuning uchun ham «Falastin milliy ozodlik harakati»ning rahbariyati Falastin muammosi, Falastin arablarining qo'lida bo'lish kerak deb ta'kidlagan. 1958-yilda Livanda tashkilotning axborot byulleteni nashr etildi. «Bizning Falastin» deb nomlangan axborot byulletenida «Falastin milliy ozodlik harakati»ning dasturi chop etiladi. Dasturda falastinlik arablar qurolli qurashiga da'vat qilindi. 1958-yilda tashkilotning rasmiy va to'liq nomi FATH deb ataldi, ya'ni «Falastin milliy ozodlik harakati». 1962-yilda «Al-Asifa» («Buron») deb atalmish FATXning harbiy dastasi ham barpo etildi. 1965-yil 1 yanvarda «Al-Asifa» isroilliklarga qarshi dastlabki harbiy operatsiyasini amalga oshirdi. Shuning uchun ham 1965-yil 1 yanvari Falastin inqilobining tug'ilgan kuni hisoblanadi. Falastin muammosining murakkabligi, qochoqlarning turli arab davlatlari hududida o'ta og'ir sharoitda yashaganidadir.

1967-yil ma'lumotiga qaraganda, Iordaniyada – 723 ming, G'azoda – 316 ming, Livanda – 160 ming, Suriyada – 145 ming Falastin qochoqlari istiqomat qilgan. Ular palatkali lagerlarda-yillar davomida yashab elementar maishiy ehtiyojlardan mahrum bo'lgan. Arab qochoqlarining aksariyati BMT Yaqin Sharqdagi agentligi tomonidan ajratilgan oziq-ovqat hisobiga yashagan. O'z vatanidan mahrum bo'lgan Falastin arablarining taqdiri ma'lum darajada ADL ning diqqat markazida bo'lgan albatta.

Falastin muammosini hal etish rejasi ADLning besh kishidan iborat bo'lgan komissiyasiga yuklatildi. Falastin mojarosini ijobiy hal qiish uchun avvalo qochoqlarni vataniga qaytarish lozim, degan fikr ADL kengashining qarorlarida hukm surardi. Ammo amalda ADLning a'zolari hamma vaqt ham Falastin muammosiga hamjihatlik namoyon etmagan. Har bir arab davlati o'zi ma'qul topgan yo'l bilan borgan. Bu hol Falastin masalasiga qo'shimcha qiyinchiliklar kiritar edi, xolos.

Falastin muammosini hal etish rejasi 1964-yil yanvarida Qohirada bo'lib o'tgan arab davlatlari boshliqlarining kengashida ko'rib chiqildi. Unda endigina vujudga kelgan «Falastin birligi» tashkilotiga «Falastin xalqining vakili» maqomi berilsin degan qaror qabul qilindi. Ayni paytda «Falastin birligi» siyosiy va harbiy funksiyalarni amalga oshiruvchi tashkilot bo'lib qoldi. Undan tashqari kengash, Falastin Ozodlik armiyasi barpo etilishiga qaratilgan maxsus fond tashkil etish to'g'risida qarorni ham qabul qildi. 1964-yilning may oyida quddus shahrining arablar yashaydigan qismida Falastin milliy kengashining birinchi sessiyasi bo'lib o'tdi. Sessiyada Iordaniya, Suriya, Livan, Iroq, Fors qo'ltig'idagi amirliklar va G'azo mintaqasida yashovchi falastinliklar arablarning vakillari qatnashdi. Falastin milliy kengashi Falastin Ozodlik Tashkiloti (FOT)ning barpo etilgani va Milliy Hartiya tasdiqlangani to'g'risida qaror qabul qildi. Hartiya – Falastin Ozodlik Tashkilotining dasturi edi.

Hartiyaning 4-moddasi barcha falastinliklarni FOT a'zolari deb e'lon qilgan. Falastin xalqining ozodlik harakatiga yagona javobgar tashkilot bu Falastin Ozodlik tashkiloti deb ta'kidlagan, Hartiyaning 26-moddasi. Falastin Milliy

Kengashi, Falastin Ozodlik Armiyasi barpo etish haqida ham qaror qabul qildi. 1964-yil sentyabrida Aleksandriyada bo‘lib o‘tgan arab davlatlari boshliqlarining konferensiyasida FOT «Falastin jamiyatining poydevori» sifatida rasman tan olindi. Falastin Ozodlik Tashkiloti arab davlatlari ligasi kengashlarida ishtirok etadigan bo‘ldi. Qator davlatlarda FOT ning vakolatxonalarini ochildi. 1965-yil davomida Falastin Ozodlik Armiyasi tarkibida 12 ming kishidan iborat 3 nafar harbiy brigada tuzildi.

FOTning tashkil topishi, Falastin qarshilik harakatida yangi bosqich vujudga kelganidan darak berardi. FOTning asosiy vazifasi qurolli qarshilikni jadallashtirish bilan birga Falastin muammosini Yaqin Sharq inqirozining asosiy aspektiga aylanganini namoyish etishdan iborat bo‘ldi. Falastin arablarining Isroil bosqinchilariga qarshi kurashining ko‘chayishi, Osiyo va Afrikadagi noarab davlatlarining Falastin masalasi bo‘yicha pozitsiyalarini o‘zgartirishdi, faollashtirdi. Osiyo va Afrika xalqlari birdamligi tashkiloti, 1964-yil o‘zining qoshida Falastin xalq kurashi maxsus qo‘mitasi barpo etish to‘g‘risida qaror qabul qildi. Ushbu qo‘mita ishlarida FOT faol qatnashib turgani maqsadga muvofiq bo‘lgan. 60--yillarning boshlaridan Falastin masalasi Qo‘shilmaslik harakatning diqqat markazida bo‘lgan. 1964-yil oktyabr oyida Qohirada bo‘lib o‘tgan Qo‘shilmaslik harakatning ikkinchi konferensiyasida – tinchlik va xalqaro hamkorlik dasturi qabul qilindi. Unda Falastin arablarining huquqini tiklash, ularga vataniga qaytish va o‘z davlatini yaratishga imkon berish talabi ilgari surilgan. Buyuk davlatlar Falastin masalasida avvalo o‘zlarining siyosiy manfaatlarini ko‘zlab ish yuritgan. Sovet Ittifoqi boshchiligida socialistik davlatlari, falastinlik arablar muammosini, BMT qarorlari va Bandung konferensiyasi tamoyillari asosida hal qilinishini talab qilgani maqsadga muvofiq edi. Biroq amalda SSSR va uning ittifoqchilari o‘zlarini arablarning fidoiy tarafdorlari sifatida ko‘rsatmoqchi bo‘lib, Isroil va uning xalqining istaklariga e‘tibor bermaganlar. Sababi, Isroil aynan g‘arb davlatlari (AQSh, Angliya, Fransiya) yordamida o‘zining mintaqadagi siyosatini amalga oshirgan. Bizga ma‘lumki, G‘arb mamlakatlari va socialistik davlatlari o‘rtasida Yaqin Sharq mintaqasida hukmron bo‘lish uchun diplomatik

kurash allaqachon boshlangan edi. Shunday ekan, arablarni qo'llab-quvvatlash SSSR uchun Yaqin Sharqdan raqiblarni surib chiqarish yo'li bo'lgan xolos. O'z navbatida AQSh o'zining Yaqin Sharq siyosatida ko'proq Isroilni himoya qilishni afzal ko'rardi. Isroil, AQSh va umuman g'arbning tayanch bazasi bo'lgan. Isroil orqali Yaqin Sharqqa kirib kelib, bu yerdagi cheksiz boyliklarga va muhim strategik ustunlikka ega bo'lish g'arbning anchadan beri rejalashtirib kelayotgan katta siyosati edi.

1963-yilda AQSh ma'muriyati falastinlik qochoqlarining muammosini hal etishga qaratilgan «Kennedi rejasi»ni taqdim etdi. Reja 10-yilga mo'ljallangan bo'lib, u bosqichma-bosqich amalga oshirilishi lozim bo'lgan. Rejaga muvofiq barcha falastinlik qochoqlarning 10% Isroilda joylashtirilishi ko'zda tutilgan. Qolgan 90% Falastin qochoqlarni arab mamlakatlari qabul qilib o'zlarining shahar va qishloqlarida joylashtirishi kerak bo'lgan. «Kennedi rejasi»ning qiziq tomoni shundaki, muzokaralarda faqat AQSh va Isroil delegasiyalari ishtirok etishi mumkin bo'lgan. Sababini arab mamlakatlari va falastinliklar Isroilni tan olmaganligidadir, deb tushuntirmoqchi bo'lgan reja mualliflari. «Kennedi rejasi» arab davlatlari va falastinliklar tomonidan rad qilingach AQSh to'g'ridan – to'g'ri Isroilga o'zining moliyaviy va harbiy-texnikaviy yordamini amalga oshiraverdi. 1968-yilda FOTning nizomi qabul qilindi. Nizomda barcha falastinliklar o'z huquqlari uchun kurashga chaqirilib, xalqaro hamjamiyat o'z zimmasiga olgan majburiyatni (Falastin arab davlatini barpo etish) amalga oshira olmaganligini bayon qildi. Mazkur nizomda Isroil noqonuniy davlat deb ta'kidlandi. FOT Ijroiya Qo'mitasiga dastlab Ahmad Shukeyri rahbarlik qildi. U o'z faoliyatining dastlabki-yillarida FOT tuzilmasini shakllantirish, tashqi aloqalarni yo'lga qo'yish, tashkilotni takomillashtirish kabi ishlar bilan shug'ullandi. Ammo 1967-yilgi urushdan so'ng A.Shukeyri va Ijroiya Qo'mitasi a'zolari o'rtasida ziddiyatlar paydo bo'ldi. 1967-yil dekabrda A.Shukeyri iste'foga chiqdi. 1967-1968-yillar FOT Ijroiya Qo'mitasiga vaqtinchalik Yaxyo Hammud raislik qildi. 1969-yilda esa Yosir Arofat rahbarlik lavozimiga keldi va umrining oxirigacha (2004) FOTning harizmatik⁷ yetakchisi bo'lib qoldi.

Muhammad Abdul Rauf Qudba al-Xusayniy – Yosir Arofat ba'zi ma'lumotlarga qaraganda 1929-yil 24 avgustda Qohirada tug'ilganligi keltirilsada, uning o'zi 4-avgustda Quddusda tavallud topganligini bir necha bor ta'kidlagan va ba'zi bir manbalarda ham ushbu dalil tasdiqlangan. Ushbu voqyeani Arofatning safdoshlari quyidagicha tushuntiradi.

Yo.Arofatning Quddusda tug'ilganini takrortakror aytishi, muqaddas shahar bilan o'zining bog'liqligini anglatish, uni mustaqil Falastin davlatining poytaxtiga aylantirish uchun kurashishga haqli ekanligini ko'rsatishi bilan bog'liq degan, ayrimlar. Boshqalar Quddusda tug'ilgan Yo.Arofatning ota-onasi farzandini kelajakda o'qib ishlashi uchun imkoniyat yaratish maqsadida uni Misrda ro'yxatdan o'tkazgan deyishadi. Isroilga qarshi birinchi urushda, arablar mag'lubiyatida aybdorlardan biri hisoblangan.

Falastin harbiy kuchlari bosh qo'mondoni Abdulqodir al-Xusayniy bilan aloqador deb hisoblamasliklarini istagan Abdul Rauf, yoshlik chog'ida o'z ismini Yosir Arofat deb o'zgartiradi. 17-yoshida Yo.Arofat inglizlar va yahudiylarga qarshi kurashuvchi falastinliklarga noqonuniy qurol-yarog'lar yetkazib berganligi haqida ma'lumotlar bor. O'sha-yillar kurash muhitiga bevosita aralashib, undan ilhom olgan yosh Yosir Arofatning ruhiyatida kuchli vatanvarparlik va millatparvarlik tuyg'ulari shakllandi. Ushbu ikki xislat Falastinning bo'lg'usi rahbariga siyosiy va boshqa sohalarda muvaffaqiyat qozonishga yordam beradi. Yo.Arofat Texas universitetining muhandislik fakultetiga ariza berganida, AQSh davlat departamenti viza berishdan bosh tortdi. Chunki o'sha vaqtlarda Yo.Arofat Isroilga qarshi kurashlarda ancha tanilib ulgurgandi. AQSh vizasini ololmagan Yo.Arofat Qohira universitetining muhandislik fakultetiga o'qishga kiradi. Lekin 1948-yilda Arab-Isroil urushi boshlanib ketgach, universitetni tashlab Falastinga keladi. Urush arablarning mag'lubiyati bilan tugaganidan so'ng, u 1950-yil Qohiraga qaytib o'qishni davom ettirgan. 1956-yilda «uchlik» agressiyasi paytida Misr armiyasi safida isroilliklarga qarshi janglarda ishtirok etgan falastinliklarga qo'mondonlik qilgan. 1958-yilda Quvaytda Falastin milliy ozodlik harakati tashkilotiga rahbarlik qiladi va unga FATH nomini beradi (FATH – «Harakatu

taxriri Falastin»ning teskari tomondan qisqartirma aytilishi). Ana shu tashkilotning boshida turgan Yo.Arofat isroilliklarga qarshi kurashda obro‘ qozonib mashhur yetakchi sifatida taniladi. 1969-yil fevralida Yo.Arofat FOT ijroiya qo‘mitasining raisi etib saylanadi.

FOT tarkibida quyidagi tashkilotlar asosiylari sanaladi:

- 1. FATH – Falastin milliy ozodlik harakati;**
- 2. Falastinni ozod qilish xalq fronti;**
- 3. Falastin xalq kurashi fronti;**
- 4. Falastin milliy fronti;**
- 5. Arab ozodlik fronti.**

1968-yildan boshlab Falastin qarshilik harakati tarkibida oldingi qatorlarga FATH o‘tib olgan. Bu vaqtga kelganda FATH ning safida 15 ming qurollangan jangchilar xizmat qilgan. FATHning jangchilari Isroil muntazam armiyasiga qarshi harbiy harakatlarda bo‘lgani uchun ham juda katta jangovor tajriba ortirgani tasodif emas edi. Shuning uchun bo‘lsa kerak Falastin qarshilik harakatida FATHning yetakchilik roli 1969 yi fevralida Falastin Milliy kengashining V sessiyasida rasman tasdiqlangan Yo.Arofat (FATHning rahbari) FOT ijroiya qo‘mitasi raisi etib saylandi.

1970-yilda Falastin qarshiligi harakati safida 50 ming jangchi va 30 ming xalq milisionerlari xizmat qilishgan. 1965-1969-yillar mobaynida Falastin qarshiligi kuchlari 6 mingga yaqin harbiy operatsiyalarni amalga oshirgan. Xulosa qilib aytganda, Falastin arablarining huquqini tiklashda, kurashning harbiy uslubi asosiy vosita deb qabul qilindi.

11.6. «Olti kunlik urush» kelib chiqishi va undan keyingi

Yaqin Sharqdagi siyosiy vaziyat

XX asrning 60-yillarda arab-isroil munosabatlarda hamon dushmanlik kayfiyat hukm surardi. Isroilga qarshi vujudga kelgan arab davlatlari frontida asosiy rolni Misr va Suriya o‘ynagan. Prezident J.A.Nosirning tashabbusi bilan 1964-yil yanvarida Qohirada 13 ta arab davlatlari boshliqlari kengashga yig‘ilishdi.

Unda Isroilning Jordan suvini Negev sahrosiga chiqarish rejasiga qarshi umumarab pozisiyasi kelishib olindi. Qolaversa Isroilning agressiv siyosatiga qarshi arab davlatlari harakatini muvofiqlashtirish kabi masala ham ko'rib chiqildi. Arab mamlakatlari xalqlari o'zining ozodligi va mustaqilligi uchun bo'lgan kurashda hamjihatlik va birdamlikka intilishi aynan 60-yillarning o'rtalari va ikkinchi yarmida ko'zga namoyon bo'ldi.

1964-yil sentyabrda Aleksandriyada 1965-yil sentyabrda Kasablankada bo'lgan arab davlat boshliqlarining konferensiyalari bunga misol bo'la oladi. Bu anjumanlarda arab yetakchilari o'z davlatlarining iqtisodiy taraqqiyotiga bog'liq bo'lgan muammolarni birgalikda bartaraf etish yo'llarini belgiladi. Ana shu maqsadga erishmoqchi bo'lgan Misr va Quvayt birgalikda Arab-Afrika bankini ta'sis etganlar. Aytish joizki, Misr, Suriya va boshqa arab davlatlarining imperiyalizm va mustamlakachilikka qarshi kurashi Afrikadagi noarab davlatlarning shu yo'nalishdagi kurashiga jiddiy turtki bo'ldi.

1963-yilda Afrika birdamlik tashkilotining barpo etilishi bunga dalil bo'lishi mumkin. Endi bu tashkilot Afrika qit'asidagi davlatlarning mustamlakachilikka qarshi kurashini muvofiqlashtirib jadallashtirishda yetakchi rol o'ynaydigan mintaqaviy xalqaro tashkilotga aylanishi muqarrar edi. 60-yillarda arab davlatlari qo'shilmaslik harakatida ishtiroki muhim ahamiyat kasb etgan. 1961-yil iyulida Misr rahbariyati tashabbusi bilan Qohirada 22 davlat vakillari yig'ilib qo'shilmaslik siyosati tushunchasiga ta'rif berishdi. Qo'shilmaslik siyosati negizida tinch-totuv yashash tamoyillari, qo'shilmagan davlatlar va o'z mustaqilligi uchun kurashayotgan xalqlar birdamligi, harbiy bloklarda ishtirok etaslik kabi talablar turgan. Qohira kengashida ishlab chiqilgan qo'shilmaslik harakati tamoyillari 1961-yil sentyabrda Belgradda bo'lib o'tgan qo'shilmaslik harakati konferensiyasining asosiy hujjatlarida o'z aksini topgan. Belgrad konferensiyasi ishtirokchilari (24 ta afro-osiyo davlat vakillari ishtirok etgan) qabul qilgan bayonnomada, bir qancha muhim siyosiy talablar orasida Falastin xalqining qonuniy huquqlarini tiklash kabi talabi asosiy o'rin egallagan. Qo'shilmaslik harakatining keyingi konferensiyalarida ham arab davlatlari

faol ishtirok etib, mustamlakachilik va imperializmga qarshi kurashda o'zlarining hissasini qo'shib kelgan. 60-yillarning ikkinchi yarmida Yaqin Sharqda vaziyat murakkabligicha qolaverdi. Buning sababi tomonlarning (arablar va isroilliklarning) Falastin muammosi bo'yicha tanlagan qarama-qarshilik pozitsiyasida edi.

1966-yilda Suriya-Isroil chegaralarida bo'lgan harbiy to'qnashuvlarda artilleriya va aviasiya ishlatildi. 1966-yil noyabr oyida Suriya va Misr o'rtasida birgalikda mudofaa shartnomasi imzolandi. 1967-yilning bahorida, 1964-yilda tuzilgan Qo'shma arab qo'mondonligi (unga Isroilga qarshi turgan arab davlatlari a'zo bo'lgan)ning faollashuvini ko'rish mumkin edi. Arab davlatlari orasida «Isroilni dengizga uloqtiramiz» degan shior keng targ'ib etiladigan bo'ldi. BMT qo'shinlarining Sinay yarimorolidagi chegara chizig'idan chiqarilishi Misr uchun qulay sharoit yaratdi. Endi Misr bevosita Isroilga tahdid solish imkoniga ega bo'ldi. 1967-yilning 23-mayida BAR hukumati Tiran bo'g'ozini yopib qo'yishi, Isroil kemalarini Qizil dengizga olib boradigan yo'ldan mahrum etdi. Isroil javob tariqasida BMT Havfsizlik kengashiga shikoyat bilan murojaat qildi. BMT bosh kotibi U Tan Qohirada J.A.Nosir bilan olib borgan muzokaralar natijasida tomonlar o'rtasidagi tortishuvni 3 haftaga 6 iyungacha to'xtatishi to'g'risida qaror qabul qilindi. J.A.Nosir va U Tan kelishuviga binoan 6-iyun kuni BMT vositachiligida yuzaga kelgan janjalni bartaraf etish uchun Misr va Isroil o'rtasida muzokaralar boshlanishi ko'zda tutilgan edi. Lekin 1967-yil 5-iyunida Isroil armiyasi bir vaqtning o'zida Misr, Suriya va Iordaniyaga kuchli zarba berdi. Urush Isroil aviasiyasining Misr harbiy havo bazalariga qaratilgan zarbalar bilan boshlandi. Isroilliklarning ketma-ket zarbalaridan so'ng Misr harbiy samalyotlarining deyarli barchasi 80% havoga ko'tarilmasdan yo'q qilindi. Aviatsiya himoyasidan mahrum bo'lgan Sinaydagi Misr armiyasi yanchib tashlandi, Isroil kuchlari Sinay yarimorolini egallab, Suvaysh kanaliga yetib keldi. Iordaniyaga bergan zarba natijasida Isroil armiyasi Iordan daryosi g'arbiy sohilidagi barcha yerlarni zabt etdi. Suriya frontida ham Isroil harbiy kuchlari katta g'alabaga erishib Gollan tepaliklarini qo'lga kiritdi. Endi Suriya poytaxti Damashq

havf ostida qolgan edi, chunki arablarda poytaxt shaharni himoya qilish kerak bo'lgan kuchni o'zi yo'q edi. Urushning dastlabki damlaridayoq BMT Havsizlik kegashi tinimsiz ravishda vaziyatni muhokama qilib (15 marotaba muhokama qilindi) urushni darhol to'xtatishga qaratilgan rezolyusiyalar qabul qildi. Ammo isroilliklar hujumi davom etavergan. Og'ir ahvolga tushib qolgan arablarga Sovet Ittifoqining o'z vaqtidagi diplomatik harakatlari juda o'rinli bo'ldi. SSSR Isroil bilan diplomatik munosabatlarni uzib, 10-iyungacha undan Suriya frontida harbiy harakatlarni to'xtatishni talab qildi. Aks holda Sovet Ittifoqi Isroilga zarba berishga majbur bo'ladi, deb uqtirilgan edi SSSR hukumati bayonotida. Isroil armiyasi darhol hujumni to'xtatdi. Aynan shu tarzda «Olti kunlik urush» deb nomlangan uchinchi arab-isroil urushi tugadi. Uchala arab davlati uchun bu halokat edi. Olti kun ichida Isroil Misrning Sinay yarimoroli va G'azo mintaqasini, Isroilning Sharqiy Quddus va G'arbiy sohil hududini, Suriyaning Gollan tepaligini bosib oldi va o'zining nazoratini o'rnatdi. Misr va Iordaniya armiyalari tor-mor etildi. Jami 170 ming kv.km.ga teng arab davlatlari hududida Isroil o'zining to'la hukmronligini o'rnatdi. 1967-yil avgust oyida ADL kengashining sessiyasi Sudan poytaxti Hartumda ish yuritdi va unda urushdan keyingi vaziyat muhokama qilindi. J.A.Nosir va Iordaniya qiroli Xusayn, Isroil bilan tinchlik shartnomasiga imzo chekishga rozilik bildirishgan. Biroq Saudiya Arabistoni qiroli Faysal Isroilga qarshi urushni davom ettirishni talab qilgan. Agarda front oldi davlatlari (Misr, Suriya va Iordaniya) Isroilga qarshi harbiy harakatlarni davom ettiradigan bo'lsa, unda Saudiya va boshqa neftga boy arab davlatlar urushning barcha harajatlarini o'z gardaniga olishga tayyor bo'lganini bildirgan. Oxir oqibatda Hartum konferensiyasi Isroilga nisbatan uchta yo'q tamoyilini tasdiqladi:

- 1. Tinchlik shartnomasiga o'rin yo'q;***
- 2. Isroilni davlat sifatida tan olmaslik;***
- 3. Isroil bilan har qanday muzokaralarga o'rin yo'q ADL a'zolari Hartumda qabul qilingan tamoyillarga rioya qilishi shart bo'lgan.***

Uzoq davom etgan baxslardan keyin BMT Havfsizlik kengashi Buyuk Britaniya taklifi asosida o'zining №242 rezolyusiyasini qabul qildi. Unda quyidagi talablar ilgari surilgan:

- 1. Isroil qo'shinlari bosib olingan joylardan chiqarilishi;***
- 2. Falastin qochoqlari muammosi odilona hal etilishi;***
- 3. Arablar va Isroil o'rtasida urush hlatining barham topishi;***
- 4. Ushbu mintaqadagi barcha davlat chegaralari barqarorligi buyuk davlatlar kafolatida bo'lishi;***
- 5. Dengiz yo'llarida kemalarning erkin suzish qoidasiga rioya qilish.***

Havfsizlik Kengashining chegaralar kafolati to'g'risidagi 242 rezolyusiyasi Isroil davlatining mavjudligini namoyon etib, uni tan olishga undagan. Misr va Ioradaniya 242 rezolyusiyani tan olgan bo'lsalarda, ammo Suriya uni rad etdi. Isroil ham ushbu rezolyusiyaga nisbatan o'zining munosabatini bildirib, unga bir qancha qo'shimcha talablarni ilgari surdi. Shu o'rinda Isroil:

- 1. 242 rezolyusiyasini arablar va Isroil o'rtasida odil va mustahkam sulh imzolashga vosita sifatida tan oladi;***
- 2. tomonlar o'rtasidagi tan olingan va havfsiz chegaralar, muzokaralar vaqtida belgilanishini talab qiladi;***
- 3. tinchlik shartnomasi imzolanmagunicha hech qanday hududiy yon berishga rozi bo'lmasligini bildiradi.***

«Olti kunlik urush»ning xalqaro maydondagi oqibatlari quyidagicha bo'ldi. 1967-yil 10 iyurida Sovet Ittifoqi va keyinroq socialistik davlatlari (Bolgariya, Vengriya, Polsha, Chexoslovakiya va Yugoslaviya) Isroil bilan diplomatik aloqalarni uzdi. O'z navbatida arab davlatlarining yarmi AQSh bilan diplomatik munosabatlarini uzdi.

Isroil bosqini asrlar davomida «tarixiy Falastin» hududida yashab kelayotgan arab qochoqlarining ahvolini o'ta og'irlashtirdi. Falastin arablari uchun Falastin ona vatan bo'lgan boshqa vatan ular uchun yo'q edi. 1948-1949 - yillardagi Falastin urushidan so'ng qochoqlar asosan G'arbiy sohil hududida, G'azo mintaqasida, Iordaniya va qisman boshqa arab davlatlarida ham istiqomat

qilishgan. «Olti kunlik urush»dan keyin Falastin arablari yashaydigan hudud Isroil nazoratida bo'ldi. Falastinlik arablarning soni bu vaqtga (1967) kelganda 1,5 mln. kishiga yetgan.

Arab-Falastin qarshilik harakati rahbariyati hych qachon arab armiyalarining kuch-qudrati va muvaffaqiyatiga unchalik ishongan emas. 1967 - yildagi mag'lubiyatdan keyin esa Falastin rahbariyati faqat o'zlarining kuchiga ishonadigan bo'ldi. Qochoqlar ommasi qat'iy harakatlarni amalga oshirilishini talab qilgan. Ana shunday sharoitda Falastin tashkilotlari rahbariyati Isroilga qarshi kurashda yoppasiga diversion-terroristik urushni boshlab yuborish to'g'risida qaror qabul qildi. Kurash FOT boshchiligida amalga oshadigan bo'ldi. «Sionist bosqinchilarni» qirib tashlash va yagona arab-yahudiy davlatini barpo etish FOTning maqsadi deb e'lon qilindi.

Boshlanib kelgan diversion-terroristik urushning jarayonida fidoiylar jangarilari faol ishtirok etgan. Fidoiylar orasida esa FATH harbiy dastalari ayniqsa isroilliklarga sezilarli zarbalar bergan. Falastinliklarning Iordaniya va Livan hududlaridan Isroilga qarshi qaratilgan zarbalari borgan sari ko'chaygan. Biroq falastinliklarning faollashuvi Iordaniya va Livan hukumatlarini tashvishga soladi. Chunki borgan sari Iordaniya va Livan hududlarida joylashgan Falastin jangovor guruhlarni nazorat qilish qiyinlashgan.

11.7. Yaqin Sharq mintaqasi atrofida siyosiy vaziyat

(XX asrning 60-yillari oxiri – 70-yillari boshi)

60-yillar oxiri – 70-yillar boshlarida Falastin qarshilik harakatida qochoq arablar huquqini tiklashda kurashning harbiy uslubi asosiy vosita sifatida tan olingan edi. Biroq ayni vaqtda FOT rahbariyati orasida hamma ham inqilob maqsadlariga erishish uchun kurashning harbiy uslubini qo'llagan emas. Bunga sabab jahon hamjamiyatida shunday misollar bor ediki, ular har qanday muammoni muzokaralar orqali bartaraf etish mumkinligini ko'rsatgan. Yaqin Sharqdagi kuchlar nisbati falastinlik arablar tomonida bo'lmagani ham real arab siyosiatchilarini o'ylantirib qo'yar edi. Dar haqiqat, 1971-yil mart oyida Falastin

milliy kengashining VIII sessiyasi, qurollangan kurashning muhimligini ta'kidlab, shu bilan birga kurashning boshqa shakllari ham e'tibordan chetda qolmasligi kerak degan fikrni alohida uqtirib o'tgan.

Misr prezidenti J.A.Nosir Falastin muammosini muzokaralar doira stoli atrofida bartaraf qilish tarafdorlaridan biri edi. 1968-yil dekabr oyida J.A.Nosir BMT №242 rezolyusiyasini amalga oshirishga mo'ljallangan reja-jadvalini taqdim etdi. J.A.Nosir reja-jadvaliga muvofiq Isroil bosqichma-bosqich o'z qo'shinlarini bosib olgan hududlardan chiqarish, Isroil qo'shinlari chiqarilgandan so'ng tomonlar o'rtasidagi urush holati barham topishi, tan olingan chegaralar bo'yicha kelishib olish, xalqaro dengiz yo'llarida kemalarning erkin suzishini ta'minlash, harbiylardan holi zonalarni barpo etish kabi muammolar hal etilishi shart bo'lgan. Yaqin Sharq muammosi BMT XXV va XXVI sessiyalarida muhokama qilindi (1970, 1971-yillarda).

Delegasiyalarning aksariyati Yaqin Sharqda tez orada tinchlik o'rnatish tarafdorlari bo'lganini naoyon etdi. Qo'shilmaslik harakati davlatlari tomonidan BMT XXVI sessiyasiga taqdim etilgan rezolyusiya loyihasi isroilning bosqinchilik siyosatini qoralab, Falastin arablarining barcha huquqlarini hurmat qilishga da'vat qilgan. Qo'shilmaslik harakati davlatlarining IV konferensiyasi (1973-yil, sentyabr) bosib olingan arab yerlaridan Isroil qo'shinlarining darhol chiqarilishini talab qilgan va shu o'rinda Misr, Suriya va Iordaniyaning o'z hududlarini qaytarib olishga qaratilgan kurashini qo'llab-quvvatlaganini bildirgan. 60-yillar oxiri va 70-yillarning boshlarida arablar dunyosida bir qancha jiddiy voqyealar ro'y berdi-ki, ular Yaqin Sharqdagi siyosiy vaziyatga o'z ta'sirini ko'rsatib, ezilgan xalqlarning anti-imperialistik va mustamlakachilikka qarshi kurashini yanada faollashtirgan. Gap Afrika va Osiyoda qator mustaqil arab davlatlari tashkil topgani to'g'risida borayapti. 1969-yil 1-sentyabrda Liviyada bir guruh yosh ofiserlar boshchiligida davlat to'ntarishi amalga oshirildi. Qirollik tartibor (monarxiya) yo'q qilindi va Liviya Arab respublikasi e'lon qilindi. Davlat inqilob qo'mondonlik kengashi tomonidan boshqarildi. Yangi hukumat o'zining tashqi siyosatida «ijobiy betaraflik» va qo'shilmaslik siyosatiga amal qilishini va

shu bilan birga Isroil agressiyasiga qarshi umumarab kurashida faol ishtirok etishini rasman e'lon qildi.

Ma'lumki, Liviya XVI asrda Usmonli turklar imperiyasi tarkibiga kiritiladi. Birinchi jahon urushi arafasida (1912) Italiya tomonidan zabt etilgan. 1943-yilda Liviyaning asosiy qismida (Tripolitaniya va Kirenaikada) ingliz, qolgan qismida (Fessanda) fransuz harbiy ma'muriyati hukmronligi o'rnatiladi. Ko'p-yillar davom etgan kurashdan keyin, 1951-yil 24 dekabrda, Liviya mustaqillikni qo'lga kiritadi, mamlakatda monarxiya tartiboti o'rnatiladi. Eng qadimgi musulmon mazhabi-sanusitlar vakili qirollik taxtiga Idris I nomi bilan o'tiradi. Liviya monarxiyasi mustaqil davlat deb e'lon qilinsa-da, biroq bu yerda Angliya va AQShning ta'siri juda katta bo'lgan. 1953-yilda qirol hukumati Angliyaga 1954-yilda esa AQShning Liviyada harbiy bazalar qurishga ijozat berdi. Bu ahvol Liviya mustaqilligining anchagina cheklantirib qo'ydi, mamlakatning g'arbga bo'lgan qaramligi ko'chaydi. 1969-yil 1-sentyabrdagi harbiy to'ntarishning sababi ana shunda edi.

M.Kaddafiy «Liviya inqilobi yo'lboshchisi» deb e'lon qilindi va Liviya respublikasining yakkashaxs boshlig'i bo'ldi. Liviya neftga boy mamlakat. 50--yillar ikkinchi yarmida Liviyada yirik neft konlari ochildi. Neft qazib chiqarish iqtisodning asosiga aylanadi va mamlakat milliy daromadining tezkor oshishiga imkon yaratdi. Liviyada neft qazib chiqarish ruxsatiga ega barcha xorijiy kompaniyalar to'liq yoki qisman nasionalizasiya qilindi. Davlat neft mahsulotlarini sotish va taqsimlashni o'z qo'lga oldi. Mamlakat rahbariyati aralash tipdagi iqtisodiyotni shakllantirdi. Unda qudratli davlat sektori barpo etildi, bunga neft, neft-kimyanoatidan tashqari banklar, sug'orta kompaniyalari va yirik davlat qishloq xo'jalik birlashmalari, transport, tashqi savdo va qurilish kompaniyalar kiradi. Imkoniyat jihatidan dunyodagi eng boy mamlakatlardan biridir. Har-yili Liviyada 110 mln.neft qazib olinadi. Neft sotishdan tushgan foyda 10 mlrd. dollargp yaqin mablag'ni tashkil etadi. Liviya rahbariyati asosida arab millatchiligi va islom bo'lgan, islom sosializmi deb nomlangan o'z mafko'rasini ishlab chiqdi. Liviyada shariat huquqlari hukmron va musulmon qonunlari bajarilishi

ustidan qat'iy kuzatiladi. Liviya rahbariyati boshqaruvning respublika shakllari va parlament demokratiyasini rad etadi. Buning o'rniga urug'chilik-qabilaviy demokratiya va xalq hokimiyati olg'a suriladi. Iqtisodiy tizimning tagzaminini teng taqsimotga asoslangan sosializmdir. Uning mohiyati ishlab chiqarilgan mahsulotni taqsimlash ustida boradi: har bir kishi bir xil ulushni olishi kerak, iste'mol qilishda o'z-o'qini cheklashga erishishi lozim.

Liviyaning iqtisodiy konsepsiyasi oylik ish haqini man etish, natural almashinuvga qaytishni ko'zda tutadi. Foyda olish iqtisodiyotni rag'batlantiradi, biroq u haddan ortiq shaxsiy ehtiyojlarni qondirishga emas, balki butun jamiyat ehtiyojlari yo'lida foydalanishi lozim. Sekin-asta mehnat barcha jamiyat a'zolari ehtiyojlarini qondirish yo'lida foydani tugatishiga olib kelishi lozim. Bu ko'p jihatdan xomhayol va konservativ dastur na ijtimoiy, na iqtisodiy muammolarini hal eta olmas edi. U milliy tadbirkorlik tashabbuslarini to'xtatib, Liviyaning potensialini ro'yobga chiqarishni qiyinlashtiradi.

Ummon. O'rta asrlarda Ummon hududiga hozirgi Ummon, Birlashgan Arab Amirliklari, Qatar, Baxrayn, Zanzibar oroli kirgan. XIX asr boshlarida Angliya Ummon va Maskat ustidan o'z nazoratini o'rnatib, ular bilan «alohida shartnoma shartlari»ni imzolaydi. 1913-yilda Ummon qabilalari imom al-Harusiy boshchiligida inglizlar va Maskat sultoniga qarshi qo'zg'olon boshlaydilar va yetti-yil davom etgan kurashdan so'ng 1920-yil 25-sentyabrida Assib qishlog'ida shartnoma imzolanadi.

As-sib shartnomasiga binoan inglizlar va Maskat sultoni Ummon imomligini mustaqil davlat sifatida tan oladi. Biroq 1955-yilda inglizlar va Maskat sultoni birlashgan qo'shinlari Ummon imomligini qayta zabt etadi. 1957-yilda ingliz mustamlakachilari va Maskat sultonligiga qarshi imom G'olib ibn Ali rahnamoligida ozodlik kurashi boshlanadi. Ammo bu safar imom G'olib ibn Ali kurashi xalq tomonidan qo'llabquvvatlanmadi.

1957-yildan to 1971-yilgacha «Ummo masalasi» BMT muhokama etib kelingan. BMTda qabul qilingan bir qancha rezolyusiyalarda Angliyaning Ummondan chiqib ketishi talab qilingan. BMT Bosh Assambleyasining XVIII

sessiyasi Ummon masalasi bilan shug'ullanuvchi maxsus Qo'mita tuzdi. BMT Bosh Assambleyasining 20-sessiyasi (1965) Ummon hududidan ingliz qo'shinlarini chiqarib yuborish va Ummonga mustaqillik berish haqidagi taklifni ma'qulladi. Ummon xalqining Britaniya mustamlakachilariga qarshi ommaviy ko'tarilishi mamlakatning mustaqillikka erishishini yanada tezlashtirdi. Angliya hukmron doiralari xalq talabini hisobga olgan holda, Ummonga mustaqillik berishga majbur bo'ldi.

1970-yilning oxirida Maskat sultoni Said ibn Geymurning o'g'li Qobus ibn Said Maskat sultonligi va Ummon imomligini birlashtirib, Ummon sultonligi tuzilganligini e'lon qildi. 1971-yil 29 sentyabrdan Ummon ADL, 1971-yil 7 oktyabrdan BMT a'zosi. 1971-yilning oxirida Angliya qo'shinlari mamlakat hududidan chiqarildi.

Bahrayn. 1816-yildan Baxrayn Angliya hukmronligi ostida. Inglizlarning bu yerda yirik harbiy bazasi barpo etilgan. 1971-yilda kelishuv asosida harbiy baza AQShga foydalanishga berilgan. Baxrayn xalqining ozodlik uchun bo'lgan kurashi inglizlarni chekinishga majburlagan. 1970-yilda mamlakatda plebissit (xalq ovoz berishining bir turi) o'tkazildi. Plebissit ishtirokchilarning aksariyati Baxrayn mustaqilligi uchun ovoz berishdi. 1971-yil 14 avgustda Baxrayn mustaqil davlat deb e'lon qilindi. Davlat boshlig'i amir. Baxrayn BMT va ADL a'zosi. Mamlakatning asosiy boyligi neft.

Birlashgan Arab Amirliklari (BAA). Arabiston yarimorolining sharqiy qismida Fors va Ummon qo'ltig'i sohillarida yetti nafar kichik knyazliklar joylashgan. Knyazliklar aholisi azaldan islom diniga e'tiqod qilib kelgan va arab millatiga mansub. 1892-yilda knyazliklar ustidan Angliya protektorati o'rnatiladi. Dastlab 1971-yil 2 dekabrda 6 nafar knyazliklar hukmdorlari yig'ilishida – Birlashgan Arab Amirliklari barpo etilgani e'lon qilindi. Ushbu yangi davlat tarkibiga Abu-Dabi, Dubay, Shardja, Al-Fujayra, Umm-al-Qayvayn, Ajman kabi knyazliklar kirdi. 1972-yil fevralida BAA tarkibiga Ras-al-Xayma knyazligi qo'shilishi bilan davlat hududi to'la shakllandi. Shundan keyin Angliya har bir knyazlik bilan ilgari imzolagan shartnomalarni bekor qildi va BAA hukumati bilan

yangi shartnoma tuzdi. BAA davlat boshlig'i-prezident. Abu-Dabi va Dubay mamlakatda asosiy o'rinni egallaydi. Ushbu knyazliklar davlat daromadining 85%ini beradi va bu yerda aholining yarmidan ko'pi yashaydi. Poytaxti Abu-Dabi shahri. BAA neftga boy (zahiradagi miqdori z mlrd.tonna) va u dunyo miqyosida boy davlatlar safiga kiradi. 1971-yil 6 dekabrda BAA, Arab davlatlari ligasi, 9 dekabrda esa BMTga qabul qilindi.

Qatar. 1916-yilda Qatarda Angliya protektorati o'rnatiladi. 1971-yil 1 sentyabrda mamlakat mustaqillikni qo'lga kiritdi. Davlat boshlig'i amir, poytaxti – Doxa shahri. Qatar ADL va BMT a'zosi. Asosiy tabiiy boyligi – neft (zahiradagi miqdori 400 mln.tonna). qatar ham aholining jon boshiga oladigan daromadi bo'yicha juda yuqori ko'rsatgichga ega.

Isroil rahbarlari Iordaniya va Livan hududidan harakat qilgan fidoiylar jangarilariga qarshi maxsus taktik usullarini ishlab chiqdi. Natijada fidoiylar harbiy dastalari og'ir yo'qotishlarga duch keldi. 1970-yil boshlarida Isroilga qarshi ilgorigidek faol harbiy harakatlar olib borish mumkin emasligi FOT rahbariyatiga yaqqol ma'lum bo'ldi. Har safargi yo'qotishlarda FOT rahbarlari «xoin reaksion tartibotlar»ni qoralagan. Birinchi navbatda Iordaniya qiroli tanqid ostiga olinib, uni Isroil bilan muzokaralar olib bormoqchi bo'lgan arbob deb shubha ham qilshgan. Falastinlik ekstremistlar o'zlarining diversion-terroristik harakatlarni (fuqaro samolyotlarni qo'lga olish, siyosiy qotillik) G'arbiy Yevropa davlatlarida aalga oshirgani uchun ham Iordaniya qirolining g'ashiga tegardi. Iordani Falastin qarshilik harakatining tayanch hududiga aylangan bo'lib, bu yerda 2,7 mln. qochoqlar yashagan. Falastinliklarning harbiy kuchlari Iordaniya qirolligining harbiy kuchlariga teng keladigan bo'lgani uchun ham qirol Xusayn ularga ishonchsizlik bilan qaragan. 1970-yil bahorida FOT jangarilari Iordaniyadagi monarxiyani ag'darmoqchi bo'ldi. Butun yoz davomida Iordaniya hukumat qo'shinlari va falastinlik harbiy dastalari o'rtasida e'lon qilinmagan urush olib borildi. Iordaniyadagi voqyealarga Suriya aralashib, falastinliklarga yordam tariqasida tank qismlarini jo'natgan. Qirol Xusayn mamlakatda favqulotda holat e'lon qilib, AQSh va Isroilga qilgan murojaatida yordam so'ragan. AQSh

hukumati qirol Xusaynga ijobiy javob bergan. 1970-yil sentyabrda harbiy janjal o'zining yuqori cho'qqisiga chiqdi. Biroq sentyabr oyining oxirlarida Iordaniya armiyasi qator zarbalaridan so'ng g'alabani qo'lga kiritgani hammani hayratda qoldirdi. Suriya qo'shinlari ham Iordaniya hududidan surib chiqarildi. Mag'lubiyatga uchragan Falastin jangarilari Iordaniya hududini tark etishga majbur bo'ldilar. Endi Livan hududi Falastin jangarilarining «xonadoniga» aylandi. FOTning shtab-kvartirasi (qarorgohi) Bayrutga ko'chdi. Iordaniyada qolgan Falastin qochoqlarining lagerlari Iordaniya armiyasi qat'iy nazoratiga olindi. FOT Isroilga qarshi Iordaniya hududidan harbiy harakatlar olib bormaydigan bo'ldi.

11.8. Anvar Saodat: ichki va tashqi siyosatdagi o'zgarishlar (1970-1976)

70-yillarning boshida Misr arab respublikasi o'zining murakkab damlarini boshidan kechirmoqda edi. 1967-yildagi 6 kunlik urushning salbiy oqibatlari hali ham sezilib turardi. Yaqin Sharq inqirozining chuqurlashuvi, mamlakat hududi ma'lum qismining bosib olinishi, Misr hukumatini yarim millionli armiyani saqlab turishga majbur etgan.

«Na urush na tinchlik» holati hukm surayotgan paytda mudofaaga bo'lgan o'ta katta harajat mamlakat iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda edi. 1970-yil 28 sentyabrda Misr prezidenti J.A.Nosir vafot etdi. 1970-yil 15 oktyabrda o'tkazilgan referendumda yangi prezident – Anvar Saodat saylandi. O'sha-yilning noyabr oyida Arab socialistik ittifoqi ommaviy siyosiy tashkilotning raisi lavozimiga ham A.Saodat tayinlandi. ASI J.A.Nosirning dekretiga muvofiq 1962 - yil oktyabr oyida tashkil topgan.

ASI – «mamlakatning socialistik avangardi», davlatning ichki va tashqi siyosatini belgilab beruvchi va xalqning socialistik jamiyati barpo etish yo'lida yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi tan olingan siyosiy tashkilot bo'lib qolgan edi. Muhammad Anvar as-Saodat 1918-yil 25-dekabrda Minufiya viloyatidagi, Abu-al Qum qishlog'ida xizmatchi oilasida tug'ilgan. 1938-yilda harbiy bilim yurtini tagatgan. 1942-yilda nemis agenturasi bilan aloqador bo'lgani uchun 18

oyga qamalgan. 1950-yilda armiya safiga qaytgan va «Zubbot al-Axrор» («Ozod ofiserlar») tashkiloti ijroiya qo‘mitasi a‘zoriga saylangan.

1952-yil inqilobi ishtirokchisi. Inqilobdan keyin «Al Jumxuriya» gazetasi bosh muharriri, Islom kongressi bosh kotibi, milliy majlis raisi, 1969-yil dekabrda vise-prezident lavozimlarida ishlab kelgan. Tashqi siyosatda A.Saodat o‘zini J.A.Nosirning ishlarini davomchisi deb ko‘rsatishga harakat qilgan. Biroq amalda bunday bo‘lmadi. A.Saodat Misrning tashqi-siyosiy partnyorlarini (shariklarini) almashtirib, ko‘proq g‘arb davlatlari bilan aloqani yo‘lga qo‘yish tarafdori bo‘lgan. Ma‘lumki, J.A.Nosir esa tashqi siyosiy yo‘nalishda asosan Sovet Ittifoqi va socialistik davlatlarga tayanib ish yuritgan edi. A.Saodat tez orada AQSh prezidenti R.Nikson bilan norasmiy aloqalar o‘rnatdi. Buning sababi, AQShning Yaqin Sharqdagi inqirozni bartaraf qiladigan qurbiga ishonishda yotardi.

«Olti kunlik urush»dan keyingi dastlabki vaqtlarda Isroil, Yaqin Sharq muammosi yuzasidan, Birlashgan Millatlar tashkiloti xizmatidan voz kechgan. Lekin keyinroq, AQSh hukumati bosimi ostida isroil BMT xizmatidan foydalanib arab davlatlari bilan muzokaralar olib borishga rozilik berdi.

1971-yil 8-fevralda BMT elchisi Gunkar Yaring Yaqin sharqda tinchlik o‘rnatish maqsadida Isroil va Misr hukumatlariga maktub yo‘llaydi. Maktubda Isroil bosib olgan arab yerlaridan qo‘shinini chiqarish va Suvaysh kanalida kemalarga xavf-xatarsiz suzish sharoitini ta‘minlash kabi shartlar bayon etilgan. Misrga qaratilgan talablar ichida ikki davlat o‘rtasida mavjud urush holatiga barham beri shva sulh shartnomasini imzolash masalalari ilgari surilgan. Boshqacha qilib aytganda, tomonlar BMT Havfsizlik Kengashining 242-rezolyusiyasini bajarishga chaqirilgan. Ammo Isroil, G.Yaring maktubiga salbiy javob berib, u hych qachon 1967-yil 5-iyunigacha bo‘lgan chegaralariga qaytmasligini bildirgan. Isroil tanlagan pozisiya arab mamlakatlarini o‘zaro hamkorlik masalasiga e‘tibor berishga undagan. 1971-yil 17 aprelda Misr, Liviya va Suriya maxsus deklarasiya qabul qilib Arab respublikalari federasiyasi barpo etilganini e‘lon qildilar. Lekin amalda Federasiya rahbariyati qator uchrashuvlar

o‘tkazib, bir qancha bayonotlar qabul qilish bilan o‘z faoliyatini cheklagan edi, xolos.

Aytish joizdirki, prezident A.Saodat tanlagan tashqi-siyosiy yo‘nalish (AQSh va boshqa g‘arb davlatlar bilan yaqinlashishga intilishi) Arab socialistik ittifoqi yetakchilari, hukumat a‘zolari, parlament deputatlarining noroziligini uyg‘otdi. Undan tashqari A.Saodatning avtoritar boshqarish uslubiga o‘tishi ham bir qator davlat arboblari tomonidan ma‘qullanmadi. Mamlakat vise-prezidenti Ali Sabri, ASI markaziy qo‘mitasining birinchi kotibi Abu-al-Muxsin, milliy majlis raisi L.Shukeyra tashqi ishlar vaziri Sh.Gomaa va boshqalar A.Saidatning siyosatini keskin qoralab, undan J.A.Nosir prinsiplariga qaytishni talab qildilar. Hokimiyatining havf ostida qolganligini sezgan amalga oshirdi. Bosh shtabi boshlig‘i general Muhammad Sodiq yordamida, bir guruh yuqori martabali ofiserlarni o‘z tomoniga ag‘darib olgan prezident, armiyani o‘zining asosiy tayanchiga aylantiradi.

Endi A.Saodat tezkorlik bilan o‘zining raqiblari vise-prezident Ali Sabri, tashqi ishlar vaziri Shaaravi Gomaa va yana besh nafar vazirlar egallab turgan lavozimlardan chetlashtiradi.

1971-yil 13-15 may kunlarida ASI rahbariyatidan vazirlar mahkamasidan va parlament a‘zolaridan 50 kishi hibsga olinadi. 13-15 may voqyealaridan so‘ng barcha davlat, siyosiy va jamoa tashkilotlarning tarkibida qayta qurish va jiddiy o‘zgarishlar bajo keltirildi. Prezident J.A.Nosir davrida qamoqqa olingan siyosiy mahbuslar ozod qilindi, 1954-yilda ta‘qiqlangan diniy-ekstremistik «musulmon birodarlari» tashkilotning ayrim yetakchilariga mamlakatga qaytib kelishga ruxsat berildi. 1971-yil 11-sentyabrdagi referendumda Misrning yangi konstitusiyasi tasdiqlandi. Konstitusiya mamlakatning nomini o‘zgartirdi, u endi Misr Arab respublikasi deb ataldi. Misr – prezident respublikasiga aylandi, unda prezident keng vakolat va huquqlarga ega bo‘ldi. Davlat boshlig‘i – prezident armiya va polisiya ustidan to‘g‘ridan – to‘g‘ri nazorat o‘rnatish huquqini qo‘lga kiritdi. May oyi to‘ntarishidan keyin amalga oshirilgan barcha chora-tadbirlar 15-may «tuzatuvchan inqilobi» degan nomni olgan.

Shuni aytish kerak-ki, dastlab A.Saodat Isroilga qarshi turishda AQSh bilan munosabatlarni yaxshilashga intilib, ayni paytda Sovet Ittifoqi bilan ham harbiy siyosiy aloqalarni saqlab qolishga harakat qilgan. Misr armiyasida qayta qurollanish jarayonini davom ettirish uchun A.Saodat 1971 yid 27-mayida 15 yilga mo'ljallangan do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi Misr-SSSR shartnomasini tuzishga tashabbuskor bo'ldi. Biroq vaqt o'tishi bilan SSSRning Misrga katta miqdorda yordam berolmasligini ko'rgan A.Saodat Sovet Ittifoqiga suyanishdan voz kecha boshlagan. Iqtisodiy tanglik, demografik muammo (Misr aholisi sonining jadal o'sishi), harbiy harajatlar Misrning ichki ahvoliga o'ta salbiy ta'sir ko'rsatgan. Misrga mana shu muammolarni hal etish uchun birinchi navbatda Isroil bilan tinch-totuv yashashi shart bo'lgan va Isroil bosib olgan Sinay yarimorolni qaytarib olishi ham zarur edi. Muzokaralar orqali Sinay yarimorolini A.Saodatning fikricha, AQShning Isroilga qilgan bosimi natijasida qaytarib olish mumkin bo'lgan. Misr prezidenti AQSh hukumatiga qilgan murojaatida Isroil-Misr muzokaralarni uyushtirib, unda vositachilik rolini ijro etishni so'ragan. O'z navbatida AQShning talabiga binoan A.Saodat, Sovet Ittifoqining Misrda joylashgan havo hujumiga qarshi qurollarni chiqarib yubormog'i shart bo'lgan. 1972-yil bahorida sovet harbiy maslahatchilari Misr hukumati talabiga binoan, mamlakatni tark etdi, havo hujmiga qarshi qurollar ham Misr hududidan chiqarildi. Ammo bu choralar amalga oshirilgandan keyin ham Isroil-Misr munosabatlarda ijobiy o'zgarishlar bo'lgani yo'q. Isroil bosh vaziri Golda Meir, yana bir marotaba uning mamlakati 1967-yilgi chegaralarga hyech vaqt qaytmasligini qat'iy ta'kidladi. 1973-yilning sentyabrda Isroil hukumati zabt etilgan arablar yerida (jumladan Sinay yarimorolida) yahudiylar manzilgozlari qurilishi rejasini e'lon qildi. Isroil hukumatining ushbu qarori A.Saodatning muzokaralarga bog'langan umidini uzdi. Qohirada Isroilga qarshi kuch ishlatish qarori qabul qilindi. Misr prezidenti Damashqqa tashrif buyurib, Suriya rahbari Hofiz Asad bilan birgalikda Isroilga qarshi urush rejasini muhokama qildi. 1973-yil 6-oktyabrda yahudiylarning «Iom kippur» diniy bayram kunida Misr va Suriya qurolli kuchlari to'satdan Isroilga qarshi hujum boshladi.

Urushning dastlabki kunlarida Misr 2 va 3 armiyalari (sovet harbiy mutaxassislari tomonidan o'rgatilgan) Suvaysh kanali qirg'og'ida turgan Isroil qo'shinlarga qaqshatgich zarba berib, ularni tartibsiz chekinishga majbur qildi.

Isroilning Suvaysh kanali sharqiy qirg'og'ida qurilgan o'ta mustahkam «Barlev chizig'i» ishg'ol qilindi. Gollan tepaliklarda Suriya armiyasi ham taktik muvaffaqiyatni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldi. «Yengilmas» Isroil armiyasi arab-isroil urushlar tarixida, balki birinchi marotaba achchiq mag'lubiyat ta'mini tatib ko'rgan bo'lsa ajab emas. Sarosimaga tushib qolgan Golda Meir hukumati AQShdan darhol yordam so'rab, qurol aslaha yuborishni so'ragan bo'lsa, arab davlatlari esa Sovet Ittifoqidan yordam ko'tganlarini bildirishdi. Biroq buyuk davlatlar o'zlarining sheriklariga yordam berishga unchalik shoshilgani yo'q. Isroil armiyasi og'ir vaziyatga tushib qolgani tufayli Golda Meir hukumati qattiq turib AQShdan tezda yordam berishni talab qildi. Aks holda isroil «g'alaba uchun, har qanday chora qo'llashdan qaytmaydi» deyilgan Isroil hukumatining AQSh prezidenti R.Niksonga yuborgan telegrammasida. «G'alaba uchun, har qanday chora qo'llashdan qaytmaydi» degan iborani AQSh hukumati isroilliklar arablarga qarshi atom bombasini ishlatmoqchi deb tushungan.

Darhaqiqat, Isroilda atom bombasining eksperimental varianti ishlab chiqarilgan degan ayrim ma'lumotlar tarqalgan edi. Yaqin Sharqda borayotgan urushning kengayishiga qarshi chiqqan AQSh Isroilga yordam berishga rozi bo'ladi. AQSh yordamida ajoyib tarzda qurollangan Isroil armiyasi, oktyabrning o'rtalarida barcha frontlarda qarshi hujumga o'tib, strategik tashabbusni o'z qo'liga oldi.

1973-yil 15-oktyabrda Isroil armiyasi suvaysh kanalining g'arbiy qirg'og'iga chiqib oldi. Suvaysh kanalining sharqiy qirg'og'ida qolgan Misrning 3-armiyasi qurshovga olindi va bu armiya batamom yo'q qilish arafasida edi. Misr poytaxti havf ostida qolgan edi. Ana shunday og'ir bir vaziyatda Sovet Ittifoqi Misrga yordam qo'lini cho'zdi. 1973-yil 16-oktyabrdan – 20-oktyabrgacha SSSR vazirlar kengashining raisi A.N.Kasъgin Qohirada bo'lib, vaziyatni joyda o'rganib harbiy harakatlarni darhol to'xtatishni A.Saodatga maslahat berdi. A.N.Kasъgin Misrga

harbiy yordam ko'rsatish va BMT mexanizmi orqali Isroilning hujumini to'xtatish kabi va'dalarni berdi.

1973-yil 20-oktyabrga kelganda Isroilning 4-tankchi mexanizasiyalashgan va parashyut brigadalari Qohira shahriga hujum qilishga shaylangan edi. 1973-yil 20-oktyabrda AQSh davlat kotibi G.Kissindjer Moskvaga tashrif buyurdi va SSSR rahbariyati bilan Yaqin Sharqdagi janjalni to'xtatishga bag'ishlangan muzokaralar olib bordi.

Ikki buyuk davlatlar tuzgan loyiha asosida BMT Havfsizlik kengashi №338 rezolyusiyani qabul qildi va janjalda ishtirok etgan tomonlarni unga rioya qilishni talab qildi. Havfsizlik Kengashining №338 qarori darhol o't ochishni to'xtatishi va muzokaralarni boshlashni talab qilgan. Ammo Isroil harbiy harakatlarni davom etgan. Shunday bo'lsa ham AQSh (Moskvaning talabiga binoan) juda qattiq bosimi tufayli Isroil qurshovda qolgan misrliklarning 3-armiyasini yo'q qilishga jur'at etmadi. 24 oktyabrda (338-rezolyusiya 22 oktyabrda qabul qilingan) BMT Havfsizlik kengashi yana bitta 339-rezolyusiyasini qabul qilib harbiy harakatlarni barcha frontlarda to'xtatishini talab qildi. Ammo Isroil BMTning bu qarorini ham inkor etdi. O'shanda Sovet Ittifoqi o'zining harbiy havo kuchlarini jangovor tayyorgarlik holatiga keltirdi. Javob tariqasida AQSh ham o'zining qurolli kuchlarini jangovor tayyorgarlik holatiga keltirdi. Biroq AQSh Isroil uchun Sovet Ittifoqi bilan janjallashishni mutlaqo istamagan va Isroildan ultimatum shaklida arablarga qarshi hujumni to'xtatishni talab qildi. Buning ustiga Amerika maxsus xizmati Misr bandargohlarining biriga sovetlar kemasida «noma'lum radioaktiv yuk» keltirildi, degan ma'lumotni AQSh prezidentiga taqdim etdi. O'shanda AQSh Isroilga o'zining har qanday harbiy yordamni darhol to'xtatishni qat'iyat bilan bildirgandi, 25-oktyabrda jangovor harakatlar to'xtatildi. BMT Havfsizlik kengashining qarori bilan o't ochilishi man qilingan chizig'i bo'yicha 7 ming kishilik xalqaro tinchlikparvar bo'linmasi kiritildi. 1973-yil noyabr oyida AQSh davlat kotibi Benri Kissinjerning Isroil va urushda ishtirok etgan arab davlatlariga ketma-ket va tinimsiz tashriflari natijasida mintaqadagi keskinlikni ma'lum darajada yumshatilishiga erishildi. 1973-yil dekabrda BMT

boshchiligida Jenevada Yaqin Sharq muammosini bartaraf etish bo'yicha chaqirilgan xalqaro konferensiyada urushda qatnashgan tomonlarning qo'shinlarini bir-biridan uzoqlashtirish masalasi yuzasidan qat'iy qaror qabul qilindi. Shu o'rinda aytish joizki, AQSh davlat kotibi Genri Kissinjerning Isroil va arablarni yarashtirish yo'lida qilgan xizmatlari unga 1973-yilda Nobel mukofotini keltirdi.

1974-yil 19-yanvarida (Jeneva konferensiyasi qaroriga binoan 1973-yil dekabr) Misr va Isroil o'rtasida qo'shinlar uzoqlashtirish masalasi bo'yicha bitim imzolandi. Hujjatda ta'kidlagandek, Isroil qo'shinlari Suvaysh kanalining g'arbiy qirg'og'idan sharqiy qirg'og'iga surildi. 1974-yil 18-fevralida Misr va AQSh o'rtasida diplomatik munosabatlar tiklandi (1967-yil 7-iyunida prezident J.A.Nosir hukumati «Olti kunlik urush» vaqtida uzgan edi). 1974-yil 31-mayda qo'shinlar uzoqlashtirish to'g'risidagi bitim Suriya va isroil o'rtasida imzolandi. 1974-yil iyunida Suriya ham AQSh bilan diplomatik munosabatlarni tikladi. Ikkinchi Sinay bitimi 1975-yil 4-sentyabrda imzolandi. Unga muvofiq Misr Isroilga qarshi harbiy harakatlarda ishtirok etmaslik majburiyatini olib, shu bilan birga Suvaysh kanali Isroil kemalari uchun ochiq deb e'lon qilindi. Isroil esa Qizil dengiz qirg'og'idagi yerlar va Abu-Rudays neft koni joylashgan hududni Misrga qaytarib berishi shart bo'lgan. Isroil qo'shinlari Suvaysh kanalidan sharqqa 30-40 km. Surilishi lozim edi. AQSh bu yerda, ya'ni Mitla va Gidi tepeliklarida o'zining elektron kuzatish postlarini barpo etdi. Ikkinchi Siney bitimi kuchga kirishi bilan Misr Isroilga qarshi kurashdan voz kechdi.

11.9. Livan va Yaqin Sharqdagi siyosiy inqiroz

Livan O'rta Yer dengizining sharqiy qirg'og'idagi davlat. Hududi 10,4 ming kv.km. Aholisi - Aholining 90%idan ko'prog'i arablar, qolganlari arman, kurd, cherkas, turk va boshqa millat vakillariga mansub. Davlat tili – arab tili. Aholining 50%i xristian, qolgan 50%i esa islomga e'tiqod qiladi. 1261-1516-yillarda Misr tarkibida, 1517-1918-yillarda Usmonli turklar imperiyasi tarkibida, 1918-yilda Angliya va Fransiya qo'shinlari Livanni bosib oldi. 1920-yilda Fransiya Livan ustidan o'z protektorati o'rnatadi. 1922-yilda Millatlar Ligasi Fransiyaning mandatini tasdiqlaydi. 1926-yil may oyida

Livanning fransiyalik oliy komissari mamlakat konstitusiyasini e'lon qiladi. Livanda respublika tuzimi o'rnatiladi. Biroq mamlakatning mudofaa tizimida va tashqi siyosatda fransuzlarning nazorati to'la hukm suradi. Livanning taraqqiyparvar kuchlari mamlakatning haqiqiy mustaqilligi uchun kurashni avj oldirib g'alabani qo'lga kiritadi. 1943-yilning 22 noyabrida Livan rasman mustaqil respublika deb e'lon qilindi, aynan shu kun milliy bayram sifatida nishonlanadi. 1946-yil 31 dekabrda fransuz qo'shinlari Livan hududini batamom tark etdi. 1934-yildan boshlab Livan prezidentlari xristian - maroniylardan, 1937-yildan esa Livan bosh vazirlari musulmonlardan saylangan. Bu o'ziga xos an'anaviy hokimiyat taqsimlash tartiboti 1943-yilda Milliy ahdnoma qabul qilinishi bilan rasman qonunlashtirildi. Ahdnomaga muvofiq mamlakat prezidenti lavozimiga musulmon – shiya vakillari saylanishi mumkin bo'lgan.

1945-yil 21 fevralida umumxalq referendum natijasida Birlashgan Arab Respublikasi deb atalmish federativ davlat yuzaga keldi. Birlashgan Arab Respublikasi tashkil topganiga javob tariqasida Iroq va Iordaniya konferativ birlashmasi Xoshimiy Arab Federasiyasi deb ataldi. Ikki federasiya o'rtasida kelishmovchilikning sababi siyosiy boshqaruv tizimida edi. Agarda Birlashgan Arab respublikasida – respublika tizimi hukm suradigan bo'lsa, Xoshimiylar federasiyasida monarxiya tartiboti hukm surardi. Buning ustiga arablar dunyosida yetakchilikka intilish borasidagi kurash, bu ikki federasiya orasida qaramaqarshilikni yanada ko'chaytirgan. Ikki federasiya o'rtasida navbatdagi keskin kelishmovchilik Livandagi 1958-yilgi voqyealar bo'ldi. 1958-yilning bahorida bu mamlakatda ichki siyosiy vaziyat o'ta keskinlashdi. G'arbga tayangan liberal guruhlar (prezident Komil Shamun boshchiligida) va g'arbga qarshi turgan radikal-millatchilar (ular Milliy front nomini olgan) o'rtasida mamlakatning ichki va tashqi siyosiy yo'nalishi bo'yicha tortishuvlar boshlanib ketdi. Komil Shamun hukumati «Eyzexauer doktrinasi»ni qo'llabquvvatlashi bilan oppozisiya (Milliy Front) uni betaraflik prinsipini buzganida ayblab jangavor targ'ibot kompaniyasini boshlab yubordi.

Komil Shamunning «siyosiy feodalizm»ga qarshi kurashi ham oppozitsiyaning noroziligini yanada ko'chaytirdi. K.Shamunning «siyosiy feodalizmi» mamlakatdagi hokimiyatni diniy jamoa vakillari orasida taqsimlashni tushungan. 1958-yil mayida Livandagi ichki keskin siyosiy vaziyat o'zining yuqori cho'qqisiga chiqdi. Mamlakatda umumiy ish tashlash boshlanib, u tez orada hukumatga qarshi chiqishlarga aylanib ketdi. K.Shamun va oppozitsiya o'rtasidagi kurash fuqarolar urushiga aylandi. Livan prezidenti mamlakatda siyosiy inqirozning vujudga kelishida Birlashgan Arab Respublikasini aybdor deb ko'rsatdi va BMTga shikoyat qildi. Biroq BMTning bu yerga kelgan komissiyasi BAR Livanning ichki ishlariga aralashgani to'g'risida hech qanday dalillar topmaganligini rasman ta'kidladi. Unda livan Xoshimiy Federasiyasiga murojaat qilib yordam so'raydi.

Abdul Karim Qosim boshchiligida Iroq armiyasi Livanga o'tlanishi kerak bo'lgan. Ammo mutlaq kutulmaganda voqeya ro'y bergan. Abdul Karim Qosim qo'shini o'z yo'nalishini o'zgartirib, Iroq poytaxti Bag'dodga kirib keladi va davlat to'ntarishida ishtirok etib, qirol hokimiyatini ag'daradi. 1958-yil 14 iyulida amalga oshirilgan to'ntarish natijasida Xoshimiylar monarxiyasi Iroqda batamom yo'q qilindi. 1958-yil 15 iyulida Iroqning yangi hokimiyati Xoshimiylar federasiyasidan chiqib ketganini bayonetdi. Endi komil Shamun. Arab qo'shnilari yordamidan mahrum bo'lgach, AQShga o'z nigohini qaratadi.

«Eyzexauer doktrinasi»ni qabul qilgan davlat Amerika yordamiga tayanish mumkin bo'lganligidan foydalangan AQSh, 1958-yil 15 iyulida dengiz piyoda askarlarini Livanga kiritadi. Biroq tez orada amerikaliklar Livanga demokratiyani «jahon kommunizmidan» himoya qilishga emas, balki ichki siyosiy va diniy jamoalari o'rtasidagi hokimiyat uchun bo'lgan kurashga tortilganini tushunadi. Keskin vaziyatni va fuqarolar urushining oldini olish maqsadida AQSh hukumati Komil Shamun va uning tarafdorlarini hokimiyat tepasidan chetlashtiradi va Fuad Shihab boshchiligida yangi hukumat tuzilishiga ko'mak berdi. Prezident Fuad Shihab Livan davlatining qat'iy betaraflik siyosatiga qaytganini bayon qilgan. 1950-1960-yillarning birinchi yarmigacha Livanda

ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning jadal suratlarini kuzatish mumkin. Mamlakat aynan o'sha vaqtda Yaqin Sharq Shveysariyasi nomiga ega bo'lgan. Bayrut moliyaviy markaz sifatida neft qazib chiqaruvchi arab davlatlari va G'arbning eng rivojlangan mamlakatlari o'rtasida Livan poytaxtida Sharqning eng yirik banklari joylashganligi, bu kichiq mamlakatni xalqaro miqyosida alohida o'ringa chiqargan. Fuqarolar urushi (1975-1990).

1970-yil sentyabrda Iordaniya armiyasining zarbalaridan keyin falastinlik jangarilar Iordaniya hududini tark etib, Livan hududiga ko'chadi. Keyingi voqyealar shuni ko'rsatdiki, falastinliklarning Livanga kelishi bu kichiq arab davlati xalqiga katta musibat va fajea keltirdi xolos.

Falastin jangarilari endi Livan hududidan foydalanib, Isroilga qarshi muntazam ravishda harbiy-terroristik harakatlarini amalga oshiraverdi. Isroilning Falastin jangarilariga javob zarbalari xristian (maroniy) va musulmonlar jamoalari o'rtasidagi ziddiyatlarni keskinlashtirdi. Livan xristianlari falastinliklarning mamlakat hududida joylashuviga mutlaqo qarshi edilar. Musulmonlar va xristianlar o'zlarining jangovor dastalarini barpo etadigan bo'lishdi. 1975-yil 13 aprelida maroniylarning falastinliklar bilan dastlabki harbiy to'qnashuvlari yuzaga keldi. Livan musulmon jangarilari harbiy to'qnashuvlarda ishtirok etishi, Livanda fuqarolar urushining boshlanishiga yo'l ochdi.

1975-yil kuziga kelganda musulmonlar koalitsiyasining (Livan musulmonlar harbiy dastalari + FOTning jangarilari) ustunligi sezilgach, Livan maroniylariga Isroil o'z yordamini berib, ularni qurol-aslaha bilan ta'minlaydi. Livan beboshlik davriga botinadi va bu davr o'z ichiga 1975-1990-yillarni qamragan bo'lib, fuqarolar urushi davri deb ataladi. Vaziyatdan foydalangan Suriya Livandagi uro'shayotgan tomonlarga o't ochishni darhol to'xtatishini talab qiladi. Maroniylar rozi bo'lsa-da, ammo musulmon koalitsiyasi rad javobini beradi. Unda Suriya o'z qo'shinlarini Livanning Bekaa vodiysiga kiritib, uro'shayotgan tomonlar jangarilarining birini-biridan uzoqlashtirishga muvofiq bo'ldi. 1976-yil iyun oyidagi Arab Davlatlari Ligasi kengashining qarori bilan Livandagi Suriya qo'shinlarigag arablararo tinchlik o'rnatuvchi kuchlar maqomi

berildi. Markaziy hokimiyati zaiflashib qolgan kichiq bir davlatning ichki ishlariga aralashish oddiy bir hol bo'lib qoladi.

1980-yillar boyida Eron Islom Respublikasining moliyaviy, harbiy-texnikaviy ko'magida Livanda mahalliy shia jamoasi asosida «Xizbolloh» tashkiloti barpo etildi. Uning maqsadi FOT bilan birgalikda Isroilga qarshi harbiy-diversion harakatlar olib borishdan iborat bo'lgan.

Fidoiylarning 1978-yil mart oyida Isroilga qarshi uyushtirgan navbatdagi hujumidan so'ng, Isroil armiyasi janubiy Livan hududiga bostirib kiradi va bu yerdagi Falastin jangarilar bazalarini yo'q qiladi. Faqat 4 oy o'tgach, BMTning (№425-426 rezolyusiyalari) talabi tufayli Isroil qo'shinlari Livandan chiqarildi. Janubiy Livanda havfsizlik zonasi vujudga keltiriladi va shu yerda isroil boshchiligida «Ozod Livan» deb atalmish qo'g'irchoq davlat ham paydo bo'ladi. Shundan so'ng Livandagi ichki siyosiy vaziyat bir muncha barqarorlashdi. Lekin fuqarolar urushi tanaffuslar bilan davom etavergan.

1982-yil 6 iyunida Isroil qurolli kuchlari «Galileyaga tinchlik» harbiy operasiasini boshladi. Unining asosiy maqsadi Livandagi FOTning jangarilarini siqib chiqarish bo'lgan. Yuir necha kun orasida isroil armiyasi Livanning talaygina qismini zab etib, g'arbiy Bayrutni qamalga oldi. Aynan g'arbiy Bayrutda FOT va musulmon koalitsiyasining asosiy kuchlari to'plangan edi. Bir yarim oy davomida Isroil qo'shinlari g'arbiy Bayrutni qamalda to'tgan. Og'ir sharoitga duch kelgan FOT asosiy harbiy dastalari, BMT nazorati ostida Livan hududini tark etdi. 1982 - yil 25 avgustida Livanga xalqaro kuchlar (NATO qo'shinlari) kiritildi. 1982-yil 1 sentyabrgacha FOTning barcha harbiy bo'linmalari Livan hududidan butunlay chiqarildi. FOT shtab-kvartirasi Tunisga ko'chirildi. 1983-yil 17 mayida Livan va Isroil o'rtasida shartnoma imzolandi. Unga muvofiq Isroil qo'shinlari Livandan chiqib ketishi, suriyaliklar esa Bekaa vodiysini tark etishlari kerak bo'lgan. Biroq shartnoma musulmonlar koalitsiyasi tomonidan tan olinmadi. Aytish kerak-ki koalitsiya ushbu masala bo'yicha Suriya va Eron tomonidan qo'llab-quvvatlandi. 1984-yilning bahorida Livan parlamenti ham shartnomani rad etdi. Koalitsiya harbiy bo'linmalari xalqaro kuchlarga qarshi diversion-terroristik

urushni boshlab yubordi. Xalqaro kuchlar safida jiddiy yo‘qotishlar ro‘y berdi. Bunday ahvoldan norozi bo‘lgan AQSh, Britaniya, Fransiya va Italiya (ushbu davlatlar harbiylari xalqaro kuchlar safida Livanga kiritilgan) jamoatchiligi xalqaro kuchlarni Livandan chiqarilishini talab qildi. Natijada 1984-yil kuzida ular Livandan chiqarildi. 1985-yil yozida Isroil ham o‘z qo‘shinlarini Livandan chiqardi. Livan hududida qolgan Suriya armiyasi mamlakat ustidan o‘z nazoratini tamomila o‘rnatib oldi.

1980-yilda xristianlararo, 1983-yilda musulmonlararo – tog‘dagi urush deb atalmish to‘qnashuvlar shular jumlasidan bo‘lgan. 1985-1987-yillar davomida falastinlik jangarilar va shia «Amal» tashkiloti milisiyasi o‘rtasidagi lagerlar urushi ham shiddatli janglardan biri bo‘lgan. 1985-yilda FOT va Suriya armiyasi o‘rtasida Tripoli shahrida, 1987-yilda «Amal» va Taraqqiyparvar-sosialistik partiyasining (TSP) milisiyasi o‘rtasidagi (TSP Livan kommunistlari qo‘llab-quvvatlagan) Bayrut shahrida, 1988-1990 - yillarda «Amal» va radikal islomiy «Xizbolloh» guruhi o‘rtasidagi shia jamoasida o‘z ustunligini o‘rnatish uchun bo‘lgan janglar, Livandagi fuqarolar urushining eng yirik va fojeali harbiy to‘qnashuvlar sirasiga kirardi.

1989-yilning sentyabr oyida at-Toif shahrida Milliy assambleya yig‘ilishida «Miliy Murosa Hartiyasi» qabul qilindi. At-Toif shartnomasiga muvofiq diniy jamoalar vakillarining davlat boshqaruv tizimidagi me‘yori qayta ko‘rildi va mamlakat jamiyatining barcha qatlamlarida konfesializmni ildizi bilan sug‘urib tashlash ko‘zda tutilgan. 1990-yilning Oktyabrida general Aun rahbarligida bo‘lgan xristian jangovor bo‘linmalari Livan va Suriya armiyasi zarbalari natijasida mag‘lubiyatga uchradi va ana shundan keyin Livandagi fuqarolar urushi o‘z nihoyasini topdi. 1991-yilda fuqarolar urushida ishtirok etgan milisiya bo‘linmalari qurolsizlantirildi. 1996-yilda Isroil armiyasi janubiy Livanga bostirib kirdi va «Xizbolloh» tashkilotiga qarshi qaratilgan «G‘azab shingillari» operatsiyasini amalga oshirdi. 2000-yilda Isroil o‘z qo‘shinarini janubiy Livandan chiqardi.

Livan o'z sevurenitetiga to'la erishishi uchun Suriya qo'shinlarini mamlakat hududidan chiqarishi shart bo'lgan. BMT ushbu muammoni hal etishda tashabbusni o'z qo'liga oladi. 2004-yil sentyabr oyida BMT Havfsizlik Kengashi barcha chet ellik qo'shinlar Livan hududidan chiqarilishi to'g'risidagi rezolyusiyani qabul qildi. O'sha-yilning oktyabr oyida BMT Havfsizlik Kengashi AQSh va Fransiyaning tashabbusi bilan maxsus bayonot qabul qildi. Unda Suriya qo'shinlari darhol Livan hududini tark etishi va «Xizbolloh» harbiy dastalari Livan hukumati tomonidan qurolsizlantirilishi talab qilingan. 2005-yilning 25 aprelida Suriya qo'shinlari Livan zaminini tark etgan.

11.10. KEMP – Devid shartnomasi. Arablararo munosabatlar.

1974-yil fevral oyida Qohira va Vashington o'rtasida diplomatik munosabatlar qayta tiklandi. Ma'lumki, ikki davlat orasidagi aloqalar «Olti kunlik urush» paytida J.A.Nosirning tashabbusi bilan uzilgan edi. 1974-yil iyunida AQSh prezidenti R.Nikson Misrga tashrif buyuradi. Uning oqibatida ikki davlat o'rtasida har tomonlama munosabatlarni rivojlantirish maqsadida hamkorlik komissiyasi tuzildi. Tez orada AQSh Misrga katta hajmda moliyaviy yordam beradigan bo'lib, 1977-yilga kelib Vashingtonning yordami 1 mlrd. dollarni tashkil qilgan.

Misr va AQSh o'rtasida diplomatik aloqalar va siyosiy konsultasiyalar ham avj oladi. A.Saodat endi aynan AQShning vositachiligida Yaqin Sharq inqirozini bartaraf etuvchi yo'llarni qidirishga o'z faoliyatini bag'ishlaydi. AQShning vositachiligida birinchi (1974) va ikkinchi (1975) Sinay shartnomalari imzolandi. Shu o'rinda aytish lozim-ki, Sinay shartnomalari (ayniqsa ikkinchi shartnoma) arab davlatlari aksariyati tomonidan qabul qilinmadi va keskin tanqidga duch keldi. Ikkinchi Sinay shartnomasidan keyin AQShning bevosita faol vositachiligida Isroil-Misr muzokaralari boshlanib ketdi. Shu bilan birga A.Saodatning xohishirodasi ila SSSR va Misr o'rtasidagi munosabatlar kundan-kunga yomonlashdi.

1976-yilda Misr hukumati 1971-yilning 27 iyayida imzolangan «Sovet Ittifoqi va Misr o'rtasida do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shartnoma»ni bekor qildi.

1977-yilning yanvar oyidan boshlab esa ikki davlat o'rtasida barcha sohalardagi hamkorlikka chek qo'-yila boshlandi.

1977-yilning noyabr oyida A.Saodat o'zining siyosiy tarjimai holida balki eng muhim qadamlaridan birini amalga oshirdi. 1977-yil 19 noyabrida prezident A.Saodatning samolyoti Tell-Avivning Ben-Gurion aeroportiga qo'ndi. Misr prezidentining ushbu tashrifi arablar dunyosida katta shov-shuvga sabab bo'ldi. Arab davlatlarining aksariyati Misr prezidentining Isroilga qilgan tashrifiga o'zlarining g'arazli munosabatlarini namoyon etgan. Lekin Anvar Saodat mamlakatning og'ir ahvolidan kelib chiqqan holda qanday bo'lmasin Isroil bilan tinchlik shartnoma imzolashga harakat qilgan. To'g'ri, A.Saodat 1975-1977-yillar davomida Yaqin Sharq muammosi haqida qaysi anjumanda, uchrashuvda gapirmasin u birinchi galda isroil bosib olgan yerlarni tark etishini va Falastin arablarining o'z vataniga sohib bo'lishiga imkon yaratishini talab qilgan. Ammo Isroilning qat'iy pozitsiyasiga duch kelgan Misr prezidenti sekin-asta faqat IsroilMisr muammolariga e'tibor beradigan bo'ldi.

Aynan shu maqsadga A.Saodat 1977-yilning noyabr oyida Quddusga tashrif buyurgan chog'ida erishdi. Isroil bosh vaziri Menaxem Begin va anvar Saodat o'rtasida bo'lgan muloqotda tomonlar ikki davlatga tegishli bo'lgan muammolarni muzokaralar stoli atrofida hal etilishi lozim deb topganlar.

A.Saodatning Isroilga qilgan tashrifi yuqorida qayd qilinganidek, arab davlatlari va FOTning qattiq tanqidiga uchradi. 1977-yil 5 dekabrda Livaya yetakchisi Muamar Kaddafi tashabbusi bilan Tripolida arab davlatlar boshlig'i kengashi o'tkazildi. Unda arab rahbarlari Isroil bilan tinchlik shartnomasi imzolashga qarshilik bildirib, matonat va qarshilik harakati fronti barpo etish to'g'risida qaror qabul qilindi. Bu frontning vazifasi «arab millati manfaatining xoini» A.Saodatni yo'q qilishdan iborat bo'lgan. Bunga javoban A.Saodat hukumati, matonat va qarshilik harakati frontining a'zolari bo'lmish Suriya, Liviya, Jazoir, Yaman Xalq Demokratik respublikasi, FOT va front a'zosi bo'lmagan Iroq bilan ham diplomatik aloqalarni uzib tashladi.

1977-yil 14-dekabrda M.Begin Vashingtonga tashrif buyurgan chog'ida Yaqin Sharq inqirozini bartaraf etish yo'lidagi o'zining rejasini e'lon qilgan. «Begin rejasini» bo'yicha falastinlik arablarga Iordanning g'arbiy qirg'og'ida va G'azo sektorida «ma'muriy muxtoriyat» berilishi ko'zda tutilgan. Ammo o'sha hududlarda Isroilning okkupasiyaon tartiboti hukm surishi kerak bo'lgan. Quddus shahrining sharqiy qismi so'zsiz Isroilga berilishi va bosib olingan arab yerlaridagi yahudiylarning harbiy poseleniyalari (manzilgohlari) saqlanishi nazarda tutilgan. Begin rejasida Suriyaning Gollan tepaliklari haqida lom-mim de-yilmagan. Beginning tinchlik rejasida Tell-Aviv Sinay yarimorolini tark etishini bir qancha shartlar bilan bog'laganini ko'rsatgan. Aytish joizki, o'sha damlarda A.Saodat, «Begin rejasini»dagi qat'iy talablarni qabul qilishga tayyor emasdi, chunki undagi taklif va talablar faqat bir tomonning – Isroilning manfaatini ko'zlagan. Lekin shunga qaramasdan Misr-Isroil-AQSh muzokaralari davom etgan. 1977-yil 25-26 dekabrda M.Begin 1978-yil 18 yanvarida isroil mudofaa vaziri Veysman, 20 yanvarida AQSh davlat kotibi S.Vens, 30 martda yana Veysman Ismoiliya, Qohiraga tashrif buyurib, Misrning davlat va harbiy rahbarlari bilan muloqotda bo'lgan. Shunga o'xshash uchrashuvlarda A.Saodat va Veysman 1978-yil 13 iyulida Zalsburgda (Avstriya) 1978-yil 18-19 iyulida Misr va isroil tashqi ishlar vazirlari Lidsda (Angliya) tomonlarni qondiruvchi shartnomaga intilishlari Samara bermadi. Muzokaralar o'ta murakkab tarzda kechirdi.

1978-yil avgust oyining boshida AQSh Isroil va Misr hukumatlariga navbatdagi bosim o'tkazib, tomonlardan oliy darajadagi uchrashuvni amalga oshirishni so'ragan. 1978-yil 6 avgustida S.Vens Quddusga 7 avgustda Iskandariyaga tashrif buyurib, Begin va Saodatga prezident Karterning maktubini topshirgan. Unda AQSh prezidenti Begin va Saodatni Kemp-Devidga (AQSh prezidentlarining shahardan tashqaridagi qarorgohi) oliy darajadagi uchrashuvga taklif qilgan. 1978-yilning 6 sentyabrda AQSh, Misr va Isroil rahbarlarining oliy darajadagi uchrashuvi o'z ishini boshladi. Kemp-Devid qarorgohi Vashingtondan 110 km shimolroqda joylashgan bo'lib, u uchrashuv jarayonida, dengiz piyoda askarlari tomonidan qo'riqlangan. Bu albatta uchrashuvning jiddiyligi va

muhimligidan darak berardi. Kemp-Devid uchrashuvining 11-kunida uzoq davom etgan bahslardan keyin, ya'ni 17 sentyabr kuni Karter, Saodat va Begin ikkita hujjatga imzo chekadilar.

Birinchi hujjat «Yaqin Sharqdagi sulhning chegaralari» deb atalgan. Unda Jordan daryosining g'arbiy sohilida va G'azo sektorida Isroilning nazorati ostida «o'z-o'zini boshqarayotgan muxtoriyat» barpo etilishi nazarda tutilgan. Muxtoriyat, besh-yilga mo'ljallangan o'tish davrida amalga oshirilishi lozim bo'lgan. Isroil ushbu hududlarda o'zining harbiy va fuqaroviy ma'muriyatlari faoliyatiga barham berishi shart edi. Isroil qo'shinlarining ma'lum qismi belgilangan zonalarga havfsizlikni ta'minlash uchun ko'chirtirilishi rejalashtirilgan. G'arbiy sohil va G'azo sektoridagi yahudiylar manzilgohlari to'g'risida «Yaqin Sharqdagi sulhning chegaralari»da umuman fikr yuritilgani yo'q. Ushbu hujjatda Yaqin Sharq inqirozining keskin masalalaridan biri bo'lmish – Quddus shahrining taqdiri haqida ham so'z yuritilgani yo'q. Suriyaning Golan tepaliklari muammosiga ham bag'ishlangan bironta band hujjatda o'z aksini topgan emas.

Ikkinchi hujjat «Misr va isroil o'rtasida sulh shartnomasi imzolanishga belgilangan chegaralar» deb nomlangan. Tomonlar kelishuviga muvofiq 3 oy ichida, ya'ni 1978-yil 17 dekabrgacha tegishli shartnoma tayyorlashlari kerak bo'lgan. Isroil o'z qo'shinlarini Sinay hududidan bosqichma-bosqich ravishda 3 - yil ichida chiqarishi shart bo'lgan. Qo'shinlar chiqarish jarayonining dastlabki bosqichida Misr va Isroil o'rtasidagi munosabatlar normallashtirishi ko'zda tutilgan. Bosh vazir M.Begin Sharqiy Sinaydagi Isroil manzilgohlari to'g'risidagi masalani mamlakat parlamenti-knessetda ko'rib chiqishga va'da berdi. 1978 - yilning 17 sentyabrda A.Saodat Begin va Karter Oq uyning sharqiy xonasida ushbu ikkita hujjatga imzo chekdilar. Shu o'rinda yana bir kara ta'kidlash lozimki, 1978 - yil 17 sentyabrda imzolangan ikkinchi hujjat – «Misr va Isroil o'rtasida sulh shartnomasi imzolanishga belgilangan chegaralar» bu hali sulh shartnomasi emas, balki uning taxminiy rejasi edi, xolos. Isroil-Misr muzokaralari shuni ko'rsatdiki, tomonlar shu safar bir-biriga yon berishni istamagan. Oxir oqibatda ikki davlat

o'rtasidagi sulh shartnomasining matni belgilangan muddatga, ya'ni 1978-yil 17 dekabr gacha tayyorlanmadi.

1978-yilning 12-oktyabrda Misr va isroil delegasiyalari shartnomaning ayrim asosiy bandlarini muhokama qilish uchun Vashingtonda uchrashdi. Isroil hukumati vakillari uchrashuvda: Isroil qo'shinlari Sinay yarim orolidan chiqarilayotgan dastlabki bosqichida ikki davlat o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatish imzolayotgan Isroil-Misr shartnomasida Misrning boshqa arab davlatlari bilan imzolangan har qanday shartnomasidan ustun turganini ta'kidlash (boshqacha qilib aytganda Isroil boshqa arab davlati bilan harbiy to'qnashuvga kirishgan bo'lsa, Misr betaraflikni saqlashi shart edi); imzolanayotgan shartnoma matnida uning va 1978-yil 17-sentyabrda imzolangan «Yaqin Sharqdagi sulhning chegaralari» shartnomasi o'rtasida aloqa bor degan fikrga o'rin qoldirmaslik kabi qat'iy talablar o'rtaga tashlandi. Isroilning oldingi bosimiga yon berib kelgan A.Saodat endi yuqorida zikr etilgan talablarga u tezda yon bera ololmasdi. Misr prezidentining isroilliklar talablarini yumshatilishiga qaratilgan barcha urinishlari ijobiy natija keltirmadi. O'zaro da'vogarlik, bahs va munozara 1979-yilning mart oyigacha davom etdi. Oxir oqibatda asosan Isroil hukumati talablaridan tuzilgan Misr-Isroil sulh shartnomasining loyihasi qabul qilindi. 1979-yil 8-13 martida AQSh prezidenti Jeyms Karter Yaqin Sharqqa tashrif buyurdi. AQSh prezidentining misr va Isroilga amalga oshirilgan tashrifi natijasida A.Saodat va M.Begin ikkala davlat o'rtasida tinchlik shartnomasiga imzo chekishga rozilik berdilar. Tomonlar shartnomani Vashingtonda 1979-yilning 26-martida imzo chekishga ahd qilganlarini ma'lum qildi.

1979-yil 26-martida Kemp-Devidda isroil va Misr o'rtasida tinch-totuv shartnomasi imzolandi. Unda Misr prezidenti A.Saodat Isroil bosh vaziri Menaxem Begin va AQSh prezidenti Jeyms Karterning imzolari mavjud. Shartnomaga muvofiq Misr va Isroil o'rtasida urush holatiga barham berildi. Isroil armiyasi Sinay yarim orolidan uch-yil mobaynida chiqarilishi nazarda tutilgan. Qo'shinlar Sinaydan chiqarib boshlaganicha to'qqiz oy o'tgandan so'ng Misr va Isroil o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilishi lozim bo'lgan.

Kemp-Devid (1978-yil sentyabr – 1979-yil mart) shartnomalari arablar dunyosida mutlaqo qabul qilinmadi. 1978-yil noyabr oyida Bag‘dodda 10 ta arab davlatlari boshliqlarining uchrashuvida A.Saodatning Kemp-Deviddagi faoliyatiga, umuman Misrning Yaqin Sharq muammosida to‘tgan pozitsiyasiga siyosiy baho berildi. Ushbu yig‘ilishda «Kemp-Devid bitimlari arab davlatlari tanlagan bosh siyosiy yo‘nalishiga zid turdi va arab millatining tarixiy huquqinin paymol etishga xizmat qilmoqda» degan xulosa chiqarildi. G‘arb davlatlari esa Kemp-Devid bitimlariga ijobiy baho berib, qabul qilingan qarorlar Yaqin Sharq muammosini bartaraf etishda salmoqli hissa qo‘shdi degan fikrlarni ilgari surgan. Aksincha Sovet Ittifoqi va socialistik davlat boshliqlari Kemp-Deviddagi shartnomalarni qoraladi va rad etdi.

Misr-Isroil tinchlik shartnomasiga Sovet Ittifoqining munosabatini 1979-yil 24-26 martida, SSSR tashqi ishlar vaziri A.A.Gromykoning Suriyaga amalga oshirgan tashrifi bo‘yicha qabul qilingan SSSR-Suriya qo‘shma bayonotida ko‘rish mumkin. Unda quyidagi fikrlar bayon qilingan: «Yaqin Sharq inqirozi bo‘yicha SSSR va Suriya har qanday ayirmachilik harakat va kelishuvlar yo‘lini qat’iy rad etadi, chunki bunday harakatlar Isroil va uning maslakdoshlariga bosqinchilik rejalarni amalga oshirishga xizmat qiladi».

Keyingi voqyealar ma’lum darajada SSSRning Kemp-Devid bitimlariga bergan bahosini tasdiqladi. Kemp-Devid kelishuvidan keyin Isroil arablar dunyosiga qarshi siyosatni yanada «dadilroq» qadamlar ila ilgari suradigan bo‘ldi. 1980-yilda Quddus shahri Isroilning «abadiy va yagona poytaxti» deb e’lon qilindi, 1981-yilning dekabrda Knesset qarori bilan Suriyaning Golan tepaliklari hududidagi aholiga Isroil qonunchiligi joriy etildi, 1982-yil 6 iyunida Isroil qo‘shinlari janubiy Livanga bostirib kirdi.

Kemp-Devid shartnomalari Misrning o‘zida ham yagona fikr va mulohazalar uyg‘otgan emas. Anvar Saodat kursiga qarshi chiqqan oppozision kuchlar safida turli diniy oqimlar va guruhlar, hukmron va harbiy doiralardagi ayrim arboblari, milliy burjuaziya vakillari bo‘lgan. Bu kuchlar Saodat tartibotiga qarshi kurash olib borishga ham tayyor edilar. Shuning uchun ham A.Saodat 1981-yilning

sentyabr oyida o'zining siyosiy raqiblariga qarshi qatag'onlar va boshqa qat'iy choralarni amalga oshirdi. Lekin A.Saodatning oppozitsiyaga qarshi uyushtirgan choralari mamlakatdagi ichki vaziyatni o'ta keskinlashtirdi va 1981-yil 6-oktyabr dramatik voqealariga olib keldi.

1981-yil 6-oktyabrda Qohirada 1973-yilgi arab-isroil urushiga bag'ishlangan an'anaviy harbiy parad o'tayotgan paytda katta leytenant Xolid al-Islombo'li boshchiligida bir necha soldatlar prezident A.Saodatga qarshi o't ochib uni o'ldirdilar. Suiqasd tashkilotchisi polkovnik Zumrning farmoyishini bajargan Xolid al-Islombo'li «Takfir ua Xijra» diniy tashkilotining a'zosi bo'lganligi aniqlangan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Yaqin Sharq mamlakatlari deganda qaysi davlatlarni tushunasiz?
2. 1948-yil 15 yanvarda Portsmut shahrida imzolangan Angliya-Iroq shartnomasining mazmuni haqida so'zlab bering.
3. Arab Davlatlar Ligasi (ADL) qachon v anima maqsadda tashkil qilindi? Unga qaysi arab davlatlari birlashgan?
4. Falastin muammosi deganda nimani tushunasiz?
5. Falastin muammosi yuzasidan Pil boshchiligidagi qirollik komissiyasi bergan taklif nimadan iborat edi?
6. «Doira stoli» konferensiyasi qaysi davlat vakillari ishtirokida o'tkazildi? Sizningcha ushbu konferensiyaning natijasiz yakunlanishiga nima sabab bo'lgan?
7. 1945-yil mayida yahudiy agentligi Britaniya ma'muriyatiga o'zining qanday talablarini bildirgan edi?
8. Sionizm harakati haqida so'zlab bering.
9. 1948-1949 yillarda kechgan Falastin urushi qanday bosqichlardan iborat?
10. J.A.Nosir ilgari surgan Misr tashqi siyosatining uchta asosiy tamoyil nimalardan iborat edi?
11. Kemp-Devid shartnomasi mohiyatini tushuntirib bering.

12-MAVZU. BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTI VA UNING XALQARO MUNOSABATLARDAGI O‘RNI VA ROLI

Reja:

12.1. Xalqaro tashkilot tushunchasi va ularning turlari

12.2. BMT ning tashkil topishi va uning strukturasi hamda uning harakatlantiruvchi mexanizmlari

12.3. “Sovuq urush” davrida xalqaro munosabatlarda BMT ning to‘tgan o‘rni va roli.

12.4. Birlashgan Millatlar Tashkilotining quolsizlanish va tinchlikni saqlash bo‘yicha faoliyati.

12.5. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Insonparvarlik yordamlari bo‘yicha faoliyati

12.6. BMT ning hozirgi vaqtdagi o‘rni va vazifalari.

Tayanch tushunchalar: «Birlashgan millatlar» atamasi. Dumbarton-OKS konferensiyasi. BMT ustavi va uning kuchga kirishi. BMTning strukturasi va uning harakatlantiruvchi mexanizmlari. Falastindagi urushning to‘xtatilishida (1947) Hindistonda Kashmir muammosining hal etilishida (1948), Indoneziya va Kipr nizolarining bartaraf qilinishida (1962, 1964) Yaqin Sharqda urush o‘choqlarining o‘chirilishida (1956, 1967, 1973) BMTning to‘tgan o‘rni va roli. 1960-yil 14-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan mustamlaka mamlakatlar va xalqlarga mustaqillik berish to‘g‘risidagi deklarasiyasining qabul qilinishi. «Yadro halokatining oldini olish to‘g‘risida», «Yadro urushini qoralash» haqida deklarasiyalarining qabul qilinishi. 1990-1999 yillar BMT va xalqaro huquq o‘n yilligi davri deb e‘lon qilinishi. Nyu-Yorkdagi «ming yillik sammiti».

12.1. Xalqaro tashkilot tushunchasi va ularning turlari

Xalqaro tashkilotlar — mustaqil davlatlarning birlashmalari bo‘lib, ular xalqaro shartnomalar va nizomlar asosida ma‘lum maqsadlarda barpo etiladi

hamda doimiy harakatlanuvchi organlarga ega bo‘ladi, shuningdek, xalqaro huquq asosida ta‘sis etilgan bo‘lib, xalqaro huquqiy sub‘ektlarga ega bo‘ladi.

Xalqaro tashkilotlarning turkumlari quyidagi xususiyatlarga ko‘ra o‘tkazilishi mumkin: ularning faoliyat ko‘rsatish doirasi va faoliyatlar mavzusi bo‘yicha. Xalqaro tashkilotlarning quyidagi turlarini ajratish mumkin:

1. **Davlatlararo hammabop tashkilotlar** bo‘lib. Ularning maqsad va faoliyat mavzusi dunyoning barcha davlatlarida qiziqish uyg‘otadi.

a) *BMT* (asosiy organlar: Bosh Assambleya, Xavfsizlik kengashi, Iqtisodiy va ijtimoiy Kengash (EKOSOS), Xalqaro sud va kotibiyat) quyidagi asosiy maqsadlarni ko‘zlaydi: xalqaro tinchlik va xavfsizlikni qo‘llab-quvvatlash va ushbu maqsadlarda jamoatchilik tomonidan tinchlikka xavf soluvchi tajovuzlarni samarali bartaraf etish hamda tajovuzkorlikka qarshi choralar ko‘rish, adolat va xalqaro huquq tamoyili asosida xalqaro kelishmovchilikka olib keluvchi vaziyatlarni bartaraf etish, tinchitish, ularning tinchlikka xavf solishini oldini olish; teng xuquqli va xalqlarning o‘z taqdirini o‘zlari hal etish tamoyillarini hurmat qilgan holda millatlar o‘rtasidagi do‘stona munosabatlarni rivojlantirish; ushbu umumiy maqsadlarga erishish yuzasidan harakatlarning kelishilgan markaziga aylanish;

b) *BMT ning ixtisoslashgan muassasalari* — mustaqil xalqaro tashkilotlardir. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlariga bevosita va bilvosita quyidagilar kiradilar: Xalqaro valyuta fondi, Xalqaro tiklanish va rivojlanish banki, Xalqaro moliyaviy uyushma (XMU) va Xalqaro rivojlanish uyushmasi.

2. **Mintaqaviy davlatlararo tashkilotlar.** Bunday tashkilotlar jug‘rofiy mintaqadagi davlatlar tomonidan barcha masalalar yuzasidan barpo etiladi.

3. **Xalqaro hukumatlardan tashqari tashkilotlar.** Bu tashkilotlar xalqaro hukumatlarning sub‘ektlari hisoblanmaydi, biroq bunday tashkilotlar o‘z faoliyatini milliy, mintaqaviy va xalqaro tizimdagi davlatlararo miqyosda yuritadi va yuridik shaxs nufuziga ega bo‘ladi.

Hozirgi kunda jahon siyosatida xalqaro tashkilotlarning rolini bir vaqtlardagidek kuchsiz deb baholab bo‘lmaydi. Bugunda ular jahon siyosat

maydonida mustaqil sub'ektlar sifatida namoyon bo'lmoqdalar. Shubhasiz, xalqaro tashkilotlar geosiyosiy va mintaqaviy jarayonlarda yanada katta o'ringa ega bo'lib bormoqdalar. Ular haqli ravishda xalqaro munosabatlarning teng huquqli ishtirokchisi hisoblanadi.

Birinchi xalqaro tashkilotlar XIX asrning boshlari va o'rtalarida paydo bo'ldi: Reynda kemachilik bo'yicha Markaziy komissiya (1815 y.), Xalqaro telegraf ittifoqi (1865 y.) va Umumiy pochta ittifoqi (1874). Birinchi xalqaro tashkilotlar iqtisodiyot, transport, madaniyat, davlatlarning ijtimoiy manfaatlari sohasida tuzilgan bo'lib, ular o'z maqsadlariga ko'ra siyosatdan tashqari sohada birgalikdagi transchegaraviy hamkorlikka yo'naltirilgan edi. O'sha paytlarda xalqaro tashkilotlar faqatgina yuqorida sanalgan hamkorlik turlari uchun asos bo'lib xizmat qilgan.

XX asrning boshlariga kelib, bu chog'da xalqaro hamkorlik jarayonlarining jadallashishi sabab bunday tashkilotlar soni o'sdi. Bu hol, o'z navbatida, bunday tashkilotlarning yana ham tez rivojlanishi uchun zamin hozirladi. Juda qisqa vaqt faoliyat ko'rsatganligini hisobga olmaganda, 1919 yilda tuzilgan Millatlar Ligasi, shubhasiz, siyosiy xalqaro tashkilot tuzishdagi birinchi qadam edi. Kollektiv xavfsizlik tamoyillariga asoslangan tashkilot tuzish g'oyasining o'zi Millatlar Ligasini bugungi xalqaro tashkilotlarning asoschilaridan biriga aylantirdi. Biroq yangi jahon urushlari oldini olish uchun tuzilgan Millatlar Ligasi muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Negaki, kollektiv xavfsizlik tamoyili o'z tatbiq qilinish (qo'llanish) o'rnini topmadi. U kollektiv xavfsizlik, qurolsizlanish, mojarolarni tinch yo'l bilan tartibga solish va xalqaro huquqni hurmat qilishga yordam berishi lozim bo'lgan tashkilotdan, hozirgi ingliz tadqiqotchisi K.Archer ta'rifiga ko'ra, «bo'sh po'choqqa» aylandi. Uni o'z manfaatlaridan tashqari siyosat olib borish yoki Liga maqomi tufayli biror narsani yo'qotishni istamagan mamlakatlar tan olmadi.

Dunyoga nafaqat urushni yoqlamaydigan, balki uni samarali bartaraf eta olish huquq va imkoniyatlariga ega bo'lgan yanada kuchli tizim zarurligi ma'lum bo'ldi. Shunisi harakterliki, Millatlar Ligasi BMTga hozirgi vaqtdagi shaklini

olishiga qaysi bir darajada yordam berdi. Ko'pchilik ekspertlar BMT tuzilishi jihatdan samarali bo'lganligi, chunki u o'z o'tmishdoshining kamchiliklarini hisobga olganligini tasdiqlashadi. Vaqt ko'rsatdiki, BMT Nizomi dunyoda tinchlik va xavfsizlikni saqlash, shuningdek, siyosatdan tashqari sohada hamkorlikni rivojlantirishning samarali va ta'sirchan vositasi ekanligi ma'lum bo'ldi.

BMT va boshqa xalqaro tashkilotlarning faoliyati ularning yutuq va kamchiliklarini ko'p darajada oldindan belgilab qo'ygan muayyan xalqaro muhitda kechdi. 1945-1990 yillarda BMT xalqaro munosabatlarning urushdan keyingi ikki muhim omilining hal qiluvchi ta'siri ostida rivojlanib bordi. Ulardan biri — Sharq va G'arb o'rtasidagi «sovuq urush», ikkinchisi — iqtisodiy rivojlangan SHimol va ortda qolgan qashshoq Janub o'rtasidagi ko'chayib borayotgan mojaro (ziddiyat) edi. Shu jihatdan BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar tarixi urushdan keyingi dunyo rivojining aks etishi hisoblanadi. Qayd etish lozimki, xalqaro tashkilotlar boshqalardan mutlaqo ajralib turadigan tuzilmalarni o'zida ifoda etmaydilar, chunki geosiyosiy jarayonlar ularning faoliyatiga ta'sir qiladi, shuning uchun har qanday xalqaro tuzilma ushbu jarayonlarning aksigina hisoblanadi.

Xalqaro tashkilotlar nisbatan uzoq bo'lmagan yo'lni bosib o'tar ekan, XXI asrga jahon geosiyosiy jarayonlarining to'laqonli ishtirokchilari bo'lib kirdilar. Har qanday turdagi xalqaro tashkilotning shakllanishi davlatlar o'rtasidagi u yoki bu muammolarning hal qilinishi muhimligiga asoslanadi. Muammolarning muhimlik darajasi mustaqil davlatlarning o'zlari tomonidan belgilanadi, shundan ularning tasnifi aniqlanadi, ya'ni mazkur muammolarni echishga yo'naltirilgan xalqaro tashkilotlar hukumatlararo yoki nohukumat xalqaro tashkilotlar maqomiga ega bo'ladilar.

Bugungi kunda xalqaro tashkilotlarning tinchlikni saqlash, mojaro va bahs-munozaralarni tartibga solishdagi roli beqiyos, ularsiz hozirgi dunyoni tasavvur qilish mumkin emas. Globallashuv va integratsiyalashuv, o'z navbatida, bunday tashkilotlarning mavqeini yanada mustahkamlaydi. Globallashuv, avvalo, iqtisodiyot, texnologiya, kommunikatsiya, fan va transport sohasidagi transchegaraviy o'zaro aloqaning (hamkorlikni) yanada mustahkam bo'lib

borishini bildiradi. U, garchi turli darajada bo'lsa-da, o'zaro bog'liqlikning jamuljam tizimida deyarli barcha davlatlar, jamiyatlar, tashkilotlar, aktyorlar va individlar guruhini o'z ichiga oladi. Bo'larning barchasi xavf-xatar va tavakkachiliklar: iqtisodiy, xalqlarning ko'chishi (migratsion), ommaviy qirg'in qurollarining tarqalishi, jinoyatchilik, giyohvand moddalar savdosi va boshqa sohalarning dunyoviy qo'shib (chatishib) ketish bilan birga kechadi. Shu tariqa, globallashuv ko'ptomonlama diplomatiya ahamiyatining ortishi va ayni paytda uning murakkablashishiga yordam berdi.

Xalqaro munosabatlarning, hammasi bo'lmasa-da, ko'pchilik jiddiy muammolari ko'p sonli davlatlar va xalqaro hukumatlararo tashkilotlarni ularni hal qilish uchun jalb qiladi. Hozirgi xalqaro tashkilotlar ikkita asosiy turga bo'linadi: hukumatlararo va nohukumat tashkilotlar. Har ikki tashkilotning ham o'rni muhim va ularning barchasi davlatlarning turli sohalardagi muloqotiga yordam beradi. Hukumatlararo tashkilotlar hech bo'lmaganda quyidagi belgilarga ega bo'lishlari lozim: xalqaro huquqqa muvofiq tuzilishi. Har qanday hukumatlararo tashkilot huquqiy asosda tashkil topmog'i lozim, xususan, tashkilot alohida bir davlatning va umuman, xalqaro hamjamiyatning manfaatlariga zarar etkazmasligi zarur; xalqaro shartnoma (konvensiya, bitim, trakt, protokol va sh.k.) asosida tashkil topishi. Bunday shartnoma tarafdorlari suveren davlatlar hisoblanadi, keyingi paytlarda esa hukumatlararo tashkilotlar ham shular qatoriga kirmoqda (Masalan, EI ko'pchilik baliq ovlovchi tashkilotlarning a'zosi sanaladi).

Xalqaro tashkilotlarni tuzishdan maqsad u yoki bu sohada davlatlarning kuchini birlashtirishdan iborat: siyosiy (OBSE), harbiy (NATO), iqtisodiy (ES), valyutamoliyaviy (XVF) va boshqalar. Ammo BMT kabi tashkilot qariyb barcha sohada davlatlarning faoliyatini muvofiqlashtirishi lozim. Bunday vaziyatda xalqaro tashkilot a'zo-davlatlar o'rtasida vositachi bo'lib o'rtaga chiqadi. Ba'zan davlatlar xalqaro munosabatlarning eng qiyin masalalarini muhokama va hal qilish uchun xalqaro tashkilotga topshiradilar; har bir hukumatlararo tashkilot tegishli tashkiliy tuzilmaga ega bo'lmog'i lozim. Ushbu alomat guyoki tashkilotning doimiy harakterini tasdiqlaydi va shu tariqa uni ko'psonli boshqa xalqaro

hamkorlik forumlaridan farqlaydi; hukumatlararo tashkilotlar shtab-kvartiraga, mustaqil davlatlar va yordamchi organlar siyomosida a'zolarga ega bo'ladilar; hukumatlararo tashkilotning ta'sis hujjatlarida umumiy shaklda mustahkamlangan huquq va majburiyatlarining mavjud bo'lishi.

Xalqaro tashkilot o'z vakolatini amalga oshira olmaydi, lekin mustaqil xalqaro huquq va majburiyatlarga ega, ya'ni a'zo-davlatlar ixtiyoridan farqli ravishda muxtor xohish-irodaga ega bo'ladi. Bu belgi har qanday tashkilot o'z faoliyati sohasida a'zo-davlatlar tomonidan unga yuklangan huquq va mavjburiyatlarni bajarish vositasini mustaqil tanlashi mumkinligini bildiradi. Shunday qilib, yuqorida bayon qilingan belgilarga ega bo'lgan xalqaro tashkilot xalqaro hukumatlararo tashkilot sanaladi. Hukumatlararo bitim (kelishuv)lar asosida tasdiqlanmagan har qanday xalqaro tashkilot xalqaro nohukumat tashkilot hisoblanadi. Bunday tashkilotlar eng kamida bitta davlat tomonidan e'tirof qilingan bo'lishi, ammo kamida ikki davlatda o'z faoliyatini amalga oshirishi lozim. Bu kabi tashkilotlar ta'sis hujjatlari asosida tashkil qilinmoqda va hozirgi paytda dunyoda ularning soni 8000 ming atrofidadir.

Xalqaro nohukumat tashkilotlar hozirgi xalqaro munosabatlarning barcha yo'nalishlarida faol ishtirok etmoqda, bir qator sohalarda esa ular hatto yetakchi hisoblanadi (masalan: insonparvarlik, beg'arazlik, mustaqillik va ko'ngillilik Qizil xoch qo'mitasi faoliyatining tamoyillari sanaladi va u davlatlarning turli sohalardagi hamkorligiga katta hissa qo'shdi). Xalqaro hukumatlararo va nohukumat tashkilotlari o'rtasidagi farqlarga qaramasdan ular faol hamkorlik qilishmoqda. Maslahatlashuv maqomi bunday hamkorlikning asosiy shakli hisoblanadi.

Xalqaro tashkilotlar xalqaro tizimni boshqarishning alohida shaklini yaratmoqdaki, bu shakl davlatlarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalardagi manfaatlarining o'zaro bog'liqliqligi va qo'shib ketishi ko'chayib borayotgani tufayli zarurdir. Xalqaro tashkilotlar transchegaraviy siyosiy jarayonning institutsional doiralarini shakllantiradi, unda ko'psonli davlat va hamjamiyatlarning davlat yoki nodavlat aktyorlari ishtirok etishadi. Xalqaro

hukumatlararo tashkilotlar ikkilamchi va yasama bo‘ladi, chunki ular xalqaro huquqning birlamchi (boshlang‘ich) sub‘ektlari — davlatlar tomonidan tuzilgan, xalqaro huquqning sub‘ektlari hisoblanadi. Umuman, Xalqaro hukumatlararo tashkilotlar siyosiy sohada davlat butkul va to‘lig‘icha o‘ziga ololmaydigan boshqaruvning ma‘lum funksiyasini o‘z zimmasiga oladi. Xalqaro nohukumat tashkilotlar xalqaro xususiy huquqning sub‘ektlari hisoblanadi.

Bugungi kunda xalqaro tashkilotlar bir qator muhim vazifalarni bajarmoqda. Masalan, xalqaro tashkilot katta bo‘lmagan davlatlarning kollektiv tashkiloti uchun qulay joyni o‘zida ifoda etadi. Dunyodagi barcha mustaqil davlatlarning yarmidan ko‘pi — kichiq va kuchsiz davlatlar bo‘lib, ular xalqaro huquqning suveren va teng huquqli sub‘ektlar hisoblanadi. Biroq amalda ular xalqaro maydonda kuchlarini birlashtirishlari tufayli o‘z manfaatlarini ta‘minlashlari mumkin. Xalqaro tashkilotlar kichiq davlatlar uchun instutsional shakllar yaratmoqdalar. Kichiq davlatlar kelgusida ushbu shakllar orqali o‘z manfaatlarini himoya qilishlari uchun ular yordamida dastlab maxsus birlashmalar tuzishlari mumkin.

12.2. BMT ning tashkil topishi va uning strukturasi hamda uning harakatlantiruvchi mexanizmlari

Ko‘pchilik xalqaro tashkilotlar «bitta mamlakat — bitta ovoz» tamoyiliga ko‘ra ish tutishlari sababli bu hol qaror qabul qilishda ancha ko‘pchilik ovoz olish zaruratini yuzaga keltiradi. Natijada kichiq davlatlar ovoz berish natijalari va muayyan rezolyusiyalarning mazmun-mundarijasiga nisbatan kattagina ta‘sir kuchiga ega bo‘lishlari mumkin, bu, tabiiyki, diplomatik munosabatlar va o‘zaro hamjihatlikning rivojlanishida ijobiy omil hisoblanadi. Shu sababdan xalqaro tizimda BMTning hozirgi roli haqida turli fikrlar mavjudligini qayd etish lozim: BMT qurolli mojarolarni bartaraf etish va xalqaro kelishmovchilik hamda janjallarni tinch yo‘l bilan hal qilish borasidagi o‘z vazifalarini allaqachon bajarolmay qoldi; BMTning hozircha hech qanday muqobili mavjud emas, boshqacha aytganda, mintaqaviy tashkilotlar alohida mintaqalar manfaatlarini ifoda qiladi, ular ko‘pincha to‘g‘ridan-to‘g‘ri bir-biriga zid bo‘ladi, shu sababli

butunjahon tashkilotisiz mojarolarni hal qilishning umumiy me'yor va yo'llarini ishlab chiqishning imkoni yo'q.

Ma'lumki, so'nggi yillarda «insonparvar bosqinchilik» muammosi tez-tez ko'tarilmoqda, bu inson huquqlariga xavf (genotsid va qatag'on) tug'ilgan taqdirda, BMT a'zolarining ichki mojarolarga aralashish huquqini bildiradi. Shunday qilib, BMTning faoliyat ko'rsatishi zarurati, uning maqsad va vazifalari muvofiqligi muammosi paydo bo'lmoqda. Tashkilotning barcha a'zolari tengligi, janjalli masalalarni tinch yo'l bilan hal qilish, har qanday davlatga qarshi tahdid qilish va kuch ishlatishdan tiyilish BMTning muhim tamoyillari hisoblanadi. BMT Nizomida tinchlikka tahdidni bartaraf qilish va oldini olish hamda tajovuzkor harakatlarini yo'qotish uchun «samarali kollektiv choralar ko'rish», shuningdek, xalqaro janjallarni «odillik va xalqaro huquq tamoyillariga muvofiq tinch vositalar bilan» hal qilish tashkilot a'zolari uchun ko'rsatma qilib yozib qo'yilgan.

Xalqaro munosabatlarning asosiy boshlanmasi sifatida ilk bor xalqlarning teng huquqliligi va o'z taqdirini o'zi belgilashi tamoyili Nizomda mustahkamlab qo'yilgan edi. Shuningdek, Nizomda tinchlik va xavfsizlikka tahdid mavjud bo'lganda va uni bartaraf etishda boshqa barcha vositalar samarasiz bo'lgan taqdirda BMT kuchlari tomonidan majburlovchi harbiy aralashuv zaruriyati ham belgilab qo'yildi. Ammo bu harakatlar davlatning butkul ichki ishlariga tegishli bo'lgan va xalqaro xavfsizlik ham, mazkur davlatning tinch aholisi hayoti va huquqlariga xavf solmaydigan vaziyatlarga daxldor emas.

Nizomda belgilangan majburiyatlarni o'z zimmasiga oladigan va Tashkilot fikriga ko'ra, ularni bajarishi mumkin bo'lgan barcha tinchliksevar davlatlar BMTning a'zosi bo'lishi mumkin. Ushbu majburiyatlar, tinchlik paytida bo'lgani kabi mojaro sharoitida ham, xalqaro maydonda davlatlar hamkorligining har qanday ko'rinishiga aloqador bo'lgan muayyan vaziyatlarda davlatning atvori (o'zini tutishi) qoidalariga daxldordir.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti oltita asosiy organ: *Bosh Assambleya, Xavfsizlik Kengashi, Iqtisodiy va Ijtimoiy kengash, Vasiylik kengashi, Xalqaro sud va kotibiyatga* ega. Ularning vakolati, vazifa va faoliyati xalqaro tashkilot

vakolatiga kiruvchi barcha masalalarni qamrab olishga imkon beradi. BMTning kelajagi ushbu tashkilot tizimining yanada samarali ishlashini ta'minlash, yangi xalqaro siyosiy madaniyatni belgilash uchun qanday choralar ko'rilishiga bog'liq. Shunday qilib, xalqaro tashkilotlar rolining oshishi turli bahs-munozaralarni hal qilishda ham, harbiy mojarolarni bartaraf etishda ham davlatlar uchun muayyan kafolatlarni yaratadi. Xalqaro tashkilotlarning tuzilishi va mavjud bo'lishi butun insoniyatni yaqinlashtirishga keng imkoniyatlar ochadi va sivilizatsiyaning yanada tez taraqqiy etishiga yordam beradi. Davlatlarning hukumatlararo tashkilotlar doirasidagi hamkorligi tegishli vazifalarni kun tartibiga qo'yish va hal qilishning milliy mexanizmlari davomi sifatida yanada kengaymoqda. Bu esa davlatlarning ichki va tashqi siyosatini yaqinlashtirishga olib keladi. Davlatlar o'z mustaqilliklarini xalqaro tashkilotlar bilan bo'lishish borasida katta tayyorgarlik namoyon etadilar, bu hol xalqaro munosabatlarda xalqaro tashkilotlarning roli va ahamiyati oshishiga yordam beradi. Boshqacha aytganda, xalqaro tashkilotlar soni kabi ularning ahamiyati ham ancha ortishi kutilmoqda. Shu o'rinda, xalqaro munosabatlarning nodavlat ishtirokchilari to'g'risida alohida to'xtalish maqsadga muvofiqdir.

Xalqaro munosabatlarning nodavlat ishtirokchilari qatoriga jahon maydonida faoliyat yuritayotgan hukumatlararo tashkilotlar (HT), nohukumat tashkilotlar (XNT), transmilliy korporatsiyalar (TMK) hamda bir qancha jamoat tashkilotlari va harakatlari kiritilgan. Ular mavqeining oshib borishi xalqaro munosabatlarning Ikkinchi jahon urushidan keyingi davriga xos bo'lgan nisbatan yangi hodisadir. Bu jarayon sovuq urush nihoyasiga qadar jahon siyosatida muhim ahamiyat kasb etmagani tufayli nodavlat ishtirokchilar siyosiy fanlar doirasida etarlicha o'rganilganini ta'kidlash joiz. Ularga nisbatan "ko'rinmas kontinent" yoki "ikkinchi dunyo" kabi atamalarning qo'llangani ham bejiz emas.

“Xalqaro tashkilotlar” atamasi odatda davlatlararo (hukumatlararo) va nohukumat tashkilotlarga nisbatan qo'llanadi. Bunday tashkilotlar quyidagi belgilari bilan ajralib turadi:

1. Davlatlarning a'zoligi;

2. *Xalqaro ta'xis shartnomasining mavjudligi;*
3. *Doimiy organlarning mavjud bo'lishi;*
4. *Davlatlar suverenitetining hurmat qilinishi.*

Xalqaro tashkilotlar xalqaro huquqning sub'ektlari hisoblanadi. Nohukumat xalqaro tashkilotlarning asosiy farqli belgilari ularning davlatlararo shartnoma asosida tashkil etilmagani, jismoniy va yuridik shaxslarni birlashtirishi (masalan, Xalqaro huquq assotsiatsiyasi) iborat.

A'zolarining tarkibiga ko'ra xalqaro hukumatlararo tashkilotlar: **Birinchidan**, universal, barcha davlatlarning ishtirok etishi uchun ochiq tashkilotlar (BMT va uning ixtisoslashtirilgan tashkilotlari); **Ikkinchidan**, mintaqaviy, ma'lum mintaqada joylashgan davlatlarga a'zo bo'lishi mumkin bo'lgan tashkilotlarga (Evropa kengashi, Afrika birligi tashkiloti) bo'linadi. Bundan tashqari davlatlararo tashkilotlar umumiy va maxsus vakolatlarga ega tashkilotlarga bo'linadi. Umumiy vakolatlarga ega tashkilotlar faoliyati a'zo davlatlar o'rtasidagi aloqalarning barcha (siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa) sohalariga tegishli bo'ladi.

Maxsus vakolatlarga ega tashkilotlarning faoliyat yo'nalishi muayyan (siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy) soha doirasi bilan cheklangan bo'ladi. Xalqaro tashkilotlar organlariga uning tarkibiy tuzilma va bo'linmalari kiradi.

Xalqaro tashkilot organlarining xususiyatlari quyidagilar:

1. Xalqaro tashkilot organi ta'xis etuvchi tomonidan yoki boshqa hujjat asosida tashkil etiladi;
2. Unga muayyan huquq va vakolatlar beriladi;
3. U o'ziga xos ichki tuzilish va tarkibga ega;
4. Qarorlar chiqarish huquqiga ham ega;
5. Ta'xis etuvchi yoki boshqa hujjatda uning huquqiy maqomi belgilangan bo'ladi.

Xalqaro tashkilotlar organlarini turli belgilarga ko'ra tasnif etish mumkin. A'zolik belgisiga ko'ra, tashkilotlar va hukumatlararo, parlamentlararo, ma'muriy, jismoniy shaxs sifatida qabul qilingan, turli ijtimoiy guruh vakillaridan iborat

bo'lishi mumkin. Siyosiy fan sohasida xalqaro tashkilotlarni belgilovchi uch asosiy mezon ajratib ko'rsatiladi: birinchidan, hamkorlikka qaratilgan xohish-irodaning tashkilot ta'sis hujjatlarida aks etishi; ikkinchidan, tashkilot taraqqiyotida vorislikni ta'minlovchi doimiy ishchi organning mavjudligi; uchinchidan, layoqatlilik va qaror qabul qilishdagi mustaqillik. Ushbu qoidalarga xalqaro shartnomalarni ishlab chiqish jarayonida asos solingan bo'lib, ular doimiy organlarga ega davlatlarning barqaror birlashmalari bo'lgan xalqaro hukumatlararo tashkilotlar faoliyatining mohiyatini aks ettiradi. Quyida ularning asosiy belgilari va tipologiyasi to'g'risida batafsil to'xtalib o'tamiz.

Napoleon urushining nihoyasiga etgani va xalqaro munosabatlarda yangi bosqich boshlangani haqida darak bergan 1815 yilgi Vena Kongressi Evropa sahnasida yangi ishtirokchi paydo bo'lganini ham bildirdi: Kongressning yakunlovchi akti ilk BMT — Reyn bo'ylab kema qatnovi bo'yicha doimiy komissiya tuzilganini e'lon qildi. XIX asrning oxiriga kelib davlatlarning sanoat, texnika, kommunikatsiya sohalarida hamkorlik zaruratini keltirib chiqargan sanoat inqilobi ta'sirida dunyoda o'nlab shunday tashkilotlar yuzaga keldi. *Xalqaro sanitar konvensiya (1853)*, *Xalqaro telegraf ittifoqi (1865)*, *O'lchov va tarozilarning xalqaro byurosi (1875)*, *Xalqaro pochta ittifoqi (1878)*, *Sanoat mulkini himoya qilish ittifoqi (1883)*, *Xalqaro jinoiy politsiya tashkiloti (Interpol, 1923)*, *Xalqaro qishloq xo'jaligi instituti* kabi tashkilotlar shular jumlasidandir. Birinchi jahon urushidan keyin siyosiy tushdagi Millatlar ligasi, Xalqaro mehnat tashkiloti singari tuzilmalar tashkil etila boshlagan bo'lsa, Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda mamlakatlarning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy sohalardagi hamkorligi va yalpi xavfsizlikni ta'minlash maqsadida ta'sis etilgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti kabi siyosiy tashkilot paydo bo'ldi. Ushbu tashkilot tarkibiga kiruvchi ixtisoslashtirilgan organ va institutlar rivojlanishi barobarida turli sohalarda davlatlararo hamkorlikni kengaytirishga yo'naltirilgan mintaqalararo va mintaqaviy hukumatlararo tashkilotlar tuzila boshladi.

Dunyoning 24 ta rivojlangan mamlakatini birlashtirgan Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (1960), Evropa Kengashi (1949), Evropa ko'mir va po'lat

birlashmasi (1951), Evropa iqtisodiy hamjamiyati (Umumiy bozor, 1957), atom energiyasi bo'yicha Evropa hamjamiyati (Evratom, 1957), Evropa erkin savdo assotsiatsiyasi (EAST, 1960), Arab davlatlari ligasi (1945), Amerika davlatlari tashkiloti (1948), Afrika birligi tashkiloti (1963) va boshqalar shular jumlasidandir. 1945 yildan e'tiboran bunday tashkilotlar soni ikki baravarga oshdi. Masalan, 1970 yillar boshiga kelib ularning soni 220 ta bo'lsa 1970 yillar o'rtalarida 260 taga etdi, hozirgi vaqtda esa ular 400 dan ortiqdir. Bu tashkilotlar faoliyatini tashkil etuvchi ehtiyojlar a'zo mamlakat vakillari ishtirokida muntazam konferensiyalar o'tkazib turishni taqozo qiladi. Bunday konferensiyalarni tayyorlash va ularda qabul qilingan qarorlarning bajarilishini ta'minlash uchun doimiy tarzda faoliyat yurituvchi ma'muriy boshqaruv organlari tuziladi.

Ta'kidlash joizki, xalqaro tashkilotlar apparati xodimlari soni jihatidan hamisha bir xil bo'lmagan. Masalan, BMT faoliyatining ilk davrida uning ma'muriyati va boshqaruv apparati nisbatan kamtarona bo'lgan (masalan, Butunjahon pochta ittifoqi uning rahbari va olti doimiy xizmatchisidan iborat bo'lgan) bo'lsa, hozirgi vaqtda, bu tashkilotda 50 mingdan ziyod xodim xizmat qiladi. BMT doirasidagi tashkilotlar va ularda xizmat qiluvchi xodimlar sonining ortib borishi davlatlar o'rtasidagi aloqalar va ko'p tomonlama hamkorlikning uzluksiz ravishda kengayib borayotganidan dalolat beradi. Bundan tashqari, ushbu tashkilotlar muassis davlatlarga nisbatan muayyan muxtoriyatni qo'lga kiritgani sababli ularni nazorat etish qiyinlashadi. Bu ularning davlatlararo munosabatlarning turli sohalariga muntazam ta'sir o'tkazish imkonini beradi. Shu ma'noda bu tashkilotlar xalqaro institut vazifasini o'taydi.

Tom ma'noda, bunday xalqaro institutlar qarorlari barcha, hatto ulardan norozi bo'lgan a'zo davlatlar uchun ham majburiy ekani xalqaro munosabatlarda kam uchraydigan hodisadir. Bu kabi maqomga ega institutlar hozirgi vaqtda faqat Evropa hamjamiyati doirasida mavjud, xolos. Bu tashkilot Komissiyasi, Vazirlar kengashi va Sudi ko'pchilik ovoz olish tamoyili asosida iqtisodiy, ijtimoiy va hatto siyosiy sohalarida barcha a'zo davlatlar uchun majburiy bo'lgan qarorlar qabul qilish huquqiga ega.

Xalqaro tashkilotlar bir qancha turlarga bo‘linadi. Ulardan birortasi ham mukammal emasligi olimlar tomonidan tan olingan bo‘lsa-da, ana shu bo‘linish nisbatan yangi bo‘lmish ushbu xalqaro aktor haqidagi bilimlarni bir tizimga solishga yordam beradi. Bo‘lar, asosan, "geosiyosiy" mezon, faoliyat yo‘nalishi va sohalariga ko‘ra tasnif etiladi. Birinchi holatda ular universal (masalan, BMT yoki Millatlar ligasi); mintaqalararo (masalan, Islom konferensiyasi tashkiloti); mintaqaviy (masalan, Lotin Amerikasi iqtisodiy tizimi); submintaqaviy (masalan, Benilyuks) kabi turlarga ajratib ko‘rsatiladi. Ikkinchi mezonga ko‘ra, umum sayyoraviy (BMT); iqtisodiy (EAST); harbiy-siyosiy (NATO); moliyaviy (XVJ, Jahon banki); ilmiy ("Evrika"), texnikaviy (Xalqaro telekommunikatsiyalar ittifoqi) yoki yanada tor doirada ixtisoslashtirilgan xalqaro tashkilotlar farqlanadi. Ayni vaqtda, yuqorida keltirilgan mezonlar shartliligi bilan ajralib turadi.

Birinchidan, ularni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yib bo‘lmaydi, chunki ko‘pchilik tashkilotlar har ikkala mezonga tayanib faoliyat yuritishi mumkin. Misol tariqasida tor sohada ixtisoslashgan hamda submintaqaviy harakterdagi sahro (sarancha) chigirtkasini nazorat qilish bo‘yicha Sharqiy Afrika mamlakatlari tashkilotini tilga olish mumkin.

Ikkinchidan, ta‘kidlangan mezonlar asosida tasniflash ancha nisbiydir. Chunki, deylik, texnika sohasiga ixtisoslashgan xalqaro tashkilotlar iqtisodiy va hatto siyosiy vazifalarni amalga oshirishi mumkin. Bu, masalan, a‘zo davlatlarda erkin bozor munosabatlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratish maqsadi bo‘lgan Jahon banki singari tashkilotlarga xosdir. Mazkur bank faoliyat yo‘nalishi va maqsadlarining ko‘pincha siyosiy tusga ega ekani namoyon bo‘lmoqda.

Uchinchidan, XTning nafaqat amaliy, balki siyosiy mustaqilligini bo‘rttirishga zarurat yo‘q. Zero, tashkilot va uning mansabdor shaxslarining maqomi, faoliyat doirasi tegishli me‘yoriy hujjatlarda aniq belgilab qo‘yilgan. Masalan, BMT Nizomining 100-moddasida shunday deyiladi: Bosh Kotib va kotibiyat xodimlari o‘z majburiyatlarini ijro etishda tashkilotga begona bo‘lgan hech qanday hukumat yoki hokimiyatdan ko‘rsatma so‘rashi yoki olishi shart emas. Ular o‘zlarining faqat tashkilot oldida javobgar bo‘lgan xalqaro mansabdor

sifatidagi obro'yiga putur etkazadigan har qanday xatti-harakatlardan saqlanishi lozim. Tashkilotning har bir a'zosi o'z zimmasiga Bosh Kotib va Kotibiyat xodimlari vazifalarining xalqaro ahamiyatga ega ekanini qat'iy hurmat qilish va ularga o'z vazifasini ijro etishda ta'sir o'tkazishga harakat qilmaslik majburiyatini oladi. "(BMT Nizomi. XV bob, 100-modda). Biroq, amalda BMT va uning institutlari faoliyatiga AQSH hamda uning ittifoqchilari turli darajada ta'sir o'tkazadi. Bunga ko'rsatib o'tilgan institutlarda u yoki bu masala yuzasidan qaror qabul qilishda ovoz berish tamoyili yordam beradi. Boshqacha aytganda qudratli davlatlar ushbu institutlar orqali turli mamlakatlarga moliyaviy yordam berishda ko'proq imkoniyatga ega bo'ladi.

AQSH Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF) va Jahon bankida (WB) 20 foizga yaqin ovozga ega. Bu hol xalqaro tashkilotlar va ayniqsa, eng yirik tashkilot BMTning samarali faoliyat yuritishi masalasini ko'ndalang qilib qo'yadi. Xalqaro tinchlik va xavfsizlikni qo'llab-quvvatlash, davlatlararo do'stlik va hamkorlikni rivojlantirish, ularning fikr almashishida o'zaro foydali aloqalarni yo'lga qo'yish maqsadida tuzilgan BMT sovuq urush sharoitida keskin targ'ibot olishuvi maydoniga aylandi. U o'ta siyosiy lashtirilgani sababli ko'pgina hollarda qabul qilgan qarorlari zamon talablariga mos kelmasligi, unga yuklatilgan vazifalarni hal qilishga qodir emasligini namoyon etdi. Bunday holat BMTning tubdan isloh qilinishi zaruratini taqozo etmoqda. Biroq, tarkibiy tuzilishi, uzoq yillar mobaynida to'plagan tajribasi va faoliyat qamrovi nuqtai nazaridan BMT eng murakkab tuzilma, serqirra faoliyatga ega bo'lgan ulkan xalqaro tashkilot bo'lib qolayotgani bois uni isloh etish uchun barcha a'zo davlatlar sa'y-harakatlarini uyg'unlashtirish, bahamjihat harakat qilishini ta'minlash zarur. Asrlar mobaynida siyosiy konfliktlar, ularni oldini olish yoki ularning echimini topish muammolari doimiy ravishda insoniyat oldida turgan eng muhim masalalardan biri bo'lib kelmoqda.

Darhaqiqat, tarix sahifasining 1989 yildan 2000 yilgacha bo'lgan qisqa davri davomida 74 ta hududda 111 qurolli konfliktlar ro'y berdi Mazkur bo'lib o'tgan konfliktlar sababli ayni vaqtda dunyoda 18 million kishi qochoqlar sifatida, 24 million kishi esa majburiy ravishda ko'chib yuruvchi shaxslar sifatida hayot

kechirmoqdalar. Eng asosiysi, qanchadan-qancha begunoh insonlarning qoni to'kilmoqda. Bo'larning barchasini zamirida o'z vaqtida e'tirof etilmagan yoki vaqtida o'z intihosini topmagan siyosiy konfliktlar yotganligi sir emas.

Agar yuqorida ta'kidlab o'tilgan ma'lumotlarni e'tiborga olsak, siyosiy konfliktlarni o'rganish bugungi kunga kelib beshta sabablarga ko'ra muhim hisoblanadi:

1) konfliktlar keng qamrovli, ya'ni birgina kichiq siyosiy konflikt tufayli mazkur konflikt ro'y berayotgan mamlakatda siyosiy tartibsizliklar, ekologiyaning yomonlashuvi, iqtisodning izdan chiqishi kabi salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin;

2) ular katta miqyosda jabrlanishlarga sabab bo'ladi;

3) ular juda ko'p hollarda bir mamlakat doirasidan chiqib, qo'shni davlatlarni ham o'z domiga tortadi;

4) turli kuchlar hamda xalqaro tashkilotlarning manfaatlarini to'qnashuviga sabab bo'lishi mumkin;

5) xalqaro hamjamiyat konfliktlar bilan ishlash borasida o'z imkoniyatlarini qayta baholab chiqmoqda.

Shunday ekan, *“siyosiy konfliktlar nima?”*, *“ularning boshqa turdagi konfliktlardan farqi nimada?”* degan savollar tug'ilishi tabiiy.

Qanchalar achinarli bo'lmasin, ayni vaqtga qadar konfliktlarning kelib chiqish sabablari va oqibatlari haqidagi fikrlar turlicha. Ko'pchilik siyosatdonlar va jurnalistlar fikrlariga ko'ra, konfliktlarning sabablari juda oddiy va barcha konfliktlar zamirida ko'pchilik etnik va yoki diniy guruhlarining bir-biriga nisbatan «tarixiy nafrati» yotadi degan fikr mavjud. Bunga ancha-muncha misollar ham keltiriladi. Xususan, Sharqiy Evropa va sobiq Ittifoq kabi qator mintaqalarda avtoritar rejim hukm so'rgan. Bora-bora mazkur rejimlarning to'ntarilishi yoki almashinishi o'sha mavjud bo'lgan «**tarixiy nafratni**» aniq tarzda ochib yubordi va buning natijasida ayni rejim ostida yashab kelgan qator mamlakatlarda qurolli konfliktlar vujudga keldi. Biroq qator olimlar bu kabi tushuntirishlarni qabul qila olmaydilar. Sababi, bu kabi oddiy tushuntirish *“nima uchun konfliktlar ma'lum*

bir davlatlarda ro‘y berdi-yu, boshqalarida yo‘q?”, yoki *“nima uchun ba‘zi konfliktlarni hal etish oson kechmoqda-yu, ba‘zilarini esa yo‘q?”* rusumidagi savollarga javob bera olmaydi.

Darhaqiqat, nima uchun XX asrning 90 yillarini boshida Chexlar va Slovklar o‘rtasida konflikt vujudga kelmadi? Yoki nima uchun fransuz tilida va ingliz tilida so‘zlashuvchi kanadaliklar o‘rtasida konfliktlar vujudga kelmadi? Bunga o‘xshash misollarni ham ko‘plab keltirish mumkin.

Bu savollarga javobni qidirar ekan, Garvard universiteti qoshidagi Jon Kennedi nomidagi hukumat maktabi «Fan va xalqaro munosabatlar» markazi xodimi, Maykl Broun to‘rtta asosiy omillar majmuasini ajratib ko‘rsatadi. uning fikriga ko‘ra bu omillar nima uchun ba‘zi joylar-davlatlar boshqa joylarga qaraganda konfliktlarga ko‘proq moyildir degan savolga javob bera oladi. bo‘lar:

- a) strukturaviy omillar;
- b) siyosiy omillar;
- g) iqtisodiy-ijtimoiy omillar;
- d) madaniy-idrok etish bilan bog‘liq bo‘lgan omillardir.

Yuqorida ta‘kidlab o‘tilgan omillarning ba‘zilariga, xususan, strukturaviy omillarga to‘xtab o‘tamiz. Uilyam Zartman kuchsiz davlatlarda konfliktlarni yuzaga kelishi bilan bog‘liq tadqiqotlarni ko‘plab amalga oshirgan olimlardan biri hisoblanadi. U va unga o‘xshash ko‘plab olimlar kuchsiz davlatlarni barcha izlanishlarining asosiy tayanch nuqtasi sifatida qarab kelishgan. Ko‘pgina davlatlar boshdan kuchsiz davlatlar sifatida paydo bo‘lishgan. Ularning katta qismi Afrika va Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasida joylashgan sobiq kolonial davlatlardan iboratdir. Mazkur davlatlarda hukumat yoki boshqarish tizimi kuchli bo‘lmagan. Sababi ular ayni davrgacha o‘zlarini-o‘zlari boshqarish imkoniyatidan maxrum bo‘lganlar. Ba‘zi hollarda kuchli davlatlar yoki xalqaro moliyaviy tashkilotlar tomonidan o‘z vaqtida tashqi itisodiy ko‘mak etib kelmasligi bu davlatlarning qulashiga sabab bo‘ladi. Bu kabi boshqa bir davlatlarda esa korrupsiyaning ko‘chayishi, davlatni boshqarishda xato-kamchiliklarga yo‘l qo‘yilishi va iqtisodiy taraqqiyotni amalga oshira olmasligi sababli ichki vaziyat buziladi. Davlatlar

kuchsizlana borgani sari konfliktlarning yuzaga kelishi uchun imkoniyat shu qadar ko'paya boradi.

Ikkinchidan, u yoki bu davlat kuchsiz ekan, u holda mazkur davlatda yashovchi individual guruhlar o'z xavfsizliklari haqida o'zlari qayg'ura boshlaydilar. Agar vaqt o'tishi bilan bu davlat kuchsizlanib boraversa, u holda yuqorida tilga olingan guruhlarning mustaqil ravishda harbiy tayyorgarlik ko'rish hollarini yanada ko'chaya borishi ehtimoli yuqori bo'ladi. Bu guruhlarning o'z xavfsizligini himoya etish maqsadida amalga oshirayotgan tadbirlari qo'shni davlatlarning ham xavfsizligiga ta'sir etishi natijasida muammo paydo bo'ladi. Shu sababli qo'shni davlat ham qurollana boshlaydi. Oxir oqibatda siyosatshunoslikda «xavfsizlik dilemmasi» deb atalmish vaziyat yuzaga keladi. Ayni vaziyat esa tarixdan ma'lumki ko'plab qonli konfliktlar uchun sharoit tug'dirib bergan.

Uchinchidan, fikrlar strukturaviy omillar ustida qurilar ekan, «etnik jug'rofiya» jumlasini ko'pchilikni qiziqtirishi tabiiy. Bugungi kunga kelib Yer sharida 200 dan ortiq davlat mavjud bo'lsa, shulardan 20 tadan qamrog'i etnik tuzilishi nuqtainazaridan monoetnik davlat hisoblanadi. Ma'lumki, ko'pgina olimlar monoetnik davlat deganda, turli millatlarga tegishli bo'lgan aholining soni tub erli aholi sonining 5 foizidan qamrog'ini tashkil etgan davlatni tushunadilar. Biz ham shu yondashuvga tayanib ish ko'ramiz.

Yaponiya va SHvetsiya kabi davlatlarda ba'zi davr mobaynida faqatgina tub aholi istiqomat qilgan vaqtlar ham bo'lgan. «Nima uchun bu haqda gap ketmoqda?» degan savol tug'ilishi tabiiy, albatta. Sababi, ko'pgina ilmiy maktablar va olimlar monoetnik xalq yashovchi davlatlar ichki siyosatida tinchlik bo'ladi degan gipotezalarni ham ilgari suradilar. Biroq, Maykl Broun bu fikr doimiy ravishda haqiqatga to'g'ri kelmasligiga aniq bir misol bilan javob beradi. Masalan Sahara sub kontinentida Somali etnik tuzilishi jihatidan eng monoetnik harakterga ega bo'lgan davlat hisoblanadi. Biroq bu mamlakatda turli mahalliy guruhlar-klanlar o'rtasida qonli konfliktlar bo'lib o'tganligi hammaga ma'lum. Mazkur konfliktlar hanuzgacha butunlayin o'z echimini topgani yo'q.

Xususan, siyosiy konfliktlar haqida fikr yuritilar ekan, ayni vaqtda umumiy tarzda umuman konfliktlarni vujudga kelishiga turtki bo'ladigan omillarni ham aniqlab olish muhim. Xususan bu omillar quyidagilardan iboratdir: Konflikt qatnashchilari, biz ularni qisqacha etib tomonlar deb belgilab olamiz. Konfliktlarni kelib chiqish sabablari, ya'ni ob'ekti mavjud qadriyatlar, moddiy dunyo, hudud va hokozalardan iboratdir. Konfliktlarning ko'rinishi. Konfliktlar sub'ektlari yoki tomonlar, tashkilotlar, partiyalar va hakoza shunga o'xshash siyosiy tuzilmalardan iborat bo'lishi mumkin. Konflikt deb u yoki bu ob'ektning bir vaqtning o'zida kamida ikki va undan ortiq sub'ektlar maqsad va manfaatlarini to'la qondirmasligi natijasida vujudga keladigan ijtimoiy vaziyatga aytiladi.

Konfliktlar ob'ektiga ko'ra turli ko'rinishlarga ega bo'ladilar. Xususan:

- a) etnik konfliktlar;
- b) bir davlat ichida mavjud hukumat va muholifat o'rtasidagi konflikt(yohud bir davlat ichida turli partiyalar o'rtasidagi konfliktlar);
- s) davlatlararo konfliktlar, ya'ni xalqaro konfliktlar.

Yuqoridagi mulohazalardan xulosa qilish mumkinki, konfliktlarning predmeti konflikt sub'ektlarining o'zaro konfliktga kirishishga majbur qilgan muammolar majmuasidir. E'tiborli tomoni shundan iboratki, tomonlar barchasi mavjud muammoni o'z foydasiga tomon hal etishdan manfaatdor bo'ladi. Shu sababli, konfliktlarni bartaraf etish yo'llarini topish asosan ularning predmetlarining qay darajada aniq belgilab olinganligiga bog'liq. Siyosiy konflikt – davlat, ijtimoiy va etnik guruhlar, siyosiy partiyalar va harakatlar, ma'lum shaxslarning siyosiy manfaatlari, maqsadlari va qarashlarining to'qnashuvidan iboratdir.

Siyosiy konfliktlarda asosiy muammo hokimiyat taqsimotidan iboratdir. Shu sababli, siyosiy konfliktlar zahirida jamiyatda hokimiyatni yuritish bilan bog'liq bo'lgan siyosiy manfaatlarning to'qnashuvi yotadi. Bu ko'rinishdagi konfliktlarning harakterli jihatlarilaridan biri bu siyosiy tizimning normal faoliyat ko'rsatishini buzilishi, turli ijtimoiy institutlar, xususan davlat va siyosiy partiyalar, o'rtasida raqobatning nihoyatda avj olib ketishidir. Mazkur jarayonda konflikt

tomonlari o'z manfaatlari butun jamiyatning yoki uning katta qismining manfaatlari bilan tenglashtirib, qolaversa birlashtirib ko'rsatishga harakat qiladi.

Siyosiy konfliktlar rivojini tahlil etish siyosatshunoslik fanida alohida ahamiyat kasb etadi. Sababi ma'lum bir bosqichlarda konfliktlarni chegaralash yoki oldini olish mumkin. Latent bosqichida, ya'ni konfliktlarning yashirin holati bo'lgan birinchi bosqichda, konflikt tomonlardan biri o'z manfaatlariga zarar etayotganligini seza boshlaydi. So'ng yarim ochiq harakterga ega bo'lgan bosqich boshlanadi. Bu bosqichda qarama-qarshilik sabablari shakllanadi. Undan keyingi bosqichda esa, hamfikrlilarning birlashuvi kuzatiladi va o'z talablarini himoya qilish maqsadida faol tashviqotlar olib borilishi mumkin. Mazkur jarayonda hamfikrlilar mavjud hukumatga qarshi muxolifat sifatida birlashadi va o'z talablarini ochiqchasiga izhor eta boshlaydilar. Ayni hatti-harakatlar siyosiy namoyishlar, yig'ilishlar, mavjud qonunlarga bo'ysunmaslik tarzida namoyon bo'lishi mumkin. So'ngi bosqichda, ya'ni siyosiy konflikt hal etilmagan taqdirda u siyosiy inqirozga aylanishi mumkin. Bu bosqichda ayniqsa avtoritar boshqaruvi o'rnatilgan davlatlarda hokimiyat to'ntarishlarining yuz berishi ehtimoli yuqori bo'ladi. Biroq mazkur jarayon osonlikcha kechmaydi va natijada, u juda murakkab tus olishi mumkin.

Xuddi shunga o'xshash vaziyatga misol qilib 1991 yilda sobiq Sho'rolar Ittifoqida ro'y bergan siyosiy inqirozni olishimiz mumkin. Bu shuni ko'rsatadiki, siyosiy inqiroz u yoki bu tizimni to'laligicha siyosiy transformatsiyalashuviga sabab bo'lishi mumkin ekan. Mazkur inqirozlardan chiqib ketish esa u yoki bu mamlakatda siyosiy demokratiyaning qay darajada rivojlanganligiga ya'ni, siyosiy partiyalarning faoliyatiga, va nihoyat jamiyatning siyosiy madaniyati darajasiga bog'liqdir.

Siyosiy konfliktlar o'rganilar ekan etnik konfliktlarga to'xtab o'tmaslikning iloji yo'q. Etno-ijtimoiy (yoki millatlararo) konfliktlar yechimini topish yoki to'xtatish qiyin bo'lgan konfliktlardan biri hisoblanadi. Nima uchun siyosiy konfliktlar qatorida millatlararo konfliktlar ko'rib chiqilmoqda degan o'rinli savol tug'ulishi tabiiy. Sababi, mazkur ikki konfliktlar uzluksiz bog'liqdir. Ya'ni,

noto'g'ri olib borilgan milliy siyosat millatlararo yoki etnik konfliktlarning kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin. Shuningdek, buning aksi sifatida, o'z vaqtida bartaraf etilmagan kichiq bir etnik asosga ega bo'lgan qarama-qarshilik bora-bora siyosiy konfliktlar darajasiga ko'rilishi mumkin. Yuqoridagi mulohazalardan ko'rinib turibdiki, ijtimoiy, siyosiy va milliy konfliktlar o'rtasida aniq bir chegara mavjud emas.

12.3. "Sovuq urush" davrida xalqaro munosabatlarda

BMT ning to'tgan o'rni va roli.

Birlashgan Millatlar Tashkilotidan (BMT) oldin Millatlar Ligasi dunyo xalqlari o'rtasida tinchlik va hamkorlikni ta'minlash uchun mas'ul bo'lgan xalqaro tashkilot edi.

"Birlashgan Millatlar Tashkiloti" atamasi 1942 yilda Uilyam Cherchill va F.D.Ruzvelt tomonidan Birlashgan Millatlar Tashkilotining deklaratsiyasida tayyorlangan. Ushbu deklaratsiya Ikkinchi jahon urushida Ittifoqchilar (Buyuk Britaniya, Amerika Qo'shma Shtatlari va Sovet Sotsialistik Respublikalari Ittifoqi) va boshqa davlatlarning hamkorligini rasman e'lon qildi.

Biroq BMT bugungi kunda ma'lum bo'lganidek 1945 yilgacha Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nizomiga binoan Kaliforniya shtati San-Frantsiskodagi Xalqaro Tashkilot konferentsiyasida tayyorlanganida rasmiy ravishda o'rnatilmagan. Anjumanga 50 ta davlat va bir nodavlat tashkilotlari - ularning barchasi Nizomni imzoladilar. BMT rasmiy ravishda 1945-yil 24 oktyabrda Nizomni ratifikatsiya qilganidan so'ng paydo bo'ldi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ikkinchi Jahon Urushining yakuniy bosqichida San-Frantsiskodagi konferentsiyada 1945-yil 25 aprelda ish boshlagan konferentsiyada tashkil etilgan. To'rtta buyuk davlat: SSSR, AQSh, Buyuk Britaniya nomidan 42 davlatga taklifnomalar yuborilgan. va Xitoy. Sovet delegatsiyasi Ukraina va Belorussiya vakillari uchun taklif uyushtirishga muvaffaq bo'ldi. Anjumanda jami 50 ta davlat ishtirok etdi. 1945-yil 26 iyunda konferentsiya BMT Nizomini qabul qilish bilan o'z ishini yakunladi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomi tashkilot a'zolarini o'zaro kelishmovchiliklarni faqat tinch yo'l bilan hal qilishga, xalqaro munosabatlarda kuch ishlatish yoki kuch ishlatish bilan tahdid qilishdan saqlanishga majbur qildi. Hartiyada, shuningdek, barcha odamlar tengligi, inson huquqlari va asosiy erkinliklariga hurmat, barcha xalqaro shartnoma va majburiyatlarga rioya qilish zarurligi e'lon qilindi. BMTning asosiy vazifasi global tinchlik va xalqaro xavfsizlikni ta'minlashga hissa qo'shish edi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining sessiyalari har yili BMTga a'zo barcha davlatlar delegatlari ishtirokida o'tkazilishi belgilandi. Global tinchlikni saqlash masalalarida asosiy rol o'n to'rt a'zodan iborat BMT Xavfsizlik Kengashiga yuklandi. Ulardan beshtasi doimiy hisoblangan (SSSR, AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Xitoy), qolganlari har ikki yilda bir marta qayta saylanishi kerak edi. Eng muhim shart Birlashgan Millatlar Tashkiloti Xavfsizlik Kengashining doimiy a'zolarining bir ovozdan qaror topgan tamoyili edi. Bu tamoyil Birlashgan Millatlar Tashkilotini har qanday mamlakat yoki mamlakatlar guruhiga nisbatan dikta quroliga aylantirishdan himoya qildi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nizomda bayon etilgan tamoyillari kelajak avlodlarni urushdan qutqarish, inson huquqlarini tasdiqlaydi va barcha insonlarga teng huquqlarni belgilaydi. Bundan tashqari, u barcha a'zo davlatlarning xalqlari uchun adolat, erkinlik va ijtimoiy taraqqiyotni rag'batlantirishga qaratilgan.

Bugungi kunda Birlashgan Millatlar Tashkiloti bugungi kunda beshta filialga bo'linib, a'zo davlatlarni eng samarali hamkorlik qilish bo'yicha murakkab vazifani hal etish uchun. Birinchisi, BMT Bosh Assambleyasi. Bu Birlashgan Millatlar Tashkilotining asosiy qaror qabul qilish va vakillik yig'ilishidir va uning siyosati va tavsiyalari bilan Birlashgan Millatlar Tashkilotining printsiplarini qo'llab-quvvatlashga mas'uldir. U barcha a'zo davlatlardan tashkil topgan, unga a'zo davlatlardan saylanadigan prezident rahbarlik qiladi va har yili sentyabrdan dekabrga qadar uchrashadi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xavfsizlik Kengashi Birlashgan Millatlar Tashkilotining boshqa bir bo‘limi bo‘lib, barcha filiallarning eng qudratlisi hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo davlatlarning harbiy kuchlarini joylashtirishga ruxsat berish vakolatiga ega, mojarolar davrida sulh bitimini belgilashi mumkin va agar berilgan mandatlarni bajarmasa, mamlakatlarga nisbatan jazo choralarini qo‘llashi mumkin. U besh doimiy a'zodan va o‘nta aylanadigan a'zodan iborat.

BMTning keyingi bo‘linmasi Xalqaro Sud, Gaaga shahrida (Niderlandiya) joylashgan. Ushbu bo‘lim Birlashgan Millatlar Tashkilotining sud ishlariga mas'uldir. Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash, Bosh Assambleyaga iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotni qo‘llab-quvvatlashga, shuningdek, a'zo davlatlarning hamkorligiga yordam beradigan bo‘limdir.

Nihoyat, Kotibiyat BMT Bosh kotib boshchiligidagi filialdir. Uning asosiy mas'uliyati - bu BMTning boshqa filiallari tomonidan uchrashuvlar o‘tkazish uchun kerak bo‘lganda tadqiqotlar, axborot va boshqa ma'lumotlarni taqdim etishdir.

Bugungi kunda deyarli har bir tan olingan mustaqil davlat Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo davlatlardir. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nizomida ta'kidlanganidek, Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo bo‘lish uchun davlat tinchlik va Hartiyada belgilangan barcha majburiyatlarni qabul qilishi va bu majburiyatlarni bajarish uchun har qanday choralar ko‘rishga tayyor bo‘lishi kerak. BMTga qabul qilish to‘g‘risidagi yakuniy qaror Xavfsizlik Kengashining tavsiyasi bilan Bosh Assambleya tomonidan amalga oshiriladi.

12.4. Birlashgan Millatlar Tashkilotining qurolsizlanish va tinchlikni saqlash bo‘yicha faoliyati.

Qurol-yarog‘lar tarqalishiga chek qo‘yish, shuningdek, yalpi qirg‘in qurollarining qisqartirilishi, pirovardida, ularning barcha zahiralari yo‘qotilishiga erishish eng muhim vazifalardan biridir. Birlashgan Millatlar Tashkiloti qurolsizlanish bo‘yicha muzokaralar o‘tkazish, shu sohada tavsiyalar ishlab chiqish va tadqiqotlar tashabbuskori bo‘lish uchun doimiy forum vazifasini o‘taydi. U

qurolsizlanish bo'yicha Konferensiya va boshqa xalqaro tashkilotlar doirasida olib boriladigan ko'pqirrali muzokaralarni qo'llab-quvvatlaydi. Bu muzokaralar natijasida Yadro qurolini tarqatmaslik haqidagi keng qamrovli shartnoma (1996-yil) va yadro qurolidan xoli zona to'g'risidagi shartnoma kabi xalqaro kelishuvlar ro'yobga chiqdi. Shuningdek, bundan boshqa kimyoviy (1992-yil) va bakteriologik (1972) qurollarning zahiralarni tayyorlash, ishlab chiqish va to'plashni ta'qiqlovchi, dengiz va okeanlar tubiga (1971-yil) va kosmik fazoga (1967-yil) yadro qurolini joylashtirishni ta'qiqlovchi shartnomalar, shu singari yana boshqa turdagi qurollarni ta'qiqlovchi yoki chegaralovchi shartnomalar tuzilgan edi. 1977-yilda yer usti minalaridan foydalanishni ta'qiqlovchi konvensiyaga 100 dan ortiq davlat imzo chekdi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti mana shu konvensiyaga va vayron qiluvchi turdagi qurollardan foydalanishni ta'qiqlovchi boshqa xalqaro shartnomalarga barcha davlatlarni qo'shilishga chaqirdi. BMT shuningdek, o'q otar va yengil qurollar ustidan nazoratni ko'chaytirishning ham tarafdoridir. Bosh Assambleya qaroriga binoan xalqaro konferensiya o'q otish qurollari bilan noqonuniy savdo qilish bo'yicha masalani 2001-yilda ko'rib chiqadi.

Venada joylashgan atom energiyasi bo'yicha xalqaro agentlik, kafolatlar borasidagi bitimlar tizimi asosida faoliyat ko'rsatib, tinchlik maqsadlarida foydalanish uchun mo'ljallangan atom ashyolari va jihozlaridan harbiy maqsadlarda foydalanilmasligini ta'minlashga javob beradi. Gaagada joylashgan Kimyoviy qurollarni ta'qiqlash bo'yicha tashkilot jahonning barcha mamlakatlari kimyoviy obyektlari haqida ma'lumot yig'ish bilan shug'ullanadi va kimyoviy qurollar bo'yicha Konvensiyaga amal qilish uchun nazoratni ta'minlash maqsadida doimiy kuzatuv olib boradi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining tinchlik o'rnatish bo'yicha faoliyati.

BMT Xavfsizlik kengashini tasdiqlash uchun bu tinchlikparvar kuchlar ko'pincha qurolli to'qnashuvlar so'nggi paytlarda tugagan hududlarga jo'natiladi. 1988 yilda tinchlikni saqlash kuchlari o'z faoliyati uchun Nobel tinchlik mukofotini qo'lga kiritdi.

Tinchlikni saqlab qolishdan tashqari, BMT inson huquqlarini himoya qilish va zarurat tug'ilganda insonparvarlik yordamini ko'rsatishga intiladi. 1948 yilda Bosh Assambleya Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasini inson huquqlari amaliyotlari uchun standart sifatida qabul qildi. BMT bugungi kunda saylovlarda texnik yordam ko'rsatmoqda, sud tuzilmalarini takomillashtirish va konstitutsiyalar loyihalarini ishlab chiqishda yordam beradi, inson huquqlari sohasi vakillarini o'qitadi va ochlik, urush va tabiiy ofat tufayli ko'chirilgan odamlar uchun oziq-ovqat, ichimlik suvi, boshpana va boshqa gumanitar yordam ko'rsatadi.

Nihoyat, BMT BMT Taraqqiyot Dasturi orqali ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishning ajralmas qismi hisoblanadi. Bu dunyoda texnik grant yordamining eng katta manbaidir. Bundan tashqari, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, UNAIDS, OITS, sil va bezgakka qarshi kurashish bo'yicha Global jamg'armasi, BMT Aholishunoslik jamg'armasi va Jahon banki guruhining bir nechtasini BMTning ushbu yo'nalishida muhim rol o'ynaydi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti har yili qashshoqlik, savodxonlik, ta'lim va hayot davomiyligi nuqtai nazaridan mamlakatlarga reyting berish uchun Inson Taraqqiyoti indeksini nashr etadi.

Kelajak uchun BMT o'zining Mingyillik Rivojlanish Maqsadlarini belgilab berdi. Aksariyat davlatlar va turli xalqaro tashkilotlar 2015 yilgacha qashshoqlikni, bolalar o'limini, kasallik va epidemiyalarga qarshi kurashish va xalqaro rivojlanish bo'yicha global hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan ushbu maqsadlarga erishishga kelishib oldi. Ba'zi a'zo davlatlar shartnomaning maqsadlariga erishdilar, boshqalari esa hech qanday ma'lumotga ega emaslar. Biroq, BMT yillar mobaynida muvaffaqiyat qozondi va faqatgina kelajak bu maqsadlarni amalga oshirishning qanday qilib amalga oshirilishini aytib berishi mumkin.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining eng bosh vazifalaridan biri — butun dunyoda tinchlikni barqaror etishdir. Nizomga binoan a'zo-mamlakatlar o'zlarining xalqaro kelishmovchiliklarini tinch yo'l bilan hal etadi, qurolli kuchlarni boshqa davlatlarga nisbatan qo'llamaydilar, ularga tahdid solmaydilar.

Ko'p yillar mobaynida xalqaro krizislarni bartaraf etish va paydo bo'lgan mojarolarni hal qilishga yordam berishda Birlashgan Millatlar Tashkiloti muhim

rol o'ynadi. U tinchlikni o'rnatish, tinchlikni saqlab qolish va insonparvarlik yordami ko'rsatish borasida ko'plab operatsiyalar turkumini amalga oshirdi. Shuningdek u birmuncha jiddiy tus olgan mojarolarni ham bartaraf etishga muvaffaq bo'ldi. Mojarolar kelib chiqqan hollarda u zo'ravonlikning tub ildizlarini qirqish va mustahkam tinchlik uchun asoslar yaratishga yo'naltirilgan va koordinatsiyalashtirilgan yanada qat'iy chora-tadbirlar qabul qiladi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti bu borada diqqatga sazovor natijalarni qo'lga kiritdi. Masalan, 1962-yilgi Karib krizisini, 1973-yilgi Yaqin Sharq janjalidagi keskinlikni bartaraf etishga muvaffaq bo'ldi. 1988-yili Birlashgan Millatlar Tashkilotining tinch yo'l bilan hal etish borasidagi sa'y-harakatlari Eron-Iroq urushini bartaraf etish imkonini berdi, undan keyingi-yili Birlashgan Millatlar Tashkiloti tashabbusi bilan o'tkazilgan muzokaralar tufayli sovet qo'shinlari Afg'onistondan olib chiqildi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti 90-yillarda Quvayt mustaqilligini tiklashga yordam berdi, Kambodja, Salvador, Gvatemala va Mozambikda fuqarolar urushini to'xtatishda, Gaiti va Syerra-Leonda demokratiya asosida saylangan hukumatni tiklashda katta rol o'ynadi, shuningdek, qator boshqa mamlakatlardagi kelishmovchiliklarni bartaraf etdi va hal qildi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti o'zining tinchlik o'rnatish faoliyati doirasida diplomatik mexanizmlardan foydalangan holda qarama-qarshi bo'lib qolgan tomonlarning yarashishlariga yordam beradi. Xavfsizlik Kengashi xalqaro tinchlik va xavfsizlik borasidagi o'z sa'y-harakatlari doirasida mojaroni bartaraf etish va tinchlik o'rnatish yoki uni, masalan, muzokaralar yoxud Xalqaro Sud yordamida barqaror etish yo'llarini tavsiya qilishi mumkin.

Tinchlikni barqaror etish ishida Bosh kotib muhim rol o'ynaydi. U Xavfsizlik Kengashi e'tiboriga o'z fikri bo'yicha xalqaro tinchlik va xavfsizlikka tahdid solayotgan har qanday muammoni havola etishi mumkin. Bosh kotib „beminnat xizmat“dan, vositachilik funksiyasidan foydalanishi yoki sahna ortida bevosita o'zi yoki maxsus vakil orqali „tinch diplomatiya“ bilan ish olib borishi kerak. Bosh kotib, shuningdek, holat kesinlashguniga qadar janjalning oldini olish uchun „ogohlantiruvchi diplomatiya“ mexanizmidan ham foydalanishi mumkin.

Bundan tashqari faktlarni aniqlash, hududiy doirada shug'ullanayotgan tinchlik o'rnatuvchilarni qo'llab-quvvatlash, mamlakatlarda — tomonlarga ishonchni mustahkamlashga yordam ko'rsatadigan Birlashgan Millatlar Tashkilotining siyosiy bo'limlarini ochish uchun missiya jo'natishi mumkin.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining faoliyati — jabr-zulmning tub sabablarini imkon qadar ko'proq bartaraf etishga qaratilgandir. Shuning uchun ham tinch qurilishning eng muhim unsurlaridan biri — taraqqiyot uchun yordamni ayamasslikdir. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tizimning boshqa tashkilotlari bilan hamkorlikda va davlatlar orasidagi donor mamlakatlar hamda nohukumat tashkilotlari ishtirokida butun jamiyatning baxt-saodati uchun, qonun-qoidalar ustuvorligini barqaror etish uchun mojarolar oqibatlarini boshdan kechirayotgan mamlakatlarda saylovlar o'tkazish va inson huquqlarini himoya qilishga yo'naltirilgan, boshqarishni takomillashtirishni qo'llab-quvvatlaydigan yordam ko'rsatadi. Ayni paytda Birlashgan Millatlar Tashkiloti bu mamlakatlarga mojarolar oqibatida izdan chiqqan ma'muriy tizimni, sog'liqni saqlash, xalq ta'limi va ijtimoiy infrastrukturaning boshqa unsurlarini tiklashga yordam beradi.

Mazkur faoliyatning 1989-yilda Namibiyada saylovlarning o'tkazilishini, Mozambikda minalardan tozalash dasto'rini va Gaitida fuqaro politsiyasi xodimlarini tayyorlashni kuzatish kabi ba'zi turlari Birlashgan Millatlar Tashkilotining tinchlikni o'rnatish bo'yicha operatsiyalari doirasida amalga oshirildi, bu holda ushbu faoliyatning ba'zi jihatlari tinchlikni o'rnatish operatsiyasidan keyin ham davom etishi mumkin. Faoliyatning boshqa, masalan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Liberiyada tinch qurilish jarayonini qo'llab-quvvatlash bo'yicha o'z bo'limini ochishi, Kambodjada Birlashgan Millatlar Tashkilotining inson huquqlari bo'yicha bo'limining faoliyat ko'rsatib turishi yoki Birlashgan Millatlar Tashkilotining Gvatemalada mamlakat hayotining qariyb barcha jabhalariga ta'sir ko'rsatib, tinchlik bitimlari tuzilishiga yordam berayotgani kabi turlari hukumatlarning iltimosiga binoan amalga oshiriladi.

Xavfsizlik Kengashi o'zining tinchlikni saqlash va xalqaro xavfsizlik borasidagi sa'y-harakatlari doirasida Birlashgan Millatlar Tashkilotining tinchlikni

saqlash bhyicha operatsiyalarining vakolat va mandat doiralarini tasdiqlab beradi. Muzokaralar davrasida uzoq muddatga mo'ljallangan qarorlar ustida izlanishlar olib borilayotgan paytda, bunday operatsiyalarning ko'pchiligida o't ochishni to'xtatish rejimini kuzatayotgan yoki oraliq zona tashkil etgan harbiy xizmatchilar ishtiroki ko'zda tutiladi. Boshqa operatsiyalarda saylovlarni tashkil etishga yordamlashadigan yoki inson huquqlari himoya etilishini nazorat qiladigan fuqaro politsiyachilar va fuqaro mutaxassislar ishtirok etishlari mumkin. Sobiq Yugoslaviya Respublikasining Makedoniyasida amalga oshirilgan shunga o'xshash ba'zi operatsiyalar ehtiyot chorasi sifatida talqin etildi va u harbiy harakatlarni kengayib ketishining oldini oldi. Ko'pgina hollarda operatsiyalar tinch muzokaralarga amal qilinishini nazorat etishga yo'naltiriladi va hududiy tashkilotning tinchlik o'rnatuvchi kuchlari bilan hamkorlikda amalga oshiriladi.

Tinchlik o'rnatish operatsiyalari bir necha-yilga qadar davom etishi mumkin. Masalan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Hindiston va Pokistonning Jammu va Kashmir shtatlari o'rtasidagi o't ochish to'xtatilishi lozim bo'lgan liniya bo'ylab faoliyat ko'rsatayotgan operatsiyasi 1949-yildan buyon davom etadi, Kiprda Birlashgan Millatlar Tashkilotining tinchlikni barqaror etuvchilari 1964-yildan beri posbonlik qilmoqdalar. Boshqa bir tomondan, 1994-yil Liviya va Chad o'rtasidagi Aozu mintaqasida operatsiya o'tkazish uchun bir oydan ortiqroq muddat zarur bo'ldi.

1948-yili Birlashgan Millatlar Tashkilotining tinchlik o'rnatuvchi eng birinchi missiyasi shakllangan soniyalardananoq Tashkilot ixtiyoriga 118 mamlakat ixtiyoriy ravishda 750 000 nafar harbiy xizmatchi va fuqaro politsiyachilari ajratdilar. Ular minglab fuqaro mutaxassislar bilan birgalikda tinchlik o'rnatish borasida amalga oshirilgan 53 operatsiyada ishtirok etdilar.

Uzoq yillar mobaynida Birlashgan Millatlar Tashkilotining tinchlikni barqaror etish borasidagi sa'y-harakatlari, uch o'nyillikka cho'zilgan Janubiy Afrikadagi aparteidga qarshi kurash kompaniyasini, Namibiyaning mustaqillikni qo'lga kiritish jarayonini faol qo'llab-quvvatlanishini, tinchlikni o'rnatish bo'yicha amalga oshirilgan 18 operatsiya va saylovlar o'tkazishni qo'llab-quvvatlash

bo'yicha qator missiyalarni shu jumlagi qo'shganda g'oyat xilma-xil shakllarda amalga oshirildi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Mozambikdagi qochoqlarning o'z uylariga qaytishlariga yordam berdi, Somali va Sudanda insonparvarlik yordami ko'rsatdi va Buyuk ko'llar rayonida tinchlikni o'rnatish bo'yicha diplomatik sa'y-harakatlar olib bordi. U Janubiy Sahara kelajagi to'g'risidagi masala bo'yicha referendum tayyorlashga yordam bermoqda. Yaqinda Xavfsizlik Kengashi iltimosiga binoan Bosh kotib Afrika mamlakatlaridagi mojarolarning har tomonlama tahlilini mustahkam tinchlik o'rnatishga ma'lum darajada yordam beradigan tavsiyalar bilan tayyorladi.

1999-yilda Xavsizlik Kengashi tinchlikni baqaror etish bo'yicha Serra-Leon va Kongo Demokratik Respublikasida ikkita yangi operatsiya tashkil etdi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Kambodja mamlakatida 1992-1993-yillardagi keng ko'lamlı operatsiyasi tugallanganidan keyin Birlashgan Millatlar Tashkiloti tizimi muassasa va tashkilotlari fuqarolik jamiyati, inson huquqlari va demokratiyani mustahkamlash borasidagi sa'y-harakatlarini davom ettirmoqdalar.

Afg'onistonda Birlashgan Millatlar Tashkilotining maxsus missiyasi 1993-yildan buyon faoliyat ko'rsatmoqda. Uning vazifasi milliy yarash va uzoq davom etgan fuqarolar urushi natijasida izdan chiqqan xo'jalikni tiklashga yordam berishdan iboratdir. Biroq, Bosh kotib va uning maxsus vakillarining qat'iy diplomatik sa'y-harakatlariga qaramasdan mamlakatda juda katta insonparvarlik harajatlarini talab qilayotgan harbiy harakatlar davom etmoqda, bu — Birlashgan Millatlar Tashkilotining afg'on xalqiga yordam ko'rsatish tizimi faoliyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatyapti.

Sharqiy Timorda BMT yordamida Indoneziya va Portugaliya o'rtasida o'tkazilgan, mazkur hududning maqomi borasida butunjahon referendumı uchun yo'l ochgan muzokaralar 1999-yili may oyida yakunlanadi. Shu muzokaralarga binoan BMT missiyasi ovoz beruvchilarni ro'yxatga olish ishini kuzatib bordi va 1999-yilning avgustidagi bu referendumda Sharqiy Timor aholisining 78 foizi Indoneziyadan mustaqil bo'lish uchun ovoz berdi. Referendum yakunlari e'lon qilinganda mustaqillikka qarshi turgan militsiya Sharqiy Timorning 200 ming

aholisini o'z uylarini tashlab ketish uchun majburlashga harakat qildi. 1999-yilning sentabr oyida Xavfsizlik kengashi tartib o'rnatishga yordam bergan xalqaro xavfsizlik kuchlarini junatish uchun qaror qabul qildi. BMTning muvaqqat ma'muriyati xalqaro kuchlarni almashtirdi va ayni paytda Sharqiy Timorda mustaqillikni amalga oshirish jarayonini kuzatib bormoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti qariyb 4 million kishiga favqulodda insonparvarlik yordami ko'rsatib sobiq Yugoslaviyadagi mojarolarni bartaraf etishga astoydil harakat qilmoqda. 1991-yili Birlashgan Millatlar Tashkiloti qurol-yarog' yetkazib berishga chek qo'ydi; ayni paytda Bosh kotib va uning vakili qon to'kishni to'xtatish uchun yo'naltirilgan diplomatik sa'y-harakatlar bilan yordam qila boshladi. 1992-yildan 1995-yilga qadar Birlashgan Millatlar Tashkilotining tinchlikni barqaror etuvchi kuchlari Xorvatiyada tinchlik va xavfsizlikni tiklashga harakat qildilar, Bosniya va Gersegoviniya fuqaro aholisining xavfsizligini ta'minlashga yordam berdilar, shuningdek, sobiq Yugoslaviyaning Makedoniya respublikasi urush girdobiga tortib ketilmasligiga ko'maklashdilar. 1995-yildagi Deyton (Parij) tinchlik bitimi tuzilganidan keyin Birlashgan Millatlar Tashkilotining to'rtta missiyasi bu hududda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashga ko'maklashdilar. Ularning birmuncha yirigi hisoblangan — Birlashgan Millatlar Tashkilotining Sharqiy Slovoniya uchun muvaqqat ma'muriyati Xorvatiya tarkibidagi bu hududning reintegratsiya jarayonini kuzatib turdi. Kosovoda (Yugoslaviya Federal Respublikasi) NATOning bombardimonlarini to'xtatilganidan va Yugoslaviya qurolli kuchlari chiqarilganidan so'ng, 1999-yili bu yerda BMT muvaqqat xalqaro ma'muriyat tashkil etdi. Xavfsizlik kengashi BMTning bu ma'muriyatiga Kosovo hududi va xalqiga nisbatan barcha qonuniy, ijroi va huquqiy vakolatlarga qadar bG'lgan favqulodda vakolatlar yaratib bermoqda. Yevropa ittifoqi, Yevropa xavfsizligi va hamkorligi tashkiloti, BMTning qochoqlar ishi bo'yicha Oliy komissari va Birlashgan Millatlar Tashkiloti demokratik jamiyat hamda barqaror avtonomiya tashkil etishda Kosovo xalqi bilan ish olib bormoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining tinchlikni barqaror etish borasidagi faoliyati va uning tinchlikni o'rnatish bo'yicha sa'y-harakatlari Markaziy Amerikada paydo bo'lgan to'qnashuvni bartaraf etishda katta rol o'ynadi. 1989-yili Nikaraguada tinchlik o'rnatish borasidagi sa'y-harakatlar tufayli qarshilik ko'rsatish kuchlari ixtiyoriy tarzda tarqatib yuborildi va uning qatnashchilari o'z qurollarini Birlashgan Millatlar Tashkilotiga topshirdi. 1990-yili Birlashgan Millatlar Tashkiloti missiyasi Nikaraguadagi saylovlarni kuzatdi — bu, mustaqil mamlakatda Birlashgan Millatlar Tashkiloti kuzatuvida o'tgan birinchi saylov edi.

Salvadordagi Bosh kotib vositachiligida o'tgan tinch muzokaralar 12 yil davom etgan harbiy harakatlarga chek qo'ydi va Birlashgan Millatlar Tashkilotining tinchlikni barqaror etish bo'yicha missiyasi barcha kelishuvlarning amalga oshirilishini kuzatib turishni ta'minladi. Gvatemalada Birlashgan Millatlar Tashkiloti yordamida tashkil etilgan muzokaralar tufayli 35 yillik fuqarolar urushi to'xtatildi. Bugun Birlashgan Millatlar Tashkilotining Gvatemaladagi Nazorat komissiyasi keng ko'lamdagi tinchlik bitimlari to'la-to'kis amalga oshirilishini ta'minlash uchun da'vat etilgan.

Gaitida demokratik yo'l bilan saylangan mamlakat hukumatini qayta tiklash bo'yicha xalqaro chora-tadbirlar amalga oshirilganidan keyin Birlashgan Millatlar Tashkiloti o'z ishini milliy politsiyaga ta'lim berish bilan davom ettirmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti beshta o'nyillik mobaynida (bu muddat davomida besh marta keng ko'lamdagi urush olovi alanga olgan) Arab — Isroil mojarosiga katta diqqat-e'tibor bilan qarab keladi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti haqqoniy va mustaqkam tinchlik o'rnatish tamoyillarini muammoni hal etishning mustahkam asosi bo'lib qoladigan Xavfsizlik Kengashining 242 (1967) va 338 (1973) sonli ikkita tayanch rezolyutsiyalarida ishlab chiqdi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti siyosiy muammolar asosida kelib chiqqan mojarolarni bartaraf etishga yo'naltirilgan boshqa tashabbuslarni ham qo'llab-quvvatladi va bu mintaqaga qator tinchlik o'rnatuvchi missiyalar jo'natdi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1948-yilda tashkil etilgan birinchi harbiy kuzatuvchilari guruhi mintaqada bugungi kunda ham faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

1956-yildagi Sues krizisi davrida Birlashgan Millatlar Tashkiloti tinchlik o‘rnatish bo‘yicha o‘zining birinchi kuchlarini tashkil etdi.

Hozirgi paytda mintaqada tinchlikni barqaror etuvchi ikkita missiya faoliyat ko‘rsatmoqda. Ularning 1974-yilda tashkil etilgan bittasi Golan tepaliklarida Isroil va Suriya qurolli kuchlarini ajratib turadigan mintaqani nazorat etadi; 1978-yilda tuzilgan ikkinchisi barqarorlikni ta‘minlashga va Livanning janubiy qismida yashayotgan aholi himoya qilinishini ta‘minlashga yordam beradi.

Yaqin Sharqning boshqa rayonlari haqida shuni aytish kerakki, 1991-yili Quvayt mustaqilligi tiklanganidan keyin Birlashgan Millatlar Tashkilotining kuzatuvchilar missiyasi Iroq va Quvayt o‘rtasidagi qurolsizlantirilgan mintaqaning nazorat qilinishini ta‘minlamoqda.

Sobiq Yugoslaviyadagi harbiy harakatlar davomida yuz bergan ko‘plab inson huquqlarini buzish normalari Xavfsizlik kengashini ushbu mojaroda 1993-yili harbiy jinoyatlar sodir etganlikda ayblangan shaxslarni sudlash uchun xalqaro tribunal tashkil qilishga majbur etdi. 1994-yili Kengash Ruandadagi genotsidda ayblanganlarning ishlarini ko‘rib chiqish uchun yana bir tribunal tashkil etdi. Ushbu tribunallar ayblanganlarning ishlarini ko‘rib chiqish bo‘yicha qator sud majlislari o‘tkazdilar. 1998-yil Ruanda bo‘yicha tribunal tarixda birinchi marta genotsid jinoyatiga oid ishlar uchun xalqaro sud tashkilotining verdiktini, ya‘ni tarixda ilk bor mazkur jinoyat bo‘yicha hukmni e‘lon qildi. Sobiq Yugoslaviya bo‘yicha tribunal, shuningdek, Kosovodagi mojarolar paytida sodir etilgan jinoyatlarni ko‘rib chiqayapti.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining eng asosiy maqsadlaridan biri — inson huquqlari keng ko‘lamda buzilgan hollarda buning uchun javobgarlik mas‘uliyatini barqaror etish uchun xalqaro mexanizm tashkil qilish ishi hukumatlar Xalqaro jinoiy sud tashkil etishga rozilik bildirishganlaridan so‘ng, 1998-yilda amalga oshdi. Genotsidda ayblanganlarni va insoniylikka qarshi qilingan boshqa jinoyatlarni jazolash uchun Sudda barcha zarur vositalar mavjud. Xalqaro hamjamiyat Sud tashkil etish uchun ovoz berib, kimki jinoyat sodir etsa, jazoni chetlab o‘tishga, qasosdan qutulib qolishga umid bog‘lamasligi zarurligini qo‘llab-

quvvatladi. Shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti xalqaro insonparvarlik huquqi sohasida qator konvensiyalar ishlab chiqishga o'z hissasini qo'shdi.

Adolat va tenghuquqlilikni barqaror etish borasidagi turli chora-tadbirlar 1945-yili o'z egalari boshqarmaydigan hududlarda 750 million kishi yashar edi. Ushbu son bugungi kunda 1,3 millionni tashkil etadi. Bu g'oyat jiddiy tadbir Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qaram hududlarda yashayotgan xalqlar orzu-umidlarining qo'llab-quvvatlanganligi va ularning mustaqillikni tezroq qo'lga kiritishlari uchun berilgan yordam tufayli amalga oshdi. Bosh Assambleya qaram mamlakatlar va davlatlarga mustaqillik berish to'g'risida Deklaratsiya qabul qilgan 1960-yildan buyon 60 ga yaqin sobiq qaram hududlarda yashayotgan xalqlar mustaqillikka erishdilar va Birlashgan Millatlar Tashkilotining to'la huquqli a'zolariga aylandilar. Assambleya o'z oldiga 2000-yilgacha kolonializmdan xalos bo'lish maqsadini qo'ygan.

O'ttiz-yildan ortiq muddat davomida Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan olib borilgan muayyan operatsiyalar majmui tufayli aparteid singari butun dunyoga ma'lum bo'lgan Janubiy Afrikadagi irqiy segregatsiya tizimiga barham berildi. 1994-yili Birlashgan Millatlar Tashkiloti missiyasi kuzatuvchilari ishtirokida bu mamlakatda barcha irqilar vakillari uchun ochiq bo'lgan birinchi saylovlar o'tkazildi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tashkil topgan kunlaridanoq barcha xalqlar tinchligini barqaror etish va barcha shakllardagi irqchilikka qarshi kurashish ustida ish olib boradi. Bosh Assambleya qaroriga muvofik 2001-yilda Janubiy Afrikada irqchilik, irqiy kamsitishlar, ksenofobiya va shu kabilarga toqat qilib bo'lmaslik masalalariga bag'ishlangan konferensiya o'tkaziladi.

1999-yilning so'ngida Bosh kotib BMTga a'zo davlatlar va xalqaro fuqaro xizmatchilarni xalqaro hamjamiyatning 1994-yil Ruandadagi genotsidning va 1995-yili Srebrenitsa qulashining oldini olish borasidagi o'rinishlari besamar ketganligini e'tirof etishga chaqirdi. Bundan keyingi tinchlik o'rnatish operatsiyalarini o'tkazish bo'yicha amaliy va amalga oshirilishi mumkin takliflarni ishlab chiqish uchun maxsus tanlab olingan ekspertlar kengashi chaqirildi va 2000-

yil avgustida, Mingyillik sammiti arafasida BMTga a'zo davlatlarga mazkur kengash raisi Laxdara Braximi nomi bilan atalgan "Braximi Ma'ruzasi" jo'natildi. Kengash xalqaro hamjamiyat tomonidan ba'zi tinchlikni ta'minlash operatsiyalari, shunchaki, "mendan ketguncha, egasiga yetguncha" qabilida, hatto, adolatli ishni amalga oshirishga irodasi bo'lmaganda ham yoki qanday tadbirlar amalga oshirilishi zarurligi haqida kelishib olinmasdan turib, amalga oshirilgan, degan fikrga keldi. To'g'risini aytganda, Braximi Ma'ruzasi chala-yarim choralardan voz kechib, istakni haqiqat o'rnida ko'rishdan aniq va keng miqyosda qo'llab-quvvatlanadigan amaliy rejalarga o'tishga chorladi. Kengash, muvaffaqiyatli harakatlarga zamin yo'q bo'lsa, yaxshisi, umuman hech qanday operatsiya o'tkazmaslik lozimligini; harakatlar amalga oshiriladigan bo'lsa, operatsiyalar yaxshi ta'minlangan va kuchli madadga ega bo'lishi kerak, degan fikrni bildirdi.

Ma'ruzada ishonchli harbiy ishtirokka zarurat tug'ilsa, ko'p sonli, yaxshi qurollangan va yaxshi o'rgatilgan qo'shin qo'llash lozimligi tavsiya etilgan. Kengash tinchlik o'rnatish missiyalarini qo'llab-quvvatlash uchun mas'ul bosh qarorgohlardagi xodimlar sonini ko'paytirish va BMTga a'zo davlatlar, ayniqsa, Havfsizlik Kengashi a'zolari tomonidan siyosiy, moliyaviy va moddiy jihatdan yanada kuchliroq qo'llab-quvvatlanishi lozimligini isbotlab berdi. Shu bilan birga, Kengash tinchlik o'rnatuvchilarning joylardagi va bosh qarorgohlardagi harakatlarini baholashning yanada qat'iyroq andazalarini belgilab berdi.

Bosh Assambleya Tinchlikni saqlash bo'yicha operatsiyalar departamenti xodimlari sonini 50 foizga oshirish va BMTning Brindizidagi (Italiya) Moddiy-texnik ta'minot bazasini ta'minlashga qariyb 150 million AQSh dollari ajratishni ma'qullab, ma'ruzaga o'zining iliq munosabatini bildirdi. Kotibiyat ma'muriy va ta'minot masalalarida yanada tezkorlikni ta'minlash uchun joylarga yanada kengroq vakolatlar berdi.

2001-yil 11-sentabr voqealari yuz berib, Afg'onistonda Tolibon tuzumining qulashidan so'ng xalqaro hamjamiyat Birlashgan Millatlar Tashkilotiga siyosiy kelishuvga erishishda vositachi bo'lishni so'rab, iltimos qildi. Bosh kotib nomi zikr etilgan ma'ruzadan so'ng Laxdar Braximidan ilk bor yangi tinchlik o'rnatish

operatsiyasini rejalashtirish va amalga oshirish jarayoniga rahbarlik qilishini soʻradi. Bosh kotib, ushbu maʼruza ruhi va mohiyatidan kelib chiqib, Xavfsizlik Kengashiga joylardagi vaziyatning rivojiga BMT qay yoʻsinda yaxshiroq taʼsir koʻrsatishi zarurligi haqida xolis tavsiyalar berdi. U “zangori kaskalarni” joʻnatish oʻrniga, BMTga asosiy siyosiy rol berilib, bu davlatdagi siyosiy, gumanitar va rivojlanish harakatlarini birlashtirish uchun BMTning Afgʻonistonga koʻmak boʻyicha ixcham missiyasini (BMTAKM) tuzishni taklif qildi. Bonn kelishuvini amalga oshirishdagi muvaffaqiyatli vositachilik, xavfli darajaga yetayotgan gumanitar haloqatning yengillashishi hamda Afgʻoniston muvaqqat maʼmuriyatining tashkil etilishi bunday yondashuvning samarasidan dalolatdir.

Yangi tinchlik oʻrnatish strategiyasi va doktrinasini 2002-yil 20-mayda Sharqiy Timor mustaqilligi eʼlon qilinishi bilan muvaffaqiyatli yakunlangan BMTning Sharqiy Timordagi Muvaqqat maʼmuriyati (BMTShTMM) va shu kabi may oyida osoyishtalikda saylov oʻtkazilib, yangi hukumat tuzilgan Syerra-Leonda qoʻllanildi. BMTning Syerra-Leonni qoʻllab-quvvatlash missiyasi bunday burilish uchun zamin yaratish hamda 47 000 nafardan ortiq qoʻzgʻolonchini qurolsizlantirish va demobilizatsiya qilishda koʻmak berdi.

12.5. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Insonparvarlik yordamlari boʻyicha faoliyati

Shunday falokat paytlarida Birlashgan Millatlar Tashkiloti tizimining tashkilotlari jabrlanganlarga — asosan bolalar, ayollar va qariyalarga oziq-ovqatlar va dori-darmonlar bilan yordamlashadi, ularga boshpana beradi va moddiy-texnik jihatdan qoʻllab-quvvatlaydi. Muhtojlarga beriladigan bunday yordamlar uchun mablagʻlarning milliard dollarini Birlashgan Millatlar Tashkiloti xalqaro donorlardan topdi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti saʼy-harakatlari tufayli 1999-yilda qariyb 26 million kishiga favqulodda insonparvarlik yordami koʻrsatish haqidagi chaqiriqqa javoban 1,4 milliardga yaqin AQSH dollari yigʻildi. 1997-1998-yillarda Birlashgan Millatlar Tashkiloti 77 tabiiy ofat va ekologik haloqat

oqibatlarini bartaraf etishga ko'maklashish uchun 51 a'zo-mamlakatga yordam berdi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti insonparvarlik yordamlari berish bilan keng ko'lamda moddiy-texnika ta'minoti va joylarda xavfsizlikni ta'minlash muammolarini hal etishga erishadi. Talofat ko'rgan rayonlarga yetib borishning o'zi ham ko'pincha mushkul bo'lib, gohida juda murakkab to'siqlar orqali o'tish zarur bo'ladi. Keyingi-yillarda ko'pgina tangliklar inson huquqlariga amal qilmaslik tufayli murakkablashmoqda. Insonparvarlik yordami ko'rsatayotgan xodimlarni muhtojlikda qolganlar huzuriga qo'ymaydilar, janjallashayotgan tomonlar ataylab tinch yashayotgan aholi va yordam olib borayotganlarga qarab o't ochadilar.

1992-yildan keyingi davr mobaynida dunyoning turli rayonlarida insonparvarlik operatsiyalari olib borayotganlarning orasida Birlashgan Millatlar Tashkiloti fuqaro bo'lgan xodimlarining 180 nafardan ortig'i halok bo'ldi va 178 nafari garovga olindi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari jabrlangan aholi himoya qilinayotganda yuzaga kelgan kelishmovchiliklar sharoitida insonlar huquqlari buzilishining yashirin xavf-xatarlariga ham e'tibor bilan qaragan holda Birlashgan Millatlar Tashkilotining favqulodda holatlar munosabati bilan joylarda olib borayotgan faoliyatida yana ham katta rol o'ynaydi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti ijtimoiy bo'hronlarni bartaraf etish bo'yicha o'z harakatini barcha asosiy insonparvarlik bo'linmalarini birlashtiruvchi va Birlashgan Millatlar Tashkilotining favqulodda yordamlar Koordinatori raisligida faoliyat ko'rsatuvchi komitet orqali muvofiqlashtirib turadi. Bu komitet tarkibiga Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bolalar jamg'armasi (YUNISEF), Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi, Jahon oziq-ovqat dasturi va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Qochoqlar ishlari bo'yicha Oliy komissar Boshqarmasi kabilar kiradi. Uning tarkibida, shuningdek, Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Birlashgan Millatlarning Oziq-ovqat va qishloq xo'jalik tashkilotlari,

Xalqaro Qizil Xoch kabi yirik hukumatlararo va nohukumat insonparvarlik tashkilotlari mavjud.

Favqulodda yordamlar Koordinator insonparvarlik yordamini ishlab chiqish siyosati va insonparvarlik masalalariga e'tiborni tortish, jumladan, o'q otish qurollarini tarqatish oqibatlari yoki sanksiyalarning insonparvarlik qudratidan jamoatchilik xabardorlik darajasini oshirishga yordamlashish borasidagi ishlar uchun javob beradi.

Urushlardan, ta'qib etishlardan yoki inson huquqlarini poymol etilishidan qochib ketish bilan himoyalaniyotgan yurgan kishilarga — qochoqlar va ko'chirilgan shaxslarga Qochoqlar ishi bo'yicha Oliy komissar Boshqarmasi yordam ko'rsatadi. 1998-yili Qochoqlar ishlari bo'yicha Oliy komissar Boshqarmasi diqqat-e'tiborida 22 million kishi bor edi. Uning birmuncha yirik operatsiyalari 2,6 million Afg'on qochoqlari bo'lgan G'arbiy Osiyoda, bir million kishi yordamga muhtoj bo'lgan sobiq Yugoslaviyada va yarim millionga yaqin qochoq to'plangan Afrikaning Buyuk ko'llar rayonida amalga oshirilmoqda. Oziq-ovqat bilan favqulodda ko'mak berish ishlariga bu boradagi yordam bo'yicha jahon talabining-yildan-yilga uchdan ikki qismini qondirib kelayotgan Jahon oziq-ovqat dasturi javob beradi. 1999-yili Butunjahon oziq-ovqat dasturi jahon bo'yicha 82 mamlakatdagi 86 milliondan ortiq odamlarni oziq-ovqat bilan ta'minlashga yordam berdi.

Keyingi 10 yil mobaynidagi urushlar va fuqarolarning turli janjallari natijasida 1 millionga yaqin bolalar o'z ota-onalaridan ajralib qoldilar, 12 millioni esa boshpanasiz qoldi va 10 millioni og'ir ruhiy jarohat oldilar. YUNISEF bu bolalarning talablarini qondirish, ularni oziq-ovqat, ichimlik suvi va turar joy bilan ta'minlash uchun barcha choralarni ishga solmoqda. Bundan tashqari, bolalarni harbiy to'qnashuvlar sharoitida himoya etish, ularga eng zarur sharoitlarni yaratib berish sa'y-harakatlaridan kelib chiqib, YUNISEF "tinchlik mintaqasidagi kabi bolalar" konsepsiyasini ishlab chiqdi va "tinch turmush kunlari" hamda "tinchlik koridorlari"ni e'lon qildi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining insonparvarlik sohasidagi faoliyatining yana bir tarmog'i tabiiy ofatlarni bartaraf etish va buning uchun tayyor turishni

ta'minlashdan iboratdir. Masalan, 1998-yili Birlashgan Millatlar Tashkilotining taraqqiyot dasturi tabiiy ofatlar yuz bergan sharoitda ishlarni tashkil etish va 11 mamlakatda ularning oqibatlarini bartaraf qilish dasto'rini ta'sis etdi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi bevosita tabiiy ofatlar yuz bergan sharoitida mahalliy hudud doirasida favqulodda yordam berish borasidagi ishlarni koordinatsiyalash bilan shug'ullanadi.

Shu bilan birgalikda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi favqulodda yordamni tiklanish va uzoq-yillar davomida rivojlanish uchun berishiga harakat qiladi. Uzoq muddatlar mobaynida tabiiy ofatlar girdobida qolgan yoki mojarolarini endigina bartaraf etgan mamlakatlarda insonparvarlik yordamiga, asosan, taraqqiyot, siyosiy va moliyaviy ko'mak bilan bir qatorda tinch qurilishni ta'minlash borasidagi umumiy chora-tadbirlar elementlarining biri sifatida qaraladi.

Falastin qochoqlariga yordam berish ishlarini 1949-yildan buyon Birlashgan Millatlar Tashkilotining Falastin qochoqlariga yordam va ishlarni tashkil etish bo'yicha Yaqin Sharq agentligi olib bormoqda. Bugungi kunda agentlik ro'yxatga olingan 3 milliondan ortiq falastin qochoqlariga sog'liqni saqlash, maorif, favqulodda yordam va ijtimoiy xizmat sohalarida asosiy ko'mak berib keladilar. 1993-yildan boshlab Birlashgan Millatlar Tashkilotining Koordinator — Birlashgan Millatlar Tashkiloti yo'li bilan G'azo va G'arbiy sohildagi Falastin aholisiga taraqqiyot sohasida beriladigan barcha yordamlar ustidan nazorat olib boradi.

1966-yilda muvaqqat chora sifatida Bosh kotib Iroq bo'yicha Dastur Boshqarmasini ta'sis etgan edi. Iroq tomonidan Xavfsizlik Kengashining bu mamlakatga nisbatan sanksiya joriy etgan qator rezolyutsiyalari bajarilguniga qadar Boshqarma o'zining "neft o'rniga oziq-ovqat" dasturi asosida Iroq aholisining insonparvarlik talablarini qondirib turadi.

12.6. BMT ning hozirgi vaqtdagi o'rni va vazifalari.

O'tmishda bo'lganidek, bugungi kunda BMTning asosiy vazifasi barcha a'zo davlatlar uchun tinchlik va xavfsizlikni saqlashdir. Birlashgan Millatlar Tashkiloti

o‘z harbiy kuchlarini saqlamasa ham, tinchlikparvar kuchlar mavjud, ular o‘z a‘zolari tomonidan ta‘minlanadi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining markaziy vazifalaridan biri yanada yaxshiroq hayot tarzini, ish bilan to‘liq bandlikni, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va rivojlanish uchun sharoitlarni ta‘minlashdan iboratdir. Bu vazifa ijrosi bilan Birlashgan Millatlar Tashkiloti tizimining 70 foiz faoliyati mashg‘uldir. Ushbu faoliyat asosida — qashshoqlikni bartaraf etish va hamma joyda insonlar farovonligi darajasini oshirish — butun dunyoda mustahkam tinchlikni ta‘minlash sharoitini yaratish yo‘lidagi zarur qadamlarga ishonch yotadi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti taraqqiyot ishini rag‘batlantirish borasida noyob afzalliklarga ega. Uning faoliyat doirasi butun dunyoni qamrab oladi, keng ko‘lamli mandati esa ijtimoiy, iqtisodiy va favqulodda ehtiyojlarni qondirishni ko‘zda tutadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti allakimlarning tor doiradagi milliy yoki tadbirkorlik manfaatlarininggina ifodachisi emas. Muhim strategik qarorlarni tayyorlashda barcha mamlakatlar, boy va kambag‘allar qatnashadilar.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti taraqqiyot manfaatlari yo‘lidagi sa‘y-harakatlar borasidagi xalqaro konsensusni ishlab chiqishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. 1960-yildan boshlab Bosh Assambleya Taraqqiyotning qator o‘nyilliklar xalqaro strategiyasi doirasidagi birinchi darajali ishlari va vazifalarining kun tartibiga qo‘yilish tarzini aniqlashga yordam bermoqda. Bu o‘nyilliklar dasturi diqqat-e‘tiborida aniq masalalar turibdi, unda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning barcha yo‘nalishlari bo‘yicha taraqqiyotga erishish zaruriyati shubhasiz ta‘kidlanadi. Rivojlanishning to‘rtinchi o‘nyilligi (1991-2000-yillar) doirasida quyidagi to‘rt soha: qashshoqlik va ochlik, inson resurslari va institutsional (belgilangan qoida va tartiblar asosidagi) rivojlanish, xalq va atrof muhit kabilarga ustuvorlik beriladi.

Qator butunjahon konferensiyalari o‘tkazish tufayli maorif (1990-yil), atrof muhit va rivojlanish (1992-yil), inson huquqlari (1993-yil), xalq, taraqqiyot va tabiiy ofatlar xavfining kamayishi (1994-yil), ijtimoiy taraqqiyot (1995-yil), xotin-qizlar mavqeini yaxshilash (1995-yil), aholi punktlari (1966-yil) va oziq-ovqat

xavfsizligi (1996-yil) kabi qator sohalardagi global muammolarni hal etishning amaliy yo'llari belgilab olindi. Hozirgi vaqtda Birlashgan Millatlar Tashkiloti a'zo-mamlakatlar bilan yaqin hamkorlikda shu konferensiyalarda qabul etilgan qarorlarni amalga oshirish bilan shug'ullanmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti barqaror rivojlanishni tashkil etish, ayollar mavqeini yaxshilash, inson huquqlariga amal qilish, atrof muhitni muhofaza etish va oqilona boshqarish kabi rivojlanish sohasidagi qator yangi muhim vazifalarni ishlab chiqish, shuningdek, ularni amalga oshirish dasto'rini yaratish uchun javob berdi.

Taraqqiyot maqsadlaridagi yordam. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tizimi — shu jumlagi kiradigan Tashkilotning o'zi, uning ixtisoslashtirilgan muassasalari, dasturlari va jamg'armalari ijtimoiy-iqtisodiy yutuqlarni qo'lga kiritishga yordam berishda ko'pqirrali faoliyat olib bormoqda. Ixtisoslashtirilgan muassasalar (oxirgi berilgan ro'yxatga qarang) mandati ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatning qariyb barcha jabhalarini qamrab oladi. Bu muassasalar dunyoning barcha mamlakatlariga texnik yordam ko'rsatadi va ularga boshqa shakllarda amaliy yordam beradi. Ular Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatib siyosatni ishlab chiqishga, rahbarlik tamoyillarini aniqlashga, yordamlar tashkil etish va mablag' jalb qilishga ko'maklashadi.

Masalan, Butunjahon banki taraqqiyot maqsadlari uchun har-yili 25 milliard AQSH dollaridan ortiqroq yordamajratadi. Rivojlanayotgan mamlakatlar bunday yordamlardan o'z iqtisodiyotlarini mustahkamlash va bozorlarini kengaytirish uchun foydalanadilar. Qarzlar faqat hukumatlarga beriladi, biroq barqaror o'sish darajasiga erishish maqsadida Bank mahalliy jamoalar, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalaridan, shuningdek, Xalqaro moliyaviy korporatsiyalar orqali xususiy sektordagi korxonalaridan ham foydalanishlari mumkin.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan ixtisoslashtirilgan muassasalar o'rtasidagi muomalalarni yaqindan muvofiqlashtirish — tarkibiga Bosh kotib, ixtisoslashtirilgan muassasalar rahbarlari va atom energiyasi bo'yicha Xalqaro agentlik kiradigan koordinatsiya bo'yicha Ma'muriy komitet orqali ta'minlanadi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Dasturlari va Jamg'armalari o'z faoliyatlarini — Birlashgan Millatlar Tashkilotining iqtisodiy va ijtimoiy sohalaridagi mandatini bajarayotgan Bosh Assambleya hamda Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash rahbarligida olib boradilar. Bu organlar o'rtasidagi hamkorlikning samaradorligini oshirish uchun Bosh kotib 1977-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tezkor jamg'armalari va dasturlarining vakillari tarkibida Birlashgan Millatlar Tashkilotining taraqqiyot masalalari bo'yicha Guruhini tashkil etdi.

Ijtimoiy va iqtisodiy sohada taraqqiyotni barqaror etish sa'y-harakatlarining eng oldingi saflarida Birlashgan Millatlar Tashkilotining taraqqiyot dasturi bormoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining inson potentsiali barqaror rivojlanishi uchun yordam mablag'lari — subsidiy berish bo'yicha ko'ptomonli yirik mexanizmi bo'lib qolgan bu tashkilot o'z sa'y-harakatlarini texnik hamkorlik va qashshoqlikni tugatish tomonga yo'naltirgan holda 174 mamlakat va hududlarda faoliyat olib bormoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bolalar jamg'armasi (YUNISEF) Birlashgan Millatlar Tashkiloti tizimining — bolalarning hayot kechirishi, muhofazasi va rivojlanishini ta'minlash bo'yicha uzoq muddatli, kelajakdagi vazifalarni hal etish bilan shug'ullanadigan yetakchi tashkiloti hisoblanadi. Qariyb 150 mamlakatda amalga oshirilayotgan YUNISEF dasturi diqqat markazida emlash, birinchi meditsina-sanitariya xizmati, oqvatlanish va boshlang'ich ta'lim kabi masalalar turadi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining ko'plab boshqa dasturlari taraqqiyot borasidagi o'z ishlarini hukumat va nohukumat tashkilotlari bilan hamkorlikda olib boradi. Jahon Oziq-ovqat dasturi — asl mohiyati favqulodda yordamdan, shuningdek Taraqqiyot dasturidan iborat bo'lib, dunyodagi oziq-ovqatlar bilan yordam ko'rsatadigan eng yirik xalqaro tashkilotdir. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Aholishunoslik jamg'armasi (YUNFPA) ham xalqlar va elatlarga yordam beradigan yirik xalqaro muassasadir. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof muhit dasturi (YUNEP) dunyoning hamma burchaklarida tabiatdan foydalanishning eng ilg'or usullarini joriy etishga ko'maklashadi, Birlashgan

Millatlar Tashkilotining Aholi punktlari markazi (Xabitat) esa turmush sharoiti salomatliklariga tahdid solayotgan kishilarga yordam ko'rsatadi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Savdo va taraqqiyot bo'yicha konferensiyasi (YUNKTAD) dunyo ekonomikasida rivojlangan mamlakatlar rolini e'tirof etgan holda xalqaro savdoni rivojlantirishga yordam beradi. YUNKTAD shuningdek, Jenevadagi xalqaro savdo bo'yicha Markaz orqali taraqqiy etgan mamlakatlardan eksport qilib kelishga yordam beradigan, mustaqil faoliyat ko'rsatadigan Butunjahon savdo tashkiloti bilan hamkorlik qiladi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tizimidagi muassasa va tashkilotlar o'zlarining kompetensiyalaridagi barcha sohalarni qamrab olgan holda har qanday yolg'iz harakat qilgan mamlakatning qurbi yetmaydigan murakkab muammolarni hal etish uchun o'z kuch-qudratlarini yana ham yaxshiroq jipslashtirmoqda.

Masalan, butun dunyoda 50 million kishi kasallikka chalingan epidemiya — OITSGa qarshi kurashish maqsadini ko'zda to'tgan Birlashgan dasturni amalga oshirishda Birlashgan Millatlar Tashkilotining olti muassasa va dasturining mutaxassislari ishtirok etmoqdalar. Harajatlari 25 milliard AQSH dollarini tashkil etadigan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Afrika bo'yicha 10 yilga mo'ljallangan maxsus Umumtuzim tashabbusi asosiy ta'lim, meditsina xizmati va shu mintaqada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash maqsadidagi umumiy dasto'rini amalga oshirish ishiga Birlashgan Millatlar Tashkilotining deyarli barcha bo'linmalarini jalb etadi. BMTning taraqqiyot dasturi, YUNEP va Butunjahon banki tomonidan boshqariladigan 2 milliard AQSH dollariga teng zahiraga ega bo'lgan Global ekologik jamg'arma taraqqiy etayotgan mamlakatlarga atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi ularning dasturlarini amalga oshirishga yordam beradi.

1998-yili YUNISEF, BMTning taraqqiyot dasturi, Butunjahon banki va Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti o'z sa'y-harakatlarini birlashtirib har-yili 1 milliondan ortiqroq odamning yostig'ini quritayotgan kasallik — bezgakka qarshi kurash bo'yicha yangi kompaniyani amalga oshirishga kirishdilar.

1998-yili YUNISEF, BMTning taraqqiyot dasturi, Butunjahon banki va Butunjahon sog'likni saqlash tashkilotlari-yili 1 milliarddan ortiq odamni nobud etayotgan bezgakka qarshi yangi kampaniya e'lon qilish uchun kuchlarini birlashtirdilar. Emlash ishlarini kengaytirish va OITSGa, bezgakka va silga qarshi yangi vaksinalar yaratish borasidagi tashabbuslar, YUNISEF, Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti va Butunjahon banki singari, tadbirkorlik sohasi bilimdonlarini, filantropik tashkilotlarning va hukumatlarning ham qo'llab- quvvatlashlariga sazovor bo'ldi. Bu kabi hamkorlikka xalqaro tashkilotlar, hukumatlar, akademik institutlar, jamg'armalar, nohukumat tashkilotlari va yana ham kengroq miqyosda xususiy sektor jalb etilmoqda.

BMTdagi islohotlar: 1997-2002-yillar. Kofi Annan 1997-yil BMT Bosh kotibi lavozimida vazifasini bajarishga kirishishi bilan BMT faoliyatini yanada yaxshilashga va o'zidan oldingi rahbarlar boshlagan islohotlarning to'la amalga oshishiga yo'naltirilgan tezkor choralar ko'rishga kirishdi. Dastlabki olti oyda Bosh kotib xodimlarning vazifalari o'rtasidagi o'zaro takror holatlarga barham berib, muvofiqlashtirish va hisobot berishni yaxshilash maqsadida, BMT tarmoqlaridagi tashkiliy tizimni birlashtirdi va Tashkilotning yetakchi rahbarlari mahkamasini tuzdi. Bu islohotlar BMTning eng asosiy qismi — uning xodimlari ishini yaxshilashga yo'naltirilgan edi.

So'nggi-yillarda Bosh kotib tinchlikni saqlash bo'yicha operatsiyalarni isloh qilish jarayoniga rahbarlik qilib, inson huquqlari himoyasi BMT faoliyatining barcha asosiy sohalariga kiritildi. Fuqarolik jamiyati va xususiy sektorning rivojlanish va xalqaro faoliyat masalalariga yangicha ta'siri e'tiborga olingan holda, mazkur sohalar bilan hamkorlikning yangi shakllari yo'lga qo'yildi.

2000-yili davlat va hukumat rahbarlari yig'ilishlari tarixidagi eng katta — mingyillikning epoxal Sammiti o'tkazildi. Yangi asrda jahon miqyosida amalga oshirilajak qator maqsad va vazifalar aniq belgilab qo'yilgan misli ko'rilmagan kelishuv — BMT Mingyillik deklaratsiyasiga imzo chekilishi Sammitning eng yirik natijasi bo'ldi.

Islohot jarayoni shunchaki o'zgartishlar majmuidangina iborat emas: islohotlar sabab mazkur xalqaro organ faoliyatidan keng ochiqlik, batartiblik, yangilanish va ishonch madaniyati joy oldi. Bu jarayon yigirma birinchi asrda ham BMT faoliyatidagi serqirralikni saqlab qolish va tahdidlariga munosib javob berish uchun Birlashgan Millatlar tashkilotini sezilarli darajada o'zgartirish uchun imkon yaratdi.

Bosh kotibning BMT tashkiliy tizimini oqilona tashkil etishga qaratilgan ilk qadami uning bu lavozimdagi birinchi muhlatining dastlabki oyidayoq — 1997-yil yanvarida amalga oshirildi. BMTning o'ttizta departamenti, jamg'arma va dasturi sohalar bo'yicha to'rtta tarmoq: tinchlik va xavfsizlik, gumanitar masalalar, rivojlanish, iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo'yicha guruhlariga birlashtirildi. Bu guruhlarning ishini muvofiqlashtirish uchun ijroi qo'mita tashkil etildi (ijroi qo'mita a'zolarining ro'yxatiga qarang). Bir paytning o'zida 1996-yilida bo'sh turgan mingga yaqin lavozim butunlay bekor qilindi.

Keyinchalik ijroi qo'mitalar yetakchi rahbarlar guruhlarini orqali Bosh kotib devoni bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'lanadigan bo'ldi. Guruhlar "mahkamasi"ga BMTning barcha departament, jamg'arma va dasturlari rahbarlari kiradi.

Tashkiliy tizimni soddalashtirish uchta departamentni Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo'yicha departamentga birlashtirish hamda BMT Jinoyatchilikning oldini olish va jinoyatni oqilona sudlash bo'yicha bo'limi bilan BMT Giyohvandlikni nazorat qilish bo'yicha dasto'rini Giyohvandlik va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmaga birlashtirish orqali amalga oshirildi. Inson huquqlari bo'yicha markaz Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissar Boshqarmasi tarkibiga kirdi. Inson huquqlari bo'yicha idoraning yiriklashishi bilan bir vaqtda yetakchi rahbarlar guruhlarini va ijroi qo'mitalar yordamida inson huquqlarini himoya qilish faoliyatini tinchlik o'rnatish va rivojlantirish faoliyati, shuningdek, BMT ishining boshqa sohalariga kiritishga qaratilgan choralar ko'rildi. Yiriklashtirish mamalakatlari darajasini ham chetlab o'tmadi.

BMTning "mamlakatlar bo'yicha guruhlarini" rivojlanayotgan, iqtisodiyoti o'tish jarayonida hamda krizis holatida bo'lgan 134 davlatda BMT jamg'armalari,

dasturlari va maxsus muassasalari ishini amalga oshiradi. 1997-yilgacha ularning har biri asosan alohida idoraga ega edi. “Mamlakatlar bo‘yicha guruhlar”ga mablag‘ni tejash va hamkorlikdagi ishning yanada samarador bo‘lishini ta‘minlash, eng muhimi, ushbu davlatlarda BMTning yagona qiyofasini yaratish maqsadida idoralar va xizmat ko‘rsatuvchilardan birgalikda foydalanishga iloji boricha tezkorlik bilan o‘tish topshirildi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning har birida BMTning hozir uchta va undan ortiq tashkiloti faoliyat ko‘rsatayotgan 50 dan ortiq umumiy Uyi mavjud. Bundan tashqari, bugun BMTning Internetga umumiy bog‘lanish va umumiy xizmat ko‘rsatuvchilar xizmatidan foydalanish imkoniga ega 30 dan ortiq BMT virtual Uyi faoliyat ko‘rsatmoqda. BMT “mamlakatlar bo‘yicha guruhleri” bunday yiriklashtirish tufayli yuz minglab dollarning tejalishi haqida ma‘lumot berdi.

Ayni paytda, 1997-yili Bosh kotib BMT rezident-muvofiqlashtiruvchilarga, mamlakatlardagi ishlar rejasini muvofiqlashtirish va har bir mamlakatda BMT faoliyatini “yagona bayroq ostida” olib borish maqsadida, yanada keng vakolatlar berdi. Koordinatsiyani yengillashtirish va BMT yordamining ushbu ko‘mak berilayotgan davlatlar strategiyasi va prioritetlari bilan yanada kengroq moslanishiga erishish maqsadida yana ikkita qo‘shimcha yo‘l ochildi: mazkur mamlakat talablarini o‘rganuvchi Mamlakat ahvolini umumiy baholash va rivojlanish hamda BMT konferentsiyalarida qo‘yilgan vazifalarni bajarishni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha mamlakatlarga ko‘maklashish ishlarini BMT muassalari o‘rtasida taqsimlovchi BMTning Rivojlanish yo‘lida yordam ko‘rsatish bo‘yicha andazaviy dasturi. 2002-yil iyuliga kelib 106 mamlakatning ahvolini baholash nihoyasiga yetdi, 32 mamlakatning ahvolini baholash jarayoni davom etib (ulardan bir nechtasi qaytadan baholanadi), 69 ta rivojlanish yo‘lida yordam ko‘rsatish bo‘yicha andazaviy dasturi tuzilgan, yana 26 tasi tuzilish jarayonida edi.

VICH-OITSGa qarshi birlashtirilgan dastur (YuNEYDS) o‘z faoliyatini 1996-yili BMTning olti muassasasi — BMT Taraqqiyot bo‘yicha dasturi, BMT Ta‘lim, fan va madaniyat bo‘yicha tashkiloti, BMT Aholishunoslik bo‘yicha jamg‘armasi, BMT Bolalar jamg‘armasi, Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti va

Jahon banki qo'shma loyihasi sifatida boshladi. Shu o'tgan davr mobaynida bu asosiy guruhga Xalqaro mehnat tashkiloti va BMTning Giyohvandlik moddalarini nazorat qilish va jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha boshqarmasi ham qo'shildi, BMT boshqa organlarining ko'pchiligi BMTning VICH-OITSGa oid guruhiga muayyan mamlakatlar miqyosida birlashgan strategiyani ishlab chiqish va amalga oshirish borasida qo'shildi. 2001-yili BMT tizimida yanada yuqori tashkiliy miqyosda — OITSGa qarshi kurash bo'yicha byudjet va BMTning 29 jamg'arma, dastur va muassasasi ish rejasini birlashtirgan BMTning OITS bo'yicha birlashgan rejasi tuzildi.

BMT tizimi muassasalari faoliyatini jonlantirishga qaratilgan asosiy tadbir 1944-yili Bretton-Vudsdan asos solingan institutlar bilan aloqani rivojlantirish bo'ldi. Bir tarafdin Birlashgan Millatlar Tashkiloti, ikkinchi tomondan Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasi o'rtasidagi hamkorlik Ikkinchi jahon urushidan keyingi davr ko'p qirrali faoliyat asoschilari tomonidan rejalashtirilgan darajaga yetmagan edi. 1998-yildan boshlab BMT Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi Bretton-Vuds institutlari moliya vazirlari bilan turkum-yillik uchrashuvlar o'tkazdi. Bu muhim burilishlar 2002-yili Monterreda (Meksika) BMT tomonidan Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasi hamda Jahon savdo tashkilotining faol ishtirokida tashkil etilgan Taraqqiyotni mablag' bilan ta'minlash bo'yicha xalqaro konferentsiyada erishilgan yutuqlar uchun muhim omil bo'ldi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

- 1. BMT qachon tuzilgan va uning funksiyasi.*
- 2. BMT ning strukturasi va uning harakatlantiruvchi mexanizmlari.*
- 3. Niyu-Yorkdagi ming yillik sammit (2000-yil 6-8 sentyabr) haqida gapiring.*
- 4. BMTning hozirgi vaqtdagi o'rni.*
- 5. BMT ning xalqaro tinchlikni o'rnatish borasidagi faoliyati haqida so'zlab bering.*
- 6. O'zbekistonning BMT bilan aloqalari haqida nimalarni bilasiz?*

13-MAVZU. YEVROPA ITTIFOQI VA UNING XALQARO MUNOSABATLARDAGI O‘RNI

Reja:

13.1. Yevropada urushdan keyingi vaziyat.

13.2. Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati

13.3. Maastrixt bitimi.

13.4. XXI asr boshida Yevropa Ittifoqi

13.5. Yevropa Ittifoqining xalqaro munosabatlarda ishtiroki.

Tayanch tushunchalar: *Yevropa ko‘mir va po‘lat birlashmasining barpo etilishi (YeKPB). Rim protokoli, Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyatiga (YeIH), «Umumiy bozor», K.Adenauer, Sh de Goll, Maastrixt bitimlari, Yevro, Yevropa siyosiy ittifoqi, Yevropa kommissiyasi, Transatlantik hartiyasi.*

13.1. Yevropada urushdan keyingi vaziyat.

Yevropa Ittifoqi Maastrixt bitimi tomonidan bir marotaba yaratilmagan, biroq 1945-yildan beri asta-sekin integratsiyalashuv natijasi bo‘lgan. Birlashuvning bir darajasi ish ko‘rgan, keyingi darajaga ishonch va kuch bag‘ishlaydigan evolyutsiya ko‘rinishida edi. Shunday qilib, Yevropa Ittifoqi a'zo davlatlarning talablari asosida shakllantirilgan bo‘lishi mumkin.

Ikkinchi jahon urushining yakuni Yevropani kommunistik, Sovet Ittifoqi hukmronlik qilgan, Sharqiy blok va ko‘plab demokratik G‘arb davlatlari o‘rtasida bo‘linib ketdi. Germaniyani qayta qurish uchun qaysi yo‘nalish ustida qo‘rquv bor edi va G‘arbda federal Yevropa Ittifoqining G‘arbdagi g‘oyalari qayta tiklandi va Germaniyani Yevropa lik demokratik institutlarga va har qanday boshqa Yevropa xalqiga yordam berishga umid qildi. Yangi urush boshlashga qodir bo‘la olmaydi va kommunistik Sharqning kengayishiga qarshi turadi.

Birinchi Ittifoq: ECSC. Yevropaning urushdan keyingi davrdagi xalqlari tinchlikdan keyin emas, balki ular iqtisodiy muammolarni hal qilishda, masalan, xom ashyo bir mamlakatda va sanoatda ularni qayta ishlashga qaratilgan.

Urush Yevropani batamom qoldirib ketgan, sanoat juda katta zarar ko'rgan va ularning himoyasi SSSRni to'xtata olmagan.

Ushbu oltita qo'shni davlatni hal qilish uchun Parij shartnomasida bir nechta muhim manbalar, jumladan, sanoat va harbiylarning asosiy roli uchun tanlab olingan ko'mir, po'lat va temir javhari uchun erkin savdo maydonini yaratish bo'yicha kelishib olindi. Ushbu organ Yevropa ko'mir va po'lat jamiyati deb ataldi va Germaniya, Belgiya, Fransiya, Gollandiya, Italiya va Lyuksemburgni qamrab oldi. 1952-yil 23-iyulda boshlangan va 2002-yil 23-iyulda tugagan.

Fransiya ECSCga Germaniyani nazorat qilish va sanoatni tiklashni taklif qildi; Germaniya Yevropada teng huquqli a'zosiga aylanishni va Italiya kabi o'z obro'sini qayta tiklashni xohladi; Beniluks (Belgiya, Nedirlandiya, Lyuksemburg) davlatlari iqtisodiy o'sish umidida va qo'shnilaridan ortda qolishni istamadi. Fransiya, Angliya rejani sinab ko'rishga urinishdan qo'rqib, ularni dastlabki bahslarga qo'shmadi va Britaniya ham, Hamdo'stlik tomonidan taqdim etilayotgan iqtisodiy salohiyat bilan har qanday kuch va mazmundan voz kechishni istamadi.

Bundan tashqari, EKOSni boshqarish uchun tashkil etilgan "millatchi" (milliy davlatdan ustun bo'lgan boshqaruv darajasi) organlari: Vazirlar Kengashi, Oliy Sud va qonunchilik fikrlarni ishlab chiqish va nizolarni hal qilish. Ushbu asosiy organlardan keyinchalik YI ning paydo bo'lishi, EKOSning ayrim ijodkorlari tomonidan ilgari surilgan jarayon, chunki ular uzoq muddatli maqsad sifatida federal Yevropaning yaratilishi haqida ochiq-oydin bayon etilgan.

13.2. Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati

1950-yillarning o'rtalarida ESSC ning olti davlati orasida "Yevropadagi mudofaa jamoalari" tuzilganda noto'g'ri qadam qo'yildi: yangi qo'shinlar mudofaa vaziri tomonidan qo'shma qo'shinni nazorat qilishni talab qildi. Fransiyaning Milliy majlisi uni ovoz berganidan so'ng tashabbusni rad etishga to'g'ri keldi.

Ammo ECSC ning muvaffaqiyati a'zo mamlakatlarga 1957-yilda imzolangan ikki yangi shartnomani imzolashga olib keldi, bu ham Rimning shartnomasi edi. Bu ikki yangi organ yaratdi: atom energiyasini bilish va Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyatiga ega bo'lgan Yevropa Atom Energiyasi Jamiyati

(Euratom). Ushbu AET a'zo davlatlar o'rtasida umumiy mehnat bozorini yaratdi va hech qanday tarif va to'siqsiz mehnat va tovarlar oqimiga to'sqinlik qildi. Bu iqtisodiy o'sishni davom ettirish va urushgacha bo'lgan Yevropaning protektsistik siyosatlaridan qochish edi.

1970-yilga kelib umumiy bozordagi savdo besh barobar ortdi. Bundan tashqari, a'zolarning dehqonchilikini ko'chaytirish va monopoliyalarga chek qo'yish uchun umumiy qishloq xo'jaligi siyosati (CAP) ham mavjud edi. Umumiy bozorga asoslangan emas, balki mahalliy fermerlarni qo'llab-quvvatlash uchun davlat tomonidan subsidiyalar ajratilgan CAP, eng ko'p tortishadigan EI siyosatiga aylandi.

ATDK kabi, AET bir nechta supranational organlarni yaratdi: Vazirlar Kengashi qarorlar qabul qilish uchun, umumiy kengash (1962-yildan boshlab Yevropa parlamenti deb nomlangan), maslahat berish, a'zo davlatlarni bekor qilishi mumkin bo'lgan sud va ushbu siyosatni kuchga kiritish bo'yicha komissiya 1965-yilda imzolangan Bryussel bitimi AET, ECSC va Euratom komissiyalari bilan qo'shma va doimiy davlat xizmatlarini birlashtirdi.

1960-yillarning oxirida kuch-quvvat kurashida muhim qarorlarni qabul qilish zarurati paydo bo'ldi va a'zo davlatlarga veto qo'ydi. Bu yigirma-yil mobaynida bu sekinlashdi. 70-yillar va 80-yillar mobaynida AET a'zoligi kengayib, Daniya, Irlandiya va Buyuk Britaniyaga 1973-yilda, Gretsiyada 1981-yilda, Portugaliya va Ispaniyada esa 1986-yilda kengaytirildi. Buyuk Britaniya o'z iqtisodiy o'sishini AET orqasida qoldirib, Amerika Qo'shma Shtatlar Britaniyani AETda Frantsiya va Germaniyaga raqib ovoz sifatida qo'llab-quvvatlaydi. Ammo, Britaniyaning birinchi ikki arizasi Frantsiya tomonidan veto qilingan. Irlandiya va Daniya Buyuk Britaniyadagi iqtisodiyotga qaram bo'lib, o'zlarini Britaniyadan uzoqlashtirishga harakat qildilar. Norvegiya bir vaqtning o'zida murojaat qilgan, lekin referendumdan so'ng "yo'q" deb aytdi.

Shu bilan birga, a'zo davlatlar Yevropa integratsiyasini Rossiya va hozirgi Amerikaning ta'sirini muvozanatlashtiruvchi usul sifatida ko'rishga tushishdi.

2016-yil 23 iyun kuni Birlashgan Qirollik Yevropa Ittifoqini tark etishga va ilgari noqonuniy ravishda ozod qilinish shartlarini qo'llash bo'yicha birinchi a'zo davlatga aylandi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlari

2016-yil o'rtalaridan boshlab Yevropa Ittifoqida yigirma etti mamlakat mavjud. Bo'lar quyidagilar: *Vengriya, Irlandiya, Italiya, Latviya, Litva, Lyuksemburg, Malta, Niderlandiya, Polsha, Portugaliya, Ruminiya, Slovakiya, Avstriya, Belgiya, Bolgariya, Xorvatiya, Kipr, Chexiya, Daniya, Estoniya, Sloveniya, Ispaniya, Shvetsiya.*

Ishtirok etish sanasi

- 1957-yil: Belgiya, Germaniya, Fransiya, Italiya, Luksemburg, Niderlandiya — 6 ta
- 1973-yil: Daniya, Irlandiya, Buyuk Britaniya — 9 ta
- 1981-yil: Gretsiya — 10 ta
- 1986-yil: Portugaliya, Ispaniya — 12 ta
- 1995-yil: Avstriya, Finlandiya, Shvetsiya — 15 ta
- 2004-yil: Kipr, Chexiya, Estoniya, Vengriya, Latviya, Litva, Malta, Polsha, Slovakiya, Sloveniya — 25 ta
- 2007-yil: Bolgariya, Ruminiya — 27 ta.
- 2013-yil: Xorvatiya — 28 ta.

Tashlab ketish sanasi

2016: Birlashgan Qirollik

Ittifoqning rivojlanishi 70-yillarda sekinlashdi, ba'zan uni rivojlanish davrida "qora zaif" deb atagan federalistlarni asabiylashtirmoqda. Iqtisodiy va valyuta ittifoqini tuzish bo'yicha harakatlar ishlab chiqilgan, biroq xalqaro iqtisodiyotning pasayishi oqibatida paydo bo'ldi. Biroq, 1980-yillarda Reyganning AQShdan Yevropadan uzoqlashayotgani va EO a'zolariga kommunistik davlatlar bilan aloqalar o'rnatilishiga yo'l qo'ymaslik oqibatida ularni 80-yillardayoq qaytib keldi.

Shunday qilib, AETning salohiyati rivojlantirildi va tashqi siyosat konsullik va guruh harakatlariga aylandi. 1979-yilda Yevropa valyuta tizimi va kam

rivojlangan hududlarda grant berish usullari bilan boshqa mablag'lar va organlar tashkil etildi. 1987-yilda yagona Yevropa qonuni (SEA) AETning rolini bir qadam oldinga o'tkazdi. Yevropa Parlamenti a'zolariga hozirda qonunchilik va masalalar bo'yicha ovoz berish huquqi berildi, ovozlarning soni har bir a'zoning aholisiga bog'liq. Umumiy bozorda to'siqlar ham maqsadga muvofiq edi.

13.3. Maastrixt bitimi.

1992-yil 7-fevralda Yevropa Ittifoqi (Maastricht Shartnomasi deb ataladigan) Yevropa Ittifoqi to'g'risidagi shartnoma imzolanganidan so'ng, Yevropa integratsiyasi bir qadam oldinga o'tdi. Bu 1993-yil 1-noyabrdan kuchga kirdi va AETni yangi nomi berilgan Yevropa Ittifoqiga o'zgartirdi. O'zgarishlar uchta «ustunlar» ga asoslangan, ya'ni «Yevropa jamoalari» ga asoslangan, millatlararo tuzilmalar faoliyatini kengaytirish edi. umumiy xavfsizlik / tashqi siyosat; a'zo davlatlarning ichki ishlariga "adolat va ichki ishlar" masalalari bo'yicha aralashuvlar. Amalda va majburiy ovoz berishdan o'tish uchun bo'larning barchasi birlashtirilgan idealdan uzoqda edi. Yevropa Ittifoqi, shuningdek, yagona valyutani yaratish bo'yicha yo'riqnomani ham ishlab chiqdi, garchi 1999-yilda joriy etilgan bo'lsa, uch mamlakat tanlab olindi va ulardan biri belgilangan maqsadlarga erisha olmadi.

Ayniqsa valyuta va iqtisodiy islohotlar asosan AQSh va Yaponiya iqtisodiyotining Yevropa ga qaraganda tezroq o'sib borayotgani, ayniqsa, elektronikadagi yangi o'zgarishlarga tezda kengaytirilgandan keyin amalga oshirilmoqda. Kambag'al a'zo davlatlardan e'tirozlar bor edi, ular ittifoqdan ko'proq pul olishni va kamroq pul to'lamoqchi bo'lgan katta davlatlardan pul so'rashni istashdi; oxirida kelishuvga erishildi. Yaqindagi iqtisodiy ittifoqning rejalashtirilayotgan yon ta'siri va yagona bozorni yaratish natijasida ijtimoiy siyosatda yanada kengroq hamkorlik amalga oshirildi.

Maastrixt shartnomasi shuningdek, Yevropa Ittifoqi fuqaroligining kontseptsiyasini rasmiylashtirdi, bu esa Yevropa Ittifoqi mamlakatidan har qanday kishini o'z hukumatida ishlash uchun yo'l qo'yishga imkon berdi. Ehtimol, eng ko'p tortishuvlarga qarshi, Yevropa Ittifoqining ichki va huquqiy masalalarga

kirishi - inson huquqlari to'g'risidagi qonunni ishlab chiqardi va ko'plab a'zo davlatlarning mahalliy qonunchiligi Yevropa Ittifoqi chegaralarida erkin harakatlanish qoidalarini ishlab chiqdi va bu kambag'al Yevropa Ittifoqidan tarqoq migratsiya haqida paranoya keltirdi. xalqlar boy kishilarga. Tashkilot a'zolarining ko'plab sohalari avvalgidan ham ta'sirlangan va nomenklatura kengaygan. Maastrixt bitimi kuchga kirgan bo'lsa-da, u qattiq qarshiliklarga duch keldi va faqat Frantsiyadan o'tib, Buyuk Britaniyada ovoz berishga majbur bo'ldi.

Maastrixt bitimi Yevropa ni faqatgina iqtisodiy jihatdan ko'ra ko'proq yo'l bilan birlashtirishga mo'ljallangan beshta maqsadni aniqladi. Maqsadlar:

- 1) ishtirokchi davlatlarning demokratik boshqaruvini ko'chaytirish.
- 2) xalqlarning samaradorligini oshirish.
- 3) Iqtisodiy va moliyaviy birlashishni o'rnatish
- 4) "Jamiyatning ijtimoiy hajmi" ni ishlab chiqish.
- 5) Ishtirokchi davlatlar uchun xavfsizlik siyosatini o'rnatish.

Keyinchalik kengayishlar

1995-yilda Shvetsiya, Avstriya va Finlyandiya ishtirok etgan bo'lsa, 1999-yilda Amsterdamning Shartnomasi kuchga kirdi, ish bilan ta'minlash, yashash va yashash sharoiti va boshqa ijtimoiy va huquqiy masalalarni EI ga topshirdi. Biroq, shu vaqtning o'zida Yevropa Sovet hukmronlik qilgan Sharqning qulashi va iqtisodiy jihatdan zaiflashgan, ammo yangi demokratik, sharqiy xalqlarning paydo bo'lishi natijasida yuzaga kelgan katta o'zgarishlarga duch keldi. 2001-yilgi Nitsa Shartnomasi bunga tayyorgarlik ko'rishga harakat qildi va bir qator davlatlar dastlab EI tizimining ayrim qismlariga, masalan, erkin savdo hududlariga qo'shilgan maxsus bitimlar tuzdilar. Xususan, Sharqiy Yevropa g'arbdan ko'ra qishloq xo'jaligida ishtirok etgan aholi sonining ko'prog'iga ega bo'lganligi sababli ovoz berishni soddalashtirish va o'zgartirishni muhokama qilish bo'yicha bahslar bo'lib o'tdi, lekin oxir-oqibat moliyaviy qiyinchiliklar o'zgarishlarning oldini oldi,

Muxolifat mavjud bo'lsa-da, 2004 yilda (Kipr, Chexiya, Estoniya, Vengriya, Latviya, Litva, Malta, Polsha, Slovakiya va Sloveniya) o'n mamlakat va 2007-

yilda ikkita (Bolgariya va Ruminiya) qo'shildilar. Shu vaqtga qadar ko'pchilik ovoz berishni ko'p masalalarga qo'llash bo'yicha bitimlar mavjud edi, ammo milliy vetoslar soliq, xavfsizlik va boshqa masalalarda saqlanib qoldi. Xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurash - jinoyatchilar samarali chegara tashkilotlarini shakllantirgan bo'lsa, hozirgi kunda ko'chaymoqda.

13.4. XXI asr boshida Yevropa Ittifoqi

Yevropa Ittifoqining integratsiyalashuv darajasi hozirgi zamonda tengsizdir, lekin uni yanada yaqinroq qilishni istagan odamlar (va ko'plab odamlar yo'q). Yevropa ning kelajagi to'g'risidagi konventsiya 2002-yilda Yevropa Ittifoqi Konstitutsiyasini yaratish uchun tuzilgan va 2004-yilda imzolangan loyiha Yevropa Ittifoqining doimiy prezidenti, Tashqi ishlar vaziri va Huquqiy Hartiyani o'rnatishga qaratilgan. Bundan tashqari, YeI ga alohida davlatlar rahbarlarining o'rniga ko'plab qarorlar qabul qilishiga ruxsat berishi mumkin edi. 2005-yilda Frantsiya va Niderlandiya uni ratifikatsiya qila olmagan (va boshqa Yevropa Ittifoqi a'zolari ovoz berish huquqiga ega bo'lgunga qadar) rad etildi.

Lissabon Shartnomasi o'zgartirilgan, hali Yevropa Ittifoqi prezidenti va Tashqi ishlar vazirini o'rnatish va Yevropa Ittifoqining qonuniy vakolatlarini kengaytirishni maqsad qilgan, lekin mavjud organlarni ishlab chiqish orqali amalga oshirilgan. Bu 2007-yilda imzolangan, ammo bu safar Irlandiyada saylovchilar tomonidan rad etilgan. Biroq, 2009-yilda Irlandiyalik saylovchilar shartnoma imzoladilar. 2009-yil qilishida Yevropa Ittifoqining 27 ta davlati ushbu jarayonni ratifikatsiya qildi va bu kuchga kirdi. O'sha paytda Belgiya bosh vaziri Herman van Rompuy, birinchi "Yevropa Kengashi rahbari" va Buyuk Britaniyaning Baronessa Ashton tashqi ishlar bo'yicha oliy vakili bo'ldi.

Shartnomaga qarshilik ko'rsatgan ko'plab siyosiy muxolifat partiyalari va siyosatchilar bor edi va Yevropa Ittifoqi barcha a'zo davlatlar siyosatida bo'linadigan muammo bo'lib qolmoqda.

Yevroni joriy qilinishi. 2002-yili Yevropa da (Buyuk Britaniyadan tashqari) yagona valuta — yevro joriy qilinishi YI davlatlarini yanada yaqinlashtirdi. Kelishilgan yagona tashqi va mudofaa siyosati olib borilmoqda.

Endi Yevropa Ittifoqiga amalda konfederatsiya tipidagi yagona davlat tuzilmasi sifatida qarash mumkin bo'ldi. Yevroatlantika mamlakatlarining keying integratsiyasi G'arbiy Yevropa bilan Shimoliy Amerika davlatlarining yanada yaqinlashuvi asosida yuz bermoqda.

Ammo so'nggi paytlarda Ylga kiruvchi bir qator davlatlar qarzining haddan oshib ketishi katta muammolarni keltirib chiqardi. 2015-yilgi saylovlarda Gretsiyada hokimiyatga kelgan A.Sipras boshchiligidagi so'llar hukumati mamlakatning qarzini kreditorlar qo'ygan shartlar bo'yicha uza olmasligini e'lon qildi. Shundan so'ng o'tkazilgan referendumda Gretsiya aholisining ko'pchiligi hukumatni qo'llab ovoz berdi. Gretsiya hukumati qarzlarning bir qismidan voz kechishlarini talab qildi. Gretsiya qarzini restrukturizatsiya qilish to'g'risida Yevrokomissiya kelishuvga erishgan bo'lsa-da, Yevropa markaziy banki va Xalqaro valuta fondi bilan muzokaralar yana davom etdi.

Italiya va Ispaniyaning ham qarzlari juda katta miqdorni tashkil qiladi. Ayni paytda YIda iqtisodiy jihatdan yetakchilik qilayotgan Germaniya va Fransiyaning siyosiy bosimidan ham norozilik ko'chayib bormoqda. Bu norozilikning yorqin namoyishi Buyuk Britaniyada 2016-yil iyunda o'tkazilgan referendum boiib, unda ishtirok etgan aholining yarmidan ko'pi mamlakatning Yevropa Ittifoqidan chiqishi uchun ovoz berdi. 2016-yil sentabrda Bratislava shahrida boMib o4gan YI rahbarlari yig'ilishida ilk bor Buyuk Britaniya bosh vaziri qatnashmadi. Unda nutq so'zlagan GFR kansleri A. Merkel YI og'ir inqirozda ekanligini tan oldi.

13.5. Yevropa Ittifoqining xalqaro munosabatlarda ishtiroki.

XX asrning 90-yillarda Yevropa Ittifoqining umumiy tashqi va xavfsizlik siyosati (CFSP) rivojlanishiga Bolqondagi mojarolar kuchli turtki beradi. EI mojaro boshlanishida hech qanday munosabat bildira olmadi va Gollandiyadan kelgan BMT tinchlikparvar kuchlari Bosniya va Gertsegovinadagi Srebrenitsa qirg'inining (1995-yil iyulida bo'lgan edi) oldini ololmadi, bu ikkinchi jahon urushidan keyingi Yevropa dagi eng yirik ommaviy qotillik deya

hisoblangan. Shimoliy Atlantika Shartnomasi Tashkiloti (NATO) nihoyat urushga aralashib, jangchilarni muzokaralar stoliga o'tirishga majbur qildi. 1995-yil 14-dekabrda Parijda Xorvatiya va Bosniya va Gertsegovinadagi mojaroga barham beruvchi Dayton kelishuvi imzolanadi.

1999-yil 24-martda Kosovodagi vaziyat Yevropa Ittifoqining Kosovo bo'yicha CFSP deklaratsiyasiga olib keldi va NATOning Kosovo va Serbiyaga aralashuviga sabab bo'ldi. Bosniya mojarosidan ko'ra Kosovo mojarosida YeIning ishtiroki ko'proq bo'lsada, sobiq Yugoslaviyadagi mojarolarning oldini olish yoki ularni tezda yakunlashda YeIning muvaffaqiyatsizligi Yevropa Ittifoqining tashqi ishlarda yanada samaraliroq bo'lish istagini ko'chaytirdi.

Yevropa Ittifoqining dastlabki tashqi siyosat tajribasi 1999-yil 1-mayda kuchga kirgan Amsterdam Shartnomasida alohida ta'kidlanishiga olib keldi. Shartnoma Oliy vakilni yaratdi va Javier Solana bu lavozimga tayinlandi, u ham ba'zilar tomonidan Yevropa ning birinchi tashqi ishlar vaziri sifatida ko'rildi. Bu, shuningdek, 1997-yilda G'arbiy Yevropa Ittifoqi rahbarlarining ushbu tashkilotning YI va NATOdagi roli to'g'risidagi deklaratsiyasiga olib keladi Bunga javoban Nitssa shartnomasi Oliy vakil va tashqi siyosat sohasidagi hamkorlikni mustahkamladi.

YI va AQSH munosabatlari. «Sovuq urush» yakunlanib, kommunizm xavfi bartaraf qilingandan so'ng AQSH bilan YI o'rtasidagi munosabatlarda ham o'zgarish yuz berdi. 1990-yili YI va AQSH o'rtasida Deklaratsiya — Transatlantik hartiya imzolandi. Unda ikkala tomonning yaqin hamkorligi, muhim masalalar bo'yicha maslahatlashuvlari ta'kidlandi.

YI va AQSH o'rtasidagi munosabatlarning o'ziga xos tomoni shundaki, unda an'anaviy ikki tomonlama shartnomalar mavjud emas. Bu munosabatlar xalqaro tashkilotlarning me'yor va qoidalari bilan tartibga solinadi.

2007-yili YI va QSH Transatlantik iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish to'g'risida kelishuv imzoladi va Transatlantik iqtisodiy kengash joriy qildi. Ammo tomonlar bu kelishuvni to'liq amalga oshirishga

shoshilmadi. 2000-yillar davomida bir qancha kelishuvlar imzolanib, ular tomonlar o'rtasidagi aloqalarning turli xususiy jihatlarini tartibga solishga qaratildi.

AQSH va YI dunyoda eng yirik energiya iste'molehilari bo'lib, ular atmosferaga eng ko'p zaharli moddalarni chiqaradi. 2000-yillar boshlarida ikki tomon energetika samaradorligi, xavfsizlik va iqlim o'zgarishi to'g'risida bayonot, Iqlim o'zgarishi to'g'risida BMTning Parij konvensiyasini imzoladi. Ammo 2017-yili AQSH prezidenti D.Tramp mamlakatning bu konvensiyadan chiqishini e'lon qildi. AQSH bilan YI o'rtasidagi munosabatlarda ma'lum kelishmovchiliklar mavjud. Bu kelishmovchiliklar ayniqsa xalqaro muammolarni hal etishdagi yon dashuvlarning farqida keskin ko'zga tashlanmoqda. AQSH xalqaro mojarolarni hal qilishda kuchga tayanish tarafdori, YI esa diplomatik imkoniyatlardan oxirigacha foydalanish lozim deb hisoblaydi. Shunga qaramasdan, ular o'zaro siyosiy, harbiy-strategik va iqtisodiy hamkorlik manfaatlari orqali bir-biri bilan uzviy bogiangan. AQSH va YI yagona Yevroatlantik sivilizatsiyaning vakillari bo'lib, bu ular o'rtasidagi munosabatlarni belgilovchi asosiy omil hisoblanadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Yevropa davlatlarining intergatsiyalashuv jarayoni qanday boshlangan?
2. Maastrix shartnomasini mohiyatini tushuntirib bering.
3. XXI asr boshlariga kelib YI ning faoliyatida qanday muammolar mavjud?
4. YI ning xalqaro munosabatlarda ishtiroki qanday kechgan?
5. Yevropa davlatlarining o'zaro integratsiyalashuv jarayonini ahamiyati nimalardan iborat?
6. YI va AQSh o'zaro munosabatlari haqida nimalarni bilasiz?
7. Bugungi kunda YI va O'zbekiston o'zaro munosabatlari haqida so'zlab bering.

14-MAVZU. XX ASRNING 90-YILLARI OXIRIDA XALQARO MUNOSABATLAR.

Raja:

14.1. SSSRning parchalanishi va Mustaqil davlatlar hamdo'stligining tashkil topishi.

14.2. Janubiy va Sharqiy Yevropada yuzaga kelgan o'zgarishlar

14.3. AQSHning Iroqqa qarshi birinchi urushi.

14.4. Rossiya qo'shinlarining Chechenistonda «Konstitusiyaviy tartibni o'rnatish bo'yicha» harbiy harakatlari.

Tayanch tushunchalar: *SSSRning parchalanishi, Mustaqil davlatlar hamdo'stligi, «Sovuq urush» tugashi, "Sahrodagi bo'ron" operatsiyasi, fuqarolar urushi, Chexoslovakiyaning parchalanishi, Germaniyaning birlashuvi, Kosovo.*

14.1. SSSRning parchalanishi va Mustaqil davlatlar hamdo'stligining tashkil topishi.

Huquqiy nuqtai nazardan, SSSR konfederatsiya elementlariga ega bo'lgan assimetrik federatsiya edi (uning sub'ektlari turli maqomga ega edi). Ayni paytda ittifoq respublikalari ham tengsiz holatda edi. Xususan, RSFSRda o'z Kommunistik partiyasi, Fanlar akademiyasi yo'q edi, respublika Ittifoqning boshqa a'zolari uchun ham moliyaviy, moddiy va inson resurslarining asosiy donori edi.

Sovet Ittifoqining birligi Sovet Ittifoqi Kommunistik partiyasi (KPSS) tomonidan taqdim etilgan. U qat'iy ierarxik printsip asosida qurilgan va barchasini takrorlagan ittifoq. 1977-yilgi SSSR Asosiy qonunining 6-moddasida Kommunistik partiyaga "Sovet jamiyatining yetakchi va yo'naltiruvchi kuchi, uning siyosiy tizimining, davlat va jamoat tashkilotlarining o'zagi" maqomi berildi.

1980-yillarga kelib SSSR tizimli inqiroz holatiga tushib qoldi. Aholining katta qismi rasman e'lon qilingan kommunistik mafko'ra dogmalariga ishonchini

yo‘qotdi. Natijada SSSRning ittifoq va avtonom respublikalarida mustaqil milliy elitalar shakllandi.

1985-1991 yillarda qayta qurish davrida siyosiy tizimni isloh qilishga urinish barcha mavjud qarama-qarshiliklarning keskinlashishiga olib keldi. 1988-1990 yillarda tashabbusi bilan Bosh kotib Mixail Gorbachev boshchiligidagi KPSS Markaziy Qo‘mitasi KPSS rolini sezilarli darajada zaiflashtirdi.

1988-yilda partiya apparatini qisqartirish boshlandi, islohotlar o‘tkazildi. 1990-yilda konstitutsiya o‘zgartirildi, 6-modda bekor qilindi, buning natijasida KPSS davlatdan butunlay ajralib chiqdi. Shu bilan birga, respublikalararo munosabatlar qayta ko‘rib chiqilmadi, bu esa partiya tuzilmalarining zaiflashishi fonida ittifoq respublikalarida separatizmning keskin ko‘chayishiga olib keldi.

Bir qator tadqiqotchilarning fikricha, bu davrda qabul qilingan asosiy qarorlardan biri Mixail Gorbachevning RSFSR maqomini boshqa respublikalar bilan tenglashtirishdan bosh tortishi bo‘lgan. Bosh kotib yordamchisi Anatoliy Chernyaevning eslashicha, Gorbachyov RSFSR Kommunistik partiyasining tuzilishiga va Rossiya respublikasiga to‘liq maqom berilishiga “qattiq” qarshilik ko‘rsatgan. rus va ittifoq tuzilmalarini birlashtirishga hissa qo‘shish va pirovardida yagona davlatni saqlab qolish.

Millatlararo to‘qnashuvlar. Qayta qurish yillarida SSSRda vaziyat keskin yomonlashdi 1986-yilda Yakutsk va Olma-Otada (Qozog‘iston SSR, hozirgi Qozog‘iston) yirik millatlararo to‘qnashuvlar bo‘lib o‘tdi. 1988-yilda Tog‘li Qorabog‘ mojarosi boshlandi, bu davrda armanlar yashovchi Tog‘li Qorabog‘ avtonom viloyati Ozarbayjon SSR tarkibidan chiqishini e‘lon qildi. Buning ortidan Armaniston-Ozarbayjon qurolli mojarosi boshlandi. 1989-yilda Qozog‘iston, O‘zbekiston, Moldova, Janubiy Osetiya va boshqalarda to‘qnashuvlar boshlandi. 1990-yillarning o‘rtalariga kelib 600 mingdan ortiq sovet fuqarolari qochqin yoki ichki ko‘chishga aylandi.

"Suverenitet paradi". 1988-yilda Boltiqbo‘yida mustaqillik uchun harakat boshlandi. Unga "xalq frontlari" - qayta qurishni qo‘llab-quvvatlash uchun ittifoqchi hokimiyat ruxsati bilan tashkil etilgan ommaviy harakatlar boshqargan.

1988-yil 16-noyabrda Estoniya SSR Oliy Kengashi (SC) respublikaning davlat suvereniteti to'g'risida deklaratsiya qabul qildi va respublika konstitutsiyasiga o'zgartirishlar kiritdi, bu esa Estoniya SSR hududida ittifoq qonunlarini to'xtatib turish imkonini berdi. 1989-yil 26-may va 28-iyulda xuddi shunday hujjatlar Litva va Latviya SSR Qurolli Kuchlari tomonidan qabul qilingan. 1990-yil 11 va 30-martda Litva va Estoniya qurolli kuchlari o'zlarining mustaqil davlatlarini tiklash to'g'risida qonunlar qabul qildilar, 4-mayda xuddi shu akt Latviya parlamenti tomonidan tasdiqlandi.

1989-yil 23-sentabrda Ozarbayjon SSR Oliy Soveti respublikaning davlat suvereniteti to'g'risida konstitutsiyaviy qonun qabul qildi. 1990-yil davomida boshqa barcha ittifoq respublikalari tomonidan ham xuddi shunday aktlar qabul qilindi.

Ittifoq respublikalarining SSSR tarkibidan chiqishi to'g'risidagi qonun. 1990-yil 3-aprelda SSSR Oliy Soveti "Ittifoq respublikasining SSSR tarkibidan chiqishi bilan bog'liq masalalarni hal etish tartibi to'g'risida"gi qonunni qabul qildi. Hujjatga ko'ra, bunday qaror mahalliy qonun chiqaruvchi organ tomonidan tayinlangan referendum orqali qabul qilinishi kerak edi. Shu bilan birga, avtonom respublikalar, viloyatlar va okruglar tarkibiga kirgan ittifoq respublikasida plebissit har bir muxtoriyat uchun alohida o'tkazilishi kerak edi.

Bekor qilish to'g'risidagi qaror, agar uni saylovchilarning kamida uchdan ikki qismi qo'llab-quvvatlagan bo'lsa, haqiqiy hisoblanadi. Respublikaning ittifoqchi harbiy ob'ektlar, korxonalarining holati, markaz bilan moliya-kredit munosabatlari masalalari besh yillik o'tish davrida hal qilinishi kerak edi. Amalda ushbu qonun qoidalari amalga oshirilmagan.

RSFSR suvereniteti to'g'risidagi deklaratsiya. RSFSRning davlat suvereniteti to'g'risidagi deklaratsiya 1990-yil 12-iyunda Respublika xalq deputatlari birinchi qurultoyida qabul qilingan. 1990-yilning ikkinchi yarmida Oliy Kengash raisi Boris Yelsin boshchiligidagi RSFSR rahbariyati RSFSR hukumati, vazirliklari va idoralarning vakolatlarini sezilarli darajada kengaytirdi. Uning

hududida joylashgan korxonalar, ittifoqdosh banklarning filiallari va boshqalar respublika mulki deb e'lon qilindi.

Rossiya suvereniteti to'g'risidagi deklaratsiya Ittifoqni yo'q qilish uchun emas, balki RSFSR tarkibidan avtonomiyalarning chiqarilishini to'xtatish uchun qabul qilindi. Avtonomlashtirish rejasi RSFSR va Yelsinni zaiflashtirish maqsadida KPSS Markaziy Komiteti tomonidan ishlab chiqilgan va barcha avtonomiyalarga ittifoq respublikalari maqomi berilishi nazarda tutilgan. RSFSR uchun bu hududning yarmini, deyarli 20 million kishini va tabiiy resurslarning katta qismini yo'qotishni anglatardi.

1990-yil 24 dekabrda RSFSR Oliy Kengashi qonun qabul qildi, unga ko'ra hokimiyat "agar ular RSFSR suverenitetini buzsa" Rossiya hukumati kasaba uyushma aktlarini to'xtatib qo'yishi mumkin edi. Shuningdek, SSSR hokimiyat organlarining barcha qarorlari Rossiya respublikasi hududida uning Oliy Kengashi tomonidan ratifikatsiya qilinganidan keyingina kuchga kirishi nazarda tutilgan edi. 1991-yil 17-martdagi referendumda RSFSRda respublika prezidenti lavozimi joriy etildi (1991-yil 12 iyunda Boris Yelsin saylangan). 1991-yil may oyida o'zining maxsus xizmati - RSFSR Davlat xavfsizlik qo'mitasi (KGB) tashkil etildi.

Yangi Ittifoq shartnomasi. 1990-yil 2-13 iyulda bo'lib o'tgan KPSSning oxirgi XXVIII qurultoyida SSSR Prezidenti Mixail Gorbachev yangi Ittifoq shartnomasini imzolash zarurligini e'lon qildi. 1990-yil 3 dekabrda SSSR Oliy Kengashi Gorbachyov taklif qilgan loyihani qo'llab-quvvatladi. Hujjat taqdim etilgan yangi kontseptsiyaga ko'ra, SSSRning tarkibiga kirgan har bir respublika suveren davlat maqomini oldi. Ittifoqchi hokimiyatlar tor vakolatlarini saqlab qoldilar: mudofaani tashkil etish va davlat xavfsizligini ta'minlash, ishlab chiqish va amalga oshirish, tashqi siyosat, iqtisodiy rivojlanish strategiyalari va boshqalar.

1990-yil 17-dekabrda SSSR xalq deputatlari IV qurultoyida Mixail Gorbachyov "Har bir fuqaro federal asosda suveren davlatlar ittifoqini yoqlab yoki unga qarshi chiqishi uchun butun mamlakat bo'ylab referendum o'tkazishni" taklif qildi. 1991-yil 17-martdagi ovoz berishda 15 ittifoq respublikasidan to'qqiztasi: RSFSR, Ukraina, Belorussiya, O'zbek, Ozarbayjon, Qozoq, Qirg'iziston,

Tojikiston va Turkmaniston SSR ishtirok etdi. Armaniston, Gruziya, Latviya, Litva, Moldova va Estoniya hukumati ovoz berishdan bosh tortdi. Referendumda saylov huquqiga ega fuqarolarning 80 foizi ishtirok etdi. Saylovchilarning 76,4 foizi Ittifoqni saqlab qolish tarafdori, 21,7 foizi qarshi chiqdi.

Plebissit natijasida asosida 1991-yil 23-apreldan 23-iyulga qadar SSSR Prezidentining Novo-Ogarevodagi qarorgohida Mixail Gorbachyov va 15 ittifoq respublikalarining to'qqiztasi (RSFSR, Ukraina, Belarusiya, Rossiya) prezidentlari bilan muzokaralar bo'lib o'tdi Qozog'iston, O'zbek, Ozarbayjon, Tojikiston, Qirg'iziston va Turkman SSR) suveren davlatlar ittifoqini tuzish to'g'risida kelishib olishdi. Ular "Novo-Ogarevskiy jarayoni" nomini oldilar. Shartnomaga ko'ra, yangi federatsiya nomidagi "SSSR" qisqartmasi saqlanib qolishi kerak edi, ammo "Sovet suveren respublikalari ittifoqi" deb deshifrlangan. 1991-yil iyul oyida muzokarachilar shartnoma loyihasini bir butun sifatida ma'qulladilar va uni 1991-yil sentyabr-oktyabr oylarida bo'lib o'tgan SSSR xalq deputatlari qurultoyida imzolashni belgiladilar.

29-30 iyul kunlari Mixail Gorbachev RSFSR va KazSSR rahbarlari Boris Yelsin va Nursulton Nazarboyev bilan yopiq uchrashuvlar o'tkazdi va ularda hujjat imzolanishini 20-avgustga ko'chirishga kelishib oldi. Qaror qabul qilinishiga SSSR xalq deputatlari ko'pchilik vakolatlar respublikalarga o'tgan amalda konfederal davlat yaratishni nazarda tutuvchi shartnomaga qarshi ovoz berishidan qo'rqish sabab bo'lgan. Gorbachyov, shuningdek, "Novo-Ogarev jarayoni" ga salbiy munosabatda bo'lgan SSSRning bir qator yuqori rahbarlarini, xususan, SSSR vitse-prezidenti Gennadiy Yanaev, Bosh vazir Valentin Pavlov va boshqalarni ishdan bo'shatishga rozi bo'ldi.

2-avgust kuni Gorbachyov Markaziy televideniye orqali nutq so'zladi va u erda 20-avgustda yangi Ittifoq shartnomasini RSFSR, Qozog'iston va O'zbekiston imzolashi va qolgan respublikalar buni "ma'lum vaqt oralig'ida" bajarishini ma'lum qildi. Shartnoma matni jamoatchilik muhokamasi uchun faqat 1991-yil 16-avgustda e'lon qilingan.

Avgust to‘ntarishi. 18-avgustdan 19-avgustga o‘tar kechasi sakkiz kishidan iborat SSSR oliy rahbarlari guruhi (Gennadiy Yanaev, Valentin Pavlov, Dmitriy Yazov, Vladimir Kryuchkov va boshqalar)dan iborat Favqulodda holat davlat qo‘mitasi (GKChP) tuzildi. GKChP a'zolari, ularning fikricha, SSSRning parchalanishiga olib keladigan Ittifoq shartnomasi imzolanishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun Sovet Prezidenti Mixail Gorbachevni hokimiyatdan chetlatishga harakat qildilar va mamlakatda favqulodda holat joriy etdilar. Biroq Favqulodda vaziyatlar davlat qo‘mitasi rahbarlari kuch ishlatishga jur‘at eta olmadilar. 21-avgust kuni SSSR vitse-prezidenti Yanaev Favqulodda vaziyatlar davlat qo‘mitasini tarqatib yuborish va uning barcha qarorlarini haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi farmonni imzoladi. O‘sha kuni RSFSR Prezidenti Boris Yelsin Davlat Favqulodda Qo‘mitasining buyruqlarini bekor qilish to‘g‘risida akt chiqardi va respublika prokurori Valentin Stepankov uning a'zolarini hibsga olish to‘g‘risida farmon chiqardi.

SSSR davlat tuzilmalarini demontaj qilish. 1991-yil avgust voqealaridan keyin rahbarlari Novo-Ogaryovodagi muzokaralarda qatnashgan ittifoq respublikalari o‘z mustaqilliklarini e‘lon qildilar (24-avgustda Ukraina, 30-avgustda Ozarbayjon, 31-avgustda O‘zbekiston va Qirg‘iziston, qolganlari 1991-yil sentyabr-dekabr Guruziya.). 1991-yil 23-avgustda RSFSR Prezidenti Boris Yelsin “Foydalanishni to‘xtatib turish to‘g‘risida”gi farmonni imzoladi. RSFSR", KPSS va RSFSR KPning Rossiya hududidagi barcha mulki milliylashtirildi. 1991-yil 24-avgustda Mixail Gorbachev KPSS Markaziy Komiteti va SSSR Vazirlar Sovetini tarqatib yubordi.

1991-yil 2-sentyabrda “Izvestiya” gazetasida SSSR Prezidenti va 10 ittifoq respublikalarining oliy rahbarlarining bayonoti e‘lon qilindi. Unda "barcha xohlovchi respublikalar tomonidan suveren davlatlar ittifoqi to‘g‘risidagi shartnomani tayyorlash va imzolash" va "o‘tish davri" uchun ittifoqchi muvofiqlashtiruvchi boshqaruv organlarini yaratish zarurligi haqida so‘z bordi.

1991-yil 2-5 sentyabrda Moskvada SSSR xalq deputatlarining V qurultoyi (mamlakatning oliy hokimiyat organi) bo‘lib o‘tdi. Yig‘ilishlarning so‘nggi kunida

“Organlar to‘g‘risida”gi qonun davlat hokimiyati va SSSRning o‘tish davridagi boshqaruvi” mavzusiga ko‘ra, Kongress o‘z-o‘zini tarqatib yubordi va butun davlat hokimiyati SSSR Oliy Kengashiga o‘tkazildi.

SSSR Davlat kengashi SSSR Prezidenti va RSFSR, Ukraina, Belorussiya rahbarlaridan iborat "ichki va tashqi siyosat masalalarini kelishilgan holda hal qilish uchun" Oliy ittifoq boshqaruvining vaqtinchalik organi sifatida tashkil etildi. Qozog‘iston, O‘zbekiston, Qirg‘iziston, Turkmaniston, Armaniston, Tojikiston, Ozarbayjon. Davlat kengashi yig‘ilishlarida yangi Ittifoq shartnomasi bo‘yicha munozaralar davom etdi, oxir-oqibat u hech qachon imzolanmadi.

Qonun shuningdek, SSSR Vazirlar Mahkamasini tugatdi, Sovet Ittifoqi vitse-prezidenti lavozimini bekor qildi. RSFSR hukumatining sobiq raisi Ivan Silaev boshchiligidagi SSSR Respublikalararo Iqtisodiy Qo‘mitasi (IEC) ittifoq hukumatining ekvivalentiga aylandi. IECning RSFSR hududidagi faoliyati 1991-yil 19-dekabrda tugatildi, uning tuzilmalari 1992-yil 2-yanvarda tugatildi.

1991-yil 6-sentyabrda SSSR Konstitutsiyasi va ittifoq respublikalarining Ittifoq tarkibidan chiqishi to‘g‘risidagi qonunga zid ravishda Davlat kengashi Boltiqbo‘yi respublikalarining mustaqilligini tan oldi.

1991-yil 18-oktabrda Mixail Gorbachev va sakkiz ittifoq respublikasi (Ukraina, Moldova, Gruziya va Ozarbayjondan tashqari) rahbarlari Suveren Davlatlarning Iqtisodiy Hamjamiyati to‘g‘risidagi Shartnomani imzoladilar. Hujjatda “mustaqil davlatlar” “SSSRning sobiq sub’yektlari” ekanligi e‘tirof etildi; Butunittifoq oltin zahiralarini, Olmos va valyuta jamg‘armasini taqsimlashni o‘z zimmasiga oldi; rublni milliy valyutalarni muomalaga kiritish imkoniyati bilan umumiy valyuta sifatida saqlab qolish; SSSR Davlat bankining tugatilishi va boshqalar.

1991-yil 22-oktyabrda SSSR Davlat kengashi ittifoqchi KGBni tugatish to‘g‘risida qaror qabul qildi. Uning asosida SSSR Markaziy razvedka xizmati (CSR) (birinchi Bosh boshqarmasi negizida tashqi razvedka), Respublikalararo xavfsizlik xizmati (ichki xavfsizlik) va Davlatni himoya qilish qo‘mitasini yaratish buyurildi. Chegara. Ittifoq respublikalarining KGB "suveren davlatlarning mutlaq

yurisdiksiyasiga" o'tkazildi. Butunittifoq maxsus xizmati 1991-yil 3-dekabrda nihoyat tugatildi.

1991-yil 14-noyabrda Davlat kengashi barcha vazirliklar va boshqa markaziy organlarni tugatish to'g'risida qaror qabul qildi. Shu kuni yetti ittifoq respublikasi (Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston, RSFSR, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekiston) rahbarlari va Sovet Ittifoqi Prezidenti Mixail Gorbachyov 9 dekabrda yangi Ittifoq shartnomasini imzolashga kelishib oldilar, unga ko'ra, suveren davlatlar ittifoqi "konfederativ demokratik davlat" sifatida tuziladi. Ozarbayjon va Ukraina unga kirishdan bosh tortdi.

1991-yil 1-dekabr kuni Ukrainada mustaqillik bo'yicha referendum bo'lib o'tdi (ovozda qatnashganlarning 90,32 foizi yoqlab chiqdi). 3-dekabr kuni RSFSR Prezidenti Boris Yelsin ushbu qaror tan olinganligini e'lon qildi.

“Hatto Viskulida, biz imzolagan shartnoma imzolanishidan ikki soat oldin ham, men SSSR parchalanishini his qilmaganman. Men buyuk Sovet imperiyasi afsonasi doirasida yashadim. Yadro quroli mavjud bo'lganda, SSSRga hech kim hujum qilmasligini tushundim. Va bunday hujumsiz hech narsa bo'lmaydi. Siyosiy tizimning o'zgarishi ancha silliq kechadi deb o'ylagandim” – deb ta'kidlagan edi, Belorussiya SSR Oliy Kengashining raisi Stanislav Shushkevich.

1991-yil 8-dekabrda RSFSR, Ukraina va Belarus rahbarlari Boris Yelsin, Leonid Kravchuk va Stanislav Shushkevich Viskuli hukumat qarorgohida (Belovejskaya Pushcha, Belarusiya) Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligini (MDH) tashkil etish to'g'risidagi shartnomani imzoladilar. va SSSRning parchalanishi. 10-dekabr kuni hujjat Ukraina va Belarus Oliy Kengashlari tomonidan ratifikatsiya qilingan. 12-dekabr kuni ham xuddi shunday akt Rossiya parlamenti tomonidan qabul qilingan edi. Hujjatga ko'ra, MDH a'zolarining birgalikdagi faoliyati doirasiga quyidagilar kiradi: tashqi siyosiy faoliyatni muvofiqlashtirish; bojxona siyosati sohasida umumiy iqtisodiy makon, umumevropa va Yevroosiyo bozorlarini shakllantirish va rivojlantirishda hamkorlik; himoya qilish sohasidagi hamkorlik muhiti; migratsiya siyosati masalalari; uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash.

1991-yil 21-dekabrda Olma-Ota shahrida (Qozog‘iston) sobiq ittifoq respublikalarining 11 nafar yetakchilari MDHning maqsad va tamoyillari, uning asoslari to‘g‘risidagi deklaratsiyani imzoladilar. Deklaratsiya Belovej shartnomasini tasdiqladi, bu MDHning shakllanishi bilan SSSR o‘z faoliyatini to‘xtatganligini ko‘rsatdi.

1991-yil 25-dekabrda Moskva vaqti bilan soat 19:00 da Mixail Gorbachyov nutq so‘zladi. Markaziy televideniye va SSSR Prezidenti sifatidagi faoliyatini tugatganini e‘lon qildi. Shu kuni Moskva Kremlining bayroq ustunidan SSSR Davlat bayrog‘i tushirildi va Rossiya Federatsiyasining davlat bayrog‘i ko‘tarildi.

1991-yil 26-dekabrda SSSR Oliy Kengashi Respublikalar Kengashi deklaratsiya qabul qildi, unda “Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi tashkil etilishi munosabati bilan SSSR davlat va xalqaro huquq sub'ekt sifatida mavjud bo‘lishni to‘xtatadi.”

SSSRning qulashi tarixiy jihatdan aniqlangan iqtisodiy, ijtimoiy, ijtimoiy va markazsizlashtirish jarayonidir. Bu jarayonning natijasi SSSRning davlat sifatida butunlay parchalanishidir. SSSRning to‘liq parchalanishi 1991-yil 26-dekabrda sodir bo‘ldi; mamlakat o‘n beshta mustaqil davlatga - sobiq Sovet respublikalariga bo‘lingan. Endi biz SSSR haqida qisqacha ma'lumot oldik va endi u qanday davlat ekanligini tasavvur qilsak, SSSR parchalanishining sabablari haqidagi savolga o‘tishimiz mumkin.

Sovet Ittifoqi parchalanishining asosiy sabablari. Tarixchilar o‘rtasida SSSR parchalanishining sabablari haqida uzoq vaqtdan beri bahs-munozaralar mavjud bo‘lib, ular orasida hali ham yagona nuqtai nazar mavjud emas, xuddi bu davlatni saqlab qolish mumkinligi haqida hech qanday nuqtai nazar yo‘q. Biroq, aksariyat tarixchilar va tahlilchilar SSSR parchalanishining quyidagi sabablariga qo‘shiladilar:

1. Professional yosh byurokratiyaning yo‘qligi va dafn marosimining davri deb ataladigan davr. Sovet Ittifoqi mavjudligining so‘nggi yillarida amaldorlarning aksariyati qarilikda edi - o‘rtacha 75 yosh. Ammo davlatga o‘tmishga nazar tashlabgina qolmay, kelajakni ko‘ra oladigan yangi kadrlar kerak edi. Amaldorlar

o‘la boshlagach, tajribali kadrlar yetishmasligi sababli mamlakatda siyosiy inqiroz yuzaga keldi.

2. Milliy iqtisodiyot va madaniyatning tiklanishi bilan kechgan harakatlar. Sovet Ittifoqi ko‘p millatli davlat edi va so‘nggi o‘n yilliklarda har bir respublika Sovet Ittifoqidan tashqarida mustaqil rivojlanishni xohladi.

3. Chuqur ichki ziddiyatlar. Saksoninchi yillarda bir qator keskin milliy nizolar ro‘y berdi: Qorabog‘ mojarosi (1987-1988), Dnestryani mojarosi (1989), Gruziya-Janubiy Osetiya mojarosi (saksoninchi yillarda boshlangan va hozirgacha davom etmoqda), gruzin-abxaz. ziddiyat (saksoninchi yillar oxiri). Bu to‘qnashuvlar nihoyat sovet xalqining milliy birligiga bo‘lgan ishonchni yo‘q qildi.

4. Iste'mol tovarlarining keskin tanqisligi. Saksoninchi yillarda bu muammo ayniqsa keskinlashdi, odamlar non, tuz, shakar, yorma va hayot uchun zarur bo‘lgan boshqa mahsulotlar uchun soatlab, hatto kunlab navbatda turishga majbur bo‘ldilar. Bu odamlarning sovet iqtisodiyotining kuchiga bo‘lgan ishonchini susaytirdi.

5. SSSR respublikalarining iqtisodiy rivojlanishidagi tengsizlik. Ba'zi respublikalar iqtisodiy jihatdan boshqa bir qator respublikalardan sezilarli darajada past edi. Masalan, kam rivojlangan respublikalar o‘tkir taqchilikni boshdan kechirdilar, chunki, masalan, Moskvada bu vaziyat unchalik keskin emas edi.

6. Sovet davlatini va butun sovet tizimini isloh qilishga muvaffaqiyatsiz urinish. Bu muvaffaqiyatsiz urinish iqtisodiyotda to‘liq turg‘unlikka (turg‘unlikka) olib keldi. Kelajakda bu nafaqat turg‘unlikka, balki iqtisodiyotning butunlay qulashiga olib keldi. Keyin esa davlatning dolzarb muammolariga dosh bera olmagan siyosiy tizim ham vayron bo‘ldi.

7. Ishlab chiqariladigan iste'mol tovarlari sifatining pasayishi. Iste'mol tovarlari taqchilligi oltmishinchi yillarda boshlangan. Keyin Sovet rahbariyati navbatdagi qadamni qo‘ydi - bu tovarlar miqdorini oshirish uchun bu tovarlarning sifatini pasaytirdi. Natijada, tovarlar, masalan, xorijiy tovarlarga nisbatan raqobatbardosh emas edi. Buni anglagan odamlar sovet iqtisodiga ishonishni to‘xtatib, G‘arb iqtisodiga ko‘proq e’tibor qaratishdi.

8. Sovet xalqining turmush darajasining G'arb turmush darajasiga nisbatan orqada qolishi. Bu muammo, ayniqsa, asosiy iste'mol tovarlari inqirozi va, albatta, texnologiya inqirozi, shu jumladan maishiy texnika inqirozida o'zini namoyon qildi. Televizorlar, muzlatgichlar - bu tovarlar deyarli ishlab chiqarilmagan va odamlar uzoq vaqt davomida amalda ishlab chiqilgan eski modellardan foydalanishga majbur bo'lishgan. Bu aholining noroziligiga sabab bo'ldi.

9. Mamlakatni yopish. Sovuq urush tufayli odamlar amalda mamlakatni tark eta olmadilar, hatto ularni davlat dushmani, ya'ni ayg'oqchi deb e'lon qilishlari mumkin edi. Chet el texnologiyasidan foydalangan, xorijiy kiyim kiygan, chet el mualliflarining kitoblarini o'qigan, xorijiy musiqalarni tinglaganlar qattiq jazolandi.

10. Sovet jamiyatidagi muammolarni inkor etish. Kommunistik jamiyat g'oyalariga amal qilgan holda, SSSRda hech qachon qotillik, fohishalik, talonchilik, ichkilikbozlik va giyohvandlik bo'lmagan. Uzoq vaqt davlat bu faktlarni mavjudligiga qaramay butunlay yashirdi. Va keyin bir vaqtning o'zida ularning mavjudligini keskin tan oldi. Kommunizmga bo'lgan ishonch yana yo'q qilindi.

11. Maxfiy materiallarni oshkor qilish. Sovet jamiyati aholisining ko'pchiligi Golodomor, Stalinning ommaviy qatag'onlari, sonli o'limlar va hokazolar kabi dahshatli voqealar haqida hech narsa bilmas edi. Bundan xabar topgan odamlar kommunistik rejim qanday dahshat olib kelganini anglab etdilar.

12. Texnogen falokatlar. SSSR mavjudligining so'nggi yillarida mavjud edi ko'proq miqdor jiddiy texnogen falokatlar: samolyot halokati (eskirgan aviatsiya tufayli), "Admiral Naximov" yirik yo'lovchi paroxodining qulashi (taxminan 430 kishi halok bo'ldi), Ufa yaqinidagi falokat (SSSRdagi eng yirik temir yo'l halokati, 500 dan ortiq). odamlar vafot etgan). Ammo eng dahshatlisi - 1986 yildagi Chernobil avariya, qurbonlar sonini sanab bo'lmaydi va bu global ekotizimga zarar haqida gapirma ham bo'ladi. Eng katta muammo Sovet rahbariyati bu faktlarni yashirgan edi.

13. AQSH va NATO davlatlarining qo‘poruvchilik faoliyati. NATO davlatlari, ayniqsa AQSH SSSRga o‘z agentlarini yubordi, ular Ittifoq muammolarini ko‘rsatib, ularni qattiq tanqid qildilar va G‘arb davlatlariga xos bo‘lgan afzalliklar haqida xabar berdilar. Chet el agentlari o‘z harakatlari bilan sovet jamiyatini ichkaridan bo‘lib tashladilar.

Sovet Sotsialistik Respublikalari Ittifoqi- sayyoramizning butun quruqlik hududining 1/6 qismini egallagan davlat. Bunday davlatda, ayniqsa nihoyatda o‘tkir muammolarni hech qanday muvaffaqiyatli qonun loyihasi bilan hal qilib bo‘lmaydi. Albatta, prezidentlik davrida Gorbachev hali ham sovet jamiyatini isloh qilishga urinib ko‘rdi, ammo bunday bir qator muammolarni hal qilib bo‘lmaydi, ayniqsa bunday vaziyatda - SSSRda bunday tub islohotlar uchun mablag‘ yo‘q edi. SSSRning parchalanishi qaytarib bo‘lmaydigan jarayon edi va davlat yaxlitligini saqlab qolishning hech bo‘lmaganda bitta nazariy yo‘lini hali ham topa olmagan tarixchilar buning bevosita tasdig‘idir.

Markazning kuchsizligi 1991-yil 8 dekabrda Belovejskaya Pushcha, Brest yaqinida Belarus, Rossiya, Ukraina rahbarlari Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligini (MDH) tashkil etish to‘g‘risidagi shartnomani imzoladilar. Ushbu Bitim SSSRning xalqaro huquq sub'ekti sifatida o‘z faoliyatini to‘xtatganligini e‘lon qildi. MDH tashkil etilishiga Osiyo respublikalarining munosabati salbiy edi. Ularning rahbarlari MDHning tashkil topishi faktini slavyan federatsiyasini yaratish uchun ariza va natijada slavyan va turkiy xalqlar o‘rtasidagi siyosiy qarama-qarshilik ehtimoli sifatida qabul qilishdi.

1991-yil 13-dekabrda “beshlik” (Qozog‘iston, O‘zbekiston, Qirg‘iziston, Turkmaniston va Tojikiston) yetakchilarining Ashxobodda o‘tkazilgan shoshilinch yig‘ilishida Turkmaniston rahbari S.Niyozov (N.Nazarboyevning so‘zlariga ko‘ra) ushbu masalani ko‘rib chiqishni taklif qildi. Belovejskaya Pushchadagi qarorlarga javoban Markaziy Osiyo Davlatlari Konfederatsiyasini yaratish imkoniyati.

Oxir oqibat, “beshlik” yetakchilari MDHga o‘zaro bog‘langan ishtirokchilar sifatida emas, balki faqat ta’sischi sifatida, teng huquqli, “neytral” hududda qo‘shilish niyatida ekanliklarini aniq ko‘rsatdilar. Sog‘lom fikr g‘alaba qozondi,

odob-axloq hukm surdi va 21-dekabr kuni Olmaotada “uchlik” (Belarus, Rossiya, Ukraina) va “beshlik” (Qozog‘iston, O‘zbekiston, Qirg‘iziston, Turkmaniston va Tojikiston) yetakchilarining uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Olmaota yig‘ilishida SSSRning mavjudligini to‘xtatish va MDHni o‘n bir davlat tarkibida tashkil etish to‘g‘risida Deklaratsiya qabul qilindi.

1991-yil 25-dekabrda M.Gorbachev Oliy Bosh Qo‘mondonlik funksiyalarini olib tashlash to‘g‘risidagi Farmoni imzoladi va SSSR Prezidenti lavozimidan iste‘foga chiqqanini e‘lon qildi. 26-dekabr kuni SSSR Oliy Kengashining ikki palatasidan biri yig‘ilishga muvaffaq bo‘ldi - Respublikalar Kengashi SSSR mavjudligini to‘xtatish to‘g‘risida rasmiy deklaratsiyani qabul qildi. Sovet Sotsialistik Respublikalari Ittifoqi o‘z faoliyatini to‘xtatdi.

Olmaota yig‘ilishi ishtirokchilari hujjatlar to‘plamini qabul qildilar bunga ko‘ra:

- - Hamdo‘stlik tarkibiga kirgan davlatlarning hududiy yaxlitligi bayon qilindi;
- - harbiy-strategik kuchlarning yagona qo‘mondonligi va yadro quroli ustidan yagona nazorat ta‘minlandi;
- - MDHning oliy hokimiyat organlari “Davlat boshliqlari kengashi” va “Hukumat boshliqlari kengashi” tuzildi;
- - Hamdo‘stlikning ochiq tabiatini e‘lon qildi.

1991-yil dekabrda Turkmaniston poytaxti Ashxobod shahrida beshta Markaziy Osiyo respublikalari rahbarlarining uchrashuvi bo‘lib, unda a‘zo davlatlarning tengligi va barchasining MDH ta‘sischisi sifatida ittifoqqa qo‘shilishi ma‘lum qilindi. 1991-yil dekabrda Qozog‘istonning Olmaota shahrida bo‘lib o‘tgan uchrashuvda Deklaratsiya qabul qilinib, SSSR xalqaro huquq subyekti va geosiyosiy reallik sifatida o‘z faoliyatini tugatganligi ta‘kidlandi. Shu-yil oxirigacha Boltiqbo‘yi respublikalari — Latviya, Litva, Estoniyadan tashqari barcha sobiq sovet respublikalari MDH tarkibiga kirdi. Ammo Gruziya 2008-yili, Ukraina esa 2014-yildan MDH faoliyatida qatnashmasligini ma‘lum qildi. Mo‘g‘uliston MDHning bir qator tuzilmalarida

kuzatuvchi sifatida ishtirok etib kelmoqda. 2008-yili Afg'oniston MDHga kirish istagini bildirib, hozir MDH parlamentlararo assambleyasida kuzatuvchi sifatida ishtirok etmoqda.

14.2. Janubiy va Sharqiy Yevropada yuzaga kelgan o'zgarishlar

Sharqiy Yevropa mamlakatlarida sotsialistik tuzumning ag'darilishi turlicha ko'rinishda amalga oshirildi. Qayta qurish davrida faol islohotlar olib borgan, mafko'raviy plyuralizmni o'rnata olgan va rahbarlari o'zgarishlarning muqarrarligini his qilgan mamlakatlarda sotsializmning qulashi ancha silliq kechdi.

Polshada aholining mamlakatdagi sotsialistik tuzumdan norozilik namoyishlari 1988-yildan boshlab ko'chayib bordi va ular siyosiy islohotlarni, Lex Valensa boshchiligidagi «Birdamlik» kasaba uyushmasining erkin faoliyat yuritish huquqini talab qildi. 1989-yili bo'lib o'tgan saylovlar hukmron Polsha birlashgan ishchi partiyasining (PBIP) obro'yi tushib ketganligi, ayni paytda, muxolifatdagi «Birdamlik» kasaba uyushmasining ommalashib borayotganini ko'rsatdi. Yangi tarkibdagi parlament konstitutsiyaga o'zgarish kiritib, Polshani demokratik huquqiy davlat deb e'lon qildi. PBIP o'z faoliyatini to'xtatdi. 1990-yili navbatdan tashqari prezidentlik saylovlarida Lex Valensa g'alaba qozondi.

Ruminiyada kommunistik rejimning qulashi jiddiy harbiy to'qnashuv oqibatida yuz berdi. 1989-yil dekabrda Timishoara shahrida aholining N. Chaushesku rejimiga qarshi tinch namoyishi Ruminiya maxfiy xizmati xodimlari tomonidan o'qqa tutilishi mamlakat bo'ylab qo'zg'olonning boshlanishiga olib keldi. Armiya qo'zg'olonchilar tomoniga o'tdi. Bir necha ming kishilik olomon tank qismlari yordamida Davlat kengashini qamal qildi. Qo'zg'olon N. Chaushesku va rafiqasini sud qilish, sudning hukmiga ko'ra otib tashlash jarayoni bilan tugadi. Qo'zg'olonda mingdan ortiq kishi halok bo'ldi. Hokimiyat qo'zg'olon kunlari tashkil qilingan Milliy qutqarish fronti qo'lga o'tdi. Qo'mita raisi bo'lgan Ion Iliyesku 1990-yilgi saylovlarda mamlakat prezidenti etib saylandi.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi eng muhim voqealardan biri Germaniyaning birlashishi bo'ldi. 1980-yillar oxirida Germaniya Demokratik Respublikasida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy inqiroz avj olib, 1989-yil noyabrda ikki nemis davlatini ajratib turgan Berlin devorining qulashiga olib keldi. Bu amalda ikki Germaniya o'rtasidagi chegaraning ochilishi edi. 1990-yil sentabr oyida Moskvada ikki nemis davlatini bitta — Germaniya Federativ Respublikasiga birlashtirish to'g'risida shartnoma imzolandi.

Sharqiy Yevropa mamlakatlari XX asr oxiri - XXI asr boshlarida.

Asosan tinch yo'l bilan amalga oshirilgan demokratik inqiloblar natijasida Sharqiy Yevropa davlatlari rivojlanishning iqtisodiy va siyosiy yo'nalishi qilib Yevropa Ittifoqini tanladi. Sharqiy Yevropaning ko'pchilik davlatlari NATOga a'zo bo'ldi. Bozor iqtisodiga jadal o'tish bir qator jiddiy muammolarni keltirib chiqardi. Inflatsiya darajasi va ishsizlikning oshishi, turmush darajasining pasayishi, jamiyatning boylar va ko'p sonli o'ta kambag'allarga ajralishi kuzatildi. Natijada, islohotlar uchun javobgar bo'lgan hukumatlarni aholi qo'lamay qo'ydi. Polshada ijtimoiy muhitning o'zgarishi natijasida 1990-yillarning eng mashhur siyosatchilardan biri Lex Valensa prezidentlik saylovlarida mag'lubiyatga uchradi. Kuchli mafko'raviy bosimga qaramasdan, so'llar Litvada, keyinchalik Albaniyada hokimiyatga keldi.

O'zgarishlar boshqa Yevropa mamlakatlaridagiga nisbatan Yugoslaviyada biroz murakkab kechdi. Oltita respublikadan tashkil topgan Yugoslaviya Federativ Respublikasida sotsialistik tuzumning qulashi millatchi va ayirmachi kuchlarning faollashuvi uchun imkoniyat yaratdi. Oqibatda 1991 — 1992-yillari Yugoslaviya davlati tarqalib ketdi. Faqat Serbiya va Chernogoriya federatsiyada qoldi. Sloveniya, Xorvatiya, Bosniya va Gersegovina hamda Makedoniya mustaqil davlatlarga aylandi. Biroq, mustaqil davlatlarga ajralish etnik ziddiyatlarni keskinlashtirib yubordi.

1990-yildan keyin Serbiyada musulmon-albanlar obzlarining «Kosovo

Respublikasi»ni e'lon qildi. Bu Serbiya bilan qurolli mojaroga olib keldi va unga NATO aralashdi. 1999-yili NATO qo'shinlari Yugoslaviyani bombardimon qildi. Mojaro Yevropa miqyosidagi inqirozga aylandi.



Yugoslaviyaning parchalanishi

Yana bir og'ir vaziyat Bosniya va Gersegovinada vujudga keldi. Bu yerda serblar, xorvatlar va musulmonlar tarixan qo'shni yashashgan. Shu sababli etnik farqqa diniy ziddiyat ham qo'shildi. Bosniya va Gersegovinada milliy ziddiyatlar alohida keskin tus oldi. Aholining yarmini tashkil qilgan serblar Yugoslaviya tarkibidan chiqishni istamadi va o'zlarining Bosniya serb respublikasini e'lon qildi. 1992 -1994 yillari serblar, musulmonlar va xorvatlar o'rtasida harbiy mojaro boshlanib ketdi va bu tinch aholi orasida ham ko'plab qurbonlarga olib keldi. Bosniyadagi etnik mojarolarni bartaraf qilish uchun bu yerga BMT tinchliksevar kuchlari kiritildi va urush harakatlari to'xtatildi. 2006-yili o'tkazilgan referendum natijasiga ko'ra, Chernogoriya Serbiyadan ajralib chiqdi. Yugoslaviya Respublikasi barham topdi.

Chexoslovakiya milliy muammolarni hal qilishning tinch yo'lini tanladi. 1992-yili o'tkazilgan referendum natijasiga ko'ra, mamlakat aholisi bo'linishga qaror qildi. Bo'linish jarayoni jiddiy muhokama qilinib, puxta tayyorlandi. 1993-yil 1-yanvardan jahon xaritasida ikkita mustaqil davlat - Chexiya Respublikasi va Slovakiya Respublikasi paydo bo'ldi.

Sharqiy Yevropa mamlakatlarida yuz bergan voqealar sezilarli xalqaro siyosiy o'zgarishlarga olib keldi. Bu mamlakatlarni endi G'arbiy Yevropa davlatlarining iqtisodiy va harbiy-siyosiy tashkilotlari - avvalo YI va NATO o'ziga jalb qildi. Vengriya, Latviya, Litva, Estoniya, Polsha, Sloveniya, Slovakiya va Chexiya, Ruminiya va Bolgariya Ylga a'zo bo'ldi. Bu mamlakatlarda demokratik an'analar mavjud bo'lganligi va G'arbiy Yevropa bilan umumiy sivilizatsiyaga mansubligi ularning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida aholi yashash darajasining o'sganligi jamiyatda demokratik islohotlarga ishonchni ko'chaytirdi. Ammo bu mamlakatlarning ko'pchiligida ishsizlik ancha yuqori, bir qism aholi G'arbiy Yevropaning rivojlangan davlatlariga chiqib, ish izlashga majbur bo'lmoqda. Shunga qaramasdan, Markaziy va Sharqiy Yevropa G'arbiy Yevropa bilan iqtisodiy va madaniy tenglik sari dadil qadam tashlamoqda. Bu davlatlarning eng katta muammolaridan biri jamiyatda korrupsiya darajasining yuqoriligi bo'lib qolmoqda.

14.3. AQSHning Iroqqa qarshi birinchi urushi.

1988-yilda, Iroq-Eron urushi tugaganidan so'ng Iroq iqtisodiy muammolarga duch kela boshlaydi. Mamlakat Eron bilan urushib yurganida Saudiya Arabistoni va Quvaytdan katta miqdorda qarz bo'lgan, endi o'sha qarzlarni qaytarishi kerak edi. Urushdan charchab chiqqan Iroqda o'sha qarzlarni qaytarishga yetarli mablag' yo'q edi.

Bu muammoni yechishda Iroq prezidenti Saddam Husayn agressiv yo'ldan ketadi. U Quvaytni bahsli hududlardan biri bo'lgan Rumeyladan noqonuniy neft qazib olishda ayblab, undan Iroq-Eron urushi paytida berilgan 17 milliard dollar miqdoridagi qarzdan kechishni va yana 2,4 milliard dollar miqdorida tovon puli to'lashni talab qila boshlaydi. Tabiiyki, Quvayt buni rad etadi.

1990-yilning yozida Iroq va Quvayt o'rtasidagi munosabatlar neft narxi atrofidagi mojarolar sabab keskinlashgan. 1990-yil 30-may kuni Arab davlatlari sammitida Iroq yetakchisi Saddam Husayn Fors ko'rfazidagi ayrim davlatlar "OPEK" belgilaganidan ortiq neft qazib olishni boshlaganini, bu o'z navbatida bir

barrel neft narxining 7 dollargacha tushib ketishiga sabab bo'lganini ma'lum qilgan. Saddam Husayn har bir barrel neft narxining bir dollarga arzonlashuvi sabab Iroq yiliga 1 milliard dollar yo'qotayotganini ta'kidlagan. Uning fikricha, bu Iroq iqtisodiy sharoitida "urush ochish" edi. O'sha uchrashuvda Saddam gap qaysi arab davlatlari haqida ketayotganini aniq aytmagan.

15-iyul kuni Iroq tashqi ishlar vaziri Tariq Aziz Arab Ligasi davlatlarining bosh kotibiga 37 sahifadan iborat memorandumni yuborgan bo'lib, unda Quvayt va BAA neftni ortiqcha ishlab chiqarishda ayblangan. Bundan tashqari, hujjatda Iroqning Quvaytga qarshi boshqa e'tirozlari ham keltirilgan.

Urushning boshlanishi. 1990-yilning 17-iyul kuni Saddam Husayn bayonot bilan chiqib, Fors ko'rfazidagi arab davlatlari neft narxini nazoratda ushlab maqsadida Iroqqa qarshi fitna uyushtirayotganini bildirgan. Ertasi kuni Husayn yana Quvaytni Rumayladagi kondan noqonuniy neft qazib olishda ayblagan va Iroq – Quvayt chegarasiga o'z harbiylarini joylashtirgan. O'z navbatida Quvayt Iroqni chegaraoldi hududlarni egallab olish va neft maydonlarining biridan noqonuniy foydalanishda ayblagan.

24-iyul kuni Misr prezidenti Husni Muborak o'rtadagi vositachi sifatida Quvayt, Iroq, Saudiya Arabistoniga tashrif buyurgan va 25-iyul kuni Iroq va Quvayt muzokaralar stoliga o'tirishga rozi bo'lganini ma'lum qilgan. Muzokara rozi bo'lgan Iroq kuch ishlatmaslik talabidan voz kechmagan. 24-iyul kuni Quvayt bilan janubiy chegaralarga 30 ming harbiy xizmatchi va 200 ta tank joylashtirilgan, bir haftadan keyin bu yerdagi iroqlik harbiylar soni 100 mingga yetgan.

1990-yil 31 iyul kuni Saudiya Arabistonining Jyezde shahrida o'zaro nizolar yuzasidan Iroq-Quvayt muzokaralari bo'lib o'tadi. Ammo muzokara natijasiz tugaydi. Oradan ikki kun o'tib, 1990-yil 2 avgust kuni Iroq qo'shinlari Quvaytga bostirib kiradi, Quvayt amiri Jobir as-Saboh Saudiya Arabistoniga qochib ketadi. Hujum vaqtida Iroq qo'shinlarining soni 120 ming kishi va 350 ta tankdan iborat bo'lgan. Kun yakuniga qadar Quvaytning deyarli butun hududi Iroq nazorati ostiga o'tgan. Mamlakatdagi 950 ta neft quduqlarining 600 ga yaqini iroqliklar

tomonidan yoqib yuborilgan, shuningdek, neft quvurlari, neft nasoslari, neft terminallari, neftni qayta ishlovchi asosiy majmualarga zarar yetkazilgan.

Egallab olingan Quvayt boshqaruvi Bag‘dod tarafdori polkovnik Ala Husayn Aliga topshirilgan — u “Quvaytning ozod muvaqqat hukumati” harakati rahbari edi. 8-avgust kuni ushbu harakat Saddam Husaynga murojaat yuborgan: “*Quvayt o‘z vatani — buyuk Iroq tarkibiga qaytishi kerak*”. Ushbu “iltimos” qanoatlantirilgan. Iroq qo‘shinlari Quvaytni bosib olgan kunning o‘zida BMT Xavfsizlik Kengashi 660-sonli rezolyutsiyani qabul qiladi. Unda Iroqqa Quvaytdan o‘z qo‘shinlarini darhol olib chiqib ketish talabi qo‘yiladi. Iroq BMT talabini rad etdi va Quvaytni o‘z tarkibiga qo‘shib olib, uni o‘zining 19-provinsiyasi deb e‘lon qiladi. O‘sha paytda ko‘plab xalqaro tashkilotlar va davlat rahbarlari Saddam Husayndan o‘z qo‘shinlarini Quvaytdan darhol olib chiqib ketishni talab qilishadi. U bu talablarni e‘tiborsiz qoldiradi.

«**Sahrodagi bo‘ron**». Iroq BMT rezolyutsiyasini pisand qilmaganidan keyin, AQSh Qurolli kuchlari Markaziy qo‘mondonligi zudlik bilan Iroqqa qarshi harbiy harakatlar boshlash rejasini tuza boshaydi. Rejaga shartli ravishda «Sahrodagi bo‘ron» deb nom beriladi. Rejada avval Iroqdagi muhim obektlarga havodan zarba berish, so‘ng quruqlikdagi qo‘shinlarni harakatga keltirish belgilangan edi.

1990-yil 7-avgust kundan boshlab AQSh o‘z harbiylari va harbiy texnikalarini Fors ko‘rfaziga ommaviy tarzda jo‘nata boshlaydi. BMT o‘shanda Iroqqa qarshi jami 12 rezolyutsiya qabul qiladi. Ularda Iroqqa nisbatan iqtisodiy va harbiy sanksiyalar, shuningdek Quvaytdan qo‘shinlarni darhol olib chiqib ketish talablari qo‘yilgandi. Ammo, Saddam Husayn bu rezolyutsiyalarga parvo qilmaydi.

1990-yil 27-noyabrda BMT Iroqqa qarshi harbiy kuch ishlatish haqida 678-sonli maxsus rezolyutsiyani qabul qiladi. Unda Iroqqa 1991-yil 15-yanvargacha Quvaytdan chiqib ketish uchun so‘nggi muddat beriladi. Agar bu shart bajarilmasa, unga qarshi harbiy kuch ishlatilishi belgilanadi.

Iroqqa qarshi harbiy amaliyotlar olib borish uchun o‘sha paytda AQShga yana ko‘plab davlatlar qo‘shiladi va qisqa fursatda ularning soni 28 ta bo‘ladi.

Ittifoqchilar qo‘shinlarga qo‘mondonlik qilish AQSh generali Norman Shvarskopfga topshiriladi. Iroqqa qarshi xalqaro kuchlar tarkibiga bir qator arab davlatlari, jumladan Misr, Suriya va Saudiya Arabistoni ham qo‘shiladi. Xalqaro kuchlar tarkibida 600 ming askar, 8 mingga yaqin harbiy texnika, 2 ming samolyot va ko‘plab harbiy kemalardan iborat katta armiya jamlanadi.

Harbiy aviatsiyani boshqarish uchun AQShning 9-havo qo‘shinlari armiyasi qoshida yagona boshqaruv shtabi tuzildi va xalqaro kuchlar aviatsiyasi ana shu boshqaruv shtabi orqali boshqariladi. Iroqqa qarshi xalqaro koalitsiyaning asosiy bazasi Saudiya Arabistoni shimolida, Iroq chegarasidan 20-50 kilometr uzoqlikda joylashtiriladi.

O‘sha paytda Iroq armiyasida 1 millionga yaqin askar, 5 ming tank, 8 ming minomyot, 700 samolyot va «Yer-Yer» tipidagi 400 kilometr dan 1200 kilometr uzoqlikkacha ucha oladigan raketalar bo‘lgan.

Iroq havo zarbalari ostida. 1991-yil 15-yanvarda Iroqqa berilgan so‘nggi muddatgacha Saddam Husayn Quvaytdan o‘z qo‘shinlarini olib chiqmaydi. 17-yanvar kuni soat 00:00da xalqaro kuchlar aviatsiyasi Iroq bo‘ylab keng qamrovli havo hujumini amalga oshirishga kirishadi va muhim obektlarga bomba tashlay boshlaydi.

Ittifoqchilar aviatsiyasi 24-yanvargacha sutkasiga 700-800tadan, jami 4700ta parvozni amalga oshiradi. Asosiy aviazarbalar Iroq poytaxti Bag‘dod shahri va yana bir qator shaharlardagi muhim obektlarga beriladi. Iroq tomoni ham qarab turmaydi va «Al Husayn» va «Al Abbos» deb nomlangan «Skad» tipidagi raketalar bilan ittifoqchilarning Saudiya Arabistoni hamda Isroildagi bazalariga zarba berishga urinadi. Bu turdagi raketalarni Iroqqa urushdan avval SSSR yetkazib bergan edi.

Iroq tomonidan uchirilgan raketalarning bir qismi mo‘ljalga yetib borgan, yana bir qismi AQSh harbiy havo kuchlariga qarashli raketa tutqichlar tomonidan urib tushirilgan. Olti kunlik havo hujumi natijasida Iroq hududidagi aksariyat muhim obektlar vayron qilinadi. Iroqqa havodan zarba berish fevral oyida ham davom ettiriladi. Nihoyat 15-fevralda Saddam Husayn xalqaro koalitsiyaga

Quvaytdan qo‘shinlarini olib chiqishga tayyor ekanini bildiradi. Ittifoqchilar Iroqqa quruqlikdan ham hujum qilishga kelishib olishgani tufayli Saddam Husaynning sulh haqidagi taklifini e‘tiborsiz qoldirib, hujum qilishda davom etishadi.

Quruqlikdagi harbiy amaliyotlar va Iroqning yengilishi. 1991-yil 15-yanvar kuni AQSH prezidenti Jorj Bush “agarda so‘nggi daqiqalarda diplomatik o‘zgarish sodir bo‘lmasa” Iroqqa zarbalarni berish bo‘yicha direktivani imzolagan. Ertasi kuni Washington vaqti bilan soat 19:00 “Sahrodagi bo‘ron” operatsiyasi boshlangan. Uning maqsadi BMT Xavfsizlik kengashining **678-sonli rezolyutsiyasi** orqali belgilab berilgan bo‘lib, Iroq harbiylarini Quvaytdan chiqarib yuborish bo‘lgan.

AQSH asosiy e‘tiborni havo hujumiga qaratgan, bu orqali Iroqning urushni davom ettirish imkoniyati to‘xtatilishi kerak edi. Keng ko‘lamli quruqlikdagi janglarni o‘tkazish rejalashtirilmagan, biroq shu kabi holat ham ko‘zda tutilgandi. AQSH va uning ittifoqchilari 600 mingga yaqin harbiy, 4 ming tank, 3,7 ming dala artilleriya qurollari, 2 mingga yaqin samolyot va 100 dan ortiq kemani Iroq chegarasida joylashtirgan. Ushbu kuchlarning **80 foizi AQSHga tegishli edi.** Ular yuqori aniqlikda nishonlarni ishg‘ol etuvchi zamonaviy tizimlar bilan jihozlangan.

“Sahrodagi bo‘ron” operatsiyasi 41 kun davom etgan va u o‘z ichiga havodan hujum (17-yanvardan 23-fevralgacha) va havo-yerdan operatsiyalarini (24-28-fevral kunlari) olgan. 17-yanvar kuni MHC aviatsiyasi Iroq va Quvayt hududidagi obyektlarga kutilmagan hujumni amalga oshirgan. Dastlabki uch sutka davomida boshqaruv punktlariga, havo hujumidan mudofaa tizimlari, tezkor-taktik raketalar pozitsiyalari, aviabazalar, yadroviy va kimyoviy obyektlariga zarbalar berilgan. 1991-yilning 28-fevral tongida AQSH tashabbusi bilan harbiy harakatlar to‘xtatilgan, 6-mart kuni esa tinchlik bitimi imzolangan.

Fors ko‘rfazi zonasidagi urush davomida Iroqqa qarshi birlashgan koalitsiya o‘z oldiga qo‘ygan strategik maqsad — Quvaytni Iroq qo‘shinlaridan ozod etib, uning suverenitetini qayta tiklashga muvaffaq bo‘lgan. Ammo Saddam Husayn rejimi va Iroqning harbiy potentsiali saqlanib qolgan.

Urushning AQSh uchun ahamiyati. «Sahrodagi bo‘ron» operatsiyasida xalqaro kuchlarning Iroq ustidan g‘alaba qozonishining AQSh uchun ahamiyati juda katta edi. 1964-1975 yillarda bo‘lib o‘tgan Vetnam urushida mag‘lubiyatga uchraganidan so‘ng xalqaro maydonda AQSh harbiylarining obro‘si ancha tushib ketgan edi. Iroqqa qarshi urushdagi g‘alaba AQSh harbiylariga ana shu ishonchni qaytaradi. Iroq tomoni esa bu urushgacha sakkiz-yil Eron bilan urushgan, armiyasi chiniqqan edi. Ammo, chiniqqan armiya xalqaro kuchlarning havo hujumlari ostida «tutday to‘kilib» ketadi.

Tomonlar yo‘qotishlari. AQSh boshliq xalqaro kuchlar bu urushda 200 nafarga yaqin askardan ayriladi. Ulardan 110 nafari arab davlatlari, 88 nafari xalqaro kuchlar tarkibidagi harbiylar edi. Shuningdek, ittifoqchilar 26ta uchuvchi apparatidan ayriladi. Shundan 25tasi texnik xatolar tufayli xalqaro kuchlarning o‘zi tomonidan urib tushirilgan.

Iroq bu urushda ko‘p narsa yo‘qotadi. Urush tugagandan biroz o‘tib G‘arb nashrlarida, bu urushda 100 ming nafar iroqliklar halok bo‘lgani haqida ma’lumotlar beriladi. Ayrimlar bu urushda Iroq tomonidan 200 ming kishi halok bo‘lgani haqida ham yozadi. Bu urushda Iroq harbiylaridan qanchasi halok bo‘lgani haqida aniq ma’lumotlarni hisoblashning imkoni bo‘lmagan.

Norasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, Iroq armiyasi bu urushda 20-26 ming nafar askar, 308 samolyot, 1800-3700 tank, 520-2400 zirhli texnika, 1465-2400 artilleriya qurollari, 100ga yaqin turli hajmdagi kemalar va turli rusumdagi havo hujumiga qarshi qurilmalarini yo‘qotgan. Shuningdek, xalqaro kuchlar tomonidan Iroq fuqaro aviatsiyasiga tegishli 12ta samolyot yo‘q qilingan. Bu urushda Iroq tomonidan uchirilgan «Skad» rusumli raketalar tufayli Isroilda ham 15 kishi halok bo‘ladi va ko‘plab turarjoylarga zarar yetadi.

G‘arb mutaxassislarining baholashicha, urush davomida Iroq qo‘shinlarining **60 ming askari halok bo‘lgan**, yaralangan va asirga tushgan, 3,8 ming tank, 1,4 ming “BTR” va “BMP”, 2,9 ming qurol va 360 ta samolyotidan ayrilgan. Koalitsiya kuchlarining esa 300 nafar askari o‘ldirilgan, 600 dan ortig‘i yaralangan va 50 kishi bedarak yo‘qolgan. Shuningdek, 69 ta jangovar samolyot va

28 ta vertolyot yo‘q qilingan. Tinch aholi orasida esa halok bo‘lganlar soni 100—200 mingni tashkil etgan. Iroqdagi 85 foizga yaqin sanoat korxonalari yakson bo‘lgan. Urush harakatlari oqibatida Iroqning neftni qazib olish korxonalari jiddiy zarar ko‘rgan. 1990-yilda ishlab turgan 820 ta quduqdan 58 ta qolgandi.

Urushning ekologik oqibatlari. Fors ko‘rfazi qirg‘oqlarida sodir bo‘lgan bu urush mintaqa uchun haqiqiy ekologik halokatlarni olib keladi. Avvaliga Iroq tomonidan Quvaytga tegishli, keyin esa xalqaro kuchlar tomonidan Iroqqa tegishli neft konlari yoqib yuborilishi tufayli mintaqa havosi jiddiy zararlanadi va havoni tutun qoplaydi.

Havo qora tutun bilan zaharlangani uchun kuzda qora rangli yomg‘ir yog‘adi. Ana shu zaharli yomg‘ir mintaqadagi 320 ta katta-kichiq ko‘llar suvini zaharlaydi. Oqibatda, o‘sha ko‘llardagi suv jonzotlari nobud bo‘ladi. Har ikki tomondan neft ortilgan tankerlarga hujum qilinishi oqibatida, neft dengizga oqib ketishi Fors ko‘rfazidagi Iroq, Quvayt va Saudiya Arabistoni hududidagi dengiz sohillari ekotizimiga jiddiy zarar yetkazadi. Urush tugaguncha jami 8 million barrel neft dengizga oqib ketadi. Natijada, ko‘plab dengiz hayvonlari va ularni iste‘mol qilgan 30 mingta turli turdagi qushlar nobud bo‘ladi. Xalqaro tahlilchilarga ko‘ra, bu urush natijasida yaqin tarixdagi eng yirik ekologik fojia yuz beradi.

Urushdan so‘ng undirilgan tovon pullari. Urush tugagandan so‘ng BMT Xavfsizlik kengashi qoshida tovon puli masalasida maxsus komissiya tuziladi. Komissiyaning vazifasi 1990-yil 2 avgustdan 1991-yil 2 martgacha bo‘lgan davrda Iroq armiyasi bostirib kirishi oqibatida jabrlanganlarga tovon puli undirib berish edi. 2007 yilda ushbu komissiya tomonidan urushda jabrlanganlardan kelgan 1 543 665ta shikoyatni qanoatlantiriladi va Iroq hukumatidan ular foydasiga jami 52 milliard 386 million AQSh dollari miqdorida tovon puli undirish haqida hukm chiqariladi. 2007-yil 1 iyun holatiga ko‘ra Iroq zimmasiga yuklatilgan tovon pulidan 22 milliard 81 million dollar mablag‘ BMT qoshida ochilgan Iroq neft eksportidan to‘shadigan mablag‘lar jamg‘arib boriladigan fond orqali to‘lab beriladi. Tovon pulining qolgan qismi ham keyinchalik to‘lab beriladi.

O'sha paytda Quvaytni bosib olib, uni o'z davlatining bir bo'lagi deb e'lon qilgan Saddam Husayn nimaga ishonib BMT rezolyutsiyalari va xalqaro hamjamiyatning ogohlantirishlarini e'tiborsiz qoldirgan? Bu savolga aniq javob yo'q. Ammo ko'plab taxminlar bor. Birinchi taxminga ko'ra, u Iroq-Eron urushida o'z armiyasi ancha toblangan va janglarda tajriba orttirgan, shu sababli xalqaro kuchlar tomonidan yo'llanadigan harbiylarga bas kela oladi deb hisoblagan. Yana bir taxminga ko'ra, o'sha paytda SSSR Afg'onistonda olib borilgan 10 yillik urushda mag'lub bo'lib, o'z harbiylarini olib chiqqaniga uncha ko'p bo'lmagan va bu ish ham Saddamni ilhomlantirgan. Ya'ni u SSSRdek qudratli davlat harbiylari Afg'onistonda yengilgan ekan, Iroq armiyasi ham AQSh harbiylarini mag'lub eta oladi deb ishongan. Yana bir taxminga ko'ra, o'sha paytda agar urush boshlanadigan bo'lsa, SSSR harbiy yordam berishni va'da qilib, Saddam Husaynni ishontirgan. Urush boshlangandan so'ng xalqaro hamjamiyat bosimi bilan Moskva o'z va'dasida turmagan.

Nima bo'lganda ham o'sha paytda Saddam Husayn o'z kuchiga oshiqcha baho berib yuborgan. Aks holda BMT Xavfsizlik kengashining so'nggi ogohlantirishidan so'ng unda vaziyatni o'nglash va Quvaytdan qo'shinlarini olib chiqib ketib, hammasini tinch yo'l bilan hal qilish uchun bir yarim oy vaqt bor edi.

Bu urush sodir bo'lgandan biroz o'tib SSSR tarqalib ketadi. AQSh esa urush g'olibi sifatida jahon siyosiy maydonida yana yetakchilikni o'z qo'lga oladi. Iroq Saddam Husaynning manmanligi oqibatida juda og'ir vaziyatga tushib qoladi. Mamlakat xalqaro kuchlarga tegishli avitsiya tomonidan vayron qilingani yetmaganday, keyinchalik Iroq bu urushda jabrlanganlarga tovon puli to'lashga majburlanadi.

Shuningdek, xalqaro hamjamiyat tomonidan Iroqqa nisbatan iqtisodiy sanksiyalar joriy qilinadi. Ana shu sanksiyalar tufayli Iroq neft eksport qilishda muammolarga duch kela boshlaydi. Sanksiyalarga ko'ra, Iroqqa neft eksport qilishda ma'lum limit joriy qilinadi. Shundan so'ng Iroq ana shu limitda belgilangandan oshiq neft eksport qila olmay qoladi. Buning oqibatida mamlakat iqtisodiyoti orqaga ketib, aholining turmush darajasi pasayib boradi.

AQSh va Iroq o'rtasida boshlangan qarama-qarshilik bu urushdan keyin ham davom etadi. 1991-yilning 17-yanvar kuni AQSH boshchiligidagi Iroqqa qarshi koalitsiya "Sahrodagi bo'ron" operatsiyasini boshlagan bo'lib, u 1995-yilning 30-noyabr kuni rasman yakunlangan edi.

14.4. Rossiya qo'shinlarining Chechenistonda «Konstitusiyaviy tartibni o'rnatish bo'yicha» harbiy harakatlari.

Rossiya ko'pmillatli mamlakat bo'lganligi sababli millatlararo munosabatlar Rossiya uchun doimo dolzarb bo'lib kelgan. Ayniqsa, katta o'zgarishlar davrida bu muammo birinchi o'ringa chiqadi. SSSR tarqalgandan so'ng og'ir holat vujudga keldi. 1991-yil oxiri — 1992-yil boshlarida Tatariston, Boshqirdiston va Yoqutistondagi milliy harakatlar o'zlarining syezdlarini o'tkazib, ularda RSFSR tarkibidan chiqish masalasi qo'yildi. Chechen-Ingush Avtonom respublikasida Chechen xalqining umummilliy kongressi avtonomiyani Checheniston va Ingushetiyaga bo'lishni, Chechenistonning RSFSR tarkibidan chiqishini bildirdi. 1992-yili Tatariston ham o'z davlat mustaqilligini e'lon qildi.

Bo'larning hammasi markaziy hokimiyatni Federativ Shartnoma imzolanishini tezlashtirishga majbur qildi. Federativ Shartnoma 1992-yil mart oyida Tatariston va Chechenistondan tashqari barcha subyektlar tomonidan imzolandi. Markaz va mintaqalarning vakolatlari Rossiya Konstitutsiyasida ham o'z aksini topdi. Tatariston prezidenti etib saylangan M. Shaymiyev voqealar rivojini o'z qo'liga olishga erishdi. Tatariston 1994-yilda federal hokimiyat bilan vakolatlarni taqsimlash to'g'risida shartnomani imzoladi.

Checheniston markaz bilan har qanday shartnomalar tuzishni rad etish yo'lidan bordi. U bilan munosabatlar fojiali harakter kasb etdi. 1996-yili Checheniston bilan federal markaz o'rtasida boshlangan urush 2000-yilgacha davom etdi. Bu urush Ikkinchi jahon urushidan so'ng SSSR hududida yuz bergan eng katta harbiy to'qnashuv bo'ldi. Urush Rossiyaga bir necha mlrd dollar zarar yetkazdi, ikki tomondan 120 mingdan ortiq kishi qurbon bo'ldi.

1994-1996 yillardagi qurolli mojaro (birinchi Chechen urushi). 1994-1996 yillardagi chechen qurolli mojarosi - Rossiya Federatsiyasi qonunchiligini buzgan holda tuzilgan Rossiya federal qo'shinlari (kuchlari) va Checheniston Ichkeriya Respublikasi qurolli tuzilmalari o'rtasidagi harbiy harakatlar.

1991-yil kuzida, SSSR parchalanishi boshlangan sharoitda, Checheniston Respublikasi rahbariyati respublikaning davlat suvereniteti va uning SSSR va RSFSR tarkibidan chiqishini e'lon qildi. Sovet hokimiyati organlar Checheniston Respublikasi hududida tarqatib yuborildi, Rossiya Federatsiyasi qonunlarining ta'siri bekor qilindi. Checheniston Respublikasi Oliy Bosh Qo'mondoni Prezidenti Johar Dudayev boshchiligida Checheniston qurolli kuchlarini shakllantirish boshlandi. Grozniyda mudofaa liniyalari, shuningdek, tog'li hududlarda sabotaj urushi olib borish uchun bazalar qurilgan.

1994-yil 9-dekabrda Rossiya Prezidenti Boris Yelsin 2166-sonli "Checheniston Respublikasi hududida va Osetin-Ingush mojarosi hududida noqonuniy qurolli guruhlar faoliyatini bostirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni imzoladi. Xuddi shu kuni Rossiya Federatsiyasi Hukumati ushbu tuzilmalarni kuch bilan qurolsizlantirishni nazarda tutuvchi 1360-sonli Farmoni qabul qildi.

1994-yil 11-dekabrda Checheniston poytaxti - Grozniy shahri tomon qo'shinlarning yurishi boshlandi. 1994-yil 31-dekabrda Rossiya Federatsiyasi Mudofaa vazirining buyrug'iga binoan qo'shinlar Grozniyga hujumni boshladilar. Rossiya zirhli ustunlari shaharning turli qismlarida chechenlar tomonidan to'xtatildi va to'sildi, Grozniyga kirgan federal kuchlarning jangovar bo'linmalari katta yo'qotishlarga duch keldi.

Sharqiy va g'arbiy qo'shinlar guruhlarining muvaffaqiyatsizligi voqealarning keyingi borishiga juda salbiy ta'sir ko'rsatdi, Ichki ishlar vazirligining ichki qo'shinlari ham topshiriqni bajara olmadilar. O'jarlik bilan kurashgan federal qo'shinlar 1995-yil 6-fevralda Grozniyni egallab olishdi. Grozniy qo'lga kiritilgandan so'ng, qo'shinlar Chechenistonning boshqa aholi

punktlari va tog‘li hududlarida noqonuniy qurolli tuzilmalarni yo‘q qilishni boshladilar.

1995-yil 28-apreldan 12-maygacha Rossiya Federatsiyasi Prezidentining farmoniga binoan Chechenistonda qurolli kuchlardan foydalanishga moratoriy joriy etildi. Noqonuniy qurolli tuzilmalar (IAF) boshlangan muzokara jarayonidan foydalanib, kuchlarning bir qismini tog‘li hududlardan Rossiya qo‘shinlari joylashgan joyga ko‘chirishni amalga oshirdi, yangi jangari guruhlarini tuzdi, nazorat punktlari va federal kuchlarning pozitsiyalarini o‘qqa tutdi. Budyonovskda (1995-yil iyun), Kizlyar va Pervomayskiyda (1996-yil yanvar) misli ko‘rilmagan miqyosda terrorchilik hujumlarini uyushtirdi.

1996-yil 6 avgustda og‘ir mudofaa janglaridan so‘ng federal qo‘shinlar katta yo‘qotishlarga uchragan holda Grozniyni tark etishdi. Noqonuniy qurolli tuzilmalar Argun, Gudermes va Shali hududiga ham kirib borgan. 1996-yil 31-avgustda Xasavyurtda sulh bitimlari imzolanib, birinchi Chechen urushi yakunlandi. Shartnoma tuzilgandan so‘ng, qo‘shinlar 1996-yil 21-sentyabrdan 31-dekabrgacha imkon qadar qisqa vaqt ichida Checheniston hududidan olib chiqildi.

1997-yil 12-mayda Rossiya Federatsiyasi va Checheniston Ichkeriya Respublikasi o‘rtasida tinchlik va munosabatlar tamoyillari to‘g‘risida shartnoma tuzildi. Chechen tomoni kelishuv shartlariga rioya qilmay, Checheniston Respublikasini Rossiya tarkibidan zudlik bilan olib chiqib ketish tarafdori bo‘ldi. Ichki ishlar vazirligi xodimlari va mahalliy hokimiyat vakillariga nisbatan dahshat ko‘chaygan, Shimoliy Kavkazning boshqa respublikalari aholisini Rossiyaga qarshi asosda Checheniston atrofida to‘plashga urinishlar ko‘chaygan.

1999-2009 yillarda Chechenistondagi aksilterror operatsiyasi (ikkinchi Chechen urushi). 1999-yil sentyabr oyida Chechen harbiy kampaniyasining yangi bosqichi boshlandi, bu Shimoliy Kavkazdagi aksilterror operatsiyasi (CTO) deb nomlandi. Operatsiya boshlanishiga 1999-yil 7-avgustda Shamil Basayev va arab yollanma askari Hattob boshchiligidagi jangarilarning Checheniston hududidan ommaviy bostirib kirishi sabab bo‘lgan. Guruh tarkibida xorijlik yollanma askarlar va Basayev jangarilari bor edi.

Bir oydan ko‘proq vaqt davomida federal kuchlar va bosqinchi jangarilar o‘rtasida janglar bo‘lib o‘tdi, bu jangarilar Dog‘iston hududidan Chechenistonga chekinishga majbur bo‘lishlari bilan yakunlandi. Xuddi shu kunlarda - 4-16 sentyabr kunlari Rossiyaning bir qancha shaharlarida (Moskva, Volgodonsk va Buynaksk) bir qator teraktlar - turar-joy binolarida portlashlar sodir etildi.

Masxadovning Chechenistondagi vaziyatni nazorat qila olmasligini hisobga olib, Rossiya rahbariyati shunday qarorga keldi harbiy operatsiya Checheniston hududida jangarilarni yo‘q qilish uchun. 18-sentabr kuni Checheniston chegaralari rus qo‘shinlari tomonidan to‘siq qo‘yildi. 23-sentabr kuni Rossiya Federatsiyasi Prezidentining "Rossiya Federatsiyasi Shimoliy Kavkaz mintaqasi hududida aksilterror operatsiyalari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi farmoniga ko‘ra, qo‘shinlarning qo‘shma guruhini tashkil etish ko‘zda tutilgan. (Kuchlar) Shimoliy Kavkazda terrorizmga qarshi operatsiya o‘tkazish uchun.

23-sentyabr kuni Rossiya aviatsiyasi Checheniston poytaxti va uning atrofini bombardimon qila boshladi. 30-sentyabr kuni quruqlikdagi operatsiya boshlandi - Stavropol o‘lkasi va Dog‘istondan Rossiya armiyasining zirhli bo‘linmalari respublikaning Naurskiy va Shelkovskiy viloyatlari hududiga kirishdi.

1999-yil dekabr oyida Checheniston Respublikasi hududining butun tekis qismi ozod qilindi. Jangarilar tog‘larda (3000 ga yaqin odam) to‘planib, Grozniyga joylashdi. 2000-yil 6-fevralda Grozniy federal kuchlar nazoratiga olindi. Chechenistonning tog‘li hududlarida jang qilish uchun tog‘larda faoliyat yurituvchi sharqiy va g‘arbiy guruhlariga qo‘shimcha ravishda yangi "Markaz" guruhi tuzildi.

2000-yil 25-27 fevralda "G‘arbiy" bo‘linmalari Harsenoyini to‘siq qo‘yishdi va "Vostok" guruhi Ulus-Kert, Dachu-Borzoy, Yarishmardi hududlarida jangarilarni yopdi. 2-mart kuni Ulus-Kert ozod qilindi.

So‘nggi keng ko‘lamli operatsiya qishloq hududida Ruslan Gelaev guruhini yo‘q qilish edi. 2000-yil 14-martda tugagan Komsomolskoye. Shundan so‘ng jangarilar qo‘poruvchilik va terrorchilik urush usullariga o‘tdi, federal kuchlar esa maxsus bo‘linmalarning harakatlari va Ichki ishlar vazirligining operatsiyalari bilan terrorchilarga qarshi kurashdi.

2002-yilda Chechenistonda CTO davrida Moskvadagi Dubrovkadagi Teatr markazida garovga olish sodir bo'ldi. 2004-yilda Shimoliy Osetiyaning Beslan shahridagi 1-maktabda garovga olingan.

2005-yil boshiga kelib, Masxadov, Hattob, Barayev, Abu al-Valid va boshqa ko'plab dala qo'mondonlari yo'q qilinganidan so'ng jangarilarning qo'poruvchilik va terrorchilik harakatlarining intensivligi sezilarli darajada kamaydi. Jangarilarning yagona keng ko'lamli operatsiyasi (2005-yil 13-oktyabrda Kabardino-Balkarga qilingan reydlar) muvaffaqiyatsiz yakunlandi.

2009-yil 16-aprelda yarim tundan boshlab Rossiya Milliy aksilterror qo'mitasi (MTK) Prezident Dmitriy Medvedev nomidan Checheniston Respublikasi hududida CTO rejimini bekor qildi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. SSSR ning parchalanishiga olib kelgan omillar nimalardan iborat.
2. SSSR davlat tuzilmalarini demontaj qilish haqida so'zlab bering.
3. SSSR tarkibidagi ittifoqdosh respublikalar tomonidan ishlab chiqilgan "Yangi Ittifoq shartnomasi" da nimalar nazarda tutilgan edi?
4. MDH ni tashkil topishi va unga a'zo davlatlar haqida so'zlab bering.
5. Sharqiy Yevropa mamlakatlarida sotsialistik tuzumning ag'darilishi qay tarzda kechdi?
6. Nega XX asrning 90 yillariga kelib sodir bo'lgan o'zgarishlar boshqa Yevropa mamlakatlaridagiga nisbatan Yugoslaviyada biroz murakkab kechdi?
7. Chexoslovakiya milliy muammolarni hal qilishning qanday yo'lini tanlagan edi?
8. Nima sababdan 1990-yilning yozida Iroq va Quvayt o'rtasidagi munosabatlar keskinlashgan?
9. Iroqning Quvaytni anneksiya qilishiga xalqaro hamjamiyat qanday munosabat bildirgan?
10. "Sahrodagi bo'ron" operatsiyasi haqida so'zlab bering.

11. Birinchi AQSH – Iroq urushining AQSh uchun ahamiyati nimalardan iborat?
12. Birinchi AQSH – Iroq urushi natijasida tomonlar nima yo‘qotdi?
13. Mazkur urushning ekologik oqibatlari haqida so‘zlab bering.
14. Saddam Husayn nimaga ishonib BMT rezolyutsiyalari va xalqaro hamjamiyatning ogohlantirishlarini e‘tiborsiz qoldirgan?
15. Qanday omil Rossiya markaziy hokimiyatni Markaz va mintaqalar o‘rtasida Federativ Shartnoma imzolanishini tezlashtirishga majbur qildi?
16. 1994-1996 yillardagi Rossiya va Chechiniston o‘rtasidagi qurolli mojar oqibatlari haqida so‘zlab bering.

15-MAVZU. XXI ASR BOSHLARIDAGI XALQARO MUNOSABATLAR

Reja:

15.1. Nyu-York va Vashingtonga terroristik hujum (2001-yil 11 sentyabr) va Afg'oniston hududida antiterroristik kompaniya boshlanilishi.

15.2. XXI asr boshlariga kelib jahonda yangi qudratli davlatlarning paydo bo'lishi va ularning muqobil markazlarga aylanish jarayoni.

15.3. AQSh va Buyuk-Britaniya koalision kuchlarning Iroqqa hujumi.

15.4. Yaqin Sharq (Iroq, Falastin, Suriya) inqirozining keskinlashuvi. ISHID muommosi

15.5. Rossiya – Ukraina o'rtasidagi o'zaro ziddiyatlarning kelib chiqishi va ko'chayib borishi.

Tayanch tushunchalar: *Nyu-York va Vashingtonga terroristik hujum , AQSh va Buyuk-Britaniya koalision kuchlarning Iroqqa hujumi, Hindiston, Pokiston va Shimoliy Koreyaning yadro quroliga ega bo'lishi, Eronning yadroviy dasturi. «Katta yigirmalik» — G-20 klubi. Yaqin Sharq (Iroq, Falastin, Suriya) inqirozi, ISHID muommosi, Rossiya – Ukraina o'rtasidagi o'zaro ziddiyatlarning kelib chiqishi va ko'chayib borishi, AQSH va Rossiya o'rtasidagi murakkab munosabat.*

15.1. Nyu-York va Vashingtonga terroristik hujum (2001-yil 11-sentyabr) va Afg'oniston hududida antiterroristik kompaniya boshlanilishi.

2001-yil 11-sentabrda terrorchilar tomonidan boshqariladigan uchta samolyot Nyu-Yorkdagi Jahon savdo markazi (WTC) osmono'par binolari va Pentagon binosiga quladi. To'rtinchisi Pensilvaniyada halokatga uchradi. Teraktlar natijasida binolarda va o'g'irlab ketilgan samolyotlarda bo'lganlar halok bo'ldi. Bundan tashqari, falokat o't o'chiruvchilar va politsiya xodimlarining hayotiga zomin bo'ldi, ularning sa'y-harakatlari tufayli 30 mingga yaqin odamni qutqarish mumkin edi. Ish kunlarida WTC da 55 mingdan ortiq kishi ishlagan, kunlik tashrif

buyuruvchilar va sayyohlar soni 150 mingga etgan. 2002-yil 15-iyulda terrorchilik harakatlari qurbonlari qoldiqlarini qidirish rasman yakunlandi.

2002-yil 20-avgustda Nyu-Yorkda WTC halokatidan vafot etganlarning birinchi rasmiy soni e'lon qilindi. Unda 80 ta davlatdan 2819 kishi, jumladan, 3 nafar rossiyalik qayd etilgan. WTC osmono'par binolari ustiga qulagan ikkita samolyot jami 157 kishining hayotiga zomin bo'ldi. 343 nafar o't o'chiruvchi halok bo'ldi. Qarindoshlar tomonidan yoki 1102 kishining DNK tahlili orqali aniqlangan. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, Nyu-Yorkda o'ldirilgan o'n kishidan sakkiz nafari erkaklar, o'lganlarning o'rtacha yoshi qirq yoshda edi. Ular asosan aqliy mehnat bilan shug'ullanuvchi xodimlar edi: dasturiy ta'minot ishlab chiqaruvchilardan tortib bank xodimlari va sug'o'rta kompaniyalari xodimlarigacha. Ko'pchilik o'z karerasining cho'qqisida edi. O'nga yaqin kishi kompaniyalarning rahbarlari, ta'limchilari yoki prezidentlari edi. Kamida 59 kishi vitse-prezident lavozimida ishlagan. Aniqlangan qurbonlarning o'n besh nafari yigirma bir yoshga to'lmagan, jumladan, uch nafar uch yoshli bola.

Vashingtondagi terakt natijasida, samolyot Pentagon binosiga qulaganida, 184 kishi halok bo'ldi: 120 nafar xodim va 64 nafar yo'lovchi va ekipaj a'zosi. Terrorchilar tomonidan o'g'irlab ketilgan, biroq Vashingtonga yetib bormasdan turib, Pensilvaniyada qulagan samolyotda 44 kishi halok bo'ldi. O'lganlarning umumiy soni uch mingdan ortiq kishini tashkil etdi, olti mingga yaqin kishi jarohat oldi. 2001-yil 12-sentabrda AQSh prezidenti Jorj Bush Nyu-York va Vashingtondagi teraktlar munosabati bilan televideniye orqali xalqqa murojaat qildi. Uning so'zlariga ko'ra, u hujumlar tashkilotchilarini topish va jazolash uchun Qo'shma Shtatlarning "barcha razvedka va huquqni muhofaza qilish resurslaridan" foydalanishni buyurgan. Oq uy rahbarining ta'kidlashicha, teraktlar ijrochilari "ommaviy qotillik akti"ni amalga oshirgan. Uning so'zlariga ko'ra, terrorchilar Amerikada tartibsizliklar yaratmoqchi bo'lgan, ammo bunga erisha olmagan.

15-sentabr kuni AQSh prezidenti haftalik radio orqali mamlakatga murojaat qilib, AQSh terrorizmga qarshi "keng qamrovli hujum"ni rejalashtirayotganini e'lon qildi. Qo'shma Shtatlar "mamlakatimizni himoya qilish va terrorizm

yovuzligini yo‘q qilish uchun keng va uzoq muddatli kampaniyani” rejalashtirmoqda. Jorj Bush amerikaliklarni sabr-toqatga muhtojligidan ogohlantirdi, chunki yaqinlashib kelayotgan "mojaro qisqa bo‘lmaydi", shuningdek, "mojaro oson bo‘lmaydi". Bush terrorchilarning harakatlarini "varvarlik" deb atadi. Uning so‘zlariga ko‘ra, AQSh Nyu-York va Vashingtondagi teraktlar aybdorlari va tashkilotchilarini jazolash uchun dunyoning boshqa davlatlari, jumladan, Rossiya, Hindiston, Pokiston bilan hamkorlik qiladi.

2001-yil 11-sentyabr Amerika uchun yangi "Pearl Harbor" paydo bo‘ldi. Egizak minoralar qulab tushdi, Pentagonga hujum qilindi, 4 ta yo‘lovchi layneri o‘g‘irlab ketildi va odamlar halok bo‘ldi. Bir so‘z bilan, halokatli halokatli hodisa, bu AQSh fuqarolarining odatiy tinch hayotini butunlay o‘zgartirdi: "terrorizmga qarshi urush" e'lon qilindi, samolyotga chiqishdan oldin har bir aeroportda yo‘lovchilarni tintuv qilish joriy etildi, bir nechta "ajab" qonunlar qabul qilindi va ular qaror qildilar. Fuqarolarning tanasiga "chiplar" joylashtiriladi, shunda hamma "nazorat va hisobga olinadi". Bir so‘z bilan aytganda, "endi hokimiyat ruxsatisiz bir qadam emas".

2001-yil 11-sentabrda 19 nafar o‘z joniga qasd qilganlar 4 nafar fuqarolik laynerini o‘g‘irlab ketishgan, shundan 2 tasi Jahon savdo markazi binolariga hujum qilgan (keyingi - WTC) Nyu-Yorkda, ya'ni WTC binosi 1 va WTC binosi 2, uchinchi samolyot Pentagon binosiga hujum qildi va to‘rtinchi samolyot hujum joyiga etib bormay, Pensilvaniyada quladi. Hujumlarda Al-Qoida ayblangan. Terrorizmga qarshi urush boshlandi.

Afg‘onistonda XX asrning 90-yillaridagi siyosiy vaziyat. SSSR tarqalib ketgandan so‘ng Afg‘onistonda holat ancha ogirlashdi. 1992-yil aprel oyida Kobo‘l shahriga mujohidlar otryadlari kirib keldi. Afg‘onistonda hokimiyatni Jihod kengashi deb atalgan guruh o‘z qoliga oldi. Mamlakat nomi Afg‘oniston Islom Respublikasi deb o‘zgartirildi, barcha qonunlar bekor qilinib, shariat qoidalari joriy qilindi. Ammo mujohidlar o‘rtasida boshlangan kclishmovchilik yangi urush harakatlariga olib keldi, minglab kishilar halok bo‘ldi, elchixonalar va xalqaro missiyalar Afg‘onistonni tark etdi.

1994-yili mojaroga yangi siyosiy kuch — islom fundamentalistlarining tolibonlar harakati qo‘shildi. Ularning yetakchisi mulla Umar Afg‘onistonda fuqarolar urushini tugatib, islomiy tartib o‘rnatishini e‘lon qildi. Ular 1996-yil sentabrda Kobulni egallab, mamlakatni «Afg‘oniston Islom amirligi» deb e‘lon qildi. Tolibonlar Afg‘onistonda qat‘iy islomiy tartiblarni o‘rnata boshladi.

Ayni paytda bu yerda turli xil terrorchilar qo‘nim topdi. Tolibonlar rejimi bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan xalqaro terrorchi Usoma bin Loding ham Afg‘onistonga keldi. U terrorchilar tayyorlash uchun harbiy bazalar va lagerlar tizimini yaratdi. Tolibonlar rejimi Usoma bin Lodinni xalqaro sudga topshirishdan bosh tortgandan so‘ng BMT Xavfsizlik Kengashi (XK) Afg‘onistonga qarshi iqtisodiy sanksiyalar e‘lon qildi.

Xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olinishdan umidini uzgan mulla Umar islomgacha boigan barcha e‘tiqod obyektlari, tarixiy yodgorliklarni yo‘q qilishga buyruq berdi. V asrga oid ikkita noyob yodgorlik — qoyaga o‘yib ishlangan Buddaning ulkan haykallari yo‘q qilindi. Musulmon bo‘lmagan aholining o‘z kiyimiga sariq belgi taqib yurishi haqida qabul qilingan dekret jahon jamoatchiligining g‘azabini keltirdi. BMT XK tolibonlar hukumatiga qarshi sanksiyalarni ko‘chaytirish to‘g‘risida yangi rezolutsiya qabul qildi.

2001-yil 11-sentabrda Nyu-Yorkda uyushtirilgan terrorchilik aktlari uchun javobgarlikni AQSH ma‘muriyati «Al-Qoida» tashkiloti bilan Usoma bin Lodinga yukladi. 2001-yilning 8-oktabrida amerikaliklar “AQSh javob qaytardi” qabilidagi gazeta sarlavlahari, Tolibon boshqaruvidagi Afg‘onistonda tunda havo hujumlari uyushtirilgani haqidagi xabarlar bilan uyg‘ongan. O‘shandan bir oy oldin, 11-sentabrda al-Qoida terrorchilari samolyotlarni AQShdagi yirik obyektlarga urib, 2996 kishini o‘ldirgan edi. Bir necha hafta ichida al-Qoida va uning rahbari Usama bin Lodinga boshpana bergan Tolibon rejimi havo zarbalari va qabilaviy jangchilarning bosimi ostida qulagan.

Noyabrga borib toliblar Morozi Sharif, Hirot, Kobul va Jaloloboddan haydab chiqarilgan. 5-dekabrda AQSh ko'magi bilan Hamid Karzay boshchiligidagi muvaqqat afg'on hukumati tuzilgan. Yana bir necha kun o'tib, Tolibonning Qandahordagi so'nggi yirik qarorgohi ham bosib olingan, harakat rahbari Mulla Umar qochib yashiringan. AQSh matbuotida esa Afg'oniston shimolida ot mingan Amerika maxsus kuchlari mo'ljallarni tanlab, havo kuchlariga xabar bergani haqidagi maqolalar chop etilgan. O'sha paytda AQShning Afg'onistondagi harbiy amaliyotlari shafqatsiz Tolibon rejimi o'rniga G'arbga do'stona demokratik tuzum olib kelishini, bu tuzum ekstremizmga muqobil sistema sifatida namuna bo'lishini tasavvur qilish mumkin edi.

2002-yil iyun oyida bo'lib o'tgan umumafg'on Loyya Jirgasida Homid Karzay Afg'oniston prezidenti etib saylandi. Afg'onistonga 5 mlrd dollar xalqaro yordam ajratildi. Biroq, mamlakat iehkarisida terrorchilik harakatlari davom etdi. 2003-yili Afg'onistonning yangi konstitutsiyasi qabul qilindi. Mamlakat «Afg'oniston Islom Respublikasi» nomini oldi. Yangi konstitutsiya mamlakatda prezidentlik boshqaruvini o'rnatdi, ikki palatali parlament, mustaqil sud tizimi tuzilishini ko'zda tutdi, shuningdek, fuqarolarning demokratik huquq va erkinliklarini e'lon qildi. Konstitutsiya kichiq millatlarning huquqlarini kafolatladi, barchaning, jumladan, erkak va ayollarning qonun oldida tengligini va e'tiqod erkinligini o'rnatdi.

Afg'oniston bosib olinishidan keyingi 20-yil o'zgacha voqelikni aks ettirdi. Mamlakatda mustahkam, demokratik yo'l bilan saylangan hukumatni shakllantirish sa'y-harakatlari davom etgani sari AQSh qo'shinlari soni bir ko'payib, bir kamaydi. Ayni paytda xudkushlik va Tolibon hujumlari, AQShga ittifoqchi bo'lib ko'ringan guruhlar o'rtasida nizolar davom etdi. Vaqt o'tishi bilan Tolibon oyoqqa turib, AQSh strategiyasi jangarilarga qarshi uzoq muddatli kurash tusini oldi. Shu bilan birga, AQSh o'z siyosatining xunuk qirralari bilan hisoblashishga ham majbur edi. Urush boshida AQSh Kubada Guantanamo qamoqxonasini yaratib, Afg'onistonda qo'lga olingan "dushman jangchilarni" joylashtirgan. Ular huquqiy himoyadan mahrum edi.

Keyingi bir necha yilda Amerika ommasi Afg'onistonda va boshqa davlatlarda mahbuslarni saqlash va so'roq qilishning o'zgacha usullari haqida xabar topdi. Terrorda gumon qilinganlar qiynoq odatiy hol bo'lgan mamlakatlarga ko'chirilib so'roq qilingan. Ba'zida Kobo'l yaqinidagi Bagram aerodromida saqlangan. AQSh Adliya vazirligining mahbuslardan ma'lumot olish uchun ularni suvga bo'ktirishga ruxsat berish, bu kabi qiynoq usullarini qo'llaganlarni oqlash haqidagi maxfiy hujjatlari ham oshkor bo'ldi.

O'z qadriyatlarinigizga xiyonat qilayapsiz degan ayblovlarni rad etib, AQSh yana bir urush boshladi. Maqsad ittifoqchilarni birlashtirib, Iroqda borligi da'vo qilingan ommaviy qirg'in qurollarini yo'q qilish edi. Iroqda urush avj olishi ketidan AQSh jamoatchiligining Afg'onistonga e'tibori pasaydi.

“2001-yil kuzida Tolibonni qattiq jazolash xohishi kuchli edi. Bu nimani anglatishini bilmasak-da”, - deydi siyosatshunos Maykl Oxanlon. Natijada AQSh Afg'onistonga bostirib kirishi kerak edimi degan munozaralar deyarli kuzatilmagan. AQSh mamlakatda barqarorlikni ta'minlash uchun mas'ul degan qarash hukmron edi. Amerikaning o'zida esa Guantanamo qamoqxonasi va qiynoqlar dasturi yuzasidan muhokamalar yillab davom etdi. Keyinchalik Obama ma'muriyati mahbuslarga nisbatan qo'llanilgan usullarni qiynoq deya tan oldi. Bugun Guantanamo 40 asir qolgan.

AQShning to'rt prezidenti, Jorj Bush, Barak Obama, Donald Tramp va Jo Bayden demokratik yo'l bilan saylangan afg'on hukumatini isyonni bostirish uchun zarur bo'lgan vositalar bilan ta'minlashga urindi. 2009-yilda Bush prezidentlikdan ketgach, Obama Afg'onistonda qo'shin sonini keskin oshirishga qaror qildi. Askarlar soni 100 minggacha oshib, keyingi yillarda 10 minggacha kamaytirildi. Tramp Oq uyga harakat qilayotganida “cheksiz urushlarni” tugataman, harbiylarni uyga qaytaraman deb va'da bergan. Ammo u prezidentlikka kirishganidan ko'p o'tmay reja o'zgardi. Bunga Afg'onistondagi “bo'shliq” terror guruhlarini mamlakatga jalb qilishi haqidagi xavotirlar sabab bo'lgan.

2021-yilning aprelida demokrat Prezident Jo Bayden Afg'onistondagi barcha qo'shinlar urushning 20 yilligida, 11-sentabr sanasigacha vatanga qaytishini e'lon qildi. Uning urush tugashi haqidagi nutqi g'alaba ohangidan yiroq edi.

“Chiqish uchun ideal sharoit yaratamiz deb va boshqacha natija kutib, Afg'onistondagi harbiy missiyamizni uzaytirish va kengaytirish siklini davom ettira olmaymiz, - deydi Bayden. – Men bu urush borasida qaror qilayotgan to'rtinchi prezidentman. Ikki respublikachi, ikki demokrat. Javobgarlikni beshinchi prezidentga qoldirmayman”.

2021-yilda AQSh va Buyuk Britaniya harbiylari Afg'onistondan to'liq olib chiqilishi e'lon qilindi. Afg'oniston hukumati va mintaqa mamlakatlari bu xabar ularni xavotirga solayotganini yashirmadilar. Afg'onistondan tinchlikparvar kuchlar chiqarilishi ortidan „Tolibon“ harakati ko'chayib bordi. Xususan, ular Afg'onistonning asosan turkmanlar va o'zbeklar yashaydigan shimoliy viloyatlariga hujumlarni amalga oshira boshladilar.

2021-yil bahorda AQSh harbiy kuchlari Afg'onistondan chiqarilishi e'lon qilinganidan so'ng “Tolibon” harakati birin-ketin hujumlar uyushtirib, Afg'oniston hududlarini egallab bordi. Avgust oyida Afg'oniston hududining katta qismi “Tolibon” qo'l ostida qoldi, 15-avgustda “Tolibon” poytaxt Kobo'lni egalladi, prezident Ashraf G'ani mamlakatdan qochishga majbur bo'ldi. Shu kuni „Tolibon“ butun mamlakatni boshqarayotganini e'lon qildi va avvalgi hukumat a'zolarini ta'qib qilmasligini hamda hech kimni mamlakatdan chiqib ketishiga to'sqinlik qilmasligini aytdi.

AQSh va uning ittifoqchilari 2001 yili Afg'onistonni Tolibon qo'lidan ozod qilib, asosiy jangovar harakatlarni tugatish uchun 2-yil sarfladi. Ammo, 2021 yilga kelib, Tolibon yillar davomida AQSh tomonidan 83 milliard dollar harajat evaziga qurilib, terrorizmga qarshi kuchli to'siq bo'lishi kerak bo'lgan Afg'oniston milliy armiyasidan mamlakatni bir necha kun ichida olib qo'ydi. Qanday qilib 20 yillik hukumat bir necha oy ichida osongina qulashi mumkin? Afg'on hukumatining qulashi borasidagi fikrlarni umumiyashtirib, ikki guruhga ajratish mumkin:

korruptsiyalashgan hukumatning parokandaligi va Tolibonning strategik muvaffaqiyati.

Bu fikrlar Afg`on milliy armiyasining qulashi sabablarini ochib bersa-da, ko`pchilik tahlilchilarning asosiy masalaga e`tibor bermayotganligi ajablanarli. Fikrimcha, Afg`on hukumatining qulashi va bugun vujudga kelgan vaziyat zamiridagi fundamental muammo – bu AQShning “eksklyuziv” kuch ekaniga mo`kkasidan ketib ishongan siyosiy elitaning “harbiy egallash orqali davlat qurish” tashqi siyosati hisoblanadi. Dastlab Afg`oniston va keyin Iroqda sinalgan AQShning davlat qurish siyosati harbiy aralashuv, ko`rsatma va bosimlar hamda moddiy yordam natijasida boshqa o`lkalarning ichki siyosatini tubdan o`zgartiradigan milliy demokratik davlatchilik qurish mumkin degan noto`g`ri qarashga asoslanadi. Aslida, bu qarash Bush hukumatida to`plangan neo-konservativ siyosiy elitaning yangicha imperial qarashini aks ettiradi: rivojlanayotgan davlatlarning siyosati va madaniyati AQSh unga xohlagan narsasini chizishi mumkin bo`lgan oppoq qog`oz kabidir.

Bush hukumatining Afg`onistondagi harbiy aralashuvi dastlab Al-Qoida kabi milliy xavfsizlikka tahdidlarni yo`q qilish zaruratiga asoslandi. Biroq, bu qisqa muddatli maqsad tezda boshqa ekstremistik guruhlar tahdidlarining oldini olishi mumkin bo`lgan “barqaror davlat qurish” kabi uzoq muddatli loyihaga aylanib ketdi. 2001-yilgi harbiy bosqindan keyin AQSh boshchiligida Birlashgan Millatlar Tashkiloti kabi xalqaro guruhlar, notijorat tashkilotlar va mustaqil yordam agentliklari Afg`onistonda konstitusiya yozish va huquqlar to`g`risidagi qonun loyihalarini tashkil qilgan holda demokratik jamiyat qurish uchun millionlab dollar mablag` sarflashdi. Ammo, bugungi kunda isbotlanganidek, AQShning harbiy ishgo`l asosida davlat qurish yondashuvi barbod bo`lishga mahkum edi.

Albatta, bosib olingan mamlakatlarda demokratiyani targ`ib qilish xavfsizlikni ta`minlashning samarali yo`li bo`lishi mumkin. Ammo, AQShning Afg`onistonda “davlat qurish” siyosati eng muhim jihatni e`tibordan chetda qoldirdi: siyosiy islohotlar mahalliy odatlar va siyosiy madaniyatlardan kelib chiqqan holda amalga oshirilsagina muvaffaqiyatli bo`lishi mumkin. Bu

tushunchaga qarshi ravishda AQSh harbiy organlari Afg`onistonda milliy o`ziga xoslikni targ`ib qilish, siyosiy institutlarni shakllantirish yoki hisobotdorlik singari demokratik amaliyotlarni joriy etish kabi fuqarolik jamiyatini qurishga yo`naltirilgan maqsadlarga tajribasiz ravishda aralashib ketdi. Boshqacha aytganda, AQSh Afg`onistonning Tolibon kabi milliy-diniy harakat paydo bo`lishiga zamin yaratgan turfa millatlar orasidagi tarixiy ichki bo`linish va nizolariga G`arbda shakllangan demokratik davlat strukturalarini tanishtirish orqali tez echim topishga harakat qildi.

Ammo AQShning soxta tarixiy g`ururiga qurilgan bu siyosiy muhandislik loyihasi umumiy muvofiqlashtirish va jiddiy rejalashtirishning yo`qligi hamda harakatlarning yillar o`tib sustlashishi natijasida uzoqqa bormadi. Tarix shuni ko`rsatadiki, mahalliy rahbarlar hokimiyatni saqlash uchun xorijiy harbiy kuchlarga qaram bo`lganida xalq orasida legitimlik o`rnatish, mamlakatni samarali boshqarish, umummilliy o`zlikni anglash va davlatchilik qurilishi juda qiyin bo`ladi. AQSh va G`arb ittifoqchilarining Afg`onistondagi harbiy ustunligi Tolibonning Afg`on rahbarlari korrupsiyalashgani va islomiy urf-odatlariga xiyonat qilganligi haqidagi mafko`raviy targ`ibotini yo`q qila olmadi. Shuningdek, bu ustunlik Tolibonga yillar davomida qo`l kelgan "qabilalarga bog`liqlik"ni yo`q qilib, yagona milliy o`ziga xoslikni mustahkamlay olmadi. Gapning lo`ndasini aytganda, AQSh yillar davomida milliardlab dollar sarflab, Afg`onistonda xalq ishonchini qozona olmagan, moliyaviy jihatdan tashqi dunyoga qaram, moliyaviy manbalarning hech qanday shartlarsiz sarflanishi natijasida korrupsiyalashgan va ichki siyosatda etnik bo`linishlarni yanada chigallashtirib, Tolibonga qarshi kurashishda yagona birlik hosil qila olmagan hukumatni shakllantirdi.

Tolibonning Afg`onistondagi kuchi mustahkamlanib borar ekan, ko`pchilikni ikki savol qiziqtiradi: Tolibon shafqatsiz xatti-harakatlarini bas qilib, mamlakatda tinchlikni ta`minlay oladimi? Tolibon Afg`onistonda qanday hukumat shakllantiradi va uning yaqin qo`shnilar hamda tashqi dunyo bilan aloqasi qanday bo`ladi? Tolibon hukmi ostidagi Afg`onistonni tasavvur qilish uchun albatta, kelajakni bashorat qilish shart emas. Inson Huquqlari Kuzatuv tashkilotining 2020

yilgi hisobotiga ko`ra, Tolibon hukmi ostidagi Afg`onistonning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti nihoyatda achinarli edi: xotin-qizlarning ta`lim olishi, odatda, ta`qiqlangan, ishlashga ruxsat berilgan o`qituvchilarga soliq solingan, so`z erkinligi yo`q, ko`p hududlarda televidenie va smartfon ta`qiqlangan, turli Tolibon guruhlarini axloq normalarini, erkak kishi soqolining uzunligi va ayollarning paranjisini shafqatsizlik bilan nazorat qilgan. Bugungi kunga kelib, Tolibon siyosiy jihatdan vazminlikni maqsad qilgan bo`lsa-da, uning nazorati ostidagi ba`zi hududlarda yuqoridagiga o`xshash noxush holatlar yana ko`zga tashlana boshladi. Bu, albatta, harakat ekstremistik mafko`rani joriy etish maqsadida ekanini, ammo tashqi dunyo bu hukumatni qabul qilishi uchun muloyimlikka intilayotgan jangarilar guruhi bo`lib qolayotganini anglatadi. Boshqacha aytganda, siyosiy boshqaruv, qonun ustuvorligi, iqtisodiyotni boshqarish va ijtimoiy taraqqiyot masalalarida mutlaqo befarq, qobiliyatsiz ushbu guruh Afg`onistonni o`sha shafqatsiz davrga qaytarmaslik uchun biror ishonchli dalil keltirmadi. Hali oldinda eski davrlarning alami va hokimiyatda qudratni mustahkamlash uchun olinadigan qasoslar turganini hisobga olsak, Tolibonning vahshiy xatti-harakatlari yanada ko`chayishini anglash qiyin emas.

Ammo, 1995-yildan 2021-yilgacha Tolibon siyosiy qobiliyat jihatidan anchagina etilganini ham unutmash kerak. Hali Tolibonning qudratni qanday mustahkamlashi va qanday hokimiyat shakllantirishi haqida bir nima deyish qiyin bo`lsa-da, mazkur davr davomida Tolibon bundan keyin hokimiyatda qolishi va xalqaro miqyosda tan olinishi uchun ba`zi shafqatsizliklardan vaqtincha voz kechishi, qo`shnilar bilan tashqi savdo va sarmoyaviy aloqalarni yo`lga qo`yishi, shuningdek, tashqaridan keladigan katta miqdordagi yordamga muhtoj ekanligini allaqachon anglab etgan. Afg`on hukumatining butunlay qulashi va Tolibon hokimiyatining mustahkamlanishi mintaqadagi davlatlarni Tolibonni siyosiy kuch sifatida rasmiy tan olib, u bilan bundan buyon parda ortida emas, balki ochiq siyosiy aloqalar o`rnatishga chorlaydi. Vaqtinchalik almashinuv ko`rinISHIDa bo`lsa-da, mintaqadagi qo`shni Eron, Pokiston, Rossiya, Xitoy va Markaziy Osiyo davlatlari o`z chegaralari xavfsizligini ta`minlash, iqtisodiy manfaatlarni ko`zlash

hamda qochqinlar oqimini cheklash uchun Tolibon bilan muzokaralar olib borishga majbur bo`lishadi. Bu muzokalar keyinchalik tinchlik rishtalariga aylanadimi yoxud urush yo ziddiyatga – buni, albatta, vaqt ko`rsatadi.











15.2. XXI asr boshlariga kelib jahonda yangi qudratli davlatlarning paydo bo`lishi va ularning muqobil markazlarga aylanish jarayoni.

XXI asr boshlariga kelib jahonda yangi qudratli davlatlarning paydo bo`lishi va ularning muqobil markazlarga aylanish jarayoni ko`zga tashlanib qoldi. Bu davlatlar ta'sirining oshirishda ularning iqtisodiy imkoniyatlarini o`srishi asosiy omil bo`ldi. Hindiston, Pokiston va Shimoliy Koreyaning yadro quroliga ega bo`lishi bu davlatlarning xalqaro munosabatlarda mustaqilligini oshirdi. Eron ham o`z rolini oshirishga intilib, boshlagan yadroviy dasturi jahon jamoatchiligini qattiq tashvishga soldi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 19-sentabrda BMTning 72-sessiyasida so`zlagan nutqi ko`p qutbli dunyo shakllanishi va globallashtirish jarayonida O`zbekistonning o`rnini belgilab berishga qaratildi. Uning Markaziy Osiyoni tinch va gullab-yashnayotgan hududga aylantirish, Orol muammosini hal qilishda umumjahon ishtiroki, Afg`onistonda tinchlik o`rnatish va butun dunyo yoshlarini terrorchilik xavfidan asrab qolish zarurligi haqidagi takliflari jahon jamoatchiligi tomonidan qiziqish bilan kutib olindi. Dunyo shiddat bilan o`zgarib bormoqda. Jahonda yangi paydo bo`lgan qudratli mamlakatlar 2008 — 2009-yillardagi jahon moliyaviy inqirozi YI va AQSHga jiddiy ta'sir ko`rsatganidan foydalanib, jahon iqtisodiyotida kuchlar nisbatini o`zgartirishga intilmoqdalar. Ayni paytda jahon iqtisodiyotining boshqaruvchanligini oshirish maqsadida G`arb davlatlarining rivojlanayotgan mamlakatlar bilan yaqinlashuvi yuz bermoqda. Shu maqsadda jahonning 20 ta iqtisodiy eng yirik mamlakatlari vakillarini birlashtirgan «Katta yigirmalik» — G-20 klubi tashkil qilindi. G-20 mamlakatlari jahon iqtisodiyotiga jiddiy ta'sir ko`rsatish imkoniyatiga ega. Zero, jahon YIM ining 80%i shu mamlakatlar

hissasiga to'g'ri keladi, Yer yuzi aholisining 2/3 qismi shu mamlakatlarda istiqomat qiladi.

Xalqaro moliya tizimiga tegishli bo'lgan savollar bo'yicha va hamkorlik uchun asosiy forumlardan hisoblanadi. 2008-yilga qadar G20 biron bir oliy maqomda sammitlar o'tkazmagan va sammitning asosiy faoliyat tartibi har yili moliya vazirlari va markaziy bank raislarining oliy maqomda uchrashuvlar o'tkazishi shular qatoriga kiritilgan. 90-nchi yillarda ro'y bergan Moliyaviy inqirozga javoban tashkil etilgan. Ilk konferensiya 1999-yilning 15-16-dekabrlarida Berlinda bo'lib o'tgan. Yigirmatalik guruh— rivojlanayotgan mamlakatlar bilan iqtisodiy va moliyaviy siyosat savollar borasida dialog yuritish uchun — sanoat borasida rivojlangan yetti mamlakatlar — Birlashgan Qirollik, Italiya, Kanada, AQSh, Olmoniya, Fransiya va Yaponiya kabi mamlakatlarning moliya vazirlari taklifiga binoan joriy etilgan.

G20 mamlakatlari			
1	 Avstraliya	11	 Xitoy
2	 Argentina	12	 Meksika
3	 Braziliya	13	 Rossiya
4	 Birlashgan Qirollik	14	 Saudiya Arabistoni
5	 Germaniya	15	 AQSh
6	 Yevropa ittifoqi (YI)	16	 Turkiya
7	 Hindiston	17	 Fransiya
8	 Indoneziya	18	 Koreya Respublikasi
9	 Italiya	19	 Janubiy Afrika Respublikasi
10	 Kanada	20	 Yaponiya

Iqtisodiy hamkorlik va integratsiyaning ko'chayishiga qaramasdan, jahon hamjamiyati oldida hal qilinishi lozim bo'lgan bir qator muammolar turibdi. Ular, avvalo, Yaqin Sharq (Iroq, Falastin, Suriya), Shimoliy Koreya, Ukraina va Afrikadagi mojarolar bilan bog'liq. Bu muammolarni hal qilishga

G 'arb mamlakatlari, Rossiya va Xitoyning turlicha yondashuvi ular o'rtasidagi munosabatlarni murakkablashtirmoqda.

Ikki yetakchi yadroviy davlat — AQSH va Rossiya o'rtasidagi murakkab munosabat jahon jamoatchiligi oldida turgan bir qator dolzarb muammolarni hal qilishga xalaqit bermoqda. Shunday muammolar ichida eng xavflisi xalqaro terrorizmdir. U hozir global jahon sivilizatsiyasining shakllanish jarayoni o'z yakuniy pallasiga o'tayotgan davrda yangi sifat kasb etdi va jahon siyosatida katta muammoga aylandi.

Xalqaro munosabatlardagi o'zgarishlar XXI asrda xalqaro xavfsizlik va hamkorlikka asoslangan yangi dunyo tartibini o'rnatish g'oyasining ilgari surilishiga olib keldi. Ammo bu vazifani amalga oshirish jahon mamlakatlari, birinchi o'rinda, yetakchi davlatlar o'rtasida hamkorlikni talab qiladi.

«Sovuq urush» yakunlangandan so'ng xalqaro munosabatlarda, avvalo AQSH va Rossiya o'rtasida vujudga kelgan hamkorlik holati 2014-yilgacha davom etdi. Shu yili Ukrainada boshlangan siyosiy inqiroz Rossiya va G 'arb davlatlari o'rtasidagi jiddiy qarama-qarshilikning yangi bosqichiga olib keldi.

Hindiston tashqi siyosati bir nechta muhim yo'nalishlarda olib boriladi, ulardan biri uchta o'ta yirik davlatlar - Hindiston, Rossiya va Xitoyning o'zaro aloqalari bilan bog'liq bo'lmoqda. Xususan, gap Rossiya-Hindiston-Xitoyning "strategik uchburchagi" haqida ketmoqda. Jahon siyosatining ushbu sohasida doimiy ravishda juda qiziqarli voqealar bo'lib turadi. Rossiya va Hindistonning ikki tomonlama munosabatlarni avvalgi rivojlanish yo'liga qaytarish, vujudga kelgan muammolarni yengib o'tish qobiliyatini baholash o'rinli ko'rinadi. Ko'pgina mutaxassislarining ta'kidlashicha, vaqti-vaqti bilan munosabatlarda yuzaga keladigan "ishqalanish" hind harbiy muassasalarining Rossiya harbiy texnikasi sifatiga nisbatan noroziligi sabab yuzaga kelib turadi.

Xitoy-Hindiston munosabatlarida muammolar kam emas. Ularning tarixiy kelib chiqishi ikki tomonlama munosabatlarning hozirgi holatiga ham ta'sir qiladi. Pekin Hindistonning 1998 yildagi yadroviy sinovi Xitoyning faraziy yadro tahdidiga javob ekanligini unutmagan. Bundan tashqari, har ikki tomonda ham bir-

birlarining niyatlari to'g'risida jiddiy shubhalar saqlanib qolmoqda. Hindistonga Xitoyning Pokiston bilan yaqin ittifoqdosh aloqalari yoqmaydi. G'adar strategik portini modernizatsiya qilish Myanma va Bangladeshning Chittagong bilan birgalikda energiya yetkazib berishini samarali nazorat qilishning potentsial imkoniyatini yaratdi. Hindiston uchun Fors ko'rfazi Xitoyi "o'rab olish" strategik rejasining bir qismiga aylanmoqda. Bundan tashqari, AQSh Hindistonga nisbatan Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi Xitoyga qarshi strategik muvozanatga ega kuch deb qaraydi.

O'z navbatida, Xitoy 2006-yil noyabr oyida Hindistonga yadro energetikasi sohasida ikki tomonlama hamkorlikni taklif qildi. Siyosatshunoslar Dehli ham, Pekin ham ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirishga amaliy yondoshishini ta'kidlaydilar. O'zaro savdo aylanmasining yillik o'sishi 30 foizni tashkil etgan holda Xitoy allaqachon Hindistonning eng yirik tashqi savdo sherigiga aylandi va bu borada Qo'shma Shtatlarni birinchi o'rindan siqib chiqardi. Dunyoning eng ko'p aholi yashaydigan ikki mamlakati o'rtasidagi tashqi iqtisodiy aloqalarning tez sur'atlarda o'sib borishi bo'yicha ba'zi ekspertlar Pekinning ongli siyosati, xususan, Hindiston shimoliy-sharqidagi kam rivojlangan va geografik jihatdan ajralib qolgan shtatlarni Tibet va Xitoyning boshqa janubiy mintaqalari bozorlari bilan chambarchas bog'lashni maqsad qilib olgan deb bilishadi.

Xitoy-Hindiston munosabatlarning tarixiy dinamikasi Rossiyaga uning kelajakdagi faoliyati paradigmasini aniq ko'rsatib beradi. Birinchidan, majburiy iqtisodiy tiklanish mamlakatga tashqi siyosatdagi "yumshoq kuch" dan faol foydalanishga imkon beradi va shu bilan G'arbga nisbatan "pastlik majmuasi" dan butunlay xalos bo'ladi. Ikkinchidan, sanoat asosidagi iqtisodiy o'sish "uchburchak" doirasidagi o'zaro aloqalarni tabiiy holga keltiradi va mamlakat uchun Sibir va Uzoq Sharqni rivojlantirishdek strategik maqsadiga erishishni osonlashtiradi. Uchinchidan, uch mamlakatning gorizontol o'zaro ta'siri "xilma-xillikda birlik" asosida jahon tizimida yangi tuzilishning prototipi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bunday imkoniyatda "uchburchak" tiklanishi va uning strategik ahamiyati oshishi mumkin.

Dunyoning ikki yirik davlatlari – Xitoy va Hindiston o‘rtasidagi munosabatlar hamkorlik va raqobat elementlarining murakkab ko‘rinishi bilan ajralib turadi. Bunday murakkablik ularning geosiyosiy o‘zaro ta‘sirining tarixiy xususiyatlarini, shuningdek, ushbu yirik davlatlarning jahon iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlaridagi pozitsiyasining o‘ziga xos ko‘rinishlarini aks ettiradi. Aytish mumkinki, o‘tmishdagi tarixiy davrlardan meros bo‘lib qolgan xurofotlar hanuzgacha ikki tomonlama munosabatlarning sotsiopsixologik asoslariga ta‘sir qiladi va o‘zaro shubha va ishonchsizlik elementlarini saqlab qoladi. Shunga qaramay, Xitoy va Hindiston o‘rtasidagi munosabatlar izchil rivojlanib bormoqda va ularning hozirgi rahbarlari Xu Szintao va Manmoxan Sinx tomonidan yaratilgan o‘tmishni yengish uchun siyosiy iroda ko‘rsatishmoqda. Ikki davlat siyosatchilari ham o‘z mamlakatlarini buyuk qit‘a kuchlari ekanligi va dunyo siyosatida o‘ziga xos muhim o‘zgaruvchan davrlarni bosib o‘tayotganlari haqidagi tushunchadan kelib chiqmoqdalar. Shuningdek, endi ular “dengizlar bekalari” (avval Angliya, keyin AQSh) asta-sekin o‘z o‘rinlarini Xitoy va Hindistondek “qit‘a gigantlari” ga bo‘shatib berishayotgani haqida ta‘kidlashmoqda. Kelishuvning ikkinchi muhim jihati zamonaviy geosiyosatning eng muhim elementlari sifatida iqtisodiyot va tashqi iqtisodiy aloqalarning rolini umumiy tushunish bilan bog‘liq. Hindiston matbuotining yozishicha, kelajakda ikki mamlakat o‘rtasidagi tovar ayirboshlash hajmini 225 milliard dollarga yetkazish rejalashtirilgan. Garchi bu raqam mubolag‘a bo‘lib ko‘rinsa-da, ikki mamlakat rahbarlarining maqsadi juda aniq: sanoatni modernizatsiyalashni maksimal darajada oshirish (shu jumladan, uning ilmiy-texnik klasterini ham), Hindiston va Xitoyda munosabatlar rivojidan manfaatdor nufuzli kuchlarni shakllantirish hamda ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirishdir.

Biroq, Xitoy-Hindiston munosabatlarida bir qator muammolar mavjud, ularni hal qilish istiqbollari esa hali jumboqligicha qolmoqda. Ba‘zi xitoylik va xalqaro ekspertlarning fikricha, hal qilinmagan hududiy muammolar XXR uchun foydalidir, chunki Pekin ishonganidek, vaqt Xitoy uchun ishlaydi. Taxminan 2008 yildan buyon Xitoy va Hindiston munosabatlarida mintaqaviy va qisman global

darajadagi raqobatni ko'chaytirish muammosi birinchi o'ringa chiqdi. Janubiy Osiyoda va Hind okeanida xavfsizlik masalalariga yondashuvlardagi farqlar chuqurlashib bordi, bu esa "strategik ishonchning yo'qligi" ni namoyon qildi. Xitoylik mutaxassislarni xavotirga soladigan narsa bu – Xitoy o'zining tarixiy ta'sir doirasi deb hisoblagan ba'zi hududlarda Hindistonning faolligidir.

Ba'zi ekspertlar Xitoyga bu hududlarda Hindistonning "chaqirig'iga" javoban Pokiston bilan aloqalarni yanada ko'chaytirishni va Hindiston bilan murakkab munosabatlarni rivojlantirgan Bangladesh va Nepal kabi davlatlar bilan hamkorliklarni yanada jadal rivojlantirishni taklif qilishmoqda. Bir qator xitoylik mutaxassislar hind-amerika munosabatlarning yaxshilanishi fonida harbiy sohada AQSh bilan aloqalarning ko'chayganidan xavotirda. Ularning fikricha, AQSh Pekinda Hindiston bilan yadroviy kelishuvini "muzdan eritish" to'g'risidagi qarori bilan Osiyo-Tinch okeani mintaqasida geosiyosiy mavqega ega Xitoyga qarshi o'zining "hind qanotini" ko'chaytirish strategik maqsadini ko'zlaydi. Xitoy-Hindiston savdo-iqtisodiy aloqalarini muvaffaqiyatli rivojlantirishda muammolar ko'lami keng (Hindistondan Xitoyga eksport asosan tovarlarga, Xitoydan import asosan tayyor mahsulotga to'g'ri keladi).

Jumladan, Xitoy-Hindiston munosabatlarida energiya resurslari uchun raqobat tobora murakkab muammoga aylanib bormoqda. Xitoy va Hindiston neft importiga bo'lgan keskin ehtiyojni his qilgan holda Markaziy Osiyo (Qozog'iston), Lotin Amerikasi, Angola, Nigeriya hamda Myanmada uglevodorodlarga kirish uchun raqobatga kirishishgan. Hozirga qadar Xitoy bundan foyda ko'rib keldi, yuqori narxni taklif qildi va oluvchi mamlakatlar infratuzilmasiga sarmoya kiritdi. Shubhasiz, uzoq muddatli (va, ehtimol, o'rta muddatli) istiqbolda, avvalambor mintaqaviy darajada, Xitoy Hindistonni o'zining strategik raqibi deb bilishi mumkin. Biroq, hozirgi paytda Pekin Dehli bilan mamlakatning ichki rivojlanishi va uning "yaqin" va "uzoq" tashqi siyosat ustuvorliklari bilan bog'liq holda me'yoriy va barqaror munosabatlarni saqlashdan manfaatdor.

Uzoq vaqt davomida Rossiya va Hindiston o'z sabablariga ko'ra - "bir qutbli", ya'ni, monopolyar "Amerika dunyosi" farovonligi illuziyasi bilan o'zlarini

xursand qilishdi. Ikkala mamlakatning elitalari Washington tomonidan oʻrnatilgan qoidalar boʻyicha jahon siyosatida rol oʻnashga tayyor edilar. Biroq, kutilmagan global iqtisodiy inqiroz bir qutbli dunyo siyosiy iqtisodining xavfli ekanligini koʻrsatdi va koʻpchilikni, shu jumladan Moskva va Dehlini koʻproq tashabbus va jasorat koʻrsatishga majbur qildi. Rossiya-Hindiston sammiti uchrashuvlari, shubhasiz, nafaqat aloqalarni yangi bosqichga koʻtardi, balki Dehli va Moskvani geosiyosiy paradigmani oʻzgartirishga, ammo yangi sharoitlarda va yangi mazmunli tarkibga qaytishga undadi.

Endi yangi rus-hind "Antantasi" uchun sharoit yanada qulayroq, Rossiyaga na Amerika, na Xitoy bilan janjallashish kerak emas, shunchaki aniq siyosiy irodaga tayanib, oʻzining strategik manfaatlarini himoya qiladi. Mening fikrimcha, ushbu yangi rus-hind tushunchasi Xitoy ishtirokida uch tomonlama formatda faol muloqot bilan toʻldirilishi kerak. Shunda hind-xitoy tushunchasi ham, koʻp qutbli dunyo tushunchasi ham hayotiy asoslarga ega boʻladi. Xalqaro jurnalistikada va "soxta ilmiy" doiralarda Hindiston va Xitoyni koʻpincha "Fil" va "Ajdaho" deb atashadi, ehtimol ularning anʼanaviy ijtimoiy-madaniy obrazlari-ramzlari haqida taʼkidlashga urinadilar. Boshqa tomondan, iqtisodchilar ikkita oʻta yirik mamlakatlarni jahon rivojlanishining potentsial "lokomotivlari" sifatida koʻrib chiqadilar. Taniqli britaniyalik moliyaviy tahlilchi Anatole Kalechki jahon iqtisodiyotining barqaror koʻtarilishi (nafaqat uning tiklanishi va oʻsishi) bevosita oʻta katta va yirik mamlakatlar - Xitoy va Hindiston, shuningdek, Rossiya, Braziliya, Indoneziya, Misr, Janubiy Afrika va boshqalarning hayotiy kuchiga bogʻliq, deb hisoblaydi. Bu taʼkidlov oxir-oqibat, dunyo hamjamiyati "yangi nufuzli davlatlari" hukmron doiralarining imkoniyatlarini samarali ravishda kengaytirish va oshirish qobiliyatiga qarab oʻz tasdigʻini topadi. Ular oʻz ichki bozorlarini rivojlantirish va aholi talablarining samarali qondirilishiga erishish uchun qatʼiy intiladilar.

Shunday qilib, Xitoy-Hindiston munosabatlaridagi muhim yoʻnalish tomonlarning trans-mintaqaviy, mintaqaviy va submintaqaviy hamkorlik jarayonidagi ishtirokini ijobiy baholash bilan Osiyoda koʻp tomonlama hamkorlik

mexanizmini qo‘lga kiritishga intilISHIDir. Shuningdek, Sharqiy Osiyo sammiti, Osiyo-Yevropa forumi, ShHT, Xitoy-Rossiya-Hindiston hamkorlik mexanizmi va Janubiy Osiyo mintaqaviy hamkorlik uyushmasi (SAARC) doirasida hamkorlikni kengaytirish ham ustuvor maqsadlardan biriga aylangan. Xitoylik mutaxassislar va tahlilchilarning Xitoy-Hindiston munosabatlari to‘g‘risida yozgan bayonotlarida paydo bo‘layotgan tendensiyalarga kelsak, quyidagilarni ta’kidlash mumkin. Birinchidan, endi ochiq nashrlar va matbuotda 2008-2009 yillarga qaraganda Hindiston siyosatini tanqid qilish sezilarli darajada kamaydi.

Pekin Xitoy-Hindiston-AQSh uchburchagi ichidagi munosabatlarning barcha murakkabliklarini yaxshi tushunadi. Shu sababli, Xitoy 2006-yil noyabr oyida Prezident Xu Tszintaoning so‘zlari bilan Hindistonga yadro energetikasida ikki tomonlama hamkorlikni yanada yaqinlashtirishni taklif qildi.

Xitoy-Hindiston munosabatlarining tarixiy dinamikasi Rossiyaga uning kelajakdagi faoliyati paradigmasini aniq ko‘rsatib beradi. **Birinchidan**, majburiy iqtisodiy tiklanish mamlakatga tashqi siyosatdagi "yumshoq kuch" omillaridan faol foydalanishga imkon beradi va shu bilan G‘arbgga nisbatan "pastlik tushunchasi" dan butunlay xalos bo‘ladi. **Ikkinchidan**, sanoat asosida iqtisodiy o‘sish "uchburchak" ichidagi o‘zaro aloqalarni tabiiy holga keltiradi va mamlakat uchun Sibir va Uzoq Sharqni jadal rivojlantirish strategik maqsadiga erishishni osonlashtiradi. **Uchinchidan**, uch mamlakatning gorizonttal o‘zaro ta’siri "xilma-xillikda birlik" asosida jahon tizimining yangi tuzilishining prototipi bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Hozirgi AQSh Hindiston munosabatlari o‘tmish bilan taqqoslaganda ikkita yangi "fundamental" elementga ega bo‘ldi. Birinchisi, Qo‘shma Shtatlar endi Hindiston bilan munosabatlarini AQSh-Hindiston-Pokiston uchburchagining bir qismi deb hisoblamaydi. Boshqacha qilib aytganda, amerikaliklar har ikki mamlakat bilan o‘zaro munosabatlarni afzal ko‘rishadi. Shubhasiz, o‘zlarini Kashmir muammosidan uzoqlashish ularga Janubiy Osiyo diplomatik harakatlaridagi "teatr" da o‘zlarini erkin his qilishlariga yordam beradi (ammo Pokiston, shu jumladan ichki siyosiy sabablarga ko‘ra Kashmir Hindiston bilan

ikki tomonlama munosabatlarning muammosi ekanligiga qo'shilishga tayyor emas). Ikkinchisi, endi Hindiston ham, Pokiston ham Vashington tomonidan Yevrosiyoning "qimmatli strategik aktyorlari" sifatida ko'rilmoqda. Ya'ni, Hindiston - Osiyodagi kuchlarning umumiy muvozanatiga ta'sir ko'rsatadigan davlat sifatida, Pokiston - Janubiy va Markaziy Osiyo va Yaqin Sharqni bog'laydigan yo'llar kesishgan hudud sifatida qabul qilina boshlandi.

Amerika strategiyasining istiqbolli maqsadi Markaziy Osiyodan janubga, ya'ni Xitoydan uzoqroqqa yo'naltirilgan neft va gaz oqimlariga yetib borishdir. AQShning Hindistonga nisbatan yangi yondashuvi uchta uzoq muddatli asoslarga tayanadi. Birinchidan, amalda AQSh Hindistonni "yadro qurolining mas'ul egasi" deb tan oladi. Ikkinchidan, Hindiston mudofaasini mustahkamlash quyidagi sabablarga ko'ra AQShning uzoq muddatli manfaatlariga javob beradi: 1) Xitoyni muvozanatlashtirish, bu AQSh va Hindiston o'rtasidagi majburiy harbiy-siyosiy ittifoqni nazarda tutmaydi; 2) Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida xavfsizlik rejimini ko'chaytirish, shu jumladan, Uzoq Sharqqa energiya yetkazib berish uchun dengiz yo'llari himoya qilinadi (ushbu funktsiya samaradorligi AQSh-Hindiston qo'shma harbiy manevrlarida sinovdan o'tkaziladi). Uchinchidan, Hindiston-Pokiston munosabatlarining mustahkamlanishi AQShning Osiyodagi uzoq muddatli geosiyosiy manfaatlariga javob beradi.

Biroq, Qo'shma Shtatlar Osiyo siyosatining ushbu yo'nalishida allaqachon muayyan qiyinchiliklarga duch kelgan. Pokiston Hindistonga (o'z hududi orqali) Afg'oniston va Markaziy Osiyoga kirishni har jihatdan cheklaydi. Hozirda Hindiston o'z tovarlarini aylanma yo'l, ya'ni Eron orqali olib o'tishga majbur. Bundan tashqari, Kashmir muammosi bo'yicha real yutuqlarga erishib bo'lmayapti va pokistonlik islomchilar tomonidan Islomobodagi fuqarolik hukumatiga bosim ko'chaymoqda. Janubiy Osiyoda AQSh-Hindiston munosabatlarining yangi modelini o'rnatishdagi mavjud muammolarni quyidagicha ifodalash mumkin: sezilarli darajada rivojlangan AQSh-Hindiston strategik sheriklik munosabatlari AQShning Islomobodga ta'sir o'tkazish imkoniyatlarini cheklaydi. Katta ehtimol bilan Pokiston rasmiylari Vashingtonning strategik jihatdan yangi hamkori bo'lgan

Hindiston bilan mintaqaviy "tortishuvlarda" xolis vositachi bo'lish qobiliyatiga shubha bilan qarashadi. Endi esa, hind-amerika aloqalarida Hindiston ayniqsa atom energetikasini rivojlantirishga nisbatan hushyorlikni oshiradi. Hindistonda barqaror nuqtai nazar mavjud bo'lib, unga ko'ra ushbu mamlakat strateg elitalari yadro qurolini nafaqat faraziy tajovuzni to'xtatish vositasi, balki "zamonaviylik" ning ramzi sifatida ham ko'rib chiqmoqdalar.

Shuningdek, bu bilan o'zlarini politsentrik dunyo tartibida "kuchning oltinchi qutbi" (qolgan markazlar AQSh, G'arbiy Yevropa, Yaponiya, Rossiya, Xitoy) sifatida texnologik mukammallikka ega deb hisoblamoqdalar. Va nihoyat, Hindistonning "yadroviy tanlovi" chapda ham, o'ngda ham, markazchilar ishonganidek, AQSh agressiv ravishda tatbiq etayotgan "tarqatmaslik dasturini" o'zgartirishga qodir. Shuni ham esga olish kerakki, Hindistonning yadro qurolini ishlab chiqarish sohasidagi hozirgi siyosati ancha vaqtdan beri aholining 95% dan ortig'i tomonidan qo'llab-quvvatlanib kelinmoqda. Aynan shu nuqtai nazardan Hindistonning siyosiy qiyofasi Amerika bilan munosabatlarda ko'rib chiqilmoqda. Hindiston mutaxassislari uchinchi ming yillikning boshlarida intellektual jihatdan Qo'shma Shtatlarning "tengdoshlar orasida birinchi" maqomini tan olishga tayyor edi.

Shuningdek, Si Tszinpinning "Bir kamar, bir yo'l" sxemasining eng ko'zga ko'ringan va geosiyosiy jihatdan muhim loyihasi bo'lgan Xitoy-Pokiston iqtisodiy yo'lagi (CPEC) Pokiston Xitoyning Osiyo strategiyasida hal qiluvchi rol o'ynashi to'g'risida aniq ko'rsatib turibdi. Pokistonning 2016-yil o'rtalaridan boshlab (Kashmir, Uri, Kanpur) harakatlarini ko'rib, uning Hindistonga nisbatan salbiy munosabati va mamlakatni zaiflashtirishga bo'lgan qat'iyatining yo'qolishi ehtimoldan yiroq, deb aytish mumkin. Shunday qilib, Xitoy-Pokiston aloqasining buzilishi va Pokiston imkon qadar xalqaro miqyosda izolyatsiya qilinishi Hindiston milliy xavfsizligi uchun juda muhimdir.

XXI asr boshida Lotin Amerikasi davlatlarining xalqaro ta'siri. XXI asr boshlarida Lotin Amerikasi mamlakatlarida integratsiyalashuv jarayonlari ko'chaydi. Bu jarayonlarning asosiy yo'nalishi mintaqaviy erkin savdo

zonalarini tuzish bo'ldi. Kelajakda Shimoliy va Janubiy Amerika miqyosidagi erkin savdo zonalarini tuzish, savdo va sanoatini rivojlantirish mo'ljallangan.

Ammo yirik rjalar va katta imkoniyatlarga qaramasdan, bu mamlakatlar, hatto Braziliya va Meksika kabi gigantlar ham bugun global siyosiy va iqtisodiy muammolarni hal etish jarayonida arzigulik ta'sirga ega emas. 2008-yildan mintaqadagi eng yirik uchta davlat — Braziliya, Meksika va Argentina G-20 («Katta yigirmalik») obro'li klubiga a'zo bo'lsa-da, jahon siyosatida hali katta rol o'ynamaydi. Shunga qaramasdan, bu davlatlar katta istiqbolli imkoniyatlarga ega. Masalan, Meksika 1994-yili Shimoliy Amerika erkin savdo zonasiga kirdi va 1994 — 2010-yillari Meksikaga kiritilgan chet el investitsiyalari miqdori to'rt marta o'sdi. Shuning 75 % i AQSH ulushiga to'g'ri keladi. Agar yaqin o'tmishda eksportning asosini neft tashkil qilgan bo'lsa, hozir Meksika eksportining 80 % ini sanoat mahsulotlari tashkil qiladi.

Braziliya bugun dunyoning yirik iqtisodiyotlaridan biri, jadal rivojlanayotgan Xitoy, Hindiston, Janubiy Afrika Respublikasi va Rossiya bilan birgalikda BRIKS tashkilotining a'zosi hisoblanadi. Braziliya XXI asrda Lotin Amerikasining tan olingan yetakchisiga aylanish, AQSHning doimiy ta'siridan butunlay qutulish va BMT XKning doimiy a'zolaridan biri bo'lish kabi olamshumul vazifalarni qo'yib, shunga intilmoqda.

Aytish lozimki, Lotin Amerikasi mamlakatlari XX asrda o'z oldilariga qo'ygan murakkab muammolarni to'liq hal qila olmadi, ammo buning yo'llarini qidirishda davom etmoqda. XXI asrda bu muammolar o'z yechimini qanday topishini hayot ko'rsatadi.

15.3. AQSh va Buyuk-Britaniya koalision kuchlarning Iroqqa hujumi.

2002-yil 29-yanvar AQSh prezidenti Jorj Bush Iroq, Eron va Shimoliy Koreyani "Yovuzlik chizig'i" deya ataydi. Bu kabi chaqiriqlar AQShning tashqi siyosatida ko'p marotaba ishlatilgan. Amerika xalqi demokratik prinsiplarni o'ziga asos qilib olgani tufayli, AQSh hukumati ommaning noroziligisiz tashqi siyosatda erkin ravishda yondasha olmaydi va geopolitik maqsadlarni ro'yobga chiqarishi qiyin kechadi. Shuning uchun ham omma fikrini geopolitik maqsadlar bilan bir

maromda yo'naltirish uchun, AQSh hukumati ko'pincha "yahshi" va "yomon" terminlarini ko'p ishlatadi. Unga ko'ra AQSh hukumati doim "yahshi" pozitsiyada bo'ladi, unga qarshi kuchlar, tajovuz qiluvchilar yoki "o'ljalar" barchasi "yovuz" kuch sifatida e'tirof etiladi.

80-yillarda Ronald Reyganning Sovet Ittifoqini "yovuz mamlakat" deb atashi ham bunga yaqqol misol bo'ladi. Bu siyosatga ko'ra AQSh o'zini dunyoga sivilizatsiya va demokratiyani yoyuvchi "yahshi" kuch sifatida ko'rsatadi va bu vazifa "Ilohiy missiya" deb ham qaraladi. Bu kabi dunyoqarash AQShning XIX asrdagi g'arbiy hududlarini zamonaviylashtirishidan meros bo'lib, hozirgi kunda AQShning dunyoda o'z gegemoniyasini yoyishda ko'p ishlatiladi.

Jorj Bushning bu kabi e'lonidan so'ng Iroq AQShni navbatdagi o'ljasi ekanligi yaqqol namoyon bo'ldi. 11-sentyabr voqealaridan foydalangan holatda AQSh barcha ittifoqchilarini "Terrorizmga qarshi urush"ga chorladi. Afg'oniston masalasida ajralishlar yuz bermadi. Deyarli barcha G'arb mamlakatlari ozmi-ko'pmi o'z imkoniyatlari darajasida intervensiyani qo'llab quvvatladilar. Bunday birlikdan foydalangan AQSh Iroq uchun ham shunday natijani ko'tgan edi. Lekin tezda nafaqat xalqaro hamjamiyatda, balki ittifoqchilar orasida ham bo'linish yuz berdi. Kutilmaganda Fransiya prezidenti Jak Shirak o'z nutqida "Iroqqa nisbatan kuch ishlatish faqat va faqat eng og'ir oqibatlariga olib kelishi muqarrar" ekanligini ta'kidlaydi. Nemis kantsleri Gerhard Shroyeder ham o'zining bu intervensiyaga ittifoqdosh bo'la olmasligini bildiradi. Rossiya va Xitoy ham fransuz-nemis qarorlarini qo'llab quvvatlaydilar.

Iroqqa bir nechta bor BMTning Yadro dasturi bo'yicha mutahassislarning jo'natilishi, Saddam Husaynning Quvayt xalqidan 90-yillardagi urush uchun kechirim so'rashi va Bog'dodning "Neft evaziga Oziq-Ovqat" dasturini (unga ko'ra Iroq Neft mahsulotlarini faqatgina aholini kundalik oziq-ovqat mahsulotlarini ta'minlash uchun sotishi kerak, ya'ni juda cheklangan tarzda) yo'lga qo'yishi ham AQSh va Buyuk Britaniya hukumatlarini qoniqtirmaydi. Iroqdagi ommaviy qirg'in qurollarini mavjudligini isbotlashga yetarli dalil bo'lmasa ham intervensiya qilish siyosati ushlab turiladi.


Masalaga stretegik jihatdan yondashsak. AQSh va Buyuk Britaniya uchun Iroq urushi neft bahosining jahon bozorida muvozanatdan chiqishiga olib kelishi va aynqisa Xitoyning bu regiondan uzoqlashishiga olib kelishi lozim edi. Iroqni G'arb kuchlari tomonidan egallanishi Eron va Suriyaga katta zarba bo'lishi kerak edi. Bundan tashqari Iroqqa G'arb qo'shinlarini kiritilishi uni Fors ko'rfazi mamlakatlari ustidan nazoratni ko'chaytirishga va regiondagi boshqa raqobatchi kuchlarni chekinishiga majbur qilishi ham ko'zda tutilgan edi. Lekin interventsiya kutilgan natijalarni bermadi. Aksincha, AQShning ham moddiy, ham ma'naviy va ham harbiy jihatdan kuchsizlanishiga olib keldi.

Urush oqibatlari. Moddiy jihatdan AQSh tarixidagi eng qimmat urush sifatida Iroq urushi qolishi shubhasiz. 2003-2008 yillarda AQSh hukumati umumiy miqdorda 3000 milliard AQSh dollari mablag'ni ushbu urushga sarflagan. Bundan tashqari minglab yuqori darajadagi harbiy texnologiyalar va kuchli tayyorgarlikdan o'tgan 5000ga yaqin askarning yo'qotilishi armiyaning moddiy va ruhiy kuchiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Strategik jihatdan: Regionda umumiy tartibsizlik yuzaga keldi. Eron bilan munosabatlar umuman yomonlashdi. Iroqda yangi o'rnatilgan hukumat asosan Shia mazhabidagi kishilardan tashkil topgan bo'lib, Iroqning Eron bilan ko'zga ko'rinarli yaqinlashishi sezildi. AQSh ittifoqchilari orasida anti-amerikanizm ko'chaydi, jumladan Fransiya va Germaniya o'zlarining geopolitik kuchlarini va Yevropani AQShdan mustaqillashtirishga sarflay boshladilar, Turkiya dastavvaldan urushga qarshi edi, buni ustiga Iroq hukumatiga Kurdlarning AQSh hukumati tomonidan tayinlanishi oqibatida, Turk hukumati ittifoqchi mamlakatdan ochiqdan-ochiq dushman kayfiyatidagi mamlakatga aylandi. Fors ko'rfazi mamlakatlari Iroqdagi interventsiyadan so'ng AQShga nisbatan ehtiyotkorlik bilan munosabat bildira boshladilar. Iroqdagi vayronagarchiliklar va tartibsizliklardan foydalangan bir qancha arab shayxlari radikal-islomiy kuchlarga moliyaviy yordamlarni ko'paytirdilar. Butun dunyoda Anti-G'arblik kayfiyati yanada ko'chaydi. Dunyoda neft bahosi ko'zga ko'rinarli darajada qimmatladi.

Ruhy zarar AQShning o‘z ichida sodir bo‘ldi. Jorj Bush AQSh prezidentligidagi eng yomon va no‘noq prezidentlar qatoriga kiritildi. Halok bo‘lgan askarlar oilalarining iqtisodiy og‘ir ahvoli keng miqyosda ommaviy axborot vositalari orqali yoritilishi, buning ustiga iqtisodiy krizisning kirib kelishi bilan, Amerika patriotizmiga sezilarli darajada putur yetdi.

Yuqoridagilar albatta Iroq urushi AQSh uchun sezilarli darajada salbiy oqibatlar keltirganini ko‘rsatadi, lekin, Iroq uchun bu urush tasavvur qilib bo‘lmas salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi.



Iroq okkupatsion zonalari (2003)

Eng asosiy yo‘qotish Iroq uchun birinchi navbatda demografik yo‘qotishdir. AQSh intervensiyasidan 2012 yilgacha bo‘lgan davrda 170 ming tinch aholi o‘ldirilgan, 250 mingdan ortiq kishi yaralangan, shulardan asosiy qismi 1-guruh nogironiga aylanganlar. 2,5 million qochoqlar Iroqni tark etishgan, shulardan 1 millioni Suriyaga chekinadilar. Oxirgi yillarda qochoqlarning vatanga qaytishi

kuzatilayotgan bo'lsada ularning soni 10 ming kishidan oshmaydi, bu ham bo'lsa Suriyadagi fuqarolar urushidan panoh izlayotgan aholidir.

	2003	2004	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2011	2012	2013
Jan	3	601	1188	1543	2948	844	366	263	389	524	357
Feb	2	660	1266	1569	2607	1049	402	304	252	356	358
Mar	3977	1001	871	1940	2682	1623	426	336	311	377	394
Apr	3436	1304	1119	1769	2495	1270	565	385	289	392	544
May	545	656	1336	2250	2809	881	387	387	381	304	294
Jun	598	900	1299	2553	2180	747	498	385	386	529	
Jul	647	818	1528	3279	2671	623	407	443	308	469	
Aug	794	868	2266	2833	2457	627	615	516	401	422	
Sep	560	1031	1415	2548	1360	584	332	254	397	396	
Oct	518	1011	1298	2965	1286	575	435	312	366	290	
Nov	486	1653	1465	3037	1095	521	226	307	279	240	
Dec	527	1105	1135	2885	982	576	475	217	388	275	
	12,093	11,608	16,186	29,171	25,572	9,920	5,134	4,109	4,147	4,574	1,947

Iroqdagi tinch aholi orasidagi qurbonlar sonining oylar bo'yicha jadvali

Siyosiy jihatdan mamlakatda parokandalik vujudga keldi. Mamlakat siyosiy tarixi va o'zligining negizi bo'lgan Baas partiyasi butunligicha tugatildi. Saddam Husaynning qatl qilinishi va to'g'ridan-to'g'ri qatl videolavhasini efir orqali ommaga uzatilishi, aholi orasida Saddam tarafdorlarining radikallasishiga olib keldi. Mamlakatda Shialar, Kurdlar va Sunniylar orasida natijasiz raqobat va janglar boshlanib ketdi. AQSh hukumati bu uchta to'plamdagi aholi orasidagi raqobat va kelishmovchiliklardan foydalangan holda mamlakatda siyosiy muvozanatni ushlab turishni mo'ljallagan edi. Lekin siyosiy analizning xomligi va mahalliy sharoitni hisobga olinmaganligi natijasida bu reja boshi berk ko'chaga kirib qoldi.

Asosan Kurdlar va Shialardan tashkil topgan hukumat nafaqat bir-biri bilan jiqqamusht bo'ldi, balki sobiq hukumat egalari bo'lgan sunniy aholidan "o'ch olishga" kirishib ketdi. Mamlakat shimolida Kurdiston avtonom respublikasi tashkil qilindi, bu esa Eron va Turkiyadagi Kurd aholisi va jangarilari uchun Katta Kurdiston davlati orzusini qayta uyg'otdi, ularning sezilarli darajada faollashishi kuzatildi. O'z navbatida Eron va Turkiya suverintitet va chegaralar dahlsizligini saqlab qolish uchun Kurd jangarilariga qarshi kurashni ko'chaytirdilar. Asosan

Iroqdagi Kurdistondan turib hujum qiluvchi jangarilarga qarshi Eron va Turkiya bir necha bor Iroq hududiga kirish orqali hujum qiladi. Eron Iroq bilan chegaradosh hududlardagi qishloqlarni bir nechta bor bombardimon qiladi. Bu holat hozirgi kunda ham davom etmoqda.

Iroq iqtisodiy jihatdan deyarli vayron qilindi. Urushlar oqibatida ko'pchilik neftni qayta ishlash zavodlariga o't qo'yiladi. Mamlakat neft-sanoati tarmog'i butunligicha izdan chiqadi. Chet-el investitsiyalari mamlakatda davom etayotgan notinchliklardan xavfsiragan holda, hech qanday sanoat tarmoqlariga investitsiyalar olib kirmaydilar. Hozirda Iroqning iqtisodiyoti faqatgina qazib olingan neftni to'g'ridan-to'g'ri sotish hisobidan aholiga birlamchi ehtiyoj mahsulotlar - oziq-ovqat va dori darmonlar sotib olish bilan cheklanmoqda. Mamlakatda turizm sohasi butunligicha yo'qoldi. Bog'doddagi ko'pchilik tarixiy yodgorliklar va me'moriy obidalar AQSh bombardimonlari va keyinchalik jangarilar bilan bo'lgan to'qnashuvlarda vayron qilindi.

Ijtimoiy sohada ham faqat chekinishlar kuzatildi. Maktab va boshqa o'rta-oliy bilim yurtlari bombardimonlar natijasida vayron bo'ldi. Jangarilar va radikal-islomiy kuchlarning hujumidan bir necha bor o'qituvchilarning qatl etilishi kuzatildi. Mamlakatda xadixsirash kayfiyati hukm surishi oqibatida xalq ta'limida kuchli chekinish kuzatildi. Tibbiyot sohasi ham deyarli shu ahvolga tushdi. Hozirgi kunda Iroqning Bog'doddan boshqa shaharlarida tez-tibbiy yordam ko'rsatish tizimi butunlay yo'q qilindi. Bog'doddagi tibbiy markazlar ham asosan Xalqaro insonparvar tashkilotlarning qo'llab quvvatlashi natijasi o'laroq faoliyatlarini arang davom ettirmoqdalar. Iroqda bugungi kunda o'g'irlik, talon-taroj va bosqinchilik avjiga chiqqan. Mamlakatda qaysidir binoga o't qo'yilishi yoki avtomobilning portlatilishi kabi xabarlar kundalik odat tusiga kirgan. Huquq-tartibotni muhofaza qilish hodimlari, o'zlarining Saddam Husayn davridagi nazoratini va obro'larini yo'qotganlar. Bir necha bor jangarilarning mahalliy politsiya nuqtalariga hujumi, umumiy tarzda politsiyachilar ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatgan.

Diniy jihatdan ham mamlakat Saddam Husayn davridagi dunyoviy tizimni qoʻmsayotganini yashirmayapti. Saddam rejimida tinch-totuv yashab kelayotgan turli din va mazhab vakillari bugungi kunda mamlakatda diniy-fuqarolar urushini keltirib chiqarishi ehtimoldan holi emas. Shia imomlarining oʻldirilishi, sunniy aholiga Shia hukumati tomonidan tayziqlar va xristian aholiga tajovuzlar bugungi kundagi Iroqning parokandaligini yanada koʻchaytirmoqda. Bir tomondan Eron Shialarni qoʻllab quvvatlab ularga yordam ajratishda davom etayotgan boʻlsa, boshqa tomondan arab shayxlari sunniy radikallarni qurollantirishda va moliyalashtirishda davom etmoqdalar. Bu mojarolarda hukumat tartibga soluvchi kuch sifatida emas, balki Shialar manfaatlarini ustun qoʻyayotgan tashkilot sifatida yaqqol koʻzga tashlanmoqda.

2013-yil iyul oyi Iroq uchun ayniqsa "oʻlinga boy" boʻldi. 1000 kishidan ortiq kishi oxirgi oyda mojarolar oqibatida oʻlim topganligi eʼlon qilindi. Bu son 2008-yildan buyon eng katta koʻrsatkichdir. Bundan tashqari umumiy hisobda Yaqin Sharqdagi tartibsizliklar koʻchayishda davom etmoqda. Bu esa mojarolarning bir biriga tutashib xalqaro tus olishi ehtimolini chetlab oʻtmaydi.

Hoʻsh qanday kelajak kutmoqda Iroqni? Hammamizga maʼlumki AQSh va Buyuk Britaniyaning intervensiyasi Saddam Husayn rejimining hech qanday ommaviy qirgʻin qurollarini ishlab chiqarganini yoki saqlaganligini isbotlamadi. Lekin Iroq xalqiga bu "gumon" juda qimmatga tushdi. Lekin bu masalaning rasmiy-siyosiy tomoni. Agar masalaga pragmatik jihatidan yondashsak va AQShning strategik jihatdan ham oʻz maqsadlariga erisha olmaganini hisobga olgan holda, Iroq urushini bemaʼlol "foydasiz" urush deya baholashimiz mumkin. Nafaqat "foydasiz", balki AQSh va dunyo hamjamiyati uchun ham salbiy ahamiyatga ega boʻlgan urush deb atasak mubolagʻa boʻlmaydi.

Saddam Husayn davrida terrorizmdan butunlay holi boʻlgan Iroq, bugungi kunda uning eng muhim oʻchoqlaridan biriga aylanib bormoqda. Tashqi kuchlarning siyosiy oʻyinlari oqibatida bu hudud kelajakda har-xil toʻqnashuv va mojarolarni import qiluvchi mamlakatga aylanishi mumkin. Iroqning parchalanish

ehtimoli ham yo‘q emas, lekin bu holat tashqi aktyorlarning pozitsiyalarini o‘zgarishi bilan bog‘liq.

15.4. Yaqin Sharq (Iroq, Falastin, Suriya) inqirozining keskinlashuvi.

ISHID muommosi

2003-yil mart oyida AQSh qurolli kuchlari Iroqda Saddam Husayn armiyasiga qarshi harbiy harakatlarni boshlashi ortidan mamlakatda xorijiy bosqinchilar va ularga xayrihoh shialarga qarshi sunniy qarshilik bosh ko‘tardi. Ma‘lumki, Saddam Husayn davrida og‘ir repressiyalarga uchragan shialar xorijiy kuchlarga Iroq armiyasiga qarshi kurashishda ham harbiy ham fuqaroviy ko‘mak bera boshladilar. Ikki-yil oldin Afg‘onistonda xalqaro koalitsiya tomonidan qaqshatqich zarbaga uchragan al-Qoida ayni vaqtda o‘zi uchun yangi panoh qidirmoqda edi. Intervensiyachilar va shialarga nisbatan Iroqning sunniy aholisi o‘rtasida oshib borayotgan nafrat Osama Bin Lodenga navbatdagi jihodchilar avlodini “tarbiyalash” imkoniyatini berdi. Shu tariqa 2004-yil so‘nggida Iroqdagi qabilalar va turli ayirmachi guruhlardan tashkil topgan “Tanzim Qaidat al-Jihad fi al-Rafidayn” (Ikki daryo oralig‘idagi jihodiy tashkilot) nomli guruh shakllantirildi. Guruhning o‘sha vaqtdagi rahbari Abu Musab al-Zarqaviy Bin Lodenga vassallik qasamyodini keltirdi. Shu tariqa ko‘proq “Iroqdagi al-Qoida” nomi bilan ma‘lum jihodiy guruh yuzaga keldi.

Ushbu guruhning asosiy maqsadi Iroq hududidan xorijiy kuchlar va shialarni xaydab chiqarib, mamlakatda qat‘iy shariat qoidalariga asoslangan islomiy nazorat o‘rnatish edi. Bu tashkilot hozirgi “Iroq va Shom islomiy davlati” uchun poydevor vazifasini o‘tadi.

O‘z faoliyatining ilk davrida yangi al-Qoida firqasi ko‘zga tashlanarli muvaffaqiyatlarga erisha olmadi. Tashkilot tarqoq, markazlashmagan, moddiy, texnikaviy va boshqaruv jihatlaridan yaxshi ta‘minlanmagan edi. Iroqdagi xorijiy kuchlar mavjudligi, jangarilarga qarshi ham AQSh ham Iroq harbiylari tomonidan amalga oshiriladigan amaliyotlar guruh uchun jiddiy qiyinchiliklar tug‘dirar edi.


2006-yil oktyabrida “Iroqdagi al-Qoida” bir qancha jangari guruhlar va sunniy qabilalar bilan birlashdi. Ushbu birlashuv ortidan “Iroq Islomiy davlati” yuzaga keldi. Manbalarga ko‘ra, nomi “Iroq Islomiy davlati” bo‘lishiga qaramay, guruh asosan xorijliklardan tashkil topgan bo‘lgan. O‘sha paytdagi Iroq shimolidagi notinch vaziyat mamlakatni Afg‘onistondan quvib chiqarilgan al-Qoida va boshqa jihodiy tashkilotlar uchun mintaqadagi yagona boshpanaga aylanib qolishiga sabab bo‘lgan. Xorijiy jangarilarning mahalliy aholiga nisbatan shafqatsiz munosabati “Iroq Islomiy davlati”ning oddiy iroqliklar orasida obro‘si tushishiga sabab bo‘ldi va natijada, al-Qoidaning Iroqdagi ta’siri tushib bora boshladi. “Iroq Islomiy davlati” al-Qoida firqasidan tobora mustaqil jihodiy tashkilotga aylana borib, kamayib borayotgan moddiy ta’minotni oddiy aholi, davlat idoralarini talash, ya’ni qaroqchilik, boy shaxslarni o‘g‘irlab, shantaj qilish, neft karvonlarini bosib olish yo‘llari evaziga to‘ldirish yo‘liga o‘tdi.

2011-yil martida Suriyada xalq noroziligining boshlanishi va uning fuqarolar urushiga aylanib ketishi ortidan mamlakatda yangidan-yangi jihodiy guruhlarining paydo bo‘lishi hamda ularning boy sunniy arab hukumatlari tomonidan dastaklay boshlanishi “Iroq Islomiy davlati” faolligining keskin oshishiga kuchli turtki berdi. Umuman olganda guruh Arab Bahorini mintaqada o‘z ta’sirini oshirish, tashkilot rahbarlarining ta’biri bilan aytganda mintaqani “shialar va xorijiy bosqinchilar zulmidan tozalash hamda Alloh va Islom shavkatini qayta tiklash” uchun qulay imkoniyat sifatida qabul qildi.

2013-yil aprelida guruh yetakchisi Abu Bakr al-Bag‘dodiy Suriyada al-Qoidaning rasmiy firqasi hisoblanmish “Jabhat al-Nusra” (al-Nusra Fronti) jihodiy tashkiloti bilan birlashuv haqida bayonot tarqatib, “Iroq Islomiy davlati” bundan buyon “Iroq va Shom Islomiy davlati” (ISHID) deya yuritilishini ma’lum qildi. Bu bayonot guruhning faoliyati Iroq chegaralaridan chiqib, Suriyaga ham yoyilgani va endilikda, islomiy davlat qurish rejasi faqatgina Iroqni emas, balki butun boshli Shom (Suriyaning qadimgi nomi. Kengroq ma’noda butun Levant, ya’ni O‘rtayer dengizining sharqiy qismi) hududini qamrab olishini anglatar edi. Lekin al-

Bag‘dodiyning ushbu bayonotini al-Nusra rahbariyati keskin rad etib, xech qanday birlashish haqida gap bo‘lishi mumkin emasligini ta’kidladi.

Xo‘sh, nega ISHID va boshqa sunniy jangari guruhlar orasida birdamlik mavjud emas? Buning birinchi sababi ISHID boshqa guruhlarga qaraganda ancha oldinroq al-Qoida ta’siridan chiqib ketganligidadir. Bundan tashqari Afg‘oniston va Iroq urushlari hamda Ben Ladenning o‘limidan so‘ng ancha kuchsizlanib qolgan al-Qoida o‘zining “global jihodchi” mavqeini yo‘qota boshladi. Natijada homiylarning al-Qoidaga nisbatan ishonchi susayib, yangi qudratga ehtiyoj tug‘ila boshladi. Shu tariqa ISHID yangi homiylar, ayniqsa, alohida boy shaxslarning e’tiborini o‘ziga jalb eta boshladi.



Bundan tashqari ISHIDning Suriyadagi guruhlar bilan koalitsiyaga kirisha olmaganining boshqa sabablari ham mavjud. Tahlilchilarning qayd etishicha, ISHID boshqa jihodiy guruhlariga nisbatan shafqatsiz taktikalari bilan ajralib turadi. Sunniy jangari guruhlar yillardan buyon tashkilotni vahshiylik bilan “muqaddas jihod” obro‘sigacha putur yetkazishda ayblab kelishadi. Shuningdek, Suriyada ISHID va al-Nusra yoda Ozod Suriya Armiyasi (OSA)ning maqsad-vazifalari ham o‘zgacha. Al-Nusra va OSA Assad hukumatini ag‘darish uchun harakat qilayotgan bo‘lsa, ISHID, asosan, bosib olgan hududlarda o‘z yakkahukmronligini o‘rnatishni istaydi. Shu sababli, asosan xorijliklardan tashkil topganiga qaramay suriyaliklar ISHIDdan ko‘ra ko‘proq al-Nusra Frontiga xayrihohlar.

Garchi Iroq hududida paydo bo‘lganiga qaramay, ISHID o‘zining hozirgi qudratiga notinch Suriyada ega bo‘ldi. 2013-yil Suriyaning Raqqa shahrini o‘z poytaxti deb e‘lon qilgan ISHID o‘tgan vaqt davomida Shimoliy Suriyadan tortib Iroq-Suriya chegarasigacha bo‘lgan aksariyat hududlarni egallab oldi.

Biroq ISHIDning Suriyadagi faoliyati to‘siqlarsiz bo‘lmadi. Mamlakatda mavjud hukumatga qarshi jang qilayotgan deyarli barcha kuchlar ISHIDga qarshi chiqib boshladilar. 2013-yilning o‘zida ISHID va boshqa isyonchi guruhlar o‘rtasida qaqshatqich janglar avjiga chiqib boshladi. Norasmiy manbalarga ko‘ra al-Nusra Fronti Assad hukumatiga qarshi kurashayotgan kuchlarining deyarli yarmini ISHIDga qarshi tashlashga majbur bo‘lgan. Biroq Suriyadagi qarama-qarshiliklarga qaramay, ISHID mamlakat shimolidagi neft konlaridan salmoqli foyda olayotgani ishoniladi.

IROQLIK JANGARILARNING QAYTISHI



Ta'kidlab o'tilgandek, o'z vaqtida "Iroq Islomiy davlati" shafqatsiz taktikalari tufayli ta'sir doirasidan ayrilib, shuningdek, amerikalik harbiylar tomonidan siquvda ushlab turilgan edi. Iroq Bosh vaziri Nuri al-Malikiy o'sha vaqtda guruhga qarshi bo'lgan sunniy aholidan Sahva (Uyg'onish) qurolli bo'linmasini tashkil qiladi. Sahvachilar "Iroq Islomiy davlati" jangarilariga qarshi kurashish evaziga Iroq muntazam armiyasidan va hukumat doiralaridan joy olish va'dasini olishadi. Biroq 2011-yil dekabrda AQSh qo'shinlari mamlakatni tark etgandan so'ng al-Malikiy sunniylarga qarshi tom ma'noda qatag'on boshlab yubordi. Bosh vazir Sahvani tarqatib yuborib, hukumatni sunniy amaldorlardan "tozalay" boshladi. Ayniqsa, 2012-yil al-Malikiy va vitse-prezident Tariq al-Hoshimiy o'rtasida yuzaga kelgan nizo Iroqda sunniy va shia aholisi o'rtasida navbatdagi etnik to'qnashuv yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Mamlakat sunniylarining eng katta ta'sirga ega yetakchisi bo'lgan al-Hoshimiyning shia al-Malikiy tomonidan quvg'inga uchrashi hamda sirdan o'limga hukm qilinishi

sunniylar g'azabiga sabab bo'ldi. Natijada ilk soni 100 mingdan ortiq bo'lgan va va'dasida turmagani uchun al-Malikiydan g'azabda bo'lgan sobiq sahvacilar hamda kurdlar tomonga qochib o'tgan sobiq vitse-prezident al-Hoshimiy tarafdorlaridan iborat katta ko'lamdagi mavjud shia hukumatiga qarshi norozi sunniy aholi qatlami yuzaga keldi.

Aynan shu norozi sunniylar hozirda ISHIDning katta qismini tashkil qilmoqda. AQSh tomonidan Iroq boshqaruvini shialar qo'liga topshirilISHIDan hanuz norozi bo'lib kelayotgan Ko'rfaz davlatlari, ayniqsa, Saudiya Arabistoni va Qatar ISHID yordamida ham al-Malikiy ham Assad hukumatini ag'darib, mintaqada o'ziga hayrixoh kuchlar nazoratini shakllantirish va bu orqali "azaliy dushman" – Eronga qaqshatqich zarba berishga urinmoqdalar.

Jahon hamjamiyati ISHIDning harakatlari sunniy-shia mazhablarining navbatdagi to'qnashuvi sifatida ko'rsatdi. Lekin aslida ham shundaymi?

Sunniy-shia qarama-qarshiligi tarixan mavjud bo'lsada, Ikkinchi Jahon Urushidan so'ng "Fitna Nazariyasi" (Conspiracy Theory) nomini olgan geosiyosiy o'yinlar ortidan zamonaviy taktikalar yordamida sun'iy lashtirilib, bo'rtirila boshlandi. Hozirda davom etayotgan Iroq Inqirozning asl ildizlari 1916-yildagi maxfiy Sayks-Pikot kelishuviga borib taqaladi.

Britaniya va Fransiya imperializmining vakillari bo'lgan Mark Sayks va Fransua Pikot Birinchi Jahon Urushi davom etayotgan bir vaqtda Mesopotamiyani o'z davlatlari manfaatiga mos ravishda maxfiy kelishuv orqali bo'lib olishdi. Ushbu yangi siyosiy harita O'rta Sharq mintaqasida yangi milliy davlatlar bilan birgalikda etnik nizolar, sunniy-shia ixtilofining zamonaviy bosqichi hamda Kurd Muammosini yuzaga keltirdi.

Isroil davlatining paydo bo'lishi, Erondagi inqiloblar va Arab Bahori Sayks-Pikot kelishuvining asriy asoratlari sifatida muhrlanib qoldi. Mintaqadagi davlatlarning geostrategic manfaatlar tufayli bir-biriga dushman bo'lib qolishi hamda tashqi kuchlarning ta'siri hozirgi ISHID ning yuzaga kelishiga turtki berdi.

Davom etayotgan voqealar shuni ko'rsatmoqdaki, Sayks-Pikot kelishuvi ortidan o'z hokimiyatiga ega bo'lgan mintaqadagi rejimlar mavjud chegaralarni

asrab qolishdan manfaatdor bo'lishsa-da, G'arb 30 yildan buyon O'rta Sharqda davom etib kelayotgan notinch vaziyatdan bezor bo'lganga o'xshaydi. Iroq-Eron urushi (1980-88), Ko'rfaz Urushi (1990-91), Saddam Husayn hukumati bilan ixtiloflar (1991-2003), Iroq Urushi (2003-2011) va Arab Bahori (2011-hozirga qadar) G'arb uchun yangi O'rta Sharq strategiyasini ishlab chiqish zaruriyatiga ishora qilmoqda. Demak G'arbga zamonaviy Sayks-Pikot kelishuvi zarur. Bir asrlik siyosiy harita hozirga zamon talablariga javob bermay qo'ygan ko'rinadi. Balki shu sababli Obama hukumati al-Malikiyning harbiy yordam so'rab qilgan murojaatiga rad javobi berib, "Hokimiyatdan ket!" ishorasini berayotgandir?...

2008-yilda Jorj Bush hukumati tomonidan AQSh qo'shinlarini Iroqdan butunlay olib chiqib ketish to'g'risida qaror qabul qilinadi. Xalqaro va ichki bosim tufayli ushbu qarorga kelgan Bush rejasini shu yili hokimiyatga kelgan Barak Obama bekor qilishga urinib ko'rdi. Biroq hukumatdagi guruhlar bosimi ostida 2011-yilgacha qo'shinlarni olib chiqish haqidagi qarorni kuchda qoldirishga majbur bo'lgan yangi prezident al-Malikiy bilan keyinchalik Iroqda katta miqdordagi AQSh harbiy kontingentini qoldirish yuzasidan kelishuv imzolashga harakat qildi. Biroq Vashington ta'siriga tushib qolishdan cho'chigan al-Malikiy Obama taklifini rad etdi. Natijada AQSh strateglari Iroqni kurdlar, sunniylar va shialar o'rtasida bo'lib berib, hozirgi inqirozga zamin yaratib berdilar.

Sunniy arab davlatlari va alohida qudratli shaxslar tomonidan dastaklanayotgan ISHID ning faolligining ortishi ayni vaqtda yuz berayotgani ham bejiz emas. O'tgan yili Eron hokimiyati tepasiga kelgan Hasan Ruhoniy faoliyatining bir yilligi davomida G'arb bilan munosabatlarni iliqlashtirishga erishdi. Yadro dasturi borasida uzoq vaqtdan beri mavjud ziddiyatlarning yumshashi va Eronga G'arb tomonidan qo'yilgan aksariyat sanksiyalarni bekor qilinishi Saudiya va boshqa Ko'rfaz davlatlarining ichki noroziligiga sabab bo'ldi. Bundan tashqari Assad hukumatining G'arb tomonidan yetarlicha bosimga uchramayotganligi, Damashq va Tehronning eng yirik hamkori bo'lmish Rossiya oldida AQSh boshchiligidagi qator Yevropa davlatlarining diplomatik chekinishi

sunniy rejimlarning mintaqadagi o'z pozitsiyasini boy berib qo'ymaslik uchun vaziyatni imkon boricha nazoratga olish uchun intilishiga sabab bo'ldi.

ISHID tomonidan Suriya bilan chegara shaharlari bir necha bor hujumga uchragan Turkiya mavjud vaziyatda na Assad, na al-Malikiy, na Ruhoniy, na Hoshimiylar va na Saud oilasini qo'llamayapti. Turkiyaning asosiy e'tibori hozirgi kundan Iroq kurdlariga qaratilgan. Aynan kurdlar ISHID ga qarshi tura olishi mumkin bo'lgan yagona kuch sifatida ko'riladi. O'zining Iroqdagi Kurdiston Mintaqaviy hukumati bilan ko'p yillik aloqasi yordamida rasmiy Anqara mavjud inqirozni o'z chegaralaridan nari surishga harakat qilmoqda.

Iroq inqirozidan eng ko'p zarar ko'rishi mumkin bo'lgan davlat – bu, shubhasiz, Erondir. Garchi guruhlarni yashirin dastaklashda (masalan, Hezbolla) katta tajribaga ega bo'lsa-da, rasmiy Tehron ham Assad ham al-Malikiy kabi mintaqadagi asosiy ittifoqchilarini yo'qotishi mumkin. Bundan tashqari ISHID shundoqqina Eron chegaralari yonida harakatlanmoqda. ISHID va Eronni faqatgina kurdlar ajratib turibdi. Shu sababli, kurdlarning jangarilarga qarshi tura olish salohiyatini hisobga olganda, hozircha ISHID ning Eronga kirib borishi anchayin mushkuldir.

ISHID ning strategiyasiga ko'ra, guruh yangidan-yangi yerlarni bosib olishni "hush" ko'radi. Demak, al-Bag'dodiy jangarilari bundan buyon ham bir joyda muqim o'tirishmaydi. Lekin guruh Suriya shimoliga bora olmaydi – bu yerda Turkiyaning qudratli chegara qo'shinlari mavjud. Sharqqa – Livan tomon yura olmaydi, sababi Assad armiyasi va ISHID ga qarshi boshqa isyonchi guruhlar qattiq qarshilik ko'rsatishi turgan gap. G'arbga – Eron tomon yurishda kurdlar qarshiligi mavjudligi haqida yuqorida eslatib o'tdim. Shimol tomonda esa Bag'dod atrofida to'plangan al-Malikiy qo'shini mavjud. Demak yagona ehtimoliy yo'l – janubiy-g'arb qolmoqda. Bu yerda esa Iordaniya joylashgan.

Hoshimiylar Qirolligi – Iordaniya, AQSh va Saudiya tomonidan dastaklanishiga qarmay, uzoq vaqtdan buyon ichki ixtiloflardan aziyat chekadi. Bu yerda sunniy-shia ziddiyati yuqori darajada bo'lmasa-da, qirollik oilasiga qarshi qabilalar o'rtasida norozilik kayfiyati kuchli. Bundan tashqari rasmiy Amman

Suriyada faoliyat yuritayotgan jihodchilar uchun o'z hududida tayyorgarlik o'tash imkoniyatini yaratib bergan. Saudiya va Qatar qo'llayotgan ISHID ning ko'plab xorijiy jangarilari ham aynan Iordaniya va Suriya chegarasidagi lagerlarda harbiy tayyorgarlikdan o'tishgan. E'tiborli jihati ISHID bilan dushmanga aylangan al-Qoida firqasi al-Nusra Fronti jangarilari ham aynan Iordaniyadan yetishib chiqadi. Suriyadagi hukumat va muholifat kuchlarining ISHIDga qarshi turishi, Suriyadagi ko'plab iroqlik jihodchilarning ISHID tarkibida vataniga qaytishi natijasida guruhning asosiy kuchi Iroq hududida to'planib qolishi, kurdlarning ISHIDga nisbatan qurolli qarshiligi va al-Malikiy hukumatining ehtimoliy javob zarbalari ISHIDni Iordaniya tomon o'tib ketishiga sabab bo'lishi mumkin. Bundan tashqari Hoshimiylarga qarshi kayfiyatdagi qabilalar ISHID bilan ittifoqqa kirishish orqali hukumatni qo'lga olishga urinish ehtimoli ham katta.

Davlatga qarashli Saudiya Axborot Agentligi (Saudia Press Agency) tarqatgan xabarga ko'ra, 2014 yilning 3-iyunida Sochi shahrida Vladimir Putin va Saudiya Tashqi ishlar vaziri Saud al-Faysal o'rtasida uchrashuv bo'lib o'tib, unda rasmiylar Suriya masalasi bo'yicha fikr almashishgan. Bundan tashqari, Rossiya Tashqi ishlar vaziri Sergey Lavrov ishtirokida yana bir maxfiy uchrashuv o'tkazilib, unda har ikkala davlatning mushtarak manfaatlari: iliqlashib borayotgan Eron-AQSh munosabatlariga ta'sir o'tkazish va neft narxini imkon boricha yuqori darajada ushlab turish ko'rib chiqilgan. Ma'lumki, davlatga tegishli Lukoyl kompaniyasi Iroqning G'arbiy Qurna-2 neft koniga katta miqdorda sarmoya kiritgan. Saudiya tomonidan dastaklanadigan ISHID keltirib chiqarayotgan tartibsizliklar esa neft narxini tushib ketishiga yo'l qo'ymaydi.

2013-yili Iroq va qisman Suriya hududida terrorchi guruhlar «Iroq va Shorn islom davlati» deb ataluvchi davlatni tuzdi. 2014-yili u «Umumjahon xalifati» deb e'lon qilindi. Bu hol AQSH va uning ittifoqchilarini harbiy intervensiyani amalga oshirishga undadi.

Ular 2014-yil sentabrdan boshlab Suriyadagi terrorchilar pozitsiyalarini bombardimon qilmoqda. 2015-yil sentabrdan xuddi shunday harbiy operatsiyani o'tkazishda Rossiya harbiy-kosmik kuchlari ham ishtirok

etmoqda. Mojaroda Turkiya, Eron, Saudiya Arabistoni, Iordaniya, Iroq, Livan, Isroil kabi davlatlarning ham manfaatlari namoyon bo'lmog'da. Shu tariqa Suriya hududi juda katta, har biri o'z manfaatini ko'zlagan xalqaro kuchlarning to'qnashuv maydoniga aylandi.

Urush oqibatida 2017-yil sentabr oyigacha mamlakatni 4 mln dan oshiq kishi tark etgan. 2017-yil oxiriga kelib, Suriya armiyasi Rossiya harbiy-kosmik kuchlari va AQSH boshchiligidagi xalqaro koalitsiya yordamida mamlakat hududini jangarilardan deyarli to'liq ozod qildi.

Aholining bir qismi o'z uylariga qaytmoqda. 2017-yil dekabr oyida V.Putin Suriyadagi Rossiya harbiy-kosmik kuchlarining asosiy qismini o'z hududiga qaytarish to'g'risida buyruq berdi.

15.5. Rossiya – Ukraina o'rtasidagi o'zaro ziddiyatlarning kelib chiqishi va ko'chayib borishi.

1991-yil 24-avgustda Ukraina Oliy Soveti mamlakat mustaqilligini e'lon qiladi. Rossiya va Ukraina o'rtasida do'stona munosabatlar o'rnatiladi. Ukrain madaniyati va tili rivojiga alohida e'tibor qaratiladi. Ittifoq parchalanib ketgach, Ukraina va Rossiya o'rtasida "SSSR davridagi mavjud chegaralarni tan olish" bo'yicha shartnoma imzolanadi. Biroq Qrim yarimoroli, ayniqsa, Sevastopolga egalik qilish masalasida davlatlar o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga keldi. Qrimning boshqa shaharlaridan farqli o'laroq, Sevastopol SSSR davrida to'g'ridan-to'g'ri Moskvaga bo'ysunar edi. Rossiya hukumati Sevastopol bilan birga sobiq SSSRning Qora dengiz floti kimning merosi ekanligi borasida ham ukrainalik hamkasblari bilan kelisholmadi.

Kelishmovchiliklarga qaramay, Rossiya Federatsiyasi prezidenti Boris Yelsin va Ukraina prezidenti Leonid Kuchma 1997-yili Kiyevda mavjud chegaralar daxlsizligi, hududiy yaxlitlikni hurmat qilish va o'z hududidan bir-birining xavfsizligiga zarar yetkazmagan holda foydalanish to'g'risida strategik sheriklikni mustahkamlovchi shartnoma imzolaydi.



Prezidentlar Boris Yelsin va Leonid Kuchma strategik sheriklik to'g'risidagi shartnomani imzolamoqda. 1997-yil.

Qora dengiz floti bo'yicha ziddiyatlar ham shu yili qisman yechiladi. Unga ko'ra, Ukraina Qora dengiz floti joylashgan hududni Rossiyaga ijaraga berishga, Rossiya esa 2017-yilga qadar flotni Ukraina hududidan olib chiqishga rozi bo'ladi.

Qrim yarimoroli masalasi. 1991-yil Qrim ASSRda o'tkazilgan referendum natijalari avtonom respublikaning Ukraina tarkibida qolishini ma'qullaydi. Keyingi yili davlat nomi Qrim Respublikasi deb o'zgartiriladi va mamlakat konstitutsiyasi qabul qilinadi. Tez orada Qrimda Rossiya foydasiga ayirmachilik qilish harakatlari boshlanadi va bu harakatlar Moskvadagi doiralar tomonidan dastaklanadi.

Xususan, 1992-yil 21-mayda Rossiya Oliy Soveti Qrimning Ukrainaga o'tkazilishi to'g'risidagi qarorning yuridik kuchini yo'qotgan deb hisoblaydi va uning yurisdiksiyasi Rossiya tomonda ekani aytiladi. Oliy Sovet Qrim kelajagi masalasi Qrim xalqi ishtirokida hal etilishi kerakligini bildiradi. Bunga javoban Ukraina Oliy Radasi Qrim mustaqil yuridik davlat emasligini va davlatlararo munosabatlarda alohida mamlakat sifatida qatnasha olmasligini aytadi.

1993-yili Rossiya Oliy Soveti Sevastopolni Rossiya ma'muriy-hududiy birligi deb e'lon qiladi. Prezident Boris Yelsin bu qaror haqida "Parlament qarori men uchun uyatli bo'ldi... Ukraina bilan urush boshlamang" deya fikr bildiradi. Ukraina tomoni Oliy Sovetning Sevastopol bo'yicha qarori yuzasidan BMT Xavfsizlik kengashiga shikoyat qiladi. BMT Xavfsizlik kengashi, jumladan, Rossiya vakili bayonot berib, Ukrainaning xalqaro tan olingan chegaralar doirasida mustaqilligi, birligi va hududiy yaxlitligi hurmat qilinishini e'tirof etadi. Shunday bo'lsa-da, Rossiya siyosiy doiralari Qrimdagi rusparast tashkilotlarini qo'llab-quvvatlashni to'xtatmaydi.

To'q sariq inqilob. 2000-yillardan Rossiya va Ukraina aloqalari bir qadar rivojlana boshladi. Shu yili Ukraina MDHga raislik qildi va Rossiya, Qozog'iston, Belorussiya bilan birgalikda Yagona iqtisodiy makon loyihasiga qo'shilishga qaror qiladi. Biroq bu mamlakatda katta muhokamalarga sabab bo'ladi. Ko'pchilik ukrain siyosatchilari ushbu loyihani SSSRning qayta tirilishi deb ataydi va unga qo'shilishga qarshi chiqadi.

Qo'shimchasiga, bosh vazir Viktor Yanukovichning o'z chiqishlarida Rossiya bilan yagona ittifoq tuzish va rus tiliga ikkinchi davlat tili maqomini berish haqidagi gaplari norozilik olovini yanada ko'chaytiradi.

2004-yili Ukrainada prezident saylovlari o'tkaziladi. Birinchi turda ikki nomzod: Rossiyaga yaqinlashish tarafdori bo'lgan Yanukovich va Yevropa ittifoqi bilan integratsiyani ko'chaytirish tarafdori Viktor Yushchenko eng ko'p ovoz olib, ikkinchi turga o'tadi. Ikkinchi turda Yanukovich kichiq farq bilan g'alaba qozonadi. Putin darhol Yanukovichni g'alaba bilan tabriklaydi. Ammo kutilmaganda saylov jarayonida ovozlarni soxtalashtirish yuz bergani haqida xabarlar tarqaladi va noroziliklar to'liqini boshlanadi.

"To'q sariq inqilob" (Yushchenkoning saylovoldi tashviqotidagi rangi sabab uning tarafdorlari shu rangli bayroqlarni ko'tarib chiqqan) nomini olgan ushbu namoyishlar sabab Ukraina Oliy sudi tekshiruv boshlaydi va ovozlarni hisoblashda qonun buzilish holatlarini aniqlaydi. Shundan so'ng ikkinchi tur natijalarini bekor qilinadi hamda uchinchi tur o'tkaziladi. Bu safar Yushchenko g'alaba qozonadi va

Ukraina prezidentiga aylanadi. Yushchenko Yanukovichdan farqli o‘laroq, mamlakatning Yevropa tomon burilishini e‘lon qiladi. Kreml va Putin bu voqealarni biroz hayrat bilan hamda asabiy holatda qabul qiladi.



To‘q sariq inqilob. Kiyev. 2004.

Aynan 2004-yildan so‘ng Ukraina va Rossiya o‘rtasida keskin qarama-qarshiliklar boshlanadi. Ukraina MDHga qonuniy a‘zo emasligini bildirib, unda chiqish e‘lon qiladi. Shuningdek, prezident Yushchenko Qora dengiz flotining Ukraina hududida bo‘lish muddatini uzaytirishga qarshi chiqadi.

Tez orada Rossiya va Ukraina o‘rtasida gaz bo‘yicha kelishmovchiliklar boshlanadi. Rossiya hukumatining Yevropaga gaz yetkazib beruvchi quvurlarni Ukraina hududidan shimolga ko‘chirish harakati Ukraina tomonidan keskin kutib olinadi. Ukraina ham Yevropaga gaz yetkazib berishning muqobilini izlay boshlaydi. Bunda ukrainlar Turkmaniston, Ozarbayjon, Gruziya tranziti loyihasiga e‘tibor qaratadi.

Rossiya Ukrainadan gaz bo‘yicha qarzlarini to‘lashni talab qiladi, biroq Ukraina hukumati qarzni to‘lashni paysalga soladi. Bunga javoban Rossiya Ukrainaga yetkazib beruvchi gazni to‘xtatib qo‘yadi. Ukraina hukumati esa oddiy

yo'l tutadi: Ukraina hududidan Yevropaga o'tuvchi tranzit gaz quvurlarini ochib, gaz ola boshlaydi.

2008-yili Janubiy Osetiya mojarosida Ukraina Gruziyani qo'llab-quvvatlaydi va Rossiyadan Qora dengiz flotini tezroq uning hududidan olib chiqishni talab qiladi. Shu yili Ukraina mudofaa vazirligi 1997-yilgi shartnomani bekor qilishga qaror qiladi va prezident Yushchenko buni tasdiqlaydi. Shu bilan Rossiya va Ukraina o'rtasidagi so'nggi muhim hujjat amal qilishdan to'xtaydi.

Maydon inqilobi va Qrimning anneksiya qilinishi. 2010-yili Ukrainadagi prezident saylovlarida Yanukovich g'alaba qozonadi. Bu esa mamlakatning Rossiya bilan munosabatlari iliqlashishiga olib keladi. Shu yilning o'zidayoq prezidentlar Yanukovich va Dmitriy Medvedov o'n marta uchrashadi. Qora dengiz floti bo'yicha Harkov shartnomasi imzolanib, unga ko'ra, ijara muddatini yana yigirma besh yilga uzaytirish to'g'risida kelishuvga erishiladi.

Harkov shartnomasi Oliy Radada ham, Kiyevda ham noroziliklarga sabab bo'ladi. Qolaversa, Ukrainaning NATOga a'zo bo'lish fikridan qaytishi va Qora dengiz floti ijarasini uzaytirishiga qaramay, Rossiya tomoni Ukrainaga yetkazib beradigan gaz narxini arzonlashtirmadi. Yanukovich bir tomondan Rossiya, boshqa tomondan esa Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlikni davom ettirishga intilaveradi.

Ammo Rossiya hukumati Ukrainaga ko'proq bosim o'tkazib, Yevropa Ittifoqiga kirishiga amalda qarshi chiqadi. Oqibatda, Yanukovich yon berishga majbur bo'ladi.

2013-yil noyabrida Ukraina va Yevropa Ittifoqi o'rtasida ittifoqqa kirish shartnomasi imzolanishining to'xtatilishiga javoban Kiyev va Ukrainaning boshqa shaharlarida norozilik namoyishlari boshlanib ketadi. 30-noyabr kuni Kiyevdagi Yevromaydonda joylashgan namoyishchilarga qarshi kuch ishlatilgach, noroziliklar amaldagi hukumat va prezidentga qarshi kurashga aylanib ketadi. Namoyishchilar qurollanib, ma'muriyat binolariga hujum qiladi. Kiyev ko'chalari shiddatli to'qnashuvlar markaziga aylanadi. Guberniya(viloyat)larda ham norozilik qatnashchilari tomonidan davlat idoralarini egallash boshlanadi. Bu g'arbiy hududlarda muvaffaqiyatli kechgan bo'lsa, markaziy va janubiy hududlarda

ko'plab namoyishchilarning hibsga olinishi bilan yakunlanadi. Yanvar oyi oxiriga kelib hukumat qattiq tartib o'rnatadi va minglab ukrain qamoqqa olinadi. Biroq bu norozilik namoyishlarini to'xtatmaydi.

G'arbning bosimi ostida 2014-yil 21-fevral kuni prezident Yanukovich muxolifat bilan kelishuv imzolashga rozi bo'ladi, ammo u o'sha kuni Kiyevni tark etadi. Ertasiga Ukrainada davlat to'ntarishi amalga oshgani, Oliy Radaning noqonuniy qarorlariga imzo chekmasligini e'lon qiladi. Bir necha soatdan so'ng Oliy Rada uni prezident vakolatlaridan mahrum qiladi va yangi prezident saylovlarini belgilaydi. "Batkivshina" partiyasidan Aleksandr Turchinov vaqtincha prezident lavozimiga tayinlanadi. Yanukovich esa Moskvadan panohtopadi.

Vaziyatni diqqat bilan kuzatib borayotgan Rossiya hukumati Ukrainaning G'arb tomon "o'tib ketishi"ga jim qarab turolmadi. 2014-yil 27-fevral kuni rus maxsus kuchlari Qrim parlamenti binosini egallab oladi. Anatoliy Mogilyev iste'foga chiqarilib, uning o'rniga rossiyaparast Sergey Aksyonov Qrim rahbari etib tayinlanadi. Aksyonov Kiyevdagi yangi hukumatni tan olishdan bosh tortadi hamda Rossiya hukumatidan Qrim Avtonom Respublikasi hududida tinchlik, osoyishtalikni ta'minlashda yordam berishni so'raydi.

2014-yil 1-mart kuni prezident Putin rus harbiy qo'shinlarini Qrimga kiritish to'g'risidagi qarorni ma'qullaydi. Yarimoroldagi ukrain harbiy qismlari blokadaga olinadi. Bir hafta ichida Qrim to'la Rossiya nazorati ostiga o'tadi. 16-mart kuni Ukraina konstitutsiyasiga zid ravishda Rossiya shafeligidagi Qrimning mustaqilligi to'g'risida referendum o'tkaziladi. Ertasi kuni esa Qrim Respublikasi mustaqilligi e'lon qilinadi. Ammo Rossiyadan tashqari dunyodagi hech bir davlat bu davlat mustaqilligini tan olgani yo'q. 18-mart kuni Qrim Respublikasining Rossiya Federatsiyasiga qo'shilishi haqida shartnoma imzolanadi. BMT va jahon hamjamiyati ushbu voqealarni anneksiya (bosib olish) sifatida baholadi va Qrimni vaqtincha ishg'ol etilgan Ukraina yerlari deb atadi. Rossiyaga qarshi iqtisodiy sanksiyalar kiritiladi.



Qrim parlamenti binosini qo‘riqlayotgan rus askari. 2014-yil 1-mart.

Putin shu tariqa Ukrainaning Rossiyadan yuz burishiga javoban o‘ziga xos “o‘ch oldi”. Chunki Yevropa Ittifoqi va NATOga a‘zo bo‘lish uchun mamlakatlar hududiy nizolarga ega bo‘lmasligi kerak edi. Ushbu anneksiyadan so‘ng Ukrainaning Yevropa Ittifoqi va NATOga qo‘shilishi qiyin masalaga aylandi.

Donetsk va Lugansk “xalq respublikalar”i. Mamlakatda boshlangan tartibsizliklar fonida Rossiya va rus tili ta’siri kuchli bo‘lgan mamlakatning janubi-sharqiy hududlarida qurolli harakat vujudga keladi. Ular yangi hukumatni tan olishdan bosh tortadi va 7-aprel kuni Donetsk Xalq Respublikasi (DXR), 27-aprel kuni esa Lugansk Xalq Respublikasi (LXR) Ukrainadan alohidaligi — mustaqilligini e’lon qiladi. 11-may kuni esa har ikki yangi “xalq respublikasi”da referendum o‘tkaziladi va aholi mustaqillik uchun ovoz beradi. Har ikki ayirmachi davlat Rossiyaga qo‘shilish istagini bildiradi va birlashgan Novorossiya Respublikasini tuzish bo‘yicha qaror qabul qiladi.

2014—2015-yillari bo‘lib o‘tgan janglar natijasida ushbu “xalq respublika”lari hududi to‘rt baravar qisqardi, biroq qattiq qarshilik sabab butunlay tugatilmadi. Ukraina va G‘arb Rossiyani isyonchilarga qurol-yarog‘ va harbiy askarlar yetkazib berishda aybladi. Ammo rasmiy Moskva buni inkor etaverdi. 2015-yil 11—12-fevral kunlari “normand to‘rtligi”: Fransiya, Germaniya, Ukraina va Rossiya prezidentlari, shuningdek, DXR va LXR vakillari Minskda Ukraina

sharqidagi vaziyatni tinch yo‘l bilan hal qilish bo‘yicha bitim imzoladi. Minsk kelishuvlaridan so‘ng o‘t ochishni qisman to‘xtatadi.



Anneksiya qilingan Qrim hamda ayirmachi DXR (Donetsk Xalq Respublikasi) va LXR (Lugansk Xalq Respublikasi)

Biroq keyingi yillarda na Ukraina tomoni, na Rossiya tomoni bitim shartlariga amal qildi. Rossiya Ukrainaning Minsk kelishuvlaridagi Donetsk va Lugansk viloyatlariga alohida maqom berish, uni konstitutsiyada mustahkamlash, umumiy amnistiya e‘lon qilish hamda mahalliy saylovlar o‘tkazish kabi shartlarni bajarmagani, ushbu bandlar bajarilgan taqdirdagina Ukraina Rossiya-Ukraina chegarasi ustidan nazoratni tiklashi mumkinligini ta’kidlab keladi. Ukraina tomoni esa mahalliy saylovlarni o‘tkazish va bu hududlarni Ukrainaga qaytarishning asosiy sharti sifatida xavfsizlik masalalari(Ukraina-Rossiya chegaralari ustidan ukrain armiyasi nazoratini tiklash, ukrain OAV va siyosiy partiyalarning DXR va LXR hududiga erkin kirishini ta’minlash)ni hal etishni ustuvor masala deb biladi. 2018-yili Ukraina tomoni Minsk kelishuvlarini inkor qiluvchi qonun qabul qilgach, bu kelishuv shartlari amalda to‘xtatildi.

Keyingi yillarda keskinlik davom etaverdi. Maydon inqilobidan so'ng hokimiyatga kelgan Pyotr Poroshenko ukrain armiyasini qayta tuzadi, DXR va LXR chegaralaridagi front chizig'ini ko'chaytiradi. Mamlakatda Rossiyaga qarshi mafko'ra keng targ'ib qilinadi. Shu yilning 25-noyabr kuni Kerch bo'g'ozida qurolli to'qnashuv yuz berdi. Qrimni o'z hududi deb hisoblovchi Ukraina Kerch bo'g'ozini orqali Mariupol portiga o'z kemalarini yubordi. Biroq Qrimni anneksiya qilgan rus qo'shinlari ukrain kemasi o'z suvlariga ogohlantirishsiz kirganini da'vo qildi va kemani shturm bilan egallab oldi. Ertasi kuni butun Ukraina bo'ylab favqulodda rejim e'lon qilindi. BMT Xavfsizlik kengashi Rossiya harakatlarini qoraladi hamda qo'lga olingan kema va asirlarni Ukrainaga qaytarishni talab qildi. Lekin Rossiya tomoni bu talabni to'liq bajarmadi.

2019-yilgi saylovlardan so'ng hokimiyatga kelgan Vladimir Zelenskiy jamoasi Minsk kelishuvlariga qaytishga harakat qildi, biroq uning ba'zi shartlarini o'zgartirishni ma'qullagan holda. Ammo Rossiya tomoni bunga qarshi chiqdi. Putin Ukrainaning yangi hukumati Minsk kelishuvi shartlarini bajarishga o'zida iroda topolsa, ularni qo'llab-quvvatlashini bildirdi.

Shu yili prezidentlar o'zaro telefon muloqoti o'tkazdi va mahbuslarni almashish to'g'risida kelishuvga erishdi. 9-dekabr kuni Zelenskiy va Putin Parijda "Normand to'rtligi" doirasida ikki tomonlama uchrashuv ham o'tkazdi. Kelishuvlar ijobiy natija bermadi. Davlatlar o'rtasidagi keskinlik saqlanib qolaverdi.

"Rossiya hujumi". 2021-yil noyabr oyida Ukraina prezidenti Vladimir Zelenskiy Rossiya kuchlarining Ukraina chegarasida to'planayotganini ma'lum qildi. Rus tomoni esa buni harbiy o'quv mashg'ulotlari bilan bog'ladi. Harbiy bosqin haqidagi ilk bor Ukraina Mudofaa vazirligining razvedka bosh boshqarmasi rahbari Krill Budanov 21-noyabr kuni gapirdi. Budanov to'qson mingdan ortiq rus askari va "Iskandar" qisqa masofali ballistik raketa tizimlari Ukraina chegaralari yaqinida to'planganini dalil sifatida keltirdi. Shuningdek, u Kiyevdagi COVID-19 vaksinatsiyasiga qarshi namoyishlar va Ukrainadagi boshqa mitinglar ortida

Rossiya turganini, bo'lar keng ko'lamli harbiy bosqinga tayyorgarlik ekanini bildirdi.

O'z navbatida, Rossiya tomoni Ukrainani Donbassda keskinlikni ko'chaytirish va hujum operatsiyalari o'tkazishda aybladi. Urush haqidagi tasavvurlar Rossiyaning Belarus hududida birgalikda o'tkaziluvchi harbiy mashg'ulotlar uchun qo'shinlarini ushbu davlat hududiga ko'chirishi bilan ko'chayib bordi. Dekabr oyidayoq G'arb matbuotida Rossiyaning yanvar oyi oxirida Ukrainaga bostirib kirishi haqida taxminlar paydo bo'ldi. AQSh va NATO sharqiy Yevropaga o'z kontingentlarini joylashtirishni boshlab yubordi. Yanvar oyida esa G'arb o'z diplomatlarini Kiyevdan evakuatsiya qilishni boshladi. Moskva hujum haqidagi taxminlarni G'arb jazavasi deb atadi. Putin Ukraina bilan urushni xohlamasligini ma'lum qildi.



AQSh tomonidan yetkazib berilgan zamonaviy qurollarni ko'zdan kechirayotgan prezident Zelenskiy. 2022-yil 16-fevral.

2022-yil 12-fevral kuni AQSh prezidenti Jo Bayden razvedka ma'lumotlariga ko'ra, Rossiyaning Ukrainaga taxminiy bosqini 16-fevral kuni bo'lishini aytdi. Tabiiyki, Moskva buni rad etdi. Prezident Zelenskiy esa ushbu voqealar fonida 16-fevralni Milliy birlik kuni deb e'lon qildi. Biroq hujum sodir bo'lmadi, lekin Ukrainadagi qator saytlarga xakerlik hujumi uyushtirildi.

Ukraina masalasida AQSH-Rossiya munosabatlarning keskinlashuvi.

Birinchi ingliz olimi H.Makkinder 1904-yili chop etilgan “Tarixning geografik o‘qi” nomli maruzasida quydagicha konsepsiyani ilgari suradi: “Dunyoning markazi Yevrosiyo , uning markazi esa “heartland”. Kim Sharqiy Yevropa ustidan hukmronlik qilsa, u heratland ustidan hukmronlik qiladi, kim heratland ustidan hukmronlik qilsa, u dunyo orollarini boshqaradi. Dunyo orollarini boshqaragan butun dunyo ustidan hukmronlik qiladi”.

Makkinderning ushbu konsepsiyasidan kelib chiqib AQSHning Milliy xavfsizlik bo‘yicha prezident maslahatchisi Z.Bjeniskiy o‘zining “Buyuk shaxmat doskasi” nomli kitobida AQSHning XX asrning 90-yillaridagi asosiy vazifa Sharqiy Yevropani o‘z ta’sir doirasiga olish kerakligini ta’kidlaydi. Sharqiy Yevropaning yuragi esa Ukrainadir. Demak AQSH va Rossiya manfaatlari Sharqiy Yevropa va Ukraina hududida to‘qnashishligi muqarrar edi.

Rossiya Federatsiyasining siyosiy elitasi va geosiyosatchilari tomonidan ham Yevrosiyoni birlashtirish uchun alohida “Katta Yevrosiyo” konsepsiyasini ishlab chiqilgan. V.Putin boshchiligidagi rasmiy Moskvaning “Katta Yevrosiyo” konsepsiyasini amalga oshirish uchun Ukraina ta’sir doirasida bo‘lishligi kerak. Chunki Ukraina va Belorussiya Rossiyani Yevropa bilan bog‘lovchi “oltin ko‘prik” sanaladi. Agarda bu hududlar Rossiya ta’sir doirasidan chiqsa, geosiyosiy jihatdan Rossiya Osiyo davlatiga aylanib qoladi. Bu esa Kremlning katta orzularidan biri bo‘lgan “Katta Yevrosiyo” konsepsiyasini amalga oshirishni sarobga aylanishligini anglatadi. Ikkinchi Sobiq Ittifoqi parchalanib ketganidan so‘ng AQSH va NATO boshchiligidagi g‘arb o‘z ta’sir doirasini sharqqa tomon kengaytirishda davom etdi.

NATOning to‘rtinchi, beshinchi va oltinchi kengashligi natijasida Sharqiy Yevropaning 11ta davlati unga a‘zo bo‘ldi. 2004-yilgacha bo‘lgan davrda Rossiya suvosti kemalari Qora dengiz hududida mavjud emas edi. Lekin Bolgariya, Slovakiya, Ruminiya va Boltiqbo‘yi respublikalarining NATOga a‘zo bo‘lishligi natijasida Rossiya o‘z suvosti kemalarini Qora dengiz hududiga kiritdi 2008-yil Gruziya va Janubiy Osetiya voqealari, shuningdek 2014-yilgi Qirimning anneksiya

qilinishligi Donetsk va Lugansk hududidagi voqelar natijasida Ukraina va Gruziya NATOga a'zo bo'lish uchun bor e'tiborini qaratdi. Rossiya esa NATOning yana bir bor Rossiyaning hayotiy manfaatlari mavjud bo'lgan hudud tomon kengayishiga jim qarab tura olmasdi. Ukraina va Gruziyaning NATOga a'zo bo'lishligi Rossiyaning hududi va yaxlitligi uchun real tahdid sanaladi. V.Putin boshchiligidagi Kreml 2022-yil boshida AQSH va G'arbdan NATOning sharqqa boshqa kengaymasligi, shuningdek Ukraina va Gruziyaning NATOga a'zoliciga qabul qilinmasligi to'g'risida kafolat so'rab murojaat qildi. Lekin kollektiv g'arb davlatlari va AQSH tomonidan bunday kafolat berilmadi. Natijada rasmiy Moskva oldida ikki o'g'ir yo'ldan birini tanlash imkoni bor edi.

1. Rossiya Ukraina hududiga qo'shin kiritishligi va uning oqibatida AQSH va g'arb davlatlari tomonidan ulkan iqtisodiy sanksiyalar paketiga duchor bo'lishlik;

2. Ukraina va Gruziyaning o'z ta'sir doirasidan chiqarib NATO va Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lishligini jimgina kuzatib turishlik. Rossiya uchun birinchi yo'ldan ham ikkinchi yo'l o'ta o'g'ir oqibatlarga olib kelishi mumkin edi. NATOning Ukraina hududigacha kengayishli Rossiya yaxlitligi uchun falokatli bo'lishligi mumkin. Kollektiv g'arb Rossiyani o'ta qiyin vaziyatga olib kelib qo'ydi. Natijada esa, dunyo geosiyosatida yangi jarayon bir qutubli dunyo va ko'p qutubli dunyo tartiboti o'rtasidagi kurash keskinlashdi. Demak, xalqaro munosabatlar tizimida yangi dunyo tartibi shakillanishi uchun qadam tashlandi.

Ukraina Sovuq urush davrida AQShning azaliy raqibi bo'lgan Sovet Ittifoqining tamal toshi edi. Faqat Rossiyadan keyin u aholi soni bo'yicha o'n besh Sovet respublikasi ichida ikkinchi va qudratli bo'lib, u ittifoqning qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi, mudofaa sanoati va harbiy qismlari, shu jumladan Qora dengiz floti va yadro arsenalining bir qismiga ega edi. Ukraina ittifoq uchun shu qadar muhim edi. Mustaqilligining o'ttiz yillik davrida Ukraina G'arb institutlari, jumladan, YeI va NATO bilan yaqinroq aloqada bo'lishga intilib, suveren davlat sifatida o'z yo'lini yaratishga intildi. Biroq, Kiyev o'zining tashqi aloqalarini muvozanatlash va chuqur ichki kelishmovchiliklarni bartaraf etish uchun kurashdi.

Mamlakatning g'arbiy qismlarida ko'proq millatchi, ukrain tilida so'zlashuvchi aholi odatda Yevropa bilan ko'proq integratsiyani qo'llab-quvvatlagan bo'lsa, sharqdagi asosan rusiyzabon jamoa Rossiya bilan yaqinroq aloqalarni qo'llab-quvvatlagan. Vladimir Putinning Ukrainaga bostirib kirish qarori chegaralarning muqaddasligi haqidagi taxminlarni bekor qildi va dunyoni butunlay yangi vaziyatga olib keldi, deydi xavfsizlik ekspertlari.

Nemis xavfsizlik ekspertlarining fikricha, Rossiyaning bosqinchiligi nafaqat Ukraina suverenitetiga tahdid soladi, balki butun geosiyosiy tartibni buzadi. "Bugun deyarli hamma narsa kechagidan farq qiladi", dedi DW nashriga Halle universiteti siyosatshunosi Yoxannes Varvik. "Biz endi bloklarning o'ziga xos qarama-qarshiligiga qaytdik, faqat G'arbiy blokning chegaralari sovuq urush davriga nisbatan sharqqa siljidi. Yevropada tinchlik o'tmishda qoldi, Rossiyaga ishonch esa butunlay yo'q qilindi. G'arb va Rossiya o'rtasidagi ishonchni tiklash uchun o'nlab yillar kerak bo'ladi".

Yevropa tashqi aloqalar kengashining (ECFR) xavfsizlik siyosati bo'yicha mutaxassisi Rafael Loss DW nashriga uning fikricha, hozirgi inqirozda uzoq muddatli oqibatlarni baholash hali ham qiyin, ammo "hech bo'lmaganda Yevropaning ayrim qismlarida shunday ko'rinadi. 1990 yildan keyingi tartib vayron bo'ldi. Putin Rossiyasi revanshist kuch sifatida ta'riflanadi, u o'zining avvalgi qudrati va obro'sini qaytarishga intiladi. Virjiniya Tech universitetining xalqaro aloqalar professori Jerar Toal "Yaqin xorij" kitobida "Rossiyani Yevroosiyo shimolidagi buyuk davlat maqomiga qaytarish har doim Putinning maqsadi edi", deb yozadi. "Yakuniy maqsad Sovet Ittifoqini qayta tiklash emas, balki Rossiyani yana buyuk qilish edi".

2014-yilda Qrimni qo'lga kiritish orqali Rossiya Qora dengizdagi strategik tayanch nuqtasi ustidan nazoratni mustahkamladi. U yerda kattaroq va murakkabroq harbiy mavjudligi bilan Rossiya o'z kuchini O'rta er dengizi, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikaga chuqurroq yo'naltirishi mumkin, bu yerda u an'anaviy ravishda cheklangan ta'sirga ega bo'lgan. Ba'zi tahlilchilarning ta'kidlashicha, G'arb davlatlari Qrimning anneksiya qilinishiga javoban Rossiyaga jiddiy

harajatlar yuklay olmagan, bu esa Putinning o‘z tashqi siyosiy maqsadlari yo‘lida harbiy kuch ishlatish istagini oshirgan, xolos. 2022-yilda bostirib kiringunga qadar Rossiyaning Donbasdagi strategik yutuqlari ancha zaif edi. 2021-yil iyul oyida Putin Rossiya va Ukraina o‘rtasidagi mushtarak tarixni, ruslar va ukrainlarni “bir xil tarixiy va ma’naviy makonni” amalda egallagan “bir xalq” deb ta’rifladi.

O‘sha-yil davomida Rossiya o‘n minglab qo‘shinlarini Ukraina bilan chegarada, keyin esa ittifoqdosh Belarusga harbiy mashg‘ulotlar homiyligida to‘plandi. 2022-yil fevral oyida Putin yirik shaharlarni egallash maqsadida janubdan (Qrim), sharqdan (Rossiya) va shimoldan (Belarus) Ukraina hududiga ikki yuz mingga yaqin qo‘shinni kesib o‘tib, keng ko‘lamli bostirib kirishni buyurdi.

Putinning aytishicha, keng maqsadlar Ukrainani “de-nazifikatsiya” va “demilitarizatsiya” shuningdek poytaxt Kiyevni va hukumatni ag‘darishdan iboratdir. Biroq, bosqinning dastlabki haftalarida Ukraina qo‘shinlari qat’iy qarshilik ko‘rsatdi. Ko‘pgina mudofaa tahlilchilarining ta’kidlashicha, Rossiya qo‘shinlari ruhiy ahvoli past, moddiytexnika ta’minoti yomonligi va Ukraina tez va oson qulab to‘shadi, degan o‘ylangan harbiy strategiya no‘tg‘iri bo‘lib chiqdi. Mart oyiga kelib, ba’zi g‘arblik kuzatuvchilar, jang maydonida yuz bergan kutilmagan muvaffaqiyatsizliklarni hisobga olgan holda, Moskva o‘z maqsadlarini cheklab qo‘yishi va 2014-yilda Donbasdagi kabi Ukraina janubini, masalan, Xerson viloyatining bir qismini kesib tashlashga harakat qilishi mumkinligini aytishdi.

Rossiyaning siyosiy maqsadlari. Kreml bu urush va uning natijasidan quydagicha narsani xohlaydi: NATO kengayishiga chek qo‘yish, oldingi kengayishning orqaga qaytishi, Amerika yadroviy qurollarining Yevropadan olib tashlanishi va Rossiyaning ta'sir doirasi belgilash. Kremlning asosiy maqsadi Belorussiya, Ukraina va Gruziya hech qachon Moskva nazorati ostidagidan boshqa harbiy yoki iqtisodiy blokka kirmasligini va Rossiya har uchala davlatning tashqi va xavfsizlik siyosatining yakuniy hakami bo‘lishini kafolatlashdir. Putinning nuqtai nazari Putin nazarida bosqinni NATOning postsovetdan keyingi dastlabki yillarda kengayishi va AQShning Iroq va Afg‘onistondagi keyingi intervensiyalari

bilan to'liq oqlaydi. "Putin chegaralarni kuch bilan ko'chirishni oqladi, deb hisoblaydi, chunki uning fikricha, NATO ham shunday qilgan", - deydi Loss DW nashriga. Uning fikricha, NATO 1990-yillar davomida sobiq Yugoslaviyadagi chegaralarni qayta chizish, Kosovoni Serbiyadan ajratib olish uchun Rossiyaning zaifligidan foydalangan. G'arb esa, Rossiyaning so'nggi bir necha-yil ichida xalqaro tartibni ko'plab buzganini, jumladan, Kreml 2008 yilda Abxaziya va Janubiy Osetiya davlatlarni tan olganini, Gruziya ichki ishlariga aralashgani va Rossiyaning Qrimni Ukrainadan anneksiya qilganiga ishora qilishi mumkin.

Oxirgi harakat 1975 yildagi Xelsinki Yakuniy Aktini buzdi, bu esa chegaralarning muqaddasligini ta'minlashga qaratilgan edi. 2004 yilda NATOga sobiq Sovet Boltiqbo'yi respublikalari Estoniya, Latviya va Litva qo'shildi. To'rt-yil o'tgach, u yaqin kelajakda Ukrainaga a'zo bo'lishni taklif qilish niyatini e'lon qildi –bu Rossiya uchun qizil chiziqni kesib o'tilishi edi. Putin NATOning kengayishini ekzistensial tahdid, Ukrainaning G'arb harbiy ittifoqiga qo'shilish istiqbolini esa "dushmanlik harakati" deb hisobladi –u chiqishlarida Ukrainaning harbiy alyansga qo'shilish intilishi dahshatli ekanini aytdi.

AQShning Ukrainadagi ustuvorliklari. Sovet Ittifoqi parchalanganidan so'ng darhol Vashingtonning ustuvor yo'nalishi Ukrainani – Belarus va Qozog'istonni – yadroviy arsenalidan voz kechishga undash edi, shunda sobiq ittifoq qurollari faqat Rossiyada qoladi. Shu bilan birga, Qo'shma Shtatlar Rossiyadagi titroq demokratiyani mustahkamlashga shoshildi. O'sha paytdagi ba'zi taniqli kuzatuvchilar Qo'shma Shtatlar Rossiya bilan bunday uchrashishda barvaqt bo'lgan va u sobiq Sovet Ittifoqining qolgan qismida geosiyosiy plyuralizmni rivojlantirish ustida ko'proq ishlashi kerak edi, deb hisoblashgan.

1994-yil boshida AQShning Milliy xavfsizlik bo'yicha sobiq maslahatchisi Zbignev Bjezinski sog'lom va barqaror Ukrainani Rossiyaga qarshi muhim qarama-qarshilik va AQShning Sovuq urushdan keyingi yangi bosh strategiyasi bo'lishi kerakligini ta'rifladi. "Ukrainasiz Rossiya imperiya bo'lishdan to'xtaydi, lekin Ukraina bo'ysunib, keyin unga bo'ysunishi bilan Rossiya avtomatik ravishda imperiyaga aylanadi", - deb yozgan u.

Bjezinskiyning maqolasi chop etilganidan bir necha oy o'tgach, Qo'shma Shtatlar, Buyuk Britaniya va Rossiya Budapesht referendumini orqali Ukrainaning yadrosiz davlatga aylanishi evaziga uning mustaqilligi va suverenitetini hurmat qilishga va'da berishdi. Yigirma-yil o'tgach, Rossiya kuchlari Qrimni egallab olishi bilan Ukraina suverenitetini tiklash va mustahkamlash AQSh va Yevropa Ittifoqining tashqi siyosatidagi asosiy ustuvor yo'nalish sifatida qayta paydo bo'ldi. 2022-yilgi bosqindan keyin AQSh va NATO ittifoqchilari Ukrainaga mudofaa, iqtisodiy va gumanitar yordamni keskin oshirdi, shuningdek, Rossiyaga nisbatan sanksiyalarni ko'chaytirdi.

Ukraina bugun dunyoning eng qaynoq geosiyosiy maydonlaridan bir bo'lib qoldi. Bu geosiyosiy qarama-qarshiliklar natijasida ikkinchi jahon urushidan so'ng o'rnatilgan dunyo taribotini o'zgartirishi mumkin.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

- 1. 2001-yil 11- sentabr terakti oqibatlarini haqida so'zlab bering.*
- 2. 2001-yil 11-sentabrda Nyu-Yorkda uyushtirilgan terrorchilik aktlari uchun javobgarlikni AQSH ma'muriyati qaysi tashkilotga yuklagan edi?*
- 3. AQShning to'rt prezidenti: Jorj Bush, Barak Obama, Donald Tramp va Jo Baydenlarning Afg'onistonga nisbatan yuritgan siyosatlari haqida so'zlab bering.*
- 4. 2021-yil bahorda n boshlab "Tolibon" harakati birin-ketin hujumlar uyushtirib, Afg'oniston hududlarini egallab olish borasidagi muvaffaqiyatlarining sabablari nimada edi?*
- 5. Afg'onistonda Tolibon hukumatining hokimiyat tepasiga kelishi unga qo'shni bo'lgan davlatlarda qanday qiyinchiliklarni yuzaga keltirdi?*
- 6. «Katta yigirmalik» — G-20 klubi haqida nimalarni bilasiz? Mazkur klub xalqaro munosabat tizimida qay darajada ishtirok etgamoqda?*
- 7. Rossiya va G'arb davlatlari o'rtasidagi jiddiy qarama-qarshilikning yangi bosqichiga olib kelgan omil nimadan iborat?*
- 8. Janubiy Osiyo mintaqasidagi strategiya bo'yicha Hindistondagi ekspertlar o'rtasida qanday yondashuvlar mavjud?*

9. *Hozirgi AQSh Hindiston munosabatlari o'tmish bilan taqqoslaganda qanday yangi "fundamental" elementga ega?*
10. *AQShning Hindistonga nisbatan yangi yondashuvi uchta uzoq muddatli asoslarga tayanadi Ular haqida so'zlab bering.*
11. *XXI asr boshlarida Lotin Amerikasi mamlakatlarida integratsiyalashuv jarayonlari qanday kechmoqda?*
12. *AQSh va Buyuk-Britaniya koalision kuchlarning Iroqqa hujumi oqibatlari haqida so'zlab bering.*
13. *Nega ISHID va boshqa sunniy jangari guruhlar orasida birdamlik mavjud emas edi?*
14. *Rossiya – Ukraina o'rtasidagi o'zaro ziddiyatlarning kelib chiqishi sabablari nimalardan iborat.*
15. *Rossiya – Ukraina o'rtasidagi urush Rossiya va G'arb davlatlarining hayotiga qanday salbiy ta'sir ko'rsatmoqda?*
16. *Mazkur urushda Rossiyaning siyosiy maqsadlari nimalardan iborat?*
17. *AQShning Ukrainadagi ustuvorliklari nima edi?*

XULOSA

Xulosa qilib aytilganda mazkur darslik xalqaro munosabatlarning taxminan so‘nggi 420 yillik voqealarini o‘z ichiga qamrab olgan bo‘lib, asosan XVII asr boshlaridan tortib hozirgi kunga qadar davlatlararo munosabatlar tarixida kechgan voqea-hodisalarni qamrab olgan.

XVI asr Portugaliya va Ispaniya tarixida chuqur iz qoldirdi, chunki XVI asr Yevropa tarixida “Ispaniya asri” ham deb ataladi. Shu bilan bir qatorda, XVI asrda Yevropada milliylikka asoslangan mutlaq monarxiyalar shakllandi. Bunday markazlashgan milliy davlatlar Angliya, Fransiya, Ispaniya, Portugaliya, Daniya va Shvesiyadan iborat edi. Aynan XVI asrda niderlandlarning mustaqillik uchun ispan bosqinchilariga qarshi kurashida Birlashgan muzofotlar respublikasi yoki Niderlandiya respublikasi tashkil topdi.

XVI asrdan farqli o‘laroq, XVII asrni Yevropada aql-idrok, yoki oqilona mulohazakorlik asri deb atashadi. XVII asrning birinchi yarmida Angliyada bozor iqtisodiyotiga o‘tishda burilish yuz berdi. Ishlab chiqarishning yangicha usullariga tayangan “yangi dvoryanlar” ingliz parlamenti deputatlarining ko‘pchiligini tashkil qilar va parlamentni Angliya qirolligiga qarshi kurashga chorlardi. Bu inqilobiy harakat fuqarolar urushi tusini oldi va parlament qirol hokimiyati ustidan g‘alaba qozonib, Angliyaning keyingi barqaror rivojlanishini ta’minladi. Deyarli bir vaqtning o‘zida Yevropa davlatlari o‘rtasida

O‘ttiz yillik urush (1618–1648) bo‘lib o‘tdi. 1648 yil Vestfaliyada imzolangan tinchlik shartnomasi bu urushga chek qo‘ydi va Yevropada kuchlarning yangi muvozanatini vujudga keltirdi. Vestfal tinchlik bitimi xalqaro munosabatlarning huquqiy asoslarini yuzaga keltirdi.

Endilikda xalqaro munosabatlarning asosiy sub’ektlari suveren davlatlar hisoblanar edi. 1688 yil Angliyada bo‘lib o‘tgan “shonli inqilob” natijasida Niderlandiyaning shtatgalteri Vilgelm Oranskiy Angliya taxtini egalladi va shu davrdan boshlab, Angliya tashqi siyosatida Fransiyaqa qarshi kurash olib borish tendensiyasi kuchayib bordi. Xalqaro munosabatlar rivojida 1814–1815

yillardagi Vena kongressida qabul qilingan qonun-qoidalarga ko'ra, davlatlar o'rtasida umumiy tartib joriy etildi va doimiy faoliyat ko'rsatadigan elchixonalarga asos solindi. Aholi sonining ortib borishi xalqaro munosabatlarga katta ta'sir ko'rsata boshladi. Shu bilan birga, Buyuk fransuz inqilobi jarayonida ko'pchilik fransuzlar xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketishdi, bu ko'chish bir qit'a doirasida yuz bergan bo'lsa, keyinchalik Yevropadan Amerika qit'asiga ko'chish ommaviy tus oldi. Aholi AQSh, Braziliya, Argentina hududlariga ko'char edilar. O'z navbatida, "yangi dunyo"ga ko'chib kelgan odamlar Yevropa ilmi, fan-texnika g'oyalarini o'zlari bilan olib kelishdi. Tibbiyotning rivoji va turmushning farovonlashuvi, o'z navbatida, xalqaro munosabatlarga jiddiy ta'sir ko'rsatdi.

XVIII asr oxirida tashkil topgan AQSh va Kunchiqar mamlakat – Yaponiya bir muncha vaqt davomida Yevropa davlatlaridan uzoqda bo'lib, xalqaro munosabatlarga deyarli ta'sir ko'rsatmadilar. Jug'rofiy jihatdan Yevropaga yaqin bo'lgan Rossiya XVIII asrdan boshlab xalqaro munosabatlarning faol sub'ektiga aylana bordi.

Xalqaro munosabatlar tarixida diniy omil ham, shubhasiz, katta rol o'ynagan. Ayniqsa, Ikkinchi jahon urushidan so'ng, diniy omil hal qiluvchi ahamiyat kasb eta boshladi. Xalqaro munosabatlarda sivilizatsiyalar o'rtasidagi aloqalar muhim o'rin tutadi. Dunyoda qancha xalq bo'lsa, shuncha sivilizatsiyalar mavjud. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, har bir xalq yoki millat betakrordir.

Shunday ekan, sivilizatsiya bu xalq yoki millatning diniy e'tiqodi, uning o'ziga xos mentaliteti hamda turmush tarzini o'z ichiga olishi tabiiy, albatta. Masalan, Angliya va Fransiya o'rtasidagi raqobatda Angliya fransuz protestantlarini moliyalashtirib turgan. Rim papasining olib borgan siyosati natijasida islom sivilizatsiyasiga mansub bo'lgan mamlakatlarda diniy hamjihatlik, diniy Uyg'onish yuz bera boshladi.

Yevropa mamlakatlarida milliy ong ham katta ahamiyat kasb eta boshladi, bu omil, ayniqsa, Buyuk fransuz inqilobi davrida yuqori cho'qqiga

ko‘tarildi. XIX asrda Yevropada milliy ongning tez sur‘atlar bilan rivojlanishi kuzatildi. Milliylik, boshlang‘ich ma‘lumot olishga intilish, matbuotning rivojlanishi shuningdek, texnikaviy va g‘oyaviy taraqqiyot o‘zaro chambarchas bog‘lanib ketdi. Matbuot ommaviy tus oldi, parlamentlar va partiyalarning faoliyati tobora yuksalib bordi. Dengiz transportining takomillashuvi xalqaro munosabatlarda odamlarning bir joydan ikkinchi joyga ko‘chishi hamda g‘oyalarning dunyo bo‘ylab yoyilishiga katta ta‘sir ko‘rsatdi.

Yangi va eng yangi davrga kelib xalqaro munosabatlarni amalga oshirishda diplomatiya yagona yechim sifatida tan olinadigan bo‘ldi. Birinchi va ikkinchi

jahon urushi davrida, “sovuq urush” munosabatlari avj olgan yillarda va yadro urushi xavfi susaymagan bugungi kunda ham diplomatiyaga bo‘lgan ehtiyoj o‘zining eng yuqori cho‘qqisiga chiqdi. Insoniyat jamiyatining saqlanib qolishi va kelgusida ham mavjud bo‘lishi xalqaro munosabatlardagi muammo va kelishmovchiliklarni faqat va faqat diplomatiya yo‘li bilan hal etishga bog‘liq bo‘lib qolganligi bugun hech kimga sir bo‘lmay qoldi.

Bugungi kunda globallashuv jarayoni xalqaro siyosiy jarayonlarga jiddiy ta‘sir o‘tkazmoqda. Bu ta‘sir va uning natijasida yuz berayotgan o‘zgarishlarning darajasi va harakatlarini turlicha baholash va talqin etish mumkin. Globallashuvning ta‘rifi, o‘lchovlari, talqini va ta‘siri haqida turli xil ilmiy guruhlariga mansub olimlarning qarashlari bir-biridan jiddiy farq qiladi. Sababi, biz endilikda dunyoda mutlaqo yangicha voqealar tizimini boshdan kechirmoqdamiz.

Bugungi kun xalqaro munosabatlari avvalgi davrlardan keskin farqlanadi. Endilikda xalqaro munosabatlarning rivojlanishiga ta‘sir etuvchi hududiz chegaralar hamda masofasiz omillar va vositalar yuzaga kelmoqda.

Globallashuv hokimiyatni boshqarish tartibi va shakllariga ham ta‘sir etmoqda. Davlat jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni boshqaruvchi yetakchi kuch bo‘lib qolayotgan bo‘lsa-da, globallashuv jarayoni davlat suvereniteti asoslarini tashkil etuvchi tamoyillarning ahamiyatini susaytirmoqda.

Shuningdek, xalqaro munosabatlarda hokimiyatga ta'sir etishning yangi ko'rinishlari – xalqaro ijtimoiy harakatlar (misol uchun, Grinpis yoki Amnisti interneyshnl tashkilotlari), xalqaro qonun normalari yuzaga kelib, bular ham, o'z navbatida, davlat suverenitetining susayishiga ta'sir etmoqda.

Globallashuvni bir tomonlama, yuzaki baholamasdan, unga amaliy yondashish zarur. Bu jarayon barchaga turlicha ta'sir o'tkazmoqda. Misol uchun, globallashuvning ijobiy taraflaridan Shimoliy Amerika aholisi Afrikadagilardan ko'ra ko'proq foyda ko'rmoqda. Shuningdek, mazkur jarayonda shahar aholisi, xususan, yoshlar, qishloqdagilarga nisbatan ko'proq ishtirok etmoqdalar. Globallashuv makon va masofa tushunchalariga ham batamom barham bergani yo'q.

Kishilar hamon o'zlarini ma'lum bir hudud, vatan bilan bog'lashga harakat qiladilar. Aholi va mahsulotlarning harakati uchun masofa hamon asosiy omil bo'lib qolmoqda.

Xalqaro munosabatlar tarixining tahlili shuni ko'rsatadiki, hamisha ham urush va mojarolar hamda nizolarning oldini olish uchun samarali choralar ko'rilmagan. Insoniyat, ayniqsa, uning peshvolari urushlar va mojarolarning oldini olish bilan bog'liq qat'iy choralarni har doim ham ishga solavermaganlar. Xalqaro munosabatlar tarixini o'rganish undan yetarlicha saboq olish va yo'l qo'yilgan xatolardan xulosa chiqarish kerakligini uqtiradi.

GLOSSARIY

- Absolyutizm** – Davlat boshqaruv shakli bo‘lib, unda monarx hokimiyati cheklanmagan, davlat markazlashuvining, byurokratik apparat boshqaruvining, doimiy armiya va politsiyaning yuqori cho‘qqisiga erishiladi.
- Adrianopol sulhi** – 1828-yilda Rossiya Turkiyaga urush e‘lon qildi, bu urush rus qo‘shinlarining g‘alabasi hamda 1829-yildagi “Adrianopol sulhi” bilan tugadi.
- Arendator** – Belgilangan arenda haqqi evaziga ma‘lum yer uchastkasidan vaqtincha foydalanuvchi kishi, ko‘pincha dehqon.
- Asketizm** – Tuyg‘u, istaklarni o‘z xohishi bilan cheklash yoki bostirish, jismoniy azoblarni o‘z istagi bilan tortish, hayot quvonchlaridan voz kechish.
- Barokko** – (italyan. barocco – mo‘jizaviy, ajoyib) XVI–XVIII asrning o‘rtalarida Yevropa mamlakatlaridagi san‘at, arxitektura, adabiyot va musiqada keng tarqalgan yo‘nalish.
- Bogdixon** – Manchjuriya, Mongoliya, Tuva, Oltoy va Buryatiyada oliy diniy unvon, 1911 yilgacha sin sulolasidan bo‘lgan Xitoy imperatorlari ham shu unvonga ega bo‘lishgan.
- Bombarda** – XV–XVI asrlarda tosh o‘qlar bilan otadigan artilleriya quroli.
- Busido** – Yaponiyada samuraylarning axloq kodeksi, dzen-buddizm va sintoizmning tamoyillariga asoslangan.
- «Bred deklaratsiyasi»** – (1660 yil 14 may) Unga binoan qirol Angliya inqilobi paytida yangi Zodagonlar va burjuaziya qo‘lga kiritgan barcha imtiyozlarni tan oldi.
- Varshava shartnomasi** – (1768) Pravoslavlarning siyosiy huquqlari kengaytirilib, katoliklarniki bilan tenglashtirildi, Polsha ustidan Rossiya protektorati o‘rnatildi.
- Viglar** – Angliyadagi siyosiy partiya, burjualashgan zodagon aristokratiyasi, yirik savdo va moliya burjuaziyasi manfaatlarini ifoda etadi, XIX asr o‘rtalarida liberal partiyaga asos bo‘ldi.
- Vestfal tinchlik** – Vestfaliyaning Myunster va Osnabryuk shaharlarida imzolangan. Reformatsiya kuchlari bilan ularning

- sulhi (1648)** *dushmanlari o'rtasidagi qarama-qarshilikni yakunladi.*
- Gabsburglar** – *Avstriyada hukmronlik qilgan sulola (1282 yildan gersoglar, 1453 yildan ersgersoglar, 1804 yildan Avstriya imperatorlari). 1526 yil Chexiya va Vengriyani (u yerlarda qirol deb atalganlar) va b. hududlarni qo'shib olib ko'p millatli ulkan davlatni (1867—1918 yillarda Avstriya-Vengriya) monarxlari bo'lganlar. G. "Muqaddas Rim imperiyasi" imperatorlari (1438—1806 yillarda doimiy ravishda, 1742—45 yillardan tashqari), shuningdek Ispaniya qirollari (1516—1700) ham edilar. Asosiy vakillari: Karl V, Filipp II (Ispaniyada), Mariya Tereziya, Iosif II, Frans Iosif I. G. ijtimoiy taraqqiyot dushmanlari, Yevropa xalqlarining milliy ozodlik harakatlarini bo'g'uvchilar sifatida tarixda nom qoldirishgan. Avstriya-Vengriya imperiyasi tarkibiga kirgan o'lkalarda mustamlakachilik siyosatini yuritganlar.*
- Gotika** – *(ital. Gotiko – gotlarga xos) XII asrning ikkinchi yarmi – XV asrlar G'arbiy Yevropa san'atiga xos uslub. Uyg'onish davri gumanistlari o'zlaridan oldingi san'atning «yovvoyi» xarakterini ta'kidlash uchun shunday atashgan.*
- Gugenotlar** – *XVI–XVIII asrlarda Fransiyada protestant-kalvinistlar shunday deb atalgan.*
- Gumanizm** – *Inson shaxsining qadrini, uning huquq va erkini, baxtga intilish va o'z imkoniyatlarini rivojlantirish huquqini tan oluvchi, tarixan o'zgaruvchan qarashlar tizimi.*
- Diggerlar** – *Levellerlar harakatidan ajralib chiqqan inqilobiy demokratiyaning o'ta o'ng qanoti.*
- «Dengiz qatnovi akti» (1651)** – *Unga ko'ra Angliyaga dengiz orti tovarlarini olib kirish huquqiga faqat ingliz kemalarigina ega edi.*
- “Devolyusiya urushi”** – *Ispaniya qiroli Filipp XIV 1665-yilda vafot etdi, Fransiya o'z merosini janubiy Niderlandiyadan berilishini talab qildi, Ispaniya uni rad qildi. Natijada, 1667-yilda Fransiya Ispaniya urushi boshlandi. Bu urush “Devolyusiya urushi” yoki “Vorislik urushi” deyildi.*
- «Diniy bag'rikenglik haqida** – *(1687 yili 2 aprel) Yakov II Angliyada «Diniy bag'rikenglik haqida deklaratsiya»ni imzoladi.*

deklaratsiya»

«Do'stlik va Tijorat Bitimi»

- (1778 yil 6 fevral) AQSh va Fransiya o'rtasida imzolangan o'lib, unga ko'ra Fransiya AQShni tan oldi hamda savdo-sotiq shartnomalarini taklif etdi.

“Yevropaning asosiy jandarmi”

- XIX asrda Chor Rossiyasiga berilgan nom. Polyaklar qo'zg'oloni tor-mor qilinishi bilan “Yevropaning asosiy jandarmi” bo'lgan chorizmning roli yanada ko'chaydi.

Inkvizitsiya

- Qidiruv, sud va jazo funksiyalarini bajaruvchi katolik cherkovi tribunali. 1229 yili Tuluza shahrida tuzilgan. 1233 yili Rim papasi Grigoriy IX ning maxsus bullasi bilan inkvizitsiyaning qarori barcha katoliklar uchun majburiy bo'ldi.

Independentlar

- Burjuaziya radikal qanotining va shakllanayotgan zodagonlarning manfaatlarini ifoda etuvchi Angliyadagi siyosiy partiya; 1649 –1650 yillar hokimiyatda turgan.

«Inson va fuqaro huquqlari

Deklaratsiyasi»

Istambul shartnomasi

- (1789 yil 26 avgust) Buyuk Fransuz inqilobi davrida Ta'sis majlisi tomonidan qabul qilingan hujjat.
- (1590) Eron bilan Turkiya o'rtasida imzolangan. Unga ko'ra Sharqiy Gruzziya, Sharqiy Armaniston, Kurdiston, Ozarbayjon va Luristonning bir qismi usmoniylarga o'tdi.

Iqto

- Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida hukmdor tomonidan feodalga katta xizmatlari evaziga in'om qilingan chek yer.

Industrial sivilizatsiya

- Sanoatni rivojlantirish va ilmiy-texnik taraqqiyotga asoslangan sivilizatsiya. Kalmar uniyasi 1397 yili Shvesiyaning Kalmar shahrida Daniya, Shvesiya, Norvegiya o'rtasida abadiy birlik to'g'risida tuzilgan akt. Daniya qiroli Erik Pomeranskiy uch davlatning qiroli deb e'lon qilingan.

Karavella

- XIII–XVII asrlarda O'rta Yer dengizida keng tarqalgan, baland bortli, bir kema sahnili yelkanli kema.

Konsullar

- Qadimgi Rimda bir yilga saylanuvchi oliy lavozimidagi ikkita shaxs, ular oliy fuqarolik va harbiy hokimiyatga ega bo'lgan. Buyuk fransuz inqilobi yillari Fransiyada uchta konsullik joriy qilingan.

- Kartezianlik** – XVII–XVIII asrlarda falsafa va tabiatshunoslikdagi yo‘nalish, R. Dekart g‘oyalariga asoslangan.
- Klassitsizm** – XVII–XIX asr boshlarida san‘atdagi uslub, antik davr merosiga ideal obraz, norma sifatida qaragan.
- Konkistadorlar** – Ispan bosqinchi-avantyuristlari. Liberal Erkin fikrlovchi odam, hurfikr, shakkok kishi.
- Livellerlar** – Angliyadagi radikal siyosiy partiya
- Lyuteranlar** – Martin Lyuter ta‘limoti tarafdorlari, protestantlar.
- Mangalur sulhi (1784)** – Ikkinchi ingliz-maysur urushi davrida Tipu sultoni bilan inglizlar o‘rtasida tuzilgan.
- Masonlar** – Insoniyatni tinch yo‘l bilan birodarlik ittifoqiga birlashtirishni maqsad qilgan diniy-etnik yashirin harakat a‘zolari.
- Ma‘rifatli Absolyutizm** – Mohiyati mavjud absolyut monarxiyali davlat shaklini o‘zgartirmasdan eskirib qolgan feodal tartiblarni yangilashga qaratilgan iqtisodiy, madaniy va siyosiy islohotlarni «yuqoridan» o‘tkazish siyosati.
- Ma‘rifatchilik** – XVII–XVIII asrlarda Yevropa mamlakatlarida sodir bo‘lgan maorifning keng yoyilishi, fanning rivojlanishi davri; «tabiiy tartibni» anglashda ong va fanning hal qiluvchi rolga ishonchga asoslangan, bu esa inson va tabiatning asl mohiyatiga mos keladi, deb qaralgan.
- Merkantilizm** – (fransuzcha mercantilisme, lotincha mercante – sotuvchi, savdogar) Feodalizmning inqirozi va kapitalizmning shakllanishi davrida savdo burjuaziyasining manfaatlarini aks ettiruvchi iqtisodiy ta‘limot va iqtisodiy siyosat.
- “Metternix tizimi”** Metternix tagidan zil ketgan ko‘p millatli Gabsburglar monarxiyasini va Germaniya ustidan Avstriya zulmini saqlab turish maqsadida 1815-yildan boshlab milliy-ozodlik harakatlarini ta‘qib qilishni ko‘chaytirdi hamda Avstriya imperiyasidagi turli millatlarni idora etish osonroq bo‘lishi uchun ularni doimiy ravishda bir-birlariga qarshi qilib turdi. Ushbu tizim tarixga “Metternix tizimi”

- Monopoliya** – Ishlab chiqarish, savdo qilish, kondan foydalanishning bir shaxsga, shaxslar guruhi, davlatga beriladigan imtiyozli huquq.
- Mustaqillik Deklaratsiyasi** – Amerika Qo‘shma Shtatlarini demokratik boshqarishning huquq va prinsiplari asoslangan birinchi hujjat.
- "Muqaddas ittifoq"** – 1815-yil 14 sentabrda Rossiya, Avstriya-Vengriya va Germaniya monarxlarining inqilobga qarshi kurashda o‘zaro yordam ko‘rsatish uchun tuzilgan ittifoq tarixga "Muqaddas ittifoqi" nomo bilan kirgan..
- «Meyflauer ahdlashuvi» (1620)** – 101 nafar puritan (ota-pilgrimlar) dan iborat guruh «Meyflauer» kemasida Virjiniyaga keldi.
- Nant edikti (1598)** – Unga binoan Fransiyada hukmron din bo‘lib katolitsizm qoldi, ammo gugenotlarga erkin ibodat qilish huquqi berildi (Parijdan boshqa shaharlarda).
- Niderland** – Hozirgi Belgiya va Gollandiya hududlarining tarixiy nomi, tarjimasi «past yerlar» bo‘lib, bu hududlar dengiz sathidan pastda joylashganligi uchun shunday deyilgan.
- Nishtadt sulhi (1721)** – Sulhga ko‘ra Liflandiya, Estlandiya, Nidruj hamda Edel va Dago orollari Rossiyaga o‘tdi. Shvesiyaga Finlyandiya qaytarildi va egallangan yerlar uchun Rossiya haq to‘lash majburiyatini oldi.
- Obskurantizm** – (lotincha *obscurantis* – yorug‘likni to‘suqchi, qorong‘u qiluvchi) Ma‘rifat va fanga o‘ta dushmanlik munosabati, jaholat.
- Pojarevask sulhi** – Avstriya Bosniya va Serbiyaning bir qismini, Sloveniya va Valaxiyaning katta qismini, shuningdek, Banatni o‘z tarkibiga qo‘shib oldi.
- “Prayd tozalashi”** – 1649 yilda Angliya zobitlaridan biri polkovnik Prayd o‘zining qurollangan kichiq guruhi bilan parlament binosiga kirib, qirol Karl I bilan kelishib ish ko‘rmoqchi bo‘lgan deputatlarning barchasini haydab chiqardi. Bu hodisa parlamentni “Prayd tozalashi” nomi bilan Angliya tarixiga kirdi. Shundan so‘ng parlamentning jamoalar palatasiga mansub Prayd tomonidan “tozalangan” qismi ikkinchi palata - lordlar palatasining qarshiligiga qaramasdan, Karl I ni parlament tomonidan Oliy sudga topshirdi.

- Pragmatik sanksiya (1723)** – Unga binoan taxt vorisligi jinsidan qat'i nazar Gabsburglar sulolaning yoshi katta vakiliga o'tadigan bo'ldi.
- Proteksionizm** – (fransuzcha *protectionnisme* lotincha *protectio* – panada saqlash, himoya qilish) Davlatning iqtisodiy siyosati bo'lib, mamlakatga kiritiladigan chet el tovarlariga yuqori boj solig'i o'rnatish, ayrim tovarlarni kiritishni cheklash yoki to'liq taqiqlash yo'li bilan milliy ishlab chiqarishni chet el raqobatidan himoya qilishga qaratilgan.
- Protestantizm** – Cherkovni isloh qilish uchun harakat
- Provinsiyalar intendantlari** – (fransuzcha *intendant* – boshqaruvchi) XVII–XVIII asrlarda Fransiyada mavjud bo'lgan, provinsiyalarni boshqarish uchun markazdan tayinlanadigan maxsus lavozimli shaxs.
- Puritanlik** – (inglizcha «pure» – «toza») Xristian dinidagi mazhablardan biri. XVI asrning ikkinchi yarmida Angliyada kalvinizm va anabaptizm asosida shakllangan, ingliz protestantizmiga muxolifatda bo'lgan diniy oqim. Puritanlar qat'i e'tiqod va oddiy (toza, nomlari ham shundan kelib chiqqan) cherkov marosimi tarafdorlari.
- “Reyn ittifoqi” (1806)** – 1806-yil dekabr boshida Austerlits yonidagi jangda Rossiya va Avstriyaning birlashgan kuchlari mag'lubiyatga uchradi. Tez orada Avstriya va Fransiya o'rtasida tinchlik shartnomasi imzolandi. Napoleon protektorati ostida 16 ta german davlatidan iborat “Reyn ittifoqi” tashkil etildi.
- Rech pospolita** – (polyakcha: *Rzeczpospolita*, g'arbiy-rus. *Рѣч Поголума*) — federal davlat bo'lib, 1569-yilda Polsha Qirolligi va Litva Buyuk Gertsogligining Lublin Ittifoqi negizida birlashishi natijasida vujudga kelgan va 1795-yilda bo'linish bilan tugatilgan. uning yerlari Rossiya imperiyasi, Prussiya va Avstriya o'rtasidagi. zamonaviy Polsha, Ukraina, Belorussiya va Litva hududlarida, shuningdek qisman zamonaviy Rossiya, Latviya, Moldova, Estoniya va Slovakiya hududida joylashgan edi.

- Reformatsiya** – XV asrda Germaniyada paydo bo‘lgan va Yevropaning ko‘plab mamlakatlariga yoyilgan, katolik cherkovi ta‘limotiga o‘zgarish kiritish tashabbusi ostida o‘tgan, mohiyati feodalizmga qarshi qaratilgan ijtimoiy harakat.
- Restitutsion edikt (1629)** – Bu hujjat 1552 yildan beri protestantlar tomonidan egallangan (sekulyarizatsiya qilingan) yerlarga katolik cherkovining xuquqini tiklashni ko‘zda tutardi.
- Sanoat to‘ntarishi** – Qo‘l mehnatiga asoslangan manufaktura ishlab chiqarishidan mashinalar qo‘llaniladigan zavod va fabrika ishlab chiqarishiga o‘tish.
- Sen-Jermen kelishuvi (1570)** – Fransiyaning Sen-Jermen shahrida qirol tomonidan imzolangan edikt. Unga ko‘ra gugenotlar ham davlat mansablarini egallash huquqiga ega bo‘ldilar.
- Sekulyarizatsiya** – Ijtimoiy institutlarni din va cherkovdan ajratish.
- Syogun** – Umumyapon harbiy boshlig‘i, imperator nomidan davlatni boshqargan.
- Sxolastika** – (grekcha *scholasticos* – maktabga mansub) O‘rta asr «maktab falsafasi». Ularning faoliyatida universaliiylar haqida bahs asosiy o‘rin tutadi.
- “Shonli (sharaftli) inqilob”** – 1688-yilda Angliyada qirol Jeyms II Styuartni ag‘dargan davlat to‘ntarishining tarixiy nomi. To‘ntarishda Gollandiya qiroli Uilyam Orenj qo‘mondonligi ostidagi Gollandiya ekspeditsiya kuchlari ishtirok etgan, shuningdek u Uilyam III nomi bilan Angliyaning yangi qiroli bo‘lan (uning rafiqasi Meri II Styuart bilan birgalikda Jeyms II ning qizi). To‘ntarish ingliz jamiyatining eng xilma-xil qatlamlari orasida keng qo‘llab-quvvatlandi. Makoley bu voqeani Angliyaning butun tarixida markaziy voqea deb hisobladi. Bu voqea odatda tarixiy adabiyotlarda “1688-yil inqilobi” va “Qonsiz inqilob” nomlari bilan ko‘p bor uchraydi; ammo oxirgi nomi faqat Angliyada hokimiyatning o‘tish xususiyatini aks ettiradi va Irlandiya va Shotlandiyadagi yakobitlar bilan urushlarni hisobga olmaydi.
- “Sharqiy g‘ov” tizimi** – XVIII asrning birinchi yarmida Ispaniya bilan Fransiya Avstriya Gabsburglarining ashaddiy dushmanlari edi. Gabsburglarga qarshi kurashda Shvetsiya va Turkiyadan Fransiya o‘z ittifoqchilari sifatida foydalanishga intildi. Fransiyaning o‘rinishi Rossiya dushmanlarining ittifoqchisi sifatida noqulay ahvolda

qoldi. Gabsburglarga qarshi qaratilgan “Sharqiy g‘ov” degan mash‘um tizim uzoq vaqtgacha Fransiyani Rossiya dushmanlarining ittifoqchisi deb hisoblab keldi.

- Taler** – *Kumush tanga, XII–XVIII asrlarda Yevropada kumush standarti bo‘lib hisoblangan.*
- Tortesilyas shartnomasi (1494)** – *Unga muvofiq Azor orollaridan g‘arbda joylashgan yerlarga egalik qilish huquqi Ispaniyaga, sharqda joylashgan yerlarga egalik qilish huquqi Portugaliyaga berildi.*
- Totalitar** – *(lotincha totalitas – yaxlit, to‘liq) Jamiyatning hamma jabhalarini to‘liq qamrab olgan hukmron g‘oya, mafkura yoki siyosiy tuzimga nisbatan qo‘llaniladi.*
- Usturlab** – *(astrolyabiya) Dengizda geografik kenglik va uzunlikni aniqlashda yordam beradigan burchak o‘lchaydigan asbob.*
- Utrent uniyasi (1579)** – *Niderlandiyaning yettita shimoliy viloyatlari o‘rtasida «xuddi bitta viloyat kabi abadiy birlashish» to‘g‘risida tuzilgan ittifoq.*
- Fatalizm** – *(lotincha fatalis – qismat) Antidialektik dunyoqarash konsepsiyasi bo‘lib, unga ko‘ra olamdagi hamma jarayonlar zaruriyat taqozosiga bo‘ysunadi, erkin tanlash va ijodga o‘rin qoldirmaydi, hammasi oldindan belgilab qo‘yilgan.*
- Fuqarolik jamiyati** – *Ozod, mustaqil va teng huquqli insonlardan tashkil topgan jamiyat.*
- «Fuqarolar haqida patent» (1781)** – *Chexiya, Moraviya, Sileziya va Galitsiyada krepostnoy huquq bekor qilindi.*
- “Xalqlar jangi”** – *1812-yilning bahorda Fransiyaga qarshi oltinchi koalitsiya tashkil etildi. Uning tarkibiga Rossiya, Angliya, Shvetsiya, Prussiya, Ispaniya, Portugaliya, Avstriya kirdi. Hal qiluvchi jang 1813-yil 16-19 oktyabrda Leypsig shahri yonida ro‘y berdi. “Xalqlar jangi” natijasida Napoleon mag‘lub bo‘ldi va Reyn daryosi ortiga chekindi.*
- Epigenez nazariyasi** – *(yunoncha genesis – kelib chiqish) Embriogenezda organlar, dastlab strukturasisiz bo‘lgan embrion massasidan asta-sekin shakllanadi deb tushuntiruvchi*

nazariya.

Eksterri-toriallik

- *Chet ellardagi diplomat yoki kompaniyaning faqat o'z davlati qonunlariga bo'ysunishi.*

Hokimiyatning bo'linishi

- *Ushbu prinsipga binoan davlatda hokimiyat uchta mustaqil qismlarga bo'linadi (ijro, qonun chiqaruvchi va sud).*

Xalqaro munosabatlar tarixidagi muhim sanalar

XVII asr – Xalqaro munosabatlar tarixida aql-zakovat yoki ratsionalizm asri deb ataladi.

1607-yil – Shimoliy Amerikaning Atlantika sohilidagi hindular yashaydigan yerlar o‘rnida ilk ingliz mustamlakalariga asos solindi.

1609-yil – Gollandiya mustaqillikka erishdi.

1618-1648-yillar – Yevropadagi O‘ttiz-yillik urush.

1625-yil – Qirol Karl I taxtga o‘tirdi.

1625 -yil – Gabsburglarga qarshi protestantlik mazhabiga mansub bo‘lgan Daniya va uning qiroli Kristian IV (1577-1648 yy.) urush ochdilar.

1629-yil – Daniya mag‘lub bo‘ldi va urushdan chiqdi.

1632–1634-yillar – Polsha Rossiyaga qarshi urush olib bordi.

1642–1648-yillar – Angliyadagi fuqarolar urushi.

1648-yil – Vestfal sulh shartnomasi imzolandi va aynan shu-yildan boshlab har bir davlat xalqaro munosabatlarning sub’ekti hisoblanadigan bo‘ldi.

1649 -yil 30-yanvar – London shahrining Uaytxoll qasrida va parlament a’zolari ishtirokida Karl I ning boshi tanasidan judo etildi.

1649-yil 19-may – Angliya ilk bor respublika deb e’lon qilindi.

1649-yil – Kromvel boshchiligidagi armiya Dublinga yetib bordi.

1652-yil – Kromvel armiyasi Shotlandiyaga bostirib kirdi.

1682 – 1725 yillar – Pyotr I ning podshohlik davri.

1685 -yil – Qirol Karl II ning vorisi, uning ukasi Yakov II taxtga chiqdi.

1688–1689 yillar – Angliyada “shonli inqilob” natijasida qirol Yakov II mamlakatdan quvib yuborildi.

XVIII asr – xalqaro munosabatlarda “Ma’rifatparvarlik asri” deb ataladi.

1715 -yil – Fransiya qiroli Lyudovik XIV vafot etgach, uning nabiralaridan biri Lyudovik XV taxtga o‘tirdi.

1715–1774-yillar – Lyudovik XV mamlakatni boshqardi.

1732–1799-yillar – Jorj Vashington yashagan davr.

1733-yil – Jon Key uchar mokini ixtiro qildi.

1740–1786 -yillar – Prussiyani qirol Fridrix II boshqardi va zamondoshlari orasida u “Buyuk Fridrix” nomini oldi.

1743–1826-yillar – Tomas Jefferson yashagan davr.

1756–1763-yillar – Yetti-yillik urush.

1765-yil – Jeyms Xargriss charx ipini tortish va pishitishni ayni bir vaqtda ta’minlaydigan mexanizm yaratdi va uni o‘z qizining nomi bilan “Jenni” deb atadi.

1765-yil – Jeyms Uatt o‘zining bug‘ mashinasini ixtiro qildi.

1769–1821-yillar – Napoleon Bonapart yashagan davr.

1774-yil – Qirol Lyudovik XV vafot etib, uning o‘rniga nabirasi Lyudovik XVI taxtga o‘tirdi.

1775 -yil – Angliya bilan uning Amerikadagi mustamlakalari o‘rtasida urush boshlanib ketdi.

1776 -yil 4-iyul – Amerikada “Mustaqillik Deklaratsiyasi” qabul qilindi.

1783 -yil – Parijda AQSh va Angliya o‘rtasida sulh bitimi imzolandi.

1787-yil – Ta’ sis konvensiyasi AQSh Konstitutsiyasini qabul qildi.

1789 -yil – Jorj Vashington AQShning birinchi Prezidenti etib saylandi.

1789 -yil 5-may – Qirol Lyudovik XVI Versalda General shtatlar majlisini ochdi.

1789-yil 14-iyul – Parij aholisi Bastiliya qamoqxonasini qo‘lga kiritdi va u yerdagi mahbuslarning barchasini ozod qildi.

1789-yil avgust – Milliy majlis “Inson va fuqarolar huquqlari Deklaratsiyasini” qabul qildi.

1791-yil – Milliy majlis feodal, dvoryan va boshqa barcha imtiyozli unvonlarni bekor qilib, dehqonlarni barcha qaramliklardan ozod qildi.

1791 -yil – Ta’ sis majlisi o‘z o‘rnini Qonun chiqaruvchi majlisga bo‘shatib berdi, chunki ushbu majlis parlament deputatlari 1791-yilda qabul qilingan Konstitutsiya asosida saylangan edilar.

1792 -yil – Fransuz qo‘shinlari mamlakatga hujum qilgan prussiyaliklar va avstriyaliklar ustidan Valmida birinchi g‘alabani qo‘lga kiritdilar.

1792-yil 21-sentyabr – Milliy konvent o‘z majlislarini boshlab yubordi.

1792 – 1804-yillar – Fransiyada I Respublika davri.

1794-yil – Maksimilian Robesper boshchiligidagi yakobinchilarning zo‘ravonlikka asoslangan o‘ta so‘l diktaturasi ag‘darib tashlandi.

1795–1799-yillar – Direktoriya hukmronligi davri.

1797-yil – Napoleon Avstriyani taslim bo‘lish sulhini imzolashga va Fransiyaning g‘alabasini tan olishga majbur etdi.

1798-yil – Napoleon 30 mingdan ortiq kishilik armiya bilan 350 ta kemada Misrga yo‘l oldi.

1804-yil 2-dekabr – Senat Napoleon Bonapartni Napoleon I nomi bilan Fransiya imperatori deb e‘lon qildi.

1804 – 1814-yillar – Birinchi imperiya davri.

1812 -yil – Napoleonning Rossiyadagi urushi Birinchi imperiya armiyasini halokatga olib keldi.

1814-yil – Stefenson parovozi yaratildi.

1814 -yil – Napoleon ustidan qozonilgan g'alabadan so'ng Venada Yevropa davlatlarining kongressi chaqirildi.

1814–1815-yillar – Vena kongressi qaroriga ko'ra davlatlararo doimiy elchiliklar tashkil topdi.

1815 mart-iyun – Napoleonning qayta taxtga o'tirishi va 100 kunlik hukmronligi.

1815-yil 18-iyun – Vaterloo yaqinidagi so'nggi katta jangda Angliya va Prussiya qo'shinlari Napoleon armiyasini tor - mor qildilar

1819-yil – Venesuela mustaqil deb e'lon qilindi.

1819-yil – Grenada endi Kolumbiya nomi ostida mustaqil bo'ldi.

1821 -yil – Turkiyaga qarashli bo'lgan Gresiyada milliy-ozodlik harakati boshlanib ketdi.

1825-yil – Boliviya tashkil topdi.

1822 -yil – Braziliya Portugaliyadan ajralib chiqdi va mustaqil davlatga aylandi.

1822-yil – Ekvador mustaqillikni qo'lga kiritdi.

1830-yil – Polsha qo'zg'oloni.

1830 -yil – Janubiy Amerikadagi barcha xalqlar o'z mustaqilliklariga erishdilar.

1830-yil – Fransiyada Iyul inqilobi.

1830–1848-yillar – Lui Filippning qirolligi.

1830 -yil – Yevropa hukmron doiralari ichida keskin inqiroz boshlanib ketdi.

1832 -yil – Angliya parlamenti o'z mustamlakalarida qullar oldi-sotdisini bekor qildi.

1841-1929-yillar – Jorj Klemanso yashagan davr.

1848-yil fevral – Fransiyada inqilob boshlanib ketdi.

1848 -yil – Fransiyadagi Muvaqqat hukumat o'z mustamlakalarida qullar oldi-sotdisini bekor qildi.

1848–1851-yillar – Fransiyada Ikkinchi Respublika davri.

1848 -yil dekabr – Muqobilik asosida o'tkazilgan prezidentlik saylovlarida Napoleon Bonapartning jiyani, 40 yoshli Lui Napoleon Bonapart Fransiyaning birinchi prezidenti etib saylandi.

1848–1849-yillar – Italiyada inqilob davri.

1849-yil may – bir-yil oldin saylangan Ta'sis majlisi o'z o'rnini Milliy majlisga bo'shatib berdi.

1851 -yil 1-dekabrda 2-dekabrga o'tar kechasi – Lui Napoleon Bonapart tomonidan sodir etilgan davlat to'ntarishi tufayli Ikkinchi respublika quladi.

1853-yil oktyabr – Rossiya Turkiyaga qarshi urush e'lon qildi.

1853-1856-yillar – Qrim urushi.

1856 -yil 25-fevralda – Parijda Qrim urushi qatnashchilarining kongressi ochildi.

1859 -yil – Avstriya boshchiligidagi Germaniya ittifoqi tarqatib yuborildi.

1859 -yil – Prussiya boshchiligidagi Shimoliy Germaniya ittifoqi tashkil topdi.

1861 – 1865-yillar – AQShda fuqarolar urushi.

1864-yil – Checheniston rus qo‘shinlari tomonidan zabt etildi.

1864-1865 -yillar – Turkistonning yuragi bo‘lgan Toshkent ruslar tomonidan zabt etildi.

1866-yil – Bismark Avstriyani tor-mor qilib, Shimoliy Germaniya ittifoqining kansleriga aylandi.

1868 -yil – Samarqand yaqinidagi Zirabuloq jangida rus chorizmi Buxoro amirligi ustidan g‘alaba qozondi.

1870-yil iyul – Fransiya – Prussiya urushi.

1870-yil 4-sentyabr – Fransiya Respublika deb e‘lon qilindi.

1870-yil 20-sentyabr – Italiyaning doimiy armiyasi Rimni egalladi.

1871-yildan so‘ng – Fransiyada uzil-kesil respublika tizimi joriy etildi va boshqaruvda prezidentlik instituti qayta tiklandi.

1873 -yil may oyida – Germaniya va Rossiya o‘rtasida harbiy konvensiya imzolandi.

1873 -yil – Rus chorizmi Xiva xonligini bosib olib, uni o‘z mustamlakasiga aylantirdi.

1874-1965-yillar – Uinston Cherchill yashagan davr.

1876 -yil – Qo‘qon xonligi tugatilib, uning yerlari Turkiston general-gubernatorligiga qo‘shib olindi.

1879-1953-yillar – Iosif Stalin yashagan davr.

1880 -yil – Katta urinishlardan so‘ng Angliya Afg‘onistonda o‘z protektoratini o‘rnatdi.

1881 -yil – Al-Jazoir bilan chegaradosh bo‘lgan Tunis Fransiya tomonidan bosib olindi.

1882-yil – Uchlar ittifoqi vujudga keldi.

1882 – 1945-yillar – Franklin Ruzvelt yashagan davr.

1883-1885 -yillar – Annan, Tonkin, Koxinxan va Kampuchiya Hindixitoy Ittifoqiga kiritilib, Fransiya mustamlakasiga aylantirildi.

1885-yil – Angliya Hindiston hududidan turib, Birmani bosib oldi.

1884 -yil – Chor Rossiyasi katta qurbonliklar evaziga Marvni egalladi.

1887 -yil – Rossiya va Germaniya o‘rtasida tuzilgan bitim o‘z-o‘zini sug‘urtalash nomini oldi

1890 – 1970-yillar – Sharl de Goll yashagan davr.

1891 -yil – Rossiya va Fransiya o‘rtasida maslahatlashuv pakti imzolandi.

1895–1896-yillar – Italiya Habashistonga qarshi urush olib bordi.

1895 -yil – A. Popov elektr orqali ishlaydigan radio apparatini kashf etdi.

1899-yil – Kuba AQSh tomonidan okkupatsiya qilindi.

1903-yil – AQShda aka-uka Uilbur va Orvil Raytlar aeroplan yasab, samoga ko‘tarilishdi.

1904 -yil – Angliya va Fransiya o‘rtasida “entente cordiale”, ya’ni «samimiy kelishuv» bitimi vujudga keldi.

1907-yil – Antanta vujudga keldi.

1908 –1909-yillar – Bosniya inqirozi vujudga keldi.

1914 -yil 23-iyul – Serbiyaga Avstro-Vengriya ultimatum e’lon qildi.

1914 -yil 29-iyul – Nikolay II harbiy safarbarlik to‘g‘risidagi buyruqqa imzo chekdi.

1914-yil 31-iyul – Parijda Jan Jores otib o‘ldirildi.

1914 -yil 1-avgust – Germaniya yoppasiga harbiy safarbarlik e’lon qildi.

1914-yil 3-avgust – Germaniya Fransiya qarshi urush ochdi.

1914-yil 2,5,6 noyabr – Rossiya, Angliya va Fransiya Turkiyaga urush e’lon qildilar.

1917-yil fevral – Rossiyada inqilob yuz berdi va podshoh Nikolay II taxtdan ag‘darildi.

1917-yil – Buxoro amirligining Chor Rossiyasiga qaramligi barham topdi

1918-yil – Germaniya Respublika deb e’lon qilindi.

1918-yil mart – Germaniya va Sovet Rossiyasi o‘rtasidagi Brest sulh shartnomasi imzolandi.

1918-yil noyabr – Germaniya respublika deb e’lon qilindi.

1918-1922-yillar – Turkiyada Milliy ozodlik harakati.

1918-1923 -yillar – Xalqaro munosabatlarda inqilobiy yuksalish-yillari.

1919–1920-yillar – Parij sulh konferensiyasi.

1919 -yil – Parij sulh konferensiyasida aynan Versal qasrida Germaniya bilan imzolangan bitimda “Millatlar ligasi” tashkil topdi.

1919-yil – Angliya Afg‘onistonning mustaqilligini tan oldi.

1920 -yil fevral – Sovet qo‘shinlari Xiva xonligiga bostirib kirib uni ag‘darishdi va Xorazm Sovet Respublikasini e’lon qildi.

1920-yil 2-sentyabr – Buxoro amiri S. Olimxon taxtdan ag‘darildi va Buxoro Xalq Sovet Respublikasi e’lon qilindi.

1920 -yil oktyabr – Sovet qo‘shinlari Sharqiy Buxoroga yurish boshladi.

1921-yil yozida – Sharqiy Buxoroda ommaviy qo‘zg‘olon boshlandi.

1921–1922-yillar – Vashington konferensiyasi.

1924–1928 -yillar – Xalqaro munosabatlarda barqarorlashuv-yillari.

1927-yil – Yaponiyada “Tanaka memorandum” ishlab chiqildi.

1927-yil bahorida – AQSh, Angliya, Yaponiya, Fransiya Xitoyga qarshi ochiq intervensiya e’lon qildilar.

1928-yil – Toshkent shahrida oynai jahon – televizor kashf etildi.

1929-yil – Jadidlar ta’qib ostiga olina boshlandi.

1929–1933-yillar – Jahon iqtisodiy inqirozi-yillari.

1932 -yil – Germaniyada navbatdagi prezidentlik saylovlari bo‘lib o‘tdi.

1933 -yil yanvar – Germaniyada prezident Gindenburg Gitlerni reyxkanslerlik lavozimiga tayinladi.

1933 -yil – SSSR bilan AQSh o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatish to‘g‘risidagi bitim imzolandi.

1935-yil – SSSR bilan Fransiya o‘rtasida o‘zaro yordam shartnomasi tuzildi.

1935–1936 -yillar – Italiyaning Habashistonga urush e‘lon qilmasdan bostirib kirishi va uni bosib olishi.

1936-1939-yillar – Ispaniyada fuqarolar urushi.

1936-yil oktyabr – Germaniya–Italiya harbiy Siyosiy bloki vujudga keldi.

1938-yil – “Myunxen fitnasi”.

1939-yil – Yaponiya va Angliya o‘rtasida imzolangan bitim va uning “Uzoq Sharq Myunxeni” nomini olishi.

1939 -yil 23-avgust – Moskvada “Molotov-Ribbentrop” pakti imzolandi.

1939 – 1945-yillar – Ikkinchi jahon urushi-yillari.

1940 -yil 22-iyun – Fransiya Germaniyaga taslim bo‘ldi va 70-yil davom etgan Fransiya III Respublikasi quladi.

1941-yil 22-iyun – Germaniya sobiq SSSRga urush e‘lon qilmasdan turib bostirib kirdi.

1941-yil dekabr – AQSh Yaponiyaga urush e‘lon qildi.

1943 -yil 28-noyabrdan 1-dekabrgacha – Uch davlat rahbarlarining Tehron konferensiyasi bo‘lib o‘tdi.

1945-yil 25-aprel – San-Fransiskoda BMT ta’sis konferensiyasi ish boshladi.

1945-yil 26-iyun – Konferensiya BMT nizomini qabul qildi.

1945 – 1954-yillar – Vetnam xalqining ozodlik urushi.

1946-yil – “Sovuq munosabatlar urushi” boshlandi.

1949-yil 1-oktyabr – Xitoy Xalq Respublikasi tuzildi.

1949-yil aprel – NATO tashkil topdi.

1949-yil – Sobiq SSSR va Sharqiy Yevropadagi sotsialistik davlatlar o‘rtasida “O‘zaro iqtisodiy yordam kengashi” tuzildi.

1951-yil – Yevropa ko‘mir qazish va po‘lat eritish birlashmasi tuzildi.

1957-yil – Yevropa Iqtisodiy hamkorligi – “Umumiy bozor” vujudga keldi.

1961-1962-yillar – Karib inqirozi va uning yechimi.

1975-yil – Xelsinkida Yevropada xavfsizlik va hamkorlik masalalari bo‘yicha 35 davlat rahbarlari majlisi bo‘lib o‘tdi.

1979-yil kuzida – Tehron universiteti talabalari AQSh elchixonasi binosini bosib olib, 63 nafar amerikalik diplomatni garovga oldilar.

1979-yil dekabr – Sovet qo‘shinlarining Afg‘onistonga bostirib kirdi.

1981-yil yanvar – AQShning katta pul to‘lovi natijasida diplomatlar ozod etildi.

1989-yil – Sovet qo‘shinlari Afg‘onistonni to‘laligicha tark etdi.

1989-yil – Sharqiy Yevropa va Bolqon yarimorolidagi mamlakatlarda sotsialistik lager quladi.

1990 -yil – NATO rahbarlari o‘zlarining Londondagi yig‘ilishlarida sovuq urush tugaganligini e‘lon qildilar.

1990-yil 20-iyun – O‘zbekiston Oliy Kengashi “Mustaqillik deklaratsiyasini” e‘lon qildi.

1991-yil 31 avgust – O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligi e‘lon qilindi.

1991-yil dekabr – Belovejskaya Pushcha uchrashuvi.

1991-yil dekabr – MDH tashkil topdi.

1992-yil 2-mart – O‘zbekiston BMTning a‘zosi bo‘ldi.

1992-yil 8-dekabr – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilindi.

1994-yil dekabr – Oliy Majlisga ilk marta partiyaviy muqobilik asosida umumxalq saylovlari o‘tkazildi.

1995-yil – BMTning 50-yillik yubileyida O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov bu xalqaro tashkilotning roli va mas‘uliyatini oshirish tashabbusi bilan chiqdi.

1997-yil – O‘zbekiston rahbari Afg‘oniston masalasi bo‘yicha 6+2 muloqot guruhini tashkil etish tashabbusi bilan chiqdi.

1997-yil – BMT Bosh Assambleyasi “Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli zona yaratish to‘g‘risida”gi rezolyusiyani qabul qildi.

2001-yil iyun – O‘zbekiston ShHTga a‘zo bo‘lib, uning muassisi va teng huquqli qatnashchisiga aylandi.

2001-yil 11-sentyabr – AQShda terrorchilik akti sodir etildi.

2008-yil – O‘zbekiston rahbari Afg‘oniston mojarosini tinch yo‘l bilan hal etish maqsadida BMT shafeligida 6+3 muloqot guruhini tashkil etish tashabbusi bilan chiqdi.

2010-yil aprel – BMT Bosh kotibi Pan Gi Munning O‘zbekistonga tashrifi amalga oshirildi.

FOYDALANGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezident asarlari

- I.1. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. –B.50.
- I.2. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. –B.59.
- I.3. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib –intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.–B.107.
- I.4. Mirziyoev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. –B.491.
- I.5. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. –B.56.
- I.6. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug‘ halqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019. –B.205
- I.7. Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. - Toshkent: O‘zbekiston, 1996. T. 1.
- I.8. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. – Toshkent: Sharq, 1998.
- I.9. Karimov I. A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T., 1997.
- I.10. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent. O‘zbekiston, 2011.

II. Ilmiy tadqiqotlar, monografiyalar, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar

- II.1. Aldrich Richard J. British intelligence and the Anglo-American Special
II.2. Relations' during the Cold War. Review of International Studies, 1998.
- II.3. Anderson, M. S., The Rise of Modern Diplomacy, 1450–1919. Harlow, 1993.
- II.4. Black Jeremy. A History of Diplomacy . London, Reaktion Books Ltd, 2010
- Бисмарк О. Мысли и воспоминания. Т. 1-2-3. –М., 1940–1941.
- II.5. Богатуров А.Д., Аверков В.В. История международных отношений. 1945-2008. М., 2010.
- II.6. Bogaturov A.D. Xalqaro munosabatlar va Rossiya tashqi siyosati: ilmiy nashr. - M.: “Aspekt press” nashriyoti, 2017. B. 30-37.
- II.7. Бажанов Е.П., Бажанова Н.Е. Многополюсный мир. М., 2010.
- II.8. Бережков В.М. Страницы дипломатической истории. 4-ое издание. М., 1987.
- II.9. Буданова В.П. Готы в эпоху великого переселения народов. М., 1990.

- П.10. Дулина Н.А. Османская империя в международных отношениях (30-40-годы XIX века). М.,1980.
- П.11. Jo'raev S. Zamonaviy xalqaro munosabatlar. – Т., 2007.
- П.12. Jo'raev S. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosati va diplomatiyasi. – Т., 2007.
- П.13. Жураев С.А., Касымова Н.А. Актуальные вопросы современных международных отношений. – Т., 2008.
- П.14. Загладин В.Н. Всемирная история. – М., 2006.
- П.15. Zamonaviy xalqaro munosabatlar: darslik / Ed. A.V. Torkunova, A.V. Malgin. - М.: Aspect Press, 2012. S.44-72.
- П.16. Zamonaviy dunyo siyosati: amaliy tahlil / Ed. ed. A. D. Bogaturov. 2-nashr, rev. va qo'shimcha - М.: Aspect Press, 2010. - 592 b.
- П.17. Zamonaviy global muammolar/ Vah. ed. V. G. Baranovskiy, A. D. Bogaturov. - М.: Aspect Press, 2010. - 350 b.
- П.18. Зак Л.А. Монархи против народов. – М., 1966.
- П.19. Загорский А.В. Хельсинский процесс: Переговоры в рамках Совещания по безопасности и сотрудничеству в Европе 1972-1991 гг. М., 2005.
- П.20. Ибрашев Ж. Демократия во Франции (очерки). – Алматы, 2009.
- П.21. Ивонин Ю.Е. У истоков Европейской дипломатии нового времени. Минск,1984.
- П.22. История международных отношений. Основные этапы с древности до наших дней. – М., Логос, 2007. / под ред. Г.В.Каменской, О.А.Колобова, Э.Г.Соловьева.
- П.23. История дипломатии. М.,1959-1963 гг. Т.1; П.
- П.24. Киссинджер Г. Дипломатия. – М., 1997.
- П.25. Kissinger Henry. Diplomacy. Highlighting edition. Simon & Schuster, 1994.
- П.26. Лавренов С., Попов И. Советский Союз в локальных войнах и конфликтах. М, 2003.
- П.27. Лебедева М.М. Мировая политика М., 2003.
- П.28. Манфред А.З. Наполеон Бонапарт. – М., 1972.
- П.29. Мировая политика после 1945 года. Книга 2, М., 2000.
- П.30. Mookerjee, G. K., Diplomacy: Theory and History . New Delhi, 1973.
- П.31. Nazirov B.S., Yaqubova D.T. Yangi va eng yangi zamon davri xalqaro munosabatlar tarixi.Termiz, 2023. Bekshox print servis. – 538 b.
- П.32. Неру Дж. Взгляд на всемирную историю. –Т 1-2-3. М., 1989.
- П.33. Протопопов А.С., Козьменко В.М. Елманова Н.С. История международных отношений и внешняя политика России.– М., 2006.
- П.34. Протопопов А.С., Козьменко В.М., Елманова Н.С. История международных отношений и внешней политики России 1648-2000. М.,

2003.

П.35. Системная история международных отношений. 1918-2003. В четырех томах. Отв. Ред. А.Д.Богатуров. М.,2003.

П.36. Современные международные отношения. М., 2000.

П.37. Созаев Э., Махов С. Схватка двух львов. Англо-голландские войны XVII

века. М., 2011.

П.38. Стародубов В.П. Супердержавы XX века. Стратегическое противоборство. М., 2001.

П.39. Tanin Z. Afg'oniston XX asrda 1900-1996 yu. (fors tilida). – Tehron, 1997.

П.40. Токвиль А. Демократия в Америке. –М., 1992.

П.41. Трухановский В.Г. Уинстон Черчилль. – М., 1977.

П.42. O'zbek diplomatiyasi tarixidan. –Т., 2003.

П.43. Фармонов Р. Развитие общественно-политической мысли в годы Второй Республики (1848-1951). – М., 1992.

П.44. Farmonov R., Sodiqov O. Jahon tarixi (yangi davri – XVII-XIX asrlar.) – Т., 2001.

П.45. Farmonov R., To'laganova N., Jo'raev Q va boshqalar. Zamonaviy siyosatshunoslik: nazariya va amaliyot. – Т., 2008.

П.46. Черчилль У. Вторая мировая война. В трех книгах. –М., 1991.

П.47. Цыганков П.А. Теория международных отношений. М., 2003.

П.48. Xolliev A. Xalqaro munosabatlar va diplomatiya tarixi. – Т., 2014.

П.49. Хидоятов Г.А. Дипломатия XX века. –М., 2010.

П.50. Хидоятов Г.А. История дипломатии. – Т., 2003.

П.51. Хидоятов Г.А., Гуламов Х.Г. Всемирная история. Новейший период. Европа и США после Второй мировой войны (1945-1995 г). – Т., 1999.

П.52. Черкасов П.П. Лафайэт. Политическая биография. – М., 1991.

П.53. Чернявский В. Гиммлер против Гитлера. – М., 2004.

П.54. Шпатов Б. Создание Конституции США и проблемы демократии М., 1977.

П.55. Ergashev Sh. Uch buyuk fransuz. – Т., 2014.

П.56. Etzioni A. Imperiyadan jamoaga: xalqaro munosabatlarga yangi yondashuv / Per. ingliz tilidan. ed. V.L. Inozemtseva. - М.: Ladomir, 2004. - 384 p.

П.57. Yunusov N. Yevropa Ittifoqi huquqi. – Т., 2007.

П.58. Яковлев Н. Дж. Вашингтон. – М., 1973.

MUNDARIJA

Kirish	3
I BO‘LIM. YANGI DAVR XALQARO MUNOSABATLAR TARIXI	
1-§. XVII asrda xalqaro munosabatlar	7
2-§. XVIII asrda xalqaro munosabatlar	38
3-§. XIX asr boshlaridan - XIX asrning o‘rtalarigacha bo‘lgan davrda xalqaro munosabatlar	51
4-§. XIX asrning o‘rtalaridan – Birinchi jahon urushigacha bo‘lgan davrda xalqaro munosabatlar	97
5-§. Birinchi jahon urushining diplomatik tayyorlanishi va urush yillaridagi diplomatik kurash.....	139
II BO‘LIM. ENG YANGI DAVR XALQARO MUNOSABATLAR TARIXI	
6-§. Versal-Vashington tizimi va uning siyosiy oqibatlarini...	161
7-§. XX asr 20-yillarining ikkinchi yarmi va 30-yillarning boshlarida xalqaro munosabatlar	181
8-§. SSSR-Germaniya urushi va «Katta uchlik» orasidagi ittifoqchilik munosabatlari.....	202
9-§. «Sovuq urush» siyosatining vujudga kelishi va Yevropada xalqaro munosabatlarning keskinlashuvi	237
10-§. SSSR-AQSh munosabatlari (70-80 yillar).....	256
11-§. Yaqin Sharqdagi siyosiy inqiroz: kelib chiqishi, asosiy bosqichlari va hozirgi ahvol.....	290
12-§. Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning xalqaro munosabatlardagi o‘rni va roli	349
13-§. Yevropa Ittifoqi va uning xalqaro munosabatlardagi o‘rni.....	394
14-§. XX asrning 90-yillari oxirida xalqaro munosabatlar.....	404
15-§. XXI asr boshlaridagi xalqaro munosabatlar.....	434
Xulosa	487
Glossariy	491
Xalqaro munosabatlar tarixidagi muhim sanalar	500
Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro‘yxati	507

NAZIROV BAXTIYOR SAFAROVICH

**YANGI VA ENG YANGI ZAMON DAVRI
XALQARO MUNOSABATLAR TARIXI.
(darslik)**

“Bekshox print servis” nashriyoti
Termiz – 2024

Bosh muharrir: S.N.Tursunov
Muharrir: B.S.Nazirov
Sahifalovchi: B.S.Nazirov

Nashriyot litsenziyasi № 013751
Bosishga 04.03.2024 yilda ruxsat etildi.
Qog‘oz bichimi 84x108^{1/32} . Ofset qog‘ozi.
Times New Roman garniturasida offset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i 5,5 Adadi 100.
Shartnoma 22-28

“Bekshox print servis” nashriyoti.
Manzil: Termiz shahri “Navbog‘” ko‘chasi, 20-uy.
Tel: (+99891) 972-77-03